

A. N. Radishchev



Peterburgdan
Moskvaga
sayonat

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--

07



821
R 15

50.

Rus adabiyoti durdonalari

ALEKSANDR NIKOLAYEVICH
RADISHCHEV



Peterburgdan
Moskvaga
sayohat

T. 30
Qissa

UO'K 821.161.1-32

KBK 84-445(2Ros=Rus)

R 15

Rus tilidan Shahlo Ahrorova tarjimasi

Radishchev, Aleksandr Nikolayevich *T 30*

R 15 Peterburgdan Moskvaga sayohat [Matn]: qissa / A.N. Radishchev. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2021. – 456 b.


ISBN 978-9943-7333-5-0

Rossiya ozodlik harakati tarixi Aleksandr Radishchev nomi bilan ochib beriladi. Radishchev Rossiyadagi mustabid krepostnoy tizim ziddiyatlarining tub ildizlarini birinchilardan bo‘lib anglab yetdi va ezligan xalq tarafini oldi. U o‘zining «Hurlik» nomli qasidasi bilan inqilobiy ruhiyatdagi she’riyatni boshlab berdi, «Tobolskda istiqomat qiluvchi do’stimga xat», «Fyodor Vasilyevich Ushakovning umr yo‘li» va boshqa maqolalari bilan inqilobchi mutafakkir sifatida namoyon bo‘ldi. Biroq yozuvchining mustabid va krepostnoylik tizimiga bo‘lgan nafrati «Peterburgdan Moskvaga sayohat» asarida yanada kuchli ifoda etilgan va bu asar Radishchevning rus inqilobiy harakatidagi hamda rus adabiyoti tarixidagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatib berdi. Bu «sayohat» yozuvchining turfa ko‘rinishdagi barcha hayotiy tajribalarini o‘zida mujassam etgan, uning bilimlari va qiziqishlarining chinakam ensiklopedik xususiyatini aks ettirgan, o‘ttiz yillik kuzatuvlari, Rossiya voqeliklarining eng turfa tomonlari, jahon va rus tarixi haqidagi mulohazalarini umumlashtirgan.

UO'K 821.161.1-32

KBK 84-445(2Ros=Rus)

ISBN 978-9943-7333-5-0



© A.N. Radishchev, 2021

© Sh. Ahrorova (tarj.), 2021

© «O‘zbekiston» NMIU, 2021

«Maxluq vahshiy, jirkanch, bahaybat, ko‘phalqumli
va xirilloqdir».
«Telemaxida», II jild, XVIII kitob, 514-bayt¹.

A.M.K².
Mening eng aziz do‘stimga.

Aql va qalb nimani yaratishni xohlamasin, o, mening dardkashim, u sen uchun atalgan bo‘lsin. Garchi mening ko‘p narsalar haqidagi fikrlarim senikidan farq qilsa-da, lekin sening yuraging meniki bilan hamohang uradi – zotan sen mening do‘stimsan.

Men atrofimga boqdim – insoniyat azobidan jonim yaralandi. U mening qarashlarimni ichki makonimga aylantirdi va odam baxtsizliklarining kelib chiqishi odamdan, har doim u atrofini o‘rab turgan narsalarga bilvosita qarashidan ekanligini ko‘rdi. O‘z-o‘zimga dedimki, tabiat o‘z farzandlariga nisbatan biroz ziqnalik qilib, adashganlardan mangulik haqiqatini indamay yashirdimi? Yoxud bu shafqatsiz ona o‘gaylik qilib, bizni faqat g‘am-u kulfat uchun yaratdi-yu, baxt va saodat biz uchun hech qachon kelmaydimi? Aqlim bu xayollardan titroqqa tushdi, yuragim esa ularni o‘zidan nariga uloqtirdi. Men inson uchun taskinni uning o‘zidan topdim. «Tabiiy hissiyotlar ko‘zidan pardani olib tashlang – va men shod bo‘laman». Tabiatning bu ovozi mening jussamda baland jarangladi. Meni ta’sirchan va rahmdillikka g‘arq qilgan anduhlarim bag‘ridan sakrab turdim; sarob bilan kurashmoqqa o‘zimda yetarlicha kuch borligini his etdim; va –

¹ Epigraf V.K. Treadovskiyning «Telemaxida» poemasidan (1766) olingen bo‘lib, biroz o‘zgartirilgan. Shoir bu misralarda o‘z hukmronligidan yovuzlarcha foydalangan Rus shohlaridan birini nazarda tutgan. Radishchev bu so‘zlarni Rusning zulmkor mustabid hukumatiga qarshi qo‘ygan (*tarj.*).

² A. M. K. – Radishchevning Leypsig universitetidagi do‘sti, yozuvchi, mason oqimi tarafdori Aleksey Mixaylovich Kutuzov nominining bosh harflari (*tarj.*).

*ta'riflab bo'lmas xushbaxtlik! – men yana his qildimki, har bir sherk o'zi kabilarga yaxshilik qiladigan bo'la oladi (1).*¹ – Bu fikr, siz o'qiyotganingiz, meni yozishga undadi. Ammo dedim yana o'zimga, agar mening o'ylarimni quvvatlaydigan, yaxshi maqsad yo'lida to'g'ri ifodasini topolmagan fikrlarni tanqid qilmaydigan, men bilan birga o'z birodarlar kulfati uchun qayg'uradigan, odimlarimni mustahkamlashda ko'mak beradigan odam topsam, mehnatlarim mevasini ikki barobar ziyod olmaymanmi?.. Nega, nega men uzoqdan kimnidir izlashim kerak? Mening do'stim! Sen mening yuragimga yaqin yashaysan va sening noming bu ibtidoni munavvar etsin.

Jo'nab ketish

Kechqurun do'stlarim bilan taom tanovul qilib bo'lgach, aravaga chiqdim-da, yastanib oldim. Aravakash, odatdagidek, otni shunday qamchiladiki, natijada ot bor kuchi bilan yugurib ketdi va bir necha daqiqa o'tmasdanoq, biz shahardan chiqib ketib ulgurdik. Qisqa vaqtga bo'lsayam, hayotimizning har bir daqiqasi uchun kerakli bo'lib qolgan inson bilan ajralish qiyin. Ha, qiyin; ammo tabassum qilmay vidolasha oladigan kishi baxtlidir; sevgi yoki do'stlik unga taskin beradi. Yupiterguvchiga umid bog'lab, o'kirib yig'lamoq ham baxt. Gohida keljak umidi bilan yashagan inson baxtlidir; orzular ichra yashagan inson xushbaxtdir. Uning siyrati teranlashadi, quvonchlar to'lib-toshadi va xotirjamlik xayol ko'zgulariga shodumonlik tasvirini yoygancha, anduhning xo'mrayishini bosib o'tib ketadi.

Shunday qilib, men aravada yotibman. Qulog'imni bezdirgan pochta qo'ng'irog'ining jiringlashi nihoyat saxovatli Morfeyni² charqirishga muvaffaq bo'ldi. Ayrilig'im qayg'usi chala o'lik holatimga qadar ta'qib etib, meni yolg'izligimning xayollari og'ushiga tashladi. Men o'zimni quyoshning o'tkir tig'idan so'lim yashilligi va rangin jamolini yo'qotgan bepoyon vodiyya ko'rdim; u yerda salqinlanish uchun na bir imkoniyat, jaziramadan o'zni himoya qilish uchun na

¹ *Ta'riflab bo'lmas xushbaxtlik! – men yana his qildimki, har bir sherk o'zi kabilarga yaxshilik qiladigan bo'la oladi (1)* – Mana shu tarzda berilgan jumlalarning izohi qays ichidagi turrib raqami bilan kitobning «Izohlar» deb nomlangan bo'limida keltirilgan (*tarj.*).

² *Morfey* – yunon mifologiya idda uyqu, tush ma'budi nomidan olingan (*tarj.*).

bir daraxt soyasi bor edi. Tabiat bo'shlig'ida tashlandiq va zohid! Titradim.

— Bechora, — faryod urdim men, — qanisan? Seni maftun etgan hamma narsa qayerga yo'qoldi? Hayotingni sen uchun go'zallikka aylantiradigan narsalar qani? Nahotki seni qurshab olgan shodlik faqat tush va xayoldan iborat bo'lgan bo'lsa? Baxtimga, yo'lning o'nqir-cho'nqiridan o'tayotgan arava qalqib ketib, xayollarimdan uyg'otib yubordi. Arava to'xtadi. Boshimni ko'tarib qaradim: bo'mbo'sh kenglikda uch qavatli bino ko'rindi.

- Nima bu? — deb so'radim aravakashdan.
- *Pochta bekati* (2).
- Qayerdamiz o'zi?
- Sofiyada, — shunday deya, u otlarni aravadan chiqara boshladi.

Sofiya¹

Borliq sukunatga cho'mgan. O'z xayollarim bilan bo'lib, aravam allaqachon otlardan ajratib olinganini sezmabman ham. Meni olib kelgan aravakash xayollarimdan olib chiqdi.

- Otaxon, araqqa uzat!

Bu yig'im noqonuniy bo'lsa-da, maxsus yo'llanma qog'ozи asosida yurmaslik uchun, unga jon deb to'lashardi. Yigirma tiyin me ning foydamga ishladi. Pochta aravasida yurgan odam biladi, yo'l uchun himoya xati bor, usiz har qanday hamyon — ehtimol, gene ralniki bundan mustasnodir — qimmatga fushadi. Xuddi, gohida ni shonlari bilan o'zlarini himoya qilib yurganlari kabi, cho'ntagimdan xatni chiqarib oldim.

Pochta komissarini xurrak otib yotgan holda topdim; sekin yel kasidan turtdim.

— Jin urgur! Kimni it quvyapti? Kechasi shahar tashqarisiga chiqishning nima keragi bor? Otlar yo'q; hali juda erta; traktirga kirib, choy iching yoki uxlang. — Shunday deya komissar devor tomonga o'girilib oldi va yana xurrak ota boshladi. Nima qilish kerak? Men yana komissarni yelkasidan turtdim.

¹ Sofiya — Peterburgdan 22 chaqirim narida joylashgan uyezd shahar, 1785-yilda tashkil topgan (hozir — Pushkin shahrining bir qismi).

– Bu qanday balo bo‘ldi! Bir yer yonyaptimi? Aytdim-ku, ot yo‘q, deb! – Komissar mendan yuzini o‘girib, ko‘rpaga burkanib oldi.

«Agar otlarning hammasi tarqaflgan bo‘lsa, – mulohaza qildim men, – komissarning uyqusini buzishim adolatdan emas. Agar otlar otxonada bo‘lsa...»

Men janob komissarning gapi rost ekanligini tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ldim. Hovliga chiqdim, otxonani izlab topdim va unda yigirma-ga yaqin otlarni ko‘rdim; garchi, rostini aytganda, ularning suyak-lari ko‘rinib tursa-da, lekin ular meni keyingi manzilgacha yetka-zib borishga yarardi. Otxonadan chiqib, yana komissarning yoniga qaytdim; bu gal uni anchagina qattiq siltadim. Nazarimda, komissar yolg‘on gapirgani uchun bunga haqli edim. U sakrab o‘rnidan turdi va ko‘zini ochar-ochmas so‘radi:

– Kim keldi? U... – lekin uyqusi ochilib, meni ko‘rdi va dedi: – Aftidan, sen avvalgi izvoshchilarga qanday munosabatda bo‘lganlarini bilasan. Ularni tayoq bilan kaltaklashgan; ammo hozir unaqa emas. – Jahli chiqqan komissar zarda bilan yana o‘rniga yotdi. Aldangan vaqtida ilgarigi izvoshchilar bilan bo‘lgani kabi hozir uni kaltak bilan shunaqangi siylagim keldiki! Lekin shaharlik izvoshchi-ga araq olish masalasidagi qilgan saxiyligim menga tezroq otlarni hozirlash uchun sofiyalik aravakashlarni uyg‘otib berdi. Men komis-sarning yelkasida jinoiy harakatni sodir etish istagida turgan ayni damda hovlida qo‘ng‘iroqcha jiringladi va men komissarga nisbatan marhamatli fuqaroligimcha qoldim. Shunday qilib, yigirma tiyinlik mis chaqa tinchlik tarafdoi bo‘lgan bir insonni jinoyat sodir etish-dan, bolalarimni esa g‘azabni jilovlay bilmaslikning ayanchli oqibati ta’siridan asrab qoldi. Va men aql – besabrlik quli ekanligini angla-dim.

Otlarim yelib borardi; izvoshchim esa, odatdagidek, o‘zining mungli qo‘srig‘ini xirgoysi qila boshladi. Rus xalq qo‘shiqlarining ovozini tanigan odam biladi: ularda ko‘ngil og‘riqlarini ifodalovchi qandaydir ohang bor. Shunday qo‘shiqlar ovozining deyarli ham-masida ohang mana shunday mayin. Xalqning qulog‘iga singib ket-gan bu ohanglarga hukumatning jilovini joriy etib bo‘lmaydi. Bu qo‘shiqlarda xalqimiz ko‘nglining in’ikosini tuyasan. *Rus odamiga boq‘ uni o‘ychan qiyofada ko‘rasan. Agar u ko‘ngil yozmoqchi yoki*

o'zining ta'biri bilan aytganda, xursandchilik qilmoqchi bo'lsa, qovoqxonaga boradi. Bunday xursandchilik kunlarida u mard va jasur bo'lib qoladi (3) hamda janjalkash odamga aylanadi. Agar nimadir ko'nglidagidek bo'lmasa, darrov nizo yoki janjalga kirishadi. *Qovoqxonaga boshini osiltirgancha kirib ketib, u yerdan quloq chakka-siga tushgan tarsakidan yuzlari qontalash bo'lib ketgan holda chi-qib ketadigan burlak.* Bu – mohiyatini Rossiya tarixida hozirgacha ko'pchilik yecha olishi mumkin bo'lgan holat hisoblanadi (4).

Izvoshchim kuylab boryapti. Soat esa tungi uchlarni ko'rsatyapti. Avval qo'ng'iroqcha ovozi edi, endi esa uning qo'shiqlari meni yana tushlarimning og'ushiga tashladi. O, tabiat, inson tug'ilgandanoq, uni g'am choyshabi bilan yo'rgaklaysan, butun umri davomida bechorani qo'rquv, diqqinafaslik va alam tizmalaridan sudrab o'tasan va yupanch sifatida unga tush berib qo'yasan.

Uxlab qoldim va hammasi tugadi.

Uyg'onish – chidab bo'lmas darajadagi baxtsizlik. O, o'lim uning uchun naqadar yoqimli. U barcha anduhlarning nihoyasi.

O, marhamatli Zot! Nahotki o'zining baxtsiz hayotini jasorat ila yakunlayotgan odamdan nigohlaringni uzsang? Bu qurbanlik senga, barcha e兹guliklarning manbayiga keltiriladi. Borliq qaqshab, titroqqa tushganda faqat o'zing unga kuch bera olasan. Bu – bolasini yoniga chorlayotgan otaning ovozi. *Sen menga hayot ato etding, uni o'zingga qaytaraman, bu zaminda endi u keraksiz matohga aylandi* (5).

Tosna

Peterburgdan chiqayotganda yo'llarni ancha yaxshiroq, deb tasavvur qilgandim. Podsho bosib o'tgandan so'ng bu yo'ldan yurganlarning barchasi ham shunday deb o'ylashgan. Birmuncha vaqt mobaynida bu yo'l haqiqatan ham biz o'ylaganimizdek ko'rindi. Havaning quruq vaqtida yo'lga sepilgan tuproq uni tekis holatga keltirgan edi, ammo yoz bo'yi yoqqan yomg'irlar bu tuproqni suyultirib, yo'lni o'tib bo'lmas loy bilan belab tashlagandi...

Yo'lning ahvoldidan tashvishlangancha aravadan tushdim va biroz dam olvolish niyatida pochta binosiga kirdim. Ichkarida esa bir

yo'lovchi diqqatimni tortdi: u oddiy va uzun dehqon stolining oldingi burchagida o'tirgancha, qandaydir qog'ozlarni tartibga keltirar ekan, pochta komissaridan unga tezroq ot ajratishlarini so'radi. Bu kim edi, degan savolimga olgan javobga ko'ra, u juda ko'p eskirib ketgan qog'ozlari bilan Peterburgga yo'l olgan keksa ish yurituvchi edi. Men fursatni qo'ldan boy bermay, uni suhbatga tortdim, mana u bilan bo'lgan suhbatim:

— Muhtaram janob! Kaminayi qulingiz harflarning *razryad arxivida* (6) qayd etuvchi — registrator bo'lib ishlaganman, ish o'rnimdan o'zim uchun juda ko'p ma'lumotlar olishga erishganman. Mashaqqatli mehnatim natijasi o'laroq, juda ko'p *rus nasablarining kelib chiqish shajarasini* (7) aniq manbalar asosida o'rgandim. Men knyazliklarning yoki ular oliy nasabining bir necha yuz yillar ilgari dan kelib chiqishini isbotlay olaman. Knyazlik darajasida ko'p uch-raydigan va kelib chiqishi Vladimir Monomax yoki Ryuriklarning o'zidan bo'lgan nasabni tiklayman.

— Janobi oliylari! — davom etdi u o'z qog'ozlariga ishora qilib. — Barcha buyuk rus dvoryanliklari har qanday tovar narxidan ham ziyoda bo'lgan qiymatda mehnatim samarasini sotib olishga burchli bo'lgan bo'lardilar. Ammo sizning oliy nasabingiz, yuqori nasa bingiz yoki yuqori oliy nasabingiz ruxsati bilan — sizning sharifingiz dan xabardor emasman — ular o'zlariga nima kerakligini bilmaydilar. Ma'lumingizkim, xudo rahmat qilgur *podsho Fyodor Alekseyevich kelib chiqish nasabiga qarab tayinlash qoidasini tugatib, juda ko'p zodagonlarni ranjiti* (8). Yangi o'rnatilgan qat'iy qonun-qoidalari haqiqiy knyaz va shohlarning avlodidan bo'lgan zodagonlarni Novgorod dvoryanligiga¹ tenglab qo'ydi. Ammo marhamatli podsho imperator Buyuk Pyotr o'zining *unvonlar ro'yxati* (9) bilan ularni esdan og'ish darajasiga olib borib qo'ydi. U harbiy va fuqarolik xizmati orqali dvoryanlik unvonini sotib olish uchun yo'l ochib berdi va qadimiyligi dvoryanlikni, aytish mumkinki, yerga toptab tashladi. Hozir esa, hukmronlik taxtidagi muhtaram onaxonimiz dvoryanlik unvoni

¹ Novgorod dvoryanligi o'zining nasabnomasini Ivan Grozniy tomonidan Novgorodning tor-mor etilishidan so'ng yuritgan va o'zini boy hisoblamagan (*tarj.*).

to‘g‘risidagi qadimiy qonunlarimizni tasdiqladi¹. Bu masala barcha yoshi ulug‘larimizni jiddiy tashvishga solgandi, negaki, *qadimiy nasablar dvoryanlik kitobida qayd etishda hammadan pastga tushib ketgandi* (10). Biroq eshitishimga qaraganda, nasl-nasabi o‘z kelib chiqishi bo‘yicha ikki yuz yoki uch yuz yilga borib taqalishini isbotlagan odamlar uchun qo‘srimcha farmon chiqar ekan, ularga markiz yoki shunga o‘xhash yuqori darajadagi unvon berilib, ular boshqa nasabli zodagonlar oldida birmuncha afzalliklarga ega bo‘lar ekanlar. Ana shu sabablarga ko‘ra, muhtaram janob, mening mehnatim natijalari nasabi qadimiy bo‘lgan barcha zodagonlar uchun anchayin yaxshi tuhfa hisoblanadi; ammo guruch ham kurmaksiz bo‘lmaydi.

Moskvada men *yosh janoblar guruhiqa qo‘silib qoldim* (11) va ularning xayrixohligi ila sarflagan qog‘oz va siyoh haqini chiqarish uchun, ularga mehnatim natijasini taklif qildim; ammo meni quvvatlash o‘rniga ularning kulgisiga qoldim. Ko‘nglim og‘ridi va poytaxtni tashlab, nisbatan ma’rifat yuqori, deb sanalgan Piter sari yo‘l oldim.

Shunday deya, uning ikkala qo‘li ta’zim qildi va ular oldinga cho‘zilib, yo‘lovchi ehtirom ila ro‘paramda o‘rnidan turdi. Men uning fikrini tushundim, karmonimdan pul chiqardim... va unga bera turib, Peterburgga yetib borgach, qog‘ozlarini og‘irligi bilan hisoblab, bu mahsulotni qog‘ozga o‘rab tarqatuvchilarga sotishni maslahat berdim; yo‘qsa, bu mavhum markizlik g‘oyalari ko‘pchilikning boshini aylantirishi mumkin edi va bu Rossiyada yo‘q qilingan yovuzlik – qadimgi nasl bilan maqtanishning tiklanishiga sabab bo‘lardi.

Lyubani

Qishda bordimmi yoki yozda, menimcha, buning sizga farqi yo‘q. Ehtimol, qishda ham, yozda ham borgandirman. Bu hol sayo-hatchilarda ko‘p uchraydi: chanada borib, to‘rt g‘ildirakli aravada qaytib kelishadi. Yozda edi. Yog‘och qipig‘i to‘shalgan yo‘l yon-boshimni og‘ritib yubordi; aravadan tushib, piyoda ketdim. Arava-da yotganimda, fikrlarim cheksiz dunyoga yo‘naldi. Ruhan yerdan

¹ Yekaterinaning yer egalari imtiyozlarini butunlay kengaytirib yuborgan «dvoryanlikning imtiyoz huquqlari to‘g‘risidagi yorliq» (1785-y.)da asilzoda dvoryanlar haqidagi bo‘lim qanoatlantirilmagan (*tarj.*).



uzildim va aravaning siltashi yengillashganday bo‘ldi. Ammo ruhiy mashqlar har doim ham jismoniy holatdan chalg‘itmaydi; yonboshimni avaylash uchun piyoda yura boshladim. Yo‘ldan bir necha qadam narida dalani shudgor qilayotgan dehqonga ko‘zim tushdi. Kunning qaynab turgan vaqt edi. Men soatimga qaradim. Birdan qirq daqiqa o‘tyapti. Men shanba kuni yo‘lga chiqqandim. Bugun bayram. Shudgor qilayotgan dehqon, albatta, undan *obrok* (12) olmaydigan pomeshchikka tegishli. Dehqon astoydil va tirishib ishla-moqda edi. Dalaning esa, albatta, xo‘jayini yo‘q. Dehqon omochni hayratlanarli darajada ustomonlik bilan boshqarardi.

– Xudo qo‘llasin, – dedim men to‘xtamasdan, bo‘liq jo‘yakda boshlagan ishini tugatayotgan qo‘sh haydovchiga. – Xudo yorlaqas-in, – dedim takroran.

– Rahmat, otaxon, – javob berdi qo‘sh haydovchi omoch tishini siltab, yangi jo‘yakka to‘g‘rilaganicha.

– Yakshanba kuni ham qo‘sh haydashingga qaraganda, *sen ras-kolchisan* (13).

– Yo‘q, otaxon, men xoch bilan cho‘qintirilganman, – dedi u birlashtirilgan uchta barmoqni ko‘rsatib. – Xudo mehribon, u oilang va bilakda kuching bo‘la turib, ochdan o‘lishga buyurmagan.

– Mehnat qilishing uchun butun bir hafta yetmaydimi? Yakshanba kuniyam, boz ustiga tushning qoq qizig‘ida, shunday issiqda ham ishlashing shartmi?

– Haftada, otaxon, olti kun bor. Biz haftada olti marta barshchinaga¹ boramiz. Kechqurunlari esa, havo yaxshi bo‘lsa, o‘rmonda qolgan pichanni xo‘jayinning hovlisiga tashiyimiz. Xotin-qizlarimiz bayram kunlari qo‘ziqorin yo meva terish uchun o‘rmonga borishadi. Ey, Xudo, – cho‘qinib oldi u, – iloyim, bugun yomg‘ir yog‘sin. Otaxon, agar sizning yigitlarining bo‘lsa, aytинг, ular ham Xudodan shuni so‘rab, duo qilishsin.

– Menda, do‘srim, yigitlar yo‘q, sen so‘ragan narsani iltijo qiladigan. Oilang kattami?

– Uch o‘g‘il va uch qizim bor. To‘ng‘ichim endi o‘nga kirdi.

¹ *Barshchina* (krepostnoylik davrida) – pomeshchik foydasiga tekin ishlab berish (*tarj.*).

- Modomiki, faqat bayram kunlari dam olar ekansan, qanday non topib ulguryapsan?
 - Nafaqat bayramlar, tunlar ham o'zimizniki. Dangasa bo'lmasang bo'ldi, ochdan o'lmaisan. Ko'ryapsizmi, bitta ot dam olyapti. Bunisi charchasa, ikkinchisiga almashtiraman. Ana shunaqa gaplar.
 - O'zingning xo'jayiningga ham shunday ishlaysanmi?
 - Yo'q, otaxon, bunday ishlasak, gunoh bo'lardi. Uning yerida bitta og'iz uchun yuzta qo'l ishlaydi, menikida esa ikkita qo'l yetti og'iz uchun. Qolganini hisoblab olavering. Xo'jayinlar joningni berib ishlasang ham rahmat deyishmaydi. Xo'jayin ustama to'lamaydi, na qo'y, na bo'z, na tovuq va na go'shtning narxidan o'tadi. Hayotimiz xo'jayin qancha obrok olishiga bog'liq, boz ustiga ish boshqaruvchisiz.
- To'g'ri, gohida ba'zi insofli to'ralardan jon boshiga uch so'mdan oladiganlari ham bor, ammo hamma xo'jayinni ham yaxshi, deb bo'lmaydi. Hozir shunday gaplar yuribdi, qishloqni, nima deyilardi, haligi, ijaraga berish to'g'risida. Bizda buni *jon boshi hisobiga* (14) berish, deyiladi. *Ijarachi mujiklarning terisini shilvoladi* (15), hatto teshiginiyam o'zimizga qoldirmaydi. Qishda kirakashlik qilishinga ham, yo shaharga borib biror yumush bilan shug'ullanishga ham qo'yishmaydi. Hammamiz uning uchun ishlashimiz kerak, u esa bizning jon boshimizga ijara puli to'laydi. O'z dehqonini begonaga berish – bu o'ylab topilgan eng ahmoqona ishlardan biri. Betayin ish boshqaruvchi ustidan arz qilishing mumkin, ammo ijarachi ustidan kimga arz qilasan?
- Do'stim, sen adashyapsan. Odamlarni azoblash qonun bilan taqiqlangan.
 - Azoblash? To'g'ri, siz mening terimni xohlamaysiz, albatta. Shunday deya qo'sh haydovchi omochga boshqa otni qo'shdi-da, men bilan xayrashib, yangi egatni shudgorlashga kirishdi.
- Bu dehqon bilan bo'lgan suhbat menda bir qancha fikrlarni uyg'otdi. Birinchi fikr dehqonlar holati o'rtasidagi notenglik haqida edi. Hukumat dehqonlari bilan pomeshchik dehqonlarini solishtirdim. Har ikkisi ham qishloqda yashashadi; ammo *birining to'lovi aniq* (16), ikkinchisi esa xo'jayin qancha istasa, shuni to'lashga tay-

yor turishi kerak. *Biri o'z tengi bilan da'volasha oladi* (17), ikkinchisi esa jinoiy ishlar bo'yicha o'lik qonunlar bilan yashaydi. Jamiyat a'zosining borligi uni qo'riqlaydigan hukumatga, qachonki ijtimoiy ittifoq buzilganda, yovuz odamga aylangandagina ma'lum bo'ladi!¹ Bu fikr tanamdag'i qirq tomirimda qon birla oqa boshladi.

Ogoh bo'l, tosh yurakli pomeshchik, dehqonlaringning har birining manglayida sening hukmingni ko'ryapman.

Bu o'ylarga chuqur kirib borarkanman, nogahon nigohim ro'paramda, arava ustida o'tirib, u yondan bu yonga chayqalib borayotgan xizmatchimga tushdi. Shu tobda tomirimda oqayotgan qonim muzlab qolganini his qildim va taftni yuqoriga haydab, yuzimga qalqib chiqishiga majbur etdim. Shunda siyratimdan uyalib ketdim, yig'lab yuborishimga sal qoldi.

– Sen o'z nafratingni, – dedim o'zimga o'zim, – o'z dasida dehqonning tinka-madorini quritgan takabbur janobga yo'naltirding; o'zing-chi, o'shandaylardan biri emasmisan? Balki undan ham battaroqdirsan? Sening sho'rlik Petrushkang nima jinoyat sodir etdiki, uni barcha kulfatlardan chalg'ituvchi, tabiatning bechoralarga bergen oliv ne'mati hisoblangan uyqudan mosuvo etsang? «U haqini oladi, usti but, qorni to'q, hech qachon qamchi yo gavron bilan savalamayman (O, xolis odam!)», sen o'ylaysangi, bir burda non va juldur kiyim o'zingga o'xshagan jonzotni xohlagan ko'yingga solishga huquq beradi, boz ustiga uning gardaniga hamisha ham tushiravermasligingdan maqtanib ham qo'yasan. Sen, avvalo, har bir insonning yuragida bitilajak tabiiy qonunlardan xabardormisan? Agar men kimnidir ursam, u ham menga qo'l ko'tarishi mumkin. O'sha kunni esla: Petrushka mast bo'lgani uchun seni kiyintirishga ulgurmadi. Unga tarsaki tushirganiningni esla. Ha, u o'shanda, hatto mast bo'lsa ham, hushini yig'ib oldi va sening har bir savolingga munosib javob bera oldi!

- Kim senga unga xo'jayinlik qilish huquqini berdi?
- Qonun.
- Qonun? Sen bu muborak nomni haqorat qilishga botinyapsanmi? Bechora...

¹ Radishchev o'n sakkizinchasi asrning boshqa faylasuflari singari, davlat odamlarning ixtiyoriy kelishuvi asosida tuziladi, deb hisoblagan (*tarj.*).

Yoshlarim ko‘zimdan oqib chiqdi; mana shu holatda pochta qir-chang‘ilari meni keyingi bekatga olib borishdi.

Chudovo

Pochta kulbasiga kirib ulgurmasimdanoq, tashqarida pochta qo‘ng‘irog‘ining jiringlaganini eshitdim va bir necha daqiqa o‘tib, binoga *birodarim Ch. (18)* kirib keldi. Men uni Peterburgda qoldir-gandim, og‘aynim esa u yerdan shu qadar tez chiqib ketishni xayoli-ga ham keltirmagan. Bo‘lib o‘tgan alohida bir hodisa birodarimdagи cho‘rtkesarlik fe’lini Peterburgdan chiqib ketish darajasida uyg‘otib yuborgan. U menga quyidagilarni so‘zlab berdi:

— Men Petergofga yo‘l olganimda sen ham jo‘nab ketishga shay turganding. Men u yerda bayramlarni qancha kayf-safo va xursand-chilik bilan o‘tkazish mumkin bo‘lsa, o‘sha darajada nishonladim. Biroq sayohatimni o‘z foydamga burish niyatida Kronshtat va Sisterbekka¹ yo‘l olishni ixtiyor etdim. Chunki keyingi vaqtarda u yerlarda katta o‘zgarishlar amalga oshirilganini aytishgandi. Kronshtatda ikki kun judayam maza qilib yashadim. Chet el kemalarining ko‘pligini, Kronshtat qal‘asining tosh kiyimlarini, juda tez sur‘at bilan ko‘tarilib borayotgan qurilishlarni zavq bilan tomosha qildim.

Yangi Kronshtatni qurish rejasiga qiziqib qoldim va qurilishi mo‘ljallangan inshootlarning go‘zalligini zavq bilan o‘rganib chiq-dim; bir so‘z bilan aytganda, bu yerda o‘tgan ikkinchi klinik ham quvnoq va yoqimli tarzda yakun topdi. Tun osuda va oydin edi, havo ham o‘ziga xos yoqimliligi bilan nafis hissiyotlarga yo‘g‘rilib ketardi. Buni tasvirlashdan ko‘ra his qilish osonroq. Men tabiatning bu go‘zal ne’matidan foydalanib, suv yuzasi gorizontidan quyosh chiqib kelishining ulug‘vor ko‘rinishidan bir marta, ehtimol hayotimda bir marta bahramand bo‘lmoqchi bo‘ldim, zero menga hali bunday go‘zallikni ko‘rish nasib etmagan edi. Men o‘n ikki eshkakli dengiz qayig‘ini ijara va S... tomonga haydab ketdim.

Taxminan to‘rt chaqirimcha yaxshi suzdik. Eshkaklar eshilishi-ning bir maromdagи ovozi meni mudrata boshladi, eshkak suvdan ko‘tarilgan vaqtda undan tomadigan suv tomchilaridagi bir lahzalik

¹ Sisterbek – Sestroretsk (*tarj.*).

tovlanshni g'ira-shirada ko'z arang ilg'ardi. She'riy tasavvur alla-qachon meni *Pafos va Amafont* (19) o'tloqlariga yetaklab ketgandi. Shu tobda shamolning to'satdan eshitilgan baland hushtagi meni uy-qudan uyg'otib yubordi va og'ir nigohim quyuq bulutlarni ilg'adi. Qoraygancha, bostirib kelayotgan bu bulutlar go'yo yaqinlashgach, boshimizga to'kilib tushadiganday edi. Suvning oyna yanglig' yuzasi mayjiana boshladи, jimlik o'mini to'lqinlarning shovullashi egalladi. Men bu manzaradan maftun edim: tabiatning ulug'vor qudratini tomosha qilarman, hech bir manmanliksiz e'tirof etamanki, boshqalarni qo'rquvga sola boshlagan bu manzara mening kayfiyatimni ko'tarib, xursand qila boshladи. Xuddi *Vernet* (20) kabi, har zamonda: Oh, qanday yaxshi! – deya xitob qilib qo'yardim.

Ammo shamol kuchaygandan kuchayib borarkan, ko'ngilga qirg'oqqa tezroq yetib olish tashvishini sola boshladи. Osmon quyuq va qora bulutlar bilan butkul qoplanib oldi. To'lqinlarning kuchli mavji ruldan boshqaruvni oldi, shiddatli shamol esa goh bizni to'lqinlarning ho'l o'rkachlari bag'riga otar, goh to'lqinlar hosil qilgan qoyasimon, tik chuqurlar quchog'iga tashlar, eshkak eshuv-chilarning olg'a ketishiga qo'ymay, kuchlarini olib qo'ygandi. Tavakkal qilib, shamol oqimiga ixtiyorimizni tashlashga majbur bo'ldik. Endi qirg'oqlarni ham xavf bosdi, bizning omon-eson suzib kelishimizga bo'lgan yupanch umidsizlikka aylana boshladи. Tabiat bizga hasad qilayotgandi go'yo, biz endi chaqmoq chaqib, momaqaldiroqning gumburlagan ovozi bilan o'z qudratini namoyon qilayotgan tabiatdan g'azablanayotgan edik. Ammo inson hayotining so'ngigacha hamroh bo'ladigan umid bizni birlashtirdi, qancha imkonimiz bo'lsa, shuncha bir-birimizga dalda bera boshladik.

Kutilmaganda po'rtanalar qayig'imizni bir joyga mixlab qo'ydi. Bizning hamjihatlikdagи barcha kuchimiz ham uni to'xtab qolgan joyidan qo'zg'atishga yetmadi. Qayig'imizni, o'z o'yimizcha, sayozlikdan sudrab chiqishga harakat qilar ekanmiz, shamol deyarli to'xtaganini sezmay qolibmiz. Osmonning ko'k tusini qoplab olgan bulutlar asta-sekin tarqay boshladи. Quyoshning chiqishi esa bizga zavq berish o'rniga ko'z o'ngimizga halokatli holatimizni namoyon qilib berdi. Va bizga aniq bo'ldiki, qayig'imiz umuman sayozlikka chiqib qolmagandi, u ikkita katta tosh orasiga botib qolgandi. Yana

shu narsa aniq ediki, hech qanday kuch qayig‘imizni u yerdan olib chiqa olmasdi.

Tasavvur qil, do‘stim, o‘sha vaqt dagi holatimizni, hozir qanday ta’riflamay, hammasi o‘sha paytdagi hissiyotlarimga nisbatan zaiflik qiladi. Va agar men qalbimning har bir harakatiga yetarlicha xususiyatlarni ato eta olsam ham, ular o‘sha paytda paydo bo‘lgan va mening qalbimda gavjumlashgan tuyg‘ularga o‘xhash narsalarni yaratish uchun ojizlik qilgan bo‘lar edi. Qayig‘imiz S...gacha cho‘zilib ketgan ko‘rfaz oxirida, toshlar orasida turardi. Biz qирг‘оqдан bir yarim chaqirim uzoqda edik. Qayig‘imizga har tarafdan kira boshlagan suv butkul cho‘kib ketish xavfini tug‘dira boshladi. Yorug‘lik bizni tark eta boshlagan va abadiyat sari yo‘l tutgan vaqtimizning oxirgi soatlarida insoniyat o‘zi uchun o‘ylab topgan barcha darajalar tenglashadi. Odam shunchaki odam bo‘lib qoladi: demak, oxiratimiz yaqinlashayotganini ko‘rgach, hammamiz darajamizni va kim bo‘lganimizni unutdik va o‘zimizni qutqarish haqida o‘lay boshladik. Har birimiz, kimga qanday qulay bo‘lsa, imkon qadar qayiqqa to‘layotgan suvni to‘ka boshladik. Ammo bundan qanday ham naf bo‘lardi? Kuchlarimizni birlashtirib, qancha suvni chiqarib tashlasak, o‘rniga lahzada yana shuncha suv kirib ulgurardi. G‘am ustiga chipqon, deganlaridek, na yaqinda va na uzoqda birorta qayiq yoki kema ko‘rinardi. Bitta-yarim ko‘rinib qolib, ko‘nglimizga bir dam yorug‘lik olib kirgani ham, u bizga qismatdosh bo‘lishdan qochganday, asta-sekin ko‘z oldimizdan uzoqlashib ketardi.

Va nihoyat, boshqalarga nisbatan dengizda sodir bo‘ladigan xavf-xatarlarga ko‘nikkan, Arxipelagda, *turk urushida bo‘lgan turli dengiz janglarida* (21) o‘limnga ham sovuqqonlik bilan tik qaragan va ehtimol shu sababdan tavakkalchilikka moyil bo‘lgan qayiq boshqaruvchisi yo o‘zi bilan birga bizni ham qutqarishga, yo ezgu maqsad yo‘lida jon fido qilishga qaror qildi. Yoki hammamiz bir joyda qolib, halok bo‘lishimiz kerak edi. U qayiqdan chiqib, toshdan toshga o‘tib, qирг‘оq tomon yura boshladi, biz esa uni yurakdan duo qilib turardik. Avvaliga u yo‘lini bardamlik bilan boshladi: toshdan toshga sakrab, sayoz joyida suvni kechib, chuqurroq joyidan esa suvdan suzib o‘ta boshladi. Biz esa uni bir nafas ko‘zdan qochirmas edik. Nihoyat, uning kuchi zaiflasha borayotganining guvohi bo‘ldik: u

endi toshdan toshga sekinlik bilan o'tar, tez-tez to'xtab qolar, tosh ustiga dam olish uchun o'tirardi. Gohida u bizga yo'lini davom et-tirish fikridan qaytib, o'ylanib qolgandek ko'rinaridi. Bu esa qayiq-dagilardan yana birida jur'at uyg'otdi, u agar qirg'oqqacha yetib borishga madori yetmay qoladigan bo'lsa, do'stiga yordam berish uchun yoki birinchisi muvaffaqiyatsizlikka uchrasa bunisi qirg'oqqa chiqish uchun uning izidan ketdi. Nigohlarimiz goh unisiga, goh bu-nisiga o'tarkan, astoydil duo qilishdan charchamasdik.

Nihoyat, mo'jisaziz *dengiz girdobidan olib o'tuvchi bu Muso* (22) taqlidchilarining ikkinchisi toshning ustida harakatsiz to'xtab qoldi. Birinchisi esa butunlay ko'zdan yo'qoldi.

Hozirgacha ichda saqlangan, agar aytish mumkin bo'lsa, vahima bilan yo'g'rilgan har bir harakat umid yo'qola borgan sari yuzaga chiqqa boshladni. Bu orada qayiqda ham suv ko'payib borar, suvni to'kishga sarflagan mehnatimiz esa bizni tobora toliqtirardi. Fe'li tez va besabr xilidagilar sochini yuldi, barmog'ini tishladi, yo'lga chiqqan onini la'natladi. Qo'rroqroq va hissiyotga beriluvchanlari esa o'kirgancha, mukka tushib, peshanalarini urayotgan kursilarini ko'z yosh bilan yuvishdi. Yana biri toshday qotib o'tirgancha, uyi, xotini va bolalarini esladi, o'zining emas, ularning hayoti to'g'risida qayg'ura boshladni, negaki, oila a'zolari uning mehnati bilan kun ko'rardilar.

Mening ko'nglimdan nimalar kechganini o'zing top, do'stim, chunki sen meni yaxshi bilasan. Senga faqat shuni aytaman: men tinimsiz Xudoga nola qildim. Nihoyat, biz barchamiz tushkunlikka tusha boshladik, negaki qayig'imizning yarmidan ko'prog'i suvg'a to'lgan, biz tizzamiz bilan suvda turardik. Qayiqdan chiqib, toshlar oralab qirg'oq sari yurish haqida ham ko'p fikrlashdik, biroq ketgan sherigimizdan birining bir necha soatdan beri tosh ustida o'tirgani va ikkinchisining ko'zdan g'oyib bo'lgani qayiqdan ketishning ehtimol, bundan ham ko'ra xatarliroq ekanini ko'rsatib turardi. Mana shunday alamli o'ylar iskanjasida bizga qarama-qarshi tarafdag'i qirg'oq yaqinida, bizdan oraliq masofasi qancha ekanini aniq aytolmayman, suvda ikkita qora dog' qo'zg'alganini ko'rdik. Ko'zimiz ilg'agan va harakatlanayotgan ikkita qora dog' asta-sekin kattalasha boshladni. Nihoyat ular yaqinlashdi va ko'z oldimizda ikkita kichik qayiqlar

namoyon bo'ldi; ular aynan biz alam ichida va undan yuz marta ko'proq umid bilan qarab turgan tomonga suzib kelardi.

Xuddi umuman yorug'lik kirmaydigan qorong'i xonaga birdan eshik ochilib, o'qday uchgancha kunning nuri kirib kelganday va u xonaning eng so'nggi burchaklari qadar yetib borib, zulmatni si-qib chiqarganday, qayiqlarni ko'rgandan so'ng qutqarilishimizga bo'lgan umid nuri ko'nglimizga oqib kirdi. Umidsizlik quvonchga, g'am hayajonga aylandi, shunchalar terimizga sig'masdikki, shodlikdan qilgan harakatlarimiz, suvni shaloplatishlarimiz bizni qutqarishlaridan oldin quvongandan o'lib qolishimizga sabab bo'lishi mumkin edi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Ammo umid tirik holda yuragimizga qaytdi va darajamiz farqi to'g'risidagi xatarli onlarda uyquda bo'lgan fikrlarni uyg'otdi. Lekin bu gal u umumfoyda uchun xizmat qildi. Men ko'proq ziyonga ishlaydigan oshiqcha quvonch va hayajonlarni chekladim.

Birmuncha vaqt o'tib, bizga yaqinlashib kelayotgan ikkita katta baliqchi qayiqni ko'rdik, bizgacha yetib kelmasdanoq, ularning biderida tosh qatorlaridan qirg'oqqa qadar o'tib borgan, bizni muqarrar halokatdan asrab qolish uchun ularni izlab topgan najotkorimizga ko'zimiz tushdi. Biz shoshib-pishib qayig'imizni tark etdik va bizga yaqinlashib kelgan qayiqlar tomon suza boshladik. Yo'lida najotkorimiz ortidan ketgan va tosh ustida yetti soatdan mo'lroq o'tirgan sheringimizni ham olishni unutmadi. Yarim soat o'tar-o'tmas, bizning yengillashgan qayig'imiz suv yuziga chiqdi va butunlay parchalanib ketdi. Qirg'oq tomon quvonch va hayajon bilan suzib borarkanmiz, Pavel – najotkor hamrohimizni shunday atashdi – bizga quyidagilar ni so'zlab berdi:

– «Men sizlarni muqarrar xatar yonida qoldirib, toshlar oralab qirg'oq tomon shoshdim. Sizlarni qutqarish istagi menga g'ayrioddiy kuch ato etdi; biroq qirg'oqqacha yuz sarjinlar¹ qolganida, kuchim zaiflasha boshladidi. O'zimning hayotim va sizlarni qutqarish borasida umidsizlikka tusha boshladim. Biroq toshda yarim soatcha yotgach, o'rnimidan tetik bo'lib turdim va boshqa dam olmasdan, qirg'oqqacha emaklab ketdim. Yetib borgach, o't ustida cho'zilib qoldim. O'n daqiqacha dam olgach, o'rnimidan turdim va

¹ Sarjin – 1,83 m.



bor kuchim bilan qirg'oq bo'ylab S...ga yugurib ketdim. Juda ko'p kuch sarflashga to'g'ri kelsa-da, xayolimda sizlar bo'lganingiz bois, ko'zlangan manzilgacha to'xtamadim. Menimcha, Yaratgan sizning chidamingizni va mening sabrimni sinab ko'rmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak. Yo'qsa, men na qirg'oq bo'yini, na S...ning o'zini va sizni qutqarish uchun na birorta qayiqni topgan bo'lardim. Salkam umid-sizlik holatiga tushgandim va men, hech kimdan *o'sha yerning boshlig' ichalik* (23) yordam ololmayman, deb o'yladim. Shu xayol bilan uning uyi tomon yugurib ketdim. Soat yettiga qarab ketgandi. Oldingi xonada jamoa serjantini uchratdim. Unga qisqacha nega kelganim va sizlarning holatlaringiz haqida so'zlab berdim va hali uxlab yotgan boshliqni uyg'otib berishni so'radim. Janob serjant menga dedi:

– Do'stim, men bunga jur'at qilolmayman.

– Qanday jur'at qilolmaysan? Yigirma nafar odam cho'kay deganda, sen qutqarishi mumkin bo'lgan odamni uyg'otishga jur'at qilmaysanmi? Sen, ishyoqmas, aldayapsan. O'zim uyg'otaman...

Janob serjant yelkamdan beadablarcha ushlab, eshikdan itarib yubordi. Alamdan yorilib ketay, dedim. Biroq sizning xavf ostida ekaningiz mening ranjiganim-u, toshyurak boshliq va uning serjantidan ko'proq xayolimda edi. Meni itarib chiqarishgan la'nati uydan ikki chaqirim oralig'idagi qorovulkxonaga yugurib ketdim. Bu yerda yashaydigan askarlarda qayiq borligini bilardim. Ular shu qayiqlarda ko'rfa bo'ylab suzib, ko'prik uchun chag'irtoshlarni yig'ib soitshardi. Umid qilganim to'g'ri chiqdi. Ularning ikkita uncha katta bo'limgan qayig'ini topdim, quvonchim ichimga sig'masdi, chunki siz qutqarilar edingiz. Agar cho'kib ketsangiz, men ham ortingizdan o'zimni suvg'a tashlagan bo'lardim».

Shularni ayta turib, Pavel yig'lab yubordi. Shu orada biz qirg'oqqa yetib keldik. Qayiqdan tushiboq, cho'kka tushdim va qo'llarimni ko'kka ko'tardim.

– Ey, hammadan ham Qudratli Zot! – nola qildim men. – Sening izming bilan hayotmiz; sen bizni sinovlarga qo'yding, sening irodang bilan bo'lsin.

Mening his qilganlarim – mana shu zaif tasvirlardir, aziz do'stim. Oxirgi soatlarning dahshati qalbimni teshib yubordi, men yo'qlik sari ketayotgan lahzani ko'rdim. Nima bo'lardim? Bilmay-

man. Qo‘rqinchli mavhumlik. Endi his qilyapman: soat chiqillayapti; men o‘lganman; hayot, hissiyotlar, fikrlar – hammasi bir lahzada g‘oyib bo‘ladi. Tasavvur qilib ko‘r-a, do‘stim, tobut chetida, qoningda oqayotgan razolatni, so‘nib borayotgan hayotni his etmaysan. O, do‘stim!

Lekin men hikoyachimdan uzoqlashdim.

Ibodatimni tugatgach, qalbimga yorug‘lik kirib keldi. Shunday bo‘lishi mumkinmi, dedim o‘zimga o‘zim, bizning asrimizda, Yevropada, shundoqqina poytaxtning yonida, buyuk podsho ko‘z oldida shu darajada g‘ayriinsoniylik ro‘y berishi mumkinmi! Men Bengal subobi zindonidagi ingliz mahbuslarini esladim.

Angliyaliklar o‘z homiyiliklariga Kalkuttada ularga murojaat qilgan, poraxo‘rligi uchun o‘limga hukm qilingan bengallik amaldorni qabul qiladilar. Haqiqatda g‘azablangan Hind provinsiyasi hukmdori – subob qo‘sish to‘plab, shaharga kiradi va uni olishga muvaffaq bo‘ladi. Ingliz mahbuslarini u qorong‘i zindonga tashlashni buyuradi va mahbuslar yarim sutka ichida vafot etadilar. Ulardan faqat yigirma uch kishi omon qoladi. Bu bechoralar o‘z ahvollari haqida hukmdorga xabar olib borish uchun qo‘riqchilarga juda katta pul va‘da qiladilar. Ularning oh-faryodi va zorlanishlari ularga xayrixoh bo‘lgan xalqqa yetib boradi, biroq hech kim bu haqida hukmdorga yetkazishni istamaydi. «U dam olyapti» – o‘layotgan ingliz mahbuslariga shunday javob yetkazishadi. Va *Bengaldagi biror inson yuz ellik nafar bebaxt mahbuslarning hayotini saqlab qolish uchun zolim hukmdorning uyqusini bir lahzaga buzishni xayoliga keltirmaydi* (24).

Xo‘sh, zulmkor kim o‘zi? Yoki, ayniqsa, zulmga ko‘nikib qolgan xalq-chi? Uning egiluvchanligini og‘irlashtiradigan narsa qo‘rquvmi yoki oshiqcha hurmat ko‘rsatishmi? Agar bu qo‘rquv bo‘lsa, u Xudodan ham dahshatli, chunki jabrdiyda Xudoga ibodat qilishi yoki kecha-yu kunduz unga shikoyat yo‘llashi mumkin. Agar bu oshiqcha izzat-ikrom bo‘lsa, unda o‘z baxtsizliklari yaratuvchisini izzatlashdan uyg‘otish mumkin; xurofot ila amalga oshishi mumkin bo‘lgan mo‘jiza. Nimadan ko‘proq ajablanish kerak: uxlayotgan hukmdorning vahshiyligigami yoki uni uyg‘otishga jur‘at etmagan razillik-kami?

Ich-ichimdan chuqur nafas oldim.

Bu orada biz S...ga yetib bordik. Mening o'ylashimcha, boshliq uyg'ongach, serjantiga tanbeh beradi va suvda qolganlarga hech bo'lmasa yupanch beradi. Mana shu umid bilan to'g'ri uning uyiga bordim. Ammo qo'l ostidagilarning qilmishlari shu darajada meni g'azablantirdiki, so'zlarimni jilovlay olmadim. Boshliqni ko'rishim bilan unga dedim:

– Janobi oliylari! Sizga bir necha soat oldin yigirma kishi suvdan hayotlarini yo'qotish xavfi ostida qolganliklari va sizdan yordam so'raganliklari haqidagi xabarni yetkazishdim?

U menga takabburona sovuqqonlik bilan, tamakisini chekkancha, javob berdi:

– Menga bu haqda yaqinda aytishdi. U vaqtida esa uxlayotgandim.

Bu gapni eshitib, g'azabdan titrab ketdim:

– Odamlar cho'kayotib, sendan yordam so'rashganda qat-tiq uxbay yotgan bo'lsang, boshingga bolg'a bilan urib bo'lsa ham uyg'otishlarini buyurishing kerak edi.

Top-chi, do'stim, qanday javob bo'ldi? Eshitganlarim meni gurzi bilan urganday ta'sir qildi menga:

– Bu mening vazifamga kirmaydi.

Men endi sabr chegarasidan chiqib ketdim:

– Unda sening vazifang odamlarni o'ldirishmi, yaramas! Yana faxriy nishon taqib yurganing-u, odamlarni boshqarishingga o'laymi? – Gapimni tugatolmadim. Uning deyarli yuziga tupurdim va chiqib ketdim. Alamdan sochlarmi yuldim. Bu hayvon boshliqdan qasos olishning yuz xil yo'lini o'yladim. Ammo bunaqa misollarning ko'pini eslab, xulosa qildimki, mening qasosim befoyda. Men yo quturgan, yo yovuz odamga aylanaman, xolos. Shundan keyin qo'l siltadim.

Shu orada mening odamlarim ruhoniy yoniga borishdi. U esa odamlarni katta quvonch bilan kutib olib, yedirdi, ichirdi, issiq joy berib, dam olishga imkoniyat yaratdi. Uning mehmondo'stligi va mehribonligi bilan unikida yana bir kun turdik. Ertasi kuni katta qayiq topib, Oraniyenbaumga yo'l oldik va bexatar yetib keldik. Sankt-Peterburgda men bo'lib o'tgan hodisa haqida duch kelganga

so‘zlab berdim. Hamma menga xavf-xatarda qolganim uchun ham-dard bo‘ldi, hamma boshliqni shafqatsizligi uchun la’natladi, hech kim u haqida eslashni ham istamadi. Agar biz g‘arq bo‘lganimizda, u bizning qotilimizga aylangan bo‘lardi.

– Ammo sizni qutqarish uning vazifasiga kirmaydi, – dedi kimdir.

Tamom, endi men bu shahar bilan abadiy xayrлаshaman. Men bu yo‘lbarslar makoniga hech qachon qaytib kirmayman. Ularning yagona quvonchi – bir-birlarini g‘ajimoq; ularning ko‘ngilxushligi ojizlarni toliqquncha qiynash va hokimiyatga bo‘ysundirishdir. Xo‘sish, shundan so‘ng ham shaharda yashashimni xohlarmidинг? Yo‘q, do‘stim, – dedi hikoya so‘ylovchim stuldan sakrab turib, – odamlar bormaydigan joyga, odam borligini hech kim bilmaydigan, hatto odam degan nom noma'lum joyga ketaman. Kechir meni, – u shunday deya aravaga o‘tirdi va otlarini choptirib ketdi.

Spasskiy Polesti

Tezda do‘stim ortidan otlandim. Otlarni shunday tez choptirdimki, natijada pochta stansiyasidayoq unga yetib oldim. Uni Peterburgga qaytish uchun ko‘ndirishga harakat qildim, kichik va alohida ko‘ngilsizliklar uning jamiyat bilan aloqasini buza olmasligi lozimligiga, dengizga tushgan kichik cho‘p suv yuzini loyqalatolmasligiga ishontirishga harakat qildim. Ammo u menga uzil-kesil shunday dedi:

– Agar men, kichik xas bo‘lib dengiz tubigacha tushsam, Fin ko‘rfazida bo‘ron turmasligi uchun tulenlar bilan yashagani ketgan bo‘lardim. – U hamon g‘azabnok qiyofada men bilan xayrлаshdi, aravaga yotib, shoshib yo‘lga chiqib ketdi.

Mening otlarim ham aravaga qo‘shilgandi. Men aravaga chiqish uchun endi oyog‘imni ko‘targan ham edimki, yomg‘ir tomchilay boshladи. «Kichik ko‘ngilsizlik, – o‘yladim men. – Soyabonni yopvolaman va quruq ketaman». Ammo bu xayol hali boshimdan uchib o‘tmasdanoq, suvga botdim. Osmon mendan so‘rab ham o‘tirmay, boshim uzra bulut to‘samasini yoydi va chelaklab yomg‘ir quya boshladи. Tabiatni boshqarib bo‘lmaydi. Shoshmay yursang uzoq-

qa borasan, degan maqol bor. Aravadan tushib, birinchi kulba tomon chopdim. Sohib allaqachon yotgani tufayli kulba qorong'i edi. Lekin men shu qorong'ilikda ham qurinib olish uchun undan izn so'radim. Egnimdan ho'l ko'ylagimni yechdim va quruqroq bo'lishi uchun boshim tagiga qo'yib, o'rindiq ustida uxlab qoldim. Ammo o'rnim yumshoq to'shak emas edi, albatta, uzoq uxmlashga qo'ymadi. Uyg'onib ketib, shivirlarni eshita boshladim. O'zaro suhbatlashayotgan ikki xil ovozni ajrata bildim.

- Qani, erginam, so'zlab bering-chi, – dedi ayol ovozi.
- Eshit, xotin, bir bor ekan, bir yo'q ekan...
- Rostdanam ertakka o'xshaydi. Qanday qilib ertakka ishonish mumkin, – dedi ayol past ovozda uyqusirab. – Nima, men Polkan, Bova¹ yoki Qarоqchi Bulbul borligiga ishonarmidim?
- Kim sening bo'yningdan itaryapti, ishon, deb. Xohlasang ishon, xohlamasang, yo'q. Ammo qadimda rostdan ham tana kuchlari ni hurmat qilishgan va polvonlar undan yovuzlik maqsadida foydalanishgan. Mana, Polkanni olaylik. Qarоqchi bulbul haqida esa qadimgi rus taqrizchilarini o'qi. *Uning ajoyib notiqligi uchun bulbul deya atashganini yozishadi* (25). Gapimni bo'lma. Shunday qilib, qayer-dadir bir *namestniklik hukmdori* (26) yashagan ekan. Yoshligida u begona joylarda ko'p bo'lgan, *ustritsalarni yejishni o'rgangan va ularni tutish bo'yicha zo'r ovchi bo'lgan ekan* (27). Uning puli kam-roq ekan, bo'lmasa, ustritsa ovlashdan tiyilgan bo'lardi. Peterburgda bo'lgan vaqtlaridayam o'ntalab ustritsa yer ekan. Amalga ko'tarilgan sari stoli ustida ustritsalar ko'paya boshlabdi. Namestnik hukmdori bo'lib, puli ko'payganda va hukumat nomidan topshiriqlar berish vakolatiga ega bo'lganda esa, ustritsaga xuddi boshqorong'i ayol singari o'ch bo'lib qolibdi. U tushida ham ustritsa chaynayotganini ko'rар ekan. Yegisi kelgan vaqtda hech kimga tinchlik yo'q ekan. Uning qo'l ostidagilar hammasi azobda qolibdi. Nima bo'lmasin, u, albatta, ustritsa yejishi kerak ekan. Bir kuni u o'z boshqarmasiga xabarchi tezda tayyorlanishi, Peterburgga muhim narsani yetkazishi lozimligi to'g'risida buyruq jo'natibdi. Lekin hamma xabarchining aslida ustritsa izlab yurishini bilarkan. Qayoqqa burilsang ham tizginni qo'ldan berma. Davlat xazinasining teshiklari ko'p. Chopar

¹ Polkan, Bova – o'n sakkizinchи asrlardagi mashhur ertak qahramonlari (*tarj.*).

yo'l taraddudini ko'rib, tayyor holatda, kamzul va tor shimi ni kiy-gancha, muhtaram hokim yonida hozir bo'libdi.

– Yugur, do'stim, – debdi unga ko'ksi nishon bilan to'lgan hukmdor. – Shoshil! Anavi paketni olgin-da, uni Katta Dengizga yetkaz.

– Kimga berishim kerak?
– Manzilni o'qi.
– Uning... uning...
– To'g'ri o'qi!
– Mening hukmdorim, janob...
– Noto'g'ri! Sankt-Peterburg, Katta Dengizdag'i muhtaram do'kondor *janob Korzinka* (28).

– Bilaman, zoti oliylari.
– Yo'lga tush, do'stim, olishing bilan bir daqiqa ham kechik-may, ortingga qayt; senga aytadigan rahmatim bir marta bo'lmaydi.

Shunday qilib, xabarchi to'g'ri Pitergacha haydab, Korzinkin-ning to'g'ridan to'g'ri hovlisiga kirib boribdi.

– Xush kelibsiz. Qanday ermaktalab muhtaram zot arzimagan narsa uchun ming chaqirim yo'lga odam jo'natadi? Faqt sening sa-xiy xo'jayining. Unga xizmat qilishdan baxtiyorman. Bochkasi yuz ellikdan kam emas, deb ayt. Boshqa tusholmayman, o'zimizga qim-mat kelyapti. Biz uning marhamati bilan hisoblashib olamiz.

Bochkani aravaga ortishibdi, eltuvchi aravani ortga buribdi, ot-lar yana yo'rg'alab ketibdi. Xabarchi yo'lida qovoqxonaga kirib, ikki krujka araq ichib ulguribdi, xolos.

Tin-tin... Shahar darvozasi yonida pochta qo'ng'iroq'ining ovozi eshitilishi bilan, navbatchi ofitser hokim yoniga yuguribdi va unga uzoqdan arava ko'ringani, qo'ng'iroq ovozi eshitilayotgani haqida xabar beribdi. U gapini tugatmasdanoq, eshik oldida xabarchi paydo bo'libdi.

– Olib keldim, zoti oliylari.
– Juda soz (orqasida turgan odamga o'girilib). Bu yigit halol, munosib va araqxo'r emas. Necha yillardan beri yilda ikki marta Peterburgga borib keladi; Moskvaga esa necha martaligini eslolmay-man ham. Kotib, taqdimnoma yoz! Yuk yetkazishdag'i ko'p martalik mehnati va aniq ishlashi evaziga uning lavozimini...

Xazinachining xarajatlar kitobida yozilgan: zoti oliylarining takliflariga binoan Sankt-Peterburgga muhim yuk olib kelish uchun jo‘natilgan xabarchi – tashuvchi N.N.ga borib kelish xarajatlari va uchta ot uchun favqulodda mablag‘ hisobidan...

Xazina kitobi reviziyaga borganda ham unda ustritsalarning hidi yo‘q edi.

Janob general va h.k. taqdimnomasiga binoan BUYURILDI: Serjant N.N. praporshchik etib tayinlansin...

– Mana, xotin, – dedi erkak ovozi, – amalga qanday erishi-shadi, menga halol ishlashdan nima foyda, bir barmoq ham yuqoriga ko‘tarila olmayman. Ko‘rsatmaga binoan, chin dildan mehnat qilganni mukofotlash lozim. Lekin podsho taqdirlaydi, itboqar esa taqdirlolmaydi. Shunday qilib, bizning janob xazinachimiz endi boshqa safar uning taqdimnomasiga binoan meni jinoyat palatasiga¹ jo‘natadi. Agar u bilan tilim bir bo‘lganda, qozonim ham, cho‘michim ham moy ustida bo‘ldi.

– Bekorchi gaplarni qo‘ysang-chi, Klementich, bilasanmi, nima uchun u seni yoqtirmaydi? Sen qog‘oz va tanga pullarni oltin va kumushga almashtirish uchun ustama to‘lovini hammadan olasan, lekin u bilan bo‘lishmaysan.

– Sekin, Kuzminichna, sekinroq. Kimdir eshitib qolmasin, tag‘in. – Ikkala ovoz ham jim bo‘ldi va men yana uxbab qoldim.

Ertalab bildimki, o‘scha tun kulbalarning birida men bilan birga sud maslahatchisi xotini bilan birga tunab qolgan ekan va kun yorishmasdan Novgorodga jo‘nab ketishibdi.

Mening aravamga ot qo‘sgunlariga qadar, uch ot qo‘shilgan yana bir arava kelib to‘xtadi. Undan katta yopinchiqqa o‘ranib olgan kishi tushib keldi. Bostirib kiyib olgan katta shlapaning keng ayvoni uning yuzini ko‘rishimga to‘sinqinlik qildi. U rasmiy guvohnomasiz otlarni so‘radi. Birpasda uning atrofini bir talay aravakashlar o‘rab olishdi va savdo qila boshlashdi. Ammo u savdo oxiriga yetishini kutmay, ulardan biriga sabrsizlik bilan dedi:

– Tezroq otni qo‘s! Har chaqirimi uchun to‘rt tiyindan olasan!

Aravakash otlari yoniga yugurib ketdi. Qolganlar esa, savdoshadigan hech narsa qolmaganligi tufayli uning atrofidan tarqab ketishdi.

¹ Jinoyat palatasi – jinoyat ishlari bo‘yicha gubernya sud organi.

Men undan taxminan besh sarjindan ko‘p bo‘lman masofada turgandim. U yonimga keldi va shlapasini yechmay, dedi:

– Muhtaram janob, bechora bir odamga biror narsa yeb olish uchun marhamat qiling. – Men juda hayron qoldim va o‘zimni ot masalasida savdolashmay turib, ikki marotaba ko‘p to‘lashga rozi bo‘lgan odamning mendan yordam so‘raganidan ajablanganimni aytishdan tiya olmadim.

– Ko‘ryapmanki, janob, – dedi u menga, – sizning hayotingizda hali biror to‘sinq uchramagan.

Bu qat’iy javob menga juda ma’qul keldi va paysalga solmay, karmonimni kovladim...:

– Aybga buyurmang, – dedim men. – Sizga bundan ortiq yordam berolmayman; ammo manzilga yetib olsak, sizga ko‘proq narsa berolishim mumkin. – Bu bilan unda samimiyatni yuzaga chiqarmoqchi edim, adashmabman.

– Bilishimcha, siz nozik tabiatli inson ekansiz, – dedi u. – Shaxsiy manfaat topmoq uchun murojaatlarga qalbingiz eshigini yopma dingiz. Ruxsatingiz bilan, men sizning aravangizga o‘tirsam, xizmat-koringizga esa mening aravamga chiqishni buyurasiz.

Bu orada otlarimiz aravalarga qo‘sildi, men uning istagini bajo ayladim va yo‘lga tushdik.

– O, muhtaram janob, baxtsizligimga haliyam ishongim kelma-yapti. Bir haftadan ko‘p bo‘lgani yo‘q, men juda ham shod, kam-chiligidim yo‘q, ko‘nglim butun va sevimli edim, yoki menga shunday tuyulgan. Chunki har kuni uyim taniqli va muhtaram mehmonlar bilan to‘la bo‘ldi; dasturxonim esa doim bayramdagiday hozirlanardi. Agar manmanlik zig‘irdek bo‘lsa ham qoniqish olsa, ko‘ngil ham bu shodlikdan huzur topadi. Juda ko‘p dastlabki samarasiz harakatlar, tashabbuslar va muvaffaqiyatsizliklardan so‘ng va nihoyat men o‘zim istagan ayolga erishdim. O‘zaro ehtiroslarimiz qalb va hislari-mizga rohat bag‘ishlar, hamma narsa yorug‘lik bilan yo‘g‘rilgandi. Biz bulutli kunni ilg‘amasidik. Shodliklarimiz bizlarni ko‘klarga olib chiqardi. Rafiqam homilador edi va ko‘zi yorish onlari yaqinlashib keldi. Barcha saodatimizni taqdir bir lahzada parchalab tashladi.

Tushlik vaqtি edi va ko‘pgina do’st deb ataydiganlarim mening hisobimdan o‘z nafslarini bayramona qondirayotgandilar. U yerda

bo‘lganlardan biri, meni dilida yoqtirmaydigani yonidagiga yarim ovozda, lekin xotinim va boshqa o‘tirganlar eshitishi uchun yetarli darajada gapira boshladi:

- Nahotki bilmasangiz, xo‘jayinimiz masalasi jinoyat palatasida allaqachon hal bo‘lgan...
- Sizga bu g‘alati ko‘rinishi mumkin, – dedi hamrohim so‘zlarini menga qarata.

Xizmat qilmagan va amaldagi odam – men ta’riflagan, o‘zini jinoiy sudga topshirishi mumkin. Men shunday deb juda uzoq, hali ishim quyi suddaligidan olivy sudga yetib kelguniga qadar o‘yladim. Mana, ishim nimadan iborat edi: men savdogar sifatida qayd etilgandim; muomaladagi bo‘sh kapitalim *xususiy otkup* (29) – ijara da ishtirokchi sifatida qo‘yilgandi. Mening xatoyim shunda bo‘lganki, ashaddiy yolg‘onchi odamga ishonganman. U mablag‘im ishtirokida jinoyatga qo‘l urgan, so‘ng otkup huquqidан mahrum qilin-gan, bo‘yniga esa uning kitobida qayd etilgan hisob-kitoblarga ko‘ra katta miqdorda kamomad yozilgan. U qochib ketdi, men esa mablag‘ qo‘yanim uchun ishtirokchi sifatida qoldim va kamomad mendan undirilishi kerak edi. Kamomadni men qilmaganim yoki ular mening hissamga juda kam to‘g‘ri kelishi haqida imkon doirasida hujjatlar to‘pladim va qaytadan hisob-kitob qilib chiqishlarini iltimos qildim, chunki men unga kafil edim. Lekin ular mening iltimosimni qondirish o‘rniga, to‘lanmay qolgan qarzni ham mening bo‘ynimga ilishdi. Bu birinchi noodilona hukm edi. Ammo bunga boshqa narsaniyam qo‘sib qo‘yishdi. Men otkupga kafil bo‘lgan vaqtimda nomimda hech qanday mulk yo‘q edi. Lekin, odatga ko‘ra fuqarolik palatasiga mening nomimdagи yer-mulk sotuviga taqiq jo‘natilgandi. G‘alati hol, mavjud bo‘limgan mulknini sotishni taqiqlash! Shundan keyin men uy sotib oldim, yana boshqa xaridlar ham qildim. Shu orada, mansab oldim va bu savdogarlik martabasidan dvoryanlik unvoniga o‘tish imkonini berdi. Foydamni ko‘zlagan holda, men uyimni yaxshi shartnoma asosida sotish imkoniga ega bo‘ldim va albatta, oldi-sotdi ishlari yuqorida aytilgan fuqarolik palatasi orqali amalga oshirildi. Bu esa mening bo‘ynimga jinoyat bo‘lib ilindi, chunki mening xonadonimdagи saodatli kunlarni ko‘rolmaydiganlar ham bor edi. G‘azna nazorati

bo‘yicha prokuror maslahatchisi mening ustimdan chaquv uyush-tirdi: emishki, men g‘azna kamomadini to‘lashdan qochib, fuqarolik palatasini aldab uy sotib olibman. Chaquvda uy sotib olgan vaqtimdagi emas, avvalgi unvonim qayd etilibdi. Yo‘q mulkka sotish uchun taqiq qo‘yilmasligi, hech bo‘lmaqanda, avval qolgan mol-mulkni sotib, qarzni to‘lagach, keyin boshqa chora ko‘rish mumkinligi, qolaversa, men unvonimni yashirmaganim, balki uyni haqiqatan ham dvoryan unvonini oлganimdan so‘ng sotib oлganim haqidagi tushuntirishlarim behuda ketdi. Ko‘rsatmalarim rad etildi, uy sotuvi bekor qilindi va yolg‘on ishlatganim uchun unvonimdan ham mosuvo qilishdi. Endi esa, bu yer sudi raisi ish ko‘rib chiqil-gunga qadar meni nazorat ostida ushslashni talab qilyapti.

Shularni so‘zlab berarkan, hamrohim ovozini biroz balandlatdi:

– Rafiqam uning gaplarini eshitishga arang chidadi, meni qu-choqlab, azizim, men ham sen bilan ketaman, – deb xitob qildi. Boshqa so‘z aytolmadi. Qo‘l-oyog‘i bo‘sashib, quchog‘imga be-hush yiqildi. Men uni ko‘tarib, yotoqxonaga olib chiqdim va tushlik qanday tugaganini bilmayman.

Biroz vaqt o‘tib, o‘ziga kelgach, sevgimiz mevasi dunyoga ke-lishi oldidagi og‘riqni his qila boshladi. Men qo‘riqchilar qattiqqo‘l emasligi, nazoratda bo‘lishim qo‘rqinchli emasligini qancha uqtir-may, u shuncha bezovta bo‘ldi va bir gapni aytib turib oldi:

– Men ham sen bilan ketaman.

Bu baxtsiz hodisa bolaning tug‘ilishini bir oyga tezlashtir-di. Yordamga chaqirilgan barcha doyalar va shifokorlarning bola tug‘ilishini bir sutkaga kechiktirish uchun bo‘lgan urinishlari zoye ketdi. Bolaning tug‘ilishi ham xotinimning ko‘nglini xotirjam qilol-madi, aksincha, uni battar olovlatdi.

Hikoyamni cho‘zishdan nima naf? Rafiqam bola tug‘ilganidan uch kun o‘tib, olamdan ko‘z yumdi. Uning qanchalar qiynganani ko‘rib, ishoning, uni bir daqiqa ham yolg‘iz qo‘ymadim. Faqat yonida bo‘ldim. Ishimni ham, sudni ham, tashvishlarimni ham butkul unutdim. Xotinim dunyodan ko‘z yumgach, bir kun o‘tib, mu-habbatimiz nishonasi ham vafot etdi. Onasidan ayrilganim azobi meni shu qadar chulg‘ab olgandiki, o‘sha vaqtida bolaning o‘limi u qadar katta kulfat bo‘lib tuyulmadi.

– Tasavvur qiling, – dedi hikoyachim ikki qo‘li bilan sochlarini changallab. – Sevgilim meni butunlay tark etganini ko‘rgan vaqtim-dagi holatimni tasavvur qiling.

– Butunlay! – xitob qildi u bo‘g‘iq ovozda. – Men nima uchun yugurib yuribman endi? Mayli, meni qamashsin, endi menga farqi yo‘q. Mayli, meni azoblashsin, mayli, hatto hayotimni olishsin, endi hech narsani his qilmayman.

– O‘, johillar, arslonlar, zaharli ilonlar, bu yurakni g‘ajib tashlang, unga bor zahringizni to‘king!.. Kechiring, o‘zimni tutolmay qolyapman, bu ketishda yaqinda aqldan ozsam kerak. Sevgilimdan ayrilgan onlarni ko‘z oldimga keltirgan sayin, hamma narsani unutaman va ko‘z oldim qorong‘ilasha boshlaydi. Lekin endi qissamni tugataman. Beedad alam iskanjasи sevgilimning jonsiz tanasi bo‘lib bag‘rimda yotarkan, sodiq do‘stlarimdan biri yonimga yugurib keldi:

«Seni qamoqqa olgani kelishibdi, guruh hovlida turibdi. Tez doch, aravang orqa eshik oldida turibdi. Taqdiring yaxshilanguniga qadar Moskvagami yoki boshqa xohlagan joyingga ket».

Men uning so‘zlariga ahamiyat bermadim. Lekin u meni kuch bilan turg‘izib, o‘z odamlari yordamida olib chiqdi va aravaga o‘tqazdi. Biroq menga pul kerak bo‘lishi yodiga tushib, menga ham-yonini berdi. Ichida faqat ellik so‘m bor ekan. O‘zi esa mening kabinetimga pul topib, olib chiqish uchun yugurib ketdi. Ammo ofitser meni izlab yotog‘imga kirganini ko‘rib, tezda jo‘nab ketishim lo-zimligi to‘g‘risidagi xabarni yetkazib ulgurdi. Meni birinchi bekatga qanday yetkazib kelishganini eslolmayman. Do‘sstimning xizmatkorি bo‘lib o‘tgan ishlarni tushuntirib, men bilan xayrslashdi. Endi esa, bir maqolda aytigandek, boshim oqqan tarafga ketyapman.

Hamrohimning hikoyasi meni tushuntirib bo‘lmas darajada lar-zaga soldi. Boshqaruvni odamlarga mehribonlik asosida ham olib borsa bo‘ladi-ku, dedim men o‘zimga. Nega u bugun bunchalar be-shafqat tus olgan? Xazinani to‘ldirish uchun (xazina talablarini qondirish uchun mulkni tortib olishning barcha noto‘g‘ri yo‘llarini shunday atash mumkin) odamlarning mulkini, martabasini, hatto hayotini ham oladigan shu darajadagi johil hukm bo‘lishi mumkinmi? Bo‘lib o‘tgan bu voqeа hukumatning yuqori darajasiga qay yo‘sinda yetka-zilishi mumkinligini mulohaza qilib ko‘rdim. O‘ylashimcha, fikrim

haqli edi, ya’ni yakkahokimlik boshqaruvida faqat boshqaruvchining o‘ziga boshqalarga nisbatan xolis bo‘lishi mumkin. Hamrohimni o‘z himoyamga olsam bo‘larmikan? Yuqori hukumatga arznama yozaman. Bo‘lib o‘tganlarni batafsил keltiraman, sudlovchilarningadolatsizligi-yu, jabrlanuvchining aybsiz ekanini taqdim qilaman. Ammo arznomamni mendan qabul qilishmaydi. Qanday haqqim borligini so‘rashadi; mendan asoslovchi xat so‘rashadi. Qanday haqqim bor? Azob chekayotgan insoniyat. Mulki, unvonidan mahrum qilingan, hayotining yarmi uzib olingan, qamoq surguniga tushmaslik uchun qochib yurgan inson. Bularni tasdiqlovchi xat kerakmi? Kimdan? Nahotki mening fuqarom jafo chekayotgani kam bo‘lsa? – Ha, bunga ehtiyoj yo‘q. U – inson, – mana mening haqqim, mening ishonch xatim.

Ey *Xudoning o‘g‘li!* (30) Nega qonunlarining johillar uchun yozasan? Ular sening noming bilan cho‘qinib, yovuzlik uchun qon qurbon qiladilar. Nega sen ular uchun shafqat qilding? U dunyoda jazo muqarrarligini va’da qilish o‘rniga, bu dunyoning jazosini ku-chaytirganingda edi, yovuzliklari darajasida vijdonini yoqib, qiyab, *gilgan yovuz ishlarini yuvgunlariga qadar kun-u tun oromini olgatingda edi...* (31) – Bu kabi xayollar vujudimni ham toliqtirdi, qotib uxboldim va uzoq vaqtgacha uyg‘onmadim.

Fikrlarning nafrat to‘la oqimi uxlagan holatimda ham boshimga oqib kirib, miyamning eng nozik joylarini junbishga keltirdi va undatasvirlarni uyg‘otdi. Tushimda behisob tasvirlarni ko‘rdim, ammo ular havodagi pat misol g‘oyib bo‘lishdi. Nihoyat, ~~ayrim~~ holatlarda gidek, tanamning ichki tomirlaridan ko‘tarilib chiqqan taftdan larzaga kelgan miya tolalari titroqlarni uzoqroq ushlab turdilar va mengatushimda quyidagilar namoyon bo‘ldi:

Men shoh, xon, qiroq, bek, sulton yoki shunga o‘xshash qaysidir nomdagisi hukmdor emishman va taxtda o‘tiribman.

Men o‘tirgan joy tilladan bo‘lib, unga ustalik bilan o‘rnatilgan turli rangdagi qimmatbaho toshlar yal-yal tovlanarmish. Kiyimlarim jilosini esa hech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Boshimni *dafna chambari* (32) bezab turganmish. Atrofimda qudratimni namoyon qiluvchi turli belgilar yotganmish. Ustun ustida, juda ko‘p shaharlarni olishda dengiz va quruqlikdagi janglardagi g‘alaba ifo-

Ayollar esa nazokat bilan e'tirof etdilar:

- *U minglab halokat yoqasida turgan kerakli fuqarolarini o'limdan asrab qoldi* (37).

Boshqa bir sipo ko'rinishdagisi ovozini baland qo'yib ta'kidladi:

- *U davlatning daromadlarini ko'paytirdi* (38), *aholining soliq to'lovini yengillashtirdi* (39), qorni to'yishi uchun manba yaratdi.

Yoshlar esa shavqqa to'lgan holda, qo'llarini ko'kka cho'zib, shunday deyishdi:

- U mehribon, adolatli, uning qonunlari hamma uchun birday, u o'zini ana shu qonunlarning birinchi ijrochisi, deb biladi. U dono qonun chiqaruvchi, rostgo'y hakam, jonkuyar ijrochi, u hamma podsholardan ham buyuk, u hammaga erkinlik taqdim etadi.

Bu kabi gap-so'zlar qulog'im pardalariga urilib, qalbimda baland ovoz bilan aks sado berdi. Ushbu olqishlar mening tafakkurimda haqiqat bo'lib aks etdi, chunki ular tashqi xususiyatlari bilan samimiyatga yo'g'rilgan edi. Ularni mana shu ma'noda qabul qilarkanman, ruhim nigohim ostidagi odatiy davradan yuksaklikka ko'tarildi; mohiyatiga ko'ra u kengayib bordi va barchasini qamrab olgan holda, ilohiy donolik darajasiga yetib bordi. Ammo mening buyruqlarim jaranglayotgan vaqtdagi o'z-o'zimdan qoniqish zavqini hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Men *bosh qo'mondonimga* (40) mendan yiroqdagi butun bir osmon kamari bilan o'ralib turgan yerlarni zabit etish uchun katta qo'shin bilan yo'lga chiqishni buyurdim.

- Hukmdorim, – javob berdi u menga, – sizning sharaflı nominigizni o'zi shu zaminda yashovchi barcha xalqlarni bo'ysundirishga qodir. Sizning qurolingiz qo'rquv soladi va men sizning yoningizga qudratli podshohlarning hadyalari bilan qaytib kelaman.

Dengiz qo'shinlarim boshlig'iga (41) dedim:

- Mening barcha kemalarim butun ummon bo'y lab suzib chiqib ketsin va dunyoning hamma yeriga tarqasin, toki biz bilmagan xalqlar ham bizni bilsinlar; bayrog'imni Shimolda ham, Janubda ham, G'arbda ham, Sharqda ham tanisinlar.

– Xo'p bo'ladi, hukmdorim. – U shunday deya kema yelkanlarini hilpiratadigan shamol singari buyruqni bajarish uchun uchib chiqib ketdi.

– Mening tug‘ilgan kunim, – buyurdim men *qonun himoyachisi* (42)ga, – o‘z hududimning eng chekka hududlariga qadar ma’lum qilinsin, u solnomalarga bitilib, *abadiy afv etish kuni* (43) sifatida nishonlansin. Zindon eshiklarini oching, jinoyatchilarni ozod eting, ular haqiqat yo‘lidan adashganlar va o‘z yo‘lini topganlar qabilida o‘z uylariga qaytsinlar.

– Siz rahmdilsiz, hukmdorim! Siz eng saxovatli mavjudot tim-solisiz! Men qayg‘u chekayotgan otalardan farzandlariga, erlardan ayollariga quvonch yetkazish uchun yugurgayman!

– Musslar¹ panoh topadigan mahobatli bir bino barpo eting, – dedim men *bosh me’morga* (44) – uni tabiatning turfa xil tasvirlari bilan bezang; ular samoviy farishtalar singari dahlsiz bo‘lsinlar, zero biz bu ishlarni ular uchun tayyorlamoqdamiz.

– O, donolar donosi! – javob berdi u menga. – Tabiatning barcha unsurlari sizning ovozingizda buyruq eshitishga muntazirdirlar va ular barcha qudratlarini jamlab, cho‘l-u biyobonlarda, o‘rmonzor-u changalzorlarda o‘zining mahobati bilan o‘tmishdagilardan ham ko‘ra sharafliroq bo‘lgan ulkan shaharlarni bunyod etganlarida ham, amringizning jonkuyar ijrochilariga bu kamlik qiladi. *Siz buyuring, qurilishning birlamchi anjomlari* (45) sizning ishorangizga shay bo‘lib turibdi.

– Bugun, – buyurdim men, – saxovatning qo‘llari ochilsin, *keragidan ortiqcha narsalar zaiflarga* (46) berilsin, ishlatilmayotgan xazina o‘z manbasiga qaytarilsin.

– Ey, saxovatlilarning saxovatlisi, Xudoning bizga yuborilgan ne’mati, farzandlarning sevimli otaxoni, g‘ariblarning homiysi, sizning aytganingizday bo‘lsin!

Mening har bir aytgan so‘zlarimni yig‘ilganlarning barchasi shodlik xitoblari ila kutib olishdi, ular qarsaklar bilan mening so‘zlarimga nafaqat xayrixohlik qilishdi, balki hatto fikrni qo‘llab-quvvatlashdi ham. Yig‘ilganlar orasida faqat bitta ayolgina ustunga mahkam suyangancha, alam ichra chuqur xo‘rsindi, yuzida esa g‘azab va nafrat ifodasi zohir bo‘ldi. Uning yuzi dag‘al va kiygan ko‘ylagi ham odmigina edi. Atrofdagilarning hammasi boshyalang turgan bir paytda u shlapasini bostirib kiyib olgandi.

¹ *Musslar (muza)* – yunon mifologiyasida to‘qqiz nafar san’at ma’budalari (*tarj.*).

- Kim u? – so‘radim men o‘zimga yaqin turganlardan.
- U bizga notanish bo‘lgan bir musofir ayol, o‘zini Pryamovzor¹, deb ataydi. Yana aytishicha, u ko‘z shifokori emish. Ammo juda xavfli jodugar u. Og‘u va margimush olib yuradi, qayg‘u va g‘am-g‘ussa uni quvontiradi; har doim qovog‘ini uyib yuradi, hech kimni mensimaydi va haqoratlaydi; hatto qarg‘aganda sizning ilohiy hukmdoringizni ham ayab o‘tirmaydi.
- Mening hududimda shunday yovuz jodugarga erkinlik berilganmi? U bilan ertaga shug‘ullanaman. Bugungi kun saxovat va shodlik kuni. Hukumatning og‘ir yukini ko‘tarishda men bilan yelkadosh bo‘lgan xizmatchilarim, kelinglar, munosib mehnatlaringiz, jasoratingiz mukofotlarini qabul qilib olinglar.
- Shunday deya men o‘rnimdan turdim, turganlarni hurmat belgisi sifatida mukofotlar bilan taqdirladim; bu yerda qatnashmaganlarni ham unutmadi. Biroq yoqimli ko‘rinishda mening so‘zlarimni sharaf bilan kutib olganlar mukofotlarimdan katta ulushlarni qo‘lga kiritishdi.
- Shundan so‘ng so‘zimni davom ettirdim:
- Ketdik, sultanatimning ustunlari, hukumatimning tayanchlari, mehnatimiz totini ko‘rish uchun yuring men bilan. Har bir mehnat qilgan odam munosib ravishda o‘z mehnatining mevasini tatib ko‘rsin. Quvonchingizni shoh bilan baham ko‘ring, u siz uchun mo‘l-ko‘llik yaratadi. Bizga siz tayyorlagan bayram ziyofati tomon yo‘l ko‘rsating, – dedim men *tantanalar bo‘yicha mas’ul xizmatchimga* (47). – Biz ortingizdan boramiz.
- To‘xta, – dedi darbadar ayol menga o‘z joyidan turib. – To‘xta va mening yonimga kel. Men senga va senga o‘xshashlar uchun yuborilgan shifokorman, men sening ko‘zingni ochaman. O, bunchalar ko‘p dog‘lar! – dedi u xitob qilib.
- Qandaydir ko‘rinmas kuch meni uning oldiga borishga majbur qildi, atrofimdagilarning uning yonimga hatto kuch ishlatib ham to‘sqinlik qilishlari naf bermadi.
- Ikki ko‘zingni ham dog‘ bosgan, – dedi musofir ayol, – sen esa qanchalar qat’iylik bilan hammaga xulosa berding.

¹ Pryamovzor – to‘g‘ri nigohli, to‘g‘ri nazar ma’nosini bildiradi (*tarj.*).

Keyin u har ikkala ko‘zimga qo‘l cho‘zdi va ulardan hayvon shoxi qoplamasiga o‘xshash qalin pardani oldi.

– Ko‘rdingmi, – dedi u menga. – Sen ko‘r bo‘lgansan. Ko‘r bo‘lganda ham mutlaqo ko‘rmagansan.

Men Haqiqatman. Sening hukming ostidagi xalqning nolayu fig‘oni qodir Xudoga yetib bordi va U ularga achinib, sening ko‘z oldingni to‘sib qo‘ygan zulmatni olib tashlash uchun meni samoviy doiradan tushirdi. Men bu vazifani ado etdim. Endi sening nigohlarining har bir narsaning asl holatini ilg‘ay oladi. Sen yuraklarning ichki qismiga ham kirib bora olasan. Ruh to‘lg‘ami nurida yashiringan ilon endi nigohingdan berkina olmaydi. Sendan uzoqda bo‘lgan va seni xushlamaydigan, ammo o‘z vatanini jondili bilan sevadigan sadoqatli insonlarni taniy boshlaysan; ular agar insonlarni asoratga solganing uchun qasos oladigan bo‘lsa, sening mag‘lubiyatingga hamisha tayyor turadilar. Biroq ular fuqarolarning tinchligini behudaga va bevaqt buzmaydilar. Sen bundaylarni do‘stlarim, deb bil. Sening oldingda turgan va yuraklardagi sharmandalikni zarbof to‘nlar bilan yopib turgan qora pardalarni olib tashla. Ular ko‘z oldingni to‘sib, men kabilarni saroyingga kirimizni man qiladigan haqiqiy yovuzlaringdir. Meni haqiqiy qiyofamda tanib olishlari uchun butun hukmronlik davri mobaynida ularning yoniga faqat bir marta kelaman; lekin men hech qachon oddiy bandalar uyini tark etmayman. Men shohlarning saroyida qolmayman. Ularning atrofida sergak turib, kecha-yu kunduz qo‘riqlab turadigan soqchilar meni u yerga qo‘yishmaydi. Agar men qo‘riqlovchilarining yaxlit to‘piga kirib borsam, seni o‘rab olganlarning hammasi qamchilarini o‘ynatganlaricha zo‘r berib meni sening makoningdan haydar chiqarishga urinadilar; biroq bu muzyuraklar sendan uzoqlashmaydilar. Shunda sening madhingga aytildigan hamd-u sanolar, og‘uli bug‘lar nafas ola boshlaydilar va ko‘zlarining qoplagan dog‘lar jonlanib, yorug‘likni o‘tkazmaydigan qora parda ko‘z oldingni to‘sib qo‘yadi. Shunda sening basirliging yanada zo‘rayadi; sening nigohing faqat bir qadam naridaginigina ilg‘ay oladigan bo‘ladi. Hamma narsa sening ko‘z oldingda quvnoq shaklda namoyon bo‘la boshlaydi. Nolalar yetib kelmagani bois, qulqlaring tashvishlanmaydi, aksincha, ular

yoqimli shivir-shivirlardan huzur topadi. Ajal tutatqichi teshik qalbga tilyog‘lamalik bilan kirib oladi. Sening sezgilaring hamma narsaning faqat silliq tomonlarinj his etadi. Sizdag'i sezgi tolalarining samarali nuqsonlari hech qachon bartaraf bo‘lmaydi. Endi mana shunday holating uchun titroqqa tush. Sening boshing uzra bulut to‘planadi va momaqaldiroqning olov o‘qi seni yakson etishga shay turadi. Ammo men senga ta’kidlaymanki, mulking chegarasida yashayman. Qachonki meni ko‘rishni istasang, qachonki, xushomadlarning hiyla-nayrangleri qamalida qolgan qalbing mening nigohlarimni tusasa, sendan uzoqlashtirilgan joyimdan meni chorla; qayerdan mening keskin ovozimni eshitsang, o‘sha yerdan meni topasan. Mening ovozimdan hech qachon qo‘rqma. Agar xalq orasidan sening qilayotgan ishingga biror-bir er yigit qarshi chiqsa, bilginki, u senga samimiyl do‘st bo‘ladi. Mukofot ilinjidan begona, qullik titrog‘iga tushmaydigan odam keskin ovozda senga men haqimda xabar beradi. Sen shunda ehtiyyot bo‘l va umumiy tartibsizlik misolida uni qatl etishga oshiqma. Uni huzuringga chorla, uni musofir singari mehmon qil. Chunki podshoni yakkahukmronlikda ayplashga jur‘at qilgan odam, shu podsho oldida hamma qaltirab turadigan bu makonda musofirdir. Uni mehmon qil va yana ta’kidlayman, hurmatini joyiga qo‘y. U qaytgach, juda ko‘p to‘g‘ri gaplarni aytadi, bu gaplarda tilyog‘lamalik bo‘lmaydi. Biroq bunday qat’iyatli yurak sohiblari kamdan kam uchraydi; nari borsa, ular kabilar bu yorug‘ olamga yuz yilda bir marta keladilar.

Sening hushyorliging ularning hukmi ostida susaymasligi uchun, senga mana bu uzukni beraman, agar jur‘ating yetsa, u senga haqsizligingni aytib turadi. Bilginki, sen jamiyatdagi birinchi darajali qotil, birinchi o‘rindagi qaroqchi, birinchi xoin, jamoat tinchligining birinchi buzg‘unchisi, o‘z yovuzligini zaifning ichki olamiga yo‘naltirgan ashaddiy dushman bo‘lishing mumkin. Agar jang maydonida halok bo‘lgan o‘g‘li uchun ona, eri uchun ayoli fig‘on cheksa, sen aybdor bo‘lasan; chunki asirga olish xavfi urush deb atalmish qotillikni oqlay olmaydi. Agar ekinzorlar bo‘shab qolib, hosil bitmasa, dehqoning jo‘jalari nimjon ozuqa tufayli hayotidan mahrum bo‘lsa, bunga sen aybdor bo‘lasan. Ammo endi nigohlarining o‘zingga va atrofingda turganlarga qarat, amr etganlaringning bajarilishini qayta ko‘rib

chiq va agar qalbing bu dahshatlardan zirillab ketmasa, men seni tark etaman va bu saroy mening xotiramdan mutlaq o‘chib ketadi.

Shu so‘zlarni aytarkan, musofir ayolning yuzida quvonch va ulug‘vorlik bilan tovlanib turgan nur aks etganday bo‘ldi. Uning maslagi mening ruhiyatimga quvonch olib kirdi. Men endi unda mag‘rurlik shiddatini ham, takabburlikning manman qiyofasini ham his etmay qo‘ydim. Men undagi sukunatni sezdim; qiziqqon ishtiyoq va hokimiyatga bo‘lgan intilish unga mutlaqo begona edi.

Mening tovlanib turgan zarrin libosim qonga bo‘yalgan va ko‘z yoshlar bilan ho‘l bo‘lib ketganday tuyuldi. Barmoqlarimda esa inson miyasining yuqi ko‘rinib turardi; oyoqlarim botqoqqa botib qolgandi. Atrofimni o‘rab turganlar esa ziqna va tuban ekanliklari ko‘rinib turardi. Ularning ichlari qop-qora va ochko‘zlikning bo‘g‘iq olovi bilan tutab yotardi go‘yo. Ular menga va bir-birlariga yirtqichlik, hasad, makr va nafrat aks etib turgan nigohlar bilan boqardilar.

Zabt etishga jo ‘natilgan qo ‘mondonim hashamatlar-u kayf-safoga g ‘arq bo ‘lgandi (48). Qo‘shinlarda bo‘ysunish ko‘rinmasdi; ularning moldan farqi qolmagan va hatto ulardan ham battar, desa bo‘lardi¹. Ularning na salomatligi va na oziq-ovqati to‘g‘risida qayg‘urishardi; jangchilarning umri behudaga sovurilayotgandi; ular belgilangan ish haqidan mahrum qilingan va bu mablag‘ keraksiz bezak ishlariga sarflanayotgandi. Yangi jangchilarning yarmidan ko‘pi boshliqlarning e’tiborsizligi yoki keraksiz va vaqt-bevaqt qilinadigan qattiqqo‘lliklari tufayli vafot etishgandi. „Mudofaa uchun mo‘ljallangan mablag‘ning asosiy qismi tantanalar o‘tkazish va kayf-safoga sarflanayotgandi. Munosib harbiy xizmatning belgilari harbiy jasorat ko‘rsatganlik bilan emas, balki jirkanch laganbardorlik, xushomadgo‘ylik bilan o‘lchanayotgandi. Men yonimdagи yagona qo ‘mondonimni (49) ham uning gap-so‘zi, maqtovi bilan kamolga yetkazgandim. Men unga a’lo darajadagi mukofotlar berib, marhamat ko‘rsatgandim, vaholanki, bugun menga ayon bo‘ldiki, uning barcha a’lo darajadagi munosib xizmatlari o‘z boshlig‘ining izzat-nafsi lagabardorlik bilan qondirishdan iborat bo‘lgan edi. Jasorat ko‘rsatish uchun esa unda biror-bir holat sodir bo‘lмаган,

¹ Bu yerda Radishchev keltirgan misollar jamiyatning turli guruhlariga ma’lum bo‘lgan.

u dushmanni hatto uzoqdan ham ko'rmagandi. Men mana shunday jangchilardan o'zimga yangi sharaflar olib kelishini kutgan ekanman. Men nigohlarimni ko'z oldimda turgan minglab falokatlardan chetga oldim.

Dengizdan dengizga o'tishi lozim bo'lgan kemalarim (50) dengizchilar kulbasi yonida suzib yurgandi. Shamolning qanotida mening amrimni ijro etish uchun uchib chiqib ketgan rahbar o'z uyida, yumshoq to'shak ustida oyoq-qo'lini uzatgancha, yollanma ayolning noz-ishvalari bilan lazzatlanib, o'z shahvoniy nafsining asiriga aylangandi. Uning buyrug'i bilan tayyorlangan chizmalarda esa aynan orzudagi suzish tasvirlangan, unda dunyoning hamma qismida yangi orollar, ularning iqlimiga mos ravishda mevalarigacha ko'rinish turardi. Uzoq yerlar va ko'plab xalqlar (tasviri) sayohatchilarning yangi kuchi bilan ularning bo'yoq cho'tkalaridan yaralgandi. Tungi chiroqlarning yog'dusi porlashi bilan ushbu sayohatning muhtasham tasviri gullayotgan va ulug'verlik kasb etadigan uslubda qog'ozga tushirilardi. Bunday muhim tafsilotni qog'ozga tushrigach, *uning muqovasi uchun oltin libos tayyorlab qo'yilgandi* (51).

Ey, Kuk! (52) Nega umringni mehnatda va uqubatlarda o'tkazding? Nega hayotingni ayanchli tarzda yakunlading? Agar mana shu kemada o'tirganingda, sayohatingni kayf-safo bilan boshlab, uni kayf-safo bilan tugatgan bo'larding. Va mana shu alfovza, bir joyda o'tirib (mening davlatimda, albatta) qancha kashfiyotlar qilgan bo'larding, qolaversa, faqat ulug'lanarding, chunki sen menday ahmoq hukmdoring bo'lishi sharafiga tuyassar bo'lgan bo'larding.

Mening basirlik holatimda qalbimning har holda faxrlanadigan narsasi bor edi, bu ishim – qatl hukmini bekor qilish, jinoyatchilarni afv etishdan iborat bo'lib, bu ham keng qamrovli fuqarolik ishlari orasida arang ko'zga tashlanardi. Mening bu buyrug'im ham yoki mutlaqo buzib ado etilar, yoki boshqa tomonga burib yuborilar, yoki mutlaqo noto'g'ri talqin qilinishi va sekin amalga oshishi tutayli ko'zda tutilgan samarani bermagan edi. Xayr-saxovatim, rahm-shafqatim savdo-sotiqqa aylangan, bolg'asini qattiqroq urganga muruvvat va bag'ikenglik qopi ochilgandi. Gunohlaridan kechish evaziga men xalqim orasidan rahmdil hukmdor deya tan olinish o'rniga, yolg'onchi, munofiq va lo'ttiboz odam sifatida tanilgandim.

– Bunday rahmdilligingni pishirib ye, – yangradi minglab ovozlar, – agar buni amalga oshirishni istamasang, balandparvoz so‘zlar bilan qulog‘imizga ham lag‘mon ilma. Qayg‘umizni masxara qilma, uning og‘ir hissiyotini qalbimizga yuklama. Biz u xlabelotgandik va xotirjam edik, sen esa uyqumizdan bezovta qilding; biz bedorlikni istamagan edik, chunki u bizga kerak emas.

Shaharlarning qurilishida faqatgina xazinaning behudaga sovurilishini ko‘rdim, bu isroflar asosan xalqimning qoni va ko‘z yoshlari bilan yuvilardi. Muhtasham binolarni barpo etishda bu sovurishlar ustiga haqiqiy san‘atni tushunmaslik ham kelib qo‘shilardi. Ularning na ichki va na tashqi ko‘rinishida zarracha didni ko‘rmadim. Uning ko‘rinishlari *gotflar va vandallar* asriga (53) oid edi. Musslar uchun qurilgan boshpanada sharqirab oqayotgan *Kastaliya va Ipokrenani* (54) ko‘rmadim; arang sudralib yuradigan san‘at hududning yuqorida keltirilgan odatiga ko‘ra nigohlarini ko‘tarishga jur‘at etdi. Bining chizmasi ustida egilgan *me‘morlar uning go‘zalligi haqida fikr yuritmaganlar, balki bu qurilishdan o‘zlariga qanday qilib foyda undirib olish to‘g‘risida o‘ylaganlar* (55). Men o‘zimning havoyi shon-shuhratimdan jirkandim, nigohlarimni boshqa tarafga burdim.

Hammadan ham ko‘ra menin qalbimni o‘ta saxiyligim azobлади (56). Men, basirlik qilib, oshiqcha xazinani davlat ehtiyojlaridan ham ko‘ra yo‘qsilga ko‘maklashish, yalang‘ochni kiyintirish, ochni to‘yintirish yoki halok bo‘lganni qo‘llab-quvvatlash, yoki bo‘lmasa, qilgan munosib xizmatlariga haq talab qilmaydiganlarga ularishish lozim, deb o‘ylagandim. Biroq buning natijasini ko‘rish alamlili edi: menin saxovatim boylarning, munofiqlarning cho‘ntagiga, xiyonatkor do‘stga, ayrim holatlarda maxfiy qotilga, jamoatchilik ishonchini buzganga va xoinga, menin ko‘nglimni ovlaganga, zaif tomonlarim bilan kelisholganga, o‘zining benomusligi bilan gerdayib yurgan xotinga oqib borgandi. Saxiy qopimning juda ham kichkina ulushi haqiqiy xizmat qilgan, munosib, biroq nomusli va tortinchoqligi tufayli qo‘l uzatmaydigan egalariga arang yetib borgandi. Ko‘zlarimdan yosh quyila boshladi va o‘ylamay qilgan saxiyligimning ko‘z oldimda namoyon bo‘layotgan o‘ta ayanchli natijalarining tasvirlarini xiralashtirdi. Endi men bergen faxriy unvonlar hamisha munosiblarga emas, noloyiqlarga borib tekkanini aniq ko‘rib turar-

dim. Ushbu xayoliy saodatning birinchi tovlanishidanoq asir bo‘lgan tajribasiz obro‘ yagona yo‘lga laganbardorlik va ruhiy qabohat bilan orzu qilingan sharafni qo‘lga kiritish uchun qadam qo‘ydi. Biroq oyog‘ini egri yo‘lda sudragancha, har doim birinchi qadamlardayoq holdan toydi, dunyoviy shuhratning mohiyati kul va tutundan iborat ekaniga ishongan holda, qanoat ham shaxsan o‘zining tasdig‘i bilan belgilandi. Mening zaifligim va vazirlarimning makkorliklari tufayli hamma tarafda kelib chiqqan faqat xiyonat va munofiqlikni ko‘rib, shuningdek, ko‘nglimga muhabbatdan ozuqa izlab, endi oilam to-monga qaradim. Lekin men mehrimni baxshida etgan vaqtimda uning qalbi menga nisbatan nafratga to‘la bo‘lgan holda manmanlik ila faqat tashqi ko‘rinishdangina ehtiyojimni qondiradigan xotnimni ko‘rib g‘azab va nafrat ichra o‘kirib yubordim:

— Munofiq jinoyatchilar, yovuzlar! Qani aytинг, nima uchun o‘z hukmdoringizning ishonchini yovuzlik yo‘lida suiiste’mol qildingiz? Bugun barchasi uchun javob bermoqqa hozir bo‘ling! Tosh qotgan o‘z yovuzliklaringiz uchun titroqqa tushing! Sizlarning ishlaringizni nima bilan oqlash mumkin? O‘zingizni oqlash uchun nima deya olasiz? Bu o‘sha, men uni xorlik kulbasidan chaqirib olaman.

— Keling, — dedim men shunday keng mulkimning bir chekkasi-da, mox qoplagan kichkina kulbada kuzatib turgan oqsoqolga, — ke-lib, meni bu yukdan xalos eting; keling, azob ichra qolgan qalbimga va larzaga kelgan ongimga osudalikni qaytaring.

Shunday deya, men nigohimni o‘z martabamga qaratdim, mas’uliyatim juda katta ekanini angladim, mening huquqim va hukmronligim manbasini anglab yetdim. Butun ichki olamim bilan titray boshladim, o‘z xizmatimdan qo‘rquvgaga tushdim.

Hali uyg‘onib ulgurmasimdan o‘zimni barmoqlarim bilan chan-galladim, ammo barmoqlarimda nishli uzuk yo‘q edi. Oh, agar bun-day uzuk shohlarning hech bo‘lmaganda jimjilog‘ida bo‘lganida edi! Dunyo hukmdori! Agar sen mana shu ko‘rgan tushim haqida o‘qiyotib, masxaraomuz kulib qo‘ysang yoxud qoshlaringni chimirsang, bilginki, mening tushimda ayon bo‘lgan musofir ayol sendan juda uzoqlarga uchib ketgan va u qaytmoqqa sening saroyingdan ha-zar qiladi.

Podberezye

Men juda ko‘p orzularga cho‘mgan bu qahramonlik tushidan kuch bilan uyg‘onishim mumkin edi. Boshim qo‘rg‘oshin quylgani kabi og‘ir bo‘lib, bu haftalab mukkasidan tushib ichkilik-bozlarning bosh og‘rig‘idan ham battar edi. Men yo‘limni davom et-tiradigan va yog‘och uvadasi to‘shalgan yo‘lda silkinib bora oladigan holatda emas edim (men o‘tirgan aravaga prujina o‘rnatilmagandi). Men uy shifokori kitobini oldim; undan izlay boshladim, ammo uy-quda yoki o‘ngda alahsirash tufayli kelib chiqadigan bosh og‘rig‘iga qarshi yozilgan davo chorasini topa olmadim. Garchi men hamisha yonimda zaxira qilib dori olib yursam-da, bir maqolda aytilganidek: har qanday dono ham adashadi, qabilida, men ham o‘zimni alahlashdan ehtiyot qilish chorasini ko‘rmagandim, shu bois, pochta bekatiga yetib kelganimda boshim to‘nkadan ham battar qotib qolgandi.

Shu payt esimga bir narsa tushdi: mening bir vaqtlar Klement-yevna degan mehribon enagam bo‘lardi, ismi Praskovya edi, Jumagul deb atashardi. U juda qahvaxo‘r bo‘lib, qahva bosh og‘rig‘ini qoldirishga yordam berishini aytgandi.

– Besh finjon qahva ichganimdan so‘ng, – deya ta‘kidlardi u ko‘p bora, – ko‘zim yarq etib ochiladi. Agar qahva bo‘lmasa, uch kun ko‘zimni ocholmay, o‘likday yotaman.

Men enagamning darmondorisidan oldim, biroq birdaniga besh finjon ichishga o‘rganmaganim uchun, men uchun oshiqchalik qilgan qismini men bilan bitta do‘konda, ammo boshqa deraza yonida o‘tirgan yigit bilan birga baham ko‘rdim.

– Chin dildan minnatdorman, – dedi u finjondagi qahvani olarkan.

Yoqimtoy ko‘rinishga ega, nigohlari dadil, o‘zini nazokatli tuta biladigan, nazarimda, kalta chakmoni va *kvas bilan silligangan sochiga* (57) fe‘li uncha tushmasdi. Meni kechiring, hurmatli o‘quvchim, men poytaxtda tug‘ilib o‘sganman va mening xulosanga ko‘ra, kim sochlarni jingalak qilib, upa surtmagan bo‘lsa, unday odamni hech qanday holatda hurmat qilmayman. Agar siz to‘pori bo‘lsangiz va sochlaringizni upalamagan bo‘lsangiz, unda mendan yonimdan o‘tayotib, bir bora ham nazar solmadi, deya ginalamang.

So‘zimiz so‘zimizga to‘g‘ri keldi va men yangi tanishim bilan til topishib oldim. Undan bilib olganlarim shu bo‘ldiki, u *Novgorod seminariyasidan* (58) va gubernya shtatida kotib bo‘lib ishlagan amakisi bilan ko‘rishish uchun piyoda yo‘lga chiqqan ekan. Ammo uning asosiy maqsadi ilm o‘rganish uchun imkoniyat izlash edi.

– Bizda hali o‘quv qo‘llanmalarining yetishmovchiligi nihoyatda katta, – dedi u menga. – Faqatgina lotin tilidan ma’lumotga ega bo‘lishning o‘zi ilmga chanqoq tafakkurni qoniqtira olmaydi. Virgiliy, Goratsiy, Tit Liviy va hatto Tatsitni¹ ham deyarli yoddan bilaman. Agar seminariya toliblarining bilimlarini solishtiradigan bo‘lsam – men buni o‘rganish baxtiga tuyassar bo‘lganman – bizning bilim yurtlarimizni o‘tgan asrga molik, deb baholash mumkin. Mumtoz yozuvchi va shoirlarimizning hammasini bilamiz, ammo biz asarlarning tanqidiy tahlili ularni bizga bugungi kunga qadar yaxshi va yoqimli ko‘rsatib kelayotganini hamda ularni abadiyatga dohil qilganini undan ham yaxshi bilamiz.

Bizga falsafani o‘rgatishadi; biz mantiq, metafizika, etika, ilohiyotdan saboq olamiz, ammo Kuteykinning² «Nedorosl»da³ keltirgan so‘zlariga ko‘ra, falsafiy ta’limning oxirigacha boramiz va so‘ng orqaga qaytamiz. Ajablanarli, Arastu va sxolastika ta’limi hanuzgacha seminariyada hukmronlik qiladi. Baxtimga, men Novgoroddagagi gubernya a’zolaridan biri bilan uning uyida tanishib qolganman. Undan fransuz va nemis tillaridan birozgina bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ldim va o‘sha uy sohibining kitoblaridan foydalandim. Qachonki, o‘quv yurtlarida faqat lotin tilida o‘qitilar ekan, bugungi davrning ma’rifiy davr bilan qanchalar farqi bor! Qachonki fanlar muqaddas sirli marosimlar mohiyatini o‘rgatmas ekan va ular faqat lotin tilini yaxshi biladiganlar uchun ochiq bo‘lsa-yu, ammo xalq tilida o‘qitiladigan bo‘lsa, qanday o‘quv qo‘llanmasi to‘g‘risida gapirish mumkin!

¹ *Virgiliy, Goratsiy, Tit Liviy va Tatsit* – qadimgi Rim shoir va tarixchilari, lotin tilida ijod qilishgan (*tarj.*).

² *Kuteykin* – seminarist, Mitrofanushkaning o‘qituvchisi, «Nedorosl» asarida D.I. Fonvizin shunday deydi: «Ritorikaga qadar bordim, Xudoni ko‘rgach, orqaga qaytdim» (*tarj.*).

³ *Nedorosl* – XVIII–XIX asrlarda hali davlat xizmatiga kirmagan, dvoryanlar oilasiga mansub o‘siprin (*tarj.*)

– Ammo nima uchun, – o‘z nutqini bo‘lib, davom etdi u, – nima uchun bizda fanlar jamoat tilida, rus tilida o‘qitiladigan oliv ta’lim muassasalari joriy etilmaydi? Agar shunday bo‘lsa, ta’lim hamma uchun aniq va tushunarlioq bo‘lgan bo‘lar edi; ma’rifat nuri ham-maga tezlik bilan yetib borgan va bir avloddan keyin bir nafar lotin tilini biladiganga nisbatan ikki yuz nafar odam ma’rifatli bo‘lgan bo‘lardi; hech bo‘lma ganda har bir sudda yurisprudensiya yoki hu-quq ta’limoti nima ekanligini tushunadigan kamida bir nafar a’zo qatnashardi.

– Yo, Xudoyim! – davom etdi u xitob qilib. – Agar bizning sud-larimizning ishlar yuzasidan mulohaza yuritishi va safsatabozligidan misollar keltiradigan bo‘lsakmi! Grotsiy, Monteskyo yoki Blekston¹ nima degan bo‘lishardi?

– Sen Blekstonni o‘qiganmisan?

– Rus tiliga o‘girilgan dastlabki ikki qismini o‘qiganman. Agar hakamlarimizni muqaddas kitob bilan birga mana shu kitoblardan ham foydalanishga, hadeb taqvimga qarayverish o‘rniga ko‘proq mana shu kitoblarga ko‘z yugurtirishga majbur qilsak yomon bo‘lmazıdi.

– Bizda fanlar xalq tilida o‘qitiladigan o‘quv yurtlari bo‘lmazı ekan, – davom etdi u, – qanday qayg‘urmaslik mumkin!

Do‘konga kirib kelgan pochtachi suhbatimizni bo‘lib qo‘ydi. Men faqat seminariya tolibiga yaqinda uning ushbu orzulari ushalishini, fanlar xuddi u istagan tartibda, ya’ni mahalliy tilda o‘qitiladigan yangi ta’lim muassasalari – *universitetlar tashkil etish to‘g‘risida farmon chiqqani to‘g‘risida aytib ulgurdim* (59).

– Yaxshi qoling, janob, ko‘rishguncha!

Men pochtachiga kira haqqini to‘lab turgan bir paytimda semina-riya tolibi chiqib keta boshladi. Chiqayotib, qo‘lidan kichik taxlamda-gi qog‘ozlarini tushirib yubordi. Men yerga tushgan qog‘ozni oldim, ammo unga bermadim. Qadrli o‘quvchim, mening bu o‘g‘riligimni fosh etmoqqa shoshmang; shuning uchunki o‘g‘rilik qilganimni siz-

¹ *Grotsiy Gugo de Groot* (1583–1645-y.) – gollandiyalik huquqshunos olim, davlat arbobi; *Sharl Lui de Monteskyo* (1689–1755-y.) – fransiyalik faylasuf olim, yozuvchi; *Uilyam Blekston* (1723–1780-y.) – ingliz siyosatshunosi, huquqshunos, advokat (*tarj.*).

ga o‘zim ma’lum qilaman. Agar o‘qib ko‘rsangiz, ishonchim komil, o‘g‘riligimni fosh qilmaysiz: negaki faqat o‘g‘irlagan emas, uni qabul qilgan ham o‘g‘ri hisoblanadi – rus qonunlarida shunday yozilgan. Men halol emasligimni tan olaman; qayerda sal bo‘lsayam oqilona narsalarni ko‘rsam, o‘sha zahotiyoy uni o‘zlashtiraman; qarang, bu fikrlarni yomonga yo‘ymang.

Seminariya tolibi nima deganini o‘qib ko‘ring:

«*Kim agar bu axloqiy olamni charxpalakka o‘xhatgan bo‘lsa* (60), u buyuk haqiqatni aytgan va yoki uning bu qarashi ehtimol, yer va boshqa shunday buyuk samoviy jismalarning aylana ko‘rinishinigina nazarda tutishdan, ya’ni ko‘rgan narsasinigina aytishdan boshqa narsa emas. Tabiatni anglashga kirishar ekan, ehtimol, ruhiy yoki axloqiy moddalar bilan tanadagi yoki tabiiy moddalar o‘rtasidagi o‘lim bilan bog‘liq yashirish aloqalarini kashf qilarlar; ruhiy yoki axloqiy dunyoning barcha o‘zgarishlari, boshqa turga aylanishlari, beqarorliklarining sababi, ehtimol, bizning turar yerimiz va quyosh tizimidagi boshqa barcha samoviy jismalarning aylana, aylanaga o‘xhash yoki uyurma shaklida ekanligidandir...»

Martinistga (61) o‘xshaydi; *Shvedenborgning* (62) shogirdi... *Yo‘q, do‘stim! Men faqat yashash uchungina yeb-ichmayman, men bunda sezgi va hissiyotlarimning ko‘plab lazzatlanishini topaman* (63). Va men ruhoni singari senga tavba qilaman: ruhimni tanamdan ajratib olishga urinib, qadimi yoki zamonaviy bahodirning arvohi singari ong alahlab yotgan kengliklarda izg‘igan, ibroniy yoki arab harflari, raqamlar yoki misr iyerogliflari bilan dafn etilgandan ko‘ra, tunni yoqimtoy bir qiz bilan o‘tkazib, lazzat zavqini tuygan holda, uning quchog‘ida uslashni afzal ko‘raman. O‘lganimdan so‘ng sezilmas bo‘lishga yetarlicha vaqtim bo‘ladi va ruhim ham to‘ygunicha izg‘iydi.

Ortingizga nazar soling, aftidan yelkangiz ortida xurofot va uning barcha marosimlari hukmronlik qiladigan vaqtি yaqinlashib qolgan: jaholat, qullik, inkvizitsiya¹ va shunga o‘xhash juda ko‘p narsalar. Qachonlardan beri Volter² xurofotga qarshi ovozi bo‘g‘ilib qolgunga

¹ *Inkvizitsiya* – XIII–XIX asrlarda katolik cherkovining asoratiga qarshi bo‘lganlar ta‘qib va qyinoqqa solib sud qilish uchun tuzilgan sud-politsiya tashkiloti (*tarj.*).

² *Volter* (1694–1778) – fransuz ma‘rifatchi-faylasufi, shoir, yozuvchi, satirik, tragik, tarixchi va publisist (*tarj.*).

qadar dod soladi; qachondan beri Fridrix¹ nafaqat o‘z so‘zлari bilan, balki faoliyati, uning uchun yanada qo‘rquinchliroq bo‘lgan o‘z hukmronlik namunasi bilan xurofotning kurashdan to‘ymaydigan dushmani bo‘lib keladi. Ammo bu dunyoda ularning hammalari avvalgi darajalariga qaytadilar, chunki har qanday intiho o‘z ibtidosiga ega. Hayvonlar, jonzotlar tug‘iladi, o‘sadi, o‘ziga o‘xshaganlarni dunyoga keltiradi, so‘ng ularga joy bo‘shatish uchun o‘ladi. Ko‘chmanchi xalqlar shaharlarda to‘planadilar, podsholikka asos soladilar, kamol topishadi, sharaflanishadi, zaiflashishadi, toliqishadi, vayron bo‘lishadi. Ularning qo‘nim topgan joyi ko‘rinmaydi; hatto ularning nomlari ham o‘chib ketadi. Xristian jamiyatni dastlab kelishuvchan, muloyim, cho‘llar va pana-pastqam joylarda yashirinib keldi, keyin kuchaya bordi, boshini ko‘tardi, o‘z yo‘liga tushib oldi, xurofotga aylandi; oddiy xalq bo‘lib hayajonga tushdi; o‘z hukmdorini ko‘tardi, uning hukmronlik doirasini kengaytirdi va papa podshodan ham ko‘proq qudratli kuchga aylandi. *Luter o‘zgarishlarni boshladi* (64), raskol deb atalgan diniy-ijtimoiy harakatni tikladi, uning boshqaruvidan chiqib ketdi va ko‘plab odamlarni o‘z ortidan ergashtirdi. Papa hukumati to‘g‘risidagi soxta fikrlar saltanati buzila boshladi, u bilan birga xurofot ham yo‘qola bordi; haqiqat o‘z ishqibozlarni topdi, xurofotning ulkan qal‘asini toptadi, ammo bu yo‘lida uzoq qolmadi. Fikrlash erkinligi haddidan oshib, boshboshdoqlikka aylanadi. Muqaddas narsaning o‘zi qolmadi, hamma narsaga chang solindi. Imkoniyat chegarasiga yetib borgach, fikr erkinligi orqaga qaytadi. *Fikrlash tarzidagi bunday o‘zgarishlar bizning davrimizga to‘g‘ri keldi* (65). Ko‘pchilik fikr erkinligining to‘siqsiz sarhadlariga hali ham yetib kelmagan, biroq yana ko‘pchilik allaqachon xurofotga murojaat qilishni boshlab yuborgandi. Yangi ilohga oid ijodlarni namoyon qil, qachonki unda ma’no bor-yo‘qligi to‘g‘risida fikr yuritmasdan, inson ongi ma’ruzalar to‘g‘risida qayg‘urar ekan, qachonki donolikning vazifalari ulug‘langanda va haqiqat izlovchilarning xulosalari igna uchiga nechta ruh joylasha olishi mumkin, deya savol qo‘yar ekan, hayoting sxolastika va tortishuvlarga daxldor bo‘ladi.

¹ Fridrix – Fridrix II (1712–1786) – «ma’rifiy absolutizm»ni e’lon qilgan va reaksiyon siyosat olib borgan Prussiya qiroli (*tarj.*).

Agar avlodlarimiz boshi berk ko'chaga kirib qolsalar, asliyat qolib, orzular ortidan quvsalar, yozuvchining, ilgari sodir bo'lib o'tgan ishlarni bizga namoyon qilib bergen mehnati mutlaq foydali bo'lgan bo'lar edi. Bu o'tgan ishlar goho xatolar g'uborini to'zg'itib, haqiqatni uning cho'qqisiga qadar ta'qib qila boshlagan va goho toliqib, bid'at va xurofotlar tumaniga tushmaslik uchun azob ichra sergaklik bilan yana o'z kuchlarini parokanda qilgan inson tafakkurining mahsuli edi. Bu yozuvchining mehnati besamar ketmaydi, chunki haqiqat va gumrohlik sari ketayotgan bizning fikrlarimizni ochib tashlab, hech bo'limganda ayrimlarini halokatli yo'ldan olib tashlaydi va jaholat parvoziga to'sqinlik qiladi; yozuvchi o'z asari bilan birgina bo'lsayam insonni ma'rifatga yetaklasa yoki birgina qalbga bo'lsa ham ezgulik ulasha olsa, o'zini baxtiyor his etadi.

Biz o'zimizni baxtli, deb ayta olamiz: negaki, aqli mavjudotning haddan ortiq sharmandaligiga guvoh bo'lmaymiz. Bizning yaqin avlodlarimiz esa bizdan ham ko'ra baxtliroq bo'lishlari mumkin. Biroq razolat bag'rida uxlayotgan juftliklar endi atrofdagilar ko'z oldida ko'rinish qolmoqdalar va namoyon bo'lmoqdalar. E'tibor qil, goh bosh qotirishlarda, goh ma'naviy va ruhiy narsalar yuzasidan mulohaza yuritganda fermentatsiya, ya'ni bijg'ish boshlanadi va qat'iyatlari, tashabbuskor er yigitlar haqiqat yoki vasvasaga qarshi bosh ko'taradi, shunda boshqaruvda, e'tiqodda o'zgarish bo'ladi.

Inson tafakkurini xatolar zulmatiga olib tushadigan narvonda agar biz biror-bir kulgili narsani ko'rsatsak va yetarlicha kuldira ol-sak, baxtiyor deb atalamiz.

Aqliyotlar ichra izg'ib yurgan ey sevishganlar, hushyor bo'ling, keyingi izlanishlar yo'liga kirmang.

Akiba shunday deydi: Yahudiylar ruhonisi Iozua yo'lidan yashirin joyga kirib, uchta narsani angladim. Birinchi anglaganim: g'arbga va sharqqa emas, balki shimol va janubga qarab yuzlanish joiz; ikkinchi anglaganim: tikka turgan holda emas, balki o'tirgan holda bo'shalmoq lozim. Uchinchi bilganim esa: orqani o'ng qo'l bilan emas, balki chap qo'l bilan artish kerak. Bunga Ven Gazzas e'tiroz bildirdi: bugungacha o'qitmoqdan og'zingiz sovimadi,

bo'shanganni ko'rdingizmi? U javob qildi: bular qonun muqadasligining mohiyati; men yaralganlarni yarataman va o'shalarni bilaman.

Qarang: Belev lug'ati, Akiba maqolasi (66).

Novgorod

G'ururlaning, shaharning shuhratparast quruvchilari, davlatga asos solganlar, g'ururlaning; nomingiz abadiy sharaflanishini orzu qiling; bulutlarga tekkunga qadar tosh ustiga tosh taxlang; ishlarin-giz haqida bayon qilguvchi yozuvlar, jasoratingiz to'g'risidagi tafsiflarni tahrir qiling; o'zgarmas qonunlar bilan boshqaruvning mustahkam asoslarini yarating. Vaqt bir saf turgan o'tkir tishlari bilan manmanligingiz ustidan kuladi. Afina va Spartaning erkinliklarini tasdiqlovchi donishmandlar Solon va Likurgarning¹ qonunlari qani?

Kitoblarda. Ular bo'lган joyda qullarni yakkahukmronlikning temir tayog'i bilan bo'ysundirishadi.

Qani serhasham Troya, Karfaga² qani?

Ular savlat to'kib turgan joylar deyarli ko'rinxmaydi.

Qadimgi Misrning sharaflı ibodatxonalarida yashirin tarzda yagona sirli mavjudotga boqiy qurbanlik yoqladimi?

Ularning hashamatidan qolgan xarobalarda kunning jazirama vaqtida qoramollar panoh topadilar. Ular Ilohiy Otaga minnatdorchilik ko'z yoshlari bilan emas, balki hayvon tapasining badbo'y chiqindi suvi bilan sug'oriladi.

O! Bu qanday g'urur! O! Insoniy takabburlik! Bunga nazar sol va bilginki, sen bir sudraluvchisan, xolos!

Mana shunday o'ylar bilan men uning atrofini o'rab turgan ko'plab monastirlarni tomosha qilgancha, Novgorodga yetib keldim (67).

Aytishlariga qaraganda, mana shu monastirlarning hammasi, hatto shahardan o'n besh chaqirim uzoqda joylashganlarining ham

¹ Solon va Likurg – Solon (mil.av. 638–559) – qadimgi Afina islochchisi. Likurg – Qadimgi Spartada qonunchilikning afsonaviy asoschisi (mil.avv. IX asr.) (*tarj.*)

² Troya (Ilion) – Kichik Osiyodagi qadimgi shahar, miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda alohida qudratga ega bo'lган Karfaga (Karfagen) – qullikka asoslangan shimaliy Afrikadagi davlat shahar (mil.avv. IX–II asrlar) (*tarj.*)

devorlaridan yuz minglab jangchilar chiqib kelishi mumkin ekan. *Solnomalarda keltirilishicha, Novgorodda xalq boshqaruvi yo'lga qo'yilgan* (68). Garchi ularning, knyazlari bo'lgan bo'lsa ham, ularning vakolatlari cheklangan edi. Boshqaruvning barcha kuchi knyaz noiblari hamda mingboshilar, ya'ni harbiy boshliqlar qo'lida to'plangan edi. Xalq oliy hokimiyat organi bo'lgan jamoat majlisi, ya'ni veche yig'inlarida haqiqiy hukmron edi. Novgorod viloyati shimoldan hatto Volganing narigi tomonigacha cho'zilib borgandi. Ularning erkin davlati Ganza ittifoqiga¹ kirgandi. Qadimiy naql bor: kimki Xudoga va buyuk Novgorodga qarshi chiqqa olsa, u bu yurt qudratining isboti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Savdo sohasi bu shahar yuksalishining asosi bo'lib xizmat qildi. Ichki ixtiloflar va yovuz qo'shnilar uning qulashiga sabab bo'ldi.

Volxovning mavjlanib oqish manzarasidan bahra olish uchun aravadan tushdim. Bu onda shoh *Ivan Vasilyevichning Novgorodni olish vaqtidagi harakati yodimga tushmasligi mumkin emas edi* (69). Bu respublikaning mardonavor qarshilik ko'rsatishi shuhratparast, yirtqich, ammo aqli bu hukmdorning izzat-nafsiга tegdi va shaharni yer bilan yakson qilmoqchi bo'ldi. Ko'z oldimda uning ko'priq ustida cho'qmor bilan turgan qiyofasi gavdalandi, ayrimlar tavsif-laganidek, uning g'azabi ostiga qurbanlik uchun shahar boshliqlari va oqsoqollarini keltirishgan. Ammo uning bu shahar ahliga nisbatan qahr qilmoqqa qanday huquqi bor edi, Novgorodga egalik qilish uchun qanday huquqqa ega edi? Bu shaharda Rusning birinchi buyuk knyazlari yashaganmidi? Yoki u butun Rusning shohi, deb bitilganimidi? Yoki novgorodliklar slavyan qabilasiga mansub bo'lганми? Kuch ishlatalgan vaqtida qanday huquq bo'lishi mumkin? Qarorlarga xalqning qoni bilan muhr bosilganida, huquq amal qilishi mumkinmi? Uni ro'yobga chiqarish uchun kuch topilmaganda huquq qanday amal qilishi mumkin? Xalqning haq-huquqlari to'g'risida juda ko'p yozilgan, bunga juda ko'p bora murojaat qilingan; biroq qonun o'rgatuvchilar xalqlar o'rtasida qozilar bo'lishi mumkin yoki yo'qligi to'g'risida fikr yuritib ko'rmadilar. Ular o'rtasida adovat yuzaga kelganida, nafrat va g'azab ularni bir-birlariga qarshi qilib qo'yganida

¹ *Ganza Ittifoqi* – XIV–XVII asrlarda Shimol va Boltiq dengizida savdosи rivojlangan, boy (asosan shimoliy nemis) shaharlari ittifoqi (*tarji*).

ular o'rtasidagi qozi bo'lib qilich maydonga chiqadi. Kim o'lsa yoki quolsizlantirilsa, o'sha aybdor hisoblanadi; shubhasiz, u bu qarorga bo'ysunadi, bu ishda shikoyat yo'q. – Mana, nima uchun Novgorod Ivan Vasilyevichga tegishli bo'lgan. Mana, nima uchun bu shoh uni yakson qilgan va tutab yotgan qoldiqlarini o'zlashtirgan.

Ehtiyoj, xavfsizlik va mudofaa istagi podsholikni yuzaga kel-tiradi; ularning kelishmovchiliklari, uddaburonliklari va kuchlarini barbod qiladi.

– Xalqning huquqi nima?

– Bu shuki, – deyishadi qonun o'rgatuvchilari, – xuddi bir kishi boshqasiga nisbatan tabiiy holatda turgani kabi, xalqlar ham bir-biriga nisbatan mulohaza yuritishda mana shu pozitsiyada turishadi.

– Savol: tabiiy holatdagi inson huquqining mohiyati nimada?

– Javob: unga nazar sol. U yalang'och, och va chanqagan. U o'z ehtiyojlarini qondirish uchun olishi mumkin bo'lgan narsalar ning hammasini o'zlashtiradi. Agar bu istagiga nimadir to'sqinlik qiladigan bo'lsa, u bu to'siqni olib tashlaydi, buzadi va istaganiga erishadi.

– Savol: agar u o'z ehtiyojini qondirish yo'lida o'ziga o'xshagan yana bir kishiga duch kelsa, masalan, ikki kishi ochlikni his etgan holda ehtiyojni qondirmoqqa bitta bo'lakka ko'z tikkan – bu ikkala-sidan qaysi birining bo'lakka egalik qilishi uchun huquqi balandroq?

– Javob: bo'lakni kim olsa, o'shaning.

– Savol: bo'lakni kim oladi?

– Javob: kim kuchli bo'lsa, o'sha oladi.

– Savol: kim kuchli?

Nahotki tabiiy huquq shu bo'lsa? Nahotki shu xalq huquqining asosi bo'lsa?

Barcha davrlarga tegishli misollarning guvohlik berishicha, kuchga ega bo'lmagan qonun hamisha quruq so'zning ijrosiga aylangan.

– Savol: fuqarolik huquqi nima?

– Javob: kim pochta aravasida ketayotgan bo'lsa, behuda ishlar bilan shug'ullanmaydi va otlarni qanday qilib tezroq qo'lga kiritish haqida o'laydi (70).

Novgorod kundaliklaridan (71)

Novgorodliklar buyuk knyaz Yaroslav Yaroslavich¹ bilan jang olib borishdi va yozma sulu tuzishdi.

Novgorodliklar o‘z erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risida mak-tub bitishdi va uni ellik sakkizta muhr bilan tasdiqlashdi².

Novgorodliklar o‘zlariga tatarlar tomonidan muomalaga kiritil-gan, zarb qilingan tangalarni ishlatishni man qilishdi.

Novgorod 1420-yili o‘zining tangalarini zarb qila boshladi.

Novgorod Ganza ittifoqiga kirgan edi.

Novgorodda uning ovozi bilan xalq veche – Oliy hokimiyat or-gani bo‘lgan jamoat yig‘ilishiga to‘planadigan qo‘ng‘iroq bo‘lgan³.

Shoh Ivan novgorodliklardan xatni va qo‘ng‘iroqni tortib oldi.

Keyin – 1500-yilda – 1600-yilda – 1700-yilda – yilda – yilda...

Novgorod o‘sha joyida qoldi.

Ammo hamma ham o‘tmish to‘g‘risida o‘ylamaydi, hamma ham ertangi kun to‘g‘risida qayg‘urmaydi. Agar oyog‘im ostida nima borligiga e’tibor bermay, faqat osmonga qarayversam, tez orada qo-qilib, loyga yiqilib tushaman... – o‘yladim men.

Qanchalik qayg‘urmay, Novgorodda avvalgiday hayot kechir-mayman. Oldimda nima kutyapti – Xudo biladi.

Endi esa kechlik qilish vaqtি yetdi. Karp Dementichning yoniga boraman.

– Voh! Voh! Voh! Xush kelibsiz! Xudo qayerdan yetkazdi! – deb kutib oldi meni do‘stim Karp Dementich, *ilgari uchinchi gildiya savdogari bo‘lgan, hozirda esa faxriy fuqaro* (72).

– Maqolda aytilganidek, baxtli odam ovqat ustiga keladi. Mar-hamat, o‘tiring.

¹ *Yaroslav Yaroslavich* (1230–1272) – Tverning buyuk knyazi, Aleksandr Nevskiy-ning akasi, novgorodliklar bilan 1270–1271-yillar jang qilgan (*tarj.*).

² 1478-yil 15-yanvarda «faxrli» novgorodliklar Ivan III ga sadoqat qilmoqqa qa-samyod qilganlar va bu qasamyodni 58 ta shaxsiy muhr bilan tasdiqlashgan.

³ 1478-yil Moskvaga olib ketilgan. O‘sha vaqtagi ayrim hujatlarning guvohlik berishicha, shoh deb Ivan III sanalardi, ammo Rusda birinchi bo‘lib shoh unvonini Ivan IV olgan (1547) (*tarj.*).

- Bu ziyofatning boisi nima?
- Valine'matim, men kecha o'g'limni uylantirdim.

«Valine'matim, dedimi, – o'yladim men, – u meni besabab bunday atamaydi. Men unga, xuddi boshqalar kabi faxriy fuqaro sifatida qayd etilishida yordam berdim. Mening bobom, go'yo 1737-yildan beri, kimga ekanligini bilmayman, 1000 rubl veksel qarzdor ekan. Karp Dementich 1780-yili qayerdandir veksel sotib olgan va unga qanaqadir e'tiroz ilova qilgan. U mening yonimga tajribali sud nazorati xodimi bilan birga keldi va ayni damda mendan 50 yil uchun marhamat ko'rsatib, faqat foizlarni olishdi, qarz olingan mablag'ni esa to'laligicha menga hadya qilishdi.

Karp Dementich yaxshilikni biladigan odam.

- Kelin, kutilmagan mehmonimizga araq keltir.
- Men araq ichmayman.
- Hech bo'lmasa, nimadir yeng. Yoshlarning sog'lig'i uchun... – va kechlik qilishni boshladik.

Mening bir tomonimda uy sohibasi o'g'li bilan, ikkinchi tomonimda esa Karp Dementich o'zining yoshgina kelini bilan o'tirardi...

Gapimizni shu yerda bo'lamiz, o'quvchi. Menga qalam va bir varaq qog'oz bering. Men sizga jon deb halol davradoshlarim to'g'risida to'liq tasvirlab beraman va siz hatto Aleut orollarida qunduz ovlab yurgan bo'lsangiz ham, sizni to'y ziyoferining ishtirokchisiga aylantiraman. Agar ularning aniq portretini chizib berolmasam ham, hech bo'lganda qiyofalarini shakllantirib beraman. *Lavater* (73) mana shu shakllangan qiyofalar bo'yicha ham kim dono va kim ahmoqligini ko'rishni o'rgatadi.

Karp Dementich – pastki labidan sakkiz dyuym pastgacha kulrang soqol qo'ygan. Burni pastga osilgan, ko'zлari kulrang va botiq, qoshlari qatronday, qo'llarini hamisha qovushtirib turadi. Soqolini silab, hammani valine'matim, deb e'zozlaydi.

Aksinya Parfentyevna, uning sevimli rafiqasi. Oltmis yoshida ham qorday oppoq va gul g'unchasiday qizarib turadi. Labini har doim uzugi bilan ezib o'tiradi. Tushlik oldidan mehmonlar oldida yarim piyola Reyn vinosidan (oq, nordon uzum vinosi), qaznoqqa kirganda bir stakan araq ichadi. Erining ishboshilari xo'jayiniga hisobni ko'rsatishadi... Aksinya Parfentyevnaning buyrug'i bilan bir

yillik zaxira qilib 3 pud Rjeva yog‘upasi va 30 funt yonoqqa surtish uchun pushti mirt yog‘upasi sotib olinibdi... Erining ishboshi-si – Aksinyaning xizmatkori hisoblanadi.

Aleksey Karpovich, stoldagi yon qo‘schnim. Na soqol va na mo‘ylovi bor. Burni allaqachon qizarib qolibdi, qoshlari uchib turadi, sochlari aylana qilib kesilgan, boshini siltab, sochlarni to‘g‘rilagancha, g‘oz kabi egilib ta‘zim qiladi. Peterburgda do‘kon sotuvchisi bo‘lgan. Arshinni o‘lchaganida, uni dyuymga tushiradi; otasi uni o‘zini sevganday yaxshi ko‘radi, o‘n beshinchı yilda onasi-dan shapaloq yegan.

Paraskovya Denisovna, uning yaqinda uylangan rafiqasi, oppoq va yonoqlari qizil. Tishlari ko‘mirday (XVII–XVIII asrlarda rus oliftalari tishlarini qoraga bo‘yashgan), qoshlari ipga chizilganday va qurumday qop-qora. Davramizda ko‘zlarini yerga tikib o‘tiribdi, ammo kuni bo‘yi deraza yonida o‘tirib, o‘tgan-ketgan har qanday erkakka ko‘zlarini lo‘q qilib qaraydi. Bir ko‘zi ko‘kargan. Sevimli erjonidan birinchi kundanoq olgan sovg‘asi shu bo‘lgan, nima uchun kaltak yeganini tushungan odam topa oladi.

Biroq aziz o‘quvchim, endi siz esnay boshladitingiz. Men chizgan qiyofalarni olib tashlashim lozimligi aniq bo‘ldi. Siz haqsiz; burun – o‘sha burun, lab – o‘sha lab, boshqachasi bo‘lmaydi. Men yana tu-shunmayman, siz qanday qilib qiyofadagi yog‘upa va bo‘yoqlar bilan uning qanaqa odamligini aniqlab olishingiz mumkin?

– Karp Dementich, hozir nima bilan savdo qilyapsiz? Peterburgga bormaysiz, zig‘ir olib kelmaysiz, na shakar, na qahva va na bo‘yoqlar sotib olasiz. Nazarimda, siz savdo-sotiqli dan zarar ko‘rmagansiz.

– Men yaxshigina zarar ko‘rdim va xonavayron bo‘ldim. Ammo Xudo bir asradi. Bir yili mo‘l foyda olib, bu yerda xotinimga uy soldim. Keyingi yil zig‘ir hosili bo‘lmadi va men shartnomaga tuzgalarimga mahsulot yetkazib berolmadim. Shu bois savdo-sotiqli bilan shug‘ullanishni to‘xtatdim.

– Esimda, Karp Dementich, siz oldindan 30 ming rubldan olgan odamlarga ming pud zig‘irni taqsimlab jo‘natgandingiz.

– Chunki boshqa zig‘ir yo‘q edi, o‘lay agar, ishoning.

— Albatta, o'sha yili dengiz ortidan keladigan mollarda hosil bo'lmagandi. Siz yigirmaga ming olgandingiz... Esimda: ularning hammasi bosh og'rig'iga uchragandi.

— Xuddi shunday bo'lgandi, valine'matim, mening boshim shu qadar og'rigandiki, yorilib ketishiga oz qolgandi. Menga oldindan pul bergenlar mendan qanday shikoyat qilishlari mumkin? Men ularga bor-yo'g'imni bergenman.

— Bir rublga uch tiyindan bergansiz.

— Unday emas, yuziga o'n beshdan to'laganman.

— Xotiningizning uyi-chi?

— *Unga qanday teginolishim mumkin? Axir u meniki emas* (74).

— Unda ayting-chi, nima bilan savdo qilasiz?

— Hech narsa bilan. Yomon ahvolga tushib qolganimdan beri savdo bilan o'g'lim shug'ullanadi. Bu yil, Xudoga shukur, u zig'ir uchun yigirma mingga shartnoma qildi.

— Yanagi yil, albatta, ellik mingga shartnoma tuzadi, yarim pulni oldindan oladi va yosh xotiniga uy quradi...

Aleksey Karpovich esa faqat kulib qo'ydi:

— Qari hazilkash, mening valine'matim. Hammasi behuda gaplar; ish uchun olamiz.

— Bilasiz, men ichmayman.

— Bo'lmasa, nimadir yeng.

Nimadir yeng, nimadir yeng – yonoqlarim lovullayotganini his qildim va ziyofat so'ngida boshqalar kabi men ham mast bo'lib qoldim. Har doim aqli bo'lish mumkin bo'lmanidek, yaxshiyamki, dasturxon atrofida bir asr o'tirib bo'lmaydi. Mana shu sabablarga ko'ra men ham gohida telbalik qilaman, laqillaryman, to'y ziyofatida esa hushyor edim.

Do'stim Karp Dementichnikidan chiqib, o'yga cho'mdim. Hamma yoqda joriy qilinayotgan veksel huquqi, ya'ni savdo majburiyatlar bo'yicha tezkor va qat'iy soliqni bugungi kungacha men ishonchni oqlab kelayotgan qonunlar majmuyi, deb hisoblab kelardim; shuningdek, qadimgi xalqlarning xayoliga ham kelmagan, tezkor savdo aylanmasini yanada mukammallashtiradigan ixtirosi uchun bugunni baxtli zamon, deb hisoblardim.

Biroq veksel majburiyatlarini ishlab chiqishdagiadolatsizliklar qayerdan kelmoqda, nima sababdan u befoyda bir qog'oz parchasiga aylangan? Agar veksellar bo'yicha qat'iy soliq tizimi amal qilmasa, nahotki savdo ham to'xtab qoladi? Aynan qarz beruvchi kimga ishonishi lozimligini bilishi kerak emasmi? Qonunlar majmuyi kim to'g'risida ko'proq qayg'urishi lozim: qarz beruvchimi yoki qarzdor to'g'risidami? Kim insoniyat ko'zi oldida ko'proq hurmatga sazovor bo'ladi: kimga ishonishni aniq bilmay turib, o'z mablag'ini ko'kka sovurgan qarz beruvchimi yoki zindonda zamjirband etilgan qarzdormi? Bir tarafdan ishonuvchanlik, ikkinchi tarafdan esa deyarli qaroqchilik. Unisi qat'iy qonunlar tizimiga umid qilib ishongan, bunisi esa... Agar veksellar bo'yicha soliq bu qadar qat'iy bo'l maganda-chi? Bunchalik ishonuvchanlikka ehtimol yo'l qo'yilmasdi yoki ehtimol veksellar bilan bog'liq ishlarda bunaqangi firibgarlik bo'lmasdi...

Men yana o'ylay boshladim, jin ursin bu tizimni va men boshimni oshiqcha xayollardan bo'shatib, uqlashga yotdim.

Bronnitsa

Foytunimga qo'shilgan otlarni almashtirgunlariga qadar, men Bronnitsa yaqinida joylashgan baland toqqa bormoqni istab qoldim. Aytishlariga qaraganda, qadim zamonlarda, menimcha slavyanlar kelishidan oldin bu tog'da bashoratlar qilinishi bilan mashhur bo'lgan va ularni eshitmoq uchun ko'plab shimoliy yurtlardan muridlari kelib turgan bir ibodatxona bo'lgan ekan. Hozirda Bronnitsa qishlog'i joylashgan o'sha joyda, hikoya qilishlaricha, shimolning qadim o'tmishida ma'lum bo'lgan Xolmograd shahri joylashgan ekan. Qadimiy mashhur butxona turgan o'sha joyga bugun kichikroq bir cherkov qurilgan.

Toqqa ko'tarilayotib, o'zimni qadimgi davrga tushib borayotganday tasavvur qildim, o'sha yerda Qudratli Hukmdordan kela-jakni, ya'ni bugunni bilib olaman va beqaror tabiatim uchun xotirjamlik topaman. Vujudimni ilohiy qo'rquv qamray boshlaydi, oyoq-qo'llarim titraydi, ko'krak qafasim toraya boradi, ko'zlarim xiralashib, yorug'lik unda miltirabgina aks eta boshlaydi. Menga momaqaldiroqqa o'xshagan jarangdor ovoz eshitiladi va shunday deydi:

– Xom sut emgan banda! Noma'lumlik pardasidan o'ta olmaydigan o'liklardan ham yashirgan sirimni nima sababdan bilmoq istayapsan? Nima uchun, ey jasur odam, yagona abadiy fikr nimani anglatishini bilmoqqa chanqoqsan? Bilginki, keljakning noma'lumligi vujudingning foniyligi bilan mutanosibdir. Baxtni bilmoq uni uzoq vaqt intiqib kutilgandagi totini yo'qotadi, toliq qan kuch tufayli yuzaga kelgan haqiqiy quvonchning jozibasi no gahoniy tug'ilgan quvonchning qalbga solgan yoqimli titrog'idan qudratli emas. Bilginki, oldindan kutilgan o'lim bevaqt bezovtalikni olib keladi, shodliklarni zaharlaydi, o'limini kutmagan odam esa o'sha quvonchlardan zavq oladi. Sen nimani izlayapsan, ey bemulohaza bandam? Mening donishmandligim aqling va qalbingga kerakli narsalarni quygan. Qayg'uli kunlaringda sen ulardan so'ra, shunda g'ammingga tasalli topasan. Quvonchli kunlaringda ham ularga qulqoq tut, shunda surbet baxtning jilovini tutasan. Uyinga qayt, o'z oilang bag'rige bor; bezovta xayollarining tinchlan-tir; sen o'zingning ichki olamingga kirib bor, o'sha yerda mening so'zlarimni eshitasan.

Va shundan so'ng Perun sultanatida gumburlagan ovozning kuchli taraqa-turug'i uzoq vodiylarga tarqab ketdi.

Men o'zimga keldim. Tog'ning cho'qqisiga qadar chiqib bordim va cherkovni ko'rib, ko'kka qo'l cho'zdim.

– Yo, Xudoyim, – xitob qildim men, – bu ibodatxona seniki, bu ibodatxona yagona va haqiqiy Tangridan xabar beradi. Bu joyda, ho-zorda sen mavjud bo'lgan joyda, aytishlariga qaraganda, odamlarni chalg'ituvchi ibodatxona bo'lgan.

Ammo ishona olmayman, ey qodir Xudo! Qanday qilib inson o'z qalbining ibodatini Senga emas, qandaydir boshqa bir maxluqotga bag'ishlaydi. Sening qudratli qo'llaring ko'rinxmas tarzda butun borliqqa uzatilgan va sening har narsaga qodir irodang seni rad etuv-chini yaratguvchi va hukmron bo'lguvchining mohiyatini anglash-ga majbur qiladi. Agar bandang adashgan holatda Seni g'ayrioddiy, nomunosib va vahshiyona nomlar bilan atay boshlasa ham, biroq uning e'zozi Senga yo'naltirilgan bo'ladi va u sening qudrating oldida titroqqa tushadi. *Yegova, Jupiter, Brahma* (75); Avram Xudosi, Muso Xodosi, Konfutsiy Xodosi, Zardusht Xodosi, Suqrot Xodosi,

Mark Avreliy Xudosi¹, xristian Xudosi va mening Xudoyim! Sen yagonasan va hamma joyda borsan! Agar bandalar adashgan holatda yolg‘iz seni ulug‘lamaganday ko‘rinsalar-da, ammo tengsiz qudratingga, beqiyos ishlaringga sajda qiladilar. Sening buyuk qudrating hamma joyda va har bir narsada aks etadi, hamma joyda va har bir narsada tan berilgan. Seni rad etib, tabiat qonunlarini o‘zgarmas, deya tan olgan xudosizlar ham barcha olqishlarini Senga baxshida etishadi va ularning olqishlari bizning munojotlarimizdan ham zi-yodadir. U o‘zining butun borlig‘i, qalbining eng tubigacha Sening nafosatli ijodingga singib ketarkan, unda titroq turadi. – Ey, saxovatli Egam! Sen samimi yurak va beg‘ubor qalbni izlaysan; ular hamma joyda sening kelishingga muntazirdirlar. Rabbim, pastga tush va ularni izmingga ol!

Va men bir necha lahma atrofimni o‘rab turgan barcha jismlardan uzilgan holda o‘sha yerda turdim, qalbimning tubiga qadar nur oqib kirdi. – So‘ng ko‘zlarimni ochdim va nigohimni yaqinimda turgan qishloq tomonga oldim.

– Bular xo‘rlik kulbalari, – dedim men, – bu yerda qachonlardir buyuk shahar o‘zining mag‘rur devorlarini ko‘z-ko‘z qilib turgan. Ulardan biror nishona ham qolmagan hatto. Aql e’tiqod qilmoq va mana shu hikoyaning o‘zidan ham yuz buradi: u ishonchli va hissiy dalillarga shu darajada chanqoq. – Ko‘rib turganlarimizning hammasi o‘tib ketadi; hammasi vayron bo‘ladi va hammasi kulga aylanadi. Biroq qandaydir sirli ovoz menga uqtiradi: bir narsa abadiyatga do-hildir.

*Vaqt oqarkan, xira tortar barcha yulduzlar,
So‘nadi quyoshning jilolari ham;
Qartaygan tabiat qular keksaygan yildan.
Ammo sen yosh va mangu yashnayverasan,
Xarobalar, vayronalar dunyosi ichra,
Unsurlar kurashi aro o‘zgarmay, mahkam².*

¹ Yegova (Yahova), Jupiter, Brahma – Qadimgi Rim, hind dinlarida xudolarning nomlari. Ibrohim, Muso Bibliyadagi personajlar. Konfutsiy (mil.avv. 551–479) – qadimgi Xitoy faylasufi. Zardusht (Zaradushtra) – qadimgi Markaziy Osiyo, Fors, Ozarbayjon xalqlarining payg‘ambari, zardushtiylik dini asoschisi. Suqrot (mil.avv. 469–399) – qadimgi yunon faylasufi. Mark Avreliy (121–180) – Rim imperatori (*tarj.*).

² «Katonovning o‘limi», Yeddeson tragediyasi. V voqeа. 1-ko‘rinish (*tarj.*).

Zaytsovo

Zaytsovodagi pochta hovlisida men eski do'stim janob Krestyankinni uchratib qoldim. Men u bilan bolalikdan beri tanish edim. Biz bitta shaharda juda kam birga bo'lganmiz. Ammo bizning suhbatlarimiz tez-tez bo'lmasa ham, har doim samimiy kechardi. Janob Krestyankin uzoq vaqt harbiy xizmatda bo'ldi va uning temir intizomlaridan, ayniqsa, urush vaqlarida urush huquqi nomi bilan xaspo'shlangan juda katta zo'ravonliklardan charchab, shtatga o'tib ketgandi. Uning baxtiga qarshi, butkul uzilish maqsadida harbiy sohadan tashlab chiqqan narsalaridan shtatda ham qochib qutulolmadı. U juda nozikta'b qalb va insonparvar yurak sohibi edi. Uning mana shu ajoyib fazilatlarini tan olgan holda, uni jinoiy ishlar palatasi raisi lavozimiga munosib ko'rishdi. Avvaliga u bu mansabni qabul qilishni istamadi, biroq bir qancha narsalarni o'ylab ko'rib, menga shunday dedi:

— Do'stim, qalbim moyil bo'lgan eng ezgu ishlarni amalga oshirish va ko'ngil ehtiyojini qondirish uchun menga keng maydon ochilmoqda! Mehribonlik uchun ajoyib mashq bu! Biz aybsizlar gardaniga og'ir yuk bo'lib tushadigan shafqatsizlik asosini yo'q qilishimiz mumkin; mayli, zindonlar bo'shab qolsin, adashgan zaiflik va beparvo tajribasizlik u yerni ko'rmasin va hech qachon jinoyatga o'ralashib qolmasin. Eh, do'stim! Men o'z vazifamni ado eta turib, ota-onalarning farzandlari uchun yoshlarini to'kaman, rafiqalarning xo'rsinishlariga sabab bo'laman: ammo bu xo'rsinij va yoshlar yangilanish va quvonch yoshlari bo'ladi. Aybsizlik va soddalik tufayli to'kilgan ko'z yoshlar esa tinadi. Bu fikrlar meni qanchalar zavqlantirmoqda. Yur, mening jo'nab ketishimni tezlashtiramiz. Ehtimol, mening tezroq yetib borishim u yerda kerakdir. Agar vaqtida yetib bormay, kimnidir ayblash yoki qamoqqa olish to'g'risida ogohlantirishga, kechirish yoki zanjirdan ozod etishga ulgurmasam, kimningdir qotiliga aylanishim mumkin.

Shunday xayollar ichra mening do'stim o'z ish joyiga yelib ketgandi. Undan xizmatini tashlab, endi hamisha faqat nafaqada yashamoqchi ekanini eshitib, judayam ajablandim.

— Bilasanmi, do'stim, — dedi menga janob Krestyankin, — men o'z vazifamni bajara turib, ko'ngilni quvontiruvchi fikrlar va juda

katta natijalar topaman, deb o‘ylagandim. Biroq buning o‘rniga undan faqat mashaqqat va jaholat ko‘rdim. Undan shunchalar bezdimki, yaxshilik qilishga holim qolmadi. va u joyni haqiqiy yirtqich hayvon qo‘liga topshirib keldim.

Juda qisqa vaqt ichida to‘planib qolgan ishlarning tezkorlik bilan hal etilganligi uchun men maqtovga sazovor bo‘ldim va ishni sinciklab ko‘radigan odam sifatida tanildim. Ayrimlar meni poraxo‘r, deb hisoblashadi, negaki men tasodifan jinoyatga aralashib qolgan odamlarning taqdirini og‘irlashtirishga shoshilmayman. Fuqarolik xizmatiga kirishdan oldin men insonparvar boshliq, degan faxrli nomga ega bo‘lganman. Yuragimga faxr tuyg‘usini solgan mana shu fazilatlarni endi sustkashlik va yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan ko‘ngilchanlik, deb hisoblashadi. Ularni nazokatga chorlaydigan qarorlarim masxara bo‘lganini ko‘rdim va bu qarorlar ijrosi harakatsiz qolayotganining guvohi bo‘ldim. Haqiqiy jinoyatchilarning va jamiyat uchun xavf tug‘diradigan a‘zolarining ozod etilishiga yoki tasodifiy jinoyat qilganlarni mulkidan, sha’nidan, hayotidan mahrum qilinayotganliklariga e’tiborsizlik bilan qaraydigan boshlig‘im meni jinoyatni noqonuniy yo‘l bilan tozalash yoki aybsizlarni ayblastashga bo‘ysundirolmadi, ammo hamkasblarimni bu ishga bo‘ysundirdi. Men insonparvar hukmlarimning yo‘qolib qolgani yoki havoga uchib ketganining bir necha bor guvohi bo‘ldim. Ular o‘zlarining bu qabih itoatkorliklari evaziga izzat-ehtirom topishdi va ularni maf-tun etgan bu izzat-ehtirom ular uchun qanchalar jilvakor bo‘lsa, men uchun shu qadar nursiz edi. Ko‘pincha, qiyin vaziyat yuzaga kelganda, jinoyatchi deb hisoblangan odamning gunohsiz ekanligi meni shafqat qilishga undaganida, qarorimga asos topish maqsadida qonunlarga murojaat qildim, biroq undan insonparvarlik o‘rniga shafqatsizlik topdim. Buning ibtidosi esa qonunning o‘zida emas, balki uning eskirganida edi. Jinoyat va jazoning nomutanosibligi tufayli ko‘zimga ozmuncha yosh olmadim. Ko‘rdimki, qonun jinoyatni keltirib chiqargan sabablar bilan emas (boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas), balki jinoyat yakuni bo‘yicha sud qilardi. Xuddi mana shunday yondashuvga asoslangan oxirgi holat meni bu ishdan ketishga majbur qildi. Chunki jinoyatga aralashib qolgan aybdorlarni taqdirning qudratli qo‘li bilan qutqara olmaganim tufayli, ularni ja-

zolashda ishtirokchi bo‘lib qolishni istamadim. Ularning qismatini yengillashtirolmagach, qo‘limni yuvib, qo‘ltig‘imga urdim va shafqatsizlikdan ketdim.

Bizning gubernyamizda xizmatni tark etganiga bir necha yil bo‘lgan bir dvoryan yashar edi. Mana uning xizmat ro‘yxati: u xizmatini saroyda pechga o‘t yoquvchilikdan boshladi, keyin qarollikka o‘tkazildi, uy xizmatkori bo‘ldi, so‘ng esa ichimliklar bo‘yicha mas’ul – sharbatdor bo‘lib ishladi; bunday darajalarni bosib o‘tish uchun qanday fazilatlar bo‘lishi lozimligi menga noma’lum. Biroq menga ma’lum bo‘lgan narsa shuki, u vinoni oxirgi nafasigacha yaxshi ko‘rdi. O‘n besh yil sharbatdor bo‘lib ishlaganidan so‘ng, uning darajasini aniqlash uchun Geroldiyaga¹ yuborishdi. Ammo u o‘zining bu ishlarga layoqatsizligini sezib, iste’foga chiqish uchun izn so‘radi. Unga u yerga olti yil oldin ishga borgunga qadar o‘zi yashagan joy, ya’ni bizning gubernyamizda *kollej asessori, ya’ni kichik amaldorlarga beriladigan 8-darajali unvon berishdi* (76). O‘z yurtiga bo‘lgan mustahkam bog‘lanish ko‘p hollarda mag‘rurlik bilan asoslanadi. Yuqori darajadagi unvon olishga erishgan past tabaqadagi odam yoki boylik topgan kambag‘al uyatchanlikning barcha tortinchoqligini, saxovatning so‘nggi va zaif ildizini silkitib, o‘z g‘ururi va kamolining yuksalishida tug‘ilib o‘sgan joyining o‘rnini afzal biladi.

Tez orada bu yerda asessor ko‘pgina oilalar yashaydigan qishloqni sotib olish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Agar *Gogard* (77) bizda tug‘ilganda edi, janob asessor xonardonida karikatura uchun juda katta maydonni topgan bo‘lardi. Ammo men havaskor rassomman yoki Lavater nazariyasiga ko‘ra odamlarning yuz qiyofalaridan ularning ichki olamini o‘qiy olish qobiliyatiga ega bo‘lganimda ham, asessor oilasining tasviri anchagina izohga loyiq bo‘lgan bo‘lar edi.

Ushbu xususiyatlarga ega bo‘lmay turib, ularning amallarida ichki olami qiyofasining namoyon bo‘lishiga majbur etaman.

Janob asessor eng quyi tabaqadan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zini o‘ziga o‘xshagan bir necha yuz kishining hukmdori, deb bilardi. Bu uning boshini aylantirib qo‘ydi. Umuman, hukumatga ega bo‘lish

¹ *Geroldiya* – dvoryanlar, amaldorlar, unvonlar, gerblar masalasini ko‘rib chiquvchi muassassa (*tarj.*).

boshni aylantirishidan faqat ugina shikoyat qilmasa ham bo'ladi. U o'zini oliy toifadagi amaldor, deb hisoblardi, dehqonlar esa uning chekiga tushgan qoramollar bo'lib, ularni xohlagancha ishlatish mumkin, deb o'yldi (u o'ziga bu amal Xudodan berilgan deb o'ylashiga bir banya qoldi, xolos.) U xasis bo'lib, pulni tejab ishlatardi, tabiatan berahm, badjahl va yaramas odam edi, shu bois ojizlar ustidan takabburlik bilan boqardi. Unga dehqonlarga bo'lgan munosabatiga qarab ham baho bersa bo'ladi. Dehqonlar bundan oldingi yer egasiga obrok to'lardilar, ya'ni pul yoki mahsulot shakli-da to'lov qilardilar. Asessor esa ularni shudgorga o'tkazib qo'ydi. Ulardan yerning hammasini tortib oldi, ularning qoramollarini o'zi belgilagan narxda to'lig'icha sotib oldi, butun hafta mobaynida o'zi uchun ishlashga majbur qildi, ular ochlikdan o'lib qolmaslikla-ri uchun hovlisida ovqatlantirardi, ammo u ham kuniga bir mahal edi, boshqalarga esa, o'likka suv tomizganday, oylik oziq-ovqat berib turdi. Ko'ziga dangasa bo'lib ko'ringanlarni esa dangasalik o'lchoviga qarab xivich, qamchi, gavron yoki darra bilan kaltaklar-di. Haqiqiy jinoyatchilarga esa, masalan, uning emas, boshqalarning cho'ntagidan o'g'irlaganlarga hech narsa demasdi. Aftidan, u o'z qishlog'ida qadimiy Lakedemon¹ yoki Zaporojyening jazolash usul-larini yangilamoqchi edi. Shunday bo'ldi ham. Och qolgan dehqon-lar ovqat uchun o'tgan-ketganni tunadilar va shu yo'l bilan boshqa-sining ochdan o'lishiga sabab bo'ldilar. Buning uchun asessor ularni sudga bermadi, aksincha, ularni hukumatga qochib ketdi, deya xabar berib, o'zi yashirib qo'ydi; boisi, uning aytishicha, agar uning dehqonlarini xivich bilan savalab, jazo ishlariga surgun qilsalar, u dehqondan oladigan foydasidan ham mahrum bo'lardi. Biroq agar dehqon undan o'g'irlaydigan bo'lsa, xuddi dangasalar va unga aqlli javob bilan gap qaytarganlarni savalagan kabi kaltaklardi, boz ustiga oyog'iga kunda va kishan kiydirar, bo'yniga esa gulcho'p solardi.

Sizga uning shunaqangi aqlli qarorlari to'g'risida ko'plab misollarni gapirib berishim mumkin, ammo mana shularning o'zi qahramonimning qanday odam ekanini bilishingiz uchun yetarli, deb hisoblayman. Uning sohibasi esa ayollar ustidan to'liq hukmronlik

¹ *Qadimiy Lakedemon (Sparta)* – yunon qulدورлик шаҳар-давлати. Spartaning ijtimoiy axloqida ayniqsa shaxsiy tashabbuskorlik va epchillik qadrlangan.

qilardi. Uning buyruqlarini ado etish uchun bu ayollarning o‘g‘illari, qizlari bor edi, shuningdek, erining buyruqlarini ado etish uchun ham. Chunki ular har qanday ehtiyoj tug‘ilganda ham dehqonni ishdan qoldirmaslikni o‘zlariga qoida qilib olgan edilar. Hovlisida Moskvadan sotib olgan bitta bola, qizlarining sartaroshi hamda qari oshpaz ayol bo‘lardi. Ularning aravakashi yo‘q edi, chunki otlarning o‘zi ham bo‘Imagandi; u hamisha yer haydaydigan otta yurardi. Dehqonlarni darra yoki qamchi bilan o‘g‘illarining o‘zları savalashardi. Ayollar va ularning qizlarining yuzlariga urishar, sochlaridan tortishardi. Uning o‘g‘illari bo‘sh vaqtlarida qizlar va ayollar bilan o‘ynashish va ularga tegajog‘lik qilish uchun qishloq bo‘ylab yoki dalada yurishar, hech kim ularning zo‘ravonliklaridan qochib qutulmasdi. Erga tegmagan qizlari alamlarini ip yigiruvchi qizlardan olishardi va ularning ko‘piga aziyat yetkazishgandi.

Aziz do‘stim, endi bunday qilmishlar nima bilan tugashi mumkinligi to‘g‘risida o‘zingiz xulosa qiling. Men juda ko‘p hayotiy misollarni ko‘rib, xulosa qildimki, rus xalqi juda ham sabrli, u sabrning eng oxirgi chegarasiga qadar bora oladi; ammo o‘sha chegaraga yetib borgach, sabri tugaydi va uni beshafqatlikka yo‘l qo‘yishdan hech narsa to‘xtata olmaydi. Asessorning qilmishlari yuzasidan ham xuddi shunday holat yuz berdi. Holatning sabr chegarasidan chiqib ketishiga uning o‘g‘illaridan birining axloqsizligi, vahshiyligi yoki to‘g‘riroq aytadigan bo‘lsak, hayvonlarcha qilgan ishi sabab bo‘ldi.

Uning qishlog‘ida bir dehqon qizi bo‘lardi. U o‘ziga yarasha binoyidekkina bo‘lib, shu qishloqning yosh dehqon yigitini bilan o‘zaro ko‘ngil qo‘yishgandi. Uni asessorning o‘rtancha o‘g‘li ham yoqtirardi va u qizning ko‘nglini olish uchun qo‘lidan kelgan hamma isjni qilib ko‘rdi; *lekin qiz o‘z qallig‘iga bergen so‘zida mustahkam turdi, garchi bunday holatlar dehqonlar orasida kam bo‘lsa ham uchrab turardi* (78). Yakshanba kuni to‘y bo‘lishi kerak edi. Kuyovning otaasi, ko‘pchilik yer egalari tomonidan kiritilgan an‘anaga ko‘ra, o‘g‘li bilan to‘y hadyasi sifatida ikki pud asal olib, xo‘jayinning hovlisiga bordi. Mana shu oxirgi daqiqalarni amaldorcha, ya’ni asessorning o‘rtancha o‘g‘li o‘zi ehtirosini qondirmoqqa sarflamoqchi bo‘ldi. U o‘zi bilan ikki og‘a-inisini oldi, kelin bo‘lmish qizni begona bola orqali chaqirtirdi va chiqqach, uni ushlab olib, qaznoqqa olib kirishdi

hamda og‘ziga latta tiqishdi. Dod sola olmagan qiz o‘z xo‘jayinining hayvoniy maqsadini amalga oshirishiga kuchining boricha qarshilik qildi. Biroq uchala erkakka u baş kela olmadi va kuchdan qoldi; ularning hayvoniy ehtirosi o‘z ishini boshlagan ham ediki, xo‘jayini oldidan qaytgan kuyov hovliga kirib, qaznoq oldida amaldorcharlarning birini ko‘rib qoldi va uning manfur niyatini anglab yetdi. Otasini yordamga chaqirgancha, yashin tezligi bilan o‘zini qaznoqqa urdi. Uning ko‘z oldida qanaqangi manzara namoyon bo‘ldi! Uning yaqinlashishi bilan qaznoq eshigi yopildi; biroq aka-ukalarning birgalikdagi kuchi ham g‘azab otiga mingan kuyovni jilovlashga qodir emas edi. U yaqin turgan qoziqlardan birini olib, qaznoqqa otolib kirdi va qallig‘iga tajovuz qilayotgan yirtqichning beliga bo‘ylamasiga tushirdi. Aka-ukalar uni birgalikda qo‘lga olmoqchi bo‘lishdi, lekin yordamga yugurib kelgan otasini ko‘rib, qo‘lga kiritgan xazinalarini qoldirishdi va qaznoqdan sakrab chiqib, qocha boshlashdi. Biroq kuyov ularning birini quvlab yetdi va qo‘lidagi qoziq bilan urib, uning boshini yordi.

Bu yovuzlar yegan tayoqlari va dilsiyohliklarining alamini olish uchun to‘g‘ri otalarining yoniga bordilar. Unga qishloqqa borganlari, kelinni uchratib qolib, hazillashganlari, buni ko‘rib qolgan kuyov otasi bilan birgalikda ularni urganliklarini so‘zlab berishdi. Isbot tariqasida otalariga ulardan birining yorilgan boshini ko‘rsatishdi. Bu gaplar tug‘ilgandan beri kasal bo‘lgan yuragining tub-tubigacha ta’sir qilib, ota g‘azabdan junbishga keldi. U zudlik bilan uchta jinoymatchini – kuyov, uning otasi va kelinni shunday atadi – huzuriga olib kelishlarini buyurdi. Ularni keltirishgach, uning birinchi bergen savoli o‘g‘lining boshini kim yorganligi bo‘ldi. Kuyov qilgan ishidan bosh tortmagan holda, bo‘lib o‘tgan hodisani to‘lig‘icha so‘zlab berdi.

– Sen o‘z xo‘jayiningga qo‘l ko‘tarishga qanday jur’at qilding? – dedi keksa asessor. – U to‘ying arafasida sening qallig‘ing bilan butun tunni o‘tkazganida ham, buning uchun undan faqat minnatdor bo‘lishing kerak. Sen unga uylanmaysan; bu qiz mening uyimda qoladi, sizlar esa jazoga tortilasizlar.

Mana shunday qaror chiqararkan, u kuyovni gavron bilan aymasdan savalashga buyurib, bu ishni o‘g‘illari ixtiyoriga topshirdi.

Kuyov kaltaklarga matonat bilan chidab berdi; uning otasiga ham xuddi shu jazoni qo'llashayotganlariga isyonkor ruhiyat bilan qaradi. Ammo qallig‘ini xo'jayinning odamlari kuch bilan uyga olib kirib ketayotganlariga qarab tura olmadi. Jazo hovlida amalga oshirilayotgan edi. U otilib turib, qallig‘ini tortib ketayotganlar qo'lidan yilib oldi va ikkalasi ham o'zlarini ko'chaga urishdi. Buni ko'rgan o'g'illar otani kaltaklashni to'xtatib, qochayotganlar ortidan quvishga tushishdi. Ularning yetib olishayotganini ko'rgan kuyov to'siqni sug'urib olib, o'zlarini himoya qilishga tushdi. Bu orada shovqinsuron boshqa dehqonlarni ham jalb qilgan holda bu yerga olib kelgandi. Yosh dehqonga achingan hamda o'z xo'jayinlariga nisbatan yuraklari g'azabga to'lgan boshqa dehqonlar ham kelin-kuyovni himoya qila boshlashdi. Ularning bu ishini ko'rgan asessorning o'zi yugurib chiqib, qo'lidagi qamchisi bilan ulardan duch kelgan bittasini shunday kuch bilan tushirdiki, natijada u hushdan ketib, yerga yiqildi. Bu holat umumiy hujumga turtki bo'ldi. Dehqonlar to'rtala xo'jayinni ham o'rab olishdi, qisqa qilib aytganda, shu yerning o'zida ularni joni uzilgunicha kaltaklashdi. Ular bu xo'jayinlardan shu qadar nafratlanishar ediki, ularning birortasi ham bu qotillikdan chetda turishni istashmadni, keyinchalik buni o'zlarini tan olishdi.

Ayni shu vaqtida politsiya noziri o'z guruhi bilan mana shu okrugga kelayotgan edi va u ushbu hodisaning bir qismiga shaxsan guvoh bo'ldi. Aybdorlarni qamoqqa oldi, aybdorlar esa yarim qishloq ahlini tashkil etardi. Jinoyat palatasiga muntazam yetib borib turgan ishlar yuzasidan surishtiruv olib borishdi. Ish-juda aniqlik bilan yuritildi, aybdorlar ham hamma narsani ro'y-irost aytib, bo'ynilariga olishdi, bu jinoyatlariga sabab qilib, o'z xo'jayinlarining endilikda butun gubernyaga ma'lum bo'lgan qiyonoqlari, dehqonlarga keltirgan azob-uqubatlarini ko'rsatishdi. Mana shu ish bo'yicha men *lavozim-mim taqozo qilgan vazifa bo'yicha aybdorlarga o'lim jazosini belgilash va ularning yonidagilarni umrbod mehnat surguniga jo'natish haqida yakuniy xulosaga kelishim lozim edi* (79).

Bu ishni ko'rib chiqarkanman, jinoyatchilarni qoralash uchun yetarlicha va ishonchli sabablarni topdim. Dehqonlar o'z xo'jayinlarini o'ldirib, qotilga aylanishgan edi. Ammo ularning bu qotilligi majburlik yuzasidan kelib chiqmaganmidi? Bu qotillikning

sababkori o‘Idirilgan asessorning o‘zi emasmidi? Agar arifmetikada ikkita berilgan sondan uchinchisi kelib chiqishi tayin ekan, u holda ushbu ishni ham o‘rganib chiqish zarur edi. Qotillarning aybsizligi, har qanday holatda ham menga matematik aniqlik tarzida ma’lum edi. Agar men yo‘lda ketayotsam-u, menga jinoyatchi tashlanib qolsa, menga sanchib olish maqsadida boshim uzra xanjarini ko‘tarsa, men uni bu jinoyat ekanlididan ogohlantirsam va so‘ng uni oyog‘im ostiga jonsiz holatda tashlashga majbur bo‘lsam, men qotil sanalamanmi? Agar bugungi asrimizning vazifam tufayli menga nisbatan nafratda bo‘lgan biror oliftasi mendan qasd olmoqchi bo‘lsa, men bilan xolis joyda uchrashib, nayzasini chiqarib menga tajovuz qilsa va hayotimdan mahrum qilsa, hech bo‘lmaganda, meni yaralasa, agar qilichimni chiqarib, o‘zimni himoya qilish uchun uni ishlatsam va jamiyatni uning tinchligini buzadigan a’zosidan mahrum qilsam, aybdor hisoblanamanmi? Agar men buni o‘zimni himoya qilish uchun sodir etgan bo‘lsam, agar u mening hayotimga xavf solgan bo‘lsa va bunday qilmasam, hayotim abadiy achinarli qiyofa kasb etadigan bo‘lsa, jamiyat xavfsizligiga raxna soladigan bu a’zosining xatti-harakatini ham ko‘rib chiqish mumkinmi?

Mana shunday xayollar girdobida bu ishni ko‘rib chiqar chog‘imdagи ko‘nglim og‘riqlarini o‘zing ham his qilishing mumkin. Men o‘z fikrlarimni oddiy oshkorlik bilan hamkasblarimga bayon qildim. Hammalari bir ovozdan menga qarshi chiqishdi. Ko‘ngilchanlik va insonparvarlikni ular jinoyatchilikka qarshi kurashning dushmani, deb hisoblashdi; meni qotillikni rag‘batlantiruvchilikda ayplashdi; qotillarning hamkori sifatida ayplashdi. Mening zararli qarashlarim, ularning fikriga ko‘ra, ichki daxlsizlikni yo‘qotishga xizmat qilar emish. Bugungi kunda dvoryan qishloqda bexavf yashay olishi mumkinmi, deyishdi ular. U o‘z buyruqlarining amalga oshishiga erisha oladimi? Agar o‘z xo‘jayinining irodasiga bo‘ysunmaydiganlar, undan ham battarrog‘i – uning qotiliga aylanganlar aybsiz deb topiladigan bo‘lsa, itoatkorlikka putur yetadi, xonadondagi aloqalar buziladi, boshlang‘ich jamiyat a’zolariga xos bo‘lgan betartibliklar kelib chiqadi. Qishloq xo‘jaligi barbod bo‘ladi, uning asboblari yakson bo‘ladi, makkajo‘xori dalalari xarobazorga aylanadi va hosil bermaydigan bo‘lib o‘sadi;

o‘z ustidan boshqaruvga ega bo‘lмаган qishloq ahli dangasalik, tekinxo‘rlik ichra darbadar kezib, tarqoq holga kelib qolishadi. Shaharlar halokatning hukmron qo‘llari ostida qolganlarini his qila boshlaydilar. Fuqarolar hunarmandchilikdan begonalashishadi, qo‘l mehnati mehnatsevarlik va serg‘ayratlik fazilatlaridan mosuvo bo‘ladi, savdo sohasi qurigan manbasi ichra barham topadi, boylik ziqla qashshoqlikka yo‘l beradi, eng muhtasham binolar to‘ziy boshlaydi, qonunlar ishlamay yaroqsiz holga keladi. Shundan so‘ng jamiyatning ulkan birligi qismlarga bo‘linib, yemirila boshlaydi va bu parchalanish oqibatida butunlay inqirozga yuz tutadi, shunda bugungi kunda jamiyatning tayanchi, mustahkamligi, birligi asoslangan podsholik taxti nuray boshlaydi va yakson bo‘ladi; shunda xalqlar hukmdorlari oddiy fuqaro bo‘lib hisoblana boshlaydilar va jamiyat o‘z intihosini ko‘radi.

Hamkasblarim tomonidan jahannam mo‘yqalami bilan tasvirlangan bu manzara orqali ular ushbu qotillik bo‘yicha tarqalgan har xil gap-so‘zlarning oldini olib, odamlarning ko‘zini ochishga harakat qilishardi.

– Bizning raisimizga, – deyishdi yana ular men haqimda, – bu dehqonlarning qotilligini oqlashga o‘xshab ko‘rinadi. Uning kelib chiqishi to‘g‘risida so‘rab ko‘ring-chi! Agar adashmasak, yoshlida uning o‘zi shudgorga borishni istagan. Har doim bu yangi turdagи zodagonchalar dehqonlar ustidan zodagonlar huquqi tabiatи to‘g‘risida ajabtovur tushunchalarga ega bo‘ladilar. Agar unga qolsa, o‘z kelib chiqishini biz bilan tenglash uchun hammamizni dehqon qilib yollaydi.

Mana shunday so‘zlar bilan hamkorlarim meni haqorat qilishni va menga nisbatan jamiyat nafratini uyg‘otishni mo‘ljallahdi. Ammo bu bilan ham qoniqishmadи. Yana aytishdiki, go‘yo men o‘ldirilgan asessorning xotinidan uning dehqonlarini uzoq joylarda ishlashga surgun qilmaslik uchun pora olgan emishman va barcha dvoryanlar huquqini haqorat qiladigan g‘alati va zararli fikrlarimning boisi shu emish. Ularning, masxaralar meni kamsitadi, tuhmatlar tahqirlaydi, ezgu niyatimning noto‘g‘ri talqin qilinishi meni ulardan begonalash-tiradi, degan o‘ylari mutlaqo nooqilona edi! Ular mening qalbimni tushunishmasdi. Ular men o‘z shaxsiy sudim oldida hamisha tik va

titramay turishimni, yonoqlarimni hech qachon vijdon qizil rangga bo‘yamasligini bilishmasdi.

Ular mening pora olganimni shu bilan asoslashdiki, asessorning xotini erining o‘limi uchun qasos olishni istamadi, bundan tashqari, o‘z manfaatini ko‘zlagan holda, uning o‘zi ta’kidlaganidek, o‘z mulkidan (dehqonlarni mulki, deb hisoblaydi) mahrum bo‘lmaslik uchun va erining qoidalariga asoslangan holda, ularni jazolanmasligidan manfaatdor edi. U mana shu iltimos bilan mening yonimga keldi. Erining o‘limi uchun dehqonlarning kechirilishi to‘g‘risidagi fikriga men qo‘sildim, biroq bizning maqsadlarimiz turlicha edi. U meni uning o‘zi dehqonlarni erining o‘limi uchun yetarli darajada jazolashiga ishontirishga harakat qildi. Men esa, erining qotillarini oqlagan holda, unga dehqonlarni bu qadar o‘zidan chiqib ketar darajaga olib bormaslik lozimligini, agar shunday bo‘lmaganida, ular o‘zi ta’riflaganidek, bunaqangi g‘ayrioddiy hodisa ro‘y berma-gan va odamlar jinoyatga qo‘l urmagan bo‘lishlari mumkinligini ta’kidladim.

Ko‘p o‘tmay, gubernya harbiy boshlig‘i mazkur ish yuzasidan mening fikrim haqida xabardor bo‘ldi, shuningdek u, men sheriklarimni o‘z fikrim tomonga og‘dirishga harakat qilganim, ular bir qarorga kelishda ikkilana boshlashgani haqida ham xabardor qilishdi, biroq bunga mening dalil va mulohazalarimning qat’iy va ishonchligi emas, balki asessor xotinining puli asos qilib ko‘rsatildi. Uning o‘zi dehqonlar ustidan inkor etib bo‘lmaydigan boshqaruv qoidalari asosida tarbiya topganligi bois, u mening fikrimga qo‘sila olmasdi va fikrlarim, garchi, turli sabablarga ko‘ra bo‘lsa-da, mulohazalar chog‘i ustunligini namoyon qila boshlaganini ko‘rib, g‘azabi qaynay boshladi. U hamkasblarimga odam yuborib, ularni o‘zining qabih fikrlari bilan menga qarshi qo‘yadi, ya’ni u mening qarorim zodagonlar jamiyatni uchun tahqirlovchi ahamiyat kasb etishini, qonunlar tizimini buzish bilan shu qonunlar egasi bo‘lgan yuqori hukumatni ham haqoratlanayotganini uqtiradi va qonunga bo‘ysunmayotganlarga qasdma-qasd, qonun itoatkorlarini mukofotlashga va’da beradi; ko‘p o‘tmay, na ruhiy birdamlikka va mulohaza qoidalariga ega bo‘lgan bu zaif sudyalar yana o‘zlarining avvalgi fikrlariga qaytadilar. Men ulardagi bu beqarorlikdan ajablanmadim, chunki avval ham ularda

bunday qat'iyatsizlikni ko‘p ko‘rganman. Bunda zaif, qo‘rkoq va razil qalbning hukumat tahdididan titroqqa tushishi va uning muloyim munosabatidan quvonib ketishini ko‘rish mumkin, xolos.

Bizning boshlig‘imiz hamkasblarimning fikrini o‘zgartirish orqali, ehtimol mening fikrimni ham o‘zgartirishni ko‘zda tutgan va shunga ishongandir. Shu maqsadda, o‘sha kungi bayram nishonlanadigan bir kunda meni ertalabdan huzuriga chorladi. U meni chaqirishga majbur bo‘lgandi, negaki g‘urur amalga qarab sharaflanadigan, xushomadgo‘ylik talab qilinadigan, dono qabih hisoblanadigan va insoniyat tahqirlanadigan bu kabi ibodatlarga hech qachon bormagan bo‘lardim. U meni ataylab tantanali kunda chaqirdi, zero bu kuni uning yig‘inida juda ko‘p odam ishtirok etardi; u ataylab o‘zining nutq irod etadigan kunini tanladi va bu bilan mening qarashlarimga ta’sir ko‘rsatishga umid bog‘ladi. U menda yo ruhning qo‘rkoqligi, yoxud fikrlar zaifligini topishdan umidvor bo‘ldi. U o‘z so‘zlarini har ikkisiga ham qarama-qarshi qo‘ydi. Ammo men senga takabburlik, hukmronlik sururi, o‘zining ziyrakligi va bilimdonligiga bo‘lgan ishonch rag‘batlantirib, jon kiritgan uning bu suxandonligidan tafsilot keltirishga zarurat topmadim.

Uning takabburligini men bosiqlik va beparvolik bilan qarshi oldim, hukmronlikni sobitlik bilan, asoslarini asos bilan qarshiladim va sovuqqonlik bilan uzoq gapirdim. Va nihoyat, titrab turgan yuragim to‘lib-toshib, borini to‘ka boshladi. Qarshimdagilarning ko‘nglida fikrimga moyillik uyg‘onayotganini ko‘rganim sayin, tilim ham burrolasha bordi. Qat’iyatlari ovozim va yorqin ifodalashim bilan so‘zim so‘ngida shunday dedim:

– Inson dunyoga hamma tomondan teng bo‘lib keladi. Hammamizning tana a‘zolarimiz bir xil, hammamiz o‘z ongimiz va irodamizga egamiz. Binobarin, inson jamiyatga nisbatan bo‘lgan munosabatda o‘z xatti-harakatlarini amalga oshirishda hech kimga tobe bo‘Imagan mavjudotdir. Ammo u bularga to‘sinqo‘yadi, barcha xohish-irodalarda itoat etishga rozi bo‘lmaydi, o‘ziga o‘xshaganlarning buyrug‘ini ado etadi, bir so‘z bilan aytganda, fuqaroga aylanadi.

U qaysi gunohi uchun o‘z istaklarini jilovlaydi? Nima uchun o‘z ustidan hukmronlikni o‘rnatadi? Nima uchun keskin inon-ixtiyorini namoyon qilmoqni itoatgo‘ylik bilan chegaralaydi?

O‘zining manfaatlari uchun, – deydi aql; o‘zining ehtiyojlari uchun, – deydi ichki hissiyot; o‘zining foydasi uchun, – deb aytadi donishmand qonunlar. Binobarin, qayerdaki uning fuqarolik manfaatlari ro‘yobga chiqmas ekan, u o‘sha yerning fuqarosi ham emas. Binobarin, kim uning fuqarolik rutbasidan mahrum qilishdan zavq olar ekan, u mazkur fuqaroning dushmani. Fuqaro dushmaniga qarshi himoya va qasosni qonundan izlaydi. Agar qonun uni himoya qilish kuchiga ega bo‘lmasa yoki buni istamasa, agar hukumat uning kulfatida bir on bo‘lsa-da, yonida turib, ko‘maklashmasa, unda fuqaro o‘zining tabiiy o‘z-o‘zini himoya qilish, butligini ta’minalash, hayotini yaxshilash huquqlaridan foydalanishga majbur bo‘ladi. Negaki, fuqaro fuqaro bo‘lish bilan birga inson bo‘lishdan cheklanmaydi, insonning birinchi vazifasi esa, o‘z kelib chiqish mohiyatiga ko‘ra himoyasi, butligi va hayotining ta’minoti bilan belgilanadi.

Dehqonlar tomonidan o‘ldirilgan asessor o‘zining vahshiyligi bilan ularning fuqarolik huquqlariga dahl qildi. O‘z o‘g‘illarini zo‘ravonlikka undagan, kelin-kuyovlarning yaralangan qalbiga malham bo‘lish o‘rniga, uning ustiga tuz sepgan, o‘zining jahannam azoblarini joriy etgan hukumatiga qarshilikni ko‘rib, ularni jazolashga chog‘langan o‘sha onda fuqarolik huquqini himoya qilishi lozim bo‘lgan qonun uzoqda edi, hukumat ham bunga monelik qilmagandi; shunda tabiat qonuni jonlandi va o‘zining borlig‘ini namoyon qildi, shunda muammosi qonun bilan ijobiy yechim topmagan, kulfat ichra qolgan dehqonning fuqarolik hukmi harakatga keldi va vahsiy asessorni o‘ldirgan dehqon qonun bo‘yicha aybdor hisoblanmaydi. Mening qalbim idrok asoslariga suyangan holda ularni oqlamoqda va asessorning o‘limi ham, garchi kuch ishlataligan bo‘lsa-da, to‘g‘ri bo‘lgan.

Hech kim jon taslim qilgan asessorning zulmi ostida bo‘lgan qotillarni jazolashda siyosatning mulohazakorligi, jamoatning sukulidan assos izlash haqida xayol qilmasin. Fuqaro qanday holatda bo‘lmasin, u osmondan tushmaydi. U inson va hamisha inson bo‘lib qoladi; modomiki u inson ekan, ehtiyojning mo‘l-ko‘l manbasi sifatida uning tabiiy huquqlari hech qachon yo‘qolmaydi; kim uning mana shu tabiiy va buzilmas mulkiga daxl qilmoqqa jur’at etib, uni ranjitsa, u jinoyatchidir. Agar fuqarolik qonuni uni jazolamasaga, bu

falomkatdir. U holda u o‘z fuqarolariga qabohatning ifodasi sifatida taniladi, u fuqarolariga yetkazilgan ranj uchun qasos olishga yetarlicha kuchga ega.

Jim bo‘ldim. Boshliq menga bir so‘z ham demadi; har zamonda u menga ojizlik alami va qasos o‘ti hukmronlik qilgan nigohlari bilan ko‘z tashlab qo‘yardi.

Hamma sukul ichra barcha huquqlarni tahqirlovchi sifatida mening qamoqqa olinishimni kutib turardi. Ahyon-ahyonda laganbardorlar og‘zidan g‘azab ifodalangan ovozlar chiqib qolardi. Hamma mendan nigohlarini olib qochdi. Go‘yo mening atrofimni dahshat chulg‘ab turardi. Go‘yo vaboden qochganday mendan asta-sekin uzoqlasha boshlashdi. G‘urur va tubanlik aralashib ketgan bu manzara me’damga urdi va men bu laganbardorlar yig‘inini tashlab chiqib ketdim.

Mening qalbim oqlagan begunoh qotillarni qutqarmoqqa hech bir asos topolmagach, ularning jazolanishida ishtirokchi bo‘lishni, bunga guvohlik qilishni istamadim; iste’foga chiqish to‘g‘risida ariza berdim va dehqonlarning ayanchli qismati uchun yig‘lamoqqa, o‘z alamimni do‘stilarim bilan bo‘lashmoqqa ketyapman. – Mana shularni so‘zlab bergach, biz ajralishdik va ikkimiz turli tarafga jo‘nadik.

O‘sha kungi sayohatim omadsiz kechdi; otlar juda oriq edi, har daqiqada aravadan chiqib ketishardi; axiyri kichik tog‘dan tushayotib, aravamning g‘ildirak o‘qi sinib ketdi va men yo‘limni davom ettirolmadim. Piyoda yurishga odatlanib qolganman. Kichik hassatayoqni olib, oldinga, pochta stansiyasiga qarab, yo‘l oldi¹. Ammo Peterburg fuqarosi uchun bu katta ko‘cha bo‘ylab qilingan sayrni unchalik ham yoqimli, deb bo‘lmasdi, negaki u Yozgi bog‘ yoki Babadagi¹ sayr emasdi har holda; men juda tez toliqib qoldim va o‘tirib, nafas rostlashga majbur bo‘ldim.

Toshda o‘tirgancha, qumga qiyshiq chiziqli yoki qiyshiq burchakli, qandaydir egri-bugri chiziqlarni chiza boshladim va xayolimdan turli narsalar o‘tarkan, yonimga foytun yaqinlashib keldi. Unda o‘tirgan odam meni ko‘rib, to‘xtashni buyurdi va men unda o‘z tanishimni ko‘rdim.

¹ Baba – Peterburgdan Petergofga ketar yo‘lda, Fin qo‘ltig‘i yaqinidagi amaldor Narishkinga tegishli ingliz bog‘i, yakshanba kunlari sayr uchun mo‘ljallangan.

- Nima qilyapsan? – so‘radi u mendan.
- O‘y o‘ylayapman. O‘ylashga vaqtim bemalol yetarli: g‘ildirak o‘qi sinib ketdi. Nima yangiliklar?
- Hammasi o‘sha-o‘sha. Shamolga qarab ob-havo, goh unday, goh bunday. Ha... Aytgancha, yangilik bor, *Durindin uylandi* (80).
- Qo‘ysang-chi, uning yoshi saksonga bordi-yov.
- Xuddi shunday. Mana senga maktub... Bekorchilikda o‘qiysan; men esa shoshyapman. Uzr, – va biz xayrlashdik.

Xat bir og‘aynimdan edi. U yangiliklarga juda o‘ch bo‘lib, men yo‘qligimda ular haqida yetkazib turishga va’da qilgandi, so‘zida turibdi. Bu orada aravam g‘ildiragiga yangi o‘q o‘rnatishdi, baxtimizga u zaxirada bor edi. Yo‘lga tushib, xatni o‘qiy boshladim:

Peterburg.

Qadrdon do‘stim!

Mana shu kunlarda yetmish sakkiz yoshli yigit va oltmisik ikki yoshli qizning nikoh to‘yi bo‘lib o‘tdi. Agar negaligini so‘zlab bermasam, bu yoshda nikoh o‘qitish nima uchun kerakligini topish senga qiyin bo‘ladi. Qulog‘ingni och, do‘stim, va eshit. – Sh... xonim yoshiga nisbatan ancha tetik, oltmisik ikki yoshda bo‘lib, yigirma besh yoshidan beri beva. Savdosi yurishmagan bir savdogarga turmushga chiqqan; yuzi oyday; eridan so‘ng hech vaqosiz qolgan; erining aka-ukalarining toshbag‘ir ekanligini bilgani tufayli, ularning oldiga yordam so‘rab borishni istamagan, o‘z mehnati bilan halol pul topib yashashga qaror qilgan. Yuzida yoshlik go‘zalligi balqib turar ekan, u har doim o‘ziga ish topa olgan va ovchilardan mo‘maygina haq olib turgan. Biroq ko‘p o‘tmay, go‘zallik uni tark eta boshlagan va muhabbat g‘amxo‘rliklari o‘rnini zerikarli yolg‘izlik egallay boshlagan. Buni payqagach, u endi aqlini ishga solgan, o‘zining so‘nib borayotgan jozibasiga boshqa xaridor topilmagach, endi har doimgidek go‘zallikning qadri bo‘lmasa ham, yangilikning qadri sifatida begonalar bilan savdolasha boshlagan. Mana shu tarzda u bir necha ming rubl pul ishlab topgach, qo‘shmachilarining manfur jamiyatidan sharaf bilan chiqib, o‘zining va o‘zgalarning orsizligi evaziga topilgan pulini ko‘paytirib qaytarish evaziga qarzga bera boshladi. Vaqt o‘tishi bilan uning eski hunari unutila boshlandi va sobiq qo‘shmachi

pulxo‘rlar jamiyatining kerakli itiga aylandi. Oltmisik ikki yoshgacha u xotirjam yashab keldi va unga erga tegish haqida yo‘l ko‘rsatish ham oson bo‘lmadi. Bu holat uning barcha tanishlarini hayratga soldi. Uning yoniga yaqin dugonalardan biri N... keldi.

— Azizam, eshitishimga qaraganda, — dedi u sochi oqargan kelinga, — sen erga tegayotgan emishsan. Menimcha, bu mish-mish bo‘lsa kerak. Bu hikoyani birorta hazilkash o‘ylab chiqargan-ov.

Sh. Bu mutlaqo haqiqat. Ertaga unashiruv bo‘ladi, sen ham kel, nishonlashga.

N. Aqldan ozdingmi? Nahotki eskirgan qon qizishib ketgan bo‘lsa? Nahotki qandaydir mishiqi uyingdan boshpana topmoqchi bo‘lgan bo‘lsa?

Sh. Eh, onaginam mening! Sen meni yosh yigitlar bilan yengiltaklik qiladiganlarga behuda tenglading. Men erimni o‘zimga olyapman...

N. Bilaman, u sening yoningga kelishini. Ammo esingda bo‘lsin, bizni endi sevib bo‘lmaydi. Sevganlarida ham boshqa narsa uchunmas, pul uchun yaxshi ko‘rishadi.

Sh. Men bunaqa menga xiyonat qiladiganni olmayman. Mening qallig‘im o‘zimdan o‘n olti yosh katta.

N. Hazillashyapsanmi!

Sh. O‘lay agar, rost: u baron Durindin bo‘ladi.

N. Bunday bo‘lishi mumkin emas.

Sh. Ertaga kechga kel: ko‘rasan, men yolg‘on gapirishni yomon ko‘raman.

N. Hatto shunday bo‘lganda ham, u senga emas, sening pulla-ringga uylanyapti.

Sh. Kim unga pul beradi? Men birinchi kechadayoq bor mulkimni hadya qiladigan darajada aqldan ozmaganman. Unaqa davlar allaqachon o‘tib ketgan. Oltin tamakidon, kumush to‘qalar va shu kabi boshqa ashqol-dashqollar, bular mening qo‘limda garovga qoldirilgan va ularni qo‘ldan chiqarib bo‘lmaydi. Sevimli kuyovto‘ranning bor foydasi shu. Agar tunda tinch uxlamasu, uni yotog‘imdan haydab chiqaraman.

N. Unga hech bo‘maganda tamakidoncha tegar ekan, ammo bu nikohdan senga nima foyda?

Sh. Qanday foydasi bo‘lmasin, onaxon? Bundan tashqari bugungi kunda yaxshi amal unvoniga ega bo‘lish qiyin, meni hamma muhtaram xonim, undan ahmoqroqlari esa zoti oliyalar, deb atashadi. Qishning uzun tunlarida yoningda hech bo‘lmasganda sen bilan zeriktirmaydigan odam bo‘ladi. Kuni bo‘yi o‘tiraverasan, o‘tiraverasan, faqat yolg‘izlik; hatto aksa ursang sog‘ bo‘l, deydigan odam ham bo‘lmaydi atrofingda. Agar o‘zingning ering bo‘lsa, shamollaysanmi, tumov bo‘lasanmi, muntazam «sog‘ bo‘l», «jonim», «azizam», «quyoshim» kabi so‘zlarni eshitib turasan.

N. Meni kechir, onaxon.

Sh. Ertaga unashtiruv, bir haftadan keyin esa to‘y.

N. (Ketadi).

Sh. (Aksiradi). Kelmaydi, albatta. O‘zingning ering bo‘lgani butunlay boshqa gap!

Hayron bo‘lma, do‘stim! *Bu dunyoda hamma narsa g‘ildirakday aylanadi* (81). Bugun aqllilik, ertaga ahmoqlik urf bo‘ladi. Umid qilamanki, hali sen Durindinlarning ko‘pini ko‘rasan. Agar ular uylanishi bilan ajrab turmasa, boshqa nimasi bilan ajrab turadi. Durindinlarsiz dunyo uch kun ham turmagan bo‘lardi.

Krestsi

Krestsida men otalar va bolalar o‘rtasidagi uzoqlashishni ko‘rdim, bu mening qalbimni titratib yubordi, negaki men ham otaman va ehtimol yaqin orada ular bilan ajrab ketarman. Dvoryanlik unvonining bema‘ni odati ularni xizmatga ketishga buyuradi. Faqat unvonning o‘zi ularning butun qonini g‘ayrioddiy harakatga keltiradi! Ulardan mingdan birinigina tutib qolish mumkin, xizmatga kirgan yuz nafar zodagonchalardan to‘qson sakkiz nafari yengiltabiat, havoyilarga aylanishadi, ikki nafari esa qarish oldidan, aniqroq aytganda keksayib qolganda bir necha yil bo‘lsa ham oqko‘ngil odamlar bo‘lishadi. Boshqalari esa amalga mingach, kayf-safo qilishadi, mol-mulk to‘plashadi va hokazo...

Gohida katta o‘g‘limga boqib, uning hademay xizmatga kiriши yoki boshqacha aytganda, qushcha palapon bo‘lib o‘z qafasidan uchib chiqishi haqida o‘ylaydigan bo‘lsam, sochlarim tikka bo‘lib

ketadi. Xizmat o‘z-o‘zidan badaxloq yo‘llariga olib kirishi kerak emas, balki barkamol axloq bilan xizmatni boshlashi kerak.

Ba’zilar aytishi mumkin: kim bunaqangi mishiqlarni bo‘ynidan itaradi? Kim? Umumiy misol keltiraman. O‘n yetti yoshli shtab-ofitser; yigirma yoshli polkovnik; yigirma yoshli general; kamerger¹, senator, gubernya harbiy boshlig‘i. Qaysi ota bolalarining yosh bo‘lsa ham ortidan boylik, shavkat va idrok olib keluvchi sharafli unvon egasi bo‘lishini istamaydi? O‘g‘limga qarab, ko‘z oldimda quyidagilar namoyon bo‘ladi: u xizmat qilishni boshladi, yengiltaklar, axloqsizlar, qartabozlar, oliftalar bilan tanishdi. Yasan-tusan qilishni, qimor o‘ynashni, qimor orqali pul topishni o‘rgandi, hech narsani fikr qilmay, og‘ziga kelganni valdiraydi, qizlar ortidan yuguradi va barin ayollarining qulog‘iga bo‘limg‘ur gaplar bilan lag‘mon iladi. Qaysidir yo‘l bilan ingichka oyog‘ida turib aylanayotgan taqdir unga kulib boqdi va o‘g‘lim hali soqoli ham chiqmay sharafli boyarin unvoniga ega bo‘ldi. O‘zi haqida dunyodagi eng aqlli inson bo‘lishni orzu qildi. Bunday qo‘sishin boshlig‘i yoki shahar hokimidan qanaqangi ezgu ish kutish mumkin?

Qani, ayt-chi, ey farzandini yaxshi ko‘radigan ota, qani ayt, ey haqiqatgo‘y fuqaro! Bolangni bunaqangi xizmatga yuborgandan ko‘ra bo‘g‘ib o‘ldirganing yaxshi emassi? Sening o‘g‘ling, asilzoda boyarin, ularning qismati amal yo‘lida laganbardorlik qilish, jirkanch sullohlik bo‘lgani uchun xizmat va qadr-qimmatni kamsitsa, ko‘ngling og‘rimaydimi? Sening sevimli o‘g‘iljoning yoqimtoy tabassum bilan mol-mulk, or-nomusni tortib olsa, odamlarni har doim o‘zining boyarinlik qo‘li bilan emas, erkatoylarining changali bilan zaharlasa va so‘ysa o‘kirib yig‘lamaysanmi?

Krestsilik zodagon nazarimcha ellik yoshlarda edi. Yorqin mal-larang sochlari orasida boshining har joy-har joyida kulrang tolalar ham ko‘zga tashlanib turardi. Yuzidagi to‘g‘ri chizgilar uning qalbi ehtiroslarga moyil bo‘lmagan xotirjam ekanligini ifodalab berardi. Yuvosh tabiatining mahsuli bo‘lgan sokin halovatning muloyim tabassumi ayollarning yuzlarida juda ham jozibali ko‘rinadigan yonoqlarda kulgich hosil qilgandi; men u o‘tirgan xonaga kirganimda uning nigohlari ikki o‘g‘liga qaratilgandi. Uning ko‘zları,

¹ Kamerger – o‘scha davrdagi saroy a’yonlaridan biri.

sof aqlning ko‘zлari g‘amning yupqa pardasi bilan qoplanganday ko‘rindi go‘yo, biroq qat’iyat va umid uchqunlari shitob bilan uni uchirib ketdi. Uning ro‘parasida deyarli tengdosh, tug‘ilgan vaqtları orasida bir yilgina farq bo‘lgan, biroq tafakkurlari va qalblari bilan bir-birlaridan mutlaqo farq qiladigan ikki o‘smit o‘tirardi. Yoki otanonasidagi qaynoqqonlilik kichigida aql rivojini tezlashtirib yuborgan bo‘lsa, ularning aka-ukalarga bo‘lgan muhabbatlari kattasining fanlarni o‘zlashtirishdagi muvaffaqiyatlarini cheklab qo‘ydi. Narsalarga nisbatan tushunchalari bir xil edi, hayot qoidalarini ham teng darajada bilishardi, tafakkur tezligi va qalb harakatini tabiat ularga turlicha taqsimlagandi. Kattasining nigohlari qat’iy, yuz ifodalari o‘zgarmas bo‘lib, u faoliyatidagi qat’iyatli va barqaror ruhiyati haqidagi boshlang‘ich ma’lumot berardi. Kichigining nigohi o‘tkir, yuz ifodasi beqaror va o‘zgaruvchan edi. Ammo ularning bir tekis harakati samimiy bo‘lib, bu ularga otalarining yaxshi tarbiya bergandan dalolat berardi. Ular otalariga o‘zlariga nisbatan hukmronlik va boshqaruvi hissiyoti bilan emas, balki oldilarida turgan ayriliq hasrati ichra ularga xos bo‘lmagan jur’atsizlik bilan mo‘ltirab turishardi. Ko‘zларидан esa har zamonda yosh dumalab tushardi.

— Azizlarim mening, — dedi ota. — Bugun sizlar bilan ayrilamiz, — bolalarini qucharkan, bo‘g‘zidagi o‘kirikni arang bosdi.

Men eshik oldida qimirlamay turgancha, bir necha daqiqa bu manzaraning guvohi bo‘ldim. Shundan so‘ng ota menga qarata dedi:

— Guvoh bo‘l, ey nozikta‘b yo‘lovchi, Xudo oldida guvoh bo‘l, bu odatning hukmron irodasini ado etish yuragim uchun qanchalar og‘ir bo‘lmoqda. Men farzandlarimni ota-onaning hushyor nigohlari ostidan uzoqlashtirar ekanman, bundan men istagan yagona narsa shuki, ular tajriba orttirishsin, insonni uning bajargan amallariga qarab tanishsin, dunyoviy hayot gulduraklaridan bezib, uni quvonch bilan tark etishsin; biroq ta‘qibdan qochgani boshpanalari va qashshoqlikda bir burda nonlari bo‘lsin. Mana shuning uchun men ham maydonda qolaman. O, saxovatli egam, ularni rahbarlar marhamati uchun sarson qilma, ularga hamisha yupanch bo‘l! Qalblari hamisha ularga hamdard bo‘lsin, aqliali esa ezgu ishlarga boshlasin.

O‘tiring va mening so‘zларимни diqqat bilan eshiting, ular hamisha qalbingizda burchga aylansin. Yana sizga takrorlayman, bugun

siz bilan ayrilamiz. Bugun yonoqlaringizni yuvib turgan yoshlaringizni xayrixohlik bilan kuzatib turibman, bu yoshlari qalqib turgan muqaddas yuragingizga mening yo'riqlarimni quysin, toki u men sizlarni eslaganda jumbishga kelsin, negaki sizning qayg'ungizda va mashaqqatingizda qalqon sifatida yoningizda bo'lmayman.

Sizlarni *onangizning qornida bo'lganiningizdanoq himoyamga oldim* (82), sizga bog'liq biror g'amxo'rlikda hech kimning aralashi shini istamadim. Hech qachon biror yollangan enaga tanangizga qo'l tegizmadi, hech qachon birorta vasiy qalbingiz va tafakkurin-gizga kirib bormadi. Muhabbatimning bedor ko'zлari sizga birorta alam yopishmasligi uchun kecha-yu kunduz sizni qo'riqlab turdi; bugun esa sizning uchirma bo'lib mendan yiroqqa ketishingizni saodat, deb atayman. Ammo zinhor-bazinhor meni sizga qilgan barcha g'amxo'rliklarim uchun sizning og'zingizdan minnatdorchilik eshitmoqni yoxud buni tan olishingizni istayapti, deb o'ylay ko'rmang. Biz o'z shaxsiy manfaatlаримизни hamisha sizning foydangizni ko'zda tutishi bilan bizda huzur uyg'otuvchi, shaxsiy ehtiyoj ko'rinishidagi maqsadlar orqali boshqaramiz. Endi mening hukmronligim ostida ekanligingiz haqidagi fikrlarni xayolingizdan chiqarib tashlang. Siz mendan hech narsa qarzdor emassiz. Qonunlarda ham yuqori darajada aks etmagan bizning o'rtamizdagи birlikni, ittifoqni aqldan izlamoqchi emasman. Bu ittifoq sizning yuragingizda ildiz otadi. Agar u haqida unutadigan bo'lsangiz, bu siz uchun ulkan kulfatdir! Qalbingizdagи qiymofam bu birlikni buzmoq bo'Iganni та'qib ostiga olib, uning niyati bilan birga mavh etadi, uni qalbingizdan haydar chiqaradi va unga shunday og'ir jazo beradiki, u qaytib ittifoqimizga kira olmaydi.

Yana bir bor ta'kidlayman: siz mening oldimda hech narsaga qarzdor emassiz. Menga bir darbadar yoki musofirday qarang, agar qalbingizda menga nisbatan nafis bir tuyg'ularni, iliqlikni his et-sangiz, u holda dunyodagi eng ulug' xotirjamlikda va birdamlikda yashaymiz. Biroq agar siz bunday tuyg'ularni his qilmasangiz, xuddi tug'ishmaganlarday, bir-birimizni unutishga dohil bo'lamiz. O, saxovatli Egam! To tirikman, sening huzuringga borgunga qadar bunday kunni ko'rsatmagin! Sizni boqqanim uchun ham, yo'l-yo'riqqa

solib, o‘qitganim uchun ham, bundan ham kamrog‘i – tug‘ilganingiz uchun ham qarzdor emassiz.

– Tug‘ilganligi uchun? – Siz bunda ishtirok etdingizmi? Sizdan tug‘ilishni istashingizni so‘rashdimi? Tug‘ilganingiz sizning foydangizga bo‘ldimi yoki zararingizga? Ota va ona o‘g‘ilni dunyoga keltirgach, bu unga baxt keltiradimi yoki musibat: bu ularga ma’lummidi? Kim aytishi mumkin, oila qurayotib, o‘zining nasli va avlodlari to‘g‘risida o‘ylab ko‘rganmi; agar mana shu niyatni ko‘ngliga tukan bo‘lsa, u buni bolalarning baxt-saodati uchun qildimi yoki o‘z nomini saqlab qolishni nazarda tutdimi? Men o‘zim bilmagan odamga qanday qilib ezgulik tilashim mumkin va bundan nima chiqadi? Noma’lum odamga noaniq istakni ezgu deb atash mumkinmi?

Tug‘ilishning aybdori ham aslida oila qurish mayli sanaladi. Chehrasidan ham ko‘ra onangizning olajanob qalbiga maftun bo‘lgan holda, har ikki taraf o‘zaro ehtiroslarining ishonchli vositasi bo‘lgan muhabbatni ishga soldim. Onangizga uylandim. Ammo muhabbatimizning oliy istagi nima edi? Ikkimizning saodatimiz, sururimiz, tana va ruhning sururi. Tabiatdan ato etilgan bu shodlik zavqini totar ekanmiz, biz siz haqingizda fikr yuritganimiz yo‘q. Sizning tug‘ilishingiz siz uchun emas, biz uchun yoqimli bo‘lgan. O‘z-o‘zingni yaratish, sening yangi insonda takrorlanishing senga g‘urur bag‘ishlaydi, sizning tug‘ilishingiz yangi va ehtirosli, boshqacha aytadigan bo‘lsak, birlik, yuraklar tasdiqlagan birlik edi. Mana shu birlik ota-onaning o‘z o‘g‘illariga bo‘lgan jo‘shqin hissiyotlarining manbayi hisoblanadi; bu birlik o‘g‘illarning otaga bo‘lgan maqtovlari aks etadigan hukmronlikni his qilish bilan mustahkamlanadi.

Onangiz tug‘ilganingizdanoq sizga hamroh bo‘lib keladigan mavqeyingizning kichikligi to‘g‘risidagi qarashlarda men bilan ham-fikr bo‘lgan. U sizlarni o‘z vujudida ko‘tarib yurganligi bilan sizning oldingizda g‘o‘ddaymadi, sizni qoni bilan oziqlantirarkan, buni tan olishingizni talab qilmadi; tug‘ish azobi, sizni tunlari ko‘krak suti bilan boqish mashaqqatlari uchun sharaflanishni istamadi. U qalbi bilan bor mehrini berdi va, albatta, o‘zi ham mehr oldi, bu bilan u majburiyat emas, hukmronlik emas, qullarcha itoatkorlikni emas, balki do‘slikni o‘rnatmoqchi bo‘ldi. Uning qismati o‘z ekan mevasining hosilini ko‘rmoqqa izn bermadi. U bizni qat’iyatli

ruhiyat bilan tark etgan bo'lsa-da, o'zi o'limni istamagandi. Biroq sizning go'dakligingiz va mening o'tinchlarim behuda ketdi. Unga o'xshashga harakat qilib, biz hech qachon uni yo'qotmaymiz. Uning yoniga borgunimizga qadar u biz bilan yashaydi. Bilasizmi, siz bilan eng yoqimli suhbatim bu – onangiz to'g'risidagi suhbatdir. Shunda go'yo uning ruhi biz bilan suhbatlashadi, shunda u bizning davramizda ishtirok etayotganday bo'ladi, shunda u bizda namoyon bo'ladi va shunda u hali ham biz bilan yashayotgan bo'ladi. – U qalbidan qalqib chiqib, kiprigiga osilgan yoshni artdi.

Tug'ilganingiz uchun mening oldimda qancha kam majburiyatda bo'lsangiz, uning bergen oq suti uchun ham shuncha qarzdorsiz. Agar men musofirni mehmon qilsam, agar qushlarga don sepsam, yaylovimda yastanib yotgan itga ovqat bersam, bularning barini faqat ularning ehtiyojlarini qondirish uchun qilyapmanmi? Yo'q, bundan o'zim ham zavq olaman yoki shaxsiy manfaat ko'raman. Farzandlarni boqish ham mana shunday mayl asosida amalga oshadi. Dunyoga kelgach, siz o'zingiz yashab turgan jamiyatning fuqarolariga aylangansiz. Sizni boqish esa mening majburiyatim hisoblangan, agar sizni boqmay, bevaqt dunyodan ko'z yumishingizga sabab bo'lganimda, u holda qotilga aylanardim. Agar boshqalarga qaraganda sizlarni o'sib-ulg'aytirishga ko'proq g'ayrat sarflagan bo'lsam, unda qalbim buyurganiga qulqoq tutganman. Mening hukmronligim, ya'ni sizni boqish to'g'risida qayg'uryapmanmi yoki bu masalni e'tiborsiz qoldiryapmanmi; sizning kunlariningizni asrayapmanmi yoki ularni sovuryapmanmi; sizlarni tirik qoldiramanmi yoki ajalingizdan besh kun oldin vafot etishingizga yo'l qo'yib beramanmi – bularning bari siz tirikligingiz uchun mening oldimda qarzdor emasligingiz uchun dalillardir. Agar ko'pchilikda bo'lgani kabi, sizni asrolmaganim uchun dunyodan ko'z yumganingizda, qonun qasos olish uchun meni ta'qib ostiga olmagan bo'lardi.

Biroq aytishadiki, siz menga bergen ta'lif va tarbiyam uchun qazdorsiz. – Bu qarzdorlik ostida ham men o'z manfaatimni izlamayapman, balki sizning foydangizni o'layapman. Yaxshi amallaringiz, xulqingiz, bilimingiz, iqtidoringiz uchun sizga aytilgan olqishlar sizdan o'tib, xuddi quyosh nuri ko'zguda aks etgani kabi, menda namoyon bo'ladi. Sizni maqtashgani – meni maqtashgani bo'ladi.

Agar siz illatlarga o'ralashib qolganingizda, ta'lidan yiroq bo'lib, fikringiz sayoz, o'zingiz yovuz, yaramas va hissiyotlardan begona bo'lganingizda men nimaga erishgan bo'ladim? Sizning qilmishlar ringizda nafaqat men bilvosita jabrlanuvchi, balki qiziqqonligingizning qurbaniga ham aylangan bo'lardim. Ammo endi sizni o'zimdan ajratar ekanman, bu yerda xotirjamlik bilan qolaman; negaki aqlingiz yetuk, qalbingiz mustahkam va men ularda yashayman. O, mening do'stlarim, qalbimning o'g'illari! Sizni dunyoga keltirib, oldingizda juda ko'p majburiyatlarga ega bo'ldim, ammo siz menga hech narsada qarzdor emassiz; men sizning do'stligingizni va muhabbatizingizni izlayapman; agar siz ularni menga tortiq qilsangiz, men hayotimning boshidanoq baxtga ega bo'lgan bo'laman va sizlarni abadiy tashlab, bu dunyodan ko'zlarimni xotirjam yumib ketaman, chunki sizning xotirangizda yashab qolaman.

Ammo sizning tarbiyangiz borasida o'z vazifamni ado etgan bo'lsam, endi sizga aybimni ham aytishim lozim, nima uchun men sizga boshqacha tarzda emas, aynan mana shunday ta'lim va tarbiya berdim; buning uchun sizning tarbiyangiz borasidagi hikoyamni eshitasiz va sizga bo'lgan munosabatda mening qilgan barcha ayblarimni anglaysiz.

Sizlar go'dakligingizdanoq kamchilik bilmay ulg'aydingiz. Garchi sizning harakatlaringiz mening qo'l ostimda sodir bo'lgan bo'lsa-da, siz hech qachon ularning yo'nalishini his etmadingiz. Sizning harakatlaringiz oldindan taxmin qilingan va oldindan ko'zda tutilgan. Itoatkorlik ruhi yoki jur'atsizlik zarragina bo'lsa ham sizning yelkangizga o'z yukini tashlashini istamadim. Chunki ruhingiz johillar hukmronligiga nisbatan murosasiz, do'stlik ko'rsatmalariga nisbatan xayrixoh bo'lishini xohladim.

Ammo agar siz bolajonlarimga alohida e'tibor bilan men tomonimdan tayinlagan yo'ldan og'ishayotganingizni aniqlaguday bo'lsam, sizni to'xtatdim va sezdirmasdan oldingi yo'lga solib yubordim, yoki boshqacha qilib aytganda, o'zanini buzib oqayotgan oqimni ustomon qo'llar yordamida o'z qirg'oqlari tomon burdim...

Sizlarni yomon ob-havo yoki kutilmagan falokatlardan himoya qilish uchun go'yo jon kuydirmayotganday bo'lib ko'rinsam-da, aslida bunga jur'atsizlik menda umuman bo'lмаган. Shunchaki, sizni

chiniqtirish uchun tanangiz bir lahza bo'lsa-da, og'riqni his qilishi-ga qo'yib berdim, aks holda yoshingiz ulg'ayganda nozik xomsemiz bo'lib qolgan bo'lardingiz. Buning uchun sizni tez-tez yalangoyoq va boshyalang yurishingizga qo'yib berdim; changmi, loymi, gohida dam olish uchun o'rindiq yoki biror tosh ustida yotardingiz. Sizni halokatga olib boruvchi ovqat va ichimliklardan tiyish uchun oz-muncha harakat qilmadim. Jismoniy mehnatlarimiz ovqatimiz uchun eng xushxo'r ziravor vazifasini o'tadi. Eslaysizmi, uyga qaytishga yo'lni topolmay, bizga notanish bo'lgan qishloqda qanday maza qilib tushlik qilganmiz. O'shanda javdar noni bilan qishloq kvasi bizga naqadar mazali tuyulgandi!

Agar gohida bashang ko'rinasangiz, egningizdag'i hozirgi urfdagi yoki rusumdagiga mos kelmagan holda, qomattingizda shalvirab turgani uchun, did bilan kiyinmaganingiz uchun yoki sochlarinigiz sartaroshlar tomonidan qo'ng'iroq qilinmay, tabiatan jingalak bo'lGANI uchun mendan norozi bo'l mang. Agar yig'inlarda, ayniqsa, ayollar davrasida iltifotli bo'la olmasangiz va ularning go'zalligini olqishlab ko'nglini olishni uddalay olmasangiz, mendan nolimang; biroq yodingizda tuting, siz tezroq yuguryapsiz, siz toliqmay suzib boryapsiz, siz og'irlikni zo'riqmay ko'taryapsiz, siz qo'sh hayday olasiz, egat ololasiz, chalg'i va boltadan, randa va iskanadan foy-dalanishni bilasiz; otda yurishni va otishni eplaysiz. Masxaraboz singari sakrashni bilmaganingiz uchun g'am chekmang. Bilingki, eng yaxshi raqs ham ulug'verlikni anglatmaydi. Agar qachonlardan uning nazariga tushib qolsangiz, u holda buning ildizi faqat shahvat bo'ladi, boshqa narsa unga begona.

Ammo siz jonli va jonsiz narsalarni, tabiat shohi bo'lgan insonning chizgilarini tasvirlay olasiz. Tasvirlardan nafaqat hissiyotning, balki aqlning ham haqiqiy zavqini topa olasiz. Men sizlarni musiqa o'rgatdim, toki chertilayotgan torlar sizning asablaringizga hamohang ravishda yuraklariningizni ham titroqqa solsin; chunki musiqa ichki olamimizni harakatga keltirish bilan birga mehribonlikni biz uchun odat tusiga olib kiradi. Men sizni yovvoyi san'atga qarshi qilich bilan kurashishga o'rgatdim. Toki shaxsiy himoyangiz talab qilmagunga qadar bu san'at sizda jonsiz yotsin. Umid qilamanki, bu san'at sizni surbetga aylantirmaydi; chunki siz mustahkam ru-

hiyatga egasiz va agar eshak sizni temsila etsa va cho'chqa sizga badbo'y tumshug'i bilan teginsa, buni jinoyat deb hisoblamaysiz. Siz kim-gadir sigir sog'ishni bilishingizni, karam sho'rva va bo'tqa pishi-ringizni yoki siz qovurgan go'sht bo'lagi juda shirin chiqishini aytishdan qo'rqmang. Nimadir qilishni bilgan odam o'sha ishni qili-shga majburlashni ham biladi, bu ishni amalga oshirishning barcha qiyinchiliklarini bilgan holda, xatolarga nisbatan kechirimli bo'la oladi.

Go'daklik va bolalik davringizda sizning ongingizni tayyor fikrlar yoki begonalar fikri bilan to'ldirmadim, xotirangizga oshiqcha narsalarni yuklamadim. Ammo sizga bilish yo'llarini ko'rsatdim, ta-fakkuringiz o'z kuchini his qila boshlagandan beri, o'zingiz uchun ochiq yo'ldan bormoqdasiz. Sizning bilimingiz shu bilan mustah-kamlandiki, bir maqolda aytiganday, siz ularni to'tiday takrorlab, asossiz o'zlashtirib oldingiz. Ushbu qoidaga rioya qilgan holda, toki tafakkuringiz harakatga kelmagunga qadar, men sizga eng oliv mav-judot, undan ham kamroq vahiy to'g'risida tushuncha olishni taklif qilmadim. Chunki siz tafakkur kuchiga suyanishdan oldin ular haqi-da bilganingizda sizda xurofot paydo bo'lган va bu fikringizga ta'sir ko'rsatgan bo'lardi. O'z xulosalaringizda aql va mulohaza bilan yondashayotganiningizni ko'rganimdan so'ng, sizga Xudoni tanishga oid yetakchi tushunchalar birikmasini bera boshladim; qalbimning tub-tubidan bu ikki beg'ubor qalb saxovatli Egamga xush kelishiga aminman, chunki ularning bilim chirog'i xurofot chaqmog'i bilan yonmayapti, balki bu bilimlarning o'zi alanganing dastlabki cho'g'i darajasiga ko'tarildi. Shunda men sizga ko'pchilik tomonidan rad etilgan qonun to'g'risida ham hech narsani yashirmagan holda tushuncha berdim. Chunki men sut va safroni siz o'zingiz musta-qil farqlay bilishingizni istadim va quvonch bilan ko'rdimki, siz qo'rqmasdan sizga tasallli beradigan jomni tanladingiz.

Sizga fanlar to'g'isida ma'lumot berar ekanman, xorijiy tillarni o'rgatish orqali turli xalqlar bilan tanishtirishni ham nazardan chet-da qoldirmadim. Lekin birinchi navbatda men qayg'urgan narsa shu bo'ldiki, siz, avvalo, o'z ona tilingizni bilishingiz, unda o'z fikrla-ringiz yozma va og'zaki holda bayon qila bilishingiz, ularni bayon qilishda qiyinchilik tug'ilmasligi va yuzingizdan ter chiqmasligi lo-

zim edi. Ingliz tili, keyin esa lotin tili va so‘ng boshqalaridan ham sizga ma’lumotlar berishga harakat qildim. Negaki, erkinlik ruhining egiluvchanligi nutq obraziga o’tarkan, aqlni har qanday boshqaruvda o‘ta muhim bo‘lgan qat’iy tushunchalarga odatlantiradi.

Ammo agar sizning hukmingizga qadamlaringizni ilm yo‘liga tashhamoqni havola etgan bo‘lsam, sizda axloq qoidalarini shakllantirishda ham shunchalik hushyorlik bilan yondashdim. Idrokingizni qasos istagiga qadar olib boruvchi uzoq davom etadigan g‘azabga duchor qilish orqali, sizda bir lahzalik g‘azabni bosishga harakat qildim. Qasos! Qalbingiz undan nafratlanadi. Siz o‘z yarangizga tuz sepiш istagini to‘g‘rilab, qasos deb atalmish tabiatan sezgir bo‘lgan bu maxluq harakatidan o‘zingiz uchun faqat himoya xususiyatlarini olib qoldingiz.

Endi esa vaqt keldi, hayajonning mukammalligiga erishgan, lekin hali hayajonlantirgan narsa to‘g‘risidagi tushunchaning mukammalligiga yetib bormagan his-tuyg‘ularingiz har qanday ko‘rinishdan larzaga kela boshlaydi va ichki olamingizda xavfli to‘lqinni yuzaga keltiradi. Endi esa, aytganlaridek, aql harakat va harakatsizlikning aniqlovchisi bo‘ladi, deydigan davr yetib keldi; yoki ehtimol buni, shu vaqtga qadar go‘dakning muloyimligi bilan tutib turilgan hissiyotlar titroqni his qila boshlagan vaqtida yoxud hayot sharbat o‘smirlik jomini to‘ldirib, o‘z intilishlari uchun yo‘l izlagan holda uning qirg‘og‘idan toshib chiqadigan davr keldi, deb ifodalasak yaxshiroq bo‘lar. Men sizlarni hayajonning hozirgacha egallanmagan egri hislaridan avayladim, biroq sizdan ko‘rinmas parda ortida turgan, hissiy lazzatdagagi mo‘tadillikdan og‘ishning halokatli oqibatlarini yashirmadim. Siz hissiy to‘yinganlikdan haddan ortiqchasingning qanchalar jirkanch ekaniga guvoh bo‘ldingiz va hazar qila boshladitingiz; o‘zining tabiiy oqimi qirg‘oqlaridan toshib chiqqan ehtiros-larning qo‘rqinchli to‘lqinlarining guvohi bo‘ldingiz, uning halokatli oqibatlarini ko‘rib, dahshatga tushdingiz. Mening tajribam, yangi yegid¹ singari boshingiz uzra parvoz qilib, sizni noo‘rin jarohatlaridan himoya qilib turdi. Endi o‘zingizga o‘zingiz hukmon bo‘lasiz, mening maslahatlarim esa har doim boshlayotgan ishlaringizda mayoq vazifasini o‘tab turadi, chunki qalbingiz va ruhingiz men

¹ Yegid (Yegida) – yunon mifologiyasida Zevsning to‘sig‘i, himoya ramzi (*tarj.*).

uchun ochiqdir. Biroq chiroq jismidan uzoqlashgani sari uni yoritishi ham kamayib boradi, siz ham shunday, yoningizda bo‘lmas ekanman, mening do‘sligim taftini ham zaif his qilasiz. Buning uchun sizga yolg‘iz yashash va birgalikda yashash qoidalarini o‘rgataman, toki harakat ehtiroslarni jilovlashdan qaytmasin va pushaymon nima ekanligini bilmisin.

O‘zingiz bilan bog‘liq bo‘lish ehtimoli kam bo‘lgan yolg‘iz yashash qoidalari sizning jismoniy va axloqiy jihatlariningizga tegishli bo‘lishi lozim. Jismoniy kuchlariningiz va hissiyotlariningizni ishlatib turish lozimligini hech qachon unutmang. Ularni toliqtirmagan holda me’yorida mashq qilib turish uzoq umr ko‘rishingiz hamda sog‘lig‘ingiz uchun xizmat qiladi. Buning uchun, o‘zingiz bilgan hunarmandchilik, san’at va musavvirlik bilan shug‘ullanib turishningiz kerak. Gohida ularni takomillashtirish lozim bo‘lishi mumkin. Oldimizda nima kutayotganini bilmaymiz. Agar noxush qismat sizga bergen hamma narsani olib qo‘ysa, unda qo‘l mehnatingiz bilan qorningizni to‘ydirasiz va istaklarning me’yori bilan boy bo‘lasiz. Ammo agar saodatli kunlarda siz hamma narsani avaylamasangiz, qayg‘uli kunlarda bu judayam kech bo‘lgan bo‘ladi. Huzur-halovat, dangasalik va nomo‘tadil tuyg‘ular tanni ham, ruhni ham halok qiladi. Chunki tiya bilmaslik bilan tanani holdan toydirish ruhni ham holdan toydiradi. Kuchni ishlatish, mashq qilish tanani ham, u bilan birga ruhni ham chiniqtiradi. Agar ovqatdan zada bo‘lganingizni his etsangiz va bemorlik eshik taqillatib kelsa, unda to‘shagingizdan turing, bu to‘shakda siz hislaringizni ham allalayapsiz, u xlayotgan tana a’zolaringizni jismoniy mashqlar bilan harakatga keltiring va shu lahzadayoq kuchingizning yangilanayotganini his qilasiz. Sog‘lig‘ingiz uchun zarur deb bilgan ovqatdan o‘zingizni tiying, ochlik to‘qlikdan zada bo‘lgan taomingizga maza kiritadi. Doimo yodda tutingki, ochlikni faqat bir bo‘lak non va bir cho‘mich suv bilan qondirish lozim. Agar foydali tashqi hissiyotlardan mahrum bo‘lsangiz, agar uyqu boshqaruviningizdan chiqib ketsa, agar aqlingiz va tanangiz kuchlarini yangilay olmasangiz, saroyingizdan qochib chiqing, oyoq-qo‘llaringizni holdan toyguncha charchating, so‘ng to‘shakka yotib, sog‘ayguningizcha orom oling.

Kiyinishingiz doimo ozoda bo'lsin; tanangizni toza tuting, ne gaki pokizalik sog'liq uchun xizmat qiladi, tananing notozaligi va badbo'yligi ko'p hollarda jirkanch illatlar sari ko'rinmas yo'l ocha-di. Bu borada me'yorni biling. Yordam berish uchun loyga botib bulg'angan aravani ko'tarishdan irganmang va shu tariqa yiqilgan-ning yukini yengillashtiring; unga qo'shilib qo'lingiz, oyog'ingiz va tanangiz bulg'anishi mumkin, ammo qalbingiz tozalanib, yorishadi. Faqirlar kulbasiga boring; azob chekayotgan g'aribning boshini si-lang; uning yovg'on sho'rvasidan tatib ko'ring, g'amgin odamning ko'nglini ko'tarib, o'z yuragingiz ham taskin topadi.

Endi, yana takrorlayman, ehtiroslar uyg'onishni boshlagan o'sha qo'rqinchli vaqt va soatlariga yetib keldingiz, ammo aql ularni jilov-lashga hali ojizlik qiladi. Chunki tajribasizlikning mulohaza pallasi irodaning tarozisida yuqoriga ko'tariladi, ehtiroslar pallasi esa bir lahzadayoq bosib tushadi. Muvozanatga esa mehnatsevarlikdan o'zga vosita bilan erishib bo'lmaydi. Tanangiz bilan ishlang: ehtiroslarining hayajonlarga ega bo'lishda u qadar kuchga ega bo'lmaydi; qalbin-giz bilan ishlang: mehribonlik, sezuvchanlik, hamdardlik, saxiylik, kechirimlilik tuyg'ulari yordamida mashq qiling va ehtiroslarining yaxshi natijalarga yo'naltiriladi. Aqlning bilan ishlang: o'qish, fikr-lash, haqiqatni va hodisalarni izlash bilan mashq qiling, shunda aql sizning irodangiz va ehtiroslarining idora qiladi. Ammo ehtiros-larning ildizini butkul sug'urib tashlay olishingiz, mutlaq sovuqqon bo'lish lozimligi bilan idrokingizni xushnud qilmang. Ehtiroslarining ildizi foydali va u tabiatan bizning sezgirligimizga asoslangan. Ichki va tashqi his-tuyg'ularimiz zaiflashganda va xiralashganda bizning ehtiroslarimiz ham zaiflashadi. Ular insonlarda foydali tashvishlarni uyg'otadi, ularsiz inson harakatsiz uxlab yotgan bo'lardi. Mutlaqo ehtirossiz odam ahmoq va yaxshilik ham, yomonlik ham qo'lidan kelmaydigan tuturiqsiz kallavaramdir. Yomon fikrlardan tiyilish va ularni amalga oshira bilmaslik fazilat emas. Qo'lsiz odam hech kim-ga jarohat yetkaza olmaydi, biroq cho'kayotgan odamga ham yordam berolmaydi, dengiz tubiga otlangan odamni qirg'oqda tutib ham qololmaydi.

Muxtasar aytganda, ehtirosda mo'tadillikning bo'lgani yaxshi; o'rta yo'ldan yurish hamisha ishonchli bo'ladi. Ehtirosda haddan

oshib ketish halokatdir, ehtirossizlik esa ma'naviy o'limni anglatadi. Go'yo yo'lovchi o'rtal yo'ldan uzoqlashib, u tarafdag'i yoki bu tarafdag'i jarlikka qulab tushish xavfiga giriftor bo'lganga o'xshaydi, axloqiy yurishdagi og'ishda ham xuddi shunday bo'ladi. Biroq ehtirossilaringiz tajribangiz, aqlingiz va qalbingiz tomonidan ezgu natijalarga yo'naltirilgan bo'lsa, undan ehtiyotkorlikning toliqqan tizginini olib tashlang, ularning parvozini cheklamang; ularning maqsadi hamisha buyuk bo'ladi; ular faqat shu maqsad yonida to'xtashni uddalaydilar.

Biroq sizlarni hissiz-ehtirossiz bo'lmaslikka chaqiradigan bo'lsam, sizning bu o'smirlik davringizda eng muhimi muhabbat ehtiroslarida mo'tadillikni saqlashdir. Muhabbat urug'i tabiat tomonidan bizning baxt-saodatimiz uchun qalblarimizga ekilgan. U tug'ilishda hech qachon xatoga yo'l qo'yishi mumkin emas, lekin o'z predmetini tanlashda va nomo'tadillikda yanglishadi. Va shuning uchun nazorat qilib boring, sevgingiz predmetida adashmang, o'zaro ishtiyqingiz hurmatini nomo'tadillik obrazi bilan o'chamang. Muhabbat predmetining muvaffaqiyatlari tanlovi bilan sizga ehtirosning nomo'tadilligi begona bo'ladi. Muhabbat haqida gapirar ekanmiz, er-xotinlik to'g'risida so'zlamog'imiz tabiiy bo'lgan bo'lardi. Bu birlik jamiyatning muqaddas ittifoqi bo'lib, uning qoidalarini qalblarga tabiat yozmagan, ammo muqaddaslik ilk ijtimoiy holatdan kelib chiqqan. Ilk qadamlarini endigina boshlayotgan sizning aqlingizga bu tushunarsiz bo'lishi mumkin, biroq sizga, hali mag'rur muhabbat ehtiroslarini boshdan kechirmagan yurak sohibiga u haqidagi tavsif qiziqarli emas va shu bois u haqida so'zlash befoyda hamdir. Agar siz oilaviy juftlik haqida tasavvurga ega bo'lishni istasangiz, sizni dunyoga keltirgan odamlar haqida eslang. Meni onangiz hamda o'zingiz bilan birga ko'z oldingizga keltiring, bizning o'zaro suhbatlarimizdan eshitganlaringizni va o'zaro mehr ifodalarimizni xotirangizda yangilang va o'sha tasvirlarni yuragingizga joylab qo'ying. Shunda siz undagi qandaydir yoqimli titroqni his qilasiz. U nima o'zi? Vaqti kelib bilib olasiz; bugun esa ana shu his qilganlaringiz bilan baxtni tuying.

Endi birgalikda yashash qoidalari bilan qisqacha tanishamiz. Bu borada aniq ko'rsatma berishning iloji yo'q, negaki ular asosan o'sha onlardagi vaziyatga qarab tartibga solinadi. Biroq imkon bo-

richa kamroq xatoga yo‘l qo‘yish uchun har qanday ishni boshlashdan oldin yuragingizga qulqoq tuting: u sizning do‘stingiz va hech qachon sizni alday olmaydi. U nimani buyursa, shuni qiling. Agar yuragingiz toza bo‘lsa, yoshlikdan unga ergashib, xato qilmaysiz. Biroq hali soqolidan tuk chiqmay turib, tajribasiz idrok ortidan ergashish aqlsizlikdir.

Birgalikda yashash qoidalari xalqning urf-odat va taomillariga rivoja qilishga yoki qonunni bajarishga, yoinki saxovatli ishlarni amalga oshirishga taalluqlidir. Agar odamlarning urf-odatlari va taomillari qonunlarga zid kelmasa, agar qonun saxovatli ishlarni amalga oshirishga to‘sinqinlik qilmasa birgalikda yashash oson kechadi. Ammo bunaqangi jamiyat qayerda bor? Bizga ma’lum bo‘lgan juda ko‘p urf-odatlari va taomillar, qonunlar va saxovatli ishlar ziddiyatlarga to‘la. Mana shundan kelib chiqib, inson va fuqaro majburiyatlarini ado etishda qiyinchiliklar tug‘iladi, chunki juda ko‘p holatlar da ular bir-birlariga qarama-qarshilikda yuzaga keladilar.

Aslida saxovat inson amallarining eng oliy darajasini ifoda etadi, shu bois uni amalga oshirishni hech qanday yo‘l bilan to‘xtatmaslik lozim. Urf-odat va taomillarni nazarga ilmasdan, fuqarolik qonunlarini va jamiyatda ilohiy darajada qadrlanadigan muqaddas qonunlarni mensimasdan amalga oshirish sizni saxovatdan ayirib qo‘yadi. Uning buzilishini hech qachon tortinchoq ehtiyyotkorlik bilan yashirishga harakat qilmang. Usiz faqat tashqi ko‘rinishdan xotirjam bo‘lishingiz mumkin, ammo hech qachon baxtli bo‘lmaysiz.

Bizning hayotimizga qanday urf-odat va taomillarni kiritishmasin, biz faqat o‘zimiz amal qilib keladigan va o‘zimiz uchun qulay bo‘lganlarini qabul qilamiz. Qonun ko‘rsatmalariga amal qilib, biz halol inson unvoniga sazovor bo‘lishimiz mumkin. Saxovatni amalga oshirib esa umumjamoa ishonchiga, hurmatiga va hatto bu tuyg‘uni o‘z qalbida his etib ko‘rishni istamaganlarda ham hayrat tuyg‘ularini uyg‘otishga erishamiz. Makkor Afina senati Suqrotga zaharlangan jom tutayotib¹, uning saxovati qarshisida ich-ichlaridan turgan titroqni his etgan ekanlar.

¹ Suqrot afinaliklar hukmiga asosan bir jom zahar ichib, vafot etgan (sikuta zaxali suv o‘ti) (tarj.).

Urf-odatlarni amalga oshirishda hech qachon qonunga qarshi borishga jur'at qilmang. Qonun, u har qancha yomon bo'lsa ham, jamiyatni bog'lab turuvchi vosita hisoblanadi. Va hatto podshohning o'zi sizga qonunga zid ish qilishni buyursa, unga bo'ysunmang, chunki u o'zini ham, jamiyatni ham adash yo'lga olib kirib ketadi. Mayli, xuddi sizga uni buyurgani kabi, o'sha qonunni yo'q qilsin, ana shunda unga bo'ysunsang bo'ladi, negaki podshoh qonunlarning asoschisidir.

Ammo agar qonun yoki podshoh, yoxud yer yuzidagi biror-bir boshqaruvchi kuch sizni yolg'on sari yetaklasa va saxovatni barbob qilishga undasa, bu borada irodangiz mustahkam bo'lsin. Hech narsadan – na kulgiga qolishdan, na azoblanishdan, na kasallikdan, na qamoqqa tushishdan va hatto o'limning o'zidan ham qo'rwmang.

Tug'yon urayotgan, ammo qudrati zaif po'rtanalar ichra yotgan tosh kabi ruhiyatizingiz mustahkam bo'lsin. Sizga azob berguvchi sitamgarlarining g'azabi qat'iyatingiz poyida parchalanib ketadi; agar sizni o'limnga mahkum qilsalar el ichra masxara bo'ladilar, siz esa asrlar davomida olijanob qalblar xotirasida yashab qolasiz. Faoliyatdagi saxovatning birinchi dushmani bo'lgan zaiflikni oldindan ehtiyyotkorlik deb atashdan qo'rqing. Bugun saxovatni kimningdir hurmati uchun buzasiz, ertaga esa mana shu buzg'unchilikning o'zi saxovat bo'lib tuyula boshlaydi; shu tarzda illat qalbingizga o'z hukmini o'tkaza boshlaydi va qalbingizdan ham, yuzingizdan ham benuqsonlik chizgilarini o'chirib tashlaydi.

Saxovatning mohiyati xususiy yoki umumiyl bo'ladi. Birinchi mohiyat hamisha mehribonlik, hamdardlik, muloyimlikka moyil bo'ladi, asosi esa doim yaxshilikdir. Umumiyl yoki ijtimoiy saxovat esa ko'p hollarda shuhratparastlik va qiziquvchanlikka moyillikdan kelib chiqadi. Ammo buning uchun ularni amalga oshirishdan to'xtash kerak emas. Bahona ular atrofida aylanadi, ularga muhimlik kasb etadi. Rimni qutqargan Kursiyda¹ o'z vatanini halokatdan olib qolishida hech kim shuhratparastlikni ham, hayotdan zerikish yoki

¹ Kursiy Mark, afsonaga ko'ra Rimni qutqargan. Er.avv. 362-yilda Rim markazidagi maydonda katta tubsiz jarlik ochiladi, kohinning bashorat qilishicha, agar jarlik eng yaxshi boylikni yutmasa, Rim halokatga yuz tutarkan. «Rimda qurol va jasoratdan ham yaxshiroq boylik yo'q», deyilganiday, yosh Kursiy qurol-aslahasi bilan otda jarlikka sakraydi va tubsizlik yopiladi.

umidsizlikni ham ko'rmaydi, ammo jasoratni ko'radi. Agar ijtimoiy saxovatimiz manfaatining ibtidosi qalbning insonparvar qat'iyati bo'lqa, u holda uning jilosi yanada mo'lroq bo'ladi. Ijtimoiy saxovatga munosib bo'lish uchun har doim xususiy saxovatda mashq qiling.

Men yana sizga hayotning ayrim ijro etuvchi qoidalarini ham o'rgataman. – Har bir ishingizni amalga oshirishda hammadan ham ko'ra o'zingizning shaxsiy hurmatingizga sazovor bo'lishga harakat qiling. Ana shunda, yolg'iz qolganingizda nigohlaringizni o'z ichki olamingizga qaratganingizda, nafaqat qilgan ishlaringizdan nadomat tuymaysiz, balki o'zingizga ehtirom bilan qaraysiz.

Mana shu qoidaga amal qilib, hatto xushomadgo'ylik ko'rinishidan ham qancha imkon bo'lqa, shuncha uzoqlashing. Zodagonlar davrasiga kirib, tez orada jamiyatda o'ziga xos udumlar amal qilishini ko'rasiz. Bayram kunlari ertalabdan asilzodalarni ziyyarat qilish – bu hech qanday ma'noga ega bo'limgan, yo'qlab keluvchida jur'atsizlik ruhini, yo'qlab kelinuvchida esa zaif mulo-hazakorlikka asoslangan dimog'dorlik ruhini ifodalaydigan tamagir odat hisoblanadi. Rimliklarda ham shunga o'xshagan odat bor edi, uni ambitions deb atashardi, ya'ni takalluf yoki biror narsaga sazovor bo'lmoq; shundan kelib chiqib, izzattalablik ham ambitions deb nomlanardi, shunga ko'ra, asilzoda kishilarni yo'qlash orqali yoshlar o'zlarini uchun amal va obro'-e'tibor sari yo'l ochardilar. Hozir ham bu odat amal qiladi. Biroq rimliklarda ushbu taomil agar yoshlar sinovdan o'tishni o'rganishlari uchun joriy etilgan bo'lqa, unda bu maqsad har doim ham buzilmagan holatda saqlanib qolishiga shubham bor. Bizning zamonamizda asilzoda janoblarni ziyyarat qilgani tashrif buyurishar ekan, bu tashriflarning zamirida o'rganish emas, balki asilzodalarning qo'ltig'iga kirish va ularning xayrixohligiga erishish maqsadi yotadi. Xulosa qiladigan bo'lsam, sizning qadam-laringiz o'z vazifasini ado etmoq bilan lagambardorlikni ajratib tur-guvchi ostonani kesib o'tmasin. Hech qachon asilzoda zodagonlarni yo'qlab bormang, unvoningiz majburiyati yuzasidan bormoq bundan mustasno. Shunda olomon nafrati qaratilgan odam, o'z ko'nglida, garchi g'azab bilan bo'lqa-da, seni o'sha olomondan farq qilishingni tan oladi.

Agar taqdir taqozosi bilan o‘lim kunlarimni qisqartirib, ezgulik yo‘liga tushib olishingizdan oldin meni yo‘qlab kelsa va siz hali yoshligingiz bois ehtiroslar sizni maftun etib, aql yo‘lidan chalg‘itsa, tushkunlikka tushmasdan, noto‘g‘ri qadamlaringizni nazoratga oling. Adash yo‘lga kirganingizda, o‘zingizni unutgan vaqtingizda ezgulika mehr qo‘ying. Axloqsiz hayot, me’yordan ortib ketgan izzattalablik, surbetlik va yoshlikning barcha illatlari xatolarni tuzatish uchun albatta umid qoldiradi, chunki ular jarohat qoldirmasdir, yurakning sirtida suzadi. Men sizning yoshingizda pulga o‘ch yoki haddan ortiq tejamkor, olifta, boshqalarga nisbatan ko‘proq tashqi ko‘rinish va ziynatlarga e’tiborchan bo‘lgandan ko‘ra, axloqsiz, isrofgar va surbet bo‘lganlikni afzal deb bilaman.

Muntazam ravishda, agar aytadigan bo‘lsak, o‘zini ko‘z-ko‘z qilishga moyillik aqlning kaltaligini anglatadi. Agar Yuliy Sezar¹ ham olifta, maqtanchoq bo‘lgan, deyiladigan bo‘lsa, bu to‘g‘ri, ammo oliftagarchilik uning maqsadiga muvofiq edi. Yoshligidanoq ayollarغا bo‘lgan ishtiyoq unda oliftalikka ham mayl uyg‘otgan. Biroq agar maqsadiga erishish shuni taqozo qiladigan bo‘lsa, u bir lahzadayoq bashang kiyimini badbo‘y juldurga almashtirgan bo‘lardi.

Yosh yigitda oliftagarchilik na faqat kechirimli, balki uning har qanday ko‘rinishi ham ahmoqlikdan boshqa narsa emas. Agar siz hayotning rang-barang amallari bilan makr, yolg‘on, ochko‘zlik, takab-burlik, xusumat, yovuzlikni yashirsangiz, garchi tashqi ko‘rinishingiz jilosi bilan zamondoshlaringiz ko‘zini qamashtirsangiz ham, garchi sizni shu qadar sevadigan insonni topmasangiz ham, sizga haqiqat ko‘zgusini tutishsin, biroq ziyraklikning nigohlarini to‘sish haqida xayol qilmang. U makkorlikning zarhal libosi ichiga kiradi va saxovat qalbingizning qoraygan joylarini ochib beradi. Yuragingiz uni yomon ko‘radi, sezgirlik go‘yo mimoza² singari siz qo‘l tegizishingiz bilan so‘la boshlaydi, ammo uning kamon o‘qi sizni uzoqdan turib yaralaydi va parchalab tashlaydi.

Meni kechiring, azizlarim, qalbimning do‘stlari, meni afv eting; bugun hamroh shamol yordamida begona tajriba qirg‘og‘idan qayig‘ingizni olib keting; po‘rtanalar bo‘ylab insoniy hayot sari mo‘ljal

¹ Yuliy Sesar – rimlik hukmdor (er.avv.100–44-yy.). Olifta bo‘lgan (*tarj.*).

² Mimoza – qo‘l tegsa so‘lib qoladigan gul (*tarj.*).

oling, o‘zingizni o‘zingiz boshqarishni o‘rganing. Xushbaxtlik bilan halokatga yo‘liqmay, panohgohga yetib borishingizga orzumandmiz. Suzishingiz bexatar o‘tsin. Bu mening samimiy tilaklarim. Mening tabiiy kuchlarim hayotdan va harakatlardan toliqib, madordan qoladi va so‘nadi. Men sizlarni abadiy tark etaman, bu aytganlarimni esa vasiyat deb biling.

Agar nafrat baxti sizning ustingizdan barcha o‘qlarini sochsa, agar sizning saxovatingiz uchun yer yuzida biror boshipana qolmasa, agar zulm eng so‘nggi nuqtasiga qadar yetib borsa-yu, undan qochmoqqa panoh topmasangiz, unda siz inson ekaningizni eslang, o‘zingizning buyuk ekaningizni yodga oling va *saodat tojini kiying, uni sizdan tortib olishga astoydil urinadilar*. – Jon bering (83).

Sizga meros sifatida jon berayotgan Katonning¹ so‘zlarini qoldiraman. – Agar saxovat birla jon bera olsangiz, unda illat birla ham o‘lishni uddalang va agar aytish joiz bo‘lsa, yovuzlik ichra ham saxovatli bo‘ling. Agar mening ko‘rsatmalarimni yoddan chiqarib, qabih ish tutishga oshiqsangiz, saxovatning sodda ruhi vahimaga tushadi; men xayolingizda ko‘rinaman. – To‘shagingizdan sakrab turing, qalban ruhim ortidan ergashing. Shunda agar ko‘z yoshlarin-giz daryo bo‘lsa, unda uzoq uyquga yoting; xatolaringizni tuzatishga uyg‘onasiz. Ammo agar yovuz ishlarga qo‘l urishingiz asnosida meni eslasangiz-u, qalbingiz titroqqa tushmasa va ko‘zlarining osti quruq bo‘lsa... Bu po‘lat, bu og‘u. – Meni alamdan qutqaring; yerni jirkanch yukidan xalos eting. – Yana mening o‘g‘limga aylaning. Saxovat birla jon bering.

Mana shularni aytgach, qariyaning ‘ajin qoplagan yonog‘iga yoshlarga xos qizillik yugurdi; ko‘zlarida umidvor quvonch nuri balqdi, yuz qiyofasi esa g‘aritabiyy shuur bilan yashnab turardi. U bolalarini o‘mdi, ularni foytunga qadar kuzatib bordi, oxirgi xayrlashuv oniga qadar qat’iyat bilan turib berdi. Biroq pochta aravasi qo‘ng‘iroqlarining ovozi qulog‘iga yetib borib, ular otadan uzoqlasha boshladi hamki, uning tarang turgan qalbi yumshab ketdi. Ko‘kragi ko‘tarilib tusharkan, ko‘zlaridan yosh quyila boshladidi; u

¹ Kichik Katon (er. avv. 95–46-y.) – rimlik, aristokratlar respublikasi tarafidori. Yakkahokimlik tizimiga qarshi chiqqan. Sezarning respublikachilar ustidan g‘alaba qilganini eshitib, o‘ziga qilich sanchib o‘ldirgan (*tarj.*).

qo'llarini undan uzoqlashib ketayotganlarning ortidan intiq bo'lib uzatdi; go'yo u shu bilan uchqur otlar shitobini susaytirmoqchiday edi. O'g'illari otalarining bu qayg'usini uzoqdan ko'rib shu qadar qattiq o'kirim yig'ladilarki, shamol' ularning g'amgin nolalarini bizning qulog'imizga qadar yetkazib keldi. Ular ham qo'llarini otalari tomon cho'zdilar; go'yo uni o'zлari tomon chorlamoqda edilar. Qariya bu manzarani ko'tara olmadi; kuchlari zaiflashdi va u mening quchog'imga yiqildi. Bu orada tepalikda ketayotgan bolalarni bizning nigohlarimizdan yashirdi; o'ziga kelgach, qariya cho'kkalab o'tirdi, qo'llari va nigohini ko'kka qaratdi.

— Ey Xudo, — nola qildi u. — Sendan o'tinaman, ularni saxovat yo'llarida mustahkam qilgin, o'tinchim, ular saodatli bo'lsin. O, saxovatli Egam! Men seni hech qachon befoyda ibodatlar bilan bezovta qilmaganman. Men qalbim bilan ishonaman, ezgulik bor va u adolatli. Bizda senga ma'qul keladigan narsa, saxovat bor. Toza qalbning amallari mohiyatan sen uchun eng yaxshi qurbondir... Bugun men o'zimdan o'g'illarimni ayirdim... Xudoyim, ularda sening irodang bo'lsin. — Gandiraklagancha, ammo umidlarida qat'iyat bilan u o'z uyi tomon yurdi.

Krestsi dvoryanining so'zлari xayolimdan ketmadni. Mening nazarmida, uning farzandlari ustidan ota-onalar hukmronligi darajasining juda ham past ekanligi to'g'risidagi dalillarini inkor etib bo'lmasdi. Agar munosib tashkil etilgan jamiyatda yoshlar keksalarni hurmat qilishi uchun va tajribasizlik – komillik bosqichi nuqtayi nazaridan qarasak, u holda ota-onalar boshqaruvini haddan tashqari kuchaytirishga hojat yo'q, deb o'layman. Agar ota va o'g'il o'rtasidagi ittifoq yurakning nozik hissiyotlariga asoslanmagan bo'lsa, unda u mustahkam bo'lmaydi; hatto barcha qonun ko'rsatmalari bo'lganda ham mustahkam bo'lmaydi. Agar ota o'z o'g'lida qulning qiyofasini ko'rsa va o'z hukmronligi asosini qonun ko'rsatmalaridan izlasa, agar o'g'il otasini undan qoladigan meros uchun hurmat qiladigan bo'lsa, undan bunday ittifoqdan jamiyatga nima foyda bor? Yoki yana ko'p boshqa tutqunlar qatoriga qo'shilgan yana bir tutqun yoki qo'yinda asralgan ilon... Farzandini boqish va o'qitish otaning majburiyatiga kiradi va balog'at yoshiga yetguniga qadar bolasining qilmishlari uchun javobgar hisoblanadi; o'g'il esa o'z majburiyatlarini

yurakdan topmog‘i lozim. Agar u qalbida hech narsani his etmasa, unda bunga ota aybdor bo‘ladi, negaki u o‘g‘lining yuragidan hech narsa undirmagan. O‘g‘il hali yosh va kuchga to‘lmagan ekan, ota-sidan ko‘mak talab qilishga haqli; ammo balog‘at yoshiga yetgach, ular o‘rtasidagi tug‘ma aloqalarning uzilishi tabiiy holatdir. Qanot qoqishni o‘rgangan palapon o‘zi ovqat topib yeyishni o‘rgangach, uni dunyoga keltirganlardan ko‘mak izlamaydi. Nar va moda pala-ponlarini voyaga yetkazishgach, ular haqida unutishadi. Bu tabiat qonuni. Agar fuqarolik qonunlari undan uzoqlashsa, unda u faqat nuqsonli bolalarni voyaga yetkazadi. Bola otasi, onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi vasiyini ulg‘ayib, muhabbatি boshqa predmetga qaratilgunga qadar sevadi. Bolasevar ota, bundan yuraging ozor chek-masin; bu tabiiy holat. Sen eslab, yupanch topadigan yagona narsa shu bo‘ladiki, o‘g‘lingning o‘g‘li ham otasini balog‘at yoshiga yet-gunga qadar sevadi. Senga bo‘lgan mehrini qozonish senga bog‘liq bo‘ladi. Agar bunga ulgursang, demak, baxtli va hurmatga loyiqsan. – Ana shunday o‘ylar bilan men galdağı pochta stansiyasiga yetib keldim.

Yajelbitsi

O‘sha kuni taqdirimga meni sinovga tashlash bitilgan ekan. Men otaman va farzandlarimga nisbatan qalbimda nozik hissiyotlar tuyaman. Mana shuning uchun ham krestsilik dvoryanning so‘zları menga shu qadar ta’sir etdi. Bu so‘zlar mening qalbimga qadar tit-roq olib kirdi va umidning qandaydir totli hissiyotlari qalqib chiq-di, ya’ni bizning bolalar bilan munosabatlarmizdagi saodatimizni asosan o‘zimiz yaratamiz. Biroq Yajelbitsida sharmandali bir man-zaraning guvohi bo‘lish qismatimda bor ekan va bu manzara qal-bimda g‘amning chuqur izini qoldirdiki, bu izni yo‘qotmoqqa umid qilolmayman. O, yoshlik! Mening qissamni tingla; o‘z xatolaringni angla; o‘zingni o‘zboshimchalikning halokatidan saqla va keyingi pushaymonning yo‘lini kes.

Men qabristonning yonidan o‘tib borardim. O‘z sochlarni yilib yig‘layotgan odamning g‘ayritabiiy faryodi meni to‘xtashga majbur qildi. Yaqinlashib ko‘rdimki, u yerda ko‘mish marosimi

o'tkazilayotgan edi. Tobutni qabrga tushirish payti kelgandi. Ammo men uzoqdan ko'rganim, o'sha, o'z sochini yulib yig'layotgan odam tobutga mahkam yopishib olgan, uni quchoqlagancha, qabrga tushirishga yo'l qo'ymayotgandi. Uni juda katta kuch bilan tobutdan ajratib olishdi va tobutni qabrga tushirib, shoshilinch ravishda ko'ma boshlashdi. Shunda iztirob chekayotgan odam turganlarga qarab nola qildi:

– Nima uchun uni mendan ayirdingiz, nima uchun u bilan birga meni ham tiriklay ko'mib, alam va pushaymonlarimdan xalos qilmadingiz? Ko'ring, ko'ring! Siz o'ligini yerga qo'ygan mana shu sevimli o'g'limning qotili men bo'laman! Bunga ajablanmang. Men uning hayotiga qilich bilan ham, og'u bilan ham nuqta qo'ymadim. Yo'q, men bundan ham battarini qildim. Unga zaharlangan hayotni taqdim etish orqali uning o'limini tug'ilishidan ilgariyoq tayyorlay boshlagandim. Men ko'pchilik qatori qotilman, biroq ulardan ham vahshiyroq qotilman. O'g'limning tug'ilmasdan oldinoq qotiliman. Men, faqat men uning tug'ilishidanoq o'tkir og'u tomizib, kunlarini qisqartirganman. Bu og'u uning tanasiga kuch kirib, mustahkam qaror topishiga yo'l qo'ymadi. Butun yashab o'tgan hayoti davomida u bir kun ham salomatlikdan bahramand bo'lmadi; uning kuchlarini azoblab, parchalab borgan og'u hayot oqimining to'xtashiga olib keldi. Hech kim, hech kim meni bu yovuzligim uchun jazolamaydi! – Alamlari uning yuziga qalqib chiqdi va uni turgan joyida deyarli hushsiz holatga olib bordi...

Tomirlarimda shu tobda muz oqib o'tganday bo'ldi. Dong qotib qoldim. Nazarimda menga o'qilayotgan hukmni eshitayotgandim. Yoshligimning axloqsizlik bilan kechgan kunlarini esladim. Ko'z oldimdan qalbim yollangan qizlar bilan muhabbat o'yinlarini ehtirosning haqiqiy predmeti deb hisoblab, jo'sh urgan hissiyotlarimni lazzatlantirish ortidan yugurgan barcha xotiralarimni o'tkazdim. Jilovlanmagan hirs butun tanamni jirkanch kasallikkha duchor etgani ni esladim. O, u tomirlarini tezroq yoyganda edi! O, agar ochko'z nafsni qondirish bilan to'xtaganida edi! Vaqtixushlikda uning zahri ni totib, nafaqat u bilan o'z ko'nglimizni chog'laymiz, balki uni avlodlarimizga meros qilib ham qoldiramiz. – O, mening do'stlarim, o, qalbimning farzandlari! Qarshingizda qanchalar gunohkor odam tur-

ganini ko'rmayapsizmi? Sizning rangsiz manglayingiz mening hukmimdir. Gohida siz his qiladigan kasallik to'g'risida sizga ma'lum qilishdan hadiksirayman. Negaki, siz meni yomon ko'rib qolishingiz mumkin va sizning bu nafratingiz adolatli bo'lgan bo'lur edi. Sizning tomirlaringizga yashirin tarzda berilgan umringizni muddatidan oldin tugatuvchi zaharli nish sanchilmaganiga siz va meni kim ishontira oladi? Balog'at yoshimda bu rasvo og'uni tanamga qabul qilgach, a'zolarim mustahkam turib bu og'uning tarqab ketishiga qarshi turdi va uning ajal chaqiruvchi qudrati bilan kurashib kelmoqda. Ammo siz uni tug'ilganingizdanoq qabul qilib, o'z tanangizda xuddi kerakli qism singari ko'tarib yurarkansiz, uning parchalovchi o'tiga qanday qarshi tura olasiz? O, azizlarim mening! Mening yoshlikdagi xatolirim uchun yig'lang, shifokorlik mahorati ko'magini chorlang va agar uddalay olsangiz, mendan nafratlaning.

Ammo endi ko'z oldimda o'sha nafsparast yovuzlik butun borlig'i bilan namoyon bo'lmoqda. U mening oldimda hali yoshlik yillarimdanoq keksalikni boshlab kelib, bevaqt qartaytirib qo'ygani bilan gunohkordir. Sizning oldingizda hali tug'ilmasiningizdan oldinoq hayotiy sharbatlaringizni zaharlash orqali zaif sog'lik va ehtimol muddatidan oldin keladigan o'lim tayyorlab qo'ygani bilan gunohkordir. Gunoh sodir etdi va bularning bari menga jazo bo'lsin, onangizga uylanib, ehtirosdan jo'shgan vaqtimda gunoh sodir etdi. Kim uning o'limiga aynan men sababchi bo'l maganimga kafillik bera oladi? Ajal keltiruvchi og'u xushbaxtlik chog'ida to'kildi va uning toza vujudiga o'rashib oldi, so'ng uning sog'lom a'zolarini zaharlay boshladи. U qay darajada ajal tashuvchi bo'lsa, shu darajada ko'rinmas edi. Soxta nomus uni bundan ogohlantirishimga yo'l bermadi; u ham unga bo'lgan o'z ehtiroslari chog'ida zaharlovchidan saqlanmadи. Unda sodir bo'lgan kasallanish bu homila edi va u ehtimol men tomonimdan u bilan bo'l shilgan og'udir... O, jondan azizlarim mening! Siz mendan qanchalar nafratlanishingiz lozim!

Biroq bu jirkanch kasallik barcha mamlakatlarda nafaqat yosh avlodni qamrab olib, balki ularning kunlarini qisqartirib, bu qadar katta yo'qotishlarga olib kelishiga kim sababchi? Kim buning aybdori, hukumat emasmi? U manfaatparast axloqsizliklarga yo'l qo'yib, nafaqat juda ko'p illatlarga yo'l ochib bermoqda, balki fu-

qarolarning hayotini ham zaharlar moqda. Suyuqoyoq ayollar hamisha himoyachilarini topib oladilar, ba’zi bir mamlakatlarda esa rabbarlarning homiyligi ostida ish olib boradilar. Ba’zilarning e’tirof etishicha, muhabbat ehtiroslarini fohishalar orqali qondirish taqiq-lanadigan bo’lsa, jamiyatda sezilarli darajadagi kuchli, larzaga soladigan juda ko‘p o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin emish. Olib qochishlar, tajovuzlar, qotilliklarning asosiy manbasi muhabbat ehtiroslarini qondirishdan iborat bo‘lar ekan. Ular jamiyatning tub asosini ham larzaga solishi mumkin ekan. – Va siz och qornim, tinch qulog‘im, qabilida, garchi, sog‘liq va jasorat olib kelsa-da, boshingizga to‘polon ko‘tarib, tashvish orttirgandan ko‘ra, zaiflik va qayg‘uni yetaklab keladigan tinchlikni ma’qul ko‘rasiz. Jim bo‘ling, ziqla ta’limotchilar, siz uqubatning yollanganlarisiz; *bu uqubat hamisha tinchlik va osudalikni targ‘ib qilib* (84), g‘aflatdagi xushomadgo‘ylik va g‘ovlarni o‘z ichida asraydi. U hatto tashqaridagi qo‘zg‘olnolardan ham qo‘rqadi. Unga qolsa, hamma u bilan bir xil fikr yuritsa va ulug‘vor g‘aflat og‘ushida sevgi ehtiroslariga g‘arq bo‘lsa... Men sizning ma’ruzangizdan ajablanmayman. Xuddi qullar kabi hammani zanjirlar bandida ko‘rishni istaysiz. Bir qismat ularning hayotini osonlashtiradi, biroq kimning oldinlab ketishi ularning aqli va ruhiyatini ezadi.

Valday

Bu yangi shaharcha (85), aytishlariga qaraganda polyaklarni asirga olgan Aleksey Mixaylovich¹ tomonidan ishg‘ol qilingan ekan. Bu shaharcha aholisining, ayniqsa, eri yo‘q ayollarining muhabbat ehtiroslariga moyilligi to‘g‘risidagi gap-so‘zlari bilan taniqli (86).

Valdayda kimlar bo‘lmagan, valday teshikkulchalari va qizil yonoqli qizlarini kimlar bilmaydi, deysiz! Valdayning surbet va uyatni bilmaydigan qizlari har qanday o‘tkinchini to‘xtatishadi va o‘tkinchida muhabbat ehtiroslarini yoqishga hamda o‘z iffatlari evaziga uning saxiyligidan foydalanishga harakat qilishadi. Bu shaharchaning qadimdan amal qilib keladigan urf-odatlarini Rossiya-

¹ Shoh Aleksey Mixaylovich davrida Polsha bilan urush olib borilgan (1654–1667) (*tarj.*).

ning boshqa shaharlariniki bilan solishtiradigan bo'lsak, ular juda qadimiy bo'lib, uning fohishabozlik bilan bog'liq odatlari mohiyati ham shahar qadimiy tuzilmasining qoldig'i hisoblanadi. Agar uning tashkil topganiga yuz yildan oshiq vaqt o'tgan bo'lsa, xulosa qilish mumkinki, uning birinchi aholisi ham shunaqa axloqsiz bo'lgan.

Ilgaridan bo'lib kelgani kabi, hozir ham hammomlar muhabbat ayyomlari nishonlanadigan joy hisoblanadi. Yo'lovchi o'ziga xizmat qiladigan bir kampir va bir yigit bilan yashashni ko'zda tutib, hamma yaxshi ko'radigan Lada¹ uchun qurbonlik keltiriladigan saroyga tushadi. Tun cho'kadi. Uning uchun allaqachon hammom hozirlab qo'yilgan. Yo'lovchi yechinadi va hammomga yo'l oladi, bu yerda esa uni agar yosh bo'lsa hammom sohibasi, yoki uning qizi, qarindoshi yoki qo'shni qiz kutib oladi. Ular yo'lovchining toliqqan tana a'zolarini tozalashadi, yuvintirishadi va artishadi. Mana shu tariqa yo'lovchi bu yerda tunni o'tkazadi, pulini, sog'lig'ini va yo'lga atalgan qimmatbaho vaqtini sarflaydi. Aytishlariga qaraganda, shunday holatlar ham bo'lgan ekanki, xatoga yo'l qo'yilgan va og'ir muhabbat o'yinlari-yu yo'lovchining aybi bilan o'sha ehtiros yoquvchi maxluqlar mol-mulkiga egalik qilish uchun uni o'limga duchor qilishgacha borishgan ekan. Bu to'g'rimi yoki yo'qligini aniq aytal olmayman, lekin bir narsani bilamanki, valday qizlarining yuzsizligi ancha kamaygan.

Atrofida shu shahar barpo etilgan Valday ko'li o'z hayotini o'zini suvgaga tashlab sevgilisi uchun qurbon qilgan monax haqidagi hikoyalari bilan og'izga tushgan. Shahardan yarim chaqirim uzoqlikda, ko'l o'rtaсидagi orolchada sharafli Nikon-patriarx tomonidan qurilgan Iverskiy monastiri joylashgan. Mana shu monastir monaxlardan biri Valdayga kelib, valday aholisidan birining qiziga oshiq bo'lib qoladi. Ko'p o'tmay ular o'rtaсиda o'zaro muhabbat, so'ngra ishqiy munosabatlар paydo bo'ldi. Bir marta ehtiroslar lazzatidan tatib ko'rishgach, bu ishtiyоqdan o'zlarini tiyishga kuch topisholmadi. Ammo ularning imkoniyatlari bunga to'siq qo'ygandi. Oshiqning monastirdan har kuni chiqib ketishi mumkin emas edi; ma'shuqaga esa oshig'i yashaydigan monastirdagi xonaga borishi taqiqlangandi. Ammo ularning ehtiroslari barcha qiyinchiliklarni yengishga kuch

¹ *Lada* – qadimgi slavyanlarda muhabbat, nikoh va xushbaxtlik ma'budasи (*tarj.*).

topa oldi; muhabbat ehtiros quli bo‘lgan monaxni jasur er yigitga aylantirdi va unga deyarli g‘ayritabiiy kuch ato etdi. Bu yangi Leandr¹ o‘z ma’shuqasi quchog‘ida har kuni xushbaxtlik tuyish uchun tun ko‘zga tashlanib turgan manzarani qora pardasi bilan yopar-yopmas, astagina o‘zining yashash kulbasidan chiqardi va ibodat libosini yechib, ma’shuqasining quchog‘i uni kutib turgan qarama-qarshi tomondagi qirg‘oqqa ko‘lni kesib suzib o‘tardi. Hammom va sevgilisining erkakashlari uni kutib turadi, bu yerda u har qanday xavfni, suzib o‘tish qiyinchiliklarini, uning ish joyida yo‘qligini sezib qolishlari mumkinligi qo‘rquvini unutardi. Tong yorishishidan bir necha soat oldin u o‘z kulbasiga yetib borardi. Mana shu tarzda, xavfli suzib o‘tishlari bilan bir qancha vaqt ni o‘tkazdi va kunduzgi kutish azoblarini tunda muhabbat xushbaxtligi bilan yuvib keldi. Ammo taqdir uning muhabbat o‘yinlariga nuqta qo‘ydi. Mana shunday tunlarning birida qo‘rqmas oshiq to‘lqinlar osha o‘z sevgilisi istiqboli sari otlanib, suzib ketadi. Lekin shunda birdan, u ko‘lning o‘rtasiga yetib kelganda unga qarama-qarshi tomongan ko‘l uzra qattiq shamol turadi. U butun kuchi ni to‘plasa ham quturayotgan to‘lqinlarni yengishga ojizlik qiladi. U o‘z mushaklarini behuda zo‘riqtiradi, behuda yordam so‘rab ba-qiradi, uni bunday bo‘ronda hech kim eshitmasdi. Qirg‘oqqa yetib borishga ko‘zi yetmagach, shamol shu tarafga esayotganini hisobga olib, suzishi yengil bo‘lishidan umidvor bo‘lib, ortiga, monastir tomon suza boshlaydi. Ammo u charchagan mushaklariga zo‘r berib, endi ortga o‘girilgan ham ediki, po‘rtanalar uni suv qa’riga tortib ketadi. Ertasi kuni uning jasadi uzoq qirg‘oqlardan birlida topildi. Agar bu dostonni men yozganimda, o‘quvchiga uning ma’shuqasini alam ichra tasvirlagan bo‘lardim. Ammo bu yerda bunday ta’rif ortiqcha. Hamma biladi, har qanday ma’shuqaga oshig‘ining vafot etganini eshitish dastlabki daqiqalarda bo‘lsa ham qayg‘uli kechadi. Ma’shuqa, ya’ni yangi Gero suyganining ortidan

¹ Leandr – qadimgi yunon afsonasida Geroning sevgilisi. Gero har tun o‘z minorasini ustida chiroq yoqadi va shu chiroqni mo‘ljal olib Leandr har tun uning vasliga yetish uchun Gellespont (Dardanella) bo‘g‘ozidan suzib o‘tadi. Bir kuni bo‘ron chiroqni o‘chirib qo‘yadi. Leandr mo‘ljalni ololmay, cho‘kib ketadi. Ertasi kuni qirg‘oqda uning jasadini ko‘rgan Gero sevgilisi bilan abadiy birga bo‘lish uchun o‘zini suvgaga tashlab halok bo‘ladi (*tarj.*).

o‘zini ko‘lga tashladimi yoki ertasiga tunda yangi yo‘lovchi uchun hammomga o‘t yoqa boshladimi, buni bilmayman. Muhabbat sol-nomalarining ta’kidlashlaricha, Valday go‘zallari hali sevgi tufayli jon berishmagan... shifoxonadagilar bundan mustasno.

Valday urf-odatlari ularga yaqin bo‘lgan pochta stansiyasi Zimnogoryega ham ko‘chib o‘tgan. Bu yerda ham yo‘lovchilarni xuddi Valdaydagidek kutib olishadi. Hammadan oldin ko‘z o‘ngingizda yuzlarini qizartirib olgan qizlar teshikkulchalari bilan namoyon bo‘lishadi. Ammo mening yoshlik davrim o‘tib ketgan va men shoshqich tarzda Valday paxsadevorlari bilan ham, Zimnogorye nastarinlari bilan ham xayrplashdim.

Yedrovo

Turar joyga yetib borgach, men aravadan tushdim. Yo‘ldan uncha uzoq bo‘lмаган joyda suv bo‘yida juda ko‘p qizlar va ayollar turishardi. Butun hayotim mobaynida menga hukmronlik qilgan va endi so‘ngan ehtiros oddiy maqsadga ko‘ra qadamlarimni o‘sha qishloq go‘zallari jamoasiga yetakladi. Bu to‘da o‘ttiztadan kam bo‘lмаган ayol-qizlardan iborat edi. Ularning hammasi bayram libosida bo‘lib, bo‘yinlari ochiq, oyoqlari yalang, tirsaklari ochiq, ko‘ylaklari old tomonidan belbog‘ bilan yopilgan, ich ko‘ylagi oq, nigohlari sho‘x, yonoqlarida esa sog‘lomliklari aks etib turardi. Yoqimtoy, issiq va sovuqdan biroz dag‘allahgan bo‘lsa-da, yuzlari makkoralik pardalarisiz maftunkor edi; yoshlik husni butun borlig‘i bilan porlab turibdi, lablarida tabassum yoki samimiy kulgi; ular orasida esa toza fil suyagidan ham oqroq bo‘lgan tishlarning safi tizilib turibdi. Bu tishlar oliftalarni hushidan ayirgan bo‘lardi. Bizning moskvalik va peterburglik sevimli zodagon xonimlarimiz, siz bu yerga kelib, ularning tishlarini tomosha qiling, ularni qanday toza tutishni ulardan o‘rganib keting. Ularda tish do‘xtirlari yo‘q. Har kuni tishlari ustida sayqal qoplamanı cho‘tka bilan ham, kukun bilan ham sidirib olishmaydi. Ulardan xohlaganingiz bilan og‘izma-og‘iz turing; ulardan hech birlarining nafasi o‘pkangizni zaharlamaydi. Sizniki, sizniki esa dastavval ularga... kasallik yuqtiradi... qanaqa kasallik ekanini aytishga qo‘rqaman: qizarmasligingiz mumkin, ammo jahlingiz chiqadi.

– Men noto‘g‘ri gapiryapmanmi? – Sizlardan biringizning tur-mush o‘rtog‘ingiz xiyobonda turadigan hamma qizlarga boradi; ka-sallik yuqtirib olgach, ichadi, yeydi va siz bilan ham birga uxlaydi. Boshqa biringiz esa, o‘zingiz yillik, oylik, haftalik, Xudo, o‘zing asra, kunlik xushtorlarining bo‘lishini istaysiz. Bugun bittasi bilan tanishib, o‘z istagini qondirgach, ertasi kuni uni tanimaydi; shu qa-dar tanimaydiki, u bitta o‘pich bilan allaqachon kasallik yuqtirib ol-gan bo‘ladi.

– Sen esa, jonginam, o‘n besh yoshli qizgina, sen hali beg‘ubordirsan ehtimol; lekin sening peshanangdan ko‘rib turibman: sening butun qoning zaharlangan. Xudo rahmat qilgur otajoning shifokorlar qo‘lidan hayot chiqmadi, muhtarama onajoning esa seni o‘zining sharafli yo‘li tomon yo‘llab, senga allaqachon kuyov to-pib qo‘ygan: xizmat ko‘rsatgan keksa general va u sen bilan *bolalar tarbiyasi uylariga qatnamaslik uchun* (87) seni tezroq erga berish-ga oshiqadi. Qariya bilan yashash esa yomon emas, o‘z holingcha yashaysan; faqat erlisan va bolalaringning hammasi uniki. U rashk qiladi, albatta, bu yana ham yaxshi: yashirin ermakdan ko‘proq qo-niqish olasan; keksa erni birinchi kechadanoq, eski urflarga ko‘ra birga yotmaslikka o‘rgatsa bo‘ladi.

Men sezmay qolibman, mening shaharlik sevimli xolajonlarim, ammajonlarim, opa-singiljonlarim, jiyanlarim va boshqalar, meni ko‘p vaqt ushlab qolibsiz. Siz, to‘g‘risi, bunga arzimaysiz. Sizning yuzlaringizda upa, yuragingizda ham upa, vijdoningizda ham upa, haqiqatda esa... qorakuya. Ammo upami yoki qorakuya, buning farqi yo‘q. Men otimni eng katta tezlikda choptirib, sizdan mana shu qishloq go‘zallari tomon qochib ketaman. To‘g‘ri, ular orasidayam sizga o‘xshaganlari bor, ammo yana shundaylari borki, shaharda bunaqalarini ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan. Qarang, mening bu go‘zallarimning barcha tana a‘zolari yumaloq, uzun, qiyshaymagan, buzilmagan. Sizga bu kulgili tuyulishi mumkin, albatta, ularning oyoqlari besh vershok, ayrimlariniki esa, ehtimol olti vershokdir¹. Ammo mening sevimli jiyanginam, sen o‘zingning uch vershokli oyoqchang bilan ularning yonida tur va quvlashib ko‘r; yayloving

¹ Vershok – bir vershok 4,4 sm.ga teng (*tarj.*)

narigi chetida turgan baland qayinga kim birinchi yetib borarkin? A-ha, bu endi sening ishingmas.

— Sen esa, aziz singiljonim, *uch chorakli qomating bilan magtanasan* (88), sen mening qishloqlik parilarimning qorinchalari o‘z holiga qo‘yilgani tufayli kattarib ketganligi ustidan masxara qilmoqchi bo‘lasan. Shoshmay tur, mening jonginam, men ham sening ustingdan kulishim mumkin. Erga tekkaningga endi o‘n oy bo‘ldi va uch choraklik qomating buzilib ulgurdi. Bitta tug‘uruqqacha yetib borgin, keyin boshqa ovoz bilan ashula ayta boshlaysan. Xudo yarlaqab, hammasi faqat kulgi bilan o‘tib ketsa-ku, yaxshi. Mening aziz kuyovginam burnini ko‘tarib yuribdi. Sening barcha tizginlariningni allaqachon olovga otib yuborgan. Sening ustuxoning ko‘ylaklariningni turtib chiqqan, ammo endi kech. Bir-biriga qo‘shilib qiyshayib o‘sgan tana a’zolaringni yashirolmaydi. Sen yig‘la, kuyovginam, sen yig‘la. Bizning onajonimiz o‘lim va qayg‘u ortidan borib, ayollar qismatiga ko‘ra bolasini dunyoga keltirar ekan, uzoq yillar mobaynida sen uchun azob, qizi uchun kasallik, sening bolalaringga esa zaif vujud tayyorladi. Endi u boshi uzra o‘lim tig‘ini ko‘tarib yuribdi. Agar bu tig‘ rafiqangning kunlarini kesmasa, bu hodisadan minnatdor bo‘l; agar ishonsang, bu Xudoning karomati bilangina sodir bo‘ldi, buning uchun unga shukur qil, istasang. — Ammo men yana shahar xonim-afandilari bilanman. — Tarki odat, amri mahol, deyishadi. To‘g‘ri, agar yuzingizni ham tabiiyligingizni ham upa ostiga yashirmaydigan holatga olib borolganimda, sizdan ajralmagan bo‘lardim. Endi esa, yaxshi qoling.

Ko‘ylagini yuvayotgan qishloq nifmalariga¹ oshifta bo‘lib turgan vaqtimda, aravam mendan uzoqlashib ketibdi. Men uning ortidan yetib olish uchun yo‘lga tushdim. Ho‘l ko‘ylagini obkashiga qo‘yanicha men bilan bitta yo‘lda yigirma yoshlari ko‘rinishidagi bir qiz borardi.

— Bunday og‘ir yukni ko‘tarib yurish qiyin emasmi, azizam, seni nima deb atashni bilmayman.

— Mening ismim Anna, yukim esa og‘ir emas. Hatto og‘ir bo‘lganida ham, oqsuyak janob, men sizdan uni ko‘tarishga yordam so‘ramagan bo‘lardim.

¹ Yunon mifologiyasida: tabiat kuchlarining ayol obrazidagi ilohasi (*tarj.*).

– Nega bunchalar qahri qattiqlik qilyapsan, Annushka, azizam, men senga yomonlik qilmoqchi emasman.

– Rahmat, rahmat. Sizga q‘xshagan oliftalarning ko‘pini ko‘rganmiz; marhamat, yo‘lingizdan qolmang.

– Anyutushka, to‘g‘risi, men sen aytayotgan va sen o‘ylagan odamlardan emasman. Unaqa odamlar, o‘yashimcha, qishloq qizlari bilan tanishuvni bunday suhbat bilan emas, har doim o‘pich bilan boshlashadi; ammo agar men seni o‘pganimda ham, xuddi o‘zimning singlimday qarab o‘pgan bo‘lardim.

– Yaqinlashmang, iltimos, bunaqa hikoyalarni eshitganman; agar yomonlik qilishni istamas ekansiz, unda mendan nimani xohlaysiz?

– Jonginam Annushka, men shunchaki bilmoqchi edim: otang va onang bormi? Qanday yashaysan: boymi, nochormi? Baxtlimisan, qallig‘ing bormi?

– Bularni bilish sizga nima uchun kerak, janob? Tug‘ilganidan beri bunday gaplarni birinchi bor eshitishim.

– Mana shundan ham xulosa qilishing mumkin, Annushka, men yaramas odam emasman, seni xafa qilmoqchi ham, nomusingni poymol qilmoqchi ham emasman. Men ayollarni tuzilishlariga ko‘ra nafosat sohibalari bo‘lganlari uchun yoqtiraman; ayniqsa, qishloq yoki dehqon qizlarini yaxshi ko‘raman, negaki ular munofiqlikni bilmaydilar, ular o‘zlarini soxta muhabbat libosida namoyon etmaydilar, agar sevsalar ham, chin yurakdan va samimiy ko‘ngil qo‘yadilar...

Bu vaqtida qizgina menga ko‘zlarini katta ochgancha, ajablanib qarab turardi. Shunday bo‘lishi ham kerak edi; negaki zodagonning qo‘pol qo‘llari qanchalar surbetlik bilan qishloq qizlarining nomuslariga nisbatan haqoratomuz va badaxloq tegajog‘liklarga moyil ekanini kim ham bilmaydi? Bu qizlar, keksa va yosh zodagonlarning nazarida, ularning istaklarini qondirish uchun yaratilgan mahsulot edi. Ular mana shu nuqtayi nazar bilan yo‘l tutishadi; ayniqsa, bu mayllarini ularning qo‘l ostida bo‘lganlarga nisbatan qo‘llashadi. Bo‘lib o‘tgan Pugachyov qo‘zg‘olonida barcha xizmatkorlar o‘z xo‘jayinlariga qarshi qurollanishgan vaqtida ba’zi dehqonlar (bu voqeя to‘qima emas),

o‘z xo‘jayinini bog‘lab, muqarrar o‘limga olib borishgan. Bunga nima sabab bo‘lgandi? U hammaga mehribon va insonparvar xo‘jayin edi. Biroq er o‘z xotini, ota o‘z qizi uchun undan xavfsirab turardi. Har tunda uning odamlari u o‘sha tun uchun tanlab bergen qurbonni iffatidan ayirish uchun olib kelishardi. Qishloq ahliga ma’lum bo‘lgani, u oltmisht nafar bokira qizlarning nomusini poymol qilgandi. Yetib kelgan guruh bu johilni unga nisbatan nafrat o‘tida bo‘lganlar qo‘lidan qutqarib qoldi. Ahmoq dehqonlar, siz adolatli sudni o‘zboshimchalikdan izladingizmi? Nima uchun uni qonuniy sud oldiga olib bormadingiz? Bu sud uni fuqarolik o‘limiga mahkum etgan bo‘lardi, siz esa aybsizligingizcha qolardingiz. Endi esa bu yovuz qutqarib qolindi. Agar o‘limning yoqasiga borib kelgani uning fikrlarini o‘zgartirib, hayotdan lazatlanish sharbati oqimini boshqa tarafga burib yuborgan bo‘lsa, yaxshi. Biroq dehqon qonun bo‘yicha o‘ldi, dedik biz... Yo‘q, yo‘q, u tirik, u yashaydi, agar shuni istasa...

– Agar hazillashmayotgan bo‘lsangiz, janob, – dedi menga Anyuta, – sizga quyidagilarni aytishim mumkin: mening otam yo‘q, u ikki yil avval vafot etgan. Onam va bitta kichik singlim bor. *Otam bizga beshta ot va uchta sigir goldirgan* (89). Mayda hayvonlarimiz va tovuqlarimiz ham yetarlicha. Ammo uyda xizmatchimiz yo‘q. Meni boy bir xonadondan o‘n yoshli yigitchaga xotinlikka so‘rashdi, ammo men rozi bo‘lmadim. Bunaqa yosh bolani boshimga uramanmi? Uni sevolmayman. U ayni yetishgan vaqtida men qarib qolgan bo‘laman, u keyin begona ayollar bilan uchrasha boshlaydi. Mana shuning uchun ham u xonadonga kelin bo‘lishni istamadim. Men o‘z tengdoshimga tegishni istayman. Shunda men erimni sevaman, u ham meni sevishiga shubha qilmayman. Yosh yigitchalarga xushtor bo‘lib yurishni istamayman, ammo erga tegishni xohlayman. Nima uchun, bilasizmi? – dedi Anyuta ko‘zlarini pirpiratib.

– Aytaqol, azizam Anyutushka, uyalma. Hamma so‘zlaring beg‘ubor va samimiyl.

– Yaxshi. Unda bir narsani aytib beraman. O‘tgan yili, ya’ni bir yil oldin qo‘shnimizning o‘g‘li mening har doim gurunglashib yurgan dugonamga uylandi. Eri uni sevadi, u esa erini shu qadar sevardiki, to‘yidan so‘ng o‘ninchи oyga o‘g‘il tug‘ib berdi. Har kuni

kechki payt u o‘g‘lini ko‘chaga o‘ynatgani olib chiqardi. U bolasi-ga qarab to‘ymasdi. Bolakay ham onasini judayam yaxshi ko‘rardi. Dugonam o‘g‘liga: aji, aji, desa bo‘ldi, bola qotib-qotib kulardi. Mening ko‘zlarimdan yosh chiqib ketay, derdi. Men ham mana shunday shirin o‘g‘ilcham bo‘lishini istab qoldim...

Mana shu yerda o‘zimni tutolmay qoldim, Anyutani quchoqlab, chin yuragimdan o‘pdim.

– Qarang, barin, qanaqangi yolg‘onchisiz, men bilan o‘yin o‘ynay boshladingiz. Boring, otaxon, mendan nari keting. Bechora yetimchani tinch qo‘ying, – deya Anyuta yig‘lab yubordi. – Agar otam tirik bo‘lganda va buni ko‘rganida, sizning xo‘jayin ekaningizga qarab o‘tirmasdi, bo‘yningizga tushirgan bo‘lardi.

– Xafa bo‘lma, azizam Anyutushka. Mening o‘pichim senga bo‘lgan hurmatim belgisi va u yuragimning eng tubigacha titrab, zavqqa to‘lganining hosili. Mendan qo‘rqma, jonginam Anyuta, bizning iffatdan ayirishni hech narsa bilan alishmaydigan yosh zodagonchalar singari men yirtqich emasman. Agar o‘pganim seni ranjitishini bilganimda, Xudo nomi bilan qasam ichaman, bunga botinmagan bo‘lardim.

– O‘zingiz fikr qiling, barin, qachonki bu o‘pichlar boshqa odamga va‘da qilingan ekan, nima uchun achchiqlanmasligim kerak? Men ularni boshqa birovga tortiq qilganman va endi ular ustidan hukmron emasman.

– Sen meni hayratda qoldiryapsan. Sen sevishni bilasan. Sen o‘z yuraging uchun unga monand insonni topib ulgurgansan. Sen saodatli bo‘lasan. Hech narsa sizning o‘rtangizdagи birlikni buza olmaydi. Sen ayg‘oqchilar qurshovida qolmaysan, halokat to‘ridan seni qo‘riqchilar tortib oladilar. Sening yuraging hamrohlikka tanlagan insonning qulog‘i senga bo‘lgan sadoqatini buzishga chorlovchi avrovchi ovozlar bilan zaharlanmaydi. Ammo jonginam Anyuta, nima uchun sen sevikli do‘stingning og‘ushida baxtdan sarmast bo‘lishdan mahrumsan?

– Eh, janob, shuning uchunki, uni bizning uyimizga qo‘yishmaydi. Yuz rubl so‘rashyapti. Onam esa meni unga bermaydi. Men uning qo‘lida bir xizmatkorman.

- U seni sevadimi o‘zi?
- Albatta. Boshqacha bo‘lishi mumkin emas. U kechqurunlari biznikiga keladi va biz ikkimiz dugonamning bolasini o‘ynatamiz... U ham mana shunday o‘g‘li bo‘lishini istaydi. Xafa bo‘lib ketaman; ammo chidash kerak. Mening Vanyuxam yuk tashuvchi kemada ish-lagani Piterga ketmoqchi va o‘zining badaliga to‘lanadigan yuz rubl pulni ishlab topmaguncha qaytib kelmaydi.
- Uni yuborma, azizam Anyutka, uni qo‘yib yuborma. U o‘zining halokati sari boryapti. U yoqda u ichib mast bo‘lishni, aysh-ishratni, lazzatxo‘rlikni o‘rganadi, yer haydashni yoqtirmay qo‘yadi, hammadan ham yomoni, u seni sevganini ham unutadi.
- Oh, janob, meni qo‘rqitmang, – dedi Anyuta yig‘laguday bo‘lib.
- Anyuta, boz ustiga u zodagonlarning uyida ishlashiga to‘g‘ri kelsa, undan ham yomon bo‘ladi. Xo‘jayinlarning namunasi yuqori darajadagi xizmatkorlarni zaharlaydi. Quyi tabaqadagi xizmatkorlar esa yuqori darajadagi xizmatkorlardan zaharlanishadi. Ulardan tar-qagan yara qishloqqacha yetib keladi. Bunga haqiqiy vabo misol bo‘la oladi; kim nimani ko‘rsa, o‘shani qiladi.
- Unda nima qilish kerak? Bunaqada ikkimiz yuz yildayam tur-mush qurolmaymiz. Uning uylanish vaqtি keldi. Begona qizlar bilan u yurmaydi. Meni esa uning uyiga berishmaydi. Shundan so‘ng uni boshqasi bilan unashtirishadi. Men bechora esa alamimdan o‘lamani... – u bu gaplarni ko‘z yoshlari daryo bo‘lib so‘zladi.
- Yo‘q, jonginam Anyutushka, sen ertagayoq u bilan birga bo‘lasan. Meni onangning oldiga olib bor.
- Mana bizning hovlimiz, – dedi u to‘xtab. – Nariroq yuring. Onam bizni ko‘rib, yomon xayolga boradi. U meni urmasa ham, bit-ta so‘ziyam menga har qanday kaltaklardan og‘ir botadi.
- Yo‘q, azizam Anyuta, men sen bilan boraman... – shunday deya uning javobini ham kutmasdan, darvozadan kirdim va zinadan ko‘tarilib uyga qadam qo‘ydim. Anyuta esa orqamdan baqirib qoldi:
- To‘xtang, janob, to‘xtang!

Lekin men unga e’tibor bermadim. Uyda Anyutaning onasini ko‘rdim, u xamir qorayotgandi; uning oldidagi o‘rindiqda bo‘lg‘usi kuyovi o‘tirgandi. Men gapni aylantirib o‘tirmay, uning qizi Ivanga

turmushga chiqishini istashimni, bunga to'siq bo'lib turgan sababni olib tashlash uchun kerak bo'lган parsani olib kelganimni aytdim.

– Rahmat, janob, – dedi kampirsho, – endi bunga hojat yo'q. Vanyuxaning aytishicha, otasi uning bizning uyimizga kelishiga ruxsat beribdi. Yakshanba kuni biznikida to'y bo'ladi.

– Unda mening sovg'am Anyutaga sep bo'la qolsin.

– Shunisiga ham rahmat. Boyarinlar qizlarga sepni shunchaki berishmaydi. Agar sen mening Anyutamga nimadir qilgan bo'lsang va shuning uchun unga sep berayotgan bo'lsang, Xudo bu axloqsizliging uchun jazoyingni beradi; pulingni esa olmayman. Agar sen haqiqatan ham yaxshi odam bo'lsang-u, kambag'allarni tahqirlama-sang va men sendan pul olsam, g'iybatchi odamlar har xil xayollarga borishi mumkin.

Mening bunga aqlim bovar qilmadi, qishloq aholisining dunyo-qarashida faqat e兹gulikni ko'rdim. Bu orada uyga Anyuta kirdi va onasiga men haqimda maqtab gapirdi. Men uyga kelish badali uchun Ivanga berishga harakat qildim; ammo u menga dedi:

– Janob, mening ikkita qo'lim bor, ular bilan uyning badalini ham to'layman.

Mening tashrifim ularda yoqimli taassurot qoldirganiga amin bo'lgach, ular bilan xayrashib, o'z aravam tomon qaytib ketdim. Yedrovodan chiqib ketarkanman, Anyuta xayolimdan hech chiqmadidi. Uning beg'ubor erkinligi menga haddan ortiq yoqdi. Onasining oljanob yo'l tutishi meni mutlaq lol etib qo'ydi. Men mana shunday, qo'llari xamirga botgan yoki sigir sog'ayotgan hurmatga sazovor onani shahar onalari bilan solishtirdim. Dehqon ayol mendan samimi va ezgu niyatda berilgan yuz rublni olmadi. Bu pulni moddiy holatiga ko'ra mutanosibligini solishtiradigan bo'lsak, polkovniklar, davlat maslahatchilari, mayorlar yoki generallarning xotinlari uchun besh, o'n, o'n besh ming yoki undan ko'proqni tashkil qiladi; agar polkovnik, mayor, davlat maslahatchilari va general xonimlarining (mening yedrovolik dehqon ayolga taklif qilgan sep puliga mutanosib keladigan qiymatda) ko'rinishdan ahmoqona bo'lмаган yoki ayni vaqtida iffati saqlangan qizlari bo'lib, bu yetarli bo'lsa hamda yuksak mavqega ega bo'lган yetmish yoki, Xudo asrasin, yetmish ikki yoshli boyarin besh, o'n, o'n besh ming yoki shunga yaqin

miqdorda sep tortiq qilsa, amaldor kuyov topsa yoki sharafli unvon uchun¹ qizingizni so‘rasa, unda, muhtaram shaharlik onajonlar, sizga savolim bor: yuragingiz uvishmaydim? Agar qizingiz piyoda yursa yoki ikkita qiltiriq ot sudrab borayotgan aravada ketsa, uni zarhal-langan karetalarda, yoki *to‘rt ot qo‘shilgan olmos foytunlarda* (90) ko‘rishni istamaysizmi? Men sizning udum yoki odob qoidalarini saqlab, soxta qizlar singari tezda sotilmaganligingizga qo‘shilaman. Yo‘q, azizlarim, men sizga bir yoki ikki oy muddat beraman, undan ko‘p emas. Agar sal bo‘lsa ham so‘rovlarini samarasiz qoldirsangiz, u holda u davlat ishlari bilan band bo‘lgan holda, sizni tark etadi, ya’ni yaxshisi jamiyat foydasi uchun sarflashni lozim topgan qimatbaho vaqtini siz uchun ketkazib o‘tirmaydi.

Menga qarshi mingta ovoz ko‘tariladi; meni turli xil bemaza so‘zlar bilan haqoratlashadi: muttaham, firibgar, qallob... va hokazo va hokazo.

Azizalarim mening, tinchlaning, men sizlarning g‘ururingizga tegmoqchi emasman. Nahotki hammangiz shunaqa bo‘lsangiz? Mana bu oynaga qarang: kim unda o‘zini tanimayotgan bo‘lsa, unda hech bir ayab o‘tirmasdan, meni xohlaganingizcha koying. Haqoratingiz uchun sizdan shikoyat qilmayman va haqoratingizga haqorat bilan ham javob bermayman.

Anyuta, Anyuta, sen mening boshimni aylantirib qo‘yding! Nima uchun men seni o‘n besh yil oldin tanimadim. Sening ochiqko‘ngilliling, beg‘uborliging, ehtirosga boy va qat’iyatli jasorating meni toza axloq ko‘chasidan yurishga o‘rgatgan bo‘lardi. Nima uchun mening hayotimdagи birinchi bo‘sа o‘sha, men qalbim zavqqa to‘lib, sening yonog‘ingdan o‘pganim bo‘lmagan? Sendagi hayotiy kuchning aks etishi yuragim tubiga qadar oqib kirgan bo‘lardi va mening hayotim bilan qorishib ketgan ochko‘zlikdan qocha bilgan bo‘lardim. Fohishalarning jirkanch ehtiroslaridan uzilib chiqqan, nikoh to‘shagini muqaddasligini anglagan bo‘lardim. Nafsimning to‘ymasligi bilan qarindoshlik rishtalarini uzmas edim. Qiz bolaning bokiraligi men uchun muqaddaslearning muqaddasi hisoblangan bo‘lardi va men unga dahl qilishga jur‘at topa olmasdim. Oh, mening Anyutush-

¹ *Sharafli unvon* – freylin, qirolichalar huzurida xizmatda bo‘ladigan, dvoryanlar oilasidan chiqqan ayol (*tarj.*).

kam! Hamisha qishlog'ing chetida o'tir va o'tganlarga o'zingning jur'atkor pokdomonliging bilan yo'llanma ber. Ishonchim komilki, yo'lidan nopoklik sari og'ishni boshlaganlarni ezgulik yo'liga solib yuborasan hamda og'ishga moyillarning to'g'ri yo'ldagi qadamlarini mustahkamlaysan. Agar axloqsizlikda ildiz otgan va orsizlik qu-chog'iga singgan benomus odam yoningdan o'tayotib, senga manmanlik qilsa, undan cho'chima. Sening suhbatingdan bahra olishga qilgan harakatiga to'siq qo'yma. Uning yuragi allaqachon toshga aylangan; qalbini esa olmos qobig'i to'sib qo'yan. Beg'ubor saxovatning ezgulik qalamtaroshi unda chuqur belgilar qoldirolmaydi. Uning uchi illatlarning qotib qolgan silliq yuzasida sirpanib keta-di. Taom masalasida sening o'tkir qarashlaring o'tmaslashmasin. Ammo ko'rkar libosdagi o'smirni xavfli maftunkorligi bilan birga o'tkazib yuborma, uni o'z to'ringda ushlab qol. U mag'rur, takabbur, betgachopar, dadil, xafa qilib qo'yadigan, ranjitadigan inson bo'lib tuyuladi. Ammo uning yuragi senga mutaassir bo'lmoqqa yon beradi va sening olijanob namunangni qabul qilishga eshik ochadi. Anyuta, garchi sendan uzoqlashgach, allaqachon yigirmanchi ustun yonidan o'tayotgan bo'lsam-da, sendan ajrab ketolmayapman.

Biroq Anyuta menga so'zlab bergani bu qanday udumga kira-di? Uni o'n yoshli yigitchaga, aniqrog'i, bolakayga erga berishmoq-chi bo'lgan. Bunday ittifoq tuzishga kim yo'l qo'ya biladi? Nima uchun qonun himoyachilarining qo'llari bu qadar yovuzlikning ildiz otishiga qarshi qurollanmaydi? Xristian qonunlariga muvofiq, nikoh bu muqaddas ittifoq, fuqarolik qonunlariga ko'ra esa bu kelishuv yoki bitim. Qanday ruhoniy bu kabi noteng nikohga fotiha berishi mumkin yoxud qaysi sud noziri o'zining qaydnoma kitobiga yozib kiritadi?

Qayerda yosh o'rtasidagi muvofiqlik bo'lmas ekan, u yerda nikoh ham bo'lishi mumkin emas. Buni tabiat qoidalari rad etadi, chunki bu inson uchun befoyda ittifoqdir. Buni jamiyat uchun zararli illat sifatida fuqarolik qonunlari ham taqiqlashi lozim. Er va xotin mohiyatan, jamiyatdagi qonunlar bilan tasdiqlanadigan va dastavval o'zaro tuyg'ular hamohangligiga asoslanib, birga turmush qurish uchun bitim tuzuvchi ikkita fuqaro hisoblanadi (hech kim birgalikda turmush qurishning birinchi qonuni va nikoh ittifoqining asosi

to‘g‘risida bahslashmoqqa intilmasin, muhabbatning avvali sofdir va er-xotinlik roziligi asosining mustahkam toshidir.) Ular birga yashashni baxt deb biladilar, umumiy manfaatga ega bo‘ladilar, tinch-totuv yashab, bir-birlariga ozor yetkazmaslik uchun o‘zaro ehtiroslari mevasini dunyoga keltiradilar. Yoshdagি nomuvofiqlikda bitimdagи hamma shartlarni amalga oshirish mumkinmi? Agar er o‘n yoshda va xotin yigirma besh yoshda bo‘lsa, afsuski, dehqonlarda bunday holatlar tez-tez uchrab turadi; yoki er ellik yoshda bo‘lib, xotin o‘n besh yoshda bo‘lsa, bunday holat esa dvoryanlarda uchrab turadi – bunday holatda o‘zaro tuyg‘ular lazzatini totish mumkinmi? Menga ayting-chi, qariya erlar, faqat vijdonan so‘ylang, siz erlik nomiga loyiқ bo‘la olasizmi? Siz ehtiroslar olovini o‘chirib qo‘ymay, uni faqat yoqib turishga qodirmisiz?

Yoshning nomutanosibligi bilan tabiat birlamchi qonunlaridan eng asosiy buziladi; demak, agar asosi tabiat qonunlariga zid bo‘lsa, jamiyat qonunlari mustahkam bo‘lishi mumkinmi? Aniqroq aytamiz: u amal qilmaydi.

– O‘zaro ehtiroslar hosilini ko‘rmoq – ammo bu yerda, qachonki bir tarafda olov yonib tursa-yu, ikkinchi tarafda hissizlik hukm sursa, o‘zaro tuyg‘ular haqida gapirish mumkinmi? Ekilgan nihol saxovatli yomg‘ir yoki uning chanqog‘ini qondiradigan shabnam bo‘lmasa, daraxt bo‘lib, hosil berishi mumkinmi? Agar, qachondir hosil solsa ham, u nimjon, ko‘rimsiz va tez orada to‘kilib, chirib bitadigan bo‘ladi.

– Bir-biriga ozor bermaslik. – Bu to‘g‘ri va abadiy qoida hisoblanadi; er va xotin bir-birini yoqtirish tuyg‘ularidan mutanosib ravishda lazzat olishlari lozim, shundagina nikoh ittifoqi muvaffaqiyatli bo‘ladi; turmushning kichik hayajonlari ko‘p o‘tmay xushbaxtlikning keng qanoti ostida qolib ketadi. Va qachonki qarilik balosi ehtiroslar quvonchini buzilmas qobiq bilan o‘rar ekan, unda o‘tgan xush kunlarni xotirlash keksaygan yoshning injiqqliklarini tinchlantiradi.

– Nikoh shartnomasining yana bitta sharti nikohlanuvchilar yoshidagi nomuvofiqlikda ham bajarilishi mumkin: birga yashash. – Ammo bunda o‘zaro degan tushuncha bo‘ladimi? Biri qo‘lida kuchga ega bo‘lgan erkin hukmdorga aylanadi. Ikkinchisi esa zaif

qatlam va faqat hukmdorining buyrug‘ini amalga oshirishgagina qodir bo‘lgan butkul qul bo‘lib qoladi.

Meni kechir, jonginam Anyutušhka, sening ta’limoting abadiy yuragimda sharaflanib qoladi, u o‘g‘illarimdan o‘g‘illariga ham meros bo‘lib qoladi.

Xatilovo bekti ko‘zga tashlana boshladi. Men esa hali ham Yedrovo qizi to‘g‘risida xayol surayotgandim va qalbim hayajonga to‘lib baland ovozda xitob qildi:

– O, Anyuta! Anyuta!

Yo‘llar notekis edi, shu bois otlar yo‘rg‘alab borayotgandi; aravakashim so‘zlarimni eshitarkan, menga o‘girildi:

– Ko‘rinib turibdi, barin, – dedi u menga jilmaygancha va shlapasini to‘g‘rilab, – bizning Anyutkamizga ishqing og‘ib qolibdi. Mana buni qiz desa bo‘ladi! U faqatgina sening burningni artib qo‘ygani yo‘q... Hammani yengadi... Bizning qishlog‘imizda ko‘rkam qizlar juda ko‘p, ammo ular Ankaning oldida sariq chaqaga teng. Raqsga tushishga shunaqangi ustaki! Kim bo‘lishidan qat’i nazar, hammani bir cho‘qishda qochiradi... Dalaga o‘rimga borganda ko‘rsangmi... qarab to‘ymaysan. Lekin... ukam Vankaning baxti bor ekan.

– Ivan sening ukangmi?

– Amakimning o‘g‘li. Qandingni ur, yigit! Anyutaga birdaniga uchta yigitsovchi qo‘ydi; lekin Ivan hammasini yengdi. Ular qizning u yonidan o‘tishdi, bu yonidan o‘tishdi, ammo Vanyuxa vaqtida keldi va qizni ilib ketdi. (Biz bu paytda qishloqdan chiqdik.) Shunaqa gaplar, barin! Hamma raqsga tushgan ham o‘yinchi bo‘lmaydi.

Biz pochta hovlisiga kirib keldik.

– Hamma raqsga tushgan ham o‘yinchi bo‘lmaydi, – ta’kidladim men aravadan tushayotib... – Hamma raqsga tushgan ham o‘yinchi bo‘lmaydi, – takrorladim yana engashib, turib va aylangancha...

Kelajak loyihasi¹

Jonajon vatanimizni hozirgi holatiga nisbatan muntazam gullabyashnatib, ravnaq toptira borish; fan, san'at va hunarmandchilikni inson imkoniyati yetib borgan joyga qadar yuksak darajalarga olib chiqish, hududlarda inson aqlining hech bir to'siqlarsiz va adashmay keng qanot yozishi hamma jabhani yuksaklikka ko'taradi va u bugungi kunda jamiyat qonunchiligining ishonchli posboniga aylandi. Hukumat qobig'i ostida erkin va Buyuk Yaratgandan hamisha o'z ibodatlarida so'raydigan yuraklarimizda ta'riflab bo'lmas quvonch bilan shuni e'tirof etamizki, bizning yurtimiz Xudoning nazari tushgan go'shadir. Chunki uning tuzilmasi turli xurofot va bid'atlarga emas, balki Yaratganning saxiyligini ich-ichimizdan his etishimizga asoslanadi. Juda tez-tez odamlarni e'tiqodlariga qarab bo'lib yuboradigan xusumat bizga begona, bu haqda zaruriyatni ham his etmaymiz. Mana shu erkinlik orasida tug'ilganlar, ya'ni biz bir-birimizni chin birodarlar sifatida e'zozlaymiz, biz bir oila farzandlarimiz va bizning Otamiz, Xudoymiz bitta.

Ilm chirog'i bizning qonunchiligmiz uzra nurini sochib, yer yuzida bugun amal qiladigan juda ko'p qonunchiliklardan uni ajratib turadi. Boshqaruvdagagi muvozanat, mulkiy tenglik hatto fuqarolik kelishmovchiliklari ildizini ham sug'urib tashlaydi. Jazo choralaridagi mo'tadillik xuddi mehribon ota-onaning o'z farzandlariga buyurgani kabi hukumatning oliy qonunlarini o'rganishga majbur qilgan holda, hatto oddiy jinoyatchilikning ham oldini oladi. Mulkni sotib olish va saqlash to'g'risidagi qonun-qoidalardagi ravshanlik oilaviy nizolarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi. Fuqaro va uning mol-mulkini boshqasidan ajratib turuvchi oraliq chuqur, hammaga oshkora ko'rinib turadi va bu chegarani hamma muqaddas tutadi. Bizning oramizda bir-birimizni haqoratlab ranjitish kamdan kam sodir bo'ladi va do'stona yarashib ketamiz. Xalqona tarbiya muloyim

¹ Xatilov bobidagi «Kelajak loyihasi», «Vidropusk» va «Mednoye» bobidagi dehqonlar bilan savdo hikoyasi sayohatchining do'sti nomidan yozilgan bo'lib, unda fikr liberalizmdan asta-sekin inqilobiy tus olib boradi (*tarj.*).

bo‘lishlikka, fuqarolar o‘rtasidagi do‘stona tinchlikka va, eng avvalo, inson bo‘lishga zamin yaratadi.

Ichki osudalikdan baha olib, tashqi dushmanidan xoli bo‘lgan holda, jamiyatda fuqarolik hayotini eng yuksak saodatga olib borib, – nahotki biz insoniylik tuyg‘ularidan biroz begona, rahm-shafqat amallaridan begona, olijanob dilda nazokatidan begona, birodarlik mehridan begona bo‘lsak va biz bilan teng darajada bo‘lgan hamfuqarolarimizni, hamjamiyatlarimizning uchdan bir qismini ko‘z oldimizda qullikning og‘ir zanjirlarida erksiz qoldirsak hamda avlodlarning qarg‘ishiga, doimiy ta’nalariga qolsak? Assiyaning¹ jazirama mintaqalarida tug‘ilgan o‘ziga o‘xshagan odam zotini qullikka olish kabi hayvoniy udum, yovvoyi xalqlarga xos udum, qalbdan mutlaqo mosuvo bo‘lib, yurakning toshga aylanganidan dalolat beruvchi udumlar butun yer yuzi bo‘ylab juda tez, keng va uzoq-uzoqlarga qadar tarqab ketdi. Va biz, shon-shavkatning o‘g‘illari² o‘z nomimiz va amallarimiz bilan avlodlarimiz ichra dong taratdik, bu udumlarni qabul qildik; va bizning isnodimiz sifatida, o‘tgan asrlarning isnodi sifatida, bugungi tafakkur davri isnodiga bu udumni bugungi kunga qadar buzmasdan asrab keldik.

Sizga otalaringizning amallaridan ma’lum, solnomalardan ham sizga ma’lum, xalqimizning haqiqiy insonparvarlik bilan faoliyat yuritgan dono hukmdorlari ijtimoiy ittifoqning tabiiy aloqasini anglagan holda, *yovuzlikning bu yuz boshli ajdahosi qilmishlariga chek qo‘yishga* (91) harakat qildilar. Ammo ularning bu humronlik jasorati o‘sha vaqtida davlatimizda amaldorlik holati afzallikkleri bilan mag‘rur, lekin bugungi kunda xarob bo‘lgan va dvoryanlar avlodi nafratiga duchor bo‘lganlar sharofati bilan behuda ketdi.

Bizning hukmron ajdodlarimiz (92) o‘z kaltaklari kuchining qudrati bilan fuqarolik asorati zanjirlarini uzib tashlashga ojiz edilar. Ular nafaqat o‘zlarining bu ezgu maqsadlarini amalga oshira olmadilar, balki, yuqorida aytib o‘tilgan davlatimizdagи amaldorlarining hiyla-nayranglari ostida o‘zlarining aql va qalblari istagiga zid

¹ Assiya (Osiyo) XVIII asrda yovvoyilik, qullik va istibdodning vatani hisoblangan (*tarj.*).

² *Shon-shuhrat farzandlari* – Yekaterina asrida slavyan nomi «слава – sharaf, shavkat» so‘zidan kelib chiqqan, degan uydurma tarqalgan (*tarj.*).

bo‘lgan amallarga yo‘naltirib yuborildilar. Bizning otalarimiz ko‘z yoshlari bilan, ehtimol bu yurakdandir, jamiyat uchun eng foydali bo‘lgan uning a‘zolarini mahkamroq bog‘lab, ularning zanjirlarini yanada qattiqroq siqish bilan shug‘ullanadigan zulmkor bo‘lib kamol topdilar. Bugun bizning oramizda dehqonlar va qullar bor; biz ularni o‘zimiz bilan teng darajadagi fuqarolar sifatida ko‘rmaymiz, hatto ularning odam ekanini ham unutganmiz. Ey, bizning aziz vатандoshlarimiz! Ey, yurtning haqiqiy o‘g‘lonlari! Atrofingizga nazar soling va adash yo‘lda ekaningizni anglang. Mangulikka dohil Xudoning jamiyat ravnaqi va inson saodati uchun faoliyat yuritadi-gan xizmatkorlari biz bilan hamfikrlikda, saxovatli Xudo nomi bilan qilgan va qanchalar donolik hamda muhabbat bilan yo‘g‘rilgan amri ma’ruflarida sizga o‘z yaqinlari ustidan o‘zboshimchalik bilan hukmronlik qilish yaramas ish ekanligini tushuntirdilar. *Xudoning xizmatkorlari bizning tabiatimiz va qalbimizdagilarni ko‘rsatish orqali sizning shafqatsizligingizni, nohaqligingiz va gunohingizni anglatishga harakat qildilar* (93). Hali ham ularning ovozlari chin Egam ibodatxonalarida hayqirib jaranglaydi: ko‘zingizni oching, adashganlar, ko‘nglingizni yumshating, tosh yuraklilar; birodar-laringizdagi kishanlarni parchalab tashlang, tutqunlik zindonidan xalos eting va xuddi siz kabi ularga ham Saxovatli Xudo tomonidan tayyorlangan umumiy hayotning shirinliklaridan tatib yashashlaridan mosuvo etmang. Ular ham xuddi siz kabi quyoshning iliq taftidan bahramand bo‘lishadi, ularning ham hissiyotlari va tana a‘zolari xuddi siznikiday, ular qo‘llashdagi huquqlari ham siz bilan bir xil bo‘lishi lozim.

Agar Xudoning xizmatkorlari sizning ko‘z oldingizda insonni asoratda tutishning gunoh ekanligini namoyon etishgan bo‘lsa, bu asoratning jamiyatga bo‘lgan zarari va fuqarolarga nisbatan bo‘lgan bunday munosabatning noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatish bizning bur-chimizga kiradi. Insonlarning, shuningdek, fuqarolarning tengligi to‘g‘risidagi qadim davrlardanoq donishmandlik ruhiyati bilan asoslangan dalillarni izlash yoki ularni yangilash zarurati ortiqchadek tuyuladi nazarimizda. Xurofotlar emas, balki oljanoblikka to‘la erkinlik qobig‘i ostida ulg‘ayganligining o‘zi qalb amallari mohiyatining birlamchi tengligi dalilidir. Biroq yer yuzidagi insonning baxtsizligi

shundaki, u shundoqqina ko‘z oldida turgan narsani ko‘rmaydi va yorug‘lik ichra ham adashadi.

Maktablarda *siz yoshlarga* (94) tabiiy huquq asoslari va fuqarolik huquqidan saboq berishgan. Tabiiy huquq sizga insonning mohiyatan jamiyatdan tashqarida, tabiatan bir xil qiyofada yaralgani va shu bois bir xil huquqlarga ega ekanligi, binobarin, o‘zaro munosabatlarda ham teng huquqliligi va eng muhimi, boshqalarga tobe emasligini o‘rgatgan. Fuqarolik huquqi esa sizga insonlar o‘z cheksiz erkinliklarni uni tinch maqsadlarda qo‘llash bilan ayrboshlashlaridan ta‘lim bergan. Lekin ularning bari o‘zlarining erkinliklariga o‘z chegaralarini qo‘ysalar va erkni qo‘llashdagi o‘z faoliyatlarining qoidalarini o‘rnatsalar, materiya ichidagi tabiiy erkinlikda teng bo‘lganlari kabi, uni chegaralash va qoidalar o‘rnatishda ham teng huquqli bo‘ladilar. Va, o‘z navbatida, bu borada ham biri ikkinchisiga tobe bo‘lmaydi. Jamiyatdagи birinchi hukmdor qonun hisoblanadi va u hamma uchun barobardir. Ammo jamiyat ichiga kiring va faoliyatlarga o‘zboshimchalik bilan to‘sилар qo‘yishga nima turtki bo‘lgan? Aql aytadi: shaxsiy manfaat; yurak aytadi: shaxsiy manfaat; fuqarolikning buzilmas qonunlari aytadi: shaxsiy manfaat. Biz jamiyatda yashaymiz, takomillashtirishning juda ko‘p darajalari yuzaga kelib ulgurdi, shuning uchun biz uning dastlabki holati haqidagi unuttdik. Lekin barcha yangi xalqlar va barcha jamiyatlarning, agar shunday aytish mumkin bo‘lsa, mohiyatini ko‘rib chiqing. Birinchidan, quldorlik jinoyat hisoblanadi; ikkinchidan, yagona yovuz odam yoki dushman qullik yukini sinovdan o‘tkazadi. Mana shu tushunchalarga ega bo‘lib turib, biz quyidagini anglay boshlaymiz: biz jamiyat maqsadlaridan qay darajada uzoqlashib ketdik va jamiyat saodati cho‘qqisidan qanchalar ko‘p pastda qolib ketyapmiz. Sizga aytganlarimizning barchasi juda oddiy va bu qoidalar shurrimizga ona suti bilan birga singgan. Faqatgina bitta illat, faqat ochko‘zlik (bizning bu so‘zimizdan ranjimang), yagona ochko‘zlikkina ko‘zlarimiz oldini to‘sadi va bizni zulmat ichra kezib yurgan johilga aylantiradi.

Ammo bizning safimizda kim zanjirband etilgan, kim erksizlik zalvarini his etmoqda? Dehqon! O‘zi ishlab chiqargan mahsuloti taqsimlash, tasarruf etish va uni qayta ishlash huquqiga ega bo‘lmay turib, qornimizni to‘ydiruvchi, chanqog‘imizni qondiruvchi, bizga

salomatlik tortiq qiluvchi, hayotiyligimizni ta'minlovchi va uni davom ettiruvchi dehqon. Dala maydonida ishlamaydigan odamning bu yerda qanchalar haqqi bor? Jamiyat tashkil qilish uchun cho'l ustiga kelgan odamlarni xayolan tasavvur qilib ko'raylik. O'z qornini to'ydirish maqsadlarini ko'zlab, ular g'alla maydonlarini bo'lib ola boshlaydilar. Xo'sh, kimning chekiga ko'proq yer tushadi? Yerni haydab, don eka biladigan odamga emasmi? Bunga kuchi va yetarli darajada xohishi bo'lgan odamga emasmi? Yosh bola yoki keksa odamga, zaif, kuchi yetmaydigan va behafsala odamga yerdan ulush ajratib berishning foydasi yo'q. Yer qarovsiz qolib ketadi va unda mehnat shamoli esmaydi. Agar yer ishlab chiqaruvchi uchun foydasiz bo'lsa, u holda jamiyat uchun ham foydasizdir; chunki ishlab chiqaruvchi o'z ehtiyoji uchun kerakli miqdorga ega bo'lmay turib, jamiyatga oshiqchasini bera olmaydi. Binobarin, jamiyat ibtidosida kim yerni qayta ishlab, unda mahsulot yetishtira bila olsa, yerning egasi o'sha hisoblangan va yerdan faqat uning o'zi foydalangan. Bi-roq biz ijtimoiy holatning boshqaruv bilan bog'liq dastlabki asoslaridan qay darajada uzoqlashib ketdik! Bizda yerga egalik qilishga tabiiy huquqi bo'lgan odam nafaqat undan mutlaq chetlatilgan, balki birovning dala maydonida ishlay turib, o'z rizqini boshqa birovning hukmronligi ostida topadi! Sizning ma'rifatli ongingizga bu haqiqatlar tushunarsiz bo'lishi mumkin emas, biroq bu haqiqatni amalga oshirish borasida qilgan ishlaringizga, biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizday, ochko'zlik va illat xalaqit qiladi. Nahotki insoniyat sevgisi bilan to'lgan yuragingiz ochko'zlikni dilni qoniqtiradigan hissiyot, deb hisoblaydi? Ammo bundan o'zingiz qanday manfaat ko'rasiz? Aholisining uchdan ikki qismi fuqarolik rutbasidan mahrum bo'lgan va bir qismi qonunda o'lik hisoblangan davlatni saodatli deb atash mumkinmi? Rossiyadagi dehqonlarning fuqarolik holatini saodatmand deb hisoblash mumkinmi? Ochko'zlar qavmidan biri uni baxtli, deb aytadi, chunki u dehqon uchun yaxshi holat to'g'risida tasavvurga ega emas.

Biz endi qoidalarning ushbu yirtqich hukmdorlarini dalil bilan fosh etishga harakat qilamiz, zotan qachonlardir bizning ajdodlarimiz ularning faoliyati noto'g'riliгини isbotlab, ularni rad etishgan, biroq ularning amallari muvaffaqiyatsiz yakun topgan.

Fuqarolik saodati turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Davlat esa, aytishlaricha, qachonki unda osudalik va uyushqoqlig hukmonlik qilsa saodatli bo‘larkan. Qachonki dalalari bo‘shab qolmasa, shaharlarida baland binolar yuksalib tursa saodatli bo‘lib tuyuladi. Agar hukumat o‘z kuch va qudrati bilan uzoqlarga qo‘l cho‘za olsa va u nafaqat qurok kuchi bilan, balki boshqalar ustidan so‘zi bilan ham hukmini o‘tkaza olsa saodatli deb ataladi. Ammo bu saodatlarning hammasini tashqi, lahzalik, o‘tkinchi, xususiy yoki xayoliy deb atash mumkin.

Ko‘z oldimizda yastanib turgan vodiyya nazar solamiz. Nima ni ko‘ryapmiz? Juda katta harbiy qo‘sinni. Uning hamma tarafida sokinlik hukm surmoqda. Askarlarning hammasi o‘z joyida turibdi. Ularning qatorlari ulug‘vor saflar bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Boshliqning yagona buyrug‘i, yagona qo‘l ishorasi butun qo‘sinni harakatga keltiradi, safma-saf harakatga soladi. Biroq jangchilarni saodatli, xushbaxt, deb atashimiz mumkin? Aniq harbiy bo‘ysunish ularni qo‘g‘irchoqqa aylantirgan, ularda tirik mavjudotga xos bo‘lgan ozgina erkin harakat ham ajralib qoladi. Ular faqat boshliqning buyrug‘ini bilishadi, u nimani xohlasa, o‘sha haqida fikr yuritishadi, qaysi tarafga yo‘naltirsa, o‘sha tarafga qarab maqsadni olishadi. Davlatning qudratli kuchi ustidagi kichik qudratli, boshqaruvchi tayoq. Birlashgan holda ular hamma narsaga qodir, lekin bo‘lingan va yakkalangan holatda, xuddi cho‘pon istagi bilan boshqarilgan qo‘ylar singari o‘tlab ketadi. Erkinlik hisobiga qurilgan bu mexanizm, xuddi kishanlarning o‘zi kabi bizning xushbaxtligimizga qanchalar zid. – Kema o‘rindiqlariga mixlanib o‘tirgancha o‘z yo‘lida eshkaklari bilan bir tartibda harakatlanayotgan yuz nafar tutqun sokinlik va uyg‘unlik ichra yashashadi; ammo ularning qalbi va yuragiga nazar sol. Azob, qayg‘u, umidsizlik. Ko‘pincha ularda o‘z hayotlarini o‘lim bilan almashtirish istagi namoyon bo‘ladi; ammo bu ham ular uchun munozarali. Azoblarning tugashi ular uchun saodat; saodat esa tutqunlik bilan kelishmaydi; shuning uchun ular yashayverishadi. Va shu kabi, davlatning tashqi osudaligi va uning tuzilishi bilan ko‘zlarimiz qamashmaydi va mana shu holatlarni keltirib chiqaradigan sabablarni ham saodat, deya sharaflamaymiz. Siz doim vatan-doshlarning yuragiga boqing. Agar unda xotirjamlik va tinchlikni

ko'rsangiz, ana shundagina ularni haqiqatan ham xushbaxt, deya ayta olishingiz mumkin.

Yevropaliklar Amerikani vayron qilib, uning dalalarini uning mahalliy xalqi qoni bilan sug'orib bo'lgach, qotilliklariga o'zlarining yangi ochko'zliklari bilan chek qo'yishdi. Tabiatning kuchli larzalari bilan yangilangan bu yarimsharning kimsasiz dalalari ularning qa'rigacha titratib yuborgan shudgorni his qilishdi. Semiz o'tloqlarda o'sib, hosili qurib to'kiladigan boshoqli o'simliklar o'tkir o'roqlarda kesilib olinadigan hosillarini his etdilar. Tog'larda qadimdan bu yerga soya tashlab turgan daraxtlar ag'anab yetardi. Hosilsiz o'rmonlar va qalin chakalakzorlar hosildor maydonlarga aylanadilar va faqat Amerikaga xos yoki unga muvaffaqiyatli tarzda ko'chirib keligan yuz turdag'i o'simliklar bilan qoplandilar. Semiz o'tloqlar odamzod tomonidan taom yoki ishslash uchun belgilangan ko'plab qoramollar oyog'i ostida toptaldi.

Hamma joyda quruvchining bino tiklayotgan qo'li ko'rinardi, hamma joyda tuzilmaning tashqi belgisi va farovonlik ko'rinishi aks etib turardi. Ammo kim mana shunday qudratl qo'l bilan xasis, dangasa tabiatdan o'z hosilini mo'l-ko'l qilib berishga majbur qilmoqda?

Hindularni birvarakayiga qirib yuborgan yovuz yevropaliklar, haqiqat Xudosi nomidan tinchlikparvarlikni va'z qiluvchilar, inson-parvarlik va muloyimlikni o'rgatuvchi murabbiylar bosqinchilar ning vahshiyona qotilliklarining ildiziga qullarni pulga sotish orqali quldorlikningsovuuqqon qotilligini payvand qildilar. Ularning Niger va Senegalning jazirama qirg'oqlarida yashovchi sho'rpeshana qurbanlari uylari, oilalaridan ajratib olinib, o'zlarini uchun noma'lum bo'lgan mamlakatlarga ko'chirilib, ularning mehnatidan hazar qilib obodonlashtirishning og'ir kaltagi ostida Amerikaning bo'liq yerlari ni o'zlashtirdilar. Biz esa talon-taroj qilingan mamlakatni dalalarida tikan o'smagani va maydonlarida turli navdag'i o'simliklar gurkirab o'sayotgani uchun saodatli, deb ataymiz. Yana, biz saodatli, deb atagan mamlakatda yuz nafar fuqaro boy-badavlat va hashamatlar ichra umr kechiradi, qolgan ming nafari esa qorni to'yib ovqat yemaydi, jazirama va ayozdan asrovchi boshpanaga ega emas. O, bu to'kin mamlakatlarni yana bo'shatish uchun! Tikanlar va qushqo'nmas

yovvoyi o'tlar ildizlarini chuqurroq yoyib, Amerikaning qimmatli asarlarini yo'q qilish uchun!

O, mening azizlarim! Siz haqingizda «nomingni qo'llab, sen haqda hikoya qiladilar» demasliklari uchun larzaga keling!

Misr ehromlarining haybati bugun ham bizni hayratga soladi. Uzoq davrlardan beri bu o'xshashi yo'q piramidalar Misr me'morchiligining hayratomuz yutug'idan dalolat berib keldi. Ammo bu toshlarning bema'ni uyumini tayyorlash nima uchun kerak bo'lgandi? Takabbur fir'avnlarni dafn etish uchun. Bu dimog'dor hukmdorlar mangulikni orzu qilib, o'limlarining ham tashqi ko'rinishidan o'z xalqlaridan ajrab turishini istaganlar. Jamiyat uchun keraksiz bo'lgan bu mahobatli qurilmalar fir'avnning xalqqa tazyiq o'tkazganining yaqqol isbotidir. Umumiylashtiruvchi erishgan va hozirda vayron bo'lgan shahar qoldiqlaridan maktablar, mehmonxonalar, suv quvurlari, tomosha sahnalari va shunga o'xshagan bino qoldiqlarini topishimiz mumkin; «biz» emas, «men» hukmronlik qilgan shaharlarda esa podsholarning hashamdar qasralari xarobalari, katta otxonalar va hayvonlar saqlanadigan binolar qoldiqlarini topamiz. Har ikkalasini ham solishtirib ko'ring: bu yerda tanlov qilishimiz hech qiyinchilik tug'dirmaydi.

Ammo fotihlarning shuhratidan nima topamiz? Ovoz, gumburlashlar, dimog'dorlik va vayronagarchilik. Men bu kabi sharaflarni o'n sakkizinchasi asrda ixtiro qilingan sharlarga tatbiq qilaman: (95) ipak matodan yasalgan, ular bir lahzada yonuvchan havo bilan to'ldiriladi va tovush tezligida havo qatlamlari chegarasiga uchib boradi. Ammo ularning kuchini tashkil etadigan narsa manbasidan ingichka quvurcha orqali beto'xtov tomib turadi. Butun oylar davomida qancha mehnat, xarajat, tirishqoqlik evaziga barpo qilingan narsa faqat bir necha soatgina tomoshabinlarning ko'zini quvontirishga yetadi.

Ammo so'rang-chi, bosqinchi nima uchun intilyapti? U odamlar yashaydigan mamlakatlarni vayronalarga aylantirib, o'z sultanati uchun quruq cho'lni zabit etmoqdan nima topadi? Biz javobni ham madan ko'ra shiddatkor, buyuk, deb nom olgan Aleksandrdan topamiz. Ammo uning buyukligi qilgan ishlarida emas, balki ruhiy quvvati va vayronalarida namoyon bo'ladi.

— Ey, afinaliklar, — dedi u. — Men sizning maqtovingizga qanchalar loyiqliqman.

Mantiqsizlik! Sen o‘z amallaringga nazar sol. Sening parvozingning shiddatli uyurmasi sening hududing orqali aylanib o‘tib, o‘z aholisini o‘ramiga tortib ketadi, o‘z yo‘lida davlatning kuchini ham sudrab ketib, ortidan bo‘liq va jonsiz makonni qoldiradi. Ey, qahri qattiq to‘ng‘iz! Sen g‘alabang bilan yerlarni vayron qilib, zabit etgan narsangdan ko‘zingni quvontiradigan nima topishing mumkinligi haqida fikr yuritmaysan. Agar sen cho‘llarni qo‘lga kiritgan bo‘lsang, unda bu yer vatandoshlaringning sendan o‘zini yashiradigan qabriga aylanadi; Yangi cho‘lga joylashar ekansan, boy mamlakatni behosil o‘lkaga aylantirasani. Agar boshqa xalqlarni bo‘sish qoldirgan bo‘lsang, cho‘lga ko‘chib o‘tganingdan senga nima naf? Agar mamlakatlarni aholisi bilan birga qo‘lga kiritgan bo‘lsang, unda qotilliklaringning hisobini ol va dahshatga tush! Seni ajal yetakchisi bo‘lganing uchun yomon ko‘radigan yuraklarni tomiri bilan uzib tashlashga chog‘lanasan. O‘ylama, seni sevish mumkin, deb. Ular qo‘rqishga majburlar. Jasur fuqarolarни yo‘ldan olib tashlaganingdan so‘ng, senga qo‘rroqlik, hadik ruhiyatidagi itoatkorlar qoladi. Ular qullikni ham qabul qilishga tayyor bo‘lib, senga bo‘ysunishadi; biroq ularning qalblarida ham sening g‘alabalaringga nisbatan ulkan g‘azab chuqur ildiz otib boradi. Sening zabit etishlaringning hosili bo‘ladi — o‘zingni aldamay qo‘yaqol — bu hosil qotillik va nafratdir. Sen ajdodlar xotirasida zulmkor sifatida qolasan; yangi qullaringning senga nisbatan yomonlik qilishlarini ko‘rib, ruhan azob chekasan, ular sendan o‘limingni so‘raydilar.

Lekin dehqonlarning holatiga yaqin tushunchalar to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak, biz uning jamiyat uchun biroz zararli tomonlarini ko‘rishimiz mumkin.

Uning holati aholining ko‘payishi va o‘sishi uchun zararlidir, o‘zining namunasi bilan zararli, notinchligi bilan xavflidir. Inson o‘z ishlarini xudbinlikka asoslangan holda boshlar ekan, ishning maqbul tomonlarini qabul qiladi, ya’ni yaqin kunlarda va kelgusida uning foydasiga xizmat qiladigan narsalarga yaqinlashadi, shu-

ningdek, yaqin kunlarda va umuman kelgusida ham unga foydasi bo‘lmaydigan narsalardan uzoqlashadi. Mana shu tabiiy maylga asosan, o‘zimiz uchun boshlagan har bir ishni hech kimning maj-burlashisiz, o‘z ixtiyorimiz va ishtiyoqimiz, g‘ayratimiz bilan amalga oshiramiz. Va aksincha, agar faoliyatimiz g‘ayriixtiyoriy amalgaga oshirilsa, u bizning manfaatimiz uchun xizmat qilmasa, uni xatolarga yo‘l qo‘yib, dangasalik bilan naridan beri bajaramiz. Bizning davlatimizda dehqonlar faoliyati xuddi shunday asosda amalgaga oshiriladi. Dala birovniki, hosili ham ularga tegishli emas. Shu bois ular yerga dangasalik bilan ishlov beradilar, ish orasida u bo‘sh qolmaydimi, deya qayg‘urmaydilar, jon kuydirmaydilar. Bu dalani takabbur yer egasining dehqonga o‘zini boqish uchun bergen birozgina yeri bilan solishtiring. Dehqon o‘zi uchun ham bu yerga mehnatini ayamaydi. Uni ishdan hech narsa chalg‘ita olmaydi. Shafqatsiz vaqt oqimini u tetiklik bilan yengadi; uyqu uchun ajratilgan vaqtini ham u mehnat qilishga sarflaydi. Bayram sifatida belgilangan kunlar ham unga begona. Chunki u o‘zi uchun jon kuydiradi, o‘zi uchun ishlaydi, o‘zi uchun yaratadi. Mana shu tariqa bu dala unga mo‘l hosil beradi; mana shu tariqa xo‘jayinning yeridagi mehnatning mevasi nobud bo‘ladi yoki u umuman yaralmaydi. Hosil yaralgan va fuqarolarni to‘yintirgan bo‘lardi, buning uchun yerga g‘amxo‘rlik bilan ishlov berish va bu yerdagi mehnat erkin bo‘lishi kerak edi.

Biroq agar majburiy mehnat kamroq hosil beradigan bo‘lsa, yerdan foydalanishdan ko‘zlangan maqsadga erishmaslik aholining ko‘payishiga ham ma’lum miqdorda xalaqit qiladi. Yeyishga hech vaqo bo‘limgan joyda, garchi kimlarningdir yemagi tayin bo‘lsa ham, hech narsa bo‘lmaydi; holsizlikdan halok bo‘lishadi. Mana shunday, dehqonchilik sohasida yerning yetarlicha hosil bermasligiga sabab bo‘ladigan qullik fuqarolarni o‘ldiradi, tabiat ularning ortiqchasini aniqlaydi. Ammo qullikda ko‘p hosillikka faqat shuning o‘zagina to‘sinqilik qiladimi? Oziq-ovqat va kiyim-kechak yetishmovchiligi ustiga ular holdan toydiradigan darajada ish qo‘shishadi. Hatto eng xushmuomala odamning hissiyotlariga ham takabburlikning haqoratlari va kuch ishlatish asoratlarini qo‘shing; shunda dahshat ichra qullikning yuzaga keltirgan halokatiga guvoh bo‘lasiz. Bu halokatning bosqinchilik zafarlari va zabt etishlaridan farqi shu-

ki, g'abalalar tug'ilishga imkon bermaydi, ularni tilkalab tashlaydi. Ammo qullik halokatining jamiyatga zarari ko'proq. Biri bir lahzada va bir marta yakson qiladi va buni ko'rish oson. Ikkinchisi uzoq vaqt mobaynida, uzlusiz yakson qilib boradi; birinchisining parvoz davri yakuniga yetgach, o'zining shafqatsizliklarini to'xtatadi; ikkinchisi esa tugagan joyda yana boshlaydi, munosabatini o'zgartirolmaydi butun ichki rnhiv iztiroblari bilan u hamisha xavfli bo'lib qoladi.

Lekin qullik unsurlarining doimiy va odatiy ko'rinishidan ham zararli narsa yo'q. Bir tomonda takabburlik yuzaga keladi, ikkinchi tomonda qo'rquv. Bu yerda zo'ravonlikdan o'zga hech qanday aloqa bo'lishi mumkin emas. Va bu kichik muhitdan boshlanib, o'zining hukmronlik faoliyatini keng va mudhishlik bilan yoyadi. Biroq nafaqat qo'llarida kuch va qurolga ega bo'lganlar qullikni yoqlaydilar, balki o'zları zanjirband bo'lgan ayrim g'azabkor johillar ham uni targ'ib etadilar. Aftidan, ayrim qullarda erkinlik ruhi qurib bitadi, ular nafaqat o'zlarining azoblariga chek qo'yishni istamaydilar, balki boshqalarning ozodlikka chiqayotganini ko'rish ham ular uchun og'riqli kechadi.

Agar inson o'z halokatini sevishi mumkin bo'lsa, unda u oyog'idagi kishanlarga ham mehr qo'yadi. Mening xayolimda bunday odamlarda birinchi odamning yiqilishiga sabab bo'lgan ilonni ko'rish mumkin. – Hukmronlik namunalari yuqumlidir. Biz o'zimiz, tan olishimiz kerak, biz, fuqarolar uchun tayyorlangan umumjamoa ovqatini so'rib yotgan yuz boshli maxluqni yakson qilish uchun fe'limiz va jasoratimizni cho'qmor bilan qurollantirib, sekin qimir-lagan holda, ehtimol yakkahokimlik sari yurdik, garchi, maqsadimiz hamisha ezgu bo'lgan va umumiyl saodatga intilgan bo'lsak-da, ammo amallarimiz o'zining hukmronlikka moyilligi bilan o'zini oqlay olmaydi. Va bugun sizdan bemulohaza jasoratimiz uchun afv etishingizni o'tinib so'raymiz.

Ammo ko'ryapsizmi, aziz vatandoshlar, bizni qanchalar halokat kutib tutibdi, qanchalar xavf oldida turibmiz. Erkinlikka bir ishora bilan harakatga kelmaydigan qullarning dag'allashgan barcha hislari shu tariqa ichki hissiyotlarni mustahkamlaydi va takomillashtiradi. Uning intilishlaridagi oqimga qo'yilgan to'siq qanchalar kuchga ega bo'lsa, shunchalar qattiq qarshilikka uchraydi. Tayanchni bir

marta yorib kirdimi, endi uning oqib chiqishiga hech narsa qarshi turolmaydi. Biz kishanbandi qilib ushlab turgan birodarlarimiz mana shunday kuchga egadirlar. Ular faqat qulay sharoit va vaqtini kutmoqdalar. Qo'ng'iroq bong uradi. Va vahshiylikning halokati juda tez tarqay boshlaydi. Biz chor atrofimizda qilich va mayoqni ko'ramiz. Bizning shafqatsizligimiz va g'ayriinsoniyligimiz uchun bizga o'lim va jahannam o'tida kuyish va'da qilinadi. Biz ularning zanjirlarini uzishda qancha sustkashlik va qaysarlik qilgan bo'lsak, ular ham qasoslarini olishda shuncha shiddatkor bo'ladilar. Yodingizda bo'lган eski voqealarni esga oling. Darg'azab qullarni ozgina yo'ldan chiqarish ularni o'z xo'jayinlarini yo'q qilishgacha olib bordi! *To'pori adashganlarning* (96) vasvasasiga uchib, uning ortidan borishdi va o'z xo'jayinlarining zulmidan ozod bo'lishdan boshqa hech narsani istashmadi; o'zlarining bu johillik holatida xo'jayinlarini o'ldirishdan bo'lak vosita haqida fiklashmadi. Ular na jinsiga qaradilar va na yoshiga. Ular zanjirlarini uzishdan ham ko'ra ko'proq qasos olishdan quvonch izlashdi.

Mana, bizning oldimizda nima turibdi, mana, bizni nima kutyapti. O'lim asta-sekin qayg'uga ko'tarilib boradi, boshimiz uzra endi xatar aylana boshlaydi. Vaqt keldi, chalg'isini ko'targancha, qulay soatni poylayapti, baxtsizlarning ko'z ochishi bilan paydo bo'lган birinchi tilyog'lamachi yoki insoniyatning ishqibozi uning ko'tarilishini tezlashtirib yuboradi. Ogoh bo'ling.

Ammo agar o'lim dahshati va manfaat hayajoni sizlardan zaiflar ringizni harakatga solishga qodir bo'lsa, nahotki biz o'z illatlarimizni yengishga, ochko'zligimizni yo'lga solishga birozgina jasorat topa olmasak va birodarlarimizni qullik zanjiridan ozod etib, ularning biz bilan tabiiy tengligini tiklay olmasak? Sizning holatingizda yuragin-gizga nazar tashlab, manfaatparast mulohazakorligingizning hisob-kitoblaridan ko'ra, inson qalbiga bitilgan isbot bilan ishonch hosil qilish yoqimliroq va xavfi ham kamroq. Boring, azizlarim, birodarlaringizning kulbalariga boring, ularning qismatlari o'zgarganligi to'g'risida xushxabar yetkazing.

Samimi tuyg'ular bilan olib boring xabarni: sizning ishtirokin-gizda nadomatimizni e'tirof etib, bizga o'xshashlarga hamdardlik bildirib, siz bilan bizning tengligimizni tan olgan holda va umu-

miy manfaatdorlikka amin bo'lib, birodarimizni bag'rimizga bosish uchun yoningizga keldik. Siz va bizni faqat birozgina vaqt ajratib turadigan farqni ortda qoldirdik, o'rtamizda mavjud bo'lgan notenglik haqida unutdik, endi birgalikda g'alabamizni, bizning aziz vatan-doshlarimiz qo'llaridan kishanni yechib, parchalangan o'sha kunni nishonlaymiz. Bu kun solnomalarimizda atoqli kun bo'lib qolsin. Bizning sizlarga nisbatan amalga oshirgan avvalgi yovuzliklarimizni unuting, endi bir-birimizga chin yurakdan mehr qo'yaylik.

Sizning nutqningiz mana shunday bo'ladi; bu so'zlar qalblaringizning tub-tubida jaranglay boshladi. Bu ishni orqaga surmang, azi-zim. Vaqt uchib o'tyapti; kunlarimiz ham o'tib ketyapti. Faqat ezgu fikrlarni qabul qilib, ammo ularni amalga oshirib ulgurolmay, hayotimiz yakuniga yetib qolmasin. Bizning avlodlarimiz bundan foy-dalanishmasin, bizning tojimizni siqmasin va biz haqimizda nafrat bilan, «ular shunaqa edi», deya gapirmasini.

...Foytundan tushgach, pochta binosi oldida yerdan turli dog'lar bilan kirlanib ketgan qog'ozni olib, unda men mana shularni o'qidim.

Binoga kirib, mendan sal oldin o'tkinchilardan kim kelganini so'radim.

– Sizdan oldin o'tib ketganlarning oxirgisi, – dedi menga poch-tachi. – Yoshi ellikkarga borgan odam edi. U Peterburgga boradigan yo'l bo'ylab ketyapti. U bizda bir dasta qog'ozlarini unutib qoldirdi, hozir ularni uning ortidan yuboryapman.

Pochtachidan ushbu qog'ozlarni ko'rib chiqish uchun berib turi-shini so'radim, ularni ochib ko'rib, men bino oldidan topgan qog'oz mana shular ichidan tushib qolganini angladim. Men uni ushbu qog'ozlarni menga berishi uchun ko'ndirdim va buning uchun uni mukofot bilan siyladim. Qog'ozlarni yaxshilab ko'rib chiqqach, ularning mening yaqin do'stimga tegishli ekanini bildim, shuning uchun ularni sotib olishni o'g'rilik, deb hisoblamadim. U ushbu qog'ozlarni haligacha so'rab olmadi, aksincha, men ular bilan nima xohlasam, shuni qilishim uchun, ularni mening ixtiyorimga qoldirdi.

Otlarimni egarlab, egar-jabduq urgunlariga qadar qo'limga tushgan qog'ozlarni qiziqish bilan titkilay boshladim. Ularda men yuqorida o'qiganga o'xshash masalalar ko'p marta ko'tarilgan edi.

Men o'qish davomida bitikning hamma joyida insonparvar qalbni his qildim, hamma yerda *kelgusi zamon fuqarosini ko'rdim* (97). Hammadan ham ko'ra ko'proq ko'rini turgan narsa – fuqarolar o'rtasidagi amaldorlik holatining nomutanosibligidan hayrati edi. Bu yerdagi juda ko'p qog'ozlar Rossiyada qullikni bekor qilish bilan bog'liq hujjat va bitiklar taxlamidan iborat edi. Ammo mening do'stim oliv hukumatning bu maqsadlarni tezlik bilan amalgalashish qudratiga ega emasligini va buning uchun vaqt talab qilinishini hisobga olgan holda, Rossiyadagi dehqonlar sinfini bosqichmabosqich qullik zanjiridan ozod qilishning qonun-qoidalarini belgilab bergen edi. Bu yerda uning fikrlari ketma-ketligini ko'rsatib beraman. Birinchi qoida qishloq xo'jaligi quzdorchiligi bilan uy xo'jaligi quzdorchiligini ajratishga tegishli edi. Uy xo'jaligi quzdorligi birinchi navbatda tugatilishi kerak bo'ladi va qishloqlar bo'yicha taftishda ko'rsatilganlar va umuman hamma uyda qututishi taqiqlanadi. Agar pomeshchik o'z uyiga dehqonni xizmat yoki ish uchun yollaydigan bo'lsa, dehqon o'z erkiga ega bo'ladi. Dehqonlarga o'z xo'jayinining ruxsati talab etilmagan holda, uylanish uchun ruxsat beriladi. Ruxsat puli¹ olish taqiqlanadi. Ikkinchi qoida dehqonlar himoya va ularning mulkchiligidagi taalluqlidir. Ular tomonidan ishlov beriladigan yerga ularning mulkchilik huquqi bo'lishi kerak, chunki ular jon boshiga soliq to'laydilar. Dehqon sotib olgan mulk faqat uning o'ziga tegishli bo'lishi lozim, hech kim o'zboshimchalik bilan bu mulkka dahl qilish huquqiga ega bo'lmaydi. Keyingi bosqich dehqonning fuqarolik rutbasini tiklashdan iborat. U barcha fuqarolar singari huquqlarda teng bo'ladi, jumladan, rasprava² sudida pomeshchik dehqonlarining ham ishtiroki ta'minlanadi. Dehqonga ko'chmas mulkka ega bo'lish, ya'ni yer sotib olish huquqini berish lozim. Xo'jayiniga ta'til uchun belgilangan summani to'lab, taqiqlanmagan erkinlikni sotib olishga ruxsat berish. Sud hukmisiz, o'zboshimchalik bilan jazolashni manqilish.

¹ *Ruxsat puli* – agar kelin oilasi boshqa pomeshchik qo'lida ishlasa, u holda kuyov o'sha pomeshchikka kelin uchun ruxsat puli to'lagan (*tarj.*).

² *Rasprava* – faqat davlat dehqonlari ishirok etishi mumkin bo'lgan sud (*tarj.*).

– Yo‘qolsin yovvoyi udumlar, arslonlar hukmronligi barbod bo‘lsin! – deya xitob qiladi qonunchimiz... Shundan so‘ng qullikni butkul yo‘q qilishga navbat keladi.

Fuqarolarning tenglik imkoniyatlarini tiklashga oid bir qancha hujjatlar orasidan *unvonlar ro‘yxatini (jadvalini) topdim* (98). U bugungi davrga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan va nomutanosib edi, uni hamma o‘zi tasavvur qilishi mumkin. Ammo endi ot yoyidagi qo‘ng‘iroq jiringlay boshladi va meni jo‘nab ketishga chorlamoqda; va men hozir yaxshisi pochta aravasida yo‘lga chiqqanda nima foydaliroq ekani to‘g‘risida mulohaza yuritish yaxshiroq, degan xulosaga keldim, ya’ni otlar yo‘rtib chopgani ma’qulmi yoki yo‘rg‘alab yurganimi, yoxud pochta qirchang‘isi uchun nima foydaliroq: yo‘rg‘a ot bo‘lganimi yoki uning uchun hech qachon mavjud bo‘lmaydigan mashg‘ulot – poygachi bo‘lganimi?

Vishniy Volochok

Men bu yerdagi to‘g‘on darvozalarini ko‘rmaslik uchun bu yangi shahardan o‘tmaganman. Birinchi bo‘lib xayolimga kelgan narsa bu hududning to‘rtta tarafidan tezroq va ishonchliroq xabarlar kelib turishi uchun tabiatni moslashtirgan holda, sun‘iy daryo yaratish kerak ekan, bu kelgusi avlodga yodgorlik sifatida qoldirishga arzigulik bo‘lgan bo‘lardi. Bugungi kun hukumati tabiiy va ma’naviy sabab-larga ko‘ra parchalanib ketadi, bug‘doy ekilgan dalalar tikanzorga aylanadi va takabbur hukmdorlarning hashamatli qasrlari xarobalarda suvilonlar, ilonlar, qurbaqalar yashirinishadi, qiziquvchi sayo-hatchi bu xarabalardan ulug‘vorlikning gapiruvchi qoldiqlarini topadi. Rimliklar katta yo‘llar qurishdi, mustahkamligiga bugungi kunda ham hayratda qoladigan darajadagi SUV quvurlari o‘tkazishdi, ammo ular hozir Yevropada mavjud bo‘lgan SUV yo‘llari haqida tushunchaga ega emas edilar.

Rimliklarda bo‘lgani kabi yo‘llar bizda hech qachon bo‘lmaydi. Bizning uzoq davom etadigan qishlarimiz va kuchli sovuqlarimiz bunday yo‘llar qurishga xalaqit qiladi, kanallar esa qoplamasiz ham hali-beri tekislanmaydi.

Vishnevolutsk kanali manzarasi ko‘zimni juda quvontirdi: u non va boshqa mahsulotlar ortilgan va Peterburgga qadar keyingi suzishini davom ettirish uchun to‘g‘on darvozasi orqali suzib o‘tishga tayyorlanib turgan yelkanli katta dengiz kemalari bilan to‘la edi. Bu yerda tabiiy yerning mo‘l-ko‘l ne’matlarini va dehqonning mo‘l-ko‘l hosilini ko‘rish mumkin edi; bu yerda o‘zining butun maftunkorligi bilan insoniyat faoliyatini rag‘batlaniruvchi qudratli kuch – ochko‘zlik ro‘yirost namoyon bo‘lib turardi. Birinchi ko‘rishda bu mo‘l-ko‘llikni ko‘rish farovonlik belgisi sifatida tafakkurimni quvontirgan bo‘lsa, fikrlarimning bo‘linishi tez orada quvonchimni barbos qildi. Chunki bir narsani esladim: Rossiyada juda ko‘p dehqonlar o‘zlarini uchun ishlamaydilar; demak, yer ne’matlarining bu mo‘l-ko‘lligi Rossiyaning juda ko‘p o‘lkalarida qaysidir darajada uning aholisining og‘ir qismatidan darak beradi. Mening zavqim teng darajadagi g‘azab hissi bilan almashindi, negaki men yoz vaqtlarida bojxona pristanlarida yurib, u yerda Amerikaning mo‘l-ko‘l hosillari, uning qimmatbaho mahsulotlarini olib kelgan ulkan kemalarni ko‘rib, qanday hissiyotlarni kechirganimni esladim: shakar, qahva, bo‘yoqlar va boshqa bu mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida ularni yuvgan ko‘z yoshlari, qon va terdan hali qurimagandi.

– Tasavvur qil, – degandi bir paytlar menga do‘stim, – sening finjoningga quyilgan mana shu qahva va unga solingan mana shu shakar senga o‘xshagan odamning juda katta kuch sarflagan og‘ir mehnatining hosili, uning ko‘z yoshlari, nolalari, kaltaklanishlari va xo‘rlanishlarining sababkori bo‘lib, uni oromdan mahrum etgan; shafqatsizlik va qo‘pollik sening tomog‘ingga shirin ta’m kirityapti.

Uning so‘zlarida aks etgan tanbeh mening ich-ichimgacha zirilatib yubordi. Qo‘lim titray boshladi va qahva to‘kilib ketdi.

Siz-chi, ey Peterburg aholisi, siz yurtingizning turli o‘lkalarida yetishtirilgan mo‘l-ko‘l ne’matlardan hashamatli tantanalarda, do‘stlarining bilan bo‘lgan ziyoatlarda yoki yolg‘iz totayotganingizda, sizning nafsingizni qondirishga mo‘ljallangan birinchi non bo‘lagiga qo‘l uzatganingizda to‘xtang va fikr qiling. Men ham sizga do‘stimning Amerikaning mahsulotlari to‘g‘risida aytgan fikrlarini aytishim mumkin emasmi? So‘ngra dalalar, garchi, shundan oziqlansa-da, u yana ko‘z yoshlari va nolalar bilan ozuqalanib, semir-

maydimi? Agar siz ishtaha bilan og‘zingizga solmoqchi bo‘lib turgan mana shu non bo‘lagi, davlatga tegishli bo‘lgan dalalarda yetish-tirilgan boshqodan yanchib tayyorlangan yoki, hech bo‘lma ganda pomeshchikka obrok to‘lab ishlayotgan dehqonning dalalaridan ungan bo‘lsa, unda saodatlisiz. Lekin uning xamiri dvoryan omborida o‘tgan bug‘doy unidan qorilgan bo‘lsa, unda fig‘on cheking! Uning qatiga qayg‘u va umidsizlik ko‘milgan; unga Oliy Hukmdorning hamisha g‘azabga kelgan vaqtidagi la’natlagani qorishgan: o‘z ishlari bilan yer la’natlangan. Ogoh bo‘ling, ishtaha bilan kutgan ovqa-tingizdan zaharlanib qolmang. Unda faqirning achchiq ko‘z yosh-lari o‘z zalvari bilan singgan. Uni og‘zingizga sola ko‘rmang; uni yeishdan tiyiling, bu eng to‘g‘ri va eng foydali ro‘za bo‘lardi.

Ayrim yer egalari to‘g‘risidagi hikoyalar shundan dalolat beradi-ki, inson o‘z manfaati yo‘lida o‘ziga o‘xshaganlarga nisbatan insoniylikni unutadi. Bunday shafqatsizlikka misol keltirish uchun uzoq o‘lkalarga borishimizga hojat qolmaydi, dunyoning chetidagi yer-lardan mo‘jiza izlash ham shart emas; bizning podsholikda bunday ishlar ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lmoqda.

Kimdir o‘z xizmatidan, jaydari til bilan aytganda, baxt topolmay yoki bu xizmatida uni qo‘lga kiritishni istamay, shaharni tark etadi, o‘ziga uncha katta bo‘laman, masalan, yuz yoki ikki yuz jonli qishloq sotib oladi, qishloq xo‘jaligidan o‘ziga foyda topishni mo‘ljallaydi. Albatta, omoch bilan ishslashda o‘zini ko‘zlamaydi, u o‘z qo‘li ostidagi dehqonlarning tabiiy kuchlaridan eng yuqori imkonlar asosida har tomonlama foydalanishni, bu kuchlarni yerga ishlov berishga eng munosib usulda tatbiq etishni nazarda tutadi. U na erkinlik va na rag‘batga ega bo‘lgan dehqonlarga ish quroli sifatida qarab, buni eng ishonchli usul deb hisoblagan. U haqiqatan ham dehqonlarni ayrim munosabatlarda bugungi kunning to‘dasi bilan boshqariluvchi, to‘dasi bilan jangga yo‘llanuvchi, alohida olganda esa hech qanday ahamiyat kasb etmaydigan askarlariga o‘xshatgan. O‘z maqsadlariga erishish uchun u dehqonlardan, odatda, dvoryanlar tomonidan ularga o‘zini boqish uchun va ulardan talab qilinadigan barcha majburiy mehnat evaziga mukofot tarzida beriladigan ozgina ekin maydoni va pichanzorini olib qo‘yan. Qisqasi, bu zodagon barcha dehqonlarni xotinlari, bolalari bilan birgalikda faqat uning o‘zi uchun ishslashga

majbur qilgan. Ular ochdan o'lmashliklari uchun belgilangan miqdorda ularga oylik non berib turgan. Oilasi bo'lmanalar esa oylik oziq olmaganlar, oddiy qarollar bilan birga xo'jayin saroyida oshqozonlarini asrab turish uchun go'shtsiz yovg'on sho'rva ichardilar, ro'za kunlarida kvas bilan non yerdilar. Ro'zadan keyingi haqiqiy og'iz ochish esa faqat *muqaddas haftada* (99) bo'lardi.

Bunday askarlar uchun ularning holatiga qulay va mos ravishda kiyim ham ishlab chiqarilgan. Qish uchun poyabzalni, ya'ni chipta poyabzalni ularning o'zlari tayyorlashgan; paytavani o'z xo'jayinlaridan olardilar; yozda esa oyoqyalang yurishgan. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, bu tutqunlarda na sigir, na ot, na qo'y va na cho'chqalari bor edi. Xo'jayinlari ulardan uyda hayvon boqish ruxsatini emas, balki ularni boqish imkoniyatlarini olib qo'ydi. Kim o'rtamiyona yashayotgan bo'lsa, kim ovqat topishning imkoniyatini qilolsa, o'zi uchun bir nechta tovuq boqardi, ammo undan ham xo'jayinlari o'zi belgilagan narxda sotib olib turardi.

Bunday muassasada janob kimdirning yer xo'jaligida ish gullabyashnagan holatda bo'lganligiga ajablanmasa ham bo'ladi. Hammaning hosili kam bo'lgan bir paytda uning dalalari birga to'rt hosil berardi; boshqalarning hosili yaxshi bo'lganda esa uning bug'doyi birga o'n va undan ham ko'pga oshardi. Qisqa vaqt ichida u o'z ochko'zligini qondirish maqsadida ikki yuz jonga qo'shimcha ravishda yana ikki yuz nafar qurban sotib oldi; ularga ham avvalgilarga bo'lgani kabi munosabatda bo'lib, dalalarida afg'on chekayotganlar ahvolini og'irlashtirish evaziga yildan yilga o'z mulkini oshira bordi. Hozir esa u qo'l ostidagilar sonini mingga yetkazgan va taniqli yer egasi sifatida sharaflanadi.

Yovvoyi varvar! Sen fuqaro nomini ko'tarib yurishga nomuno-sibsan. Bir necha mingga to'rt hissa don unsa-yu, agarda sen shu donni ishlab chiqaruvchilarni jo'yaklarni belgilangan og'irlik bilan tortayotgan ho'kizlar bilan teng darajada ko'rsang, bundan davlatga nima foyda? Yoki biz fuqarolar baxtini omborxonalarimiz nonga to'la-yu, lekin ularning oshqozonlari bo'shligi bilan hisoblaymizmi? Hukumatni ming emas, bir odam alqasa bo'ldimi? Bu qonxo'mning boyligi uning o'ziga tegishli emas. U boyligini qaroqchilik evazi-ga to'plagan va qonun bo'yicha qat'iy jazoga loyiqidir. Odamlar bu

jallodning bo‘liq yerlariga qarab qishloq xo‘jaligi sohasini takomil-lashtirishning namunachisi sifatida ko‘rsatadilar. Va siz o‘zingizni yumshoq ko‘ngilli deb atalishingizni istaysiz va siz umumiy manfaat uchun vasiylar nomini olib yurasiz. Siz davlat boyligining manba-si deb hisoblaydigan bunday zo‘ravonlikni rag‘batlantirish o‘rniga, ijtimoiy yovuz bo‘lgan bu odamdan insonparvarlik qasosini oling. Uning qishloq xo‘jaligi qurollarini yo‘q qiling, bostirma¹, ovin² va omborxonalariga o‘t qo‘ying, kulini esa dalalarga soching, zero, mana shu dalalarda uning qiynoqlari amalga oshirilgan. Uni jamiyat qaroqchisi sifatida tanishtiring, toki uni ko‘rgan barcha nafaqat undan jirkansin, balki uning o‘rnagi bilan zaharlanmaslik uchun uning yaqiniga yo‘lashdan o‘zini olib qochsin.

Vidropusk

Bu yerda men yana do‘stimming qog‘ozlarini o‘qishga tutindim. Qo‘limga saroy amaldorlarini tugatish to‘g‘risidagi qoidalarning lo-yihalar bitilgan qog‘oz tushdi.

Kelajak loyihasi

Jamiyatdagi buzilgan tabiyi va fuqarolik tengliklarini yana as-ta-sekin joriy eta borib, ota-bobolarimiz (100) dvoryanlikning hu-quqlarini kamaytirishni oxirgi vosita sifatida ko‘rishmagan. Boshida dvoryanlik o‘zining shaxsiy xizmatlari bilan davlat uchun foydali bo‘lgandir, biroq u o‘z jasoratlarida butun nasli bilan zaiflasha bordi, ekkan vaqtidagi shirin niholning ildizi nihoyat o‘zining achchiq mevasini bera boshladi. Jasorat o‘rnini takabburlik va manmanlik egalladi, qalb olijanobligi va saxovat o‘rnida xushomadgo‘ylik va o‘ziga ishonchsizlik, ulug‘vorlik o‘rnida haqiqiy ziqlanalik ildiz otdi. Shu qadar tor qalblilar orasida yashab va xushomadgo‘ylik bilan o‘z unvoni va xizmatiga oid arzimagan faoliyat olib borgan juda ko‘p hukmdorlar o‘zlarini Xudo deb fahmlaydilar, qo‘l uzatsalar bo‘ldi, go‘yo hamma narsa xushbaxtlik va yorug‘lik bilan amalga

¹ *Bostirma* – o‘rilgan g‘allani quritish va yanchishga moslangan bino (*tarj.*).

² *Ovin* – g‘allani yanchishdan oldin quritishga qo‘yiladigan bino (*tarj.*).

oshadi. Bizning amallarimizda ham mana shunday bo‘lishi lozim, faqat u jamiyat foydasiga sodir bo‘lishi kerak. Hokimiyat sharafining mana shunday mudroqlarida podsholar o‘z qullari va xizmatkorlari soatlab ularning nigohlari qarshisida turib, ularning yorqin jilosini o‘zlashtirishini orzu qilardilar; ya’ni shohning nigohlaridan oqib, ularda aks etgan yangi shu’la yangicha ma’no kasb etsin, ular ko‘payib, bu aks etgan nurlar yanada yorqinroq tovlansin. Fikrning bunday chalg‘ishi oqibatida *shohlar saroy sanamlarini barpo etdilar, bu sanamlar haqiqiy sahnnaviy xudochalar bo‘lib, hushtak yoki shaqildaqqa bo‘ysunardilar* (101). Endi esa saroy amaldorlari ga o‘tamiz va nadomat tabassumi ila nigohimizni o‘z xizmati bilan g‘ururlanadigan bu amaldorlardan o‘giramiz, biroq ularning yaxshi deb bilgan xizmatlarini ko‘rib faryod chekamiz. Bosh xizmatkorim, bosh otboqarim, hatto otboqar va aravakash, oshpaz, sharbatdor, bir necha o‘ziga bo‘ysunuvchi ovchilar bilan birga qushtutarim, biri soch-soqolimni oladigan, biri boshimdagi to‘rtta sochni taraydigan, biri poyabzalimning chang va kirlarini tozalaydigan va yana men bu yerda eslab o‘tmagan ko‘p vazifalarni ado etadigan oqsoch xizmatkorlarim o‘zlarining ruhiy va jismoniy kuchlari bilan, garchi vatan uchun na sog‘liqlarini, na qonlarini ayamasalar-da, vatan sharafi uchun hatto o‘limni ham afzal ko‘rmasalar-da, vatan xizmatchilariga tenglashtiriladilar yoki hukmdor bilan bir stolda unga yaqin o‘tirish sharafiga muyassar bo‘ladilar. Mening uyimda tozalik va saranjom-sarishtalik hukm surganidan nima naf? Siz tomoningizdan tayyorlangan eng zo‘r taomlar bilan ovqatlangan va butun tomirlarim bo‘ylab sharob oqayotgan bir paytda siz to‘yib ovqatlanyapsizmi? Men o‘tiradigan foytunga oltin suvi yuritilgan va semiz otlarda yurgan vaqtimda, sizning odimlaringiz tabiatning noxush ob-havosidan to‘silganmi? Men ko‘ngilxushlik uchun uyuşhtirgan ov mahalimda mening hayvonlarim toptab o‘tgan dalalaringiz yaxshi hosil berishi, o‘tloqlaringiz yam-yashil bo‘lib yashnashi mumkinmi? Siz esa achinish hissi bilan ma’yus jilmayib turasiz. Biroq ko‘p marta vaadolatli g‘azab bilan bizga aytadilar: sening qasringni tutib turish uchun jon kuydiradigan odam, uni isitadigan, sening qotib qolgan diding va bo‘shashgan oshqozoning nafsini qondirish uchun kunduzgi o‘simliklarning otashin xushta’mligini shimol yog‘larining sovuq

quyushqoqligi bilan qovushtiradigan; sening idishlaringda Afrika uzumining mazali sharbatini ko'pirtiradigan; sening foytuning atrofini moylaydigan, otingni yedirib, ichiradigan; sening noming bilan emanzor o'rmon hayvonlari va ko'kdagi qushlar bilan qonli jang olib boradigan, – mana shu tekinxo'rlar, erkatoylar va shu kabi juda ko'p boshqalar sening takabburliging birla mening ustimda yuksalishadi; shuningdek, jang maydonlarida to'kilib, daryoday oqqan qonlar ustida, sening shaharlaring va saroyingni qo'riqlash chog'ida (bunda ulug'verliging pardasi ostida yashiringan qo'rkoqliging jasorat bo'lib tuyulgandi), tanamning men yo'qotgan muhim a'zosi ustida yuksalishadi; soliqning umumi yuki imkon darajasida kamaytirilgani tu-fayli arzimas chorak tiyin jamg'arganlari quvонchini, yoshlik shodumonliklari kunlarini nishonlayotganlar ustida; o'z mulklari uchun jon kuydirmasdan turib, jamiyat saodatiga olib boradigan vositalarni qo'lga kiritish uchun kun-u tun tinim bilmay mehnat qiladiganlar ustida yuksalishadi; sen sevikli bo'lishing uchun sening nomingdan sudda qarindoshlik, do'stlik rishtalarini uzib, qalb va qon ittifoqini buzib bo'lsa-da, haqiqatni aytadiganlar ustida yuksalishadi. Jasoratlarimiz davomida sochlarimiz oqaradi, biz zo'r berib qilgan mehnatlarimiz tinkamizni quritadi, tobut yoqasiga borib qolgandagina arang sening muruvvattinga loyiq topilamiz; muloyimlik va illat ko'kragi bilan semirtirib boqilgan bu buzoqchalar, vatanning bu noqonuniy o'g'illari bizning manfaatparastligimizni meros qilib oladilar.

Ko'pchilik bu va bunga o'xhash gaplarni sizga nisbatanadolat bilan aytadi. Biz, o'ylay-o'ylay, javoban nima deymiz? Xo'rslashlarimizni hissizlik bilan pana qilamiz, shunday deydiganlarga nisbatan ko'zlarimizda g'azab o'tini yoqamiz. Ko'pincha haqiqatni aytadiganlarga javobimiz shu tarzda izhor qilinadi. Agar oramizdag eng yaxshimiz quyidagiday bo'lsa, hech kim ajablanmasin: u xushomadgo'ylar bilan yashaydi, xushomadgo'ylar bilan suhabat quradi, xushomad bilan uxlaydi, xushomad bilan qadam tashlaydi.

Xushomad va tilyog'lamaliklar uni ko'r, kar va sezmas qilib qo'yadi. Biroq bunday ta'nalar bizning boshimizga yog'ilmasin. Bolaligimizdanoq biz erkalashni yomon ko'rghanmiz, biz o'z yuragimizni og'uli bu shirinlikdan avaylab kelganmiz, hatto hozirgi kunda ham asraymiz; bugun sizga bo'lgan muhabbatimiz va sadoqatimiz-

dagi yangi tajriba yaqqol namoyon bo‘ladi. Biz bugun podsho saroyidagi xizmatni harbiy va fuqarolik xizmatiga tenglashtirilishini yo‘q qilamiz. Bir necha yil amal qilgan va bizga isnod keltiradigan bu odat xotiralardan butkul olib tashlanadi. Umum-manfaat uchun jonbozlik bilan amalga oshirilgan haqiqiy xizmat va qadr-qimmat o‘z mehnatlari uchun mukofotini oladi va birligi bilan ajrab turadi.

Yuragimizni uzoq vaqtlar davomida bizni ezib kelgan, chidab bo‘lmas darajadagi og‘ir qayg‘udan xalos qilib, biz sizga amaldor-larning xizmati va qadr-qimmati uchun tahqiromuz bo‘lgan amallarni yo‘q qilishga qaratilgan maqsadimizni namoyon qilamiz. – Sizga aytishadiki, ajdodlarimiz ham shu fikrda bo‘lishgan, ya’ni qudrati fuqaro fikriga asoslanadigan podsho taxti tashqi hashamati bilan farqlanib turishi lozim, shunda uning ulug‘vorligi to‘g‘risidagi fikr yaxlit va dahlsiz bo‘ladi. Xalq hukmdorlarining dabdabali tashqi ko‘rinishi shundan, ularni o‘rab olgan qullar podasining mavjudligi ham shundan. Hamma ushbu fikr bilan kelishishi lozim, ya’ni tor aql va kichik qalb tashqi ko‘rinishni ham buzishi mumkin. Ya’ni xalq qancha ma‘rifatli bo‘lsa, boshqacha aytganda, xalq orasida ma‘rifatli shaxslar qancha ko‘p bo‘lsa, tashqi ko‘rinish shuncha kam ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. Numa¹ qo‘pol rimliklarni Yegeriya ilohasi uni qonun-qoidalarni joriy etishga majburlaganiga ishontira olgan. Sodda peruliklar Manko Kapakning² u quyoshning o‘g‘li ekanligi va qonunlar unga osmondan tushayotganligi haqida aytgan gaplariga mutlaqo ishonishgan. Muso alayhissalom ham vahiy bitilgan tosh taxtalarni to‘lqinlarning jilokor mayji o‘rtasidagi tog‘da qabul qilgan³. Ammo hozir kim maftunkor bo‘lishni istasa, tashqi ko‘rinishi yaltiroq bo‘lishi shart emas, balki fikrlar ko‘rinishi bilan, agar shunday aytish lozim bo‘lsa, ishontira olish ko‘rinishi bilan yarqirab turishi kerak. Bugun kim nomasini yuqorida tasdiqlatadigan bo‘lsa,

¹ *Numa Pompiliy* – afsonaviy Rim hukmdori, unga iloha Yegeriya yordam bergen va ma‘budlar irodasini yetkazib turgan (*tarj.*).

² *Manko Kapak* – Peru davlatining afsonaviy asoschisi (*tarj.*).

³ Muso yahudiylar hukmdori, Injil afsonalariga ko‘ra Sinay tog‘i ustida Xudoning ko‘rsatmalari bitilgan toshtaxta olgan (*tarj.*).

tashqi ko'rinishini o'z manfaati uchun qo'llaydi va shu bilan hamma harakatga keladi. Biz esa o'z kuchlarimizni hamma va har bir inson manfaati uchun qaratar ekanmiz, tashqi qiyofamizning jilvakorligi bizga nima uchun kerak? Bizning qarorlarimiz bugungi davlat farovonligi uchun foydaliligi bilan yuzlarimizni munavvar etmaydimi? Bizga boqqan har bir odam yuzimizda ezgu fikrlarimizni ko'radi, bizning harakatlarimizda o'zining manfaatini ko'radi va buning uchun dahshat ichra qaltirab emas, balki o'tirgancha, mamnuniyat bilan bizga ta'zim bajo keltiradi. Agar qadimgi forslar olajanoblik bilan boshqarilganlarida edi, u holda Ahriman bo'lishni yoki yovuzlikning nafratomuz ibtidosini orzu qilmagan bo'lishardi. Modomiki, dabbabali tashqi ko'rinish bizga foydasiz ekan, davlat boshqaruvida uni saqlovchilar shu darajada zararlidirlar. Yolg'iz vazifasiga oid xizmatlari bilan bizga yoqishi mumkin bo'lib, har sohada qancha ko'p izlanishlar olib borishsa, bizga shuncha ma'qul kelishlari mumkin. Istaklarimiz haqida ogohlantiriladi; biroq bizda nafaqat istaklar yangilanishiga, balki uning qondirilishiga tayyor turgan fikrlarimizga ham yo'l qo'yilmaydi. Bunday ko'ngilga yo'l topishlarning amaliga dahshat bilan nazar soling. Qotib qolgan qalb o'z qoidalariga ko'ra chayqaladi, xushtakalluf navozishlarga quloq tutadi va uxbab qoladi. Xushvaqt qiluvchi qadahlar aql va yurakni mavh etadi. Begonalar qayg'u va alami bizga o'tkinchi dard kabi arang ko'zga tashlanadi; ular haqida qayg'urish sharaflı, noloyiq yoki umuman yoqimsiz va hatto ular to'g'risida shikoyat qilishni ham taqiqlab qo'yamiz. Eng achinarli qayg'u va jarohatlar, hatto o'limning o'zi ham bizga voqelikning zaruriy harakati bo'lib tuyuladi, bizga noshaffof parda ortida namoyon bo'lib, teatr sahnalari bizga namoyish etgan kabi, bizdagi lahzalik harakatlarni yaratishga qodir emas. Chunki kasallik o'qi va yovuzlik nishi bizga sanchilgan holda titramaydi.

Bu bashang shohlar harakatining halokatli oqibati tasvirlangan zaif manzaradir. Agar biz ezgu maqsadlarimizni g'azab va nafradan yashira olsak, saodatli bo'lmaymizmi? Agar yuqumli namunaga chegara qo'ya bilsak saodatli bo'lmasmidik? Oliyhimmat qalbimiz mustahkam, axloqsizlik va razolatda ishonchli emasmiz, ammo biz o'z istaklarimiz mo'tadilligini saqlashda ishonchlimiz, biz yana ezgu ishlarni amalga oshiramiz va kelgusi avlodlarga davlat va ozodlikni

o‘zaro manfaat asosida qanday uyg‘unlashtirish lozimligi bo‘yicha o‘rnak bo‘lib qolamiz.

Torjok

Bu yerda, pochta hovlisida jahon kezish uchun iltimosnomalar bilan Peterburgga yo‘l olgan odam bilan uchrashdim. Bu iltimosnomalar ushbu shaharda erkin kitob chop ettirish uchun ruxsatnomani qo‘lga kiritishdan iborat edi. Men unga, buning uchun ruxsatnomalar olish shart emasligini, chunki bu borada hammaga erkinlik berilganini tushuntirdim. Ammo u erkinlik uchun hujjat olishni istadi, uning mulohazasi shunday edi.

Bizda o‘z bosmaxonasiga ega bo‘lish huquqi hammaga berilgan, xususiy shaxslarga bunday ruxsat berishga qo‘rqadigan vaqtlar o‘tib ketgan; erkin faoliyat yuritadigan bosmaxonalarda soxta ma’lumotlar chop etilishiga yo‘l qo‘yishning oldini olish uchun umumiylashtirishga qo‘yildi. Endi bosmaxona ning barcha uskunalariga ega bo‘lish mumkin, ammo chop etishga vasiylik ostidagina amalga oshirishga ruxsat beriladi. Senzura idrok, o‘tkir aql, mulohaza va barcha nafis, buyuk narsalarining enagasi qilib qo‘yildi.

Ammo qayerda enaga bor ekan, u yerda uning ko‘magiga muhtoj va bu ko‘maksiz tez-tez oyog‘i toyib ketishi mumkin bo‘lgan bolalar ham bo‘lishadi; qayerda vasiy bor ekan, demak, u yerda voyaga yetmagan, ongi taraqqiy etmagan va o‘z-o‘zini boshqarish uquviga ega bo‘lmagan bolalar ham bo‘ladi. Agar hamisha enagalar va vasiylar bo‘ladigan bo‘lsa, unda bola uzoq vaqt ko‘mak bilan yuradi va voyaga yetganda no‘noq bo‘lib qoladi. O‘sma hamisha amakisisiz uxlay olmaydigan, vasiysiz o‘z mulkini boshqara olmaydigan Mitanushka bo‘ladi. Odatiy senzuraning oqibati hamma joyda shunday tugaydi va u qancha talabchan bo‘lsa, oqibat shuncha halokatli yuz tutadi. Keling, *Gerderni eshitib ko‘ramiz* (102).

«Ezgulikni rag‘batlantirishning eng yaxshi usuli, bu to‘sqinlik qilmaslik, ruxsat berish, fikrlashdagi erkinlikdir. Ilm hukmronligida qidiruv zararlidir: u havoni quyuqlashtiradi va nafas olishni qiyinlashtiradi. Dunyo yuzini ko‘rgunga qadar o‘nta senzuradan o‘tgan kitob kitob emas, muqaddas inkvizitsiyaning yaralmasidir; munta-

zam lat yeydigan, gavron bilan kaltaklanib, og‘ziga latta tiqilgan tut-qun doimo qul bo‘lib qoladi... Haqiqat doirasida, fikr va ruh hukmronligida hech qanday yerdagi hukumat ruxsat bera olmaydi va berishi ham mumkin emas; mazkur hukumat, kamiga *uning senzurasi*, *“kulohdami”*¹ yoki *qilich solish uchun tasmaband taqqanmi*, baribir, bu ishni qilolmaydi. Haqiqat hukmronligida u hakam emas, ammo xuddi ijodkor kabi javobgardir. Tuzatish faqat ma’rifat orqali amalgalashirilishi mumkin; boshsiz va miyasiz qo‘l ham qimirlamaydi, oyoq ham... Davlat o‘z qoidalarida qanchalik asosga ega bo‘lsa, u o‘zi uchun shunchalik tik, munavvar va qat’iyatlidir, shunday bo‘lsa-da, u har bir fikrning yengil epkinidan, g‘azablangan yozuvchining har bir masxarasidan titroqqa tushib, qaltirashi mumkin; buning ustiga davlat fikr erkinligi va yozish erkinligi uchun marhamat ko‘rsatadi, bu ishning yakunida esa foyda bo‘lishi tayin. Halok qiluvchilar shuhbali bo‘lishadi; hadiksirab turadigan sirli yovuzlar. Ochiq inson haqiqatni amalgalashirib va o‘z qoidalarida mustahkam turarkan, o‘zi haqidagi har qanday gap-so‘zlarga yo‘l ochib beradi. Kunduzlari u erkin yuradi va o‘z manfaati uchun o‘z g‘animlarining uydirmalarini quradi. *Fikrni ijaraga olish zararli* (104). Davlat hukmdori fikrlarda xolis bo‘lsin, shunda u hammaning fikrini qamrab ola biladi va o‘z davlatida ularga ruxsat beradi, umummuhokamaga qo‘yadi va umumxulosaga bo‘ysunadi. Mana shunday haqiqiy buyuk hukmdorlar juda ham kam»².

Hukumat kitob chop etishning foydali ekanini anglab, bu ishni amalgalashiraman degan odam borki, hammasiga ruxsat berdi; ammo undan ham ko‘proq angladiki, fikrni taqiqlash kitob chop etish erkinligini berishdagi ezgu maqsadni befoydaga chiqaradi, shu bois u senzura yoki chop etilganlarni ko‘rib chiqish vakolatini xavfsizlik va tartibni saqlashga qaratilgan qonun boshqaruviga berdi. Bu munosabatdan kelib chiqadigan maqsad faqat bitta bo‘lishi mumkin edi, ya’ni zararli asarlar sotuvini taqiqlash lozim edi. Biroq bu senzura ortiqchalik qiladi. *Cherkov boshqaruvining birorta kalta fikrli noziri* (105) foydali ixtiro, yangi fikrni taqiqlash va hamma buyuk

¹ *Kuloh* – monaxlar bosh kiyimi (*tarj.*).

² Nemis faylasufi va shoiri logann Gotfrid Gerderning «Hukumatning ilmga va ilmnинг hukumatga ta’siri to‘g‘risida» asaridan. (1778-y.) (*tarj.*)

ishdan mahrum qilish orqali ma'rifatga juda katta darajada zarar keltirishi va tafakkurning bir qancha yillarga orqaga surilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Kichik misol keltiramiz. Qonun boshqaruvi idorasiga bir roman tarjimasini tasdiqlash uchun bitta kitob olib kelindi. Tarjimon, muallifning so'zlarini tarjima qila turib, muhabbat haqida yozadi va uni muallif so'zidan kelib chiqib, hiylakor xudo, deb ataydi. E'tiqodi yuksak darajadagi mundirli senzurachi mazkur ifodani o'chirib, shunday deydi: «Xudoni hiylakor deb atash odobdan emas». Kim nima deb tushuntirmasin, uning qaroriga ta'sir ko'rsatolmaydi. Agar musaffo havoni istasang dudxonangni olib tashla; agar yorug'lik istasang, darpardani ol; agar bolalarning tortinchoq bo'lishini istamasang, mактабдан tolxivichni haydab chiqar. Qamchi va gavron urfda bo'lган xонадонда xizmatkorlar araqxo'r, o'g'ri va undan ham batтар bo'ладилар¹.

Kimning aqliga nima kelsa, mayli, chop etaverishsin. Kim shaharda o'zini ranjigan qiyofada ko'rsatsa, uni shakl bo'yicha sudga berishgan. Men buni hazil uchun aytayotganim yo'q. So'z hamisha amalning mohiyati emas, fikr ham jinoyat emas. Bular yangi nizom haqidagi buyruq qoidalari. Ammo so'zdagi haqarat nashrda ham hamisha haqarat hisoblanadi. Qonun bo'yicha hech kimni haqarat qilish ko'rsatilmagan, hammaning shikoyat qilish erkinligi bor. Ammo kimdir kim haqidadir haqiqatni aytsa, uni haqarat deb hisoblash kerakmi, bu qonunda ko'rsatilmagan. Kitob *politsiyachining tamg'asisiz* (106) nashr etilsa, uning qanday zarari bo'lishi mumkin? Nafaqat zarari yo'q bo'lishi mumkin, balki foydasi ham bor; birinchidan oxirgigacha, yoshdan keksagacha, shohdan oxirgi fuqaroga-cha foydasi bor.

Senzuraning oddiy qoidalari: chizish, bo'yash, ruxsat bermaslik, yirtish, tabiiy dinga qarshi va oshkora yozilgan hammasini, boshqa-

¹ Xudo eslatib o'tilgan bu kabi maqolani chop etishga senzurachi ruxsat bermadi, «men u bilan hech qanday ishim yo'q», dedi u. Agar biror asarda u yoki bu davlatning axloqiy buzuqliklari haqida yozilgan bo'lsa, «Rossiya ular bilan do'stlik Traktatiga ega», deyildi. Agar biror joyda graf yoki knyaz haqida e'tirof etilgan bo'lsa, uni ham chop etishga ruxsat berishmadi va shunday deyishdi: «Ular shaxslardir, chunki bizning mamlakatimizda knyazlar va graflar e'tiborli asilzodalar hisoblanishadi». (*muallif*)

ruvga qarshi, har qanday shaxs, axloq qoidalari, tizim va umuman osudalikka qarshi hamma narsani, hamma bitikni yoqish. Buni batatsil ko'rib chiqamiz. Agar aqldan ozgan odam nafaqat yuragida, balki tilida ham baland ovoz bilan «Xudo mavjud emas», deb hay-qirsa, barcha telbalar og'zida baland va tezkor ovozda bu so'zlar aks sado bersa: «Xudo mavjud emas, Xudo mavjud emas»; xo'sh, bundan nima kelib chiqadi? Aks sado – bu ovoz, havoga uriladi, uni chayqaltiradi va yo'q bo'lib singib ketadi. Aqlda kamdan kam hollarda biror belgi qoldiradi, ammo yurakda hech qachon hech narsa qoldirmaydi. His etamizmi, yo'qmi yoki unga ishonamizmi, yo'qmi, Xudo hamisha Xudo bo'lib qolaveradi. Biroq Oliy Zot tahqirli so'zlar uchun ranjiydi, deb o'ylaydigan bo'lsak – buning uchun da'vegar qonun boshqaruvi idorasi noziri bo'ladimi? Qodir Zot shaqildoq shaqillatganga yoki bong uruvchiga ishonch bildirmaydi. Momaqaldoq va chaqmoq otuvchi g'azabga keladi, unga barcha tabiat hodisalari bo'ysunadi, koinot chegaralarida chayqalib turgan yurakni va yerda uning o'rnbosari bo'lishni orzu qiladigan shohning o'zini o'zi uchun qasos olishga qo'zg'atadi.

– Kim Qodir Eganing ranjigani uchun qozilik qila olishi mumkin? – Uning ranji uchun qozilik qilaman, deb xayol qilgan odam Qodir Zotni ranjitadi. Bu odam Uning oldida javob beradi.

O'z maslagidan oshkora qaytganlar (107) Xudo mavjud ekanligini tan olmaydigan ateistlarga nisbatan Rossiyada bugungacha ko'proq zarar yetkazdilar. Bundaylar bizda kam, yana kam qismimiz metafizika haqida fikr qilishadi. Ateist metafizika bilan chalg'iydi, raskolchilar esa o'z zavqi bilan. Raskolchilar deb biz yunon cherkovlarining umumiy ta'lomitidan chekingan barcha rossiyaliklarni ataymiz. Bundaylar Rossiyada juda ko'p, shu bois ularga xizmat qilishga ruxsat beriladi. Biroq nima uchun barcha adashishlarning aniq namoyon bo'lishiga ruxsat beriladi? U aniq namoyon bo'lsa, tezroq tugatiladi. Jafokashlarni ta'qib ostiga oldilar; shafqatsizlik xristian qonunlarining o'ziga asos bo'ldi. Raskolchilar harakati gohida zargarli. Ularni taqiq qil. Ular o'rnak ko'rsatish orqali va'z qiladilar. O'mak ko'rsatuvchini yo'q qil. Nashr qilingan kitob tufayli ras-kolchi olovga tashlanmaydi, u yovuz harakatlari uchun jazolanadi.

Ahmoqlikni taqiqlash orqali ham uni rag'batlantirish mumkin. Unga erkinlik ber; hamma kim ahmog'-u, kim dono ekanligini ko'rsin. Taqiqlangan narsa hamisha uni qilishga ishtiyoyq tug'diradi. Biz ham-mamiz Momo Havoning bolalarimiz.

Biroq erkin kitob nashr qilishni taqiqlab, hadiksiragan hukumat Xudoni tahqirlashdan qo'rqlaydi, balki o'zlar tanbeh beruvchi bo'lib qolishdan cho'chiydi. Kim aql chekingan onlarda Xudoni avaylamasa, o'sha yodga olish onlarida noqonuniy humumatni ham ayamaydi. Yaratganning do'qlaridan qo'rqlaydi holda, dor tagiga kelishga jasorat qiladi. Mana shuning uchun erkinlik hukumat uchun qo'rqlaydi. Qalbining tub-tubigacha larzaga tushgan erkin fikrlovchi dag'al, ammo kuchli va titramaydigan qo'llarini hukumat sanami ustiga qo'yadi, uning niqobi va qoplamasini yirtib tashlaydi va uning tarkibini yangilaydi. Hamma uning fony oyog'ini ko'radi, hamma unga bergen tirgaklarini qaytarib oladi, kuch manbaga qaytadi va sanam qulaydi. Ammo agar, hukumat fikrlar tumanida o'tirmagan bo'lsa, uning taxti haqiqat uchun va umumiy manfaatga haqiqiy muhabbat asosiga qurilgan bo'lsa, asosi aniq bo'lganda to'satdan mustahkamlanmaydimi, sevuvchi unga samimi muhabbat qo'ymaydimi? Tabiat hissiyotlarida o'zaro uyg'unlik bor, ularning intilishlari tabiiylik ustiga qurilgan. Mustahkam va pishiq binoning o'ziga yetarli darajada asoslari bor: tayanch va g'ishtin suyagichlarga ularning ehtiyoji bo'lmaydi. Agar u eskirish tufayli nurab boshlasa ham, unga faqat qo'shimcha mustahkamlash talab etiladi, xolos. Hukumat samimi bo'lsin, uning hukmdorlari ikkiyuzlamachilik qilmasin; faqat shundagina barcha zararlar o'zlarining jirkanchliklarini o'z manbalariga qaytaradilar; haqiqat esa pokiza va sof bo'lib qolaveradi. Kim so'z bilan loyqalantirmoqchi bo'lsa (haqiqatga asoslangan, hukumatga qarshi bu fikrlarni hukumatga ma'qul keladigan tartibda og'ir fikrlar, deb ataymiz), u Xudoga tahqir so'zini aytgan telba kabitdir. Hukumat o'zi belgilagan yo'ldan borarkan, uydirma gaplarning quruq ovozidan u loyqalanmaydi, zero Parvardigor unga nisbatan noloyiq so'zlar aytishganidan be-

zovtalanmaydi. Ammo agar o‘z manfaati yo‘lida haqiqatni sindiradigan bo‘lsa, holiga voy. U holda og‘ir fikrlarning littasi ham uning tinchligini buzadi, haqiqat so‘zi uni qisib boradi, jasorat amallari uni yakson qiladi.

Shaxs, ammo zaharli shaxs, demak dilsiyohlik bor. Haqiqatdagi shaxs xuddi haqiqatning o‘zi kabi joizdir. Agar basir hakam nohaq hukm chiqarsa va aybsizlik himoyachisi uning makkorona hukmini fosh qilsa, agar u hakamning nayrangini va nohaqligini ko‘rsatib bersa, bu uning shaxsiyati bo‘ladi va u joizdir; agar u hakamni yollangan, yolg‘onchi va ahmoq deb atasa, bu ham shaxsiyat, ammo u ham joiz. Agar uni, xuddi bozorda qo‘llaniladigani kabi jirkanch va axloqsiz so‘zlarga loyiq topib, atay boshlasa, bu ham uning shaxsiyati, lekin u zaharli va joiz emas. Biroq garchi to‘g‘ri ishi uchun haqoratlangan bo‘lsa ham, sudga shikoyat bilan chiqish hukumatning ishi emas. Hakam esa omma oldida va uni hakamlikka tayinlaganlar oldida umumiy ishlari bilan o‘zini oqlasin¹. Shaxsni ana shunday hukm qilish kerak. U jazoga loyiq, biroq bosma holatda u ko‘proq samara beradi, zarari esa kam bo‘ladi. Qachonki hamma narsa tartibga tushsa, qachonki qaror hamisha qonunga asoslansa, qachonki qonun haqiqatga asoslangan bo‘lsa va umidsizlik parchalansa, o‘shanda, faqat o‘shanda shaxs fahsh yo‘liga kirishi mumkin. Keling, xushaxloqlilik hamda nechta so‘z unga zarar keltirishi mumkinligi to‘g‘risida bir narsa aytamiz.

Shahvoniyl bitiklar bilan to‘ldirilgan, fahsh bilan nafas oluvchi, har bir varag‘i, har bir satri etni junjiktiradigan yalang‘ochlik bilan yoritilgan ishqiy ehtiroslar to‘g‘risidagi asarlar o‘smirlar va hali yetilib pishmagan tuyg‘ular uchun juda zararli. Hayajonli tasavvur-

¹ G.Dikinson, Amerikada bo‘lgan o‘zgarishlarda ishtirok etgan va shuhrat qozongan, Pensilvaniyadan so‘ng prezident bo‘lgan, unga qarshi chiqqanlar bilan kurashishdan toymagan. Unga qarshi og‘ir fikrlar bildirilgan varaqlar bosib chiqilgan. Birinchinglardan bo‘lib, viloyat hokimi maydonga chiqqan, o‘zini himoya qiluvchi asoslarni bosishga bergan, raqiblariga asoslar keltirgan holda o‘zini oqlagan va ularni uyaltirgan... Qanday qasos olish borasida bundan o‘rnak olgan holda, kim kimni ayblaydigan bo‘lsa, uni bosma holatda e’lon qilgan. Bu bosilgan satrlarga qarshi kimda kim g‘azabini sochsa, bu qog‘ozda bosilganlar haqiqat va ayblanuvchi u yerda yozilgani kabidir, degan fikr tug‘dirgan. (*muallif*)

larga olov yoqib, uyqudag'i tuyg'ularni qo'zg'atib va orom olayotgan yurakni bezovta qilib, yosh tuyg'ularni qat'iyatdan chalg'itib va ularga erta qartayish qismatini hozirlagancha, bunday asarlar o'smirlarning vaqtidan oldin jinsiy yetilishiga sabab bo'ladi. Bunday asarlar zararli bo'lishi mumkin; ammo fahshning ildizi ular emas. So'zga qaraganda amal ko'proq fahsh yo'liga soladi, bunga misollar tiqilib yotibdi. O'z yuragini qo'shmachi bilan oshkora savdo asosida tuhfa qiladigan bu ko'chasang'i fonihalar maraz bilan minglab yoshlarni va ularning minglab avlodlarini zaharlashadi; ammo kitob hali kasallik tarqatmagan. Shunday qilib senzura sotiladigan qizlarda qolaversin, garchi aqli buzuq bo'lsa-da, asarlar bilan ularning ishi yo'q.

Agar, muxtasar qiladigan bo'lsak: nashr ishlari senzurasi jamiyatga tegishli, jamiyat esa ijodkorga yo toj kiydiradi, yoki varaqlarni o'rama uchun ishlatadi. Bu xuddi teatr asarini teatrning direktori emas, balki tomoshabin baholashiga o'xshaydi, shundan kelib chiqadigan bo'lsak, dunyo yuzini ko'radigan asarga shon-shuhrat berishni yoki umuman shuhrat qozonmasligini senzurachi hal qilmaydi. Parada ko'tarildi, hammaning nigohi sahna ijrosiga qaratildi; agar yoqsa, olqishlashadi, yoqmasa hushtak chalib, tepina boshlashadi. Ahmoqni muhokama qilishni umumjamoa ixtiyoriga qoldir; u minglab senzura topib beradi. Ahmoqona fikrlarni eng qattiqqo'l politsiya ham bu fikrdan g'azabga kelgan jamoa kabi taqiqlab qo'yolmaydi. Ular bu g'azabni bir marta tatib ko'rishgach, o'lishadi va qaytib tirilishmaydi. Biroq biz senzuraning befoydaligini yoki, undan ham battari – podsholikda uning ilmga zarar keltirishini tan oladigan bo'lsak, shunda bosmadan chiqarish erkinligining keng va behad afzalliklari ni ko'ra boshlaymiz.

Menimcha, bunga isbotning hojati yo'q. Agar hamma erkin fikrlasa va o'z fikrlarni qarshiliksiz bayon qila olsa, u holda, tabiiyki, kim nima o'ylab topsa, kim nima yaratса, bu haqida hammaga ma'lum bo'ladi; buyuk narsa buyukligini namoyon qiladi, haqiqat panada qolmaydi. Hukmdorlar xalqni adolat yo'lidan haydab chiqarishga jur'at qilisholmaydi va hayiqishadi, negaki ularning yo'lida yovuzlik va hiyla-nayrang oshkor bo'lib qoladi. Hakamadolatsiz hukmga imzo chekar chog'ida titroqqa tushadi va uni yirtib tashlaydi. Qo'lida

hukumatga ega bo‘lgan odam undan faqat o‘z injiqliklarini qondirish yo‘lida foydalanishga uyaladi. Xufyona qaroqchilik qaroqchilik deb nomlanadi, yashirin qotillik esa qotillik sifatida jazolanadi. Barcha yovuzliklar haqiqatning tik nigohidan qo‘rqadi. Osoyishtalik ham haqiqiy bo‘ladi, negaki uning loyqalatuvchisi bo‘lmaydi. Hozir faqat yuza qism silliq, ammo uning tubidagi cho‘kindi loyqalanib yo‘ibdi va suvning tiniqligini xiralashtirmoqda.

Men bilan xayrashar ekan, senzurani tanqid qiluvchi menga kichik bir daftar berdi. Hurmatli o‘quvchi, agar siz zerikuvchan bo‘lmasangiz, oldingizda yotgan narsani o‘qib ko‘ring. Agar shunday holat ro‘y berib, sizning o‘zingiz senzura qo‘mitasida ishlab qolsangiz, unda bir-bir varaqlab, yaxshilab o‘rganing.

Senzura faoliyati to‘g‘risida qisqacha hikoya

Biz senzura va inkvizitsiyaning asosi bitta ildizga borib taqaladi, shuningdek, inkvizitsiya muassislarini senzurani o‘ylab topishgan, ya’ni buyruq kitoblarini dunyoga kelishidan oldin ko‘rib chiqishgan, deb aytamiz va buni aniq dalillar bilan isbotlab berishga harakat qilamiz. Bu borada biz garchi yangi bir gap aytmasak ham, lekin o‘tgan davrlar zulmatidan tortib chiqarib, boshqa ko‘pgina dalillarimizga quyidagi aniq isbotni qo‘sishma qilamiz: din peshvolari hamisha zanjirband etishning ixtirochilari bo‘lishgan va bu turli davrlarda inson aqli natijasi o‘laroq, yuksalish va ozodlik sari parvozini kesish maqsadida zanjirband insonning qanotlarini kesishning og‘irlashtirilgan turlari namoyon bo‘la borgan.

O‘tgan davrlar va yuz yilliklarni bosib o‘tarkanmiz, biz hamma vaqtarda ham hukumatning azoblash belgilariiga duch kelamiz, hamma vaqtlardayam haqiqatga olib chiqadigan kuchni, gohida esa xurofotga birlashtiruvchi bid’atni ko‘ramiz. Din peshvolarining ishlaridan asablari qo‘zg‘agan Afina xalqi Protagor¹ yozuvlarini taqiqlab qo‘ygan, uning barcha yozganlarini yig‘ib olib, yoqib yuborishga buyurgan. Axir u emasmi, o‘ziga hech qachon yelkasidan soqit bo‘lmaydigan abadiy tavqi-la’natni olib, insoniyat haqiqati – Suqrot-

¹ *Protagor* (er. avv. 481–411) – afinalik faylasuf, sofist, ateistik qarashlari uchun surgun qilingan (*tarj.*).

ni o'limga hukm qilgan? Rimda esa bu kabi jaholat yovuzliklariga bundan ham ko'p misol topamiz. Tit Liviyning guvohlik berishicha, Numaning tobutidan topilgan varaqalar senatning buyrug'i bilan yoqib yuborilgan. Turli davrlar ham bashorat qilishga oid kitoblar pretorga¹ tegishli bo'lganini ko'rish mumkin. Svetoniyning² yozi-shicha esa, hukmdor Sezar Avgustning buyrug'i bilan bunaqangi kitoblarning qariyb ikki mingga yaqini yoqib yuborilgan. Inson aq-lining bu kabi ahmoqona faoliyatiga yana misol kerakmi! Nahotki, hukmdorlar xurofiy kitoblarni yoqish bilan xurofot barham topadi, deya o'ylashgan bo'lsa? Hammaga, xususan, o'zlariga ham folga ishonish, unga murojaat qilishni taqiqlashgan, odatda, folga tez-tez faqat yurakni kemiradigan oniy dardlarni jilovlash uchun muroja-at qilib turilgan. Faqatgina davlat folbinlari hisoblanmish avgur va aruspitsiylargan³ ruxsat berilgan. Biroq agar ma'rifat kunlarida bashorat qiluvchi va xurofiy mazmundagi kitoblarni taqiqlash yoki yoqish to'g'risida xayol qilishgan ekan, haqiqat xurofotga hayday-digan kaltak sifatida qabul qilinganligi, haqiqat ko'rinishlaridan biri gumrohlikka qarshi o'ta shafqatsiz qamchi bo'lib, u gumrohlikni bartaraf etish uchun hukmdorlik va qilichni asos sifatida ko'rishi kulgili emasmi?

Ammo hukmdor Avgust o'z ta'qibini faqat bashorat qilishga qaratmadidi: u Tit Labiyeniy⁴ kitobini ham yoqishni buyurdi. Uning vaxshiy ijrochilari, – deydi Seneka ritor, – buning uchun jazoning yangi bu ko'rinishini kashf qilishdi. Jazoni ta'limotga qaratish – noodatiy va qulqoq eshitmagan jazo turi. Yaxshiyamki, davlatning baxtiga bu ahmoqona aql mahsuli Sitserondan keyin dunyoga kel-gan. Agar bu *uch boshliq* (108) hukmiga Sitseron yozgan asarlar qo'yilganda, nima bo'lgan bo'lardi?» Biroq ko'p o'tmay bu zulmkor uning asarlarni yoqishga tavsiya qilgan odamdan Labiyeniy uchun qasd oldi. Bu odam o'z hayotida uning ham yozganlari olovga otil-

¹ Pretor – Qadimgi Rimdag'i oliy sud (*tarj.*).

² Svetoniy Trankvill Gay (70–160) – Rim imperatorlari biografi (*tarj.*).

³ Avgur va arispitsiyalar – Rimning faxrli kohinlar jamoatchiligidagi davlat folbin-chiligi bilan shug'ullanuvchi maxsus a'zolari (*tarj.*).

⁴ Tit Labiyeniy – Rim tarixchisi va voizi, respublika himoyachisi (*tarj.*).

ganining guvohi bo‘ldi¹. «Bu yerda yovuzlik namunasiga shaxsiy namuna bilan rioya qilish lozim edi», – deydi *Seneka* (109). Iloyim yovuzlik faqat o‘z egasiga qaratilsin va fikr ortidan ta’qib qilishni o‘rnatgan odam o‘zini hamisha masxara qilingan, tahqirlangan, muhokamalarda va jazoning ayovsiz hukmi ostida ko‘rsin! Agar qasos qachonki uzrli bo‘ladigan bo‘lsa, unda uning hojati bormikan?

Rim xalq boshqaruvi ostida bo‘lgan davrlarda bunaqa xildagi ta’qib faqat xurofotga nisbatan o‘rnatilgandi, imperatorlar boshqaruvi davrida esa u barcha erkin fikrlarga qaratildi. *Kremutsiy Kord* (110) Kassiyni o‘z tarixida Avgustning Labiyeniy asarlariga nisbatan qilgan zulmkorligi ustidan kulishga jur’at qilgan oxirgi rimlik, deb atadi. Rim senati esa imperator Avgust Tiberiyga yoqish uchun Kremutsiy Kordning kitobini yoqishga buyurdi. Ammo bu kitobdan juda ko‘p varaqlari saqlanib qoldi. «Hammadan ko‘ra, – deb yozadi Tatsit, – o‘z qudratlari bilan keyingi avlodning xotirasini o‘chirib yuborishni orzu qiladiganlarning harakatlari ustidan kulish mumkin. Hukumat tafakkurni jazolash bo‘yicha jazavaga tushib, o‘z kuchini namoyon qilgan bo‘lsa ham, biroq bu ahmoqona ishi bilan o‘ziga sharaf sifatida uyat va sharmandalik o‘rnatdi, xolos».

Antiox Yepifan va shoh Sirskiy davri yahudiy kitoblari ham yoqib yuborilish balosidan qutulib qolisholmadi. Nasroniylar kitoblarining taqdiri ham ular bilan bir xil bo‘ldi. Imperator Deoklitian ilohiy bitiklar bitilgan kitoblarni olovga tashlashni buyurdi. Biroq xristian qonunchiligi zulmkorlik ustidan g‘alabani qo‘lda ushlab qolgan holda, zulmkorlarning o‘zini zabt etdi va bugungi kunda bunga asosli dalillar bor. Ya’ni fikr va qarashlarni ta’qib qilish nafaqat ularni yakson qilishdagi o‘z kuchini yo‘qotgan, balki ularning yana-da ildiz otib, keng tarqalishiga zamin yaratmoqda. Arnobiy² haqli ravishda bunday ta’qib va zulmkorliklarga qarshi chiqadi. «Ayrimlar-ning ta’kidlashicha, – deydi u, – senatning bunday varaqalarni yo‘q qilishni buyurgani davlat uchun foydali bo‘lib, isbotiga qadimiylarning muhimligini inkor etuvchi xristian e’tiqodidagi xizmatchilarni ko‘rsatishadi. Biroq yozishni taqiqlash va e’lon qilishganlarni yo‘q

¹ *Ariy Montan* – Niderlandiyada taqiqlangan kitoblar to‘g‘risidagi birinchi ro‘yxatni taqdim etgan odam to‘g‘risida gap ketmoqda (*muallif*).

² *Arnobiy* – xristian yozuvchisi, III–IV asrlarda yashagan (*tarj.*).

qilishni istash, bu Xudoni himoya qilish emas, balki haqiqatning guvohlik berishidan qo‘rqishdir». Ammo xristian dinini yoyishda din peshvolari o‘zlarining foydalariga xizmat qiluvchi emas, balki ularga qarshi bo‘lgan yozuvlar uchungina g‘azabga keldilar. Yaqinda ulardagi keskinlikni majusiylikda qoraladilar, uni o‘zлari himoya qilganlariga nisbatan ishonchszilik belgisi sifatida qayd etdilar, ammo ko‘p o‘tmay o‘zлari qudratli qurolli qo‘shinga aylandilar. Yunon imperatorlari davlat ishlariga nisbatan ko‘proq cherkov muzokaralari bilan shug‘ullandilar, shu bois ruhoniylar ta’siri ostida, Iso ta’limoti va faoliyatini ulardan farqli ravishda boshqacha tushungan va talqin qilganlarning hammasini ta’qib ostiga oldilar. Bunday ta’qiblar keng tarqalib, aql va tafakkur mahsullarini ham qamrab oldi. Endi Buyuk deb nomlangan zulmkor Konstantin¹ Ariy ta’limotini la’natlagan Niskey sobori qaroriga ergashib, uning kitoblarini taqiqladi, ularni yoqishga buyurdi, uning kitoblarini saqlab qolganlarni o‘limga hukm qildi. Imperator Feodosiy II² Nestoriyning la’natlangan kitoblarining hammasini yig‘ib, olovga otishga ko‘rsatma berdi. Xalkidon soborida ham Yevtixiy yozmalariga nisbatan shunday qaror chiqarildi. *Yustinian Pandektlarida* (111) ham bir qancha mana shunday qarorlar saqlanib qolgan. Mantiqsizlik! Xristian ta’limotining noto‘g‘ri yoki ahmoqona sharhini yo‘q qilayotib va qaysidir fikrni o‘rganish uchun mehnat qiluvchi tafakkurni taqiqlab, ular uning qadamlarini to‘xtatib qo‘yishganini anglashmadи; haqiqatdan kuchli tayanchni, fikrlar xilma-xillagini, fikr erkinligi va muzokarasini olib qo‘ydilar. Nestoriy, Ariy, Yevtixiy va boshqa bid’atchilarning Luterning izdoshlari bo‘lmasligiga va dunyo xristianlar yig‘ini chaqirilmaganda, Dekartning (yoki u kabi insonning) bir asr oldin tug‘ilgan bo‘lishi mumkin emasligiga kim kafil bo‘la oladi? Qaysi qadam ortga, zulmat va jaholatga qarab tashlanadi?

Rim imperiyasi vayron qilinganidin keyin Yevropada rohiblar fan va ta’limning qo‘riqchisi bo‘lishgan. Ammo ularning hech qaysisi nima istashsa, o‘shani erkin yozish borasida bahslashishmagani.

¹ Konstantin (274–337) – Rim imperatori (*tarj.*).

² Feodosiy II (401–450) – Vizantiya imperatori. Bu yerda gap Rim va Vizantiya imperatorlari o‘rtasida turli xurofiy qarashlar tufayli IV–V asrlarda kechgan kurash to‘g‘risida ketmoqda (*tarj.*).

768-yilda Benidikt rohibi Amvrosiy Oper Apokalipsis¹ xususidagi mulohazalarini papa Stefan III ga yuboradi va mazkur ishini davom ettirish hamda uni bosib chiqarish to‘g‘risida undan izn so‘rar ekan, yozuvchilar orasida bunday ruxsatnomasi so‘ragan birinchi inson ekanini ta‘kidlab o‘tadi. «Ammo bu yo‘qolmasin, – deya davom ettiradi u o‘z so‘zini. – Yozishda erkinlik shuning uchun kerakki, xo‘rlanish erkinlik bilan bosh egxin». Sanskiy sobori 140-yilda Abelard² qarashlarini qoraladi va papa uning yozganlarini yoqishga buyurdi.

Ammo na Yunonistonda, na Rimda, umuman hech qayerda fikr sudyasi tayinlanganligi, kimdir aytishga jur‘at qilishi mumkinligi to‘g‘risida biror-bir misolni uchratmaymiz: agar siz otashin nutq so‘zlash uchun og‘iz juftlamoqchi bo‘lsangiz, avval mendan so‘rang; bizning mamlakatimizda tafakkur, fan va ta‘lim, umuman, bizning tamg‘amizsiz dunyo yuzini ko‘radigan hamma narsani oldindan ahmoqona, yaramas va foydasiz, deya e’lon qilamiz. Bunday sharmandali ixtiro nasroniylar ruhoniylariga berilgan va senzura zamonaviy inkvizitsiya rolini o‘tagan.

Tarix pog‘onalarini bosib o‘tarkanmiz, qo‘pol jaholat zamon-doshlari tomonidan ular uchun foydali bo‘lgan ixtirolarni, xurofiy tafakkurni topamiz. Ayni vaqtida xuddi tasdiqlangan narsalarga hadik to‘la ishonchsizlik bilan qarash monaxlarda senzurani ta’sis etib, yangi fikrni hali u tug‘ilmasidanoq bo‘g‘ib tashlash g‘oyasini uyg‘otdi, shuningdek, yana ayni shu vaqtida Kolumb Amerikani kashf etish uchun noma'lum dengizga tushib suzib ketishga jur‘at topdi; Kepler keyinchalik Nyuton tomonidan isbotlangan, tabiatda tortish kuchi mavjudligini oldindan aytib berdi; ayni vaqtida samoviyl jismlarning koinotdagi harakatini qog‘ozga tushirgan Kopernik dunyoga keldi. Ammo ming bora nadomat bilan inson tafakkuri qiy-mati to‘g‘risida shuni e’tirof etamizki, buyuk fikrlar gohida jaholatni dunyoga keltiradi. Masalan, kitob chop etish senzurani yuzaga keltirdi; falsafiy tafakkur XVIII asrda *illuminatlarni* (112) dunyoga keltirdi.

1479-yildan biz kitob chop etish uchun bugungacha eng qadi-miy sifatida ma'lum bo‘lgan ruxsatnomani topamiz. 1480-yilda «O‘zingni tushun» degan sarlavha ostida chop etilgan ushbu kitobda

¹ Apokalipsis – diniy bashoratlar ilk xristianlik kitobi (*tarj.*).

² Abelard (1079–1142) – fransuz faylasufi, ilohiyot professori (*tarj.*).

quyidagilar ilova qilinadi: «Biz, Matfey Jirardo¹, Xudoning marhamati bilan Dalmatiyada yuqori darajaga ega bo‘lgan Venetsiya patriarxi, yuqoridagi ijod mahsullarini o‘qib chiqib guvohlik beruvchi, yuqoridagi ro‘yxatda nomlari keltirilgan janoblar xuddi shunday xulosalar yuzasidan umumiy ishonch bilan yana guvohlik beramizki, ushbu kitob pravoslav diniga oid va xudojo‘ydir». Qadimiy senzurating yodgorligi, biroq qadimiy ahmoqlikning emas!

Bugungi kungacha ma’lum bo‘lgan va eng qadimiy hisoblangan qonuniylashtirilgan senzura haqidagi ma’lumotni esa 1487-yildan, *kitob chop etish ixtiro qilingan shaharning o‘zida joriy etilganini ko‘ramiz* (113). Monaxlik boshqaruvi bu yangilik ular hukmronligini cheklashning quroli bo‘lishini, u umumiy tafakkurga keng yo‘l ochishni tezlashtirishini oldindan ko‘ra bilganlar va umumiy manfaat emas, fikrga asoslangan qudratli kitob chop etishda o‘z intihosini topishini anglaganlar.

Mayli, ular bugungi kunda haliyam fikrlarni bo‘g‘ish va ma‘rifatni isnodga qo‘yish uchun mavjud bo‘lgan yodgorliklarni ilova qilish uchun bizga ruxsat bersinlar.

Yunon, lotin va boshqa tillardagi kitoblarni olimlar tomonidan loyiq ko‘rilmasdan oldin chop etmaslik to‘g‘risida 1486-yildagi qonun tasdiqlandi².

«Bertold, Yaratganning marhamati bilan muqaddam Maynets yeparxiyasi arxiyepiskopi, *arkikansler va kurfist* (114). Garchi insoniyat ta’limot olishi uchun ilohiy bosmaxona san’ati orqali kitobni ko‘plab bosib chiqarish va turli fanlarga tegishli kitoblarni erkin olish imkonи tug‘ilsa-da, ammo bizgacha ushbu ma’lumot yetib keldiki, quruq shuhrat va boylik orttirish ilinjiga tushgan ayrim odamlar ushbu san’atni yovuzlik yo‘lida qo‘llaydilar va insoniyat hayoti davomida o‘rganishi uchun berilgan ma’lumotlar halokat va zaharli so‘zlashga olib boradi.

Biz lotin tilidan nemis tiliga o‘girilgan, muqaddas lavozimlarimiz va dinimiz urf-odatlarimizga taalluqli bo‘lgan, shuningdek, odidiy xalq qo‘lidagi ular murojaat qiladigan ilohiy qonunlarga noloyiq kitoblarni ko‘rdik; nihoyat, muqaddas qoidalar va muqaddas qonun-

¹ Morsey Jirardo (Matvey Gerardo) – kardinal (1492-yilda) (tarj.).

² Diplomatik kodeks, Guden tomonidan chop etilgan, IV jild (*muallif*).

lar to‘g‘risidagi bitiklarni aytadigan bo‘lsak: garchi ular mohir va qonunni yaxshi biladigan odamlar, donoroq va otashin so‘zlaydigan notiqlar tomonidan oqillik va izchillik bilan bitilgan bo‘lsa-da, biroq ilmning o‘zi juda murakkab bo‘lgani bois, unga eng ravon so‘zli va ilmlli kishining ham butun umri yetishi amri maholdir.

Ayrim ahmoq, qo‘pol va johil odamlar ana shunday kitoblarning umumiy tilga tarjima qilinishiga ruxsat olishga erishadilar. Ko‘pgina ilmlli odamlar esa tarjima qilingan mazkur asarlarni o‘qib, so‘zlarning nomutanosibligi va to‘g‘ri tanlanmaganligi sababli asl nusxaga nisbatan tushunarsiz ekanligini tan olishadi. Ijodiy asarlar to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, boshqa fanlarga tegishli bo‘lib, ko‘pincha soxta ma’lumotlar aralashtirilib, soxta nomlar ostida keltiriladi va o‘z uydirmalariga qancha ko‘p taniqli yozuvchilar nomini qo‘sib yozishsa, shuncha ko‘p xaridorlariga ega bo‘ladilar.

Bunday tarjimonlar mayli, fikrlarini aytishsin, agar ular haqiqatni sevishsa, ezmumi, badbinmi, qanday maqsad bilan uni amalga oshirishmasin, bunga zarurat bo‘lmaydi. Mayli, ular aytishsin: yunon va lotinlarning nazokatli yozuvchilari nasroniyolar dinidagi ilohiy fikrlar va fan to‘g‘risida aniqroq, mantiqliroq yozgan mulohazalarini nemis tilida ifoda etish qulaymi? Tan olish kerakki, yuqorida aytiganlarni to‘liq ifodalash uchun bizning tilimiz butunlay qashshoqlik qiladi, buning natijasida esa, tarjimon o‘zi uchun notanish bo‘lgan atamalarni miyasiga kelgan so‘z bilan atashi lozim bo‘ladi; yoki agar qadimiy so‘zlarni ishlataligani bo‘lsa, asosiy mazmundan chetga og‘ish yuzaga keladi, bu esa tarjimaning biz ilohiy so‘zlarni ifodalash va ularning ahamiyatini muhokama qilishimizdagi eng xavfsiraydigan tomondir. Mabodo bu kitob johil va qo‘pol odamlar, ayol jinsiga mansub kishilar qo‘liga tushsa, ularga asl mazmunni kim tushuntirib beradi? Muqaddas Injil satrlariga yoki apostol Pavel Xushxabariga qarang, har bir o‘qimishli odam ularda juda ko‘p qo‘sishchalar va mirza tomonidan tuzatishlar ilova qilinganiga amin bo‘ladi.

Bizning aytganlarimiz esa juda yaxshi ma’lum. Katolik cherkovlari bitiklarida qat’iy ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan mulohazalar borligi to‘g‘risida qanday fikrga borishimiz mumkin? Misol sifatida

juda ko‘p narsalarni keltirishimiz mumkin, biroq bu maqsad uchun biz yuqorida yetarlicha misollarni aytib o‘tdik.

Modomiki, kitob bosish san’ati ibtidosi bizning sharaflı shahrimiz Maynetsda, agar haqiqatni aytadigan bo‘lsak, ajoyib tarzda namoyon bo‘lgan ekan, u bugungi kunda yanada takomillashtirilgan va boyitilgan holda amal qilmoqda, biz esa adolatli tarzda bu san’atning muhimligini o‘z himoyamizga olganimiz. Negaki, bizning lavozimimiz ilohiy bitiklarni buzilmagan holda, pokiza saqlashni taqozo qiladi. Mana shu talqinda adashishlar va betgachopar, yovuz odamlarning qo‘polliklari haqida gapirarkanmiz, imkonimiz boricha Rabbi-miz yordami bilan bu yerda ishi bo‘lgan hammani va har bir odamni ogohlantirish va jilovini ushlab turishni istagan holda; har bir odamga, u cherkov xodimi bo‘ladimi, mintaqamiz fuqarosi bo‘ladimi yoki undan tashqarida savdo qiladimi, u qanday unvonga ega bo‘lmasin va qanday ahvolda bo‘lmasin, ularning har biriga buyuramiz; ya’ni qaysi fan, adabiyot yoki bilimga oid bo‘lmasin, hech qanday yozma asar, yunon, lotin yoki boshqa tildan nemis tiliga tarjima qilinishi kerak emas yoxud, agar faqat sarlavhasini almashtirish yoki shunga o‘xshash holatda allaqachon tarjima qilib ulgurilgan bo‘lsa, ochiq yoki yashirin tarzda, to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki tashqi vositalar bilan tarqatilishi yoki sotilishi mumkin emas. Agar bosib chiqarilgunga qadar, bosib chiqarilgandan so‘ng dunyo yuzini ko‘rgunga qadar bosib chiqarish yoki dunyo yuzini ko‘rishi uchun universitetning biz uchun qadrli bo‘lgan olijanob va sharaflı doktorlari hamda magistrlardan ochiq ruxsatnomaga ega bo‘lmasa, kitob chop etishga yoki tarqatishga, sotishga ruxsat etilmaydi; ya’ni ularga aynan bizning shahrimiz Maynetsdagi Iogann Bertram de Naumburxdan ilohiyotga oid sohada; Aleksandr Didrixdan qonun ta’limotiga tegishli asarlar bo‘yicha; tibbiyat fanlari bo‘yicha Feodorik de Mesheddan, og‘zaki va yozma adabiyotdan Andrey Yelerdan va ular uchun bizning Yerfurtdan tanlangan doktor va magistrlardan ana shunday ruxsatnomalar talab etiladi. Frankfurt shahrida ham, agar mana shunday, bosib chiqarilgan va sotuvga berilgan kitoblar biz uchun qadrli va sharaflı bo‘lgan bir nafar ilohiyotshunoslik magistridan va ikki nafar doktor va mazkur shahar dumasidan oylik maoshga ega bo‘lgan litsensiatlari tomonidan ko‘rib chiqilgan va tasdiqlanmagan bo‘lsa, ular taqilanganadi.

Agar kimda kim bizning bu vasiylik qarorimizni nazar-pisand qilmasa yoki bizning buyrug‘imizga qarama-qarshi ravishda kitobini o‘zi yoki o‘zgalar yordami yoki homiyligi asosida bosib chiqarsa – mana shu bilan u o‘zini la’natlanishga hukm qiladi, bundan tashqari, mazkur kitoblar undan tortib olinadi va u bizning xazinamizga yuz oltin gulden jarima to‘laydi. Bu qarorni hech kim istisno tariqasida gi buyruqlarsiz buzishga jur’at etmasin. Saroya bizning shahrimiz Maynetsdagi S. Martin tomonidan bizning muhrimiz ilovasi bilan taqdim qilindi. 1486-yilning yanvar oyи, to‘rtinchи kuni».

Avvalgi qayd etilganlarga senzurani yuborish haqida: «1486-yilning yozi. Bertold va boshqalar. Xistdagи biz uchun qadrli, sharaflи va bilimli bo‘lgan Logann Bertram de Naumburga ilohiyotga oid sohada; Aleksandr Didrixga qonun ta’limotiga tegishli asarlar bo‘yicha; tibbiyat fanlari bo‘yicha Feodorik de Meshedga, og‘zaki va yozma adabiyotdan Andrey Yelerga salomatlik tilab quyida bitilgan ilovani taqdim qilamiz.

Ilm-fanga oid asarlarni o‘giruvchi ayrim tarjimon va kitob bosib chiqaruvchilarining soxtakorligi va manfaatparastligidan xabar topgan holda, ularni imkoniyat doirasida ogohlantirish va yo‘llariga to‘sinqo‘yish istagida buyuramiz: bizning viloyatimizda va yeparxiyamizda bunday asarlar yoki kitoblar bizning shahrimiz Maynetsda siz tomoningizdan tegishlilik nuqtayi nazardan har bir satri ko‘rib chiqilmagunga qadar hech kim kitoblarni nemis tiliga tarjima qilishga, bosib chiqarishga yoki bosilganlarni tarqatishga jur’at etmasin. Yuqorida ko‘rsatilgan farmonga ko‘ra, siz tomoningizdan tasdiqlangan magunga qadar tarjima qilinmasin va sotuvga chiqarilmasin.

Sizning ehtiyyotkorligingiz va salohiyatingizga qat’iy umid qilgan holda, sizga quyidagi vazifalarni yuklaymiz: sizga tarjima qilish, bosib chiqarish yoki sotish uchun mo‘ljallangan asarlar yoki kitoblarni taqdim qilishganida, siz uning mazmunini ko‘rib chiqishingiz lozim. Agar ulardagи haqiqiy mazmunni ifodalash qiyin bo‘lsa yoki yo‘ldan ozdirish, adashtirishni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lsa, axloqni tahqirlasa, u holda bunday asar va kitoblarni rad eting; siz erkinlikka chiqargan kitoblarga esa o‘z qo‘lingiz bilan imzo chekishingiz va aynan oxirida sizdan ikki nafaringiz tasdiqlashingiz lozim, toki mazkur kitoblar siz tomoningizdan ko‘rib chiqilgan va tasdiqlanganligi

ochiq ko‘rinib tursin. Bizning davlatimizga qadrli va foydali bo‘lgan asarlarni yuboring. Saroydan 1486-yilning o‘ninchи yanvar kunida S.Martin tomonidan taqdim qilindi».

O‘sha zamon uchun yangilik bo‘lgan bu qonun ko‘rsatmalarini ko‘rib chiqarkanmiz, nemis tilida kam kitob chop etilishi uchun, boshqacha so‘z bilan aytganda, xalq hamisha omi bo‘lib qolishi uchun bu ko‘rsatmalarda ko‘proq kitob bosib chiqarishni taqiqlashga moyillikni ko‘ramiz. Lotin tilida yozilgan asarlarga nisbatan nazarmizda senzura qo‘llanilmagan. Negaki lotin tilini yaxshi bilganlar allaqachon adashishlardan muhofaza qilingan, ularga vasvasa ya-qinlasholmaydi va ular o‘qiganlarini aniq va ravon tushunishadi¹. Shunday qilib, ruhoniylar ularning hukmronligiga dahldor odamlarningina ma’rifatli bo‘lishini istashgan, chunki oddiy xalq din va diniy manbalarga oid ilm ularning tushunchalaridan yuqori darajada turgandagina ular bu fanlarni o‘qishda ularga yaqinlashishga jur’at qilolmaydi. Demak, haqiqat va ma’rifat xulosalariga oid tor doirada yaratilgan, o‘z kuch-qudratiga ishonmaydigan hukumat to‘g‘risida yaratilgan asarlar, qachonki bugungi fan va falsafa rivojlangan kundarda, qachonki aql unga muvofiq kelmaydigan xurofot yo‘lidan ajrab chiqqanda, qachonki ilm olish manbasi jamiyatning barcha tarmoqlariga oqib borayotganda, qachonki hukumat maqsadi yo‘ldan ozishlarni yo‘qotishga hamda tafakkur uchun haqiqatga to‘sqliarsiz yo‘l ochishga qaratilgan vaqtida, jaholat va zulmatni davom ettirishga xizmat qilish uchun yaratilgan asarlar – monaxlarning sharmandali ixtirolari bugungi kunda qaltirab turgan hukumat bilan hamkorlikda qabul qilingan, asoslangan va gumrohlik chegarasida yaxshi deya ma’qullanmoqda. Chidab bo‘lmaydi! Yon atrofingizga qarang, siz haqiqatni noto‘g‘ri va yolg‘on talqinlar bilan asoslantirmoqchisiz, siz xalqqa gumrohlik asosida ma’rifat ulashmoqni istaysiz. Hushyor bo‘ling, yo‘qsa zulmat dunyoga kelishi mumkin. Johillar ustidan, ayniqsa, dag‘allashgan, ma’rifat ko‘magi yetishmovchiligi tufayli tabiatan omi bo‘lib qolavergan, yoki, aytaylik, tabiiy sodda bo‘lgan,

¹ Buni shu bilan taqqoslash mumkinki, xorijiy tildagi har qanday kitobga ega bo‘lishga ruxsat etilgan, ammo aynan mana shu kitoblarining milliy tilda nashr qilin-ganlari taqiqlanadi (*muallif*).

lekin ma’rifat sari qadam tashlab ulgurgan, biroq yo‘lidan to‘xtatilib, orqaga qaytarilgan va zulmat sari yo‘naltirilgan gumrohlarga hukmronlik qilishdan sizga nima foyda? O‘z-o‘zi bilan kurashsa-yu, chap qo‘li bilan irg‘itganni o‘ng qo‘li bilan tutib olmoqdan sizga nima naf? Bundan xursand bo‘ladigan din peshvolariga qarang! Siz avvaldan unga xizmat qilib kelmoqdasi. Zulmat pardasini oching va o‘zingizni kishanda ekaningizni his eting – agar u har doim ham *di-niy xurofot zanjiri bo ‘lmasa-da, unda siyosiy xurofot zanjiri bo ‘lishi mumkin* (110), u ehtimol unchalik kulgili emasdир, lekin shu qadar halokatlidir.

Biroq sizning baxtingizga jamiyat kitob bosib chiqarishni sizning qo‘l ostingizdan chiqarib yubormadi. Go‘yo, bahorda ekilib, yashilligini doimiy saqlab turadigan daraxt singari, kitob bosib chiqarish qurollari harakatdan to‘xtatilishi mumkin, ammo butkul yo‘q qilinmaydi.

Rim papalari o‘zlarining hukmronliklari xavfini anglab yetib, kitob bosib chiqarish erkinligidan tug‘ilishi mumkin bo‘lgan qonunlashtirilgan senzurani joriy etishmadi, bu qaror keyinchalik Rimdagi soborda umumiy qonun kuchiga kirdi. Ruhoniy Tiveriy, papa Aleksandr VI¹ papalar ichida birinchi bo‘lib 1501-yilda senzurani qonunlashtirdi. O‘zi yovuzlikning har qanday ko‘rinishlarini ortib olgan holda, nasroniylikning musaffo ekanligini yozishdan uyalmadidi. Ammo hukumat qachon qizargan! U o‘z fatvosini bosh kiyimiga don sochgan shaytondan nolishdan boshlaydi va shunday deydi: «Ushbu bosib chiqarish san’ati vositasida dunyoning turli joylarida, ayniqlsa, Keln, Maynets, Triyer, Magdeburgda chop etilgan va bugun ham bir qancha joylarda chop etilayotgan ko‘plab kitoblar va asarlarning o‘z mazmunida turli xatolarni qamrab olganidan, xristianlik ta’limotiga yovlarcha halokatli ta’limotga ega ekanligidan xabardor bo‘lgach, kechiktirmasdan bu zararli illatning oldini olish maqsadida hammaga va qayd etilgan har bir bosmaxonachi, ularga dohil bo‘lgan hammaga, kim eslatib o‘tilgan hududlarda bosma ishida murojaat qiladigan bo‘lsa, Kyoln, Maynets, Triyer, Magdeburgdagi bizning sharafli birodarlarimiz bo‘lgan arxiyepiskoplarimiz

¹ Aleksandr VI Borja (Borja) – Rim papasi (1492–1503), munofiqligi va axloqsizligi bilan ma’lum bo‘lgan (tarj.).

yoki ularning hududlardagi vakillari tomonidan aniqlanib, ularning hukmi asosida la'natlanish va *apostol kamerasi* (116) foydasiga pul jarimasi to'lash jazosi bilan jazolanishini ma'lum qilamiz. Apostol hukumati qat'iany taqiqlaymizki, kitob, asar yoki bitiklarni yuqorida qayd etilgan arxieskop yoki uning hududlardagi vakilining bildirishisiz va ularning aniq va muhim, pulsiz ruxsatnoma so'rovisiz chop etilmasin yoki bosishga berilmasin; bosib chiqarishga mo'ljallangan bunday ruxsatnoma berishdan oldin, pravoslav diniga qarshi bo'lgan, xudosizlik to'g'risidagi yoki yo'ldan ozishni keltirib chiqaradigan kitoblar chop etilmasligi uchun ularni qunt bilan ko'rib chiqishni yoki olimlar va pravoslav mazhabidagi mas'ullarga ko'rib chiqishni buyurish, ularning hafsalá bilan ko'rib, pishitishlarini ta'minlashni arxiyepiskoplarimiz va ularning joylardagi vakillarining vijdoniga yuklaymiz». Bosib chiqarilgan kitoblar esa baxtsizlik keltirmasligi uchun, kitoblar to'g'risidagi barcha reyestrlarni hamda barcha bosib chiqarilgan kitoblarni qayta ko'rib chiqib, agar ularda katolik diniga qarshi biror qarash aniqlangudek bo'lsa, ularni yoqishga buyurishgan.

Ey, siz! Senzurani ta'sis qiluvchilar, yodda tuting, siz ham papa Aleksandr VI ga tenglashib qolishingiz va keyin sharmanda bo'lishingiz mumkin.

1515-yilda Lateran sobori din peshvolarining tasdig"isiz hech qanday kitob bosib chiqarmaslik to'g'risida senzura e'lon qildi.

Biz yuqoridagilardan ko'rib, guvohi bo'ldikki, senzura ruhoniylar tomonidan o'ylab topilgan va unga faqat ular egalik qilgan. La'natlanish va pul jarimasini to'latish hamrohligida bu haqidagi qonunchilikni buzgan noshir o'sha vaqtarda dahshatli qonunbuzar bo'lib ko'rinishi mumkin bo'lgan. Ammo papa hukumatiga Lutering raddiyasi, Rim cherkovlaridan turli dinlarning ajrab chiqishi, turli hukumatlarning muzokalarari *O'ttiz yillik urush* (117) davomida odatiy senzura tamg'asisiz juda ko'p kitoblar bosib chiqarilib, dunyo yuzini ko'rdi. Hamma yerda bir xil, nashr etish ustidan senzura ishlab chiqish huquqini ruhoniylar o'zlashtirganlar; 1650-yilda Fransiyada fuqarolik senzurasi ta'sis etilgandan keyin, Parij universitetining ilohiyot fakulteti yangi o'rnatilgan bu qonunga qarshi chiqib, ikki yuz yil mobaynida mana shu huquqdan foydalanib kelgalligini da'vo qiladi.

Ko'p o'tmay kitob bosib chiqarishga joriy etish (118) bo'yicha Angliyada senzura tasdiqlandi. O'z vaqtida Angliyada xuddi Ispaniyadagi inkvizitsiya yoki Rossiyadagi Maxfiy kanselariya singari juda dahshatli bo'lgan *Yulduzlar palatasi* (119) bosmaxonalar va bosma dastgohlar sonini aniqladi; uning ruxsatisiz hech kim biror narsa bosib chiqarishga jur'at qilolmagan xaloskorni ta'sis qilgan. Uning hukumatga qarshi yozganlarga nisbatan shafqatsizliklari hisobsiz, uning tarixi ham bunday shafqatsiz amallari bilan to'libtoshib ketgan. Shunday qilib, agar Angliyada diniy xurofot tafakkurning bo'yniga senzuraning og'ir jilov solish qudratiga ega bo'lmasa, bu ish siyosiy xurofot zimmasiga yuklatilgan. Ya'ni unisi ham, buni si ham pishib yetilib, hukumat to'liq bo'lsin, ma'rifat ko'zlar har doim joziba pardasi bilan to'silsin va idrok hisobidan zo'ravonlik hukmronlik qilsin.

Graf Strafordning¹ o'limidan keyin Yulduzlar palatasi ham barham topdi; biroq na uning tugatilishi va na Karl I²ning o'limga hukm qilinishi Angliyada kitob bosib chiqarish erkinligini tasdiqlay olmadidi. *Davomli parlament* (120) palata tomonidan amalga oshirilganlarga qarama-qarshi ravishda undan ilgarigi qoidalarni yangiladi. Karl II va Yakov I³ davrida ular yana yangilandi. Hatto 1692-yildagi o'zgarishda⁴ ham bularni qonunlashtirish tasdiqlandi, ammo faqat ikki yilga. 1694-yilda esa bosib chiqarish erkinligi Angliyada mutlaq tasdiqlandi, *senzura oxirgi marta bir og'zini ochib, so'ng o'ldi* (121). Mazkur holat bo'yicha Volterning Daniya qiroliga qaratilgan she'rlari hatto eng oqilona deb topilgan qonunlarni ham *maqtashga shoshamaslik lozimligini eslatib o'tadi* (122).

Amerika hukumati fuqarolik erkinligini tasdiqlovchi birlamchi qonunlar bilan bosib chiqarish daxlsizligini qabul qildi. Pensilvaniya shtati o'zining ta'sis to'g'risidagi Nizomining Pensilvaniya aholisini huquqlari yuzasidan taqdim etilgan qoidalar to'g'risidagi 1-bobining 12-moddasida shunday deyiladi: «Fuqarolar so'zlash, yozish va o'z

¹ Graf Straford (Strafford) 1641-yilda Davomli parlament (1640–1653) tomonidan o'limga mahkum qilingan (*tarj.*).

² Karl I (1600–1649) 1649-yilda parlament tomonidan tashkil qilingan tribunal tomonidan qatl etilgan (*tarj.*).

³ Karl II va Yakov II – 1660-yildan 1688-yilgacha taxtni boshqarishgan (*tarj.*).

⁴ Almashinuv – taxtga Vilgelm III (1688–1702)ning o'tirishi (*tarj.*).

fikrlarini xalqqa yetkazish huquqiga ega; binobarin, bosib chiqarish erkinligi ham hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirilishi lozim». Boshqaruv shakli to'g'risidagi 2-bobning 35-bo'limida: «Qonun chiqaruvchi majlis yoki boshqaruvning boshqa tarmoqlari hujjatlari o'rganishni istaganlar uchun bosib chiqarish erkinlik asosida amalga oshirilsin». Pensilvaniya davlatidagi boshqaruv shakli to'g'risidagi aholi u to'g'risida o'z fikrlarini taqdim qilishi uchun mo'ljallangan va 1776-yilning iyul oyida nashr etilgan loyihaning 35-bo'limida: «Boshqaruv qonunchiligin o'rganish istagida bo'lgan hamma uchun bosib chiqarish erkinlik asosida amalga oshiriladi va umumiyligini majlis o'zining hech qanday qoidalari bilan unga daxl qilolmaydi. Hech bir kitob bosib chiqaruvchi umumiy majlis harakatlari, umumiy ishlari yoki davlat xizmatchilarining axloqiy sifatlari hamda ularning o'z lavozim vazifalarini amalga oshirishga tegishliligi yuzasidan olib borgan kuzatuvlari, bergan bahosi va izohlari uchun sudga tortilmaydilar». Avar¹ davlatining shartli huquqlari to'g'risidagi ishining 23-moddasida shunday deyiladi: «Matbuot erkinligining saqlanishi daxlsizdir». Mariland davlati qonunlarining 38-moddasi ham xuddi shu ma'nodagi so'zlar bilan izohlanadi. Virjiniya hukumati fuqarolari huquqiga oid qonunchilik hujjatlarining 14-moddasida quyidagi so'zlar keltirilgan: «Matbuot erkinligi davlat erkinligining eng oliy darajadagi erkinlidir»².

Kitob bosib chiqarish 1789-yildagi o'zgarishlarga qadar³ Fransiyada davom etdi va e'tirof etish lozimki, hech qayerda bu davlatdagi kabi sharmandali holat yuz bermagan. Yuzta ko'zli Arg, yuzta qo'lli Briarey⁴, Parij politsiyasi yozuvchilar va ularning yozganlariga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo'ldi. Bastiliya zindonlarida vazirlarning zo'ravonliklari, ularning axloqsizlarini keskin tanqid ostiga olib, ochib berishga jur'at qilgan yozuvchilar azob chekib yotishardi. Agar fransuz tili, faqatgina Yevropaning o'zidagini qo'llanilib qolganida, agar bu til umumiy til sifatida yoyilmagani-

¹ Avarlar – oltinchi asrda Dunay atrofiga bostirib kelib, shu yerda o'rnashib qolgan va o'z hukumatini tuzgan turkiy qabilalar (*tarj.*).

² Mariland (*Merilend*), Virjiniya – AQSH shtatlari (*tarj.*).

³ 1789-yilgi o'zgarishlar – Fransiyada burjuaziya inqilobining boshlanishi (*tarj.*).

⁴ Arg (*Argus*) va Briarey – yunon mifologiyasi pahlavonlari; Argus – hushyor qo'riqchi, Briarey – oliy xudo Zevsning himoyachisi (*tarj.*).

da, unda senzura qamchisi ostida katta to'siqlar o'rnatgan Fransiya juda ko'plab fransuz yozuvchilari ko'tarib chiqishgan buyuk fikrlar bilan hech qachon dong taratmagan bo'lardi. Biroq fransuz tilidan keng foydalanish Gollandiya, Angliya, Shveysariya va Germaniya zaminida kitob bosib chiqarishning kirib kelishiga turki bo'ldi va Fransiyada yuzaga chiqarilmay bo'g'ib qo'yilgan barcha manbalar boshqa joylarda e'lon qilina boshladi. Mana shu tarzda mushaklari bilan maqtangan kuch o'z dahshatini namoyon qila olmadni va mas-xara bo'lib qoldi; mana shu tarzda ko'pik sachratayotgan vahsiy jag'lar ochilgancha bo'sh qoldi va qattiq so'zlar ularning yutumidan sirg'alib chiqib ketdi.

Ammo inson tafakkurining nomuvofiqligiga ajablansa bo'ladi. Bugun Fransiyada hamma erkinlik to'g'risida jar solayotgan, o'zboshimchalik va boshboshdoqlik o'z imkoniyatlarining eng so'nggi chegaralariga yetib kelgan bir paytda, Fransiyada senzura barham topmadni. Shunday bo'lsa-da, bu yerda bugun hamma narsa maxfiy tarzda bosib chiqarilib, ommaga taqdim qilinayotgandi. Biz yaqinda o'qidik – fransuzlar o'zlarini va insoniyat qismati uchun yig'lasinlar – biz yaqinda o'qidikki, xalq yig'inlari bugungi kunga qadar ham yakkahokimlik boshqaruvida bo'lib o'tmoqda, hukmdor bosib chiqarilgan barcha kitoblarni kuch bilan tortib oldi va uning mualliflarini xalq yig'iniga qarshi fikrlarini yozishga jur'at etgani uchun sudga tortildilar. *Lafaet bu hukmlarning ijrochisi edi* (123). O, Fransiya! Sen hali ham Bastiliya halokati yaqinida yuribsang.

Nemis zaminida kitob bosib chiqarish uskunalarining ko'payishi va bu uskunalarning hukumat ko'zidan yashirilishi uni tafakkur va ma'rifatga qarshi shafqatsizlarcha kurash olib borish imkonidan mahrum qiladi. Nemislarning kichik boshqaruvlari garchi kitob bosib chiqarish erkinligini chegaralashga harakat qilgan bo'lsalar-da, ammo bu harakatlari hech qanday samara bermadi. Garchi qasoskor hukumat Vakerlinni¹ panjara ortiga tashlagan bo'lsa ham, uning «Kulrang maxluq» jurnali hammaning qo'lida qolib ketdi. Prussiyaning marhum qiroli Fridrix II o'z mamlakatida bosmaxonalarga deyarli erkinlik berdi, faqat u buni qaysidir qonunlar bilan emas,

¹ Vekerlin Vilgelm Lyudvig (1739–1792) – nemis yozuvchisi, «Kulrang maxluq» jurnalini bosib chiqargan (*tarj.*).

balki ruxsatnama va o‘z fikrlarini bildirish tarzida amalga oshirdi. Uning senzurani yo‘q qilmaganiga ajablanmang; u avtokrat bo‘lgan va hamisha ishtiyoq bilan qudratli hukmdor bo‘lishga intilgan. Biroq kulishdan o‘zingizni tutib turing. U o‘zi chiqargan farmonlarni kimdir to‘plab, chop etmoqchi bo‘lganini bilib qolgan. Qirol ularga ham ikki nafar senzurachjni, aniqroq aytadigan bo‘lsak, ikki nafar sifat nazoratchisini qo‘ydi. O, sen, hukmdorlik! O, bu kuch-qudrat! Sen o‘z mushaklaringga ishonmaysan. Sen o‘zingning shaxsan ayblovlaringdan ham qo‘rqasan, o‘z tiling o‘zingni sharmanda qilishidan, o‘z qo‘ling o‘zingni bo‘g‘ib qo‘yishidan qo‘rqasan! – Ammo bu zo‘ravon senzurachilaring, nazoratchilaring qanday foyda keltirishi mumkin? Yo‘q, ular foyda emas, zarar keltirishadi. Ular avlodlar ko‘zidan bo‘lg‘usi hukumat hukmiga qoldirishga uyaladigan, agar oshkor qoldirsalar, u hukumat qo‘lidagi jilovga aylanishi mumkin bo‘lgan qandaydir bema’ni qonunlaringni yashirdilar, bu be‘manilikka jur‘at qilmadilar. *Imperator Iosif II (124)* Avstriya vali ahdlari boshqaruvida, Mariya Tereziya¹ hukmronlik qilgan davrda tafakkurni og‘irlashtirgan ma‘rifat to‘sig‘ini qisman buzdi; ammo u o‘z yelkasidan xurofot yukini olib tashlolmadi va senzura to‘g‘risida uzundan uzoq qo‘llanma ishlab chiqdi. Agar biz u o‘z qarorlarini tanqid qilishni, uning xatti-harakatlaridan kamchilik topishni va bu tanqidlarni yozish va bosib chiqarishni taqiqlamaganligi uchun uni maqtashimiz lozim bo‘lsa-da, biroq fikrlarni sharhlash borasida to‘siq qo‘yanligi uchun uni qoralaymiz. Bunday yovuzlik yo‘lida foydalanish qanchalar oson!² Biz nega ajablanish kerak, degan gapimizni yana takrorlaymiz: u shoh bo‘lgan. Endi aytинг-chi, shohdan boshqa yana kimning miyasida ko‘proq nomuvofiqlik bo‘lishi mumkin?

Rossiyada... Rossiyada senzura borasida nima ro‘y berdi, buni boshqa vaqt bilib olasiz (125). Endi esa, pochta otlarini senzuradan o‘tkazmay, shoshilib, yo‘lga otlandim.

¹ *Iosif II* (1741–1790) – Avstriya imperatori, Mariya Tereziya (1717–1780) merosxo‘ri, bosishga erkinlik bergen, biroq keyin yana unga to‘siq qo‘yan (*tarij*).

² So‘nggi xabarlardan biz Iosif II merosxo‘rining o‘zidan oldingilar tomonidan yo‘q qilingan senzura komissiyasini tiklash niyatida ekanini o‘qishimiz mumkin. (*muallif*)

«Dalada qayin daraxti o'sgandi, barglari jimjima qayin daraxti, oy lyuli, lyuli, lyuli, lyuli»... Qiz-juvonlar xorovod raqsiga¹ tushishadi.

– Yaqinroq boramiz, – dedim men o'zimga do'stimning topilgan qog'ozlarini varaqlay turib. Biroq men uni o'qishga tutindim. Xorovodgacha yetib borolmadim. Alamdan quloqlarim bitib qoldi va samimiyl o'yin-kulgining quvonchi yuragimgacha yetib bora olmadi. O, mening do'stim! Qayerda bo'lma, quloq tut va hukm qil².

Har haftada ikki marta (126) butun Rossiya imperiyasiga N.N. yoki B.B.ning to'lov qurbiga ega emasligi yoki istamasligi tufayli qarzini to'lamayotganligi, qarz olganligi yoki undan nimani talab qilishayotganligi to'g'risida xabar beriladi. Qarz olgan yoki yutqazgan, o'tib ketgan, yashagan, yeb qo'ygan, ichib qo'ygan. ...gan yoki tarqatib yuborilgan, olovda yoki suvda yo'qotilgan yoki N.N. yoki B.B. boshqa biror hodisa tufayli qarzga kirib ketgan yoki undirilyapti. Ikkalasi ham bayonotlarda teng darajada qabul qilinadi. So'ng esa matbuotda e'lon qilinadi: «Bugun, falon sanada, tungi soat o'nda uyezd sudi yoki shahar boshqarmasining qaroriga muvofiq kimoshdi savdosida ist'e'fodagi kapitan G.ning ko'chmas mulki, faloncha bo'limdan iborat falon raqamli uyi va u bilan birga erkak va ayollar dan iborat olti nafar jon sotiladi. Kimoshdi savdosi mazkur uyning o'zida bo'lib o'tadi. Xohlovchilar oldindan kelib ko'rib ketishlari mumkin».

Arzon narsaning xaridori hamisha ko'p bo'ladi. Kimoshdi savdosi kuni va vaqt yetib keldi. Xaridorlar birin-ketin kirib kelishmoqda. Savdo o'tkaziladigan zalda uyni sotishga mahkum qilinganlar qimir-lamay turishibdi. Yetmish besh yoshli qariya qayrag'ochdan yasalgan hassasiga tayangancha, taqdir uni kimning qo'liga topshirishini va uning ko'zini yopishni qismat kimga buyurishini taxmin qilishga harakat qilyapti. U xo'jayinining otasi bilan feldmarshal *Minix*

¹ Xorovod – aylana bo'lib tushiladigan rus xalq raqsi.

² A.M. Kutuzov, Radishchev murojaati qaratilgan do'sti, 1789-yilda Berlinda bo'lgan. Davomida «Kelajak loyihalari» («Xatilov», «Vidropusk») bitiklari muallifi keltiriladi (*tarj.*).

boshchiligidagi Qrim yurishida bo‘lgan (127). *Frankfurtdagi jangda* (128) u o‘zining yaralangan xojasini yelkasida ko‘tarib, safdan olib chiqqan. Uyga qaytishgach, u hozirgi yosh xo‘jayinining sevimi li amakisiga aylangandi. Yosh xojasini bolalik chog‘larida cho‘kib ketishdan qutqarib qoldi, ya‘ni hayotini xavf ostiga qo‘yib, harakatlanayotgan paromdan, u yiqilgan joydan o‘zini daryoga otdi. Yoshligida pul badali evaziga uni turmadan olib chiqdi, u gvardiyadagi unter-ofitserdan olgan qarzini to‘lay olmagani uchun qamalgandi.

Sakson yoshli keksa ayol, uning rafiqasi, yosh xojasining onasi ga enagalik qilgan va uni emizib katta qilgan, keyin esa yosh xojaga enagalik qilgan; bu ayol uy mana shu soatlarda kimoshdi savdosi o‘tkazilayotgan vaqtga qadar uyni nazorat qilib turardi. U bu uydagisi o‘z xizmati davomida hech qachon ularga zarar yetkazmadi, hech qachon tamagirlik qilmadi, hech qachon yolg‘on gapirmadi; agar qachondir qattiqroq gapirgan bo‘lsa ham, faqat o‘z haqiqatini himoya qilish uchun, adolat uchun gapirdi.

Qirq yoshli ayol, beva, o‘zining yosh xo‘jayinini emizib katta qilgan. Hanuzga qadar unga nisbatan o‘zgacha mehrni his qiladi u. Chunki xojasining tomirlarida bu ayolning ham qoni oqmoqda. U ikkinchi onaday bo‘lib qolgan va xojasi o‘z tuqqan onasiga nisbatan ham mana shu ayol oldida ko‘proq qarzdor. Negaki o‘z onasi o‘z vaqtixushligi hosilasi o‘laroq unga homilador bo‘ldi, uning bolaligi uchun jon kuydirmadi. Sut bergen onasi va enagasi uning tarbiyachilari ham edilar. Ular u bilan xuddi o‘g‘illaridek kuyinib ayrilishadi.

18 yoshli qiz, xojani emizgan ayolning qizi, qariyalarning nabirasi.

Vahshiy hayvon, maxluq, gazanda! Unga qara, uning qizariib turgan yonoqlariga, maftunkor ko‘zlaridan oqib tushayotgan yoshlariiga boq! Sen emasmi, maftun etolmagach va va’dalar bilan uning iffatini qo‘lga kiritolmagach, na tahdid va na qyinoqlar bilan qo‘rjitolmagach, axiyri hiyla ishlatgan? Sen uni o‘z yaramasliklaring sheringiga nikohlading va uning qiyofasida u sen bilan bo‘lashishga hazar qilgan xushbaxtlikdan rohatlanding. U sening yolg‘oningni bilib qoldi. Uni nikohiga olgan odam boshqa uning to‘sagiga yaqin-

lashmadi, sen esa uning senga ovunchoq bo‘lish maylidan mosuvo bo‘lib, kuch ishlatding. Sening istaklarining amalga oshiruvchi to‘rt nafar yovuz uning qo‘l va oyoqlarini ushlab turishdi... Ammo bu bilan tugamadi. Uning manglayida alam, ko‘zlarida umidsizlik bor. Uning qo‘lida yig‘lab turgan chaqaloq esa yolg‘on yoki tajovuzning mevasi, biroq zinokor otasining tirik nusxasi. Bu bolani dunyoga keltirgach, qiz uning otasining hayvoniyligini unutdi, bolaga nisbatan qalbida mehrni his qila boshladi. Qiz endi unga o‘xshaganlarning qo‘liga tushishdan qo‘rqadi.

Go‘dak bola... U sening o‘g‘ling, nodon, u sening qoning. Yoki cherkov marosimi bo‘limgan joyda mas’uliyat ham bo‘lmaydi, deb o‘ylaysanmi? Yoki sening buyrug‘ing bilan yollangan vakilning Xudoning so‘zlarini bilan bergen fotihasi ularning qovushmog‘ini tasdiqlaydi, deb o‘ylaysanmi? *Yoki ibodatxonada kuch ishlatisch yo‘li bilan o‘qilgan nikohni Xudo ittifoq, deb hisoblaydi, deb o‘ylaysanmi?* (129) Qodir egam majburlovnı yaramas ish deb qabul qiladi, u qalblarning istaklari bilan huzurlanadi. Faqat mana shunday qalblar beg‘ubordirlar. O! Oramizda qanchadan qancha xiyonatlar va tajovuzlar quvonchlar otasi va qayg‘ularda tasalli beruvchi nomi bilan amalga oshiriladi va uning o‘z martabasiga loyiq bo‘limgan guvohlari huzurida amalga oshiriladi.

Yigirma besh yoshga kirgan davangirday yigit, uning nikohdan o‘tgan eri, o‘z xo‘jayinining sherigi va ishonchli odami. Ko‘zlarida qasos va vahshiylig o‘ti yonib turibdi. Xo‘jayinining ko‘ngliga yoqish uchun qilganlaridan afsus qiladi. Cho‘ntagida pichoq; uni qattiq siqqancha ushlab olgan; uning xayolidagini uqib olish qiyin emas... Samarasiz shasht. Boshqaga tegishli bo‘lasan. Qullari doimiy ravishda boshi ustida ko‘tarib yuradigan xo‘jayiningning qo‘li sening bo‘yningni xohlagan mayli tomon buradi. Tekislik, ayoz, jazirama, jazo – hammasi senga qarshi bo‘ladi. Ezgu fikrlar sening tafakkuringdan begona. Sen o‘lib o‘lolmaysan. Sen tiz cho‘kasani va xuddi jisming yanglig‘ ruhing ham qulga aylangan. Agar qarshilik qilmoqchi bo‘lsang, zanjirlarda ruhsiz o‘lim topasan. Orangizda hech qanday qozi yo‘q. Zulmkoringning o‘zi seni jazolashni istamaydi. U sening aybllovching bo‘ladi. U seni shahar adolat sudiga topshiradi. – Adolat sudi! – ayblanuvchi deyarli o‘zini oqlashga hu-

quqi bo‘lmagan joy. – Kimoshdi savdosiga olib chiqilgan boshqa sho‘rpeshanalar yonidan o‘tamiz.

Dahshat yetaklab yuruvchi bolg‘aning birinchi sokin zarbidanoq to‘rt nafar baxtiqaro o‘z qismatlarini anglab yetdilar – ko‘z yoshlari, faryod va nolalar yig‘ilganlarning quloqlarini qomatga keltirdi. Eng toshbag‘irlar ham larzaga keldi. Tosh qotgan yuraklar! Samarasiz hamdardlik! *Ey, kvakerlar!* (130) Agar sizda yurak bo‘lganda, biz bilan birga bo‘lardingiz va bu sho‘rpeshanalarni sotib olib, ularga ozodlikni hadya etgan bo‘lardingiz. Ko‘p yillardan beri birga, bir-birining bag‘rida yashagan bu bebaxtlar jirkanch bu savdoda o‘z ayriliq azobini his qilib turardilar. Ammo agar qonun – ehtimol yovvoyi udumlar, deganimiz yaxshiroqdir, negaki bular qonunlarda aks etmagan – insoniyatni shu qadar masxara qilishga yo‘l qo‘yib berar ekan, mana shu go‘dakni sotishga qanday haqqingiz bor? *U noqonuniy dunyoga kelgan. Qonun uni ozod qiladi* (131). To‘xtab turing, men yetkazib beruvchi bo‘laman, men uni qutqaraman. U bilan birga boshqalarni ham qutqarishning imkonni bo‘lganda edi! O‘z taqsimoting bilan nega meni ranjitding? Bugun sening maftunkor ni-gohlaringdan tatib ko‘rishga intiqman, birinchi bor boylikka bo‘lgan ishtiyoyqni his etmoqdaman.

Yuragim shu qadar siqilib ketdiki, yig‘ilganlar orasidan otolib chiqib, hamyonimdagagi so‘nggi pulimni bebaxtlarga berdim va bu yerdan yugurib chiqib ketdim. Zinadan tushayotganimda menga *chet ellik do‘stlarimdan biri* (132) uchrab qoldi.

– Senga nima bo‘ldi? Yig‘layapsanmi?

– Orqingga qayt, – dedim unga, – sharmandagarchilikdan iborat bu manzaraning guvohi bo‘lma. Sen qachondir o‘z vataningdagi eng chekka hududlarda qora tanli qullarni sotishga ruxsat beradigan yovvoyi odatni qoralagan eding; ortingga qayt, – takrorladim men, – bizdagi ahmoqgarchilikning guvohi bo‘lma va o‘z vatandoshlaring bilan suhbatlashganingda ularga bizdagi urf-odatlar haqida gapirganganingda bu sharmandagarchilik haqida ham ma’lumot yetkazishingni istamayman.

– Men bunga ishonolmayman, – dedi menga do‘stim, – har kim xohlagan narsasiga ishonishiga va xohlagan narsasi haqida fikrlashi-

ga ruxsat etilgan yerda bu qadar sharmandali holat odat tusiga kirganganiga ishonish qiyin.

— Hayron bo'lma, do'stim, — dedim men unga, — e'tiqod masalasida erkinlikning o'rnatilishi faqat pop va rohiblarni ranjitadi, ular Iso Masihning suruvidagi qo'ylardan ko'ra, ko'proq o'zlarining suruvlari uchun qo'y toplashni istashadi. Lekin qishloq aholisiga erkinlik berilishi, ular aytishganidek, mulkchilik huquqini buzadi. Ozodlik uchun barcha kurasha oladiganlar bo'ladimi, barcha buyuk vatanparvarlar bo'ladimi, ozodlikni ularning maslahatidan emas, balki qullikning o'zidan, uning og'ir yukidan kutish lozim.

Tver

— Bizda she'riyat, — gap boshladi do'stim restoranda tushlik ustida, — uni qabul qilishning turli ma'nolarida hali ham buyuklikdan yiroq. Nazm uyg'ongan edi, ammo bugun yana mudramoqda. She'riyat nazariyasi esa bir marta qadam tashladi va to'nkaga aylandi.

Lomonosov bizning she'rlarimiz polyaklarning kulgili liboslaril' bilan bezatilganini anglab qoldi (133) va ulardan nomunosib, yarashmagan chakmonni yechib oldi. U yangi she'rlarning chiroyli namunalarini taqdim etdi va u o'z izdoshlariga buyuk namuna jilovini kiydirdiki, hanuzga qadar uni otib yuborishga jur'at qilgan emas. Afsuski, Sumarokov ham ayni davrda yashadi va u tengi yo'q shoir edi. U she'r yaratishda Lomonosovning namunasiga ergashdi. Bugun ularning ortidan borayotganlar boshqa she'rlar ham mana shu ikki darg'a yozgan vaznda bo'lishi mumkin ekanligini tasavvur qilmayaptilar. Garchi bu ikkala shoir ham she'rning boshqacha tuzilishidan saboq bergen bo'lsalar ham va Sumarakov hamma shakllarda she'r namunalari qoldirgan bo'lsa ham, ular shunchalar ahamiyatsiz ediki, hech kim ularga taqlid qilishni lozim topmadidi. Agar Lomon-

¹ *She'rlarning polyakcha kiyintirilishi* – nazmnинг g'arb, ayniqlsa, polyak she'riyatining ta'siridagi sillabik she'r tuzilishi (misralardagi bo'g'irlarning tengligiga asoslangan) nazarda tutilmoqda. Lomonosov va Trediakovskiyda tonik, ya'ni urg'uli va urg'usiz bo'g'irlarning ma'lum tartib bilan kelishiga asoslangan she'r yozishgan. Radishchev vaznni qoidalashtirishga qarshi chiqadi, rus she'rlarning to'liq hajmliligini yoqlaydi.

sov Iova yoki diniy (psalom) qo'shiqlarni¹ daktil² tuzilishida taqdim qilgan bo'lsa, Sumarakov «Semir» (1768-y.) va «Dmitriy» (1771-y.)ni xorey vaznida yozgan bo'lsa, ehtimol Xoreskov ham vazndan boshqa tuzilishda she'r yozish mumkin va bu bilan Qozonning olinishi to'g'risida o'ziga xos tarzda she'riy epopeya yozib, yetti yillik mehnatiga evaziga topgan shuhratidan ko'prog'iga erishish mumkin, deb o'ylagan bo'lardi³. Agar Virgiliyada Lomonosov andazasidagi qulinqchinni kiyib yurishsa, hayron bo'lmanag bo'lardim; lekin Homer bizning oramizda vaznsiz namoyon bo'lishini tilagan bo'lardim, ammo she'rlarda va shunga o'xshash olti misralik musaddaslarda, Kostrov⁴ ham garchi shoir emas, tarjimon bo'lsa ham, she'riyatning takomillashishini tezlashtirib, butun avlodlarga bizning she'riy shaklda yangi davrni boshlab bergen bo'lardi.

Ammo rus she'riyati nazariyasini to'xtatgan faqatgina Lomonosov va Sumarov bo'lmadilar. Tinim bilmas aravakash Trediakovskiy ham o'zining «Telemaxida»si⁵ bilan bunga kam hissa qo'shmadi. Endilikda yangi she'riy shaklda namuna ko'rsatish juda ham qiyin, negaki she'riy shakllarning yaxshi-yu yomon namunalari chuqur ildiz otib ketdi. Parnas turoqlar bilan qamrab olingan, qofiyalar ham hamma joyda qorovullikda turishibdi. Kim bo'lmasin, daktil bilan yozishni o'ylamasa, unga darrov Trediakovskiyi amakjon qilib qo'yishadi va toki Milton, Shekspir yoki Volter dunyoga kelgunga qadar, eng ajoyib tug'ilgan farzand ham majruh bo'lib tuyuladi. *Shunda unutilib, mox bosib ketgan qabrdan Trediakovskiyi kovlab olishadi* (134), «Telemaxida»dan ajoyib misralarni topishadi va namuna sifatida ko'rsatishadi. Sizning qofiyaga o'rganib qolgan qulinqlarining uzoq vaqt yaxshi yangilikni qabul qilishga xalaqit qila-

¹ Lomonosovning shu ko'rinishdagi «Iovadan olingan Oda» (Injil qismlarining erkin talqin qilinishi) va «Psalom bayoni» (Psalom kitobini tashkil etuvchi diniy, ruhiytalimiy qo'shiqlarning bayoni) nomli asarlari mavjud (*tarj.*).

² *Daktil* – urg'u birinchi bo'g'inga tushadigan uch hijoli turoq (*tarj.*).

³ Shoir M.M. Xeraskovning (1733–1807) yetti yillik mehnati – «Rossiyada» poemasi (1771–1779), unga namuna bo'lib «Eneida» (Vergiliya) xizmat qilgan, shuningdek, «Illiada» va «Odisseya» (Homer) (*tarj.*).

⁴ Kostrov Y. I. (1750–1796) – «Illiada»ni tajima qilgan (*tarj.*).

⁵ «Telemaxida» ruscha musaddasda (qofiyasiz olti turoqli: besh daktil va bir qator xoreyda yozilgan she'r) yozilgan.

ladi. Uzoq vaqtlardan beri she'rlarda misralarning tugallanishidagi bir xil ohangini eshitib kelganingiz tufayli qofiyasizlik qo'pol, notekis va betartib tuyuladi sizga. Fransuz tili Rossiyada boshqa tillarga nisbatan ko'proq qo'llanila boshlangunga qadar shunday bo'lib qoladi. Bizning hissiyotlarimiz yosh va egiluvchan nihol singari erkin tarzda to'g'ri yoki qiyshiq shakllanishi mumkin. Bundan tashqari, she'riyatda ham urfga kirish hukmronlik qilishi mumkin va agar unda biroz bo'lsa ham tabiiylik bo'lsa, u holda u hech qanday to'siqlarsiz qabul qilinadi. Ammo hamisha urfga kirgan narsa o'tkinchi bo'ladi, buni, ayniqsa, she'riyatda kuzatish mumkin. Tashqi shakldagi jilo tussizlanishi mumkin, biroq ichki tabiiy go'zallik hech qachon so'nmaydi. Homer, Vergiliy, Milton, Rasin, Volter, Shekspir, Tasso kabi buyuk ijodkorlarning asarlari inson zoti bor ekan, abadiy o'qilaveradi.

Siz bilan rus tiliga xos bo'lgan turli shakldagi she'rlar xususida suhbatlashishni ortiqcha, deb o'ylayman. She'riyatga oid qoidalarni biroz bo'lsa ham bilgan kishi vazn nima, xorey, daktil yoki anapist¹ nima ekanligini hamma biladi. Ammo men turli xil yo'nalishlar yuzasidan agar misollar keltirsam, bu ortiqchalik qilmasa kerak. Lekin mening kuchim ham, tushunchalarim ham yetarli emas. Agar mening maslahatim nimanidir amalga oshirishga qodir bo'lsa, unda men, rus she'riyati, umuman rus tilining o'zi ham, agar she'riy tarjimalarda hamisha ham vaznlarga rioya qilinmasa ancha boyigan bo'lardi, deb aytgan bo'lardim. Agar «Genriada»ning tarjimasi vaznga solinmaganda, ko'proq epik poemaga xos bo'lgan bo'lar edi, qofiyasiz vazn esa prozadan ham yomonroqdir.

Yuqorida keltirilgan bu fikrlarning hammasi men bilan bir das-turxonda o'tirgan do'starning og'zidan bir nafasda aytildi va u shunday burrolik bilan so'zladiki, garchi vaznni himoya qilish va unda ijod qiluvchilar to'g'risida bir qancha asoslarim bo'lsa ham, men unga e'tiroz tariqasida hech narsa aytib ulgurmadi.

— Mening o'zim ham, — davom etdi u, — shu yo'nalishga mubtalo bo'lib, shu namunalar ortidan ergashdim va she'rlarimni vaznda yozdim, ammo ular qasidalar edi. Mana, o'sha qasidalardan qolgan

¹ Anapist — urg'u ikki urg'usiz bo'g'indan keyingi bo'g'inga tushadigan uch bo'g'inli she'riy turoq (*tarj.*).

bir bo‘lagi, qolganining bari olovda yonib ketdi; ammo bu qolganini ham avvalgi qismlarining qismati kutmoqda. Moskvada ikkita sabab bilan ularni bosib chiqarishni istashmadi: birinchisi, she’rlardagi fikr ravshan berilmagan va ko‘pgina she’rlarda ravonlik yo‘q; ikkinchi sabab esa, she’r predmeti bizning yerimizga xos emas. Men endi uni bosib chiqarishni so‘rash uchun, xuddi o‘z farzandlarini silab-siypalagan mehribon ota kabi, Moskvada birinchi sababga muruvvat yuzasidan qarab, ular bosib chiqarishmagan ikkinchi sabab tufayli Peterburgga yo‘l oldim. Agar sizga og‘irlik tug‘dirmasa, bir nechta misralarni o‘qib ko‘ring, – dedi u menga qog‘ozlarni uzatib. Men qog‘ozlarni o‘girib, quyidagilarni o‘qidim: – Erkinlik... Qasida... – Shu bitta sarlavhasi uchun she’rni bosib chiqarishdan bosh tortishdi. Ammo men juda yaxshi eslayman: yangi nizom yaratish to‘g‘risidagi ko‘rsatmada erkinlik haqida keltirilib, shunday deyiladi: «Erkinlik deb hamma qonunga birday itoat etishiga aytildi». Binobarin, erkinlik haqida bizda birgalikda gapiriladi.

1.

*O! Sen manbasisan har buyuk ishning,
O! Sen Yaratgandan muborak ne’mat,
Ozodlik, bebahov sovg‘a bilan teng,
Izn ber, seni qul kuylasin faqat.
Yuraging taft bilan to‘ldir limmo-lim,
Unda kuchli mushak zarb beradi jim,
Unda Brut va Tell¹ uyg‘onsin birga.
Ovozing ko‘ngliga g‘ulg‘ula solsin,
Shohlar taxt ustida pitirlab qolsin,
Qullik zulmatini to‘ldirgin nurga.*

Bu satrlarni ikki sababga ko‘ra qoraladilar; «qullik zulmatini to‘ldirgin nurga». *Bu satr judayam dag‘al, T harfi ketma-ket takrorlangani* (rus tilida «Bo свем рабства тьму претвори») va un-

¹ *Brut va Tell* – Brut Mark Yuniy (er.avv. I asr) – Sezarga qarshi bitimning rahbari, uning o‘ldirilishida ishtirot etgan. XVIII asrda reaksiyon oqsuyaklarning bu vakili ideal respublikachi bo‘lgan. Vilgelm Tell – afsonaviy mergan, Shveysariyani Avstriya zulmidan ozod etishda qatnashgan jangchi.

dosh harflarning qo'shilib ketishi, ya'ni «боства тъму претв.» – shu yerning o'zida o'nta undosh va uchta unli harflarning ishtirok etayotgani she'rni ifoda etishni og'irlashtiradi (135). Rus tilida esa xuddi italyan tilidagi kabi yoqimli yozish kerak... Garchi boshqalar she'rning noravonligida harakatning o'zidagi qiyinchilikning tasviriyy ifodasini topib, uni yaxshi yozilgan, deb hisoblashgan bo'lsada... roziman. Mana, yana boshqasini olib ko'raylik: «Ovozing ko'ngliga g'ulg'ula solsin, Shoxlar taxt ustida pitirlab qolsin». Shoxga g'ulg'ulaga tushishni tilash ham unga yovuzlikni ravo ko'rish bilan barobar; binobarin... Ammo men o'zim tomonidan bitilgan bu she'rdagi barcha satrlarga izoh berish bilan sizning me'dangizga tegmoqchi emasman. Tan olaman, ularning ko'pchiligi haq edi. Ruxsat bering, men sizning o'quvchingiz bo'laman.

2.

Men dunyoga keldim, sen ham men bilan...

Bu satrni yaqindan o'rganib ko'ramiz. Mana uning mazmuni: Inson tug'ilgandanoq hamma narsada erkendir...

3.

*Biroq nima bo'g'ar erkinligimni?
Istakka har yerda to'siqlar bisyor;
Umumhukmronlik tug'ildi xalqda,
Hukmron qismatga aylandi sobor¹.
Itoatkor uning bu jamiyati,
Har neda yakdillik uning niyati,
Umummanfaatda to'siq yo'q zinhor.
Umumboshqaruvida ko'rdim men hissam,
Umum irodasi meniki-la jam,
Jamiyatda qonun bo'lsa ustuvor.*

4.

*Bunda keng vodiylar sero't, serhosil,
Bunda dalalarda qizg'indir o'rim.*

¹ *Sobor* – butxona, bu yerda umumiylit ma'nosida kelmoqda (*tarj.*).

*Gulga kirgan nafis liliya butkul,
Zaytun soyasining ostida so 'lim.
Paros marmaridan ham oqroq,
Kunning nurlaridan yorqinroq.
Chor atrofda shaffof bo 'y cho 'zgan xram¹.
Bunda yolg'onlar-chun hech kim cho 'kmas tiz,
Bunda zarhal birla bitilgan shu so 'z:
«Begunohlar g'ami topgaydir barham».*

5.

*Zaytun novdasidan chambarak taqib,
Xarsang tosh ustida o 'tirar sokin,
Shafqatsizlik ila sovuqqon boqib
Loqayd Xudoyim.*

Va hokazo; qonun ibodatxonadagi xudo sifatida tasvirlangan, uning himoyachilar haqiqat va adolatdir.

6.

*Nigohga qat'iyat joylagan ko 'zi,
Atrofida titrab quvonch to 'kilgay.
Har narsaga birday boqadi yuzi,
Unda na nafrat bor, na mehr kulgay.
Unga begonadir xushomadgo 'ylik,
Andisha, martaba, amal va boylik,
Pora yo sovg'aga bo 'lmas ro 'baro¹.
Bilmas na qarindosh, na do 'st, na yotni,
Teng taqsimlar jazo va mukofotni,
Xudoning yerdagi qiyofasi u.*

7.

*Va bu maxluqotning borlig'i dahshat,
Go 'yo yuzta boshli ajdar singari
Muloyim, ko 'z yoshi oqar har soat,
Biroq jag'i to 'la og'udir bari.*

¹ *Xram* – ibodatxona, qasr (*tarj.*).

*Yerda hukumatni loyga qorgay u,
Ko 'kda hukmdorga yetib borgay u,
vatani shu yer, deb xabar yetadi.
Sharpalar atrofga yoyar zulmatni.
Biladi aldamoq va xushomadni,
Ko 'rday ishonmoqqa amr etadi.*

8.

*Zulmat bilan yopar u tafakkurni,
Yaltoqlik og'usi tarqalar har yon...*

Insoniyatdagi sezuvchanlikni o'tmaslashtiruvchi, unga qullik va gumrohlik bo'yinturug'ini solib, sovut kiydiradigan ilohiy xurofot tasviri:

Qo 'rqmoqni buyurdi u haqiqatdan...

Hukumat uni xudoning buyurgani deb ataydi, tafakkur esa – aldov deb.

9.

*Bepoyon kenglikka ko 'z tikamiz biz,
Nursiz taxt qullikka teng bo 'lgan joyga...*

Tinchlik va osoyishtalikda siyosiy va ilohiy xurofot bir-birini mustahkamlaydi.

*Birgalikda ezar jamiyat kuchin.
Biri tafakkurga jilov solay, der,
Biri erkinlikni yo 'ldan olay, der,
Xaspo 'shlaydi: umum manfaat uchun.*

10.

*Gar soyada qul tinch, bundan ne foyda,
Oltin mevalari bo 'lmas sira jam;
Tafakkur maqsaddan yuz burgan joyda
Qotib yotaverar buyukliklar ham.*

Va qullikning barcha salbiy oqibatlari, masalan: loqaydlik, dan-gasalik, muttahamlik, ochlik va boshqalar.

11.

*Takabburlik ila manglayin kerib,
Temir asosini ushlab, shoh albat,
Dabdabali taxtda mag'rur o'tirib,
Xalqda past tabaqa kas ko'rgay faqat.
Qorin qo'ygan, qo'lda o'lim xavfi bor:
«Yomonni ayayman etsam ixtiyor,
Istasam unga kuch etaman tortiq:
Kulsam, hamma kulib, topgaydir ma'ni,
Qovoq uysam g'ashlik bosar hammani
Buyursam yashaysan, buyurmasam yo'q.*

12.

Biz esa sovuqqon, quloq tutamiz...

Yutib to'ymas ilon singari, hamma bilan urishgancha shodumon va bayramona kunlarmizni zaharlaydi. Ammo garchi sening taxting atrofida hamma tiz cho'kkancha turgan bo'lsa ham, – titroqqa tush, erkinlikdan darak berib, o'sha qasoskor keladi...

13.

*Har yonda boshlandi taloto 'p va jang,
Umid qurol tutdi urush mahali;
Toj kiygan zulmkor qonlari bilan
O'z isnodin hamma shoshar yuvgali.
Ko'rdim, qilich dami chaqnar har yoqda,
Turli qiyofada ajal uchmoqda
Ko'z tikib yigitning mag'rur joniga.
Parchinlangan xalqlar, endi quvoning:
Qasoskor tabiat huquqidir chin –
Shohni olib keldi kunda yoniga.*

14.

*Ko 'zda olib yurgan riy pardasin
Maydalab, parchalab yirtib tashlabon.
Maqtanchoq va qaysar hukumat bilan
Ulkan tosh sanamin tepkilab chunon,
Yuz qo 'lli polvonni etib zanjirband,
Bir fuqaro yanglig ' uni qilar jalb,
Xalq o 'tirgan ul taxt sari yurmoqqa.
Dedi: «Taxtim uchun sen xiyonatkor!
So 'zla, tojimga ko 'z tikkan badkirdor,
Qanday jur 'at qilding qarshi turmoqqa?»*

15.

*«Senga qirmiz libos kiydirdim bu dam,
Jamiyatda saqla tenglikning kuchin,
Yesirga muruvvat ko 'rsatsin shoh ham
Begunohni g 'amdan qutqarmoq uchun,
Yesir ota hamdir, garchi bu dushvor,
Ammo murosasiz erur, qasoskor
Nopoklikka, yolg 'on, g 'iybatga, demak
Sharaf-la olqishlab uning xizmatin,
Yovuz illatlardan asrab qismatin,
Axloqni pokiza saqlamoq kerak».*

16.

«Dengiz yuzin qopladim kemalar bilan...»

Boylik va farovonlikka erishish usulini berdim. Istagim, dehqon o 'z dalalarining asiriga aylanib qolmasin va seni ham duo qilsin.

17.

*«O 'z qonimga o 'zim qilmayman shafqat,
Barpo qildim undan qudratli qo 'shin
Va qurollantirdim men misdan taroshlab,
Tashqi yovuzlarni jazolash uchun.*

*Itoat qilmoqni buyurdim senga,
Sen-la sharaf sari intildim. Menga –
Har ne mumkin umum manfaat uchun.
Zamin boyliklari olaman kovlab,
So 'ng metalni yo 'ngum bezab, jilolab,
Seni bezatmoqqa sarflayman kuchim».*

18.

*«Biroq menga bergen ont ni unutding.
Seni tanlaganim qo 'yding unutib.
Va turmush qurmoqni ovunchoq etding.
O 'ylading, menimas, o 'zni xudo deb.
Mening qilichim-la qonunni buzzding.
Mo 'minlarning barcha huquqin ezding.
Deding, haqiqatan lozim uyalmoq.
Bulg 'ading marazda yo 'llaringni ham,
Mendenmas, Xudodan so 'rading yordam,
Istading yuzimga bosmoqni oyoq».*

19.

*Ozuqaga ekin ekib, o 'tkazib,
Ayamayin o 'zni, zo 'riqdim, o 'rdim.
Qontalash ter bilan berdim yetkazib
Senga ushoqni ham bo 'lashib berdim.
Yetmas xazina-yu, boylik tog 'i ham,
Nechun senga ular bo 'layotir kam,
Nechun ko 'ylagim ham olding sen yirtib?
Sevgilingni maqtab, bo 'lding parvona,
Xotining nomusdan, ordan begona!
Yoki tan oldingmi pulni Xudo deb?»*

20.

*A 'lo ish-chun nishon qilding ixtiro,
Beorlikni qila boshlading tortiq.
Yovuzga qilichim ko 'rding sen ravo,
Iffat va 'da qilding bergandan ortib.
Himoyaga qo 'yib to 'p-to 'p lashkarni*

*Jangga boshladingmi yana ularni?
Bu basharga qanday jazo bo 'ldi-ya?
Jang qilasan, vodiy qonlarga to 'lib,
Afinada kimdir ichib, mast bo 'lib,
Esnab, atashi-chun «qahramon!» – deya.*

21.

Yovuz odam, yovuzlardan ko 'ra yovuzroq...

Sen barcha yovuzliklarni uyg‘unlashtirding va nishingni menga yo‘naltirding...

Sen o 'l! Sen yuz martalab o 'l!» –

dedi xalq...

22.

*Buyuk odam – qalbi makr-la to 'lgan,
Laganbardor erur, munofiq, shakkok,
Buyuk namunaga arzigaydirsang,
Yaxshidan ham faqat o 'zing yaxshiroq.
E tirof etaman, Kromvel,¹ yovuz,
Qo 'lingda hukumat – hukmron yolg 'iz.
Erkning poydevorin buzgan badkirdor.
Nasldan naslga o 'rgatding zimdan,
Xalqlar qanday qasos oladi sendan:
Karlning boshini uzgan badkirdor.*

23.

Va erkinlikning bu ovozi hamma joyda, eng so‘nggi manziliga-cha eshitiladi.

*Vechega² butun xalq oqib boradi,
Hatto cho 'yan taxtni qiladi vayron.*

¹ *Oliver Kromvel* (1599–1658) – ingliz burjua inqilobi davri diktatori, uning davrida parlament hukmi bilan qirol Karl I (1600–1649) qatl etilgan (*tarj.*).

² *Veche* – Qadimgi Rusda oliy hokimiyat organi bo‘lgan jamoat majlisi (*tarj.*).

*Samsondek' qasrni buzib yoradi,
Yiqilar makrga to'lgan shohmakon.
Tabiat asosin quradi qonun,
Ey, ozodlik ruhi, buyuksan butun!
Suyanch esa Rabning o'zi, begumon!*

24.

Keyingi o'n bir misrada erkinlikning hukmronligi va uning amal qilishi tasvirlangan; ya'ni uning himoyasi, osoyishtaligi, farovonligi, buyukligi...

34.

G'azabni junbishga solgan ishtiyoy...

Fuqaro tinchligin buzgaydir biroq...

*Otalar o'g'ilga qilgay adovat,
Nikohlar buzilar, ketar oqibat,*

va hukmonlik qilishning beedad istagidan kelib chiquvchi barcha oqibatlar...

35, 36, 37.

Hashamatning zararli oqibati tavsifi. O'zaro nizolar. Fuqarolik urushi. Mariy, Sulla², Avgust...

*Uyquning erkidan bezovtaman men.
Gullar bilan butkul o'ralsan aso...*

Buning oqibati – qullikdir...

¹ Samson – Injilda keltirilgan qadimiy bahodir, dushmanlari uchun butxona gumbazini buzib tashlagan (*tarj.*).

² Mariy, Sulla – Mariy Gay (er.avv.157–86-y.) – Rim sarkardasi. Diktatorlikka intilgan, Sulla bilan taxt talashib urishgan. Sulla Lutsiy Korneliy (er.avv.138–78-y.) – Rim diktatori (*tarj.*).

38, 39.

Shunday tabiat qonuni bor: zulmdan erkinlik tug‘iladi, erkinlikdan esa qullik...

40.

Bunga ajablanishga hojat yo‘q – inson aslida o‘lish uchun tug‘iladi.

Navbatdagi sakkiz misra vatanning kelajakdagi qismatiga oid bashoratlarni qamrab olgan, u bir necha qismlarga bo‘linadi. Va tezlashgan sari shuncha kengayib boraveradi. Ammo hali vaqt kelgani yo‘q. Qachon vaqt kelsa, o‘shanda...

Og‘ir tun zulfinin qo‘riqlar.

Egilayotgan hukumat oxirgi nafasida so‘zga qo‘riqchi qo‘yadi va yuzaga chiqib kelayotgan erkinlikni so‘nggi zarb bilan yo‘q qilish uchun bor kuchini to‘playdi.

49.

Ammo insoniyat zanjirbandlikda faryod chekadi va tabiatning buzilmas qonunlari asosida umid bilan ozodlik sari harakat qiladi. Va hukumat titroqqa tusha boshlaydi. Shunda hamma kuch birlashadi, shunda hukumat zalvarli bo‘ladi.

*Bir lahzada chayqaladi u.
Kunlarning ichidan tanlangan ey, kun!*

50.

*Menga eshitilmoxda tabiat sasi,
Birinchi ovoz – bu Xudo ovozi.*

Qorong‘i gumbaz chayqaldi va erkinlik nur socha boshladi.

– Va nihoyat tugadi, – dedi menga yangi yo‘nalishda yozuvchi shoir.

Men bundan juda xursand bo‘ldim va unga, ehtimol, she’rga nisbatan aytilgan e‘tirozlar yoqimsiz ekanini aytmoxchi bo‘ldim, lekin qo‘ng‘iroqcha jiringlab chaqirib qoldi, zero, qaysar fe’lli Pegasda¹ yo‘rg‘alab borgandan ko‘ra, pochta qirchang‘isida shoshilinch yo‘lga chiqqan ma’qulroq edi.

Gorodnya

Bu qishloqqa kirib kelarkanman, qulog‘im pardalariga she’riy ohanglar emas, balki qishloqdagi xotinlar, bolalar va qariyalarning qiy-chuvli ovozlari, qiyqiriqlari urildi. Aravam soyabonidan chiqib, ko‘chadagi bu g‘ala-g‘ovurlarning sababini bilishga qiziqib, aravamning pochta bo‘limiga ketishiga ruxsat berdim.

Odamlarning to‘dalaridan biriga yaqinlashib, bu yerda turganlarning yig‘i-sig‘isi va ko‘z yoshlariiga sabab bo‘lgan narsa *rekrut* (136), ya‘ni harbiy xizmatga askar olish ekanligini bilib oldim. Ko‘plab davlatga va pomeshchiklarga tegishli qishloqlardan rekrutta jo‘natish uchun odamlar yig‘ilib kelishgandi.

To‘dalarning birida, ellik yoshlarga kirgan kampir yigirma yoshlardagi yigitning boshidan ushlab olganicha, nola qilardi:

– Mening aziz bolaginam, meni kimga tashlab ketyapsan? Ota-onangning uyini kimga topshirasan?! Bizning dalamizda o‘t o‘sib yotibdi, kulbamizda esa mox. Men, sening bechora keksa onang ko‘cha kezib yurishim kerak. Men qartaygan kampirni kim isitib, sovuqdan asraydi? Uni kim jaziramdan panalaydi? Kim menga yedirib-ichiradi? Bularning hammasi yurakka unchalar og‘ir botmaydi, ammo so‘nggi nafasimda kim mening ko‘zlarimni yopadi? Mening onalik duolarimni kim qabul qiladi? Kim mening tananni hammamizning umumiyligi onamiz bo‘lgan nam tuproqqa qo‘yadi? Meni eslab, qabrimga kim keladi? Sening qaynoq ko‘z yoshlaring uning ustiga tommaydi, bundan mening ko‘nglim ham to‘lmaydi.

¹ Pegas – she’riy ilhom ramzi, yunon afsonalariga ko‘ra, qanotli ot. Tuyog‘ining zarbidan Gelikon qoyasida Ipokren bulog‘i ochilgan (*tarj.*).

Onaxonning yonida voyaga yetib qolgan bir qiz turardi. U ham faryod chekardi:

— Meni kechir, yuragim hamrohi, kechir meni, qizil quyoshim. Menga, sening unashirilgan qallig‘ingga endi hech qanday quvonch ham, shodumonlik ham yo‘q. Endi dugonalarim menga hasad qilmaydilar. Endi tong men uchun quvonch bo‘lib ko‘tarilmaydi. Meni alamlar ichra qoldirmoqdasan, ammo na beva ayolman va na erli xotin. Hech bo‘limganda bizning insoniylikdan yiroq bo‘lgan qariyalarimiz bizga nikohdan o‘tish uchun ruxsat berishganda edi; hech bo‘limganda, mening sevgilim, hech bo‘limganda bir kecha, aqalli bir kechagina mening oppoq ko‘ksimga bosh qo‘yib uxlaganingda edi. Ehtimol Xudoning menga rahmi kelgan va o‘g‘il farzand ato etgan bo‘larmidi.

Yigit esa ularga shunday dedi:

— Yig‘lashni bas qiling, yuragimni poralashni to‘xtating. Bizni hukmdorimiz xizmat uchun chorlamoqda. *Mening chekimga shustushibdi* (137). Xudoning irodasi bu. Kimning peshanasiga yashash bitgan bo‘lsa, u o‘lmaydi. Ehtimol, men sizning yoningizga polk bilan kelarman. Ehtimol, amaldor bo‘lgunga qadar xizmat qilarman. O‘zingizni bunchalar g‘amga qo‘ymang, aziz onajonim. Men uchun Praskovyushkani asrang.

Uni *iqtisodiy qishloqdan* (138) rekrutga berishgandi¹.

Yaqin oradagi boshqa bir to‘dada qulog‘imga butunlay boshqa cha gaplar chalindi. Bu to‘da o‘rtasida men o‘ttiz yoshlarga kirgan, o‘rtacha bo‘yli, to‘liq qomatli va atrofida turganlarga quvnoqlik bilan nigoh tashlab turgan yigitni ko‘rdim.

— Xudo mening ibodatlarimni eshitdi, — der edi u. — Bir bechoraning ko‘z yoshlari hammaning yupatguvchisiga qadar yetib bor-di. Endi esa, hech bo‘limganda bir narsani bilaman: mening taqdirim endi yaxshi yoki yomon xulq-atvorimga bog‘liq. Bugungacha

¹ Rus armiyasi 1870-yilgi harbiy islohotga qadar dehqonlardan rekrut tanlovi orqali ma’lum bir miqdordagi odam soniga nisbatan majburiy tarzda (1789-y.da yuz kishiga nisbatan bir nafardan) askarlikka olinardi. Davlat va iqtisodiy (monastirdan dehqonlarning iqtisodiy jamoasiga o‘tganlar) dehqonlar o‘z o‘rinlariga yer egalaridan maxsus sotib olingan dehqonlarni berar edilar. Yer egalarining dehqonlar bilan oldi-sotdisi bir necha bor taqiqlandi (1766, 1769, 1770), biroq buni to‘xtatib bo‘lmadi. Yangi taqiq Radishchev «Sayohat»ni nashr etishga bergen vaqtida amalga kirgan edi (1789) (*tarj.*).

u ayollarning qaysarligiga bog‘liq bo‘lib kelgandi. Meni endi bitta xayol ovutadi: sud hukmisiz gavron bilan jazolanmayman!

Uning so‘zlaridan shuni angladimki, u xo‘jayiniga ega odam edi, undan bu noodatiy qoniqishning sababini bilishga qiziqdim. Mening bu haqdagi savolimga u shunday javob berdi:

– Agar, janob, bir tarafingizga dor tikilgan bo‘lsa va ikkinchi tarafigizda chuqur daryo oqayotgan bo‘lsa, ikki halokat. Ikki o‘limning o‘rtasida turib, albatta yo chapga, yo o‘ngga, yoki, yo sirtmoqqa, yo suvgaga borishingiz lozim bo‘lsa, qaysini tanlagan bo‘ladingiz, aql va hissiyot qaysini tanlashga majbur etgan bo‘lardi? Men o‘ylaymanki, har qanday boshqa bir odam narigi qirg‘og‘iga suzib chiqqa olsam, xavfdan mosuvo bo‘laman, degan umid bilan daryoga borishni tanlagan bo‘lar edi. Hech kim arqonning bo‘yniga nisbatan mustahkammi yoki yo‘qligini sinab ko‘rishga rozi bo‘laman bo‘lardi. Menda ham shunday holat yuz berdi. Askar hayoti og‘ir, ammo sirtmoqdan yaxshiroq. Hatto mana shu tomonda hayoting yakun topganda ham u gavron ostida, temir qamchi ostida, kishanda, yerto‘lada, yalangoyoq, och, chanqagan holatda, har doimgi haqoratlar ostida azoblanib o‘lgandan ko‘ra yaxshiroq; janobim, garchi qullaringizni siz o‘z mulkingiz, deb bilsangiz va ko‘p hollarda hayvondan ham battar ko‘rsangiz ham, ammo ularning o‘ta achchiq baxtsizliklari ga qo‘srimcha ravishda ular hissiyotlardan mosuvo emaslar. Ko‘rib turibman, bu so‘zлarni dehqonning og‘zidan eshitish sizga ajablanli tuyulmoqda; lekin ularni eshitgach, nega siz birodarlarining, dvoryanning shafqatsizligidan ajablanmaysiz?

Rostini aytganda, haqiqatan ham soqoli qirtishlab olingan va *to‘q kaftan* (139) kiygan bu odamdan bu gaplarni kutmagan edim. Biroq qiziquvchanligimni qoniqtirish istagida undan, qanday qilib bu qadar past tabaqadan chiqib, asilzoda deb atashga nomuvofiq bo‘lgan ko‘pchilik odamlarda yetishmaydigan xislatga, ya’ni bunaqangi tu-shunchalarga ega bo‘lgani haqida aytib berishni so‘radim.

– Agar mening hikoyamni eshitishdan toliqib qolmasangiz, u holda sizga so‘zlab beraman: men qullikda tug‘ilganman, ya’ni sobiq xo‘jayinimning murabbiyiga o‘g‘il bo‘laman. Meni endi Vanka deb atamasliklaridan qanchalar xursandman, na haqoratl so‘zlar bilan chaqirishadi endi va na hushtak chalib. Mening keksa xojam

mehricon odam, aqli va yaxshi amalli, o‘z qullari ishtirokida ko‘p marta baqiradi, otamning ko‘p yillik xizmatlarini inobatga olib, meni ham boshqalardan ayro ko‘rdi va menga o‘z o‘g‘li bilan bir qatorda tarbiya berdi. Bizning oramizda deyarli farq yo‘q edi, yagona farq, uning ustida kiyib yuradigan chakmon movutdan bo‘lib, menikidan kaltaroq edi. Yosh boyaringa nimani o‘qitishsa, menga ham shunday saboq berishdi; talablar hamma narsada ikkimizga bir xil edi, maqtanishsiz aytishim mumkin, ko‘p narsalarni men yosh xo‘jayinimga ko‘ra yaxshiroq o‘zlashtirib olardim.

— Vanyusha, — dedi menga keksa barin, — sening baxting mutlaqo o‘zingga bog‘liq. Sen ilm olishga va axloq-odob qoidalari ni o‘rganishda o‘g‘limga nisbatan ko‘proq maylga egasan. U mening qanotim ostida boy va hech narsaga ehtiyoj sezmaydi, sen esa tug‘ilganingdan beri ehtiyojlar qurshovidasan. Demak, mening sen ga nisbatan g‘amxo‘rligimga munosib bo‘lishga harakat qil.

O‘n yetti yoshga yetganimizda men va yosh xo‘jayinim kuzatuvchi bilan birgalikda boshqa mamlakatga yuborildik, men bu yerda unga xizmatkor emas, balki hamroh bo‘lib ketishim ko‘zda tutilgandi. Meni kuzatayotib, keksa xo‘jayinim menga shunday dedi:

— Umid qilamanki, sen meni va ota-onangni xursand qilib, qaytib kelasan. Sen bu davlat hududida qulsan, ammo borayotgan yeringda ozodsan. U yerdan qaytganingdan so‘ng, tug‘ilganingdan buyon qo‘lingga taqilgan kishanni qaytib taqmaysan.

Biz besh yil chet elda bo‘ldik va so‘ng Rossiyaga qaytib keldik; yosh xo‘jayinim ota-onasining bag‘riga qaytganidan judayam shod edi, men esa, tan olaman, menga berilgan va’da bilan o‘zimni yupatib kelayotgandim. Yana vatanim tuprog‘iga qadam qo‘yarkanman, yuragim hayajon bilan tepinar edi. Va haqiqatan ham yosh xo‘jayinimning ko‘ngil sezgilari rost bo‘lib chiqdi. Rigada ekanimizda u otasining o‘limi to‘g‘risida xabar oldi. U bu xabardan larzaga tushdi, meni esa g‘am bosdi. Negaki, mening yosh xo‘jayinim bilan do‘stlik munosabatlarini o‘rnatishga bo‘lgan harakatlarim va ishonchim hamisha samimiyl bo‘lib kelgandi. U esa nafaqat meni yoqtirmasdi, hasad tufayli, ehtimol bu uning tor qalbi tufayli bo‘lsa kerak, meni yomon ko‘rardi.

Uning otasining o'limi to'g'risidagi xabarni eshitgach, qayg'uga botganimni ko'rib, u menga otasining bergen va'dasini unutmasligini, buning uchun men shunga loyiq bo'lishim lozimligini aytdi. Birinchi marta u menga mana shu gaplarni aytishga jur'at qildi, otasining o'limidan so'ng erkinlikni qo'lga kiritgach, u nazoratchisiga saxiylik bilan haqini to'ladi va uni qo'yib yubordi. Mening sobiq xo'jayinim to'g'risida haqiqat yuzasidan aytadigan bo'lsak, uning yaxshi sifatlari juda ko'p edi, ammo jur'atsizlik va yengiltabiatlilik uning bu sifatlarini xiralashtirardi.

Moskvaga qaytib kelganimizdan bir hafta o'tgach, mening sobiq xo'jayinim go'zal yuzli bir qizni sevib qoldi, ammo uning tashqi go'zalligi baxil qalbni, shafqatsiz va berahm yurakni o'ziga uyg'unlashtirib olgandi. U o'zining takabbur oilada olgan tarbiyasi o'laroq, faqatgina tashqi ko'rinish, boylik va martabani a'lo sifatlar darajasida hisoblardi. Ikki oydan so'ng u mening xo'jayinimga turmushga chiqdi va mening hukmdorimga aylandi. Shu kunga qadar men o'z darajamdagи o'zgarishni his qilmagandim va bu uyda uning o'rtog'iday yashab kelgandim. Garchi u menga hech narsani buyurmasa ham, ammo men uning hukmi va o'z qismatimni his qilgan holda, uning istaklarini bajo keltirar edim. Yosh xonim bu uy ostonasiga qadam qo'yishi bilanoq uning hukmdorlik pog'onasiga chiqishi mening taqdirimni og'irlashtirganini his etdim. To'ydan so'ng birinchi va keyingi oqshom, men unga turmush o'rtog'ining do'sti sifatida tanishtirildim va u odatiy er-xotinlik tashvishlari bilan band bo'ldi; biroq yangi turmush qurbanlar bilan hammamiz, yetaricha ko'pchilik bo'lib birinchi kechki ovqat uchun stol atrofida to'planganimizda va men, odatga ko'ra, quyidagi eng oxirgi stulda, o'z o'rnimda o'tirganimda, yangi sohibamiz o'z eriga yetaricha baland ovozda, agar u o'z rafiqasining mehmonlar bilan birga o'tirishini istasa, u holda qarollar uning bilan bitta stolda o'tirmasligi lozimligini aytdi. Shunda xo'jayinim menga qaradi va xonimning turkisi bilan xizmatkordan menga o'rnimdan turishim va xonanda ovqatlanishim to'g'risida xabar jo'natdi. Bu tahqirlash menga qay darajada og'ir ta'sir qilganini tasavvur qilib ko'ring. Men ko'zimdan oqib tushayotgan yoshlarimni yashirib, u yerdan chiqib ketdim. Keyingi kun ko'zga ko'rinishga jur'at qilmadim. Menden

xabar ham olmay, tushligim va kechki ovqatimni xonamga olib kиrib berishdi. Keyingi kunlar ham shunday o'tdi. To'ydan so'ng bir hafta o'tgach, bir kuni tushlikdan so'ng uyni ko'rib chiqib, barcha xizmatkorlarga vazifasini va yashash xonasini taqsimlab berar ekan, mening xonamga ham kirdi. Bu xona men uchun eski xo'jayinim tomonidan jihozlab berilgandi. Mening uyim yo'q edi. Uning men ga nima deganlarini takrorlamayman, negaki ular kelgusida meni kulgiga qo'yishi mumkin, ammo uyiga qaytgach, xonimning men quyi qavatning burchagidagi bo'ydoq ofitsiantlar yashaydigan xonaga ko'chirilganim to'g'risidagi buyrug'ini yetkazishdi, mening to'shagim hamda kiyimlarim joylashgan sandiq allaqachon bu yerga keltirilib qo'yilgandi; qolgan narsalarni esa xonim o'sha xonada qoldirdi va u yerga ikki nafar qizni joylashtirdi.

Mening ko'nglimdan kechganlarni tasvirlashdan ko'ra, ularni eshitib, agar kim uddalay olsa, ularni his qilgani yaxshiroq. Biroq sizning oshiqcha vaqtingizni olmaslik uchun hikoyamni ko'p cho'zmayman, mening sohibam uyning boshqaruviga kirishgach, menga loyiq xizmat topolmadi va so'ng meni qarol qilib tayinla di hamda egnimga uning maxsus kiyimi – livreyani kiydirishdi. Bu vazifadagi arzimas xato ortidan shapaloq, gavron va temir qamchini boshlab kelardi. O, mening janobim, bundan ko'ra tug'ilmaganim yaxshiroq edi! Necha martalab men o'lib ketgan xayrixoh xo'jayinimdan mening qalbimga hissiyotni bergani uchun norozi bo'ldim. Bundan ko'ra bu yoshga ko'ra omi bo'lganim, odam hamma boshqa odamlar bilan teng darajada ekani to'g'risida o'ylamaganim yaxshiroq edi. Allaqachon, ha, allaqachon men bunday hayotimga nuqta qo'ygan bo'lardim, biroq bundan hammamiz ustimizdan oliv Hakamimizning o'z joniga qasd qilish ustidan qo'ygan taqiqi ushlab qolardi. Men o'z qismatimning yakuniga sabr bilan bardosh berishga qaror qildim. Va nafaqat tan jarohatlariga sabr qildim, balki meni yeb borayotgan qalb og'riqlarini ham sabr bilan ko'tarib yurdim. Biroq o'z ontimni buzishga va g'aribona hayotimdan qolganlarini ham o'zimdan yilib olishimga bir bahya qoldi, bunga qalbimga tushgan yangi jarohat sabab bo'ldi.

Sohibamning jiyani, o'n sakkiz yoshga kirgan o'smir, gvardiya serjanti, Moskva oliftalari darajasida tarbiya topgan yigit o'z xola-

jonisining qo‘lidagi xizmatkor qizni sevib qoldi va ko‘p o‘tmay, o‘z tajribasi va qizning ehtiroslari yordamida uni qo‘lga kiritib, unga onalik qismatini tortiq qildi. U muhabbat o‘yinlarida qanchalar beqaror bo‘lmasin, ammo bo‘lib o‘tgan bu voqeа uni ancha tashvishga soldi. Chunki uning xolajonisi bu haqda xabar topib, xizmatkorning uning xonasiga kirishini taqipladi, jiyanini esa yengilgina koyib qo‘ydi. Oliyhimmat xo‘jayinlarning odatiga ko‘ra, bunday qismatga duchor bo‘lgan qizlarni otboqarlardan biriga nikohlab qo‘yilardi, mening sohibam ham ana shunday niyatni ko‘zda tutgandi. Biroq otboqarlarimizning hammasi uylangan bo‘lib, homilador qiz sha’nini asrash uchun esa unga er topish kerak edi, u butun uydagi xizmatkorlar orasida mendan boshqa munosib nomzodni topolmadidi. U o‘z eri yonida, go‘yoki menga muruvvat ko‘rsatgan kabi, bu haqida yetkazdi. Ammo men haqoratga ortiq toqat qilolmadim.

– Siz insoniylikdan yiroq ayolsiz! Sizning hukmingiz ostida menga azob beradilar va tanamga jarohat soladilar; siz esa qonunlar bu borada sizga huquq berishini aytasiz. Mening bunga ishonchim komil emas; ammo bir narsani aniq bilamanki, hech kim nikohdan majburan o‘tish majburiyatini olmagan va bunga hech kim huquq bermaydi.

Mening so‘zlarimni u yirtqichlarga xos jimlik bilan eshitdi. So‘ng esa uning eriga yuzlandim:

– Siz insonparvar ota-onaning nomunosib farzandisiz, otangizning vasiyatini, o‘zingizning va’dangizni unutdingiz; ammo oljanob qalbingizni bu qadar alamga olib bormang, Xudodan qo‘rqing!

Men boshqa so‘z aytolmadim, chunki xonim afandi buyrug‘i bilan meni otxonaga olib borishdi va temir qamchi bilan ayamay savalashdi. Keyingi kun kaltaklar zarbidan men o‘rnimdan zo‘rg‘a ko‘tarildim. Meni yana sohibam yoniga olib kelishdi.

– Men sening kechagi qo‘polligingni kechiraman, – dedi u. – Mening Mavrushkamga uylan, u sendan iltimos qilyapti, men esa mana shu qilmishi holatida ham unga mehr ko‘rsatib, buni uning uchun qilmoqdaman.

– Mening javobimni, – dedim men unga, – kecha eshitdingiz. Mening boshqa gapim yo‘q. Faqat shuni qo‘shimcha qilishim mumkinki, menga faqat men bajarishim lozim bo‘lgan majburiyatim us-

tidan hukmronlik qilishingizni so‘rayman, huquqingiz bo‘lмаган нарсани мендан со‘раманг.

— Unda askarlikka jo‘natilsin, — baqirdi sohibam g‘azabi qaynab... — Dahshat to‘la sahroda o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘ygan say-yoh ham yo‘lini topganda bunchalar quvonmagan bo‘lardi, uning so‘zlarini eshitib, ana shunday quvonib ketdim. — Askarlikka jo‘natilsin, — takrorladi u va keyingi kuni uning buyrug‘i amalgaloshirildi.

Befahm ayol! U xuddi qishloq ahli kabi, askarlikka jo‘natishni jazo, deb o‘yladi. Mening uchun esa bu bayram edi va ko‘p o‘tmay mening sochimni olishdi, men esa o‘zimni qayta tug‘ilganday his qildim. Kuchim yana yangilandi. Aql va ruh yana o‘z harakatini boshladi. O! Baxtsiz hissiyotlarimga kirib kelgan shirin umid, menda u yana uyg‘ondi.

Og‘ir ko‘z yoshlar, alam va qayg‘u ko‘z yoshlari uning qarog‘idan oqib tusha boshladi. Men uni bag‘rimga bosdim, yuragini yuragim yoniga olib keldim. Uning yuzi yana quvonch nuri bilan balqidi.

— Hali hamma narsa yo‘qotilgani yo‘q, siz mening ruhimni qurollantirdingiz, — dedi u menga, — qayg‘uga qarshi, menga, mening kulfatlarim poyonsiz emasligi to‘g‘risidagi hissiyotlarni berdingiz...

Bu bechoraning yonidan ketib, o‘rtasida temirdek toblangan uchta azamat turgan to‘daga yaqinlashdim. Hayratlar yetarli, — dedim men o‘zimga o‘zim bu mahbuslarga boqib. — Endi tahqirlashlar, azoblar, qo‘rquvlarning o‘zигина harbiy bo‘lish istagiga olib kelmaydi, balki ularni mana shu holatga olib kelish uchun o‘ta baland darajadagi shafqatsizlik lozim; biroq xizmatni o‘tash chog‘idagi og‘ir vazifalarga ko‘nikib, yanada tetik, uddaburon bo‘ladi va hatto avvalgi holatidan jirkana boshlaydi. Men yaqinimda turgan, kiyimiga ko‘ra harbiy xizmatchi bo‘lib tuyulgan bir odamdan so‘radim:

— Ularning qochib ketishidan hadiksirab, shunchalik og‘ir kishanga solib qo‘yishganmi?

— To‘g‘ri topdingiz. Bularning hammasi bir pomeshchikka tegishli edi, unga yangi foytun sotib olishga pul kerak bo‘lib qoldi va uni qo‘lga kiritish istagida bularni davlat dehqonlariga rekrutga berish uchun sotib yubordi.

Men: Birodarim, siz xato qilyapsiz, davlat dehqonlari o‘z birodalarini sotib ololmaydilar.

U: Bu sotuv yo‘li bilan amalga oshirilmaydi. Ularning xo‘jayini pul bilan shartnomalashib, ularni erkinlikka chiqarib yuboradi; ular go‘yoki o‘z xohishlari bilan o‘sha volostdagi¹ ular uchun pul to‘lagan davlat dehqonlariga ishga o‘tadilar, volost esa ularni umumiyligi shartnomaga ko‘ra askarlikka beradi. Endi ularni ozodlik hujjati bilan birga qayd etish uchun o‘z volostimizga olib ketyapmiz.

Erkin odamlar, hech qanday jinoyat qilmay turib, zanjirband etilib, xuddi mol kabi sotib yuborilmoqda! O, qonunlar! Sizning donoligingizni muntazam ta‘kidlash faqat bizning so‘zlarimizdagina amalga oshadi! Aslida bu masxarabozlik hammaga ayon emasmi? Boz ustiga bu masxarabozlik ilohiy atama bo‘lgan erkinlik nomi bilan amalga oshirilmoqda. O! Agar og‘ir kishan sudrayotgan qullar bo‘lganda, o‘z azoblaridan junbishga kelib, o‘zlarining erkinligiga to‘sinqilik qilayotgan bu zanjirlarni parchalagan bo‘lardilar, bizning hukmdorlarimiz, insoniyikdan yiroq bo‘lgan hukumat kattalari bizning qonimiz bilan o‘z dalalarini sug‘oradilar! Bu bilan davlat nima yo‘qotadi? Ko‘p o‘tmay, abgor bo‘lgan xalqning o‘rnini to‘ldirish uchun ularning orasidan zabardast yigitlar haydab chiqilgan bo‘lardi, ammo ular haqida boshqalarning fikri bo‘lganda va ular zulm qilish huquqidan mahrum bo‘lganda edi. – Bular orzu emas, ammo nigohlar davrning bizning ko‘zimizdan kelajakni yashirib turgan quyuq pardasini teshib o‘tadi; men butun bir yuz yillikni ko‘raman. – Jahlim chiqdi va bu to‘dadan uzoqlashdim.

Lekin bir-birlariga zanjir bilan bog‘langan mahbuslar endi erkin edilar. – Ammo agar ozgina bo‘lsa ham matonatga ega bo‘lganlarida edi, o‘z zulmkorlarining ularni abgor qiluvchi niyatlarini puchga chiqargan bo‘lishardi... Orqaga qaytamiz...

– Do‘stilarim, – dedim men vatandoshlarim bo‘lgan mahbuslariga, – ko‘ryapsizmi, agar harbiy xizmatga o‘zingiz yozilishni istamasangiz, endi hech kim sizga bunday majburiyatni yuklay olmaydi.

– Barin, g‘amzada odamlar ustidan hazillashishni bas qiling. Sizning masxarangizsiz ham kimdir qartaygan otasi bilan, kimdir go‘dak singlisi bilan, uchinchisi esa yosh xotini bilan ajralishi yurak-

¹ Volost – Qadimgi Rusda ma’mur-knyaz hukmida bo‘lgan viloyat yoki uyezd tar-kibiga kirgan bir necha qishloqdan iborat ma’muriy-hududiy bo‘linma (*tarji*).

ni ezmoxda. Biz xo'jayinimizning bizni rekrutga topshirish uchun ming so'mga sotganini bilamiz.

– Agar siz bugunga qadar ko'rmagan bo'lsangiz, unda qarang, rekrutga odamlarni sotish taqiqlanadi; dehqonlar odamlarni sotib ola olmaydilar; sizga o'z xo'jayiningizdan ozodlik xati berilgan; sizni sotib olganlar esa go'yoki sizning o'z ixtiyorining bilan sizni o'z volostlariga qabul qilib olyaptilar.

– O, agar shunday bo'ladigan bo'lsa, rahmat senga; bizni *safga o'Ichov uchun qo'yishganda* (140) biz ularga erkin odam ekanligimizni, harbiy xizmatga borishni istamasligimizni aytamiz.

– Bunga qo'shimcha qilib, sizning xojangiz sizlarni buyruq vaqtida sotmagan va sizlarni zo'rlik bilan topshirmoqdalar¹.

Bu bechoralarning yuzlariga yozilgan quvonch nurini juda oson tasavvur qilishingiz mumkin. Ular o'z o'rnidan sakrab turib va o'z kishanlarini dadil silkitar ekanlar, nazarimda ularni parchalash bo'yicha o'z kuchlarini sinab ko'rmoqda edilar. Ammo bu suhbat meni juda katta ovoragarchilikka olib kelishi mumkin edi; rekrutga topshiradiganlar mening so'zlarimni anglab qolib, g'azab bilan lovvullab ketdilar, oldimga yugurib kelib, shunday deyishdi:

– Barin, birovlarining ishiga burningni tiqyapsan, hurmating borida bu yerdan jo'na, – va so'zlarimdan norozi bo'lganlar meni shu qadar kuch bilan itarib, turta boshladilarki, bu to'dani shoshilinch tarzda tark etishga majbur bo'ldim.

Pochta bo'limiga yaqinlashib, men qishloqliklarning yana bir yig'iniga duch keldim: bu yerda yirtiq syurtukda² aftidan mast bo'lib chayqalib turgan erkakni o'rab olgan bir nechta odam unga qarab, uning ustidan xaxolab kulishganidan ko'zlaridan yosh chiqib ketayozgandi.

– Bu yerda nima sodir bo'lmoqda, – so'radim men bir bolakaydan, – nimaga kulyapsiz?

– Mana bu yerda chet ellikni rekrut qilishyapti, rus tilida bir so'z ham gapiroldi ekan.

Ularning og'zidan chiqqan ayrim so'zlardan uning fransuz ekanligini bilib oldim. Mening qiziquvchanligim yana uyg'ondi va ajna-

¹ Rekrut chaqiruvi vaqtida dehqon sotuvda vasiqa olishi taqiqlanadi (*muallif*).

biy odam dehqonlar tomonidan qanday qilib rekrutga berilishi mumkinligini bilgim keldi. Men undan o‘z tiliga yaqin tilda so‘radim:

– Do‘srim, seni bu yerga qanday taqdir yetaklab keldi?

Fran. Taqdirning inoyati bu: qayerda yaxshi bo‘lsa, o‘sha yerda yashash lozim.

Men. Qanday qilib sen rekrutga tushib qolding?

Fran. Menga harbiy hayot yoqadi, menga bu hayot begona emas, buni o‘zim istadim.

Men. Ammo seni qishloqdan rekrutga berishlari qanday sodir bo‘ldi? Odatda, qishloqlardan dehqonlarni, yana ruslarni olishardi. Sen esa, ko‘rganimdek, rus millatiga mansub emassan.

Fran. Bu mana bunday bo‘ldi. Men Parijda bolaligimdan sartaroshlikka o‘qiganman. Rossiyaga bir janob bilan keldim. Peterburgda uning sochini bir yil davomida olib yurdim. Uning menga to‘laydigan puli yo‘q edi. Uni tashlab ketdim va boshqa boshpana topolmay, ochdan o‘lishimga bir bahya qoldi. Baxtimga rus bayrog‘i ostida suzadigan bir kemaga matros bo‘lib yollandim. Dengiz bo‘ylab yo‘lga chiqishdan oldin Rossiya fuqarosi singari qasamyod qilishga olib kelindim va Lyubekka yo‘l oldik. Kema xo‘jayini dangasalikda ayblab, meni tez-tez savalab turardi. Men ehtiyoitsizligim tufayli machtani ushlab turadigan arqondan palubaga yiqilib tushdim va uchta barmog‘ini sindirib oldim. Bu esa bir umr meni taroqni boshqara olmaydigan qilib qo‘ydi. Lyubekka kelgach, *Prussiya harbiy chaqiruvchilari* (141) qo‘liga tushdim va turli polklarda xizmat qildim. Dangasalik va ichkilikbozlik tufayli bu yerda ham tez-tez tayoq bilan kaltaklanib turardim. Mastlikda o‘z do‘srimni pichoqlab qo‘ydim va mening gornizonim joylashgan *Memeldan* (142) ketdim. Rossiyaga qasamyod qilganimni va uning oldida majburiyatim borligini eslab qoldim, vatanning sodiq o‘g‘loni yanglig‘ cho‘ntakda ikki taler¹ bilan Rigaga jo‘nадим. Yo‘lda tilanchilik ham qildim. Rigada baxt va san’atim menga naf berdi; qimorda yigirma so‘m yutib oldim va o‘zimga o‘nta durustgina chakmonlardan sotib oldim. Xizmatkor bo‘lib yollanib, qozonlik savdogar bilan birga Qozonga yo‘l oldim. Ammo Moskvaga kelgach, bu yerda ikki nafar vatandoshim bilan uchrashib qoldim, ular menga xo‘jaynimni qoldirib, Moskvadan

¹ Taler – eski nemis tangasi (*tarj.*).

o‘qituvchilik o‘rnini izlashni maslahat berishdi. Men ularga yomon o‘qishimni aytdim. Ammo ular menga shunday deya javob berishdi: «Sen fransuzcha gapira olasan, shuning o‘zi yetarli». Xo‘jayinim men undan yo‘lda qanday ajrab qolganimni ko‘rmay qoldi, u o‘z yo‘lida davom etdi, men esa Moskvada qoldim. Ko‘p o‘tmay, vatandoshlarim menga yuz ellik so‘mga o‘qituvchilik o‘rnini topishdi, shuningdek, yiliga bir pud shakar, bir pud qahva, o‘n funt choy hamda stol xizmatchi, kareta berilar ekan. Ammo qishloqda yashashga to‘g‘ri kelar ekan. Bu yana ham yaxshi edi. U yerda butun yil mobaynida mening yozishni bilmasligimni sezishmadidi. Biroq xo‘jayinimning men uyida yashaydigan og‘aynisi unga mening sirimni ochib berdi va meni Moskvaga qaytarib jo‘natvorishdi. O‘zimga unga o‘xshagan boshqa ahmoqni topolmay, singan barmoqlarim bilan o‘z hunarimni ham amalga oshirolmay, ochdan o‘lishdan qo‘rqib, o‘zimni ikki yuz so‘mga sotdim. Meni dehqonlikka qayd etishdi va endi rekrutga berishadi. Umid qilamanki, – dedi u o‘ziga jiddiy va muhim tus berib, – hademay urush boshlanadi, men u yerda generallik rutbasiga erishgunga qadar xizmat qilaman; agar urush bo‘lmasa, unda cho‘ntagimni to‘ldirib, lavr chambaragini taqib, tinchgina o‘z vatanimnga jo‘nab ketaman.

Uning aljirashlariga bir necha bor yelkamni qisib, yaralangan qalb bilan soyabonli aravamga o‘tirdim va yo‘lga otlandim.

Zavidovo

Otlar allaqachon aravaga qo‘shilgan edi, men jo‘nab ketish uchun taraddud ko‘rib turgandim, birdan ko‘chadan shovqin eshitilib qoldi. Odamlar qishloqning u tarafidan bu tarafiga yugurishardi. Ko‘chada men granatachilar shapkasini kiyib olgan, u yoqdan bu yoqqa qo‘lida qamchi ko‘targancha mag‘rur qadam tashlab, quyidagicha baqirayotgan harbiyni ko‘rdim:

– Tezroq otlarni keltiring; safboshi qani? Zoti oliylari bir da-qiqadan so‘ng shu yerda bo‘ladi; menga boshliqni toping... – yuz qadam naridan boshidagi shapkasini yechib, boshliq bor tezligi bilan uning chaqiruviga yetib keldi.

– Zudlik bilan otlarni keltiring!

- Hozir, otaxon: safar guvohnomasini bering.
- Ma. Tez bo'l, bo'lmasa seni... – dedi u qaltirab turgan boshliqning boshi uzra qamchisini ko'tarib. Uning tugallanma-gan gapi shu qadar ifodalarga boy ediki, bu go'yo Vergiliyning «Eneida» sidagi¹ Eolaning shamollarga «Men sizni!...» (143) degan so'zlarini eslatardi. Isyonkor shamollar *Eola nayzasining* (144) kuchini qay darajada his etishgan bo'lsa, qisqa ko'rinishda grana-tachining qamchi tutgan o'ng qo'li qudratini ham boshliq shu da-rajada his qilgan edi. Yangi *Polkanga* (145) safar guvohnomasini qaytarayotib, boshliq dedi:
 - Zoti shariflarining talablariga ko'ra ellikta ot kerak bo'lar ekan, bizda esa faqat o'ttizta ot bor, qolganlari yo'lga chiqib ketishgan.
 - Agar ot bo'lmasa, sening mayibingni chiqaraman.
 - Hech qayerdan topishning imkonni bo'lmasa, qayerdan olaman ularni?
 - Yana gap qaytaradi... Mana, mendan olasan otlarni... – shun-day deya u qariyaning soqolini changallab olib, yelkasiga ayamay qamchi bilan tushira ketdi. – Yetarlimi senga? Mana, uchta yangisi turibdi, – dedi ot pochtasining shafqatsiz sudyasi mening aravamga qo'shilgan otlarni ko'rsatib. – Ularni biz uchun tayyorla.
 - Agar barin ularni bizga bersa.
 - Qanday bo'lmasin, undan olasan. Menda unga ham atalgani bor. Kim u o'zi?
 - Qandaydir noma'lum... – u meni qanday tanishtirdi, buni bil-mayman.

Bu orada men ko'chaga chiqdim, zoti oliylarining jasur xabar-chisiga o'z istagini amalga oshirishni, mening otlarimni izvoshim-dan chiqarib, meni pochta binosida tunab qolishga majbur qilishni taqiqladim.

Mening gvardiya Polkani bilan bo'lgan bahsim janobi oliyla-rining yetib kelishi bilan nihoyasiga yetdi. Hali uzoqdanoq arava-kashlarning qiyqiriqlari va bor kuchi bilan yugurib kelayotgan otlar tuyog'ining dupuri eshitildi. Tuyoqlarning tinimsiz zarbi va ko'z ilg'amas darajada aylanib kelayotgan g'ildiraklar ostidan ko'tarilgan

¹ *Eneida* – lotin nasriy poemasi, er. avv. 29–19-yillarda Vergiliy tomonidan Eliy haqidagi afsonalar bililgan asar (*tarj.*).

chang shu qadar quyuqlashgandiki, zoti oliylari o‘tirgan foytun atrofida momaqaldiroq bulutlari singari quyuq bulut hosil qilib uni kutowtgan aravakashlar ko‘zidan yashirib turardi. Don-Kixot, albatta, bu yerda nimadir ajoyibotni ko‘rgan bo‘lardi; chunki chang buluti olib kelayotgan zoti oliylari birdan to‘xtadi va foytun eshigi ochilib, tug‘ilganidan beri qoramag‘iz bo‘lgan zoti shariflari changdan kulrang tusga moyil bo‘lib tushib keldi.

Mening pochta stansiyasiga kelgan vaqtimdan beri to otlar yana aravamga qo‘shilgunga qadar salkam bir soatlar chamasi vaqt o‘tdi. Ammo zoti oliylarining otlarini almashtirishga esa chorak soatdan ortiq vaqt ketmadi... va ular shamol qanotida yo‘lga chiqib ketishdi. Mening qirchang‘ilarim esa, garchi ulardan ham ko‘ra chopqir otlar bo‘lib ko‘ringan va zoti oliylarini olib ketish chekiga tushgan bo‘lishsa-da, granatichining qamchisidan ham qo‘rqmay o‘rtacha tezlik bilan yo‘rtib borardi.

Yakkahokimlik boshqaruvida to‘ralar xushbaxt bo‘lishadi. Rutba-yu martabalar hamda tasmalar bilan bezab, taqdirlanganlar baxtiyordirlar. Butun tabiat ularga bo‘ysunadi. Hattoki miyasi yo‘q hayvonlar ham ularning istagini anglay oladilar va g‘ildirak o‘qining sekin aylanishi bu to‘ralarning og‘zini ochib, zeriktirib qo‘ymasligi uchun, ular na oyoqlarini, na o‘pkalarini ayaydilar va ko‘p hollarda zo‘riqish tufayli harom o‘lib qoladilar. Baxtiyordirlar, yana takrorlayman, tashqi ko‘rinishlari ulug‘vor bo‘lib, hammaning oliy darajadagi izzat-ikromiga sazovor bo‘lganlar baxtiyordirlar. Kim qamchi ostida titrayotganlarni bilsa, ularga tahdid qiluvchini, ya’ni uning nomi bilan unga tahdid qilayotganlardan xabardor bo‘lsa, *saroy grammatikasida u ovozsiz, deb nomlanadi* (146); u butun umri davomida na A va na O ni aytish baxtidan mosuvo bo‘ladi¹. U mutedir va

¹ Fonvizinning saroy grammatikasi haqidagi qo‘lyozmasiga qarang. «Saroy grammatikasi»da D.I. Fonvizin shunday deb yozadi: «Men unli tovushlar orqali eng sodda tovushda, og‘izning bitta ochilishi bilan ovozsizlarda o‘zlariga ma‘qul bo‘lgan harakatlarni amalga oshiradigan kuchli amaldochlarni nazarda tutyapman. Masalan, katta zodagon zabonsizlarga murojaat qilayotib..., qoshlarini uygancha: «O!» – desa, ular o‘sha ishni amalga oshirishga hech qachon jur‘at etolmaydilar, faqat qandaydir boshqacha tarzda unga yetkazishlari mumkin. Va u ish haqida boshqacha fikr olgach, o‘z xatosini to‘g‘rilovchi ohang bilan: A! – deydi va ish o‘sha vaqtning o‘zida hal etiladi». Bu hajviya Yekaterina saroyi haqida bo‘lib, faqat 1829-yildagina chop etilgan (*muallif*).

unga ovozini ko'tarib kimgadir aytish uyat hisoblanadi; u o'z ruhiyatida baxilroq bir mavjudotdir; aldov, bevafolik, sotqinlik, fahsh, zaharlash, o'g'rilik, qaroqchilik, qotillik uning uchun bir stakan suv ichishdan yuqori turmaydi; uning yonoqlari hech qachon uyatdan qizarmaydi, ular faqat g'azabdan yoki shapaloqdangina alanga olishi mumkin; u saroyning barcha go'laxidan tortib, u yerda hech qanday ahamiyatga ega bo'Imagan qullarigacha do'stdir. Ammo hukmdor va dimog'dor uning tubanligi va ilon ekanini bilmaydi. Haqiqatda nomunosib bo'lgan amal bizning qishloqlardagi jodugarlarga o'xshaydi. Hamma dehqonlar ularni tan olishadi va qo'rqishadi va ularni notabiiy holatda hukmdor deb o'ylashadi. Bu makkorlar ular ustidan o'z ixtiyoriga ko'ra hukmronlik qilishadi. Shunday ekan, ularga sajda qiladigan olomon ichida kim qo'pol johillikdan begonalashsa, kamroq o'ralashadi, shunda ularning yolg'oni fosh bo'ladi va bunaqangi bashoratchilarga ular mo'jiza amalga oshiradigan joylarida ham toqat qilishmaydi. Xuddi shu kabi, kim amaldorlarning jodusini fosh qilishga jur'at qilsa, ular dan ham ehtiyyot bo'l.

Menga zoti shariflarining ortidan yetib olishga yo'l bo'lsin. U changni ustun darajasida ko'tardi, uning orasida men ham yo'qolib ketdim, men Klinga yetib kelgach, shovqin ichra halok bo'lganlarning xotirasini ham topdim.

Klin

– Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Rim shahrida Yevfimiam-knyaz bo'lgan ekan... – Bu xalq qo'shig'ini kuylaguvchisini Aleksey Xudoning odami, deb atashardi, bu qariyaning ko'zлari ko'rmas, pochta hovlisi darvozasi oldida o'tirib kuylar, uning atrofini qurshab olgan to'daning asosiy qismi bolalar va o'smirlardan iborat bo'lardi. Uning kulrang boshi, yumuq ko'zлari, uning yuzida zohir bo'lgan sokin ko'rinishi unga qaragan odamni uning yonida hurmat bilan turishga majbur qilardi. Garchi uning xirgoyisi mohirona ijro etilmasa da, ammo qo'shiq davomida uning nafis ifoda etilishi tinglovchining yurak-yuragiga yetib borardi, chunki Moskva va Peterburg aholisi-

ning qulqlari jingalaksoch Gabriyelli, Markezi yoki Todining¹ jozibali ovozdagi jimjimador qo'shiqlarini eshitishga ko'nikma hosil qilgandan ko'ra, tabiiy ohanglarga dil berib qulq solganlari yaxshiroq. Klinlik bu qo'shiqchi qo'shiqning qo'shiq qahramoni ayriliq pallasi to'g'risida aytilgan qismiga yetib borgach, o'z hikoyasini bir lahzalik uzilish bilan bazo'r to'xtatganda, atrofini o'rab turganlardan qo'shiq dardi yuragiga chuqur kirib borib, uni qalqitmagani qolmadi. Uning ko'zlar o'rni ko'ngil g'ussasidan to'lqinlanib, yuzaga qalqib chiq-qan yosh bilan to'ldi va bu yoshlari qo'shiqchining yonoqlari bo'ylab to'lib oqa boshlashdi. O, tabiat, qanchalar sening hukming o'tkir! Yig'layotgan qariyaga qarab, ayollar ho'ngrab yuborishdi; yoshlarning labidan uning hamrohi, tabassum uchib chiqdi; o'smirlikning yuzida hamdard bo'lgan, biroq noma'lum bir tuyg'uning rostgo'y belgisi, hadik namoyon bo'ldi; hatto shafqatsizlikka ko'nikib qolgan yetuk er kishi yoshida ham mag'rurlik yuzaga qalqib chiqdi. O, tabiat! – faryod chekdim yana...

Alamning jarohatsiz hissiyotlari qanchalar shirin! Yurak bu alam va bu hissiyotlarni qay darajada yangilaydi. Men ot pochta-si yig'ini ortidan ho'ngrab yig'ladim va yoshlарим men uchun shu qadar yoqimli ediki, u xuddi Verterning yuragidan oqib chiqayot-ganga o'xshardi... O, mening do'stim, mening do'stim! Nima uchun bu manzarani sen ham ko'rmading? Sen men bilan birga qo'shilib yig'lagan bo'larding, his-tuyg'ularning lazzati ikki kishida birlashsa, u yanada totliroq bo'lgan bo'lardi.

Qo'shiq so'zlar tugagach, go'yo uning mehnatiga mukofot tarzida ko'ngildan chiqarib, qariyaga pul va boshqa topganlarini bera boshlashdi. U barcha pul va chaqalarni, barcha non bo'lagi va bur-dalarini bemalol, bamaylixotirlik bilan qabul qilib oldi; biroq u hadya uzatganlarning barchasiga ta'zim qildi, cho'qinib, shu so'zlarni aytdi: «Xudo sog'liq ato etsin senga». Men ham qariyaning Xudoga xush keladigan duolari hamrohligisiz jo'nab ketishni istamadim. Uning duolari bilan mening istaklarim va safarimning amalga oshishini xohladim. Nazarimda, men har doim shuni orzu qilaman,

¹ Gabriyelli Katarina (1730–1796), Markezi Luiji (1755–1829), Todi Mariya Fransiska Lyuchiya (1748–1793) – italyan qo'shiqchilari. Ular Peterburgda konserqo'yishgan (tarj.).

go'yoki sohir qalblarning duosi sayohat davomida yo'lingizni oson-lashtiradi va shubhalar g'ulg'ulasini xiralashtiradi. Uning yoniga borib, qo'rquvdan qaltirayotgan darajadagi titrayotgan qo'llariga bir rubl tashladim, ammo buni manmanlik yo o'zimga sharaf olish uchun qilmadim. U cho'qinarkan, hovuchiga tushgan pulga nisbatan noodatiy sezgini his qilib, unga marhamat qilganlarni odatiy qiladigan duosidan chalg'idi. Va bu mening yuragimni yaraladi.

– Uning hovuchiga chaqa tashlashgani qanchalar xush yoqadi unga! – dedim men o'zimga. – U bu chaqada kulfatga insoniylikning oddiy hamdardligini tuyadi, mening rublimda esa u ehtimol menda-gi g'ururni ko'rayotgandir. U bu marhamat uchun duo qilmadi. O! Qanchalar men o'zimga tuban ko'rindim o'shanda, qo'shiq aytgan qariyaga chaqa va non bo'laklari bergenlarga qanchalar hasad qildim!

– Bu besh tiyin emasmi? – dedi u xuddi boshqa har qanday so'zlar kabi aniq bir odamga murojaat qilmay.

– Yo'q, bobojon, bu rubl, – javob berdi uning yaqinida turgan bola.

– Nima uchun bunchalar muruvvat? – dedi ko'zi ojiz hovuchida turganni ko'zlar o'miga olib borib, go'yo uni xayolan tasavvur qilmoqchi bo'lganday. – Ojiz odam undan qanday foydalanishi mumkin? Agar men ko'rishdan mosuvo bo'limganimda edi, buning uchun mening minnatdorchiligim qanchalar yuksak darajada bo'lgan bo'lardi. Bunga mening ehtiyojim bo'limgan holda unga muhtoj odamni ta'minlagan bo'lardim. Eh! Agar u bu yerda bo'lib o'tgan yong'indan so'ng qo'limga tushganida edi, hech bo'limganda bir kun qo'shнимнинг yeb to'ymas jo'jalarining chirqillashlarini to'xtatib, ularni oziqlantirgan bo'lardim. Ammo endi ular menga nima uchun kerak? Uni qayerga qo'yishni ko'rmayman; ehtimol u jinoyatga sabab bo'lar. Chaqani bir ozgina o'g'irlash mumkin, ammo rublga astoydil qo'l cho'zadiganlar ko'p bo'ladi. Uni qaytarib ol, saxovatli janob, to'g'risi unga ehtiyojim yo'q, bunga azimayman ham; chunki unda tasvirlangan hukmdorga xizmat qilmaganman. Hali tetik damlaridanoq yo'lboshlovchidan mahrum bo'lishim Yaratgan uchun kerak ekan. Uning menga lozim ko'rganini sabr bilan ko'tarib yurib-man. Gunohlarim u meni kelib ko'rdi... Men harbiy jangchi

bo'lganman, vatan dushmanlariga qarshi juda ko'p janglarda ishtirok etganman; hamisha jangga qo'rmasdan, otilib kirardim. Ammo harbiy odam hamisha zarurutga qarab ish tutishi kerak. Har bir jang boshlanishidan oldin hamisha yuragim shiddat bilan qoplanardi; men oyog'im ostida yotgan raqibimni hech qachon ayamaganman va qurolsiz dushmanning marhamat so'rab qilgan iltijosini qabul qilmaganman. G'alaba bilan o'z qurolimizni ko'targancha, jazolash va o'ljani kiritish uchun chog'langanimda yuz tuban yiqilib tushdim, ko'zlarim ko'rmay qoldi va ko'z oldimdan zambarak o'qining butun quadrati bilan uchib o'tayotganini his qildim. O! Mening ortimdan ergashganlar, jasur bo'ling, ammo insoniylikni unutmang. – U menga rublni qaytarib berdi va yana o'zining osoyishta joyiga o'tirdi.

– O'zingning bayram pirogingni qabul qilib ol, otaxon, – dedi ellik yoshlardagi o'tib ketayotgan ayol unga pirogni uzatib.

Qanchalar quvonch bilan ikki qo'llab qabul qildi u shirinlikni.

– Mana haqiqiy saxovat, mana haqiqiy ezgu ish. O'ttiz yildan beri uzmasdan, har bayram kunlarida va har yakshanba kunlarida yeymen bunaqa pirogни. Bolaligingda qilgan va'dangni hali ham unutmaysan. Sening marhum otangga qilgan ishim sen meni tobutta kirgunimga qadar unutmasligingga arzirmikan? Men, do'stlarim, uning otasini o'tkinchi askarlarning kaltaklaridan asrab qolgandim. Ular, odatda, dehqonlarni doimiy ravishda va tez-tez kaltaklab turardilar. Askarlar undan nimanidir olib qo'yishmoqchi bo'lishdi; u esa askarlar bilan bahslashib qoldi. Voqeа xirmon ortida sodir bo'lgandi. Askarlar dehqonni ura boshlashdi; men askarlar xizmat qiladigan o'sha rotaning serjanti edim va o'sha atrofda o'ralashib yurgandim. Dehqonning faryodini eshitib yugurib keldim va uni kaltakdan qutqarib oldim; balki undan ko'proq qilgandirman, ammo oldindan bilib bo'lmaydi. Meni bu yerda abgor holatda ko'rgan boquvchim meni tanib qoladi. Shundan beri har kuni, har bayramda meni yo'qlab turadi. Men qilgan ish uncha katta emas edi, ammo xayrli edi. Xayrli ish esa Xudoga xush keladi; uning ortidan hech narsa, hech qachon bez ketmaydi.

– Nahotki siz meni shuncha odam oldida xafa qilsangiz, otaxon, – dedim unga, – siz faqat meninggina bergan tortig'imni qaytaryapsiz? Nahotki mening saxovatim gunohkor odamning saxovati hisoblan-

sa? Hatto shunday bo'lganda ham, agar saxovat uning shafqatsiz qalbini yumshatishga xizmat qilsa, gunohkorning foydasiga yozilmaydimi?

– Sen tabiiy jazo bilan qachonlardan beri azob tortib kelayotgan yurakni yana azobga qo'yyapsan, – dedi qariya. – Zarar yetkazishi mumkin bo'lgan bu qadar katta hajmdagi muruvvatingni olmaganim seni xafa qilishi mumkinligini bilmagandim; mening gunohimni kechir, ammo menga qancha bermoqchi bo'lsang ber, faqat u men uchun foydali bo'lsin... Bizning bahorimiz sovuq keldi va mening tomog'im og'rib qoldi, bo'ynimni bog'lashga ro'molcham yo'q edi, biroq Xudoyim shafoat qildi va kasalligim o'tib ketdi... Senda es-kigina bo'lsa ham ro'moling yo'qmi? Agar tomog'im og'rib qolsa, men uni bog'lab olaman; u mening bo'ynimni isitadi va tomog'im og'rishdan to'xtaydi; agar senga g'arib odamning duosi kerak bo'lsa, men seni eslab duo qilib yuraman.

Men bo'ynidagi ro'molni yechib oldim va uni basir cholning bo'yniga bog'lab qo'ydim... Va u bilan xayrplashdim.

Klin orqali ortimga qaytayotganimda esa bu basir qariyani ko'rmadim. U men bu yerga kelishimdan uch kun oldin vafot etgan ekan. Ammo ro'molni, menga o'sha, unga har bayram va dam olish kunlari pirog olib keladigan ayolning aytishiga ko'ra, o'limidan oldin kasal bo'lib qolganida bog'lagan va uni tobutga bo'ynidagi o'sha ro'mol bilan birga qo'yishgan. O! Kim mana shu ro'molning qadrini his qila olsa, bu gapni eshitganidan so'ng mening ko'nglimda nimalar kechganini ham his qila biladi.

Peshki

Sayohatim so'ngida men shoshmaslikni qanchalar istasam ham, lekin maqolda aytilganiday, ochlik sening akangmas. U meni kulbagaga kirishga majbur qildi va ragu, frikase, pashtet¹ va boshqa og'u uchun tayyorlangan fransuzcha taomlarga yetib borgunimga qadar, yonimda hamisha zaxirada yuradigan, eski qovurilgan mol go'shti

¹ Ragu, frikase, pashtet – sabzavotli yoki go'shtli dimlama, go'shtni bo'laklab tayyorlanadigan qovurdoq hamda asosan hayvon, parranda va baliq go'shtidan tayyorlandigan plastiksimon taom (*tarj.*).

bilan tushlik qilishga majbur qildi. Gohida polkovniklar (generallar haqida gapirmayman) safarga chiqishganda tushlik qilishlariga qara-ganda bu safargi tushligim yoqimsiz bo‘ldi. Men doimiy odatimga ko‘ra finjonimga mening uchun tayyorlangan qahvamni quydim va afrikalik bebaxt qullarning qonli teri evaziga yig‘ilgan hosildan bahramand bo‘ldim.

Mening oldimda turgan qandni ko‘rib, xamir qorayotgan beka mening asilzodalarga xos taomimdan kichkina bir bo‘lakni so‘rab, yonimga yosh bolakayni yubordi.

– Nima uchun asilzodalarga xos? – so‘radim men undan bolas-kayga o‘zimdan qolgan qandni bera turib. – Nahotki uni sen ham olib yeishiga qurbing yetmaydi?

– Asilzodalarни deyishimga sabab, bizda uni sotib olishga hech vaqoyimiz yo‘q, boyarlar esa pulni o‘zлari ishlab topishmagani uchun ham uni olib yeishadi. To‘g‘ri, bizning burmistrimiz¹ ham Moskvaga kelganda uni sotib oladi, faqat bizning ko‘z yoshlarimiz evaziga.

– Sening fikringcha, kim qand yeidigan bo‘lsa, u sizlarni yig‘lashga majbur qiladimi?

– Hamma emas, ammo barcha janob dvoryanlar. Sen-chi, sening dehqonlaring ham biz kabi mana bunaqa non yeishayotgan bir paytda ularning ko‘z yoshlarini ichmaysanmi? – shunday deya u qorayotgan xamirining tarkibini ko‘rsatdi. Uning to‘rtadan uch qismi kepak va bir qismigina elanmagan undan iborat edi. – *Bugungi hosil bo‘lmagan bir paytda shunga ham shukur qilamiz* (147). Ko‘pchilik qo‘shnilarimizning ahvoli bizdan ham besh battar. Siz boyarlarga bundan nima foyda, siz qand yeysiz, biz esa ochmiz. Bolalar nobud bo‘lishyapti, kattalar ham qirilib ketishyapti. Ammo nima qilish kerak, jon kuydirasan, jon kuydirasan, ammo xo‘jayin buyurganini qilasan. – U nonlarini pechga yopa boshladи. Uning ta’nalarida esa na g‘azab va na nafrat bor edi, ammo qalbidagi chuqur botib ketgan iztirobli tuyg‘ulari mening yuragimni ham qayg‘uga to‘ldirdi. Men birinchi marta qishloq kulbasining butun jihozlariga diqqat bilan qarab chiqdim. Birinchi marta shu kunga qadar qiyo ham boqmagan yurakka e’tiborni qaratdim. – To‘rt devor, uning yarmini butun shift-

¹ Burmistr – oqsoqol, sarkor (*tarj.*).

dagi kabi qurum bosgan; pol yoriqlarga to‘la, kamida bir vershok kir bilan qoplangan. Pechning quvuri yo‘q, ammo sovuqdan eng yaxshi himoyachi shu bo‘ladi; qishin-yozin ertalab butun kulba tutunga to‘ladi; oynalarni qoplab olgan bug‘ tomchilari kun nurida tovlanadi; xurmacha ikkita yoki uchta (baxtli kulba, negaki ularning birida hamisha quruq yovg‘on sho‘rva bo‘ladi!) Yog‘ochdan yasalgan piyola va krujka hamda likopcha deb nomlanadigan idish; bolta bilan yo‘nilgan stol, bayram kunlari kurakcha bilan qirtishlab tozalanadi. Tog‘ora, unda cho‘chqa yoki buzoqchalar ovqatini yeydi, ozuqalanib bo‘lgach, ular bilan birga yotib uxlaydi va yonib turgan sham go‘yo tuman yoki parda ortida bo‘lib ko‘rinadigan havoni yutadi. Yaxshiyamki sirkaga o‘xshagan kvasli bochka va hovlidagi hammom bug‘lanmaydi, u yerda qoramol yotadi. Kanopdan bo‘lgan ko‘ylak, oyoq kiyim tabiiy, paytava va chiptakovush tashqariga chiqish uchun mo‘ljallangan. Mana, aslida davlatning mo‘l-ko‘lligi, kuchi, qudrati nimaga asoslanadi; ammo bu yerda ojizlik, yetishmovchilik, qonunlarning suiiste’mol qilinishi va ularning g‘alizligi yoki chetda ekanligi yaqqol namoyon bo‘lib turibdi. Bu yerda dvoryanlarning ochko‘zligi, talonchilik, bizning zulmlarimiz va himoyasiz g‘ariblar ahvoli ko‘rinib turibdi.

Ochko‘z hayvonlar, ichib to‘ymas qonxo‘rlar, dehqonlarga nimani qoldiryapmiz? Ulardan tortib ololmaydigan narsamiz – havoni. Faqatgina havoni. Undan muntazam va nafaqat tabiat in’omlarini, non va suvni, balki shu yorug‘ dunyoni ham olib qo‘yyapmiz. – Qonun uning hayotini tortib olishni taqiqlaydi. – Ammo faqat bir lahzagami? Undan tortib olishning qancha usullari bor! Bir tarafda – hamma narsaga qodirlik, ikkinchi tarafda – himoyasiz ojizlik. Negaki yer egasi dehqon bilan bo‘lgan munosabatlarda qonun chiqaruvchi, hakam, o‘z qarorining ijrochisi va o‘z istagiga binoan unga qarshi hech qanday e’tiroz bildira olmaydigan odamga nisbatan da’vogar hamdir. Bu – zanjirband etilganning qismati, bu – qorong‘i zindonga tashlanganlarning qismati, bu – bo‘yinturuq solingenan ixtiyor...

Yuragi tosh qotgan pomeshchik, sening hukming ostidagi dehqonning bolalariga qara. Ular deyarli yalang‘och. Nima uchun? Sen emasmi, barcha dala ishlari uchun to‘lovlar qo‘yib, ularni dunyoga keltirganlarni kasallik va qayg‘uga duchor qilgan? Sen emasmi, hali

to‘qib ulgurilmagan matoni o‘zingniki qilib belgilab bergen? Sening huzur-halovatga o‘rgangan oppoq qo‘ling hatto olishga ham jirkan-gan kir bu juldur kiyim senga nima uchun kerak? U senga xizmat qiladigan hayvonlarni artib tozalashga zo‘rg‘a yaraydi. Sen hatto o‘zingga kerak bo‘lmaydiganlarni ham yig‘ib olasan, sening dehqonlaringdagi usti yopilmagan yalang‘ochlik seni ayblashi haqida o‘ylamaysan. Agar bu yerda seni jazolovchi sud bo‘lmasa, u holda yuz-xotir qilmaydigan, qachonlardir senga ham ezgulikka yo‘llovchi vijdon ato etadigan odil va Oliy Sudlovchi oldida javob berasan. Va holanki, hozir sen o‘sha vijdtonni uning uyi hisoblanmish yuraging-dan o‘zingning axloqsiz qilmishlarining bilan birga haydab chiqar-gansan. Lekin hozircha qilmishingga qasos yo‘qligi bilan ovunma. Uning tinmas va ziyrak qo‘li bir kuni seni himoyasiz, tanholikda tutib oladi va sen uning jazosini his etasan.

O! Agar u sening va hukming ostidagilarning foydasiga amal qil-ganda edi.. O! Agar inson tez-tez o‘zining ichki olamidan tashqariga chiqib, o‘zining qat’iyatlari qozisi bo‘lgan vijdoniga o‘z qilmishlari-ni topshirib turganda edi. Uning jarangdor ovozi bilan harakatlarini amalga oshirgan, ko‘zga ko‘rinmas yovuzliklarga yo‘l qo‘ymagan bo‘lardi; shunda falokatlar, qurg‘oqchiliklar va shu kabi boshqa nar-salar ham kam sodir bo‘lardi.

Chyornaya Gryaz

Bu yerda men yana dvoryanlikning dehqonlar ustidan yakka-hukmronligining yaxshigina tajribasiga guvoh bo‘ldim. Bu yerda to‘y bo‘layotgan edi. Ammo shodlik safari va hadiksiragan kelin-ing tez orada quvonchga aylanishi lozim bo‘lgan ko‘z yoshlari o‘rniga nikoh quradiganlar qiyofasi, yuzida g‘am va umidsizlikni ko‘rish mumkin edi. Ular bir-birlarini yomon ko‘rishi va ham-ma yaxshiliklar otasi, nozik tuyg‘ular va quvonch hadya etuvchi, haqiqiy baxning asosi, olamning yaratuvchisi mehrobi yoniga o‘z xo‘jayinlarining hukmi bilan borayotgan edilar. Va uning xizmatkor hech qanday hukmronlikka dohil bo‘lmaslik qasamini ichgan holda, ularning nikohini tasdiqlaydi! Va bu Xudoning ittifoqi, deb ataladi! Ularning bu shakkokligi, Xudoning irodasiga qarshi ish tutishi bosh-

qalarga o'rnak bo'ladi! Va bu boshboshdoqlik qonunda jazosiz qolib ketaveradi!.. Bunga nima uchun ajablanish lozim? Nikohni yollangan odam o'qiydi; ma'lum qonunlarni himoya qilish uchun shahardagi mas'ul esa dvoryanning o'zi. U ham, bu ham bu yerda o'z manfaatini ko'zda tutadi. Birinchisi pora olish uchun, ikkinchisi esa insoniyatga nisbatan iflos zo'ravonlikni qo'llagan holda, o'zining qo'l ostidagi mulkini o'ziga ma'qul ko'rinishda yakkahokimlik bilan boshqarishdan mahrum bo'lmaslik uchun amalga oshirishadi bu ishni.

O! Millionlab insonlarning ayanchli qismati! Sening hali yana mening nevaralarim nigohidan ham panalanishing yakun topdi...

Hurmatli o'quvchi, sizga aytish yodimdan chiqibdi, Tverda men bilan yemakxonada tushlik qilgan *parnasslik hakam* (148) menga o'shanda sovg'a bergandi. Uning boshi juda ko'p masalalarda o'z kuchini sinab ko'rdi. Uning tajribasi qanchalik unumdor bo'lmasin, agar istasangiz, o'zingiz xulosa qiling, sizga qanday tuyulayotganini esa mening qulqlarimga aytинг. Agar o'qiy turib, uyqungiz kelsa, unda kitobning betini belgilang-da, uxlang. Uni uyqusiz tunlaringiz uchun asrab qo'ying.

Lomonosov haqida so'z

Yozning issiq kunlaridan keyin oqshomning yoqimli ekani meni hujramdan tashqariga olib chiqdi. Qadamlarim meni *Nevskiy monastiri* (149) ortiga yetakladi va men uning ortida yastanib yotgan¹ manzara va *Ozerkida* (150) uzoq vaqt sayr qildim. Quyosh allaqachon yuzini yashirdi, ammo tunning yengil pardasi ko'k gumbaz ustida arang ko'zga tashlanayotgandi. Uyga qaytayotib, *Nevskiy qabristoni* (151) yonidan o'tdim. Qabriston darvozasi ochiq edi. Men kirdim... Abadiy sukunat hukmron bo'lган va eng qat'iyatli peshana ham tirishadigan bu joyda, har qanday yorqin jasoratlar ham yakun topishi to'g'risida, qo'zg'almas osoyishtalik va tebranmas beparvolik o'rnida maqtanchoqlik, manmanlik va takabburlik birga bo'lishi mumkinmidi, deya o'ylab qoldim. Ammo qabrlar ulug'vermi? Moliyat, shubhasiz, inson g'ururi belgisidir, ammo uning hayotiy istak-

¹ Ozerki (*muallif*).

lari belgisi abadiydir. Biroq inson shu qadar intiqadigan mangulik shumi?.. Kelgusi avlodlar xotirasida *sening nomingni foniyliging ustiga qo'yilgan ustun* (152) saqlab bermaydi, sening noming o'yib yozilgan tosh uni keyingi asrlarga olib o'tmaydi. Sening amalga oshirgan ishlariningda mangulikka dohil bo'lib yashaydigan so'zing rus elatining sen tomoningdan bizning tilda yangilangan so'zi bo'lib, asrlarning ko'z ilg'amas chegaralari ortida ham xalqning tilidan tiliga o'tib yuradi. Mayli, tabiiy ofatlar quturish holatiga kirib, yerni yorib yuborsin va yer o'z qa'rige bu buyuk shaharni yutib yuborsin, o'sha yerdan ham sening kuylaring ko'tarilib chiqib, bepoyon Rossiyaning barcha burchaklarigacha yetib boradi; mayli, qandaydir g'azabga to'lgan jahongir sening sevimli vataningning hatto nomini ham yo'q qilib yuborsin, biroq ruscha so'z quloq pardalariga urilar ekan, sen yashayverasan va o'lmysan. Agar u yo'qoladigan bo'lsa, sening shuhrating ham so'nadi. Yoqimli, bunday o'lim topmoq yoqimli. Biroq agar kimdir buning davomiyligini o'lchay bilsa, agar bashoratning barmog'i sening noming ustida to'xtasa, mana shu abadiylik emasmi?.. Men bu so'zlarni Lomonosov qabri ustiga o'rnatilgan ustun yonida turib, hayajon bilan so'zladim.

Yo'q, sen Rossiya nomining sharafi uchun yashaganing haqida sovuq toshlar hikoya qilmaydi, sen bo'lganing haqida u gapirib berolmaydi. Sening ijoding, yaratgan asarlaring hikoya qilsin, sening nima uchun sharaf topganiningni hayoting so'zlab bersin.

Sen qayerdasan, ayt, men sevgan odam! Qayerdasan? Men bilan buyuk inson haqida suhbat qurgani yonimga kel. Kel, rus so'zini keng yoygan odamga birgalikda toj kiydiramiz. Mayli, boshqalar hukmdorlarga tilyog'lomalik qilib, uning kuch va qudratini maqtovlar bilan ta'rif-tavsifini keltiraverishsin. Biz esa jamiyatga xizmat qiladigan qo'shiqni kuylaymiz.

Mixaylo Vasilyevich Lomonosov Xolmogorda tug'ilgan... Uni dunyoga keltirgan odam kerakli va foydali bilimlar bilan qurollantirish va tushunchalar bilan bezash darajasidagi tarbiya berish imkoniyatiga ega emas edi; u ma'lum holatiga ko'ra o'z kunlarini o'zining atrofidagi fikrlash doirasi faqat o'z hunarmandchiligin kengaytirishdan nariga o'tolmaydigan odamlar bilan o'tkazadigan darajada bo'lgan; uning taqdiriga o'z vaqtini baliqchilik hunari uchun taq-

simlab, o‘z mehnatining munosib mukofotini olishga intilishgina biltulgandi – bu bilan yosh Lomonosovning tafakkuri u hayot sinovlari ostida mehnat bilan erishgan kenglikka erisholmasdi, ovozi ham haqiqiy ilhom parilari bilan muloqotda topgan shiraga ehtimol ega bo‘lmagan bo‘ldi. U tug‘ilib o‘sgan uyidagi tarbiyadan ko‘p narsani oldi, deb bo‘lmasdi, ammo ta’lim olishining kaliti uning o‘qish va yozishni bilishi, tabiatan qiziquvchanligi bo‘ldi. Va bu, ey tabiat, sening tantanangdir. Sen tomoningdan qalbimizga olib kirilgan to‘ymas qiziqishimiz, narsalarni anglashga intiladi; shahvatparastlik bilan to‘lib-toshgan qalbimiz tortinish yo‘lidan ketishga toqat qilmaydi. U guvillaydi, shovullaydi, nola qiladi va bir zarb bilan zanjirlarini uzib, bor jahdi bilan intilgani tomon yuguradi. U hamma narsani unutadi, xayolida faqat o‘sha maqsad, o‘sha bilan nafas oladi, o‘sha bilan yashaydi.

O‘z istagan narsasini ko‘zdan chiqarmay, o‘smir jamiyatning quyi tabaqasi manbasi bilan oqayotgan ilmning zaif qo‘llaridan narsalarni anglash borasidagi bilimlarni yig‘adi. Bilishni tezlashtirish uchun shunchalar kerakli bo‘lgan boshqaruvdan u begona edi, u o‘z aqlining birinchi kuchi bo‘lgan xotirasini idrok peshlashi lozim bo‘lgan narsa bilan charxlab, bezak beradi. U tug‘ilgan joyidan olishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarning bu tor doirasi uning chanqoq ruhini qondira olmaydi. Balog‘at jo‘shqinliklariga yaqinlashib, ehtiroslar to‘lqini birinchi marta bizni befarqlikdan olib chiqadigan davrda, uning intilishlari ilm olishga, dunyoni anglashga qaratildi. Bu saodat edi! Ilmga chanqoqlik va qiziqish Lomonosovni o‘z ota uyidan olib chiqib ketadi; poytaxt tomon yo‘l oladi, monastir uyiga kelib bu yerdagи o‘zini erkin fanlar va Xudoning so‘zini o‘rganishga bag‘ishlagan yoshlar safidan o‘rin oladi.

Bilim olishning avvalida til o‘rganish turadi; biroq bu gohida tikanlar o‘sgan sahroga o‘xshasa, gohida o‘tib bo‘lmas qoyaclar chulg‘amidagi tog‘day tuyuladi. Nigoh bunda xush yoqadigan qo‘nimni ko‘rmaydi, sayyoohning tovonlari orom olishi uchun na bir tekis sath va na charchoqni yozish uchun ko‘kalamzor qo‘nimgoh topiladi. Mana shunday mashaqqat bilan notanish tilni o‘rganishga kirishar ekan, turli ovozlar girdobida kezadi. Uning bo‘g‘zi undan noodatiy ovoz bilan chiqadigan havodan toliqadi va tili yangicha

shaklda buralishga majbur bo'lib, holdan toyadi. Bu yerda aql qotib turadi, tafakkur harakatsizlikda zaiflashadi, tasavvur o'z qanotlaridan mosuvo bo'ladi; faqatgina xotira sergap bo'ladi va peshlanadi, o'zining barcha yoriq-teshik va o'nqir-cho'nqir joylarini bugungacha unga mutlaqo notanish bo'lgan tovush shakllari bilan to'ldiradi. Tilni o'rganish chog'ida hamma narsa qiyin va yoqimsiz ko'rindi. Agar o'z eshituvini ovozlarning noodatiyligiga o'rgatib va begona ifodani o'zlashtirish chog'ida umid quvvat bermaganida edi, so'ng uning uchun yoqimli narsa namoyon bo'lmasdi, bunday jiddiy yo'lga ishonchszlik bilan kirishni istagan bo'lardi. Ammo bu qiyinchiliklarni bosib o'tgach, uning bunga sarflagan mehnati unga necha martalab va doimiy tarzda o'z mukofotlarini bera boshlaydi. Yangi o'rganilganlar tabiiy ko'rinish ola boshlaydi, tasavvuring yangi zanjiri hosil bo'ladi. Begona tilni o'zlashtirib, biz shu til qo'llaniladigan o'sha hududning odamiga aylanamiz, mingming asrlar ilgari yashab o'tganlar bilan suhbatlashamiz, ularning tushunchalarini o'zlashtiramiz; barcha xalqlarni, ijod va tafakkurning barcha asrlarini uyg'unlashtiramiz va bitta bog'lamga olib kelamiz.

Lomonosovning til o'rganishga bo'lgan astoydil qunti uni Afina va rimlik fuqarolar safiga qo'shdi. Uning mukofoti ham Lomonosov uchun doimiyga aylandi. Onaning qornidan yorug'likni ilg'amaydigan basir bo'lib tug'ilgan va mohir ko'z shifokorining shifobaxsh qo'llari bilan bu dunyo kunlarining ulug'verligi uning ko'z oldida porlay boshlagan odam singari, tabiatning barcha go'zalliklarini tezkor nigoh bilan ilg'ab oladi, uning bepoyonligi va turli-tumanligidan hayratga tushadi. Hamma narsa uni maftun etadi, hamma narsa uni ajablantiradi. U ko'zlarida jonlanib balqiy boshlagan nuring nafosatini his qila boshlaydi, bundan zavqlanadi va hayajonga tushadi. Xuddi mana shu yanglig', Lomonosov ham lotin va yunon tillari haqida ma'lumotga ega bo'lar ekan, ularning qadimiyl notiq va shoirlarining muxlisiga aylandi. Ular yordamida u tabiat nafosatini his etishni o'rgandi; ular yordamida san'atning nazm shaklida ilhom tuhfasi ostiga yashiringan barcha nozik qirralarini anglashni o'rgandi; ular yordamida o'z hissiyotlarini namoyon qilishni, jonsiz vujudga tafakkur va ruh berishni o'rgandi.

Agar mening kuchim yetarlicha bo‘lganida edi, bu buyuk inson qanday qilib doimiy tarzda uning ruhi va tafakkurida bo‘y ko‘rsatgan o‘z fikrlarini begona fikrlarga, ko‘chirib o‘tkazganligini, yangi ko‘rinishda uning asarları bugungacha inson tafakkuri ilg‘amagan mutlaqo yangicha tarzda dunyoga kelganini sizlarga tavsiflab bergen bo‘lardim. Shuningdek, uning o‘z o‘quv dargohidagi qadimiy qo‘lyozmalardan bilim izlaganini, qayerda bilim olish imkonini bo‘lsa, o‘sha yerni xazina bilib, uning ortidan yugurbanini ta’rifga joylar edim. U o‘zining kutganlaridan juda ko‘p aldanardi ham, ammo cherkov kitoblarini muntazam o‘qib, u asosni o‘zining uslubidagi nazokatga berdi; u mana shu uslubda rus so‘zi san’atini o‘zlashtirishni istaganlarga taqdim qildi.

Tez orada uning qiziquvchanligi yuksak natijalar olib kela boshladi. U mashhur Volfning¹ shogirdiga aylandi. Unga monaxlar bilim yurtida o‘qitilgan sxolastika qoidalaridan yoki barcha gumrohlikdan ajralib, donishmandlik qasriga chiqish darajasini mustahkam va ravshan yo‘l sifatida tanlab oldi. Mantiq unga mulohaza yuritishni o‘rgatdi; matematika – xulosalarning ishonchliroq bo‘lishiga erishishga va yagona to‘xtamga kelishga yordam berdi; metafizika unga ko‘pincha chalkashuvlarga yetaklashishi mumkin bo‘lgan farazdan, haqiqatni faraz qilishdan saboq berdi; fizika va kimyo, ehtimol tasavvur kuchining nafisligi bois, a’lo darajada o‘zlashtirildi; uni tabiatning qurbanlik olamiga olib kirdi va o‘z tilsimlarini ochdi; metallurgiya va mineralogiya, xuddi avvalgilarning izdoshi singari uning qiziqishlarini o‘ziga jalb qilib oldi; Lomonosov bu fanlarda ularning boshqaruv xususiyatini amalda qo‘llagan holda anglashni istadi.

Mehnat hosilining va ijod mahsullarining mo‘l-ko‘lligi ularni nuqsonlilari bilan almashtirishga odamlarni majbur qildi. Bu ish savdo orqali amalgalash oshdi. Ayirboshlash savdosidagi juda katta qiyinchiliklar odamlarda barcha boylik va barcha mulklarining belgisini ifodalovchi va vosita vazifasini bajaruvchi haqida fikrlarni uyg‘otdi. Mana shunday belgi va vosita bo‘lib, pul dunyoga keldi. O‘zining qimmatbaho metall sifatidagi yuqori qiymatlari bo‘lgan va bugungi

¹ Volf Xristian (1679–1754) – marburglik professor, tabiatshunoslik va falsafa bilimdoni.

kunda ham zeb-ziynat vositalari sifatida qo'llaniladigan oltin va kumush almashlov vositasi sifatida har qanday mahsulotning qiymatini o'zida namoyon qila boshladi.

Va faqat mana shundan so'ng, haqiqatan ham mana shundan so'nggina odamzodning yuragida to'ymas va boylikka nisbatan yaramas ochko'zlik paydo bo'ldi va xuddi alanga singari, oziqlangan sari yanada alangalanib, hamma yoqni yoqib, kuchaya bordi. Shunda, o'zining dastlabki soddaligini va dastlabki mashg'uloti bo'lgan dehqonchilikni tark etib, odamzod o'z nafsining yovuzlarcha erki-ga yo'l berdi, cho'l jaziramasi va yaydoqligini nazar-pisand qilmay, ularni bosib o'tib, uzoq o'lkalarga boylik va xazina qo'lga kiritish istagida yo'l soldilar. Shunda ular quyosh nurini mensimay, tiriklay qabrga tushdilar, yerning qa'rini ohib, o'ziga ozuqa izlovchi yerosti hayvoni singari o'zlariga in qurdilar. Mana shu tarzda odamzod yer ostiga tushib, izg'ib, yaltiroq metallni izlay boshladi va yerdan chiqayotgan zaharli bug'larni yutib, o'z hayotiy chegaralarini teng yarmiga qisqartirdi. Ammo mana shu zaharlanish odatiy holda bo'lib, odamning metall qazib olishida zaruratga aylandi, qazib oluvchilarning kunlarini qisqartirib, ajal keltiruvchisi sifatida ham uni rad etmadid; imkon boricha tobora ko'proq metall qazib olish usullarini izlay boshladi.

Mana shu narsani Lomonosov chuqur anglashni istadi va o'z maqsadini amalga oshirish uchun u Freyberxga yo'l oldi. Men tasavvur qilyapman, uning yerning ichaklaridan metallni sug'urib olishadigan o'pqon sari yo'l olganini ko'ryapman. Xira yoritgich olgan, u quyosh nuri hech qachon yetib bora olmaydigan darani yoritishga mo'ljallangan. Birinchi qadamini tashladi.

– Nima qilyapsan? – so'raydi undan aql. – Nahotki tabiat sen ga o'z tortiqlarini sen o'z birodarlarining halokatiga qo'llassing uchun bergen bo'lsa? Bu jarlikka tushib, nimalarni xayol qilmoq-dasan? Shunday kuchli san'atingni oltin va kumush qazib chiqarishga sarflashni istaysanmi? Yoki ular bu dunyoda qanday yovuz ishlarni amalga oshirishayotganini, aniqrog'i, qanday yovuzliklariga sabab bo'lishayotganini ko'rmayapsanmi? Yoki Amerikaning qanday zabit etilganini unutdingmi?.. Yo'q, tushma, insonning yer

osti qaroqchiligin angla va vataningga qaytib, yetarlicha qat'iyatli ruhiyat bilan qurollangan holda, unda minglab odamlar haqiqatan ham o'z o'limini topayotgan bu qabrlarni ko'mib, tekislab tashlash to'g'risida fikringni ayt.

U titragancha jarlikka tushadi va tez orada tirik nurni ko'zdan yo'qotadi. Men uning ortidan yerosti sayohatiga tushishni, uning xayolidan o'tganlarni yig'ib olishni va bu xayollarni uning miyasida dunyoga kelgan tartibda va bog'liqlikda sizga yetkazishni istagan bo'lardim. Uning xayollari manzarasi biz uchun juda qiziqarli va ibratli bo'lgan bo'lur edi.

Yerning hayotdagagi barcha bema'nilikning manbasi bo'lgan birinchi qatlamidan o'tib, yerosti sayohatchisi ikkinchi qatlamning birinchisidan farq qilishini va uning hosildorlik kuchi bilan ajrab turishini aniqlaydi. Xulosaga keladiki, ehtimol bu yerning yuza qismi hayvon va o'simliklarning qodiqlaridan o'zga narsadan tashkil topmagandir; uning hosildorligi, oziqlantirish va yangilash kuchining ibtidosi barcha borliqning o'z mohiyatini butunlay yo'qotmasdan turib, faqatgina yaralgandagi tasodifiy tuzilish shaklinigina o'zgartiradigan birlamchi va buzilmas qismlariga borib taqalar.

Yo'lini davom ettirar ekan, yerning har doim ma'lum tartibda joylashgan qatlamlarini ko'rdi. Ayrim hollarda bu qatlamlarda den-gizda yashovchi hayvonlarning qoldiqlarini topdi, o'simliklar qoldiqlarini ko'rdi va u yerning qatlamma-qatlam joylashuvi suvning oqimi yo'nalishida joylashganini, bu qatlamlar yerning birinchi yarimsharidan ikkinchi yarimshariga ko'chib o'tib, yerning qa'rini qaytarzda namoyon qilishi mumkinligini xulosa qildi. Bu qatlamlarning bir ko'rinishda joylashuvi gohida ko'z o'ngidan yo'qolib, juda ko'p turli qatlamlarning birlashib ketgani shaklida ham namoyon bo'ldi. Bundan xulosa qildiki, shiddatli tabiiy ofatlar, yer qa'riga oqib kirgan va o'zi bilan kurasha oladigan namlik bilan uchrashgan olov qizib, quyilib, yorilib, unga qarama-qarshi kuchi bilan bas kelishi mumkin bo'lgan metall holida to'plana borgan. Turli xildagi metallarni aralashtirib va qorishtirib, o'zining qaynoq nafasi bilan metallarning dastlabki holatidagi tortish kuchini qo'zg'atadi va ularni birlashtiradi. Shuningdek, u yerda Lomonosov o'z holida o'lik bo'lgan

xazinaning tabiiy holatini ko‘rdi, ochko‘zlik va insonning kulfatini esladi va yuragi siqilib, yeb to‘ymas odamzodning bu zulmat makanini tashlab chiqib ketdi.

Tabiatni anglash borasidagi intilishlarini davom ettirish bilan birga u o‘zining she’riyatga oshnoligini ham tashlab qo‘ymadi. U hali vatanida ekanidayoq hodisalar tabiat uni buyuklik uchun yaratganini ko‘rsatib berdi; ya’ni u odamzodning odatiy qadam tashlaydigan yo‘lidan yurmaydi. Simeon Polotskiy she’rlarida taqdim etilgan Psaltir unga tabiat asrorini ochib berdi va uning shoir ekanini namoyon qildi. Goratsiy, Virgiliy va boshqa qadimiy yozuvchilar bilan suhbatlashib, u bir narsaga amin bo‘ldiki, rus she’riyati umuman bizning tilimizning ahamiyati va jarangdorligi bilan nomutanosib edi. Nemis shoirlarini o‘qib, u ularning she’riyatidagi bo‘g‘in ruslar-nikiga qaraganda ohangdorroq ekanligini, turoq esa ularning tiliga xos tarzda shakllanganligini ko‘rdi. Va u dastavval rus she’riyatiga tilimizdagи jarangdorlikka hamohang qoida o‘rnatib, yangi shakldagi she’r yaratish tajribasini yo‘lga qo‘yishni maqsad qildi.

U rus qo‘sishinlarining turklar va tatarlar ustidan qozongan g‘alaba va *Xotinning qo‘lga kiritilishi to‘g‘risida qasida yozib, ushbu maqsadini amalga oshirdi va uni Marburgdan Fanlar akademiyasiga jo‘natdi* (154). Turoqning noodatiyligi, deyarli jonli namoyon etilgan ifoda va tasvir kuchi o‘quvchining bu yangi asarga nisbatan hayratini tug‘irdi. Va bu birinchi tug‘ilgan va o‘zgacha yo‘ldan shitob bilan qadam solgan asar, bir kuni xalq kamolot sari yo‘naltirilganda u sharaf sari bitta so‘qmoqdan emas, birvarakayiga ko‘plab yo‘ldan borayotganligiga isbot sifatida xizmat qildi.

Tasavvur kuchi va jonli hissiyot tafsilotlarni izlashni rad etmaydi. Lomonosov hamohanglikka misol keltira turib, turoqning nafisligi tilga bog‘liq qoidalarga asoslanganligini bilgandi. U bu qoidalarni so‘zning o‘zidan ajratib olishni xohladi, ayni damda, birinchi odam hamisha so‘z birikmasiga namuna berishini, qoidalardan kelib chi-quvchi iboralar ham odatlar bilan to‘g‘ri bo‘lishini unutmadi. Barcha so‘z turkumlarini ajratib va ularni qo‘llanilishi bilan birga taroziga solgan holda Lomonosov o‘z grammatikasini¹ yaratdi. Ammo rus so‘zlari qoidalardan dars berishdan qoniqmay, u yaxlit insoniyat

¹ Lomonosov 1757-yilda birinchi rus ilmiy grammatikasini yaratdi (*tarj.*).

so‘zi haqida insonga o‘z fikrlarini ifodalash uchun berilgan ulug‘ vor tortiq sifatida tushuncha bera boshladi.

Uning grammatikasi qisqacha quyidagilarni o‘z ichiga oldi: so‘z quroli – bu ovozdir; ovoz so‘zning yaralishi yoki talaffuzdan o‘zgaradi; ovozning turli tarzda o‘zgarishi fikrlarning o‘zgarishini bildiradi; shunday qilib so‘z tanamizning shunga mo‘ljallangan a’zosini yordamida vujudga keladigan ovoz vositasida fikrlarimizni ifoda etadi. Keyinchalik o‘z asoslariga suyanib, Lomonosov bo‘linmas so‘z turkumlarini aniqlaydi va bu ifoda harflar deb nomlanadi. So‘zning o‘zgarmas turkumlari tuzilishi ovozlardagi tafovutlarning hosil bo‘lishidan tashqari she‘r tuzilishiga asos bo‘ladigan urg‘u bilan ham farqlanadigan bo‘g‘inlarni vujudga keltiradi. Bo‘g‘inlarning bog‘lanishi nutqni yoki ma’lum bir ma’noni bildiradigan so‘z turkumini hosil qiladi. Bular yoki narsa, yoinki harakatni ifodelaydi.

Predmetlarning so‘zdagi ifodasi ot deyiladi; harakatdagi ifodasi esa fe‘l deyiladi. So‘zlarning o‘zaro birikmasini ifodalash va ularning nutqdagi ifodasini qisqartirish uchun so‘zning boshqa turkumlari yoki bo‘laklari xizmat qiladi. Ammo avvalgi ikkitasi muhimdir va ular (ot va fe‘l) gapning bosh bo‘lagi, qolganlari esa ikkinchi darajali bo‘laklari deb nomlanishi mumkin. Turli so‘z turkumlari to‘g‘risida gapiroyotib, ularning ayrimlari o‘zini o‘zgartirishi mumkinligini aniqlaydi. Predmet boshqa predmetning holati bilan bog‘liq turli fikrlarda ishtirok etishi mumkin. Bunday holatlarning ifodasi va o‘zaro aloqasi kelishiklar deb nomlanadi va otlar (predmet nomi) bosh, qaratqich, tushum, chiqish, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari bo‘yicha turlanadi.

Harakat vaqtga qarab turlicha taqsimlanadi; bundan fe‘lning ham qaysi davrda amalga oshirilayotganiga qarab, zamonlarga bo‘linadi, ya’ni hozirgi zamon, o‘tgan zamon va kelasi zamon fe‘li. Nihoyat, Lomonosov gapning nutqni ifodalovchi muhim bo‘laklari tuzilishi to‘g‘risida gapiradi.

Umuman, bizning tana tuzilishimizga asoslangan so‘z haqidagi bunday falsafiy mushohadalarni muqaddima sifatida keltirib, Lomonosov rus so‘zi qoidalaridan saboq beradi. Bu qoidalar ularni tasvirlaydigan aql grammatik qiyinchiliklarda donishmandlik mayog‘i bo‘lishida vositachi bo‘la oladimi? Ey buyuk inson, bu maqtovlardan

o'zingni olib qochma. Vatandoshlaring orasida senga faqat sening grammatikang shuhrat olib kelgani yo'q. Rus so'zi oldida sening xizmatlaring ko'p qirralidir va sen ona tilimizning tabiiy qoidalari ning birinchi asoschisi sifatida, so'zning har qanday tabiiy joylashuvining tadqiqotchisi sifatidagi mehnatlaring bilan hurmatga sazovordirsan. Sening grammatikang sening notiqlik san'ati nazariyangning¹ debochasi hisoblanadi, unisi ham, bunisi ham asarlaringdagi ifodalarning go'zalligini his etishga dastur bo'lib xizmat qilishadi.

Qoidalari to'g'risida saboq berishga kirishar ekan, Lomonosov vatandoshlarini Gelikonning mashaqqatli yo'lida boshqarishni, she'riyat va notiqlik san'ati nazariyasini yaratib, ularga chiroyli nutq irod qilish yo'lini ko'rsatishni nazarda tutadi. Ammo umrining qisqaligi bu mashaqqatli mehnatning faqat yarminigina amalga oshirishga imkon berdi.

Nozik hissiyotlar bilan tug'ilgan, kuchli tasavvur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, milliy g'urur bilan qurollangan inson xalq orasidan otilib chiqadi. Hukmlar ijrosi joyiga chiqadi. Hammaning nigohi unga qaratiladi, hamma uning nutqini sabrsizlik bilan kutib turadi. Uni qarsak bilan olqishlashlar yoki o'limdan ham qattiq bo'lgan masxara kutib turibdi. Qanday qilib u o'rtada bo'la olishi mumkin? *Demosfen shunday bo'lgan* (155), Sitseron shunday bo'lgan, Pit shunaqa bo'lgan; bugungi kunda Burk, Foks, Mirabo² va boshqalar ham xuddi shunaqadirlar. Ularning nutq san'ati qoidalari vaziyatdan kelib chiqqan, so'zning yoqimliligi ularning hissiyotlaridan, dalil kuchi esa ularning donoligidan yuzaga kelgaj. Bu insonlarning ajoyib so'zlaridan biroz hayratga tushgan holda va ularning nutqlarini bo'laklarga ajratib, sovuqqon tanqidchilar qoidalarni zukkokilik va tasavvur bilan tasvirlash mumkin, deb o'yashdi, shuningdek, jozibadorlikka yo'lni pishiq dastur orqali belgilash mumkin deb o'yashdi. Bular notiqlik san'atining boshlanishi edi. Lomonosov esa ularni payqamasdan, qadimiy yozuvchilar bilan suhbat asnosida erishgan tasavvurlariga ergashib, uning qalbini to'ldirib turgan olov

¹ «Notiqlik san'atining qisqacha dasturi» (1748) (tarj.).

² Pit (Pitt) Katta Uilyam (1708–1778), Burk (Berk) Edmund (1730–1797), Foks Charlz Jeyms (1749–1806) – taniqli ingliz siyosiy arboblari va notiqlari; Mirabo Onore-Gabriyel-Riketti (1749–1791) – fransuz siyosiy arbobi, notiq (tarj.).

to‘g‘risida o‘z vatandoshlariga ma’lum qilmoq to‘g‘risida o‘ylardi. Va garchi u ularga behuda mehnat sarflagan bo‘lsa-da, ammo uning qoidalarini tushuntirish va ilova qilish uchun keltirilgan misollari filologiya fani tomonidan erishilgan shuhrat izidan ergashgan insonga shubhasiz ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilishi mumkin edi.

Biroq agar u qoidalardan saboq berishda uni takrorlashdan ko‘ra ko‘proq his qilishi lozimligi bois, qilgan mehnati behuda bo‘lsa, Lomonosov rus so‘zini sevadigan insonlar uchun o‘z asarlarida umidli misollar, namunalar qoldirdi. Ularda Sitseron va Demosfen asarlari-dagi xush ta’mning qorishiqligi so‘zga ustomonlikni keltirib chiqargan. Ulardagi har bir misrada har bir to‘xtamda, har bir bo‘g‘inda, nima uchunligini aytal olmayman: har bir harfda – tekis va jarang-dor ohang shunchalar kam eshitilar, shunchalar kam taqlid qilingan, so‘zlar ohangi shu qadar o‘ziga xos edi.

Tabiatdan o‘z zamondoshlariga ta’sir ko‘rsatishning beba ho huquqini olib, undan xalq ichida sharaf topgan ijod qilish, yaratish kuchini qabul qilib, bu buyuk inson unga ta’sir ko‘rsatadi, ammo har doim ham faqat bitta yo‘nalishda ish olib bormaydi. Tabiiy kuch singari o‘z harakatini butun atrof bo‘ylab har bir nuqtaga yo‘naltirgan holda markazdan ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyat o‘z doimiyligini hamma joyda amalga oshiradi. Xuddi shu kabi, Lomonosov ham o‘z vatandoshlariga turli tarzda ta’sir ko‘rsatib, umumiyl aqlga anglash yo‘lini turli ko‘rinishda ochib berdi.

Uni o‘z ortidan ergashtirib, chalkashgan til tugunini yechib, uni so‘zamollik va ohangdorlikka yo‘naltirgan holda, uni fikrsiz, filologiyaning g‘arib manbasida qoldirmadi. Tasavvurga dedi: behad orzular va imkoniyatlar bo‘ylab uch, jonli yorqin gullardan ter va uning ta’mini tatib, u bilan nomoddiylikni bezat. Va bu Olimpiya o‘yinlarida yana gumburlaydigan Pindar¹ karnayi diniy qo‘shiqlar kuylovchi ortidan Oliy zotga hamd-sanolar yo‘lladi. Unda Lomonosov abadiy ulug‘vorlikni olib chiqdi, shamolning qanotida o‘tirib, momaqaldiroq va chaqmoqning oldiga tushgancha, quyoshda o‘zining mohiyati, hayoti bilan o‘tkinchiga aylandi. Pindar karnayi

¹ *Pindar* (er.avv. 522–447) – yunon shoiri, Olimpiya o‘yinlari g‘oliblariga bag‘ishlangan qasida muallifi. Radishchev uni diniy qo‘shiqlar kuylovchisining, ya’ni Injildagi shoh Davidning davomchisi, deb ataydi (*tarj.*).

ovozini boshqarib, unda insonning foniyligini va uning tushunchalari chegarasi qisqa ekanligini kuyladi.

Dunyoning poyonsiz chulg‘amida dengiz to‘lqinidagi qum zarsi kabi, hech qachon erimaydigan muzlikda arang miltiragan uchqun kabi, quturgan bo‘rondagi bir gard singari insonning aqli nima bo‘pti! Bu sen. Ey Lomonosov, mening kiyimlarim seni yopmaydi.

Ko‘pincha nafaqat maqtovga loyiq, balki bitta jiringlash sasidan ham past bo‘lgan ingichka ovozda shohlarni maqtovchi umumi odatta rioya qilgan holda o‘z she‘rlaringda Yelizavetaga tilyog‘lamalik qilganingga hasad qilmayman. Agar haqiqat va nasl surish jarohatsiz bo‘lishi mumkin bo‘lganida edi, men seni qalbing muruvvatga moyil bo‘lganligi uchun ham kechirishim mumkin edi. Ammo sening ortingdan ergasha olmagan qasida yozuvchi hasad qiladi, xalqning osoyishtaligi va tinchligining go‘zal manzarasiga, shahar va qishloqlarning kuchli muhofazasiga, podsholiklari va mehribon podsholari ga hasad qiladi; so‘zlarining behad go‘zalligini ko‘rolmaydi; agar qachonlardir sening she‘rlaringdagi takrorlanmas ohangdorlikka erishish nasib qilsa, albatta, ammo bugungacha bu hech kimga nasib etmagan. Mayli, har kim ham o‘zining shirin ohanglari bilan sendan o‘tib ketsin, mayli, avlodlarimizga sening she‘rlaringning mohiyatida ayrim hollarda fikrlarda uyg‘unlik yo‘qday tuyulsin!.. Ammo qara: poyonini ko‘z ilg‘amaydigan bu maydonda, ko‘p sonli olomon orasida, hammaning oldida, bosh-qosh bo‘lib maydonga darvoza ochadigan – bu sen. O‘z jasorati bilan hamma ham sharafga loyiq bo‘lishi mumkin, ammo sen birinchi bo‘lding. Eng qudratli inson ham senga berilganni tortib ololmaydi. U seni boshqalardan oldin dunyoga keltirdi, u seni yo‘lboshchilik uchun yaratdi, sening sharfing yetakchining sharafidir.

O! Siz, ruhning mohiyatini anglash va uning tanamizga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish uchun samarasiz mehnat qilayotganlar, bu mashaqqatli vazifa siz uchun sinovdir. Ayting-chi, bir ruh ikkinchisiga qanday ta’sir ko‘rsatadi, aqlar o‘rtasida-chi, qanday bog‘liqlik bor? Agar bir tana ikkinchisiga teginish orqali ta’sir etishini biladigan bo‘lsak, nomoddiy narsa nomoddiy narsaga ta’sir qilib, moddiyatni qanday yuzaga keltirishi mumkinligini, yoki nomoddiy narsalar o‘rtasida qanday aloqa mavjudligini ayting; u mavjuddir

va siz buni bilasiz. Ammo agar buyuk insonning tafakkuri umumiy tafakkurga qanday ta'sir ko'rsatishini ayta olsangiz, u holda, buyuk inson buyuk insonni dunyoga keltirishini ham aytинг va bu yutug'in-giz g'olib bo'lgay.

O! Lomonosov, sen Sumarakovni yaratding.

Lekin Lomonosov she'riyatining ta'siri zamondoshlarining she'riyat to'g'risidagi tushunchalarining shakllanishida katta qadam bo'lishi mumkin bo'lsa, uning notiqlik san'ati ta'sirchan yoki aniq bir ta'kid bermadi. Afina va Rimdan terilib, uning so'zlariga o'ta mahorat bilan o'tkazilgan gullar, Demosfenning ifoda kuchi, Sitteronning yoqimli nutqi kelajak zulmati ostida qoldi. Va kim? U sening haddan ortiq hamd-sanolar bilan qorishiq nutqingdan bezib ketgan, u jar solganda hech bo'lmaganda sening bo'g'inqalingdan foydalanmaydi, ammo sening shogirding bo'ladi. Bunga uzoq vaqt bormi yoki kam vaqt qoldimi, adashgan nigoh noma'lum kelajak ichra darbadar kezib, to'xtash uchun o'ziga joy topolmaydi. Ammo biz bevosita Lomonosovning so'zamolligidan merosiylit topmaymiz, uning yoqimliligi va otashin nutqining jarangdor ohangi hamma uchun birday bo'lgan. Agar so'zamollik borasida unga izdosh fuqaro bo'lman bo'lsa, lekin umumiy tarzdagi yozuv bo'lib u keng tarqaldi. Lomonosovgacha nima yozilgan va undan keyin nima yozishgan, solishtirib ko'ring – uning nasr janrida yozganlarining ta'siri hammaga oyday ravshan bo'ladi.

Ammo biz o'z xulosamizda xatoga yo'l qo'ymadikmi? Lomonosovdan ancha ilgarigi davrlardan biz Rossiya cherkovlari ruhoniylari orasidan otashin nutq so'zlaydiganlarini topamiz, ular o'z ibodatchilariiga Xudoning kalomini yetkazishar ekan, uni o'rgatish jarayonida o'z so'zları bilan o'zları ham ulug'langanlar. To'g'ri, ular bo'lishgan, ammo ularning bo'g'ini rus bo'g'iniga oid edi. Ular tatarlar istilosidan oldin, ruslarning Yevropa xalqlari bilan muloqotga kirishidan avval qanday yozish mumkin bo'lgan bo'lsa, shunday qog'ozga tu-shirishgan. Ular slavyan tilida yozishgan. *Ammo siz, Lomonosovning o'ziga boqib va uning asarlaridan ehtimol so'zamolligini o'rganib* (156), mening yodimda qolasiz. Rus jangchilari mag'rur Usmonli turklar armiyasi ustidan g'alaba qozonishgach, hammaning umidi ko'tarildi, uning jasoratiga befarq nazar yoki hasad bilan qarashgan

bir paytda siz jang xudosi hamda qudrat xudosiga tantanali shukrona keltirishga chaqirdingiz.

O! Siz Pyotri qabri ustida turib chorlar ekansiz, qalbingizda unga nisbatan hayajon tuyasiz: «Tur, Pyotr, o‘rningdan tur!» va o‘z mehnatingiz mevasi pishib yetilganini ko‘rishingiz mumkin; siz tomoningizdan sehrlangan qulqoq, o‘z navbatida, ko‘zni ham sehrlanganda, hammaga siz Petrov tobuti yoniga kelib, uni Yaratgandan berilgan qudrat bilan uni siljitmogni istayotganday tuyulganingizda – shunda men ham Lomonosovga aytgan bo‘lardim: qara, qara, bu yerda ham siz ekkan daraxtni ko‘ryapman. Ammo u sizga so‘zni o‘rgata olganda edi... Aflatunda Aflatunning ruhi bor, u bizni ko‘rsin va xursand bo‘lsin, uning yuragi shuni o‘rgatgan.

Xushomadga begonalik nafaqat bizning hurmat-ehtiromimizni uyg‘otadi, balki mehr-muhabbatimizni ham oshiradi, biz buyuk insongaadolatni tutib, humma joyda uni suyab turguvchi xudosi bo‘lishni xayol qilmaymiz, uni jamiyat sig‘inadigan sanamga aylantirmaymiz va qandaydir xurofotni tezlashtirish va yolg‘on xulosa tug‘ilishiga vositachi bo‘lmaymiz. Haqiqat biz uchun eng oliv ilohdir va agar qodir Zot uning qiyofasini o‘zgartirmoqchi bo‘lsa va unda aks etmasa, u holda biz yuzimizni uning qiyofasini o‘zgartirmoqchi bo‘lgandan ters buramiz.

Haqiqat ortidan ergashib, Lomonosovdan buyuk *tavsiflovchini* (157) izlamaymiz, uni Tatsit, Renal yoki Robertson bilan taq-qoslamaymiz; uni *Markgraf* (158) yoki *Ridiger* (159) darajasiga qo‘ymaymiz, chunki ular kimyo bilan shug‘ullanishgan. Agar bu fan uning uchun sevimli bo‘lgan bo‘lsa, u o‘z umrining juda ko‘p kunlarini tabiat haqiqatini tadqiq qilishga bag‘ishlagan bo‘lsa, *uning bu qadamlari izdoshning qadamlari bo‘lgan* (160). U ravon yo‘l bo‘ylab bordi va tabiatning behisob boyliklaridan u hatto o‘tkir nighohlari ham ko‘rmasligi mumkin bo‘lgan bir xas ham topmadi, u qo‘pol prujina ostidagi uning o‘tmishdoshlari izlab topmagan moddiyatga nazar ham solmadi.

Nahotki uni inson o‘z tasavvurlaridan pastda ko‘rishi mumkin bo‘lgan eng xushomadgo‘ylik darajasidagi bitiklar bilan yonmayon qo‘ysak? Bu bitik erkalash ohangida bitilmagan, balki jur’atkor kuchga ega bo‘lgan haqiqatni tasvirlagan: «*U ko‘kdan yashin*

irg‘itdi, shohlar qo‘lidagi asoni ham» (161). Shuning uchunmi, biz Lomonosovni uning yoniga qo‘yamiz, chunki u o‘z hararkatlarida elektr kuchiga ergashadi; u ustozining uning kuchi bilan o‘limga yuz tutganini ko‘rib ham haqiqat yuzasidan tadqiqot olib borishdan yuz burmadi. Lomonosov elektr kuchini ishlab chiqarishni bilardi, u chaqmoq chaqinini qaytarishni uddalardi, biroq Franklin bu fanning me’mori edi, Lomonosov esa usta.

Lekin Lomonosov agar tabiat sinovlarida buyuklikka erishmagan bo‘lsa, uning harakatlarini haqiqiy va tushunarli uslubda tasvirlab berdi. Garchi biz uning ijodida tabiatshunoslikning tabiatshunoslik fanlariga aloqador bo‘lgan nazokatli o‘qituvchisini topmasak ham, biroq unda so‘zning murabbiyini topamiz va u hamisha uning ortidan ergashmoqqa o‘rnak bo‘lishga loyiqidir.

Shunday qilib, buyuk inson qo‘liga adolatni tutib, Lomonosov nomini munosib tarzda nurafshonlikka qo‘yib, uning zimmasiga o‘zi qilmagan yoki bu sohada biror ishni amalga oshirmagan narsasi uchun ham sharafga munosiblikni yuklamoqchi emasmiz; yoki faqat g‘azabkor so‘zlarni ko‘paytirib, jazava va g‘arazgo‘ylik bilan boshqaramiz. Bizning maqsadimiz bu emas. Biz shuni ko‘rsatmoqchimizki, rus og‘zaki va yozma adabiyoti bilan munosabatda kim sharaf saroyiga yo‘l solgan bo‘lsa, garchi u bu saroyga kira olmagan bo‘lsa ham, shuhrat qozonishning birinchi sababchisidir. Fanlarni qanday ko‘paytirish mumkinligini aytal olgan Bakon Verulamskiy¹ eslatib o‘tishga noloyiqmi? Insoniyatni qullik zanjiri va asirlikdan qutqara olishmagani bois cheklanmagan qudrat bilan zulmkorlikka qarshi bosh ko‘targan jasoratli yozuvchilar tan olishga loyiq emaslarmi? Va biz Lomonosovni sharaflamaymiz, chunki u *sharmandali she’riyat* (163) qoidalarini tushunmadi va epopeyada sustkashlik qildi, she’rlarida hissiyotlardan begona bo‘ldi, hukmda har doim ham ziyrak emas va qasidalarining o‘zida fikrdan ko‘ra so‘zlarni ko‘p keltirgan. Ammo e’tibor qiling: zamonlar boshlanishidan oldin, hali borliqning assosi bo‘lmagan va hamma narsa abadiylik, beo‘lchov dunyo ichra yo‘qolgan vaqtarda kuchning barcha manbasi uchun hamma

¹ *Bakon (Bekon) Verulamskiy* (1561–1626) – ingliz faylasuf-materialisti, fanda eksperimental uslubni boshlab bergen (*tarj.*).

narsa mumkin edi va koinotning butun go‘zalligi uning tafakkurida mavjud bo‘lgan, ammo harakat bo‘lman, ibtido yo‘q edi. Hamma narsaga qodir mana shu qo‘llar koinotga moddiyatni olib kirib, uni harakatga soldi.

Quyosh porladi, oy nurga to‘ldi va jismlar aylanib, tog‘larni hosil qildilar. Yaratilishdagi birinchi harakat hamma narsaga qodir edi; dunyoning barcha ajoyibotlari, uning barcha go‘zalliklari uning oqibatlardir. Men buyuk qalbning zamondoshlari yoki avlodlar ruhiyatiga ta’sirini ana shunday tushunaman. Aqlning aqlga ko‘rsatadigan ta’sirini mana shu tarzda talqin qilaman. Rus og‘zaki va yozma ada-biyotida Lomonosov birinchi.

Ammo, aziz o‘quvchi, men siz bilan yaxshigina suhbatlashdim... Mana, *Vsesvyatskoye* (164) ko‘rinmoqda... Agar sizni zeriktirmagan bo‘lsam, meni to‘sinq yonida kutib turing, siz bilan qaytayotganda ko‘rishamiz. Endi esa ma’zur tuting.

– Aravakash, hayda.

Moskva! Moskva!!!!

Cherkov Mahkamasi ruxsati bilan (165).

NASR

*** va *** T***ga sayohatdan parcha

XIV BOB

Bu shahardan chiqib ketaverishimda men har qanday qishloq va aholi yashash joylariga to‘xtab o‘tdim, negaki ularning hammasi teng darajada mening qiziquvchanligimni o‘zlariga jalb qilardilar, ammo bu sayohatning uch kunida maqtovga arzigelik hech narsa topmadim. Hamma joyda dehqon qiyofasida men qullik va qashshoqlik bilan ro‘baro` kelardim. Haydalmagan dalalar, kam don hosili menga bu yerning egalari, ya’ni pomeshchiklari dehqonchilik ishlarini qanday yo‘lga qo‘yanliklaridan so‘zlab turardi. Ingichka to‘sirlardan iborat poxol bilan yopilgan kichik kulbachalar, chetan devor bilan o‘ralgan hovlilar, bug‘doyning yanchishdan oldin quritishga qo‘yilgan kichik bog‘lamlari, juda kam uchraydigan otlar va

qoramollar butun bir davlatning qudrati va boyligini tashkil etishi lozim bo'lgan bu bechora qashshoqlarning yetishmovchiliklari na-qadar ko'p ekanligini tasdiqlab turardi.

Men birorta ham qishloqni qoldirmadim, dehqonlarning bu qadar qashshoqliklarining boisini ularning har biridan surishtirib o'rghanishga harakat qildim. Va ularning javoblarini eshitib, ming bor alam bilan bunga yer egalarining o'zлari sababchi ekanliklariga amin bo'ldim. Ey, insoniyat! Sen o'zingga o'xshaganlarga, o'z qavmingga zulm qilasan. Ey, saodatl saxovatpesha, baxtga erishmoqda sen yovuzlikdan foydalanasan: ahmoq pomeshchiklar bu bechora qullarni senga ko'proq otlar yoki itlariga o'xshatib tanishtiradilar, odamlarga emas! Nozik hissiyotga ega yurakning juda qattiq titrog'i bilan men ayrim qishloqlarni, aholi yashash joylarini, ularning pomeshchiklarini tavsiflashni boshlayman. G'arazgo'ylik va tilyog'lamalik, razil qalblarning tuban xususiyatlari, mendan nariroq turing: mening qalamimni haqiqat boshqaradi!

Razoryonnaya (Xaroba) qishlog'i eng pastqamlik va botqoqzor yerda joylashgan. Bir-biri bilan tutashib turgan yigirmata chamasi hovli bor, ular qurigan shox-shabbalardan iborat chetan devorlar bilan o'ralgan va birinchi kulbadan boshlab to oxirisigacha poxol bilan yopilgan. Xo'jayinlarining behafsalaligi evaziga alanga olgan shafqatsizlikning qanchalar bebaxt qurbanlari! Kulbalar yoki yaxshisi vayron bo'lib yotgan g'arib boshpanalar sayohatchining nigo'hida odamlar tashlab ketgan yashash joylari (hatto qishloq ham deb bo'lmaydi) tasavvurini shakllantiradi. Ko'chalar loy, balchiq va turli-tuman isqirt narsalar bilan qoplangan bo'lib, faqat qishki vaqtladagina quruq turardi.

Bu xaroba makonga kelayotib birorta odamga ko'zim tushmadi. O'shanda kun juda issiq edi, men usti ochiq foytunda keldim, chang va jazirama yo'lda meni shu qadar holdan toydirdiki, men birozgina hordiq chiqarish uchun nurab yotgan mana shu kulbalardan biriga kirishga oshiqdum. Aravakashim g'aribgina bir hovli darvozasi oldida to'xtadi, uning ta'kidlashicha, bu hovli boshqalari dan ko'ra eng yaxshisi va uning sohibi boshqalarga ko'ra yaxshiroq kun kechirar ekan, sababi, uning sigiri bor edi. Biz darvoza oldida uni taqillatib ancha turib qoldik, ammo hech kim bizga javob qay-

tarmadi. Hovlida bog‘langan it sokin va xirildoq ovozda g‘ingshib qo‘ydi, xolos, u go‘yo bu yerda u qo‘riqlashi lozim bo‘lgan narsa ning o‘zi yo‘qligini bildirayotgandi. Aravakashning sabri tugadi, u o‘zini tutolmadi va darvozadan hatlab o‘tib, uni ichkari tarafdan ochli. Mening izvoshim agar poxolni loy va balchiq ustidan to‘sab bo‘ladigan bo‘lsa, u to‘shalgan loy hovliga olib kirildi, men esa e shigi lang ochiq turgan kulbaga kirdim. Hamma yerda notozalikning zaharli muhiti hukmron, haddan tashqari dim va g‘uvillab yotgan be hisob chivinlar to‘dasi meni u yerdan haydab chiqardi, uch nafar bu yerda qoldirilgan go‘daklarning yig‘isi esa meni u yerda olib qoldi. Men bu g‘arib bechoralarga yordam berishga oshiqdirm. To‘slnlarga arqon bilan bog‘langan savat belanchak yoniga keldim, bu yerda hech qanday qarovsiz yosh go‘dak bolalar yotishardi, ulardan biring sut solingan shishasi tushib ketgandi; men shishani to‘g‘rilab, so‘rg‘ichini bolaning og‘ziga tutdim va u tinchlandi. Ikkinchisi esa eng qalin bo‘z ichiga somon solib to‘ldirilgan yostiqchaga yuz tuban o‘girilib qolgandi; men shosha-pisha uning yuzini yostiqdan olib, yuqoriga o‘girdim va ko‘rdimki, tez yordam ko‘rsatilmasa, u hayotidan mahrum bo‘lishi mumkin edi, negaki u nafaqat ko‘karib ketgan, hatto qoraya boshlagan va deyarli o‘limning qo‘lida turardi; ko‘p o‘tmay u ham tinchlandi. Uchinchisining yoniga borganimda uni yo‘rgaklangan holda ko‘rdim, uning yuzi va badanini ko‘plab chivinlar qamrab olishgandi va bolani shafqatsizlarcha azoblasha yotgandi. U yotgan somon esa bolaning nozik badaniga botayotgan va shu bois u chinqirgancha yig‘layotgandi. Men bu bolaga ham yordam ko‘rsatdim, barcha chivinlarni haydadim, kulba ichiga yoyib qo‘yilgan va garchi notoza bo‘lsa-da, ammo quruq bo‘lgan boshqa bir choyshabchani olib, uni yo‘rgakladim, bola oyoqchalarini tipir latib to‘zitib yuborgan somonni tekisladim; bu bola ham yig‘idan to‘xtadi. Bu go‘dak bolalarga qarab va bu odamlarning g‘arib holatiga kirib, men baqirib yubordim: dehqonning burda noni va eng so‘nggi osoyishtaligini ham tortib olgan shafqatsiz zolim! Qara, bu norasidalar nimani istashyapti! Birining qo‘l va oyoqlari bog‘liq, u bu haqda shikoyat qila oladimi?

Yo‘q, u o‘z kishaniga jimgina boqadi. U nimani istayapti? Unga faqat zaruriy ozuqa kerak. Ikkinchisi esa shuning uchun far-

yod chekdiki, u hozirgina hayotidan ayrilishiga bir bahya qoldi. Uchinchisi esa uni azoblamasliklari uchun butun insoniyatga qarab nola qilmoqda. Baqiringlar, bechora jonzotlar, – dedim men ko‘z yoshlaram yuzimni yuvib, – o‘z arzingizni yig‘lab aytинг, go‘dakligingizda shikoyat qilmoq huzuridan oxirgi marta bahra olib qoling; voyaga yetganiningizdan so‘ng mana shu huzurdan ham mosuvo bo‘lasiz. *Ey, o‘zining saxiy nurlari bilan *** munavvar etguvchi quyosh*, (166) bu bechora baxtsizlarga boq!

Odamzodga yordam ko‘rsatgach, endi o‘zimga ko‘mak bermoqqa shoshildim: kulbadagi og‘ir havo men uchun shu qadar bo‘g‘iq ediki, men arang undan otilib chiqdim. O‘z izvoshimga kelib, unga behush yiqildim.

Men bilan sodir bo‘lgan hushidan ketish holati uzoq cho‘zilmadi, men o‘zimga keldim,sovuj suv so‘radim, aravakashim quduqdan olib keldi, lekin u badbo‘y bo‘lgani tufayli icholmadim. Men toza suv so‘radim, lekin talabimga javoban butun qishloqda bundan yaxshi suv yo‘qligini va barcha dehqonlar bu iflos suvning boriga shukur qilishlarini eshitdim. Uy egalari, dedim men, o‘z go‘daklaringizning sog‘lig‘ini saqlash uchun hech bir qayg‘urmaysiz!

Men o‘sha uyning sohiblari qayerdaligini so‘radim; izvoshchim barcha dehqonlar va ularning ayollari dalada ekanliklarini aytdi. So‘ng qo‘sishimcha qildiki, men kulbada bo‘lgan vaqtimda u o‘sha atrofdan biron ta dehqonni topa olamanmi yoki yo‘qmi, deya orqa darvozadan tashqariga chiqibdi, u yerdan faqat kichik bir bolakayni topibdi. Bolakayning unga aytishicha, u uzoqdan izvoshimizdan ko‘tarilgan changni ko‘rib, xo‘jayinlari kelyapti, deb o‘ylashibdi va qo‘rqanlaridan qochib, yashirinib olishibdi.

– Ular tez orada qaytishadi, – dedi izvoshchim, – men ularga o‘tkinchi yo‘lovchi ekanimizni, sizning ham mehribon boyar ekanligingizni, ularni urishmasligingizni, ularga poyabzal berishingizni aytib ishontirdim.

Shundan so‘ng ko‘p o‘tmay, besh yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan ikkita bolakay va ikki nafar qizaloq kelishdi. Ularning hammasi yalangoyoq, ko‘ksi ochiq va faqat bitta ko‘ylak kiygan, boyar nomidan shunchalik qo‘rqiб, yovvoyiga aylanishgandiki, izvoshim

yoniga yaqinlashishga yuraklari dov bermayotgandi. Izvoshchim ularni yetaklab kelarkan, dedi:

— Qo‘rmang, u sizni o‘ldirmaydi, u yaxshi boyar, sizga eng yaxshi poyabzal beradi.

Bolalar izvoshim yoniga olib kelingan ham edilarki, to‘satdan hammalari orqaga o‘girilib, baqirgancha qochib qolishdi:

— Ay! Ay! Ay! Nima bo‘lsa, hammasini oling, faqat bizni urmang!

Izvoshchi ulardan birini ushlab olib, nima uchun bunchalar qo‘rqishayotganlarini so‘radi. Bola qo‘rquvdan titrab, dedi:

— Ha! Nega qo‘rqding, deysiz... bizni aldadingiz... bu janob qizil kaftan kiyib olgan ... bu, boshqa emas, u bizning xo‘jayinimiz ... u bizni uradi.

Bu shafqatsizlik va qo‘rquvning mevalari edi. Ey, siz, nozikta’b va yuragi tosh qotgan janoblar! Siz umringiz davomida shu qadar baxtsizlik yaratdingizki, o‘zingizga o‘xshagan odamlar sizdan yirt-qich hayvonlar kabi qo‘rqishadi.

— Qo‘rqma, do‘stim, — dedim men qizil kaftandan qo‘rqib ketgan bolakayga, — men sizning xo‘jayiningiz emasman; yonimga kel, men senga pul beraman.

Bolaning qo‘rquvi bosildi, oldimga kelib, pulni oldi va oyoqlarimga egilib ta’zim qildi, so‘ng orqasiga o‘girilib, boshqalarga baqirdi:

— Bu yoqqa kelinglar, bolalar, bu bizning xo‘jayinimiz emas, bu mehribon barin ekan, u pul beradi, u bizni urishmaydi!

Bolalarning hammasi o‘sha zahoti mening oldimga yugurib keliшди; men ularning har biriga yonimda bo‘lgan pul va pirogni tarqatib chiqdim. Ular esa qiyqirishardi:

— Menda pul bor! Menda pirog bor!

Ayni paytda quyosh o‘z og‘ishini tugatib, suv qa‘riga botdi, kunduzgi issiqlik o‘rnini salqinlik egalladi, qushlar o‘zlarining jo‘rovozlari bilan yoqimli tun qo‘shig‘ini kuylay boshladilar va tabiatning o‘zi hammani ishdan dam olishga chaqirib oldi. Ayni paytda, boylar, *Plutosning sevimilari* (167), butun kunni xushkayfiyat va ziyofatlar bilan o‘tkazib, yangi o‘yin-kulgilarga tayyorgarlik ko‘rishardi. Vaqtning bebaholigidan zerikkan, vaqt chog‘ bu odam-

lar bu kunni ham besamar o'tkazib, o'zlarining osuda to'shaklariga xotirjamlik bilan qaytib kelishardi va yana bir kun ularning asriga singib ketganidan shod edilar. Nozikta'b hakam va yaramas kotib bu kun ham cho'ntaklariga daromad tushganidan xursand bo'lishdi, ammo bu daromadning manbasi begunohning ko'z yoshlari edi. Butun kunni pardoz-andoz bilan o'tkazgan oliftalar va xotinbozlar uchrashuv uchun qirg'oqqa yugurishdi¹. Rashkchi turmush o'rtoqlar va sevishganlar o'z xonalariga berkinib olib, erkin mulozamatni la'natladilar. Yoshi o'tgan satanglar ko'plab mum shamlarini yoqib olib, yuzlarini turli xil hiyla-nayranglar bilan tartibga solib, o'zining xira nurlari bilan ularning nurini yo'qotgan jozibalarini tiklagan xay-rixoh keksa oyning ko'tarilishini tantana qildilar.

Qartabozlar butun tun bo'yi band bo'ladigan qarta stoli atrofida yig'ildilar va u yerda o'zlarining sha'ni, vijdoni va yaqinlariga bo'lgan muhabbatlarini yo'qotishdi, ular boy va sodda odamlarni har xil g'irrom yo'llar, hiylalar bilan aldashga va xonavayron qilishga hozirlik ko'rishdi. Boshqa o'yinchilar cho'ntaklarida o'z dehqonlarning bir yil davomida qilgan mehnati va to'kkan terlarini olib yuri-sharkan, ularni qimorga tikishga tayyorgarlik ko'rishardi.

Savdogar esa shu kuni vijdoni evaziga olgan foydasini hisoblab xursand bo'ldi va arzon mollardan ko'p daromad keltirganidan o'zida yo'q quvondi. Shifokor bugun bemorlari ko'p bo'lgani uchun Xudoga shukrona keltirdi va u narigi dunyoga yuborgan odam juda ham indamas odam ekanligidan xursand bo'ldi. Sud nazorati xodimi bu kunida o'ziga to'q odamni qanday qilib xonavayron qilganidan va boshqalarni ham xonavayon qilish uchun o'z hiylalarini qonunga muvofiqlashtirayotganidan xursand edi. Dehqonlar esa, uy egalari, daladan chang va ter ichra horib qaytishardi va bir odamning injiqliklari uchun bugungi kun ko'p ishlab berishganidan mammun edilar.

Ular hovliga kirib, izvoshda meni ko'rishdi va barchasi yerga egilib, ta'zim qilishdi. Shunda ular ichidan kattasi dedi:

– Uyda hech kim bo'limgani uchun jahlingiz chiqmasin, muhtaram janob. Barchamiz, qadrdon, dalada edik: osmon hukmdori qo'limizga chelak tutgan va yog'in-sochin boshlanmasdan oldin

¹ Ushbu sayohat plyajda sayr qilish modada bo'lgan paytda yozilgan, deb xulosa qilish mumkin.

hosilni yig‘ib olishga shoshilmoqdamiz. Shu kunlarda, qadrdon, havo yaxshi bo‘lib turdi va biz xo‘jayinning barcha hosilini yig‘ib bo‘ldik. Rabbim bizga himmat qo‘lini cho‘zib, agar ob-havo yana shunday turib bersa, o‘z hosillarimizni ham yig‘ib olamiz. Bizning boyarimiz shunday bir e’tiqodga ega, azizim, hosil pishishi bilan biz uni har doim avval boyarning donini yig‘ib olamiz va o‘zimiznikini uning hushiga qarab tezroq yig‘ib olishga tushamiz. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, valine’mat, biz o‘zimizga dushman emasmiz: agar tez yig‘ib olmasak va yog‘in boshlansa, nonimizdan ayrılamiz. Xudo asrasin! Biz Xudoga umid qilamiz: Xudo va hukmdor bizga rahmdil va agar Grigoriy Terentyevich bizga rahm qilsa, biz jannatdagidek yashagan bo‘lar edik.

– Qani, do‘stilarim, – dedim men ularga, – dam olinglar: ertaga yakshanba, siz dam olish kuni ishingizga bormasangiz kerak, ertaga bafurja gaplashamiz.

– Yo‘q, qadrdon! – dedi dehqon. – Yakshanba kuni qanday qilib ishlamaslik mumkin! Xudoga ibodat qilib, agar ishga bormasak, unda nima qilamiz! Agar hamma bayramni sayr bilan o‘tkazsak, unda ishlashga vaqt qolmaydi. Axir biz, qadrdon, xo‘jayinlar emasmiz, sayr qilgani. Busiz ham sayr qiladigan ko‘p.

Shunday deya, dehqonlar uyiga ketishdi, men esa o‘z izvoshimda qolib, ularning ahvolini mulohaza qilib, shu qadar chuqur o‘yga cho‘mib ketdimki, tungi soat ikkiga qadar uxbolmadim.

Ertasi kuni uy sohibi bilan suhbatlashgach¹, men Obod qishloq aholisini ko‘rish uchun sabrsizlik o‘tida yonib, yo‘lga chiqdim: uy sohibi menga o‘sha qishloqning egasi haqida juda yaxshi gaplar ayt-di, menda unga nisbatan oldindan hurmat uyg‘ondi va men farovon yashayotgan dehqonlarni ko‘rish zavqini his qila boshladim.

¹ Men ushbu sahifaga sayohatchining dehqon bilan bo‘lgan suhbatini bir qancha sabablarga ko‘ra yozmadim: hushyor o‘quvchi hamma narsani o‘zi tushunib olishi mumkin. Ammo men o‘z o‘quvchimni ishontirib aytamanki, bu suhbat, albatta, uning qiziqishini qozongan va sayohatchida Xaroba qishloqning egasini va unga o‘xshashlarni ayplash uchun asoslar bo‘lganligini aniq ko‘rsatgan bo‘lar edi.

Avtokratiya haqida

Avtokratiya inson tabiatiga zid bo‘lgan holatdir. Biz nafaqat o‘zimizga chegaralanmagan hukmronlik qilish huquqini bera olamiz; balki qonun ostida, ko‘pchilikning irodasi bilan, o‘zimizning xavfsizligimizni saqlash bilan birga qonundan tashqari jinoyatchilarni jazolashga huquqimiz yo‘q. Agar biz qonunlar hukmi ostida yashasak, biz unga so‘zsiz bo‘ysunishimiz lozimligi uchun amal qilmaymiz, balki biz qonun ustuvorligidan manfaat ko‘rganimiz uchun unga rioya qilamiz. Agar biz qonunimizga bizning huquqimiz va tabiiy hukmronligimizning bir qismini beradigan bo‘lsak, u bizning foydamizga ishlatalishi uchun bo‘ladi; bu haqda biz jamiyat bilan jimgina shartnomaga tuzamiz. Agar u buziladigan bo‘lsa, biz ham o‘z majburiyatimizdan ozod bo‘lamiz. Hukmdorningadolatsizligi xalqqa nisbatan uning sudyalariga ko‘proq huquq beradi, unga jinoyatchilar ustidan qonun taqdim qiladi. Hukmdor xalq jamiyatining *birinchi fuqarosidir*.

Tobolskda o‘z unvonining majburiyati tufayli yashaydigan do‘stimga xat

Sankt-Peterburg,

1782-yil 8-avgust

Kecha Buyuk Pyotrga bu yerda o‘rnatilgan yodgorlik sharafiga tantanali marosim bo‘lib o‘tdi: ya’ni uning *janob Falkonet tomonidan yaratilgan haykalining ochilishi bo‘ldi* (168). Aziz do‘stim, keling, bu haqda alohida gaplashaylik. Sizga tafakkur va qalb sifatlari tomonidan noma’lum odamlar orasida, o‘z yaqinlaringizdan chetda, vatanimizning eng chekka va uzoq o‘lkasida bo‘lib, hali ham, ehtimol siz bo‘lgan qisqa vaqt ichida, nafaqat do‘stni, balki qayg‘u va alamli kunlarda dardlashib, quvonch va shodumon onlaringizda bo‘lashishingiz mumkin bo‘lgan yaqinroq bir odam topa olmagan-dirsiz: chunki qayg‘u va alam yo‘qolishi uchun ko‘plab kunlar va yillar kerak bo‘ladi, quvonchga esa soatlar, xursandchilikka esa lahzza yetadi. Menimcha, siz dam olish vaqtingizdan bir soat bo‘lsa ham, bir vaqtlar siz bilan qayg‘uga sherik bo‘lgan va sizning quvonchin-

gizdan xursand bo‘lgan, yoshlik damlarini siz bilan birga o‘tkazgan kishi bilan suhbatlashish uchun foydalanasiz.

Imperator Pyotr obrazi tasvirlangan polotno asosida yashirin tarzda uning haykali yaratilgan bu joy atrofida hamma joy tozalangan, uning ustida turgan yog‘och to‘sining singani esa sezilmasdi.

Bayram o‘tkaziladigan kuni, kunduzi soat 2 da, odamlar oqimi o‘z ma’rifatparvarining yangilangan yuzini ko‘rish istagida belgilangan joyga to‘plandi. Bir vaqtlar Pyotrning xatarli kunlari va g‘alabalarida uning hamrohi bo‘lgan Preobrajenskiy va Semyonovskiy gvardiya polklari va boshqa gvardiya polklari bu yerda o‘z boshliqlari boshchiligidagi tomosha maydonini qurshab oldilar, artilleriya, Novotroitskiy oqliq polki va Kiyev piyoda qo‘smini yaqin atrofdagi ko‘chalardan joy oldi. Hammasi tayyor edi, shu maqsadda ko‘tarilgan maxsus tepalikdagi minglab tomoshabinlar, atrofdagi hamma yaqin joylarga va tomlargacha tarqalib ketgan olomon, ajodolarini tirikligida yomon ko‘rgan va o‘limidan keyin motam tutadigan qiyofada sabrsizlik bilan kutib turishardi. Haqiqat shunday va o‘zgarmasdir: taqdirlashga loyiq fazilat va ezgu ishlar sohibi garchi nafratga loyiq hech bir asos bo‘lmasa ham, juda ko‘p hollarda nafratni jalb qiladi, ayb va nafrat asosi yo‘qolgach, u holda nafrat ham zaruriy narsani inkor etmaydi va o‘limidan keyin buyuk insonning sharafi tasdiqlanadi. Pyotrning shon-sharafiga yodgorlik qurgan imperatitsa Yekaterina yozgi uyidan kemaga o‘tirdi va pristanga keldi; qirg‘oqqa chiqib, Senat qoshida unga hozirlab qo‘yilgan joyda, harbiylar safi orasidan yurib keldi. Yekaterina unga qadam bosishi bilan haykal atrofidagi parda asta-sekin va sezilmasdan tushirila boshlandi. Va hammamizning ko‘z oldimizda, bu shaharning poydevorini qo‘ygan, Fin va Neva suvlarida birinchi va hozirgacha yagona bo‘lib Rus bayrog‘ini o‘rnatgan odam ot ustida, qadimiy kiyimida viqor bilan o‘tirardi. U oradan yuz yil o‘tgach, sharaf bilan sarhadlarini kengaytirgan ulug‘vor Rossiyaning taxi asosini titrayotgan qo‘li bilan go‘dagiga topshirgan holda, sevimli avlodlarining ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ldi.

– Sizning namoyon bo‘lishingiz muborak, – dedi uning taxi va ishlarining vorisasi bosh egib. Hamma undan o‘rnak oldi. Va quvonchning barcha ko‘z yoshlari yonoqlarni yuvdi.

O Pyotr! Sening yuksak darajadagi ishlaring senga nisbatan hurmat va hayrat tug'dirganida, sening buyuk ruhiyatning hayrati oldida turgan minglab insonlar ichida hech bo'lmasa yagona bo'lsa ham seni chin yurakdan olqishlagan odam bo'lganmi? Senga hamd-sano o'qiyotganlarning yarmi o'zlarining ichlarida seni yomon ko'radigan va sening harakatlarining qoralaydigan g'amxo'rlar edi, boshqalari esa sendagi cheksiz avtokratik kuch dahshatiga chulg'anib, sening shon-sharafing yog'dusi oldida laganbardorlik bilan o'z ko'zlarini qorachiqlarini yerga tushirganlar.

O'shanda sen tirik eding, shoh va hamma narsaga qodir eding. Ammo bugun sen na qatl eta oladigan va na rahm-shafqat qila ola-digan, sen nafas olmaydigan va ojiz bo'lgan, eng so'nggi askarlar-ning ham oltmis yil oldin hayotdan ko'z yumgan bir paytda, senga bo'lgan maqtovlar haqiqiy, minnatdorchilik tilyog'lamalikdan iborat emas. Ammo bizning tan olishimiz senga nisbatan qanchalar samimiyligi va munosib bo'lmasin, bu sening vorisingga o'rnak bo'lmadi, garchi bunday o'rakka munosib edi, biroq u o'ziga o'xshagan millionlab odamlarning hayoti va o'limini qo'lida ushlab turganlikdan o'rak oldi. Agar u o'rak olganda edi, bizning tan olinishimiz yanada erkinroq bo'lar edi va sening taroshlangan qiyofangni namoyon qilish marosimi minnatdorchilik marosimiga aylanib, odamlar abadiy otaga quvonch yuborardilar.

Bu yerda bo'lgan minglab tomoshabinlardan *Pyotr I ni ko'rgan uchta taniqli odam bor edi* (169). Ammo ular uning obrazining paydo bo'lishida biz buyuk insonni ko'rganimizda his etadigan ehtiromni sezishganmi yoki yo'qmi, bilmayman.

Marosim davom etdi. Daryo bo'yida turgan kemalarning zambaraklar o'rnatilgan palubalaridan, qal'adan va admiraliyadan otilgan to'p va uch marta olovning otilib chiqishi azim Rossiyaning ulkan kuchlarini harakatga keltiradigan qiyofaning safda ishtirok etmayotganini e'lon qildi.

Polklar safi chest bergancha, harbiy yurishga chiqdilar va ularga harbiy intizomga ko'r-ko'rona itoat qilishda birinchi o'rak ko'rsatgan odamning oldidan bayroqlarini engashtirgancha, ta'sischilariga mehnati mevalarini namoyon etib safdan o'tarkanlar, ularning yurishini Sardam duradgori sharafiga ko'plab bayroqlar bi-

lan bezatilgan palubadagi harbiy sud davom ettirdi. *Ushbu kun turli darajadagi jinoyatchilar ning afv etilishi va Rossiyani yangilagan inson sharafiga medal ta'sis etilishi bilan belgilandi* (170).

Haykal, u cho'qqisini allaqachon zabit etgan yuksak tog'ni mo'ljalga olgancha, tez yelib borayotgan otni va chavandozni chiqrib to'xtatish uchun uning yo'lida yotgan ilonni ezb'ilab, keng yag'rinli ot ustida o'tirgan qudratli chavandozni namoyon etardi. Jilov – oddiy, egar o'rnida hayvon terisi bo'lib, barcha ot jabduqlari ayil bilan mahkamlangan. Chavandoz uzangisiz, kamar bilan o'ralgan to'q qizil rangdagi kalta chakmonda, boshida qudrat ramzi bo'lgan dafna gulchambari va o'ng qo'lini oldinga cho'zib turibdi. Bundan siz haykaltaroshning fikrlarini aniq bilib olishingiz mumkin. Agar siz bu yerda bo'lganingizda, aziz do'stim, agar siz ushbu qiyofani ko'rganiningizda, bu san'at bilan hamkorlikda shug'ullanadigan va uning qoidalarini bilgan inson sifatida uni yaxshiroq talqin qilib bergen bo'lardingiz.

Ammo menga *Pyotr obrazini yaratuvchisi fikrlarini* (171) taxmin qilishga ijozat bering. Tog'ning tikligi – Pyotr o'z niyatlarini amalga oshirishida uchraydigan to'siqlarning mohiyatidir; yo'lida yotgan ilon – yangi urf-odatlarni joriy etish uchun uning o'limini istaydigan hiyla-nayrang va yovuzlik; qadimiy kiyim-kechaklar, hayvon terisi, chavandozning oddiy kiyimi va otning egar-jabdug'i – bu oddiy va qo'pol odatlар hamda johillik, uni Pyotr u o'zgartirmoqchi bo'lgan odamlardan topdi; boshidagi dafna toji uning qon'am chiqaruvchidan ko'ra g'olibligi oldingi o'rinda turganini anglatadi; jasur qiyofa mustahkam va qudratli ko'rinish beradi, uzatilgan qo'l *Didro* (172) aytganidek, marhamat ko'rsatishga yo'nalgan, chaqnoq nigohlar – bu maqsadga erishishga bo'lgan ichki ishonch, cho'zilgan qo'l kuchli insonning unga qarama-qarshi chiqqan barcha to'siqlarini yengib, maqsadiga erishgani va avlodlari deb atalmishlarga homiylik qilishi ni anglatadi. Mana, aziz do'stim, bu yerda Pyotrning qiyofasiga qarab, nimani anglatishi bo'yicha qilgan zaif tasavvurlarim shulardan iborat. Qoidalari menga unchalik ma'lum bo'lмаган san'at haqidagi xulosalarimda adashgan bo'lsam, meni kechiring. Toshdagи yozuv esa juda oddiy bitilgan:

PYOTR BIRINCHIGA
YEKATERINA IKKIDAN
1782-YILNING YOZI

Pyotrnii umumiyl e'tirof bilan Buyuk, *Senat tomonidan esa vattanning otasi deb atashadi* (173). Lekin nega uni buyuk deb atash mumkin? Yarim dunyoni yo'q qilgan Aleksandrni buyuk deb atashgan; o'g'illarining qoni bilan yuvilgan Konstantinni buyuk deb atashgan; Rim imperiyasini tiklagan Charlz birinchi buyuk deb atalgan; ilm-fan va san'at homiysi, Rim papasi Lev buyuk deb nomlangan; Kozimo Medichi, gersog Toskanskiylar buyuk deb nomlanishgan; Fransiya qiroli Genrix, mehribon Genrix IV buyuk deb nomlanadi; Lyudvig XIV, Fransiya qiroli, shuhratparast va mag'rur Lyudvigni buyuk deb atashadi; Prussiya qiroli Frederik II hayot ekanligi-dayoq buyuk deb atalgan. Bu hukmdorlarning barchasi, garchi juda katta qusurlarga ega bo'lishsa-da, vatanga oddiy xizmat qilgan juda ko'p hukmdorlar orasidan qaysidir xizmatlari bilan otilib chiqqanlari uchun, boshqalarning ko'philibini hatto yodga ham olmagan holda ularni ulug'lab buyuk deb atashadi. O'zining ajoyib fazilatlari yoki ezgu ishlari bilan ajralib turadigan oddiy insonning nisbatan tezroq buyuk nomini olish ehtimoli ko'proq, lekin xalqlar hukmdori oddiy odamlarning fazilatlari yoki ezguliklariga ega bo'lish uchun bu xushomadgo'y nomni olishning imkoniyati juda kam. Uning tafakkuri va ruhiga aylanadigan narsalar juda ko'p.

O'rtamiyona shoh, o'z qadr-qimmatiga ega bo'lgan lavozimlardan birini bajarayotganda, ehtimol alohida holatda buyuk odam bo'lishi mumkin; lekin u barcha ezgulikni bir tomonga yo'naltirsa yomon hukmdor bo'ladi. Shunday qilib, *Jeneva fuqarosi bo'lishiga* (174) qaramay, Pyotr timsolida buyuk deb atashga munosib bo'lgan favqulodda bir insonni ko'rish mumkin.

Va agar Pyotr xalq manfaatlariga yo'naltirilgan turli xil muassasalari bilan farq qilmaganda ham, hatto Karl XII ustidan g'alaba qozonmagan taqdirda ham, u o'zini shunday ulkan jamoaga birlamchi unsuri harakatsizlik bo'lgan birinchi intilishini bergani uchun buyuk deb atalishi mumkin edi.

Ha, men sizning vataningizdagи yovvoyи erkinlikning so‘nggi alo-matlarini ham yo‘q qilgan (175) bu kabi qudratli avtokratiya hukmdorini ulug‘lab, aziz do‘stim, sizning fikrlaringizni kamsitmoqchi emasman. U o‘ldi, o‘liklarga esa xushomad qilib bo‘lmaydi! Va men aytamanki, Pyotr Birinchi shaxsiy erkinlikni tasdiqlab, o‘zini ham, vatanini ham yuksaklikka olib chiqqanda yanada ulug‘vorroq bo‘lishi mumkin edi; ammo agar bizda vijdon amri bilan emas, balki amaldan to‘ygani uchun va osuda hayot kechirish uchun o‘z taxtini tark etganligi haqida misollari bo‘lsa, u holda bu dunyo tugagunga qadar, taxt egallab turgan shohning o‘z o‘rnini ixtiyoriy ravishda bo‘shatib berishiga hech qachon misol bo‘lmaydi¹.

Fyodor Vasilyevich Ushakovning umr yo‘li

Uning ba’zi asarlari qo’shilgan holati

Birinchi qism

Fyodor Vasilyevich Ushakovning umr yo‘li

Aleksey Mixaylovich Kutuzovga (177)

Aziz do‘stim, o‘ylaymanki, siz ba’zan yoshlik kunlaringizni xur-sandchilik bilan eslaysiz; birinchi marta uyg‘ongan barcha ehtiroslar qalbda garchi notejis bo‘lsa-da, yangi hayajonlarni uyg‘otgan damlarni, lekin butun hayotning eng mубorak kunlarini o‘tkazgan vaqtlar haqida eslasangiz kerak. Betashvish ruh va aql tajribasizlik bilan, hali g‘amgin asablarga begona bo‘lgan titroqni va shodumon kunlarda hayajonlarni yoyilishidan ijirg‘anishmad. Va juda ko‘p hazin kunlar kayf-safo bilan tugagan vaqtarda alam, qayg‘u va umidsizlik, agar aytish lozim bo‘lsa, yosh yurakdan sirg‘alib o‘tdi, uning boshlang‘ich qat’iyatiga singib ketmadi. Yoshlik sho‘xliklarining mohiyatan beg‘ubor bo‘lgan xatolaridan chalg‘ib, eng birinchi hayajonlarga o‘xshash quvonchni hayotingiz davomida topolmaganlingizni anglaysiz. Birinchi quvonchni baxt-saodatning eng yuqori

¹ Agar bu xat muallif tomonidan 1790-yilda yozilganda, u holda *Lyudvig XVIning namunasi* (176) unda boshqacha fikrlar tug‘dirgan bo‘lardi.

cho‘qqisi deb atash mumkin va faqat birinchi bo‘lgani uchun; qolganlari endi takror bo‘ladi va uning favqulodda lazzati yashamaydi. Do‘sligimiz dunyoga kelgan paytni, do‘sligimiz dunyoga kelgan vaqtini, ikkita qalbning mening alamli va umidsizlikka tushgan damlarimda yupanch bo‘ladigan saodatmand ittifoqini bu muborak qalblar birlashuvini yana takrorlayman, do‘stim, xursandchilik bilan eslamaysizmi! Bir paytlar bizga jasorat namunasini bergan, oxirgi darajadagi qat’iyat namunasini bergan ustozlarni ko‘rganda xursand bo‘lmaysizmi! Yodingizga oling, do‘stim! Ichki olovda yonayotgan, o‘zining rostgo‘y shifokoridan hayotining so‘nayotganini eshitgach, sizga, aziz do‘stim, o‘z iztiroblarini tugatish uchun sizning oldingizga yugurib ketgan Fyodor Vasilyevichni... Bu manzarani eslang va sizning qalbingizdan nimalar kechganini aytинг. Mast Suqrot ularga o‘zining umri davomida qila olmagan ishini, eng yaxshi ta’limotini berib, do‘stlarni zaharladi.

Ushbu mulohazalar meni sheringimiz Fyodor Vasilyevich Ushakovning hayotini tasvirlashga undadi. Men undan shaxsiy halovatimni qidiraman; siz uchun, mening eng aziz do‘stim, men yuragimning so‘nggi qirralarini ochmoqchiman. Zotan, ko‘pincha marhumning tasvirlarida hali ham tirik mavjudotning xususiyatlari topiladi.

Fyodor Vasilyevich hayotining birinchi yillari menga qisman ma’lum; men ularni ehtiyojkorlik va zavq bilan tasvirlagan bo‘lsam ham, birinchi bolalik va o‘spirinlik ishlarida uning qalbining boshlang‘ich ta’limini topdim, besh yoshli Ushakovda uning qalbini yetuk yoshlarida ko‘targan qat’iylik urng‘ini topdim, lekin men haqiqat o‘rniga fol ochadigan narsalarni qo‘yishdan ko‘ra, o‘zimning jaholatimni tan olganimni ma’qul ko‘raman va faqat bitta, bu voqeadiagi haqiqatni o‘qish uchun undan rag‘batni olib tashlamayman.

Ammo men *Quruqlik kadetlari korpusida* (178) tarbiyasi bilan u o‘zining go‘zal qalbiga poydevor qo‘ygan deb aytSAM, buni folbinlik gumoni deb atash nojoiz. Chunki u o‘z qalbida aqldan ko‘ra ko‘proq muvaffaqiyatga erishishi mumkin edi, yoshlik qat’iyati bilan miyasida tasavvur, tahayyul va fikrlar bir-biriga singib, birinchi galda tanamizning yuqori a‘zosi bo‘lgan boshni bezash deya hisoblagan vaqtda; aql hissiyotlar yordamida juda ko‘p tushunchalarni to‘plagan bo‘lsa-da, birinchisi o‘rtada turganlari orqali oxirisiga ham ta’sir

ko'rsatishi uchun ularni tartibga keltirishga hali yetarlicha vaqtga ega bo'limgan bir paytda o'z hayotiga nuqta qo'ydi.

Fyodor Vasilyevichning ilm-fandagi yutuqlari o'sha paytdagi imperator Maxfiy maslahatchisi G.N.Teplovni faxriy kotib lavozi-midagi maslahatchi darajasiga ko'tarishga undadi. *Riga Tijorat Xartiyasining* (179) nashrida yozilishicha, uni tayyorlashda u ko'p mehnat qilgan, kollegial baholovchi unvoniga sazovor bo'lgan. Tashqi ko'rinishdan ko'zni qamashtiradigan va odamni emas, uning amalini hurmat qiladigan odamlar, unga hasad qilib, uning yuqori lavozim-larga ko'tarilishini taxmin qilishgan, uni oldindan hurmatini joyiga qo'yishni o'rganishgan; ammo uning o'zi haqidagi fikrlari ularni bilan qay darajada farq qilishini u o'z ishi bilan isbotladi.

Imperator Yekaterina, davlat manfaati uchun ko'plab muassasalar orasida, odamlar o'rtasida, sud yoki sud ishlari bo'yicha murojaat qiladiganlar ishlarida, o'zlarining qonunchiligi bilan ajralib turadi-gan xalqlardagi muvofiqlik va sudda fuqarolarning harakati haqida tasavvurga ega bo'lgan sudyalarining ma'lum bir qismi bo'lishini xohlagan edi. Shu maqsadda u Leypsig universitetiga huquqshunoslik va boshqa tegishli fanlardan dars berish uchun o'n ikki yigitni yuborishga qaror qildi. Imperator xonimaning bu yaxshi niyati ha-qida xabardor bo'lgan Fyodor Vasilyevich xo'jayinining yoniga Leypsig universitetiga yuborish uchun tanlangan yoshlari bilan ham-korlikda bilim olishda ishtirot etishni iltimos qilib, xo'jayini oldiga yugurdi.

Uning bu ishidan xabar topgan ko'pgina do'stlari uning o'z o'mnida qolishiga, o'zining ishidagi hurmati, xo'jayinining ilmli ekani va xayrixohligini notanish yo'lga almashtirmaslikka, amali ko'tarilishining poydevoridan o'qish tufayli mosuvo bo'lmaslikka ko'ndirishga urinishdi, unga nasihatlar qilishdi.

– Yashash uchun, – deyishdi ular unga, – hamma narsa hisob-kitobni to'g'ri olish va ustomonlikka bog'liq. Bu borada faqat aql va saxovatga suyangan odam o'zini asrolmaydi. Mulohazakorlik va ba'zida bitta tezkor amal saxovat va barcha sovg'alarni birlashtir-gandan ko'ra, yuksakroq hurmat qozonib, yanada yuksalishiga sabab bo'ladi. Faraz qilaylik, hukmdor haqiqiy munosiblikni faqat mukofotlaydi va hech qachon xolis bo'lmaydi; lekin agar uning hattoki bitta odamga bo'lsa ham, o'z davlatida xolis munosabatda bo'lishi

mumkin bo'lsa, uning qiyofasidagi boshqa barcha hukmdorlar bunday bo'lmas edi; chunki garchi unga tenggi yo'q bo'lsa ham, u qarindoshlik, mehr-oqibat, do'stlik, muhabbat uchun begona bo'lishi lozim bo'ladi, ammo bunga o'xshaganni qayerdan topasiz? Bundan tashqari, u vatanga yoki o'ziga xizmat qiladiganlarning juda oz-chiligini biladi, o'zi bilganlarning xizmatini ham biladi, qolganlarni esa eshitganlari asosida hukm qiladi, zodagonlar kimni tavsiya etsalar, o'shani mukofotlaydi, ularga yoqmaganlarni esa qatl etgan holatlari ham ko'p uchraydi. Uning qo'l ostidagi bir necha million kishining nari borsa yuz nafari unga xizmat qiladi; boshqalari esa (qonli ko'z yoshlarni to'kish bilan, ular buni tan olishlari kerak) – qolganlari amaldorlarga xizmat qilishadi. Buning uchun dalillar kerak emas. Men faqat bitta narsani aytan olaman: safga kirayotganlarga qarang; kim martabani, joyni yoki biron-bir mukofotni oladigan bo'lsa, haqli ravishda buning uchun biror amaldorga minnatdorchilik bildirishi shart. U birinchisiga imperatorga tavsiya qilgani uchun, ikkinchisiga unga qarshilik qilmaganligi uchun, uchinchisiga unga oldindan u haqida yomon gap aytmasligi uchun minnatdorchilik bildiradi. Hukmdor ko'pincha bu holatda boshqalarga yordam beradigan shamol tomonidan boshqariladigan kemadan boshqa narsa emas. Shunday qilib, hukmdorga ma'lum bo'lish uchun bo'sh fikr va behuda niyatni orqaga tashlang, past lavozimdan boshlangan yo'l bilan boring va muvaffaqiyatga erishasiz.

Faraz qilaylik, bilim yurtida qolish orqali siz eng zo'r bilimlarga ega bo'lasiz, siz nafaqat muhim bo'limni boshqarishga, balki siz toj kiyishga ham loyiq bo'lasiz; chindan ham hukmdor sizni birinchi darajaga qo'yadi deb o'ylaysizmi? Yosh tasavvurning behuda orzusi! Qaytib kelganingizdan keyin ismingiz unutiladi. Hozir xo'jayiningiz orqali tanilgansiz, unda esa ular sizni eslamaydilar, chunki hukmdor sizga lutf qilmaydi, ehtimol uni chalg'itadigan dunyoqarash yoki hukumatni boshqarish bilan bog'liq tashvishlar, uning takabburligi yoki zodagonlarga hasad bilan muntazam hukmdorni chalg'itib, sizga unga boradigan eshiklarni berkitishi bunga sabab bo'lar. Agar unga mukofot muddati tugasa, u holda ular mukofotni munosib xizmati uchun emas, balki marhamat yuzasidan berishadi.

Siz shunchaki nafaqat ilmda sizga teng bo‘lmaganlar, balki ba’zida qalb sifatlariga ko‘ra moldan ham past behurmat qilishi mumkin bo‘lgan bunday odamlar qatoriga kirasiz; siz ulardan nafratlanasiz, lekin ular bilan har kuni muomalada bo‘lishingiz kerak. Chor atrofingizda ko‘pincha nafaqat qiyshiq aql va qalblarni, balki yaramaslikning o‘zini ham ko‘rasiz. Ularni ko‘rarga ko‘zingiz bo‘lmaydi; ular sizni uylantirib qo‘yishadi va maydonni ularga qoldirasiz. Agar sizning xo‘jayiningizning ham xislatlari unga xushomad qiladiganlar bilan bir xil bo‘lsa, u holda ehtiyyot bo‘ling, sizning halokatingiz muqarrar.

Fyodor Vasilyevichning do‘satlari uni shunday dahshatli tasavvurlar bilan o‘z fikridan qaytarishga harakat qilishdi. Uning xo‘jayini ham boshqa bir vajlar bilan uni olib qolishga harakat qildi. Ammo ularning barcha urinislari behuda ketdi. U o‘z hukmdorining adolatiga va ilm-fanga o‘chlikka tayanar edi, Fyodor Vasilyevich o‘zining fikrida sobit bo‘lib qoldi, o‘qish uchun jamiyatda unga hurmat darajasini bergen yetuk yoshtan voz kechdi va tajribasiz o‘smir yoki bolaga aylandi.

Fyodor Vasilyevich singari yuragimga juda yaqin bo‘lgan odamning hayotini tasvirlab berar ekanman, uning ongi unda hali nimanidir tuzata olmaganini va yoshlik tuyg‘ulari katta dunyoga murojaat qilishga odatlanganligini yashirmayman. Amakisi bilan birga bo‘lishdan uyaladigan katta jamiyatga muddatidan oldin kirib borgan bu yigitning yetuk yoshida kasallik chang soldi va bevaqt o‘lim olib keldi.

Kadet korpusidan chiqib, Fyodor Vasilyevich o‘zini o‘zi boshqarishni boshladi. O‘n yetti yashar o‘spirin, hukmdorga kirishga ruxsati bo‘lgani hammaga ma’lum bo‘lgan zodagonning ishonchli odami vasvasaga tushmasligi mumkin emas edi. Murojaat qiluvchilarning aksariyati o‘zlarining maqsadlariga erishish uchun, ko‘pincha haqli ravishda ularning ishiga barmoqchalik nafi tegadiganlarning ham xayrixohligi kerak, deb o‘ylashadi. Va shuning uchun ular mehrmuhabbat, xushomadgo‘ylik, erkalash, sovg‘alar, zavq-shavq va shu borada nima xayolga kelsa, o‘ylash mumkin bo‘lgan barcha narsalarni, nafaqat ularning so‘rovi bajarilishi bog‘liq bo‘lgan kishiga, balki uning atrofidagilarga, qandaydir tarzda kotibiga, kotibining ko-

tibiga, unda agar ular ham bo‘ladigan bo‘lsa – xizmatkoriga, soqchilar, qarollar, ma’shuqalarga beradilar va agar bu yerda it bo‘lsa, uni slashni ham qo‘ldan boy bermaydilar. Mana shunday xushomadlar, yoqimli gaplar, yana Fyodor Vasilyevichning iltifotiga erishish uchun ariza beruvchilar nima qo‘llaganligini Xudo biladi. Boy odam oltin va’da qildi, ammo ulgurmadi va g‘azab bilan ortiga qaytishga majbur bo‘ldi. Ammo agar uning xayrixoh qalbi poraxo‘rlikni chetga surib qo‘ygan bo‘lsa, u har doim ham mehr-muhabbatni qalbidan qirib tashlay olmas edi. Kun bo‘yi ishlagan holda, u kechqurun kichik-katta yig‘ilishlarga, yig‘inlarga, maskaradlarga, kechki ovqatlarga borar, ko‘pincha u yerda qarta o‘ynab yarim tungacha, ba’zan undan ham ko‘p qolib ketardi. Uyga qaytib, sog‘lom uyqu bilan kuchini yangilash o‘rniga, u ishga oid jildlarni olishga majbur bo‘lar, baxt va baxtsizliklarni yoritib otgan tongdanoq hali osoyish topib ulgurmasdan, ish ustida egilardi.

Ko‘plab ariza beruvchilar orasida ba’zida ayollar ularningadolatli yoki noto‘g‘ri so‘rovlari to‘g‘risidagi tortishuvlarda, ba’zida odob-axloq chegaralaridan chiqib ketishardi, boshqalari esa qaysi yilda kimga murojaat qilishganini eslab qolishar, Fyodor Vasilyevichning xayrixohligiga erishish uchun o‘z husnlari sehr-jodusidan foydalanishga urinishardi. Shunga o‘xshagan sarguzashtni uning o‘zi so‘zlab bergen. Uning hikoyasi quyidagicha edi:

Yarim tundan keyin o‘zlarini, odatda, do‘sst deb ataydigan odamlar bilan quvnoq suhbatga uzoq vaqtini sarflagandan so‘ng, u uyga kelgach, ertalab soat beshgacha ishladi, o‘yin-kulgi va ishdan toliqib, qattiq uqlab qoldi. Betashvish yoshlik hali tajriba tikanlari sanchig‘i bilan bezovtalanmagandi va uxlash orzulari ham hushyorligi kabi quvonchga to‘la edi. U tushida go‘zal ayolning quchog‘ida, yoshlik hissiyotlari ustidan hukmronlik qilgancha, ehtirolardan mast bo‘lgancha yotardi, go‘zal orzular uning tushi bilan birga ochgan ko‘zlaridan uchib chiqib ketdi. Ammo uning porlab turgan ko‘zlarida nima namoyon bo‘ldi? Tushida ko‘rganidan yuz karra jozibali, endigina bo‘yiga yetgan qiz salkam uning to‘shagida, qanotli hasharotlarni yuzidan ehtiyojkorlik bilan haydab, allaqachon ko‘kka ko‘tarilgancha, uning yotog‘iga ham kirib kelgan quyosh nurlarining olov taftidan uni keng ochilgan yelpig‘ichi bilan to‘sib

o'tirardi. Yoz edi va soat ham allaqachon o'n bo'lib ulgurgandi. U dastavval o'zining uyg'onganiga ishonmadi. Uni behuda uyg'otgani uchun olov ehtiroslarga boy nigohlarini qadab, nozli tabassum hamda go'zal ohangdor ovoz bilan murojaatchi dedi:

— Kechirasiz, janob, men sizning uyqungizni buzib, sizni, ehtimol sevgilingiz bilan yoqimli orzulardan mosuvo qilgandirman.

Va uning nimanidir so'ylayotgan qaynoq nigohlari uning butun ichki olamiga kirib bordi. Agar men sevgi haqidagi qissa yozadigan bo'lsam, o'sha holatning ta'rifi qanchalar mo'l bo'lgan bo'lar edi. Hissiyotlar boshida Fyodor Vasilyevichning tizginida edi, ariza beruvchi keksa eri bilan ajrashgan, Fyodor Vasilyevichning shafoatiga ehtiyoj sezgan, uning qizg'in harakatini oldindan bilgan, uni asir etish uchun kelgan va muvaffaqiyatga erishgan.

Oh, agar mening uyg'onishim ba'zan shunday sodir bo'lib turiishi mumkin bo'lsa, men yana yigirma yoshdan oshmasam! Do'stim, agar xohlasang, mening ojizligimdan afsus qil, lekin bu haqiqat.

Ushbu va shunga o'xhash holatlar bilan Fyodor Vasilyevich sog'lig'ining ildizini kesib tashladi va Leypsigga jo'nab ketmasdan, tanasida kasallik sezdi, bu nome'yoriylik va tana lazzatlarini suiste'mol qilishning muqarrar natijasi edi.

Bizning sayohatimiz boshlangandan buyon Fyodor Vasilyevich haqidagi hikoya bizning umuman Leypsigda bo'lishimiz bilan bog'liq, agar bu umuman biz bo'lgan vaziyatga tegishli bo'lsa va agar bu yerda o'sha paytda tug'ilgan fikrlaringiz joylashuvining ba'zi xususiyatlarini topsangiz, ajablanmang, do'stim... Buni unutish mumkin emas, chunki oramizda qancha o'xhash fikr hukm surgan.

Safarimiz davomida Fyodor Vasilyevich yo'lboshchimiz nafratiga duchor bo'ldi va aynan shu sifat bizning unga bo'lgan sadoqatimizni shakkantirgan, aynan shu sifat Bokumning uni yomon ko'rishiga sabab bo'ldi. Undagi fikrlarning qat'iyligi va ularni u erkin ifoda etishi asabga tegardi, mana shu xislati unda birinchi bor yaqqol namoyon bo'ganidan keyinoq bizning yo'lboshchimiz uni qanday yo'q qilish haqida o'ylay boshladи. Ammo bu yerda qo'l ostingdagining senga qarshi gapi, garchi adolatli qarshilik yoki yaxshisi boshqacha talqin qiladigan bo'lsak, adolatning yagona ta'kidi

atrofdagilarning kuchli g‘azabi va nafratini keltirib chiqardi. Bunday holat avtokratik boshqaruv bo‘lgan deyarli hamma joyda uchraydi.

O‘z xohish-irodasi va injiqqliklaridan tashqari, uning rag‘batidan pastda turuvchi boshqa bir qoidalarga, yonbosh qonunlarga ega bo‘limgan hukmdorning yakkahokimchilik namunasi har bir boshliqni shunday fikr yuritishga undaydi: u ham hukmdor, faqat umumiyl boshqaradigan emas, alohida bir joyning hukmdori, o‘z hududida chegarasiz hukmronlikdan istagancha foydalanishi mumkin. Boshliqqa aytilgan qarama-qarshi fikr yuqori hukumatga nisbatan haqorat sanaladi, bu shunchalik haqiqatki, u ko‘pincha boshliqning vakolatiga zid bo‘lgan qoidalar bilan qabul qilinadi¹. Baxtsiz fikr, vatanni sevadigan minglab fuqarolarni qamoqqa tashlab, ularni o‘limga mahkum etadi, ruh va ongni bo‘g‘adi. Buyuklik o‘rnini qo‘rquv, qullik va chalkashliklar egallaydi, ularning hammasi tartib va osudalik niqobi ostida amal qiladi! Ha, yakkahokimlikka intilgan kishi kabilar bilan bundan boshqacha bo‘lishi mumkin emas, *bu haqdagi Gelvetsiyning fikri ham har soatda tasdiqlanadi* (181).

Yo‘lboshchimizning nafratini o‘ziga tortgan Fyodor Vasilyevich bu fikrdan g‘azablanmadni, chunki unga aytgani haqiqat edi. Bokum uning qo‘liga ishonib topshirilgan yigitlarning istiqbolidan ko‘ra ko‘proq o‘z manfaati haqida qayg‘urardi. Fyodor Vasilyevich boshqa sheriklariga qaraganda ko‘proq tajribaga ega edi: unda ochko‘z odamning g‘azablanishiga sabab bo‘lgan omillar yetarlicha edi.

Yo‘lboshchimiz bilan bizning o‘rtamizdagи kelishmovchilikning bиринчи holati va uning Fyodor Vasilyevichga qarshi g‘azabi qaynaganining bиринчи sababi bu o‘z-o‘zidan ahamiyatga ega bo‘limgan voqeа edi, ammo bu voqeа bizning xo‘jayinimizga bo‘lgan ixlosimizga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Biz hammamiz rus urf-taomillari va «garchi shirin bo‘lmasa ham, to‘yguncha» degan odat bo‘yicha tarbiya topganmiz. To‘yib tushlik va kechlik qilishga o‘rganganmiz.

¹ Ehtimol, ushbu so‘zsiz itoatkorlik qoidasining ildizini harbiy nizomlarda va fuqarolik mansabdorlarining harbiylar bilan uyg‘unlikdagi boshqaruvida ko‘rishimiz mumkindir. Fuqarolik darajasidagi bizning boshliqlarimizning aksariyati vatanga xizmat qilishni urush holatidan boshladilar va harbiy itoatkorlik e’tirozlarga toqat qilmaydigan sharoitda bo‘ysunuvchilariga buyruq berishga odatlanib, fuqarolik xizmatiga ham harbiy xizmatda olgan qarashlari bilan kirishadilar. Ularning nazdida hamma joyda faqat saf bor; sudda qo‘riqchilarga baqirishadi va ajrim ko‘pincha tayoq bilan imzolanadi.

Jo'nab ketayotgan kunimizdag'i ajoyib kechki ovqatdan so'ng, bizning kechki ovqatimiz ancha g'ariblashib qoldi, u tilimlab kesilgan eski go'sht va sariyog' surtilgan nondangina iborat edi. Nemis oshqozoni uchun juda odatiy bo'lgan bunday taom, dudlangan go'sht va piroglarga odatlangan ruslarning oshqozoniga yuq ham bo'lmasdi. Agar siz ishonchsizlik bilan, bizni noshukurlikda ayblamoqchi bo'lsangiz, avval bechora holimizga e'tibor qiling va buning sababini bizning bu yerdagi birinchi kechki ovqatlanishimizdan topasiz. Yaxshi tarbiyalangan yosh yigitlarning o'z xo'jayinidan bunaqangi mayda narsalar uchun nafratlanishlari kimgadir kulgili, kimgadir tubanlik, yana kimgadir bema'ni bo'lib tuyuladi; ammo eng chidamli odamni ham bir hafta davomida go'shtli va sutli ovqat yemay, ro'za tutishga majbur qiling, ko'p o'tmay undagi sabrsizlikni sezsa boshlaysiz. Agar shirinlik jonga tegsa, bu ochlik bilan barobar. Asosiy qismi to'yimsiz bo'lgan ovqat va uni tayyorlashdagi katta tartibsizlik bizda haqqoni tarzda jahlimiz chiqishiga olib keldi. Fyodor Vasilyevich noroziligimizni xo'jayinimizga yetkazishni o'z zimmasiga oldi. Bu vazifaning me'yoriy ijrosi esa xo'jayinimiz, ayniqsa, bizga haqiqiy gofmeyster¹ deb hisoblanishi mumkin bo'lgan Bokumning rafiqasi tomonidan deyarli nafrat bilan qarshi olindi. Norozilik o'rtada mu nozarani keltirib chiqardi va bu ish Fyodor Vasilyevichning er-xotin ikkalasining ham nafratiga duchor bo'lishi bilan yakunlandi.

Ammo yo'boshlovchimiz har doim ham qo'l ostidagilarning adolatli talabini rad etish yomon ekanligini va yuqori hokimiyat ham ba'zan holatning bemahal taranglashuvi va bemufohaza talabchanlikdan ozor chekib turishini bilmash edi.

Biz o'z harakatlarimizda yanada jasoratli, talablarimizda dadilroq bo'la boshladik va bir necha bor haqorat eshitganimizdan so'ng biz uning hokimiyatini mensimay qo'ydi. Agar ilm olish istagi bizning harakatlarimizga to'sqinlik qilmaganda va g'azabimizni mo'tadillashtirmaganda, Bokum yo'ldayoq hatto bolalarmi ham sabr chegarasidan olib chiqish qanchalar aqlsizlik ekanining hosilini tatib ko'rgan bo'lar edi. Qo'rquv to'lqinlari va kichiklardagi jasoratning barcha holatlari kattalar tomonidan boshqariladi. Ulardan birinchisi Fyodor Vasilyevich edi. Ammo kimdir uni yo janjalkash, yoki xu-

¹ Gofmeyster – saroy xonimlarining ulug'i.

sumatkor, yoki makkor, yoki jahldor, yoki sulloh deb hisoblasa, u albatta, adashgan bo‘ladi. Adolatsizlikka bo‘lgan yagona g‘azabning o‘zi uning qalbida isyon ko‘tarib, o‘z po‘rtanasini bizga, o‘z holicha nohaqlikni rad etmoq uchun bosh ko‘tarishga hali qudrati yetmaydi-gan yoshlarga namoyon etdi. Mana shunday voqealar bizni, mening fikrimcha, hayotimizning eng muhim davrlaridan biriga tayyorladi. Men *Leypsigda bizni nazorat ostida ushlaganlari haqida gapiryapman* (182).

Hech narsa, aytadilarki, baxtsizlik kabi odamlarni bir-biriga bog‘lamaydi. Ushbu haqiqat bizning misolimizda yana bir bor o‘z isbotini topadi. Gofmeysterimizning bizga bo‘lgan salbiy munosabatlari bizni bitta fikr atrofida birlashtirdi, ba’zilarimizni hisobga olmaganda, biz bir-birimiz uchun dunyodagi hamma narsani qurbon qilishimiz mumkin edi. Ha, bu boshqacha bo‘lishi mumkin emas, chunki yosh qalbdagi do‘silik ham boshqa barcha tuyg‘ular singari, juda asov bo‘ladi. *Mitavada* (183) qisqa vaqt bo‘lganimizda, bizga shu paytgacha noma'lum bo‘lgan odob-axloq qoidalari, marosimlar va til Fyodor Vasilyevichning qalbidagi pushaymonlikni yumshatdi. Kundalik haqoratlar bilan uning bosib o‘tgan sayohati qilgan qaroriga nisbatan pushaymonlik tug‘dira boshlagandi, ammo yangi narsalar uning qalbini qayg‘uli fikrlardan chalg‘itdi va uni birmuncha vaqt haqoratlarga beparvo qilib qo‘ydi.

Ammo agar yangi obyektlar Fyodor Vasilyevichning qalbida qayg‘u solgan izlarni tekislash uchun qulay bo‘lgan bo‘lsa-da, u bu sayohatdagi barcha imkoniyatlardan o‘zining foydasiga saboq chi-qarish uchun yetarli tajribaga ega emas edi. Bunga loyiq izohlar: inson yetuk yoshga yetganida, qalb kuchlarning tetikligi ta’sirida aqliy kuchlarning sinovini boshdan kechira boshlaganda, u har doim o‘z nigohini ko‘zga tushib turgan tegrasi hududidan tashqarida yotgan ko‘rinmas narsalarga qaratadi, tasavvur qanotlarida tabiiylik chegaralari ortiga uchib o‘tadi va ko‘pincha uni zo‘r boshqara oladigan sezgilarni mensimay, ko‘rinmas narsalar ichra yo‘qoladi. Deyarli barcha fikrlay boshlagan yigitlar metafizikani yaxshi ko‘radilar; boshqa tomondan, his qilishni yangi boshlaganlar xalq boshqaruviga munosib qoidalarga rioya qiladilar. Shunday qilib, Fyodor Vasilyev-

vich o‘z fikrlarini ko‘proq aqliy narsalarga qaratdi va u sayohatdan qanday foyda olishi mumkinligini hali bilmas edi.

Turli darajada tarbiya olgan odamlar o‘rtasida muqaddas narsalar yuzasidan tushunchalari ham har xil bo‘lgan va har xil bo‘lishi kerak edi. Agar bizning har birimiz uchun Xudo va Unga bo‘lgan ehtirom tushunchasi nimani anglatishini aniqlash mumkin bo‘lganda, unda bu tavsiflar noma’lum xalqlarning e’tiqodi ta’rifi keltirilgan qaysidir sayohatdan olinganday bo‘lib tuyulishi mumkin.

Ba’zilar Xudoga jallod kabi qurollangan jazo vositasi sifatida sig‘inishgan va u haqida o‘ylashdan qo‘rqishgan, bu jazo kuchidan haddan ortiq dahshatga tushishgan. Boshqa birovga esa u bolalar qurshovida turgan alifbo o‘qituvchisi bo‘lib tuyulgan, uni aslo mazax qilish mumkin emas, chunki qandaydir ustomonlik bilan uning tayog‘idan qochib ketish mumkin, ammo tez orada yana uning qo‘liga tushadi. Yana kimdir, nafaqat uni mazax qilish, balki uning ustidan kulishga oid va uning buyurganiga xilof bo‘lgan biror amal ham qilish mumkin emas, deb o‘ylardi. Ammo biz barchamiz yunon diniy ta’limoti asosida tarbiyalangan edik va bizni pravoslavlilikda saqlab qolish uchun biz bilan birga rohib ham qo‘shib yuborilgandi, uning majburiyatiga bizga nasroniy qonunlaridan ko‘rsatma berish, cherkov xizmatini yuborish va bizga ma’naviy yetakchi bo‘lish yuklangandi.

Pavel ota o‘z sohasida salkam olim odam edi, u lotin, yunon va biroz ibroniylarini tillarini bilardi. Seminariyada u barcha quyi va yuqori falsafiy, diniy darslardan o‘tgan va ritorika, ya’ni notiqlik san’ati nazariyasi o‘qituvchisi bo‘lgan. Ammo agar unga qadimgi mualliflar tomonidan talaffuz qilinadigan so‘zlashuv qoidalari ma’lum bo‘lsa, metafora, antiteza va boshqa ritorik figuralar mavjudligini bilsa, demak, hech kim ozgina bo‘lsa ham bizning Pavel otamiz singari notiq bo‘lmagan. Xushmuomalalik uning uchun birinchi fazilat edi, u boshqalardan farq qilmas va o‘sha paytda bizda muqaddas narsalarga nisbatan tug‘ilgan humatsizlikni tarbiyalashda unga qulayroq bo‘lgan usulda muqaddas qonun bo‘yicha ko‘rsatma berishdan ko‘ra, ko‘proq yordam berardi. Bu haqida quyidagilarga asosan xulosa qilishingiz mumkin.

Bizning tuzalishimiz (chunki birinchi uchrashuvimizda u bizni Xudodan qaytgan deb hisoblagan, garchi o'sha paytda hech birimiz ateistlar haqidagi hikoyalarni o'qimasligimizga kafolat bera olsak ham) – u bizni tuzatishni ertalab va kechqurungi ibodat yig'ilishlarida qo'shiq aytishga majbur qilish bilan boshladi. Agar eslasangiz, do'stim, bizning konsertlarimiz har doim betartib, qovushmagan va shovqin bilan o'tardi, uni eslab hozir ham yuzingizga tabassum yuguradi. Kimdir juda past va cho'zib aytardi, kimdir baland, kimdir ingichka ovozda, kimdir yo'g'on, kimdir esa haddan ortiq qo'ng'iroqday kuylardi va nihoyat, biz izzat-ikrom bilan boshlagan mashqimiz asta-sekin hazil va kulgiga aylanib ketardi.

Pavel ota, agar esingizda bo'lsa, u rosa kulgan edi va agar u ibodat paytida tasodifan biron-bir kulgili narsani ko'rib qolsa, u o'z harakatining muhimligini ham unutib, kulishni boshlardi; xuddi Leypsigda bo'lgani kabi, bizlardan birimizni, ya'ni aynan knyaz Trubetskiy, klirosda¹ turib, qo'shiqning avjini olish uchun yuzlarini burishtirib kuylayotganini ko'rganda shunday holat yuz bergandi. Shu bois, u Xudoning xizmatiga chog'langan vaqtining aksariyatini ko'zları yumilgan holda o'tkazardi.

Riga shahrida ibodat paytida juda kulgili voqeä yuz berdi. Pavel ota, uni kuldirib yuborishi mumkin bo'lgan biror narsani ko'rib qolishdan cho'chib, qo'shiq boshlarkan, ko'zlarini yumib oldi. Mixail Ushakov juda hazilkash, qitmir bola edi. U Pavel otamizni kuldirish uchun bir narsadan foydalamoqchi bo'ldi.

But ibodat qo'shig'i kuylashimiz lozim bo'lgan joyning ro'parasida, bizning qalpog'imiz, shlapamiz, yengchamiz va qo'lqopimiz taxlab qo'yilgan anchayin keng stol tepasiga osilgandi. Pavel ota stol oldida ko'zlarini yumib turardi. Mixail Ushakov stolda yotgan qo'lqoplardan birini yengilgina olib, uning bosh barmog'ini ko'rsatkich va o'rta barmoqlari orasiga qo'ygancha ularni kulgili tarzda bukib, qo'shiq aytayotgan ruhoniy otamizning oldiga qo'ydi. Ta'zimlarni bajarayotib, u yopiq ko'zlarini ochdi va birinchi bo'lib uning ko'ziga ko'ringan narsa barmoqlari kulgili tarzda buklangan

¹ Kliros (krilos) – butxonada ibodat qo'shig'ini kuylash uchun maxsus belgilangan joy.

qo‘lqop edi. U o‘zini tiya olmadi, baland ovoz bilan kulib yubordi va biz hammamiz uning orqasidan ergashdik.

Pavel ota, bizning sho‘xliklarimizga hali o‘rganmagan, ularni ko‘proq oddiy va yoshlik hazillariga yo‘yardi. U o‘girilib, bizni xudobezirolar, beadab yaramaslar va shu kabi boshqa kulgili nomlar bilan atardi; kulgini kelib chiqargan aybdorni esa savodsiz, ehtimol, muttaham va undan ham yomon so‘zlar bilan atardi. Dastlabki so‘zlardayoq, Mixail Ushakov juda g‘azablangan, bir-ikki chayqalib, bu beadab so‘zlar singari bema’ni harakati bilan ular bizga hech qanday teatrda rublga sotib olinmaydigan tomosha taqdim etishdi. Mixail Ushakov devorga osilgan qilichsimon nayzani olib, uni beliga ilib, rohibning oldiga dadil bordi; unga tasma bog‘langan sopni ko‘rsatib, tabiatan biroz dovdirligi bilan dedi: «Men otliq qo‘shin ofitseri ekanligimni unutib qo‘ygan ko‘rinasan, otaxon». Shunday ta’mga ega bo‘lgan ushbu harakatning davomi biz uchun kulgi bilan, Mixail Ushakov uchun xayoliy g‘alaba va Pavel ota uchun g‘azab bilan o‘z xonasiga ketish orqali tugagandi.

Bu va shunga o‘xhash hodisalar bizning ustimizdagи ma’naviy hokimiyatga bo‘lgan hurmatimizni pasaytirdi, xuddi shu kabi, bir qancha vaqt rus gvardiyasi zobiti bo‘lgan bizning gofmeysterimiz ustidan qilgan hazillarimiz (ular haqida keyinroq so‘zlab beraman), unga nisbatan bizda mutlaq mensimaslikni keltirib chiqardi.

Pavel otaning notiqligi haqida yana bir ma’lumot: bu belgilangan qoidaga muvofiqmi yoki qalb amriga binoan shaxsiy tashabbus-mi, bilmadim, lekin u har yakshanba kuni liturgiya, ya’ni cherkov-dagi eng katta ibodatdan so‘ng shoh saroyi eshigi oldidagi naloy¹ ortida turib, bizga Injilni sharhlashni o‘rgatardi. Qaysidir bayram kuni mana shu marosimdan so‘ng Xudoning so‘zları bo‘yicha, agar adashmasam, u bizga Muqaddas Bitikda Xudoning farishtasi nazar-da tutilganligini tushuntirishga harakat qildi. «Farishta – bu xabar yetkazish uchun yuborgan Rabbiyning xizmatkori; u xuddi hukmdorning xabarchisi janob Gulyayev singaridir». O‘sanda Leypsigda Peterburgdan bir qancha topshiriqlar bilan kelgan kabinet kuryeri bor edi va u biz bilan birga liturgiyada ishtirok etgan edi. Mana shu so‘zlarni aytayotganda biz cherkovga bo‘lgan hurmatimizni unutdik,

¹ Naloy – but va kitoblar qo‘yiladigan maxsus stol.

farishtani ham unutdik, haqiqiy kuryerni ko‘rdik va hamma baland ovozda kulib yubordi. Pavel ota orqamizdan kulib, ko‘zlarini yumdi, keyin ko‘z yoshlariga to‘ldi va «Omin» dedi.

Leypsigga yetib kelgach, Fyodor Vasilyevich xo‘jayinining barcha haqoratlari va tazyiqlarini unutib, eng katta g‘ayrat ila o‘qitishga kirishdi, lekin u hali ham bunday mashaqqatli mehnatda ildiz otmaganligi sababli, birmuncha vaqt biz bilan bo‘lib o‘tgan ko‘ngilsiz voqealar sabab undan chalg‘idi. Biz bilan sodir bo‘lgan voqea, bu hammamiz uchun ko‘pgina munosabatlardagi axloqshunoslik fani amaliyoti edi.

Agar ushbu hikoyamizda kimdir g‘ayritabiyy bir narsani topsalar, men ularning adashganligini bilib, bundan ta’sirlanmayman; lekin siz, do‘stim, barchaning ko‘makchisi bo‘lib, undan haqiqatni topasiz.

Qo‘lida hokimiyat va davlati bo‘lgan grofmeysterimiz bizning mo‘tadilligimizni unutdi va xalqlar hukmdorlari singari u biz bilan, biz uchun emasligini anglatdi; unga berilgan kuch va ma’lum pullar bizning manfaatimiz uchun emas, balki uning uchun edi. U o‘z hukmronlik kuchidan uning xatti-harakatlari to‘g‘risida bizning sukul saqlashimiz uchun foydalanmoqchi edi. Inson ko‘p muammo-larga, tushkunlik va haqoratlarga dosh bera oladi. Yakkahukmronlik qoidalari bunga dalil bo‘lib xizmat qiladi. Ochlik, tashnalik, qayg‘u, zindonlar, zanjirlar va o‘limning o‘zi uni juda kam bezovta qiladi. Faqat buni haddan tashqari oshirib yubormang. Ammo bu narsani inson baxtining xususiy va umumiyligi zulmkorlari anglamaydilar va keng ko‘lamdagi yukni uzatib, uning umidsizlik bosh ko‘taradigan chegarasini har doim uzoqda ko‘radilar, najotkor tuman bilan qoplangan halokat yoqasidan yurishadi. Zolimlar ko‘rmaydilar va Rabbiy, mana shu johilliklari bilan abadiy basir bo‘lib qoladilar, ular ko‘rmaydilarki, bu uchun chidab bo‘lmas qayg‘uga sabab bo‘ladigan narsa, boshqasini bir lahzalik ham g‘amga solmasligi mumkin, aksincha, bitta yurak zarracha ham titroqni his etmaydi, boshqalarda umidsizlik va g‘azabni tug‘diradi. Siz uchun xush bo‘lgan basirlikda to‘liq qoling, asrlar davomida ham o‘zgarmang, azob chekayotgan jamiyatning butligi sizda yakun topadi. Hech kim bu pardani hu-

kumat ko'zidan olib tashlashga jur'at etmaydi, u bu haqda o'ylab ko'rgach, g'oyib bo'ladi va dunyo yuzini ko'rmay vafot etadi.

Leypsigga kelganidan keyin Bokum o'z hukmronligini boshlagan birinchi narsa, biz uchun xarajatlarni qancha imkon bo'lsa, shuncha kamaytirish edi. Ammo buning sababi uy qurilishi bo'lsa kerak, deb o'ylamang: u mablag'ning bizga tegishli qismini ajratib oldi, o'zinikini esa ikki baravar ko'paytirdi va bizning yashashimiz uchun eng zarur narsalardan ham mahrum qilishga harakat qildi. Bu haqda bizning oramizda yoshi kattaroq bo'lganlar, ulardan esa birinchi bo'lib Fyodor Vasilyevich Parij parlamenti fransuz qiroliga taqdim etganidan ham qisqa arznomalar bilan murojaat qildi. Ammo bunday arznomalar xususiy bo'lgani uchun (parlament arznomalari ham bo'ladi), fransuz qiroli aznomani rad etib, o'z xalqiga: «Bunda bizning manfaatimiz bor», degani kabi, Bokum ham avtokratik tarzda rad etdi.

Bokum arznomalardan zerikib, o'z kuchining makonini namo'yish etib, ularni birdan to'xtatmoqchi bo'ldi. Knyaz Trubetskiyning ahamiyatsiz bo'lgan nojo'ya harakatidan ayb topib, uni hibsga oldi, biz bilan muomaladan chetlatdi va u joylashtirilgan xonaning eshigiga to'liq qurol bilan qo'riqchi qo'ydi va buning uchun ataylab uchta askarga iltimos qildi. Bunday zo'ravonlik bilan qoniqmay, u nazorat ostida bo'lgan mahbusga va uning orqali bizga ham tahdid qildi, ya'ni agar biz tinchlanmasak, unda u o'zidagi vakolat kuchiga ko'ra, u bizni o'zi aytganidek fuktel¹ bilan jazolaydi yoki xanjar bilan orqadan uradi. Bu bizda u kutgan narsani emas, ba'ki teskari ta'sirni keltirib chiqardi. Biz unga bunday kuch berilmaganligini bilar edik va Rossiyada eski davning chaquvlarga ko'ra amalga oshirgan eski shafqatsizliklarini tashlab, mehr-oqibat qonunlari yozila boshlangani hammaga ma'lum edi. Bizdagi g'azab chegara darajasigacha yetib bordi; ammo shunda ham biz mo'tadillikni unutmadi, garchi to'dalashib va til biriktirib bo'lsa-da, bu yigitlar uchun bu juda to'g'ri va munosib bo'lgani uchun, hammamiz knyaz Trubetskiyning gunohini kechirishni va uni hibsdan ozod qilishni so'rab, uning yoniga keldik. U esa bizning qalbimizdagи muloyim kayfiyatdan foydalanish va bizning iltimosimizga nisbatan hurmat bilan qarash,

¹ Fuktel – qilichsimon nayza.

sherigimizning gunohini kechirish orqali bizda o‘ziga nisbatan minnatdorchilik tuyg‘ularini tug‘dirgan holda jalb qilish o‘rniga, surbetlarcha bizni rad etdi va bizni haqoratlab, xo‘rlab chiqarib yubordi. Bu bizning yuraklarimizni juda qattiq ranjитди va ta’lim olishimizdan ham ko‘ra ko‘proq darajada o‘zimizni chidab bo‘lmaydigan bu bo‘yinturuqdan ozod qilish yo‘llari haqida o‘ylay boshladik.

Ahmoqlik sabr-toqat chegaralaridan oshib keta boshlagan va umidsizlik yuzaga kelgan jamiyatlarda bo‘lgani kabi, bizning jamiyatimizda ham yig‘ilishlar, tadbirlar, alohida maslahatlashuvlar boshlandi, xullas, fitnalar oldidan bo‘ladigan hamma narsa, yordam berish haqidagi o‘zaro va’dalar, so‘zlarga sodiq qolish kabilar gaplashib olindi; bu yerda jasorat olqishlandi; jur‘atsizlik esa jim bo‘lib qoldi, ammo tez orada hamfikrlik barcha qalblarga tarqaldi va umidsizlik yaraning gazak olishini kutdi.

Bokum esa uni olib tashlamadi. Bizning noroziligimizning sababi tarkibimiz uchun ba‘zan zarur narsalar, ya’ni oziq-ovqat, kiyim-kechak va hokazolarning yetishmasligi edi. Leypsigga kelganimizdan keyingi ikkinchi qish odatdagidan ko‘ra qattiqroq keldi va bizning yupun egnimiz bu sovuqqa nisbatan Rossiyaning o‘zidagi o‘ttiz darajali sovuqdan ham sezgirroq edi.

Bokumning uy qurilishi o‘tinni ham qamrab oldi va biz bu holatda boshqa narsalarga qaraganda ko‘proq zarar ko‘rdik. Garchi bizga aytiganidek, uyimizdan bizga pul yuborish taqiqlangan bo‘lsa-da, lekin biz ushbu taqiqdan bexabar bo‘lib, ayniqlsa, kerak bo‘lganda, ushbu buyruqni buzgan holda, Rossiyadan chiqishdan oldin biz o‘z pulimizga ega bo‘lgandik. O‘z mablag‘iga ega bo‘lganlar faqat o‘zlarining zarur ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki o‘rtoqlariga ham yetkazib berdilar. Bir so‘z bilan aytganda, bizning yashash vaqtimiz davomida o‘z pullari bo‘lganlar uni nafaqat zarur ehtiyojlar, masalan, o‘tin, kiyim-kechak, oziq-ovqat, balki o‘qish, kitob sotib olish uchun ham ishlatalishgan; uyimizdan oladigan pulimiz tutib bo‘lmas ehtiroslarimizga ham xizmat qilganini yashirmayman; ammo ular bizda uning tug‘ilishiga sabab yoki vosita bo‘lмаган. Xo‘jayinimizning biz haqimizda beparvoligi va buzuq jamiyatdagi yosh yigitlarga nisbatan kam nazorat uning ildizi bo‘ldi, har bir joyda bo‘lgani kabi har bir odam buni yashirmay tan oladi.

Jamoamizdagilardan biri Nasakin o‘z uyidan bir tiyin ham olmagan va shuning uchun u boshqalardan ko‘ra ko‘proq ehtiyojni boshdan kechirgan. Eslatib o‘tilgan qishda, tananing og‘riqli joylashuvi uchun sovuqqa ko‘p dosh berolmay, u gofmeysterning oldida arz-noma bilan chiqish qilishga qaror qildi. U Bokumni qandaydir ham-yurtlaridan biri va takabbur bosh ig‘vogar¹ bilan bilyard o‘ynayotgan paytda topadi. Nasakin xonasini isitish uchun buyruq berishni iltimos qilib, unga o‘zining ehtiyojlari haqida ma’lum qildi. Bir kun oldin Bokum Nasakinning hamxonasi bo‘lgan knyaz Trubetskiyni hibsga olgandi. Bokumning rad javobiga Nasakin e‘tiroz bildiradi va Bokum, hatto uni tinglashni ham istamay, ayniqsa, kuchini eslatib, o‘yinini ham tashlab, kelgan odamni humatsizlik bilan itarib chiqara boshlaydi; lekin Nasakin unga qarshilik ko‘rsatadi va unga o‘girilib, uning talablari adolatli ekanligini aytadi, shunda Bokum battar g‘azablanib, Nasakinning yuziga tarsaki tushiradi. Bu uning xayolida sharmandalik alomati bo‘lgan Nasakinni shunchalik qurolsizlantiriladi, u bizning xo‘jayinga boshqa bir so‘z aytmasdan, egi-lib tashqariga chiqib ketadi.

Baxtsiz kishining quvonchi – do‘stlik bag‘rida panoh topish, o‘z qayg‘usi haqida suhbatlashishdan iborat. Va tahqirlangan do‘stimiz bizga nima bo‘lganini so‘zlab berdi. Xo‘jayinimizga nisbatan nafrat bizning qalbimizning birinchi harakati edi, ammo tez orada bunga g‘azab qo‘schildi. Hamma mana shunday qismatdan qo‘rqardi; kimdir bunday holatda umidsizlikning oqibati haqida orzu qilar edi, ikkinchisi, bunday fikrdan oldindan hayratlanib, agar unga Nasakinga tushgani darajasiga teng qismat tushsa, nima qilish kerakligi to‘g‘risida qat’iy fikrga kelolmas edi. Ammo hamma bir ovozdan Bokum nafaqat yaxshi fe'l-atvor, balki odob-axloq qoidalariga zid bo‘lgan xatti-harakatni amalga oshirib, Nasakinni xafa qilgani uchun qoniqtirishi kerak edi, degan xulosaga kelishdi.

¹ Ularning so‘zlariga ko‘ra, bu odam o‘zini pul evaziga qaysidir saroyda vazirlik unvoniga ega bo‘lgan va o‘z lavozimini maqtov bilan yuritgan. Bu vazirlik ishlarida maqtov bilan aql-idrokdan foydalanish kerak, halollik esa yetarli emas, deb o‘ylaydiganlarning fikrini oqlaydi. Hiyla-nayrang, olg‘irlik, sharoitga qarab ko‘tarilish va tushish san‘ati ajoyib vazir tayyorlashi mumkin, ammo yaxshi fuqaroni hech qachon paydo qila olmaydi (*muallif*).

Yotoqxonada Fyodor Vasilyevich bizga shunday dedi: agar bunday holat yuz bersa, u holda qon bilan bo‘lgani kabi uni tekislash mumkin emas. U buni tajribalaridän kelib chiqib aytdi va misollar bilan qo‘llab-quvvatladi, lekin na o‘zi va na biz hali yaxshi uyushgan jamiyatdagi duellarning barcha hiyla-nayranglarini tushunmadik va misollarga asoslanib, agar bu ish o‘z boshlig‘imiz emas, begona odam bilan sodir bo‘lganda, o‘z so‘zida turib olgan bo‘lardi, degan xulosaga keldik.

O‘scha paytda biz faqat tabiiy qonunlarning ta’limotini tinglashni boshladik va hali ham bu aloqani e’lon qilmasdan, odamda haqorat bilan paydo bo‘lgan birinchi harakatlarda to‘xtadik. O‘zining yurishida eng kichik to‘siqlarga ham ega bo‘lmagan, haqoratni sodir etishda tabiiy holatdagi odam o‘zining xavfsizligini his qilgan holda, haqoratni aks ettirish uchun uyg‘onadi. Bundan qasos olish yoki qadimgi «ko‘zma-ko‘z» degan qonun tug‘iladi; inson tomonidan har soatda his etiladigan, ammo fuqarolik qonuni tomonidan to‘sib qo‘yilgan va hal qiluvchi qonun. Hali joylashuvi tugallanmagan fikrlar tafakkurimizga tabiiy holatimizdagi xo‘jaynimizga nisbatan munosabatimiz qanday bo‘lishi lozimligini namoyon qildi va biz Nasakin Bokumdan olgan tarsakiga javob qaytarishi kerak, degan xulosaga keldik.

Bizning yakuniy va umumiy qarorimiz shu edi: Nasakin Bokumga borishi va bizning huzurimizda, xafa bo‘lib, undan ehtiyojini qondirishini talab qilishi kerak edi. Agar u buni qilishni xohlamasa, yuzidagi tarsakini Bokumga qaytarishi kerak. Nasakin uzoq vaqt o‘ylanib, ikkilanib, bu qilmish to‘g‘risida qaror qabul qila olmadi; ammo biz, agar u bu ishni amalga oshirmasa, o‘ziga nisbatan bo‘lgan bizning xayrixohligimizdan va munosabatlarimizdan mahrum bo‘lishini aytib, kelishuvimizni yanada mustahkamladik. Hech qanday narsa bizning tahdidimizchalik xo‘rlangan Nasakinning qalbiga bunchalik kuchli va bunchalik tezkorlik bilan ta’sir eta olmagan bo‘lardi. Agar bizning hukmimiz teskari yo‘nalishda bo‘lgan bo‘lsa, u holda biz bilan teng mavqega ega bo‘lgan kishi, sherigimiz nafratiga duchor bo‘lishni istash o‘rniga, sabr-toqat bilan yuzga yana o‘ntadan shapaloqni qabul qilishi kerak edi.

Nasakin Bokumdan unga qilingan tahqirlashning evazini olishni qanday talab qilishi kerakligi to‘g‘risida yig‘ilib, kelishib oldik, qo‘riqchilar nazorati ostida o‘tirgan knyaz Trubetskiyni hisobga olmaganda, biz hammamiz birga uning oldiga bordik.

Biz uni ko‘rishni xohlayotganimiz haqida xabar berish uchun odam yubordik va odatiy ovqatlanadigan xonamizda uni kutib turdik. U xonaga kirishi bilanoq, bizning hayotimizning bиринчи qadamidanoq teskari qismat bizni muqarrar halokatga burib yuborishi mumkin bo‘lgan harakatlar boshlandi. Do‘slik maslahatisiz bunday yoshlik o‘zi uchun o‘zi qanchalar halokat keltirishi mumkin! Ammo uzoqni ko‘rish tepamizda hushyor turardi, negaki qalbimizdagи be-qarorlik pishib yetilmagandi; shuning uchun uning qalqoni har doim tajribasizlik ustida bo‘ladi va uni eng tubsizlikkacha kuzatib turadi.

Bizning oramizda yuzaga kelgan vaziyat hosili o‘larоq Nasakin Bokumga yaqinlashib, uni xafa qilgани uchun ehtiyojlarini qondirishni so‘radi. Ehtimol, bu yerda o‘sha paytda aytilgan so‘zlardan foydalansam, o‘quvchiga yoqimli, sizga esa, aziz do‘stim, yanada yoqimli bo‘lgan bo‘ladi; ular qisqa va harakat ham bir zumda sodir bo‘ldi.

Nasakin. Siz meni xafa qildingiz, endi men sizdan haqqimni talab qilish uchun keldim.

Bokum. Qanday xafagarchilik uchun va qanday talab?

Nasakin. Mening yuzimga tarsaki tushirdingiz.

Bokum. Bu yolg‘on, endi esa, marhamatingiz bilan, ketsam.

Nasakin. Agar yolg‘on bo‘lsa, unda mana, mana yana boshqasi.

Shunday deya Nasakin Bokumga tarsaki tushirdi va u zARBini yana takrorladi.

Bokum bu harakatning davomidan qo‘rqib, xonadan chiqib ketdi. O‘sha paytda Bokumning biz bilan birga bo‘lgan xizmatchisi, Nasakin xo‘jayinini pichoqlamoqchi degan xayolga bordi, chunki uning yonida pichog‘i bor edi, uni sonidan yulib olib tashladi va u faqat Mixail Ushakov undan yasama sochni yechib oglani uchun jazolandi. Ammo Nasakinning yonida pichoq bo‘lganining sababi boshqacha edi; u mehmonga borgandi va u yerdan qaytgach, yechinishga ulgurmagandi, u jangga shlapa va qilich bilan keldi; ammo Bokum, o‘z ayblovida, bu holatni o‘tkazib yubormadi, ya’ni biz, ayniqsa, Na-

sakin uning hayotini tahdid qilibmiz va Nasakin pichog‘ini qinidan yarmigacha chiqargan ekan, lekin u bizni xuddi yosh bolalar singari tarqatib va chiqarib yuboribdi. Shunday qilib, tuhmatning o‘zida u maqtanchoqlikni ham unutmadi va Nasakin unga qasos bilan tarsakisini qaytarganini hech qachon tan olmadi.

Agar ular kimningdir aybini uning qurol olib yurgani bilan og‘irlashtirishni xayol qilishgan bo‘lsa, unda hech kim mendan ham ko‘ra ko‘proq ayblanmasligi kerak edi. Negaki o‘sha paytda menda o‘qlangan cho‘ntak to‘pponchasi bor edi, men uni ushbu voqeadean bir kun oldin sotib olib, o‘qladim va uni belgilangan joyga borib, sinovdan o‘tkazmoqchi bo‘lgan edim, lekin, yaxshiyamki, o‘sha paytda meni tintuv qilishmadni. Men bajon-u dil tan olaman, agar Bokumning yonida keksa xizmatkoridan boshqa odam bo‘lganida, yoshlikning bu aqlsizligi tufayli kulgili bo‘lmagan, yig‘latadigan bিrор voqeа yuz berishi mumkin edi; agar biz uni o‘ldirmoqchi edik degan fikrga kelsak, u bizga hujum qilgan bo‘lardи. G‘azabning qaynab turgan jazavasida nima sodir bo‘lgan bo‘lardи, Xudo biladi, ammo baxtga ko‘ra, Mixail Ushakov eshiklarni qulflab qо‘ydi va hech kim keksa xizmatchining faryodiga kira olmadi.

Hujumimizdan keyin biz buni to‘g‘ri ish deb hisoblab, u haqda universitet rektoriga xabar berdik. Uning oldidan qaytiб ham, bizning ko‘nglimiz tinchlanmadni. Biz o‘zimizning noto‘g‘ri qilmishimizni his qildik, lekin o‘z pozitsiyamizning og‘irligini ham sezib turardik vaadolat tarozisida bizni hukm qilishlari mumkin emas edi. Ammo har qanday hakam ham odam bo‘lib, ko‘pincha tashqi qiyofasi bilan boshqariladi.

O‘sha voqeа vaqtida ko‘nglimizga tukkan niyatimizni eslasam, bugun ham titroqqa tushaman. Biz muhokama qildik: albatta, ular bizning qilmishimizni ma‘qullamaydilar, negaki Bokum uni tuhmatni xira ranglar bilan gullab-yashnatdi, agar u katta ahamiyatga ega bo‘lmagan, arzimas bir xato uchun ham qamoqqa tashlagan bo‘lsa, bizning boshimizga u undan ham kattaroq narsani solishi mumkin va biz Rossiyaga jazo olish uchun va bundan ham battari, masxara bo‘lish uchun qaytib ketamiz, deb o‘yladik; agar shunday bo‘ladigan bo‘lsa, ko‘pchiligidan Leypsigdan yashirinchcha chiqib ketishni, Gollandiyaga yoki Angliyaga borishni va u yerdan imkoniyat

topib, Sharqiy Hindistonga yoki Amerikaga borishni xayol qila boshladik. Xo‘jayinning bemulohaza qattiqqo‘lligi va yoshlikning tajriba-sizligi mana shunday oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Ammo Bokum bizning qochib ketish haqida o‘ylashimizni nazarda tutgan edi va yarim soat o‘tmay, u o‘sha yerning harbiy qo‘mondonidan qurollangan askarlar so‘rab olib, bizni o‘z xonamizda, nazorat ostida hibsga oldi.

Biz uchun bu og‘ir vaziyatda biz *Drezdendagi rus vaziriga* (184) bo‘lib o‘tgan voqeа yuzasidan batafsil bayon qilib murojaat qildik; ammo bizning maktubimiz unga yetib bormadi, chunki keyinroq bilishimizcha, Bokum mahalliy ma‘muriyatga yolg‘on gapirib, bizning barcha xatlarimizni to‘xtatish va ularni Rossiyaga jo‘natishdan oldin uning mazmuni to‘g‘risida ularga xabar berishi lozimligini aytibdi. Shunday qilib, na saroyimizning Drezdendagi vaziri va na Peterburgda bu haqda qancha yozmaylik, bizning haqiqiy pozitsiyamizdan xabardor bo‘lishlari mumkin emas edi. *Bizni yetarlicha yaxshi ko‘radigan* (185) va faqat bizga achingani bois o‘z mablag‘lari hisobidan biz bilan bo‘lgan voqeа xususida Rossiyaga xabar jo‘natishga rozi bo‘lgan bir odam topilganida esa, Bokumning ko‘rsatmasi bo‘yicha bizning ishimiz to‘g‘risida vazirimizning taqdimoti oldindan yetib borgani bois, bizning shikoyatlarimiz e’tiborga olinmadи.

Ammo men, aziz do‘stim, o‘zim kabi siz ham yaxshi biladigan narsalar haqida gapirib, sizni zeriktirib qo‘yishim mumkin; shuning uchun men o‘sha paytda biz uchun juda yoqimsiz bo‘lgan, lekin haqiqatda esa biz axloqiy jihatdan juda katta saboq bergen voqeа haqidagi tafsilotlarni yakunlayman.. Mening yagona niyatim shundan iborat ediki, qancha boshliqlar o‘z hukmronlik kuchlari dan foydalanishda xato qilishadi, o‘zlarining bemulohazakorliklari va vaqt-soatsiz qattiqqo‘lliklari bilan qanchalar zarar yetkazadilar. Agar biz o‘sha paytdagi o‘z niyatimizni amalga oshirib, Leypsigdan chiqib ketganimizda bormi, tasavvur qiling, do‘stim, biz ota-onamizga, do‘stlarimizga va yoshlikni sevuvchi barcha qalblarga qancha qayg‘u keltirgan bo‘lardik. O‘n nafar fuqaroni ixtiyoriy ravishda chiqarib yuborish bilan davlat hech narsani yo‘qotmagan bo‘lardi. Lekin vatan, uni chin dildan sevadigan o‘g‘illarini albatta yo‘qotgan bo‘lar edi. Agar kimdir bunga isbot so‘raydigan bo‘lsa, men unga hech narsa bermayman; lekin faqat sizga, do‘stim, Rossiyaga qayt-

ganimizni eslatmoqchiman. O'zimizni tug'ilgan o'z ona yurtimizda ko'rishga bo'lgan sabrsizligimizni eslang, Rossiyani Kurlandiyadan ajratib turgan chegarani ko'rganimizda quvonganimizni yodga oling. Agar hislardan mosuvo bo'lgan kimdir befarqlik yoki ahmoqlik tu-fayli hech narsani hayajon bilan ko'rmagan bo'lsa, buning uchun qog'ozlarimni bulg'ashni xohlamayman; ammo kimdir o'sha paytda g'azablanish borligini anglab, bizda bunday narsa yo'qligini va o'shanda vatan manfaati uchun hayotimizni qurbon qilolmasligimizni aytsa, unda men unga aytgan bo'lardimki, u inson qalbini tushunmas ekan. Men tan olaman va siz ham, aziz do'stim, qaytib kelganimizdan keyin bizdag'i unga bo'lgan taft anchagini me'yoriga kelib qolganini tan olib e'tirof etasiz. Ey, siz, xalqlarning ongi va irodasini boshqaruvchi hukmdorlar, sizlar ko'pincha qay darajada uzoqni ko'ra olmaysiz va qo'llaringiz qay darajada qisqa, siz necha martalab yoshlarning ko'nglini ko'taradigan xamirturushni susaytrib, umumiy manfaat uchun xizmat qiladigan qancha imkoniyatni boy berasiz. Bir marta kamsitib, ko'pincha uni abadiy nogiron qilib qo'yasiz.

Biz davlat jinoyatchilar yoki umidsiz qotillar sifatida qo'riqchilar nazorati ostida edik. Bizdan nafaqt qilichlar, balki xanjarlar, pichoqlar, qaychi, hatto kichkina pichoqlar ham tortib olindi va ular bizga ovqat olib kelishganda, uni bo'laklarga bo'lishga to'g'ri keldi, chunki u yerda na pichoq, na sanchqilar bor edi. Derazalar tambalab qo'yilgan, havoning yangilanishi uchun faqat bitta kichik tuy-nuk qoldirilgan, qorovul yotoqxonamizdan chiqaverishdagi xonada o'tirar va bizning o'rnimizda yotganimizni ko'rishi mumkin edi, chunki yotoqxonamizning eshigi olib tashlangandi.

O'z holatimiz to'g'risida vazirimizga xabar berolmasligimiz uchun bizni bir-birimiz bilan muloqot qilishimizga yo'l qo'ymaslik borasida barcha ehtiyot choralar ko'rilganiga qaramay, bizning qattiq qo'riqlanishimizga sabab ham aslida shu edi, biz xat yozib, hammamiz uni o'z qo'limiz bilan imzoladik. Hech kimga bizni ko'rish uchun ruxsat berilmadi, biz bir xonada ikkitadan bo'lib o'tirardik va shu sababli hammaning imzo chekkani g'alati tuylishi mumkin. Biz buni amalga oshirishning o'ziga xos usulini qo'lladik va bizni ranjitadigan depressorlar ham bilib qo'yinlar,

ularning qattiqxo‘lligi uni og‘irlashtiradigan vosita orqali masxara qilinishi odatli holdir.

Biz yashagan joy ikkita yotoqxonaga bo‘linar edi va tepada to‘rtta bo‘linma, pastda to‘rtta, har bir bo‘limda ikkitadan xona bor bo‘lib, biz ularda ikkitadan bo‘lib yashadik. Oltitamiz yuqori qavatda, to‘rttamiz pastki qavatda joylashgandik, qolgan xonalarda o‘qituvchilarimiz yashar edi. Maktub Fyodor Vasilyevich tomonidan yozilgandi. Xatni uzun ipga bog‘lab, uni derazadan chiqarib yuborishdi; qudratli shamol uni boshqa oynaning ochilish joyiga olib bordi, u yerdan xatni olish mumkin edi va imzo qo‘yganimizdan keyin xuddi shu tarzda shamol uni boshqa xonaga olib keldi; shunday qilib, biz tabiat kuchlarini o‘z manfaatimiz uchun qanday ishlatalishni bildik. Bizning xatlarimiz o‘qituvchilarimizdan birining pochtasiغا tegishli edi. U azbaroyi insonparvarlik yuzasidan o‘zining o‘sha vaqtdagi butun baxtini qurban qildi va bizni himoya qilish uchun Rossiyaga jo‘nab ketdi, u o‘sha vaqtida yo‘l xarajati uchun bizning yagona boyligimiz bo‘lgan bitta cho‘ntak soatini oldi; lekin o‘z ishini amalgalashirishga ulgurmadi, bu haqda ilgari aytib o‘tgandim. Buyuk qalbli inson! Buning uchun hech birimiz sizga munosib javob bera olmadik, lekin siz yashaysiz va doimo qalbimizda saqlanib qolasiz.

Bizni hibsga olishdan qoniqmagan Bokum, universitet kengashidan bizni sudga berishlarini so‘radi. Bizni so‘roqlarga maxfiy tarzda olib borishdi va jarayonlar inkvizitsiyada yoki maxfiy idorada sodir bo‘lgan voqealarga o‘xshash bo‘lib, faqat jismoniylar jazo bundan mustasno edi. Ushbu sudning qarori shunday bo‘ldiki, siz va men, Yanov va Rubanovskiy ozod qilindi, qolganlar esa, ularning orasida Fyodor Vasilyevich ham bor edi, yana qo‘riqchilarining nazorati ostida qolishdi, ammo tez orada vazirimizning buyrug‘i bilan ular ham ozod qilindi. *Ushbu yarim kulgili va yarim achinarli ishning oxiri shunday qaror topdi* (186): vazir Leypsigga yetib kelib, bizni Bokum bilan yarashtirdi va shu vaqtdan boshlab biz u bilan deyarli unga bo‘ysunmaganday yashadik; u cho‘ntagiga g‘amxo‘rlik qildi, lekin biz erkin yashadik va uni ikki oyda bir marta ko‘rdik, xolos.

Leypsigda bo‘lganimizda, general-leytenant, keyinchalik senator bo‘lgan (sobiq) N.Y. Muravyovning rafiqasi bilan Leypsig orqali

o'tishiga to 'g'ri keldi (187). Unga safarda qaynisi, ya'ni gvardiya ofitseri bo'lgan yosh yigit hamrohlik qilib, u samimiy hazilni yaxshi ko'rар va ahmoqlar ustidan maza qilib kulardi. U aynan shu narsani bizning gofmeysterimizdan topdi. U uning maqtanchoqlikka o'chligidan foydalanib, uni, maqolga ko'ra, toza suv yoniga olib bordi. O'sha vaqtga qadar, biz grofmeysterimizning maqtov uchun o'zini bahodir inson deb tan olishini va agar u Bovaga teng keladigan darajada jasorat ko'rsatish imkoniga ega bo'lмаган bo'lsa-da, unda boshqa turdag'i, Don-Kixotning sarguzashtlariga munosib qahramonliklari bor ekanini bilmagan ekanmiz.

Yuqorida eslatib o'tilgan gvardiya ofitseri Bokumning o'zini yaxshi ko'rish xislatini qo'zg'atib, uni shu darajaga yurgizib yubordiki, Bokum o'zining tana kuchlarini isbotlash uchun uning ko'rsatmasi bilan bir necha shisha suv yoki pivoni birdaniga ko'tarib, ichib yubordi; uni o'z joyidan qo'zg'atish uchun bir nechta xizmatkorlar uni birvarakayiga itarish va ularga uni turtishda o'z kuchlarini ayamasliklari buyurildi, ular birlashib, uning yakka o'ziga bas kelishmaganidan hayratga tushishdi, ammo unga bu ham yetarli emas edi. U unga har xil og'ir yuklarni, stullarni, stollarni ko'tarishga majbur qildi, buning uchun unga haq to'ladi va o'zini tiyolmay, kulgisini yashirolmay, faqat shunday derdi: «Eh, Bokum-ey!»

Shunisi e'tiborga loyiqliki, bu yoshdag'i odamning zaifligi qay darajaga ko'tarilishi mumkin va ko'p hollarda yotoqxonada bu zaiflikni turli xil tasodifiy holatlar qo'llab-quvvatlagan va ko'kka ko'targan. Bokum juda kuchli elektr qurolining zarbalariga dosh berishga rozi bo'lgan darajagacha olib keltirildi. Dastlab elektr kuchlarining zarbalari mo'tadil edi va uni o'z kuchlarining ustunligiga ishontirish uchun ko'pchilik tomonidan birdaniga zarbalar berildi. Hammasi, dastlabki shartga ko'ra, xuddi tok zarbaning kuchi ta'sir qilgandan, yerga yiqlilib tushishdi, yolg'iz o'zi yiqliganlar ustidan g'alaba qozonganday, yiqlimay, mardonavor qoldi. Shunday qilib, uni o'z kuchlarining hammadan ustunligiga ishonch hosil qildirib, elektr qurolining zarbalari kuchaytirib borildi, Bokum esa qanchalik azob ekanligini ko'rsatmasdan bardosh bilan turib berdi; nihoyat tok kuchi shu qadar katta berildiki, uning oyoqlari chalishib ketdi.

Bunday qahramonliklar har kuni ushbu sayohatchilar Leypsigda bo‘lgan vaqt davomida amalga oshirildi. Biz esa erinmaydigan tomoshabin edik va o‘sha paytdan boshlab Bokumga nisbatan nafratimiz mutlaq tus oldi.

Rossiya va Turkiya o‘rtasidagi so‘nggi urushda Rossiya dengiz kuchlarining Arxipelagga jo‘natilishi bizga Leypsigda Rossiyadan Italiyaga va u yerdan Rossiyaga o‘tayotgan ko‘plab yurtdoshlarimizni ko‘rish imkoniyatini berdi. Birov (yuzida sharmandalik yoki pushaymonlik ranglarini paydo qilmaslik uchun uning ismini yashiraman) Leypsig orqali o‘tayotgan, birov Fyodor Vasilyevichga juda hurmat ko‘rsatdi va uning do‘sligini qozonishni xohladi. Natija shuni ko‘rsatdiki, bu do‘slikning samimiyligi Leypsigda o‘qishiga orzu qilgan homiysi bo‘lishini istagani oshkor bo‘lgunga qadar davom etdi. Biror kun ham o‘tmadiki, ishontirib aytaman, kun davomida Fyodor Vasilyevich *F...* (188) bilan birga bo‘lмаган vaqtı bir soat ham bo‘lmadi, ular birgalikda mashq qilgan mulohazalarining asosiy qismini metafizika tashkil qilar edi. U Fyodor Vasilyevichni kuchli homiysi borligiga ishontirib, uni og‘ir yukdan xalos qilishga va’da berdi. Do‘slikning xushomadli ovoziga qulq solib, Fyodor Vasilyevich unga yuragini ochdi. Unda umid nurlari yangilangandek tuyuldi, ammo tez orada fransuzcha maqol shu bilan amalga oshdi: «Yo‘qlar har doim aybdor». Homiysi Leypsigni tark etishi bilan Fyodor Vasilyevichni va unga bergan va’dalarini unutib yubordi va shu qadar unutdiki, uning yozgan barcha xatlari uchun bir so‘z ham javob qaytarmadi. Yoki u o‘zidan past ko‘rgan darajadagi odam bilan yozishishni o‘ziga ep ko‘rmadi; yoki fanlarga minnatdorchilik bildirishga to‘g‘ri keladi, negaki uni o‘zlashtirayotganlar ichidagi tabaqalar sezilmaydi, tabiiy tenglik nigohlari unga og‘irlik qilmaydi, u hammani birlashtiradi. Shuning uchun ham Leypsigda *F...* Fyodor Vasilyevichga o‘ziga teng darajada qaragan. Va u, haqiqatan ham, sizga teng edi, lekin yaramas qalbi, aql kuchlari bilan sizning oljanob qalbingiz oldida sizdan ancha pastda, uzoqda edi.

Bu voqeя Fyodor Vasilyevichning ruhida o‘limigacha qadar u bilan birga bo‘lgan qandaydir xiralikni qoldirdi; uning qalbida va’dalarga, ayniqsa, oljanob va’dalarga nisbatan ishonchszilik urug‘ini sepdи va uni ilm olishga o‘zini yanada ko‘proq bag‘ishlashga

majbur qildi; va bu ishda u adashmadi. Chunki ilm istagi, garchi abadiy bo‘lmasa ham, ammo xafagarchilik zulmatini butkul yo‘q qildi va haqiqat uning qayg‘usi evaziga uni nuri bilan mukofotladi.

E’tirof etish kerakki, F...ning Leypsigdagi ishtiroki va biz bilan bo‘lgan muomalasi Fyodor Vasilyevichda bo‘lgani kabi, barchamizda ham o‘qishga katta ishtiyoyqni uyg‘otdi, bu bizga Gelvetsiyning «Aql to‘g‘risida» kitobi haqida ma’lumot olish imkoniyatini berdi. F... u bu asarni juda yaxshi ko‘rar va boshqa asarlardan ustun qo‘yar edi, ehtimol u boshqa asarlarni bilmagan. Uning maslahati bilan Fyodor Vasilyevich va biz undan keyin bu kitobni o‘qidik, diqqat bilan o‘qidik va undan fikrlashni o‘rgandik. Ba’zida johillarning maqtovi har qanday yozuvchiga yoqimli tuyuladi, ammo Gelvetsiy, albatta, yoshlarning butun bir jamiyati undan fikrlashni o‘rganganini bilib, buni befarqlik bilan qabul qilmadi¹. Shu nuqta-yi nazardan, uning har qanday kichik tarkibi har doim ham foydali bo‘lishi mumkin emas.

Fyodor Vasilyevich o‘zi bilan o‘zi bo‘lib, o‘zining hukmdori adolatiga umidvor bo‘lgan holda, o‘zidan yuqori tabaqalarga nafratni his qildi. U o‘zining barcha kuchlari va fikrlarini ilm-fanni o‘rganishga yo‘naltirdi va bu deyarli yagona mashq edi. O‘qishda bu o‘jar mehnatsevarlik ehtimol uning o‘limini tezlashtirgan bo‘lishi mumkin. O‘limidan bir yil oldin unga kasallik kelib yopishdi, aytish mumkinki, u tobutgacha olib boradigan boshqa kasallikka yo‘l ochdi. Haqiqiy va kuchli dori-darmonlardan foydalangan holda, u o‘z shifokorining maslahatiga xilof ravishda har kuni o‘qish bilan shug‘ullanishni tark etmadni va shu vaqtda Gelvetsiyning kitobi to‘g‘risida maktublar yozishni boshladi, ular faqat uning o‘limidan keyin birinchi kitobning debochasiga bag‘ishlangan «Aql to‘g‘risida» nomi bilan topilgan. O‘qishga mukkasidan ketish orqali u o‘zining qonida og‘ir kasallikning nishi zahrini to‘xtatdi, kelasi bahor bu kasallik yana qo‘zg‘ab, unga o‘lim eshiklarini ochdi.

Men buni o‘zimning shaxsiy ishtiyoyqim tufayli yozaman, mening do‘stim uchun yozaman va buning uchun kimdir uni o‘qishdan

¹ G. Grim Leypsigda bo‘lganida, biz Gelvetsiyning kitobini qanchalik e’tibor bilan o‘qiganligimiz to‘g‘risida xabardor bo‘lib, Parijga qaytib kelgandan keyin Gelvetsiyga bu haqda so‘zlab bergen.

zerikib qolsa va birga miltirab turadigan mening yaramasligim yoki nazokatim tufayli mening hikoyamda biron ta ham yodgorlikka loyiq voqeani topolmasa, bundan tashvishga tushmayman. Zero, Neron va Markus Avreliy, Kaligula va Titus, Aristid va Shemyaka, Kartush, Aleksandr, Katilina va Stenka Razinlar biz uchun bir xil darajada mashhur, barchasi ulug'vor, hammasi avlodlar xotirasida yashaydilar va ular haqidagi fikrlar ularni tashvishlantirmaydi. Insoniyatni sevadigan kishi, o'limidan keyin yaxshi yoki yomon sharaf biron narsani o'zgartirganda ham, tashvishlanmagan bo'lardi; ammo barchaning baxtsizligiga, qo'lida hukumat bo'la turib, u haqida tirikliga nima deyishlariga juda kam ahamiyat beradi va o'limidan keyin u haqida qanday fikrlashlari mumkinligi to'g'risida esa o'ylab ham ko'rmaydi. U faqat o'zining xudbinligini rag'batlantirish va o'z manfaatini ko'zlash uchun intiladi. Yuliy Sezar jamoat xazinasini o'g'irlaganida, davlat odami nomidan qo'rqedi, Fransiyaga bir lahzada mavjud bo'lgan xayoliy boylikni kiritib, davlatning bir qismi qashshoqlikka mahkum qilgan holda, ijtimoiy yovuz odam sifatida tanilganidan xavotirlanmadı; Lyudvig XIV o'zining buyuklik holatida, uning avlodlari unga tirikligida xushomad tariqasida berilgan buyuk degan unvonni qoldiradimi yoki yo'qmi deb tashvishlanmadı; xalqlarning hukmdorlari o'z fuqarolariga og'ir soliqlar solib, qaroqchilar deb tan olinishidan qo'rqedishmaydi, ular urush olib borib va minglab askarlarni o'limiga sabab bo'lib, o'zlari dushman deya atagan birodarlarining va qaroqchilarining qotillari sifatida tan olinishdan cho'chishmaydi.

Bu gapni, ehtimol noo'rin aytganimdan so'ng, men vafot etgan do'stimizga qaytib boraman va uning ishlaridan, Kvint Kursiy va Servant asarlarini o'qiydiganlarning didiga mos ravishda qiziqarli qahramonliklar va sarguzashtlar izlaydiganlar uchun emas, balki yoshlikni sevish uchun qalbi ochiq bo'lganlarga qiziqarli bo'lgan nimadir topishga harakat qilaman.

Bizga kerakli tillarni o'rganish bilan birga, falsafa va huquqlarning barcha bo'limlarini o'rganish buyurilgan edi, ammo Fyodor Vasilyevich ta'limning boshqa bo'limlari haqida tushunchaga ega bo'lish ortiqchalik qilmaydi deb o'ylardi va shu tufayli uning boshqa bo'limlarni o'rganish bo'yicha o'qituvchilari bo'lib, ularga o'z

cho‘ntagidan pul to‘lar edi. Turli bilimlarni egallashning ushbu usul-lari bilan u har doim kitoblarni qunt bilan o‘qishni eng foydali deb bilar edi.

U buni har doim kollegiyalarda bizga o‘rgatilgan narsalarga mu-vofiq ravishda tartibga keltirgan¹. Shunday qilib, umumiy maktab odatiga ko‘ra, ular bizga, birinchi navbatda, mantiqni o‘rgata boshla-ganlarida, Fyodor Vasilyevich Arnovning fikrlash san’ati va Strave-zandning falsafa asoslarini o‘qidi va ularning fikrlarini o‘qituvchisi fikri bilan solishtirib, ular o‘rtasidagi farqlar orasida haqiqatni to-pishga harakat qildi.

Bilimlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq turli xil mashqlar orasi-da Fyodor Vasilyevich lotin tiliga mukammal amal qildi. Odatiy ma’ruzalardan tashqari, uning maxsus ma’ruzalari ham bor edi. Yer-da tug‘ilgan odamlarning mehnatini yoritib berish uchun ko‘tarilgan quyosh uni ko‘pincha rimliklar bilan suhbatlashayotganida topdi. Hammadan ham ko‘ra uni lotin tilidagi ifodalar kuchi o‘ziga jalg qil-di. Erkinlik bilan to‘lgan qalblar, ularning hukmdorlari o‘zlarining nutqlarida qalblarining elastikligini ifoda etdilar. Uni *xushomadgo y Avgust va tilyog lama Patronlar emas* (189), balki Katalinaga qarshi momaqaldiroq bo‘lgan Sitseron va ayamay yozadigan hajviya ustasi Neronlar maftun etdilar. Agar o‘lim sizni do‘stlaringiz orasidan olib ketmaganida edi, siz, albatta, *bir vaqtlar eng makkor hukmdorlar tomonidan aldanib qolgan* (190), shohlarining hayoti sud qarori bi-lan yakun topgan bu mag‘rur orolliklar tiliga yopishib olgan bo‘lar edingiz; ular, jamoat farovonligini o‘rnatish uchun, o‘z shohlarining merosxo‘rini haydab chiqarib, boshqarish uchun begonani sayladil-lar; ular axloqning eng katta buzuqligi bilan, har bir narsani shax-siy manfaatdorlik tarozisisida o‘lchab, endi ko‘pincha o‘zlariga sharaf olish uchun ular mustabid hukumat bilan kurashish va uni qonuniy yo‘l bilan yengish lozim, deb hisoblaydilar.

Fyodor Vasilyevichning tashna ruhi boshqacha aytganda, ham-ma asoslarni birdan yutib yubormoqchi bo‘lgan turli xil ilmlar orasida u matematikaga mukammal amal qildi. Uning aql-idrokiga o‘xshab, ushbu fanning aniqligi uning ongini quvontirdi. U meta-

¹ Nemis universitetlarida kollegiya deb, qaysidir fanni o‘qitishda tinglovchilar yig‘ini tushunilgan.

fizikaning hamma bo'limlarini ishtiyoq bilan egalladi, boshda bu fan qanchalar o'zidan itargan bo'lsa, uni qo'llash jamiyat uchun shuncha foydalidir! Fyodor Vasilyevichning ruhi bilan fikrlaydigan bo'lsak, bizning uyimizdan eng olis, bizning nazarimizda yagona tuyulgan dunyodagi eng katta jismlar bizning hissiyotlari mizdan buyuk va ulug'vordirlar, inson tomonidan kashf qilinganlari bizning nuqtayi nazarimizda kichik ko'rinsa-da, hisob-kitoblar yordamida ularning haqiqatda juda ulkan ekanini anglaymiz. Ovoz, yorug'lik, momaqaldiroq, chaqmoq, quyosh nurlarini o'z hukmronligi ostida bo'ysundirib, qulochga sig'mas tog'larni siljitib, koinotning chegaralarigacha yetib borgan, kelajakni anglagan va oldindan bilgan odam qanday qilib o'z qudrati bilan faxrlanmasligi mumkin! Bunday mulohazalar bir paytlar Arximedni so'zlashga undagan: agar yerdan tashqarida doimiy va qo'zg'almas tayanch bo'lishi mumkin bo'lsa, u yerni o'z atrofida aylantirgan bo'lar edi. «Menga mohiyat va harakatni bering, shunda men dunyoni yarataman», – deb aytdi Dekart. Bunday mulohazalar dunyo haqidagi barcha tizimlarni, u haqidagi barcha ishonuvchanlikni va barcha bema'niliklarni tashkil etdi.

Agar siz hayotingiz davomida turmush o'rtog'ingiz bilan urishmay, suhbat qurib yashasangiz, buni baxt deb hisoblash mumkin; agar biz yovuzlik bilan tanilgan odamni ko'rsak, qoniqish olishimiz mumkin, ammo ezgu fazilatli insonlar suhbatida bo'lsak, buni sharaflı baxt deb hisoblashimiz lozim. Biz bunday baxtdan uzoq vaqt bo'lmasa ham, Leypsigda, mashhur Gellertning og'zaki fanlari bo'yicha bergen saboqlarida bahramand bo'ldik. Siz, do'stim, Fyodor Vasilyevich hammamizning ichimizda Gellertning eng aziz talabasi bo'lganligini va o'z asarlari bilan sharaflı inson nomiga munosib topilganini yaxshi eslasangiz kerak. Nemis tilini kam bilishimiz bizni uning ko'rsatmalaridan amalda foydalanishdan mahrum qildi; chunki biz uning ta'limotlari tinglovchisi bo'lgan bo'lsak-da, nemis tilini bilmaslik bizga Fyodor Vasilyevich bilan tenglashishga xalaqit berdi.

Inson ongiga oid turli xil fanlar o'rtasida soatlab aylanib turar ekan, to'g'risini aytganda Fyodor Vasilyevich ongni o'rganishda qiynalishi mumkin emas edi, u doimo begonalar fikrini tadqiq qilish.

lishda mashq qilardi. Ammo bu oddiy aql bilan nafis aql o'rtasida farq mavjud. Ba'zilar o'zlariga yetib kelgan hamma narsani qabul qilishadi va begonalar asarları ustida mehnat qilishadi, boshqalari esa o'zlarining tabiiy kuchlarini o'zlarining bilimlari bilan mustah-kamlab, tekis yo'ldan voz kechib, notekis va notanish yo'lga qadam qo'yadilar. Faoliyat ularning yetakchi farqi hisoblanadi va ularda hamisha tinim bilmas insonga molik xususiyatlar aniq namoyon bo'ladi. Hamma nafis narsalarni va har qanday xunuk narsalarni yaratgan notinchlik, o'zaro imkonsiz va tushunarsiz bo'lgan chegaralargacha ta'sir qilib, ozodlik va qullikni, quvonch va azobni qayta tikladi, do'stlikni ham, sevgini ham ayamadi, qayg'u va o'limga sovuqqonlik bilan bardosh berib, falokatlarni zabit etdi.

Fyodor Vasilyevich narsalar haqida fikr qilishda mashq qilib, ongida yangi tug'ilgan fikrlarni ko'rdi, ilm olishning u egallagan yo'lida ajoyib yangiliklarni egalladi va buning uchun u harakatsiz qola olmadi. Tez orada unga fikrlari bog'lanishini tasvirlashda kuchini sinash uchun imkoniyat berildi. Har yili biz uchun imtihon yoki o'qishdagi yutuqlarimiz haqida sinov o'tkazildi. Bunday sinovlarning barchasi qanchalar kulgili va bunda ko'zda tutilgan maqsadlar erishib bo'lmaydigan edi, buni ko'rghanlar to'g'ridan to'g'ri tan olishardi. Ko'pincha, eng ko'p biladigan kishi, garchi u eng g'ayratli va muvaffaqiyat bilan ishlasa ham, johil va danga-sa deb hisoblanadi. Ammo imtihonlar shunisi bilan foydali ediki, ular manmanlikni uyg'otardi va tinglovchini sheriklaridan ajrab turishga undardi; ammo bu holatlarda uyg'otilgan manmanlik besamar ketmasligi uchun bunday sinovlar tez-tez o'tkazilib turishi kerak, toki oddiy qalblarda paydo bo'lgan ishtiyoq so'nib qolmasin. Yaratganning barmog'i bilan abadiy yashamoqqa belgilanganlar uchun shuhratparastlikning boshqa vasvasachilariga hojat yo'q. Ularning o'zlarida shon-sharafga erishish uchun yetarlicha turtki bor va garchi ular fidoyi bo'lmasalar ham, yaxshi manbadan doimo aql bilan foydalana oladilar.

Uch yil davomida, biz uchun sinov davri kelganida biz biror-bir materiya bo'yicha fikrlarning aloqasini yozma ravishda taqdim etib, o'rgangan bilim va muvaffaqiyatimizni namoyish etishga majbur

edik. Fyodor Vasilyevich buning uchun insonning fuqarolik munosabatlariga tegishli bo‘lgan eng muhim mavzularni tanladi.

O‘zining xotirjamligi uchun qonunlar soyasidagi jamiyatda yashaydigan odam, uni yo‘q qilish uchun paydo bo‘lgan qo‘llab-quvvatlovchi umumiy kuchni lahzada ilg‘ab oladi. Shu kungacha unga do‘sit bo‘lib kelgan odamlar, sevimli vatandoshlari uning dushmaniga aylanadilar, uni ta’qib qiladilar va kuchlilarning qo‘li kuchsizlarni bostiradi, kishan va zindonda qiyashadi, uni haqorat va o‘lim qo‘liga tutqazishadi. Bunday vahshiylikni nima oqlashi mumkin? Fyodor Vasilyevich o‘z bayonida quyidagi vazifalar aniqlashni nazarda tutdi:

1. Jazolash huquqi nimaga asoslangan?
2. U kimga tegishli?
3. O‘lim jazosi davlat uchun zarur va foydalimi?

Ushbularni yozishda ko‘zda tutilgan maqsadi uning tarqalishiga izn bermadi, ammo, afsuski, jazoni ijro etishning badbaxt huquqini oqlash uchun nima deyish mumkin bo‘lsa va uni ishonchli tarzda odilona ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamma narsa – bular haqida Fyodor Vasilyevich aytmadi. Uning fikrlari aloqasi quyidagicha.

Inson, o‘z kamchiliklarini yagona pozitsiyada qondirish uchun o‘zini zaif his qilayotganini ko‘rsatib, o‘zining nozik tabiatiga rioya qilgan holda, o‘z xavfsizligi uchun jamiyatga kiradi. Shunday qilib, jamiyat doimo yaxshi natijaga yo‘naltirilishi uchun, uni keltirib chiqaradigan va jamiyatga yetkazilishi mumkin bo‘lgan yovuzlikning oldini olishga qodir bo‘lgan hukumat – aniqlashtiruvchi va ko‘zda tutuvchi vosita sifatida qo‘yiladi. Ushbu hukumatga ega bo‘lgan odam sobor qaroriga binoan yolg‘iz hukmdor deb nomlanadi. Binobarin, jamiyat farovonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishga majbur bo‘lgan kishi unga zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘ymaslikka va unga qarshilik qilishga haqlidir; binobarin, hukumatni o‘z manfaati uchun qo‘yadigan kishi, amallari yaxshi maqsaddan mosuvo bo‘lganida, uning jazosiga bo‘ysunishga rozi bo‘ladi. Jazolarni belgilashda boshqa bir maqsad, masalan, jinoyatchini tuzatish yoki keljakdagi jinoyatdan saqlanish uchun biron-bir harakatni amalga oshirish mumkin emasligini ko‘rsatib, Fyodor Vasilyevich jamiyatda o‘lim jazosi nafaqat keraksiz, balki foydasiz ham ekanligini dalillar bilan

asoslab beradi. Bular, bugun deyarli umumiy qabul qilingan qoida bo‘lib, u Rossiya misolida tasdiqlanadi. Men Fyodor Vasilyevichga uning fikrlarini muhokama qilishda ergashmoqchi emasman. Ularni bu yerda tasvirlash orqali men uning dalillarining kuchini olib tashlashim yoki shunchaki keraksiz ravishda tarqatishim mumkin. Fikrlarning ravshanligi, uslubning qisqaligi va dalillarning qat’iyatliligi bilan hammani muallifning yigirma uchinchi yoshida bevaqt o‘limi uchun qayg‘urishga majbur qiladigan asarini o‘qib, ikkalasini ham taxmin qilish mumkin.

Fyodor Vasilyevichning qog‘ozlarida sevgi haqidagi kichik maqola va Gelvetsiyning «Aql to‘g‘risida»gi kitobi haqidagi maktublardan bo‘lak hech narsa topilmadi. Ko‘p kitoblardan olingan parchalar, garchi aloqasiz bo‘lsa ham, u o‘qishni diqqat bilan tartibga solganligini isbotlaydi. Bu bilan jamiyat nimani yutqazganini kim aniqlay olishi mumkin? Men do‘stimni yo‘qotganimni aytishim mumkin; agar taqdir o‘shanda mening baxtimga havas qilgan bo‘lsa, u menga juda katta mukofot berdi, ya’ni menga, do‘stim, sizni berdi.

Fyodor Vasilyevich hayotining so‘nggi davrida kasallik azoblarri va u keltirib chiqargan qayg‘u ichra ham ta’limotlarini unutmadi va faqat madordan qolish uni ilmda mashq qilishdan chalg‘itdi. Nihoyat, u o‘z kuchining mutlaq zaiflashganini his qilgan vaqt keldi. O‘limidan bir hafta oldin u biz bilan sayr qilish uchun bordi va hanuzgacha uni sevadiganlarning suhabatidan bahra oldi, ammo madorining tobora qurib borishi uni to‘sakka yotishga majbur qildi. Umid, odamdagagi tasalli beradigan bu tuyg‘u uni tark etmadi; ammo o‘limidan uch kun oldin u o‘zining ichki qismida tanasini so‘nggi halokatga olib kelayotgan beqiyos xastalikni his qildi. U g‘aflatda qolishni istamadi, hamma narsada san’atidan mohirona foydalangan shifokorini chaqirib, unga haqiqatni aytishni, agar tabiatning o‘zi bunga chegara qo‘yib qo‘ygan bo‘lsa, davolanib, holatining yengilashishiga behuda umid berib, ko‘nglini ko‘tarmaslikni astoydil iltimos qilib so‘radi.

— Siz o‘ylamang, — dedi o‘layotganini anglagan holda xasta ovozda, ammo jasorat bilan, — siz o‘ylamang, menga o‘lim haqida xabar berib, meni muddatidan oldin og‘ir ahvolga solaman, deb.

Hammamiz ham o'lishimiz kerak; bir kun oldin yoki bir kun o'tgach, abadiyat bilan masofa qancha belgilangan bo'lsa!»

Insonparvar shifokor uzoq vaqt davomida azob chekayotgan odamda umidni ko'rib va bu odamni so'nggi nafasigacha tark etmasligini bilgan holda, unga dahshatli sirni ochib bersamikan yoki yo'qmi, deya ikkilanib, o'ylanib turdi. Ammo bemorda uning kasalligi to'g'risida haqiqatni bilishga bo'lgan o'jar istagini ko'rgan va uning o'zgarmasligini anglagach, u unga qarshilik ko'rsatish kuchi bir kundan ortiq bo'lmasligi muddatda kasallikning shafqatsizligiga qarshi tura olishini, ertaga u bu hayotda mayjud bo'lmasligini aytdi.

O'lishi kerakligi haqida xabar berilgan odam, unga qarab yurib ketayotgan ajalning yuziga nafrat bilan va titramasdan boqishi to'g'risida juda ko'plab hikoyalardan misol keltirishimiz mumkin va bu shunday bo'ladi ham. O'z hayotlarini jasorat bilan olib ketayotgan ko'plab odamlarni ko'rdik va ko'ryapmiz. Darhaqiqat, halokatimizga tik ko'z bilan qarashimiz uchun bizga ruhiy kuchning mustahkamligi va qo'rmas bo'lishi kerak. Ammo kasal bo'lmay o'layotgan odamdagи kuchli umid tuyg'usi o'limidan oldin u bilan yashaydi va umrining so'nggi lahzasiga qadar ruhga kuch berib turadi. Ko'pincha bunday odam o'zini qabrdan tashqarida ko'radi va qayta tug'ilishga umid qiladi. Agar insonda tana kuchlarining qurib borayotgani kabi, ruhiy kuchlari ham holdan toysa, o'lim qo'rquviga qarshi ruhni tetiklashtirish qanchalar mushkul bo'lib, undan ham yomoni, qabr ichiga tushib atrofda hech narsani ko'rmay qo'yadi. Qatl qilish joyida o'layotgan yoki o'z hayotini zo'rlik bilan olib ketayotgan odamni uzoq davom etgan kasallik tufayli to'shakda yotgan odamning o'limi bilan taqqoslang va aytинг-chi, kim jasoratliroq va ruhini tetiklik bilan qo'yib yuboradi?

Uning hukmini shifokorning og'zidan eshitgan Fyodor Vasilyevich salgina ham xavotirga tushmadi, lekin uning qo'lini ushlab, dedi:

– Sizning javobingiz ikkiyuzlamachilik emas, men buni sizning do'stligingizning haqiqiy belgisi deb bilaman. Oxirgi marta kechiring va meni tark eting.

Yaqinda o'lishiga amin bo'lgan Fyodor Vasilyevich, biz bilan so'nggi suhabatni o'tkazishi uchun hammamizning yoniga kelishimizni buyurdi.

– Do'stlarim, – dedi u karavotining yonida turgan bizlarga, – vaqt-soati keldi, endi siz bilan ayrimiz: kechiring, abadiy kechiring.

U yig'layotganlarni o'pdi va ularning qayg'usini oshirishni istamay, barchani tashqariga chiqarib yubordi.

Biz *Fyodor Vasilyevichdan ayrilganimizdan beri o'n sakkiz yil o'tdi* (191), lekin do'stim, uni qancha tez eslasam, uning biz bilan so'nggi uchrashuvi mening tasavvurimda shunchalik jonli ifodaladiki, men hozir ham o'zimni o'sha paytdagi kabi his qilaman. O'sha paytda mening yuragim qayg'u bilan shu qadar yaralangan ediki, natijada na quvonch va umidning yo'qolishi, na mening sevimli rafiqamni yo'qotishning ulkan g'ami avvalgi qayg'u tuyg'usini yo'q qilolmadi.

Biroz vaqt o'tgach, u meni yoniga chaqirdi va barcha qog'ozlarini menga uzatdi.

– Ulardan foydalaning, – dedi u menga, – qanday xohlasangiz, shunday foydalaning. Endi esa oxirgi marta kechiring; men sizni yaxshi ko'rganimni yodda tuting, baxtli bo'lish uchun hayotda qoidalarga ega bo'lishingiz kerakligini va qo'rmasdan o'lish uchun o'z fikrlaringizda qat'iy bo'lishingiz lozimligini unutmang.

Ko'z yoshlarim va faryodim uning so'zlariga javoban toshib chiqdi, lekin bu so'zlar qalbimda baland ovozda yangradi va xotiramda o'chmas iz bilan qoldi. Ular ko'kragimdag'i nafas yo'qolguncha va tomirlarimda qon sovib ketguncha, men bilan to'liq yashaydilar. Iz ber, Xudo, qabr ostonasida bu fikr menga nasib etsin va yoshligimning o'layotgan rahnamosi aytgan so'nggi vasiyatini men ham o'lim oldidan uni o'g'limga meros sifatida qoldira bilay, ularga sevimli do'stimni, yuragimning do'sti, seni tirik rahnamo sifatida qoldiray.

Bundan keyin nima sodir bo'lganini, aziz do'stim, boshqalardan ko'ra yaxshiroq bilasiz. So'nggi soatlarda siz undan ajralmadingiz, siz jazo tushunchasining yakuniy ma'nosiga guvoh bo'lningiz. Bu bilan men *qonunbzarga boshliq tomonidan qilingan yomonlikni* nazarda tutayapman. Bunday tushuntirishni berib, menimcha, jazo huquqi nimaga asoslanganligini aniqlash uchun, odamning jamiyatga aloqador bo'lman holda tabiatan qanday yaratilganini ko'rib chiqishim lozim. Men narsaning mohiyati va ushbu ishning maqsadi haqida iloji boricha qisqacha izlamoqchiman.

Agar biz insonning dastlabki holatini, tenglik va mustaqillik dajaranini tasavvur qilsak, unda biz uni ta'riflarimizning o'ziga hukmron hakami sifatida ko'ramiz. Agar uning mohiyatini ko'rib chiqsak, uni tushunchalar bo'yicha iqtidorini (ya'ni fikrlar tuzish va ularni taqqoslash qobiliyati) va unda jismoniy yoki tanadagi sezgirlikni ko'ramiz. Tushunchalar uni saodatga yaqinlashtiradi, ya'ni uning ta'minlanganligi va istagi o'rtaqidagi mutanosiblikni aniqlash imkoniyatini beradi; tana sezgirligi uning ehtiyojlari to'g'risida xabar qiladi va ularni qondirishning eng qulay usullarini ko'rsatadi. O'zini yoki o'z farovonligini sevish insondag'i barcha faoliyatning asosidir. Tabiat tomonidan ato etilgan bu tuyg'u umuminsoniy bo'lib, buning uchun dalillarni talab qilmaydi, ammo shunday bo'ladiki, ba'zida eng sodda va aniq haqiqatlarga ham shubha tug'iladi. Buning uchun men tushunchamizning mohiyatiga asoslanib ushbu dalilni keltiraman.

Iqtidorli mavjudot har qanday tushunchada o'zining mavjudligi to'g'risidagi hissiyotga ega bo'ladi, chunki kim his qilsa, u hissiz bo'lishi mumkin emas. Binobarin, u o'z mavjudlik holatini boshqa mavjudlik holatidan afzal ko'rishi mumkin, ya'ni birini boshqasidan baxtliroq hisoblash; ammo bir holatni boshqasidan afzal ko'rish, o'z xohish-irodasini belgilash va eng baxtli deb hisoblaydigan mavjudlik holatini tanlash bilan barobardir – bularning ikkisi ham bir narsani anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, insonning barcha huquqlari va vazifalari ibtidodan kelib chiqadi va ularning barchasi istisnosiz mohiyatga bo'ysunadi. Bu yerda, yovuzlikning oldini olish yoki zararni qoplash yoki o'ziga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan yovuzlikni ogohlantirish yoki raqibining yomon niyatiga bo'lgan ishonch o'zini himoya qilish huquqini keltirib chiqaradi. Maqsadga erishish huquqiga ega bo'lgan kishi, ruxsat etilgan usullarga nisbatan muqarrar huquqqa ega; shunday qilib, o'zingizning xavfsizligingizni saqlashga harakat qilish farovonlikda yashash uchun zarur vosita bo'lib, bu insonning ajralmas huquqidir. Hozirgacha jazo tushunchasi yo'q bo'ldi, chunki u xo'jayinni nazarda tutadi, tabiiy erkinlik tushunchasini yo'q qiladi va shuningdek, tenglikni ham. Ammo tasavvurda juda chiroyli bo'lib gavdalangan ushbu mustaqillik va tenglik holati inson nomukammalligi tufayli davom eta olmadi. Bolalikning zaifligi,

keksalikning kuchsizligi, insonning tabiatan avtokratiyaga moyilligi, qo‘rvuvning doimiy hamrohligi, eng qudratilarning zo‘ravonligiga duchor bo‘lmasligi mumkin, bir so‘z bilan aytganda, tabiiy sharoitda har kimning xavfsizligi zarar yetkazuvchi to‘sqliar o‘z qarshiligi bilan har kimning shu holatda bo‘lish uchun ishlatadigan kuchidan oshib ketdi, odamlar o‘z hayotlarining tashqi holatini o‘zgartirishga majbur bo‘ldilar. Ammo ular yangi kuchlarni yarata olmaganliklari, faqat juftlashish va birlashishlari imkoniga ega bo‘lganlari tufayli, har kim hukmdorning oliy hukumatiga bo‘ysunadigan va har kim o‘z kuchlari bilan cheklangan tabiiy erkinligini fuqarolik erkinligiga almashtiradigan va qonunlar asosida yashaydigan jamiyatni qurish kerak edi. Keling, insonni ushbu yangi holatini ko‘rib chiqamiz va avvalo davlatlarning mohiyatini tushuntirishdan boshlaymiz.

Xalq – bu o‘z manfaatlari va xavfsizligini ta’minlash uchun uyushgan kuchlar tomonidan birlashtirilgan, undagi hukumatga bo‘ysunadigan odamlar jamiyatidir; ammo hamma odamlar tabiatan erkin va hech kim ulardan bu erkinlikni tortib olishga haqli emas, binobarin, jamiyatlarni barpo etish har doim haqiqiy yoki so‘zsiz rozilikni nazarda tutadi. Ayrimlar bunga shubha bilan qaraydilar, xalqn ni alohida odamlarning to‘planganligi deb hisoblashadi. Ammo u umumiy tushuncha va istak iqtidoriga ega bo‘lgan va buning uchun huquq va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan axloqiy shaxsni anglatadi.

Bunday qurilgan jamiyat shunday vosita haqida o‘ylashi lozim ediki, toki bu vosita jamiyatning barcha a’zolari o‘zlarining hamma harakatlarini umumiylar manfaatlarga mutanosib tarzda yo‘-naltirishlarini talab qilsin; shu sababli, odamlar o‘zlarining yashash tarzlarini o‘zgartirib, o‘z tabiatini o‘zgartirmaydilar va ularni jamiyatni tashkil etishga majbur qilgan yovuzliklar yo‘q qilinmaydi, tartibsizlik saqlanib qoladi va davlatning parokandalikka yuz tutishi muqarrar tus oladi. Ammo qayg‘u va yovuzlikka bo‘lgan nafrat hamda shodlik jozibadorligining umumiyligi bir xil darajada ekan, bundan kelib chiqadiki, xususiy istakni umumiylar istakka bo‘ysundirish va fuqarolarni faqat qonun chiqaruvchining niyatlariga monand faoliyatga majbur qilishning eng samarali vositasi mukofotlash va ja-zolash institutidir. Men bundan oldin jamiyat alohida odamlarning

haqiqiy yoki so'zsiz roziligi bo'la olmasligini isbotladim. Jazolashni o'rnatish, tartibni saqlash va har kimning umummanfaatga mutanosib bo'lgan faoliyatini boshqarish uchun zarur bo'lgan vosita bo'lGANI uchun, jazolash huquqlarining boshlanishi ularning roziliga asoslanishi aniq, chunki kim maqsad qilishni istasa, u vositalarni ham istaydi.

Kimdir e'tiroz bildirishi mumkin: saodatga erishish maqsadi yo'lidagi istagini aniqlashtira turib, odam o'z farovonligi uchun nojo'ya narsa haqida kelisha oladimi?

Men javob beraman:

1) Jamiyatga kirib, hech kim o'zini qonun buzuvchisi va shu tariqa ijtimoiy yomon odam bo'ladi deb hisoblamaydi; ammo har bir kishi, qonunlarga muvofiq tarzda yashash majburiyatini olib, ularning hech biri bundan istisno qilinmaydi va bu hech kim uchun nojo'ya harakat hisoblanmaydi;

2) Har bir inson nafaqat o'z huquqlarining bir nechtasini, balki hayotining o'zini saqlab qolish uchun tug'iladigan xavfni bartaraf qilish uchun hukmdordir. Insonning bunday xatti-harakatlarida tanlov o'z manfaatlari yo'lidagi maqsadiga intiladi, u haqiqiy va hozirgi yovuzlikni kelajakdagi yovuzlikka almashtiradi, undan esa osonlikcha qochishi mumkin. Ushbu mulohazalar shunday xulosaga olib keladi: odam qonunni buzganligi uchun xo'jayini tomonidan unga qilingan yomonliklarga dosh berish majburiyatiga ega bo'la turib, hech narsaga toqat qilmaydi, lekin bundan ko'proq g'alaba qozonadi: binobarin, bu harakat faqat uning xavfsizligi uchun yo'naltirilgan bo'lib, qonuni va qat'iydir.

Jazo huquqining asosini qo'yib, men ikkinchi savolimning yechimiga kirishishim mumkin, ya'ni jazolash huquqi kimga tegishli ekanligi haqida. Va agar bu vazifa faqat birinchisining oqibati bo'ladi bo'lsa, unda men uzoqqa bormasdan, buni oddiygina dalillarda bayon qilsam yetarli bo'ladi.

Har bir hukumatning tarkibi barcha yagona iroda va kuchlarni jamoat manfaatiga yo'naltirish uchun qo'liga oliv hukumat boshqaruvi berilgan bo'linmas va yig'ilish qarori bilan tayinlangan hukmdor yoki rahbar bo'lishini talab qiladi. Xalqlarning xavfsizligi va yaxshi tartibni saqlash u qayg'urishi lozim bo'lgan, jazo va mukofotlash

muassasalari yordamisiz amalga oshirib bo‘lmaydigan birlamchi predmetlar hisoblanadi, o‘z-o‘zidan ravshanki, jazo huquqi faqat bitta hukmdorga tegishli, bu huquqni u quyi hokimiyatga ishonib topshirishi mumkin. Ammo ular faqat hukmdorning oliv irodasining ijrochilari bo‘lib, qonunlar bilan belgilanadi va muhokamaga tobe emas.

Endi oxirgi vazifaga o‘taman. Savol beriladi: o‘lim jazosi jamiyatda foydali va zarurmi? Buni hal qilish uchun umuman jazoning maqsadini ko‘rib chiqish kerak.

Jazolarni belgilashda qonun chiqaruvchining maqsadi – fuqarolarning xavfsizligi, ularning mulklariga qonuniy egalik qilish huquqini o‘rnatish, odamlarning bepul olib ketolmaydigan narsalarini egallashga tabiiy moyilligini jilovlash va niroyat o‘z vazifalarini ijro etishdan bosh tortganlarni uning ijrosiga olib kelish. Bu yerdan yovuzliklarga toqat qilib kelayotganlarning jarohatlaridan barcha xabardor bo‘lganlarda noqonuniy va yovuz ishlarga nisbatan nafrat uyg‘otishni mo‘ljallaydigan ibratli jazo qo‘llash kelib chiqadi. Ayrimlar esa tuzatishni rad etishadi, bu jinoyatchini qiynoqqa solishdan boshqa vosita yo‘q, degani; ruhiyati bilan haqiqiy tavba qilish va yovuz ishlarga nisbatan nafrat uyg‘otish vositasi. Ayrimlar yomonlikka qarshi yomonlik qilishdan iborat bo‘lgan jazo haqida o‘ylashadi. Men ularning haq ekanligiga shubha qilaman, ammo ular, albatta, ular xato qilayotganliklarini isbotlayman.

Keling, davlatni axloqli shaxs sifatida, fuqarolarini esa uning tana a‘zolari sifatida tasavvur qilaylik. Odam o‘z oyog‘ini ezib, yomonlik uchun yomonlikni qaytarishni va biri uchun boshqa a‘zosini sindirishni xohlaydi deb o‘ylash mumkinmi? Davlatning holati ham shunga o‘xshashdir. Davlatning barcha harakatlari uning farovonligi uchun harakat qilishga qaratilishi kerak: yovuzlik uchun yomonlikni mukofotlash ham xuddi shunday, o‘ziga qaytarib bo‘lmaydigan yomonlik qilish bilan barobardir. O‘ziga yomonlik tilash jamiyat mohiyatiga ziddir va bunday harakat aqlsizlikni namoyon qiladi, ammo aqldan ozish huquqni tashkil etmaydi. Binobarin, bunday harakat qonuniy ham, foydali ham emas, shuning uchun ham mumkin emas; qasos olishni o‘ylaganlar haqiqiy ozodlik tizimining izdoshlariga o‘xshaydilar, ular «istak, bu istakdir», «xohlaganim

uchun xohlayman» deb ta'kidlagan holda, aniq sababsiz chora qabul qiladilar.

Tuzatishni rad etganlar, uni hukm qilish va jinoyatchi o'ziga keladigan vaqt ni belgilashning iloji yo'qligiga assoslanadilar. Ularning fikriga ko'ra, hukm faqat tashqi harakatlarni qamrab oladi; hech kim niyat uchun hukm qilmaydi va qonun chiqaruvchi tuzatilganlikni qayd etolmaydi.

Ushbu xulosaga anqlik bilan javob berish uchun avvalo odam o'zini to'g'rilay oladimi yoki yo'qligini aniqlash kerakmi? Buning uchun keling, buni o'zimizda ko'rib chiqaylik va tabiatdan so'raylik. Inson yaxshi ham, yomon ham tug'ilmaydi. Ikkalasining qarama-qarshi tomonlarini ta'kidlab, ularning yo'qligi dalillar bilan isbotlangan, mavjud bo'limgan tug'ma tushunchalarini tasdiqlash kerak. Binobarin, vahshiyliklar inson uchun tabiiy emas; binobarin, odamlar o'zлari yashayotgan sharoitlarga bog'liqdirlar va bizning tajriba-larimiz shuni ko'rsatadiki, ko'p odamlar g'alati sarguzashtlarning baxtsiz munosabatlariga itoat etishgan. Agar biror kishi tasodifan jinoyatchi bo'lib qolsa, unda hamma isloh qilishi mumkin. Agar u atrofdagi narsalarga bo'ysunsa va tashqi sabablarning aloqasi uni adashtirsa, unda ravshanki, sababni ajratib olib, boshqalar amallarga ergashishadi. Bundan tashqari, tuzatish mumkin emasligini isbotlash uchun jinoyatchida qonunlar bilan taqiqlangan harakatni amalga oshirishda talab qilinadigan yovuzlikning kuchini aniqlash kerak bo'ladi. Va bu qanday bo'lishi mumkin? Harakat yaratuvchisi ba'zan unga ta'sir ko'rsatgan sababni bilmaydi, ya'ni uni harakatga undagan holatlarning aloqasini aniq ko'rmaydi. Agar tuzatishga aniq chegara qo'yish imkonsiz bo'lsa, aksincha, odam o'zini o'zi tuzatishi mumkinligi va odamlar faqat miqdor jihatidan farq qilishi aniq bo'lsa, unda katta ehtimollikka moyil bo'lish adolatsizlik bo'ladimi? Harakatdan sababga o'tib, buni ko'rib chiqmoqchiman.

Bir necha darajaga ishtiyooqqa ega bo'lgan va ezgulikka umuman befarq bo'lgan odamni tasavvur qiling: ezgulik, deb men jamoat foydasiga foydali harakatlar majmuyini atayman. Bunday odam, xудди tashlangan tosh yerga tushganidek, yovuzlikka tushishi aniq. Bu odamni tuzatish mumkinmi yoki yo'qligini hal qilish kerak. Odam-dagi yovuz ish o'yin-kulgiga moyillikdan va tekin narsa haqidagi ah-

moqona umiddan tug‘iladi, bunday holat bilan kasallanishdan saqlanish kerak. Jinoyati fosh bo‘lgan yovuz odam erkinligini yo‘qotishga mahkum etiladi. Qaytarib bo‘lmaydigan yo‘qotish, eng yaxshi narsaning, hammadan ham insonga eng muqaddas bo‘lgan narsaning yo‘qotilishi. Chuqur zindonga haydalgan va yuragi ziq bo‘lgan vaqt-larda butun qalbini qayg‘u qamrab oladi; buning ortidan o‘zining nouddaburonligi tufayli g‘azab yuzaga keladi. G‘azablangan vaqtda esa aybni tan olish qiyin, lekin yomonlik qilishning zaifligi, agar ay-tish mumkin bo‘lsa, mohiyatni uning istagiga aylantiradi, bu istakni qondirishning iloji yo‘qligi uni yo‘q qilish bilan barobar. O‘scha darajagacha yetib borib, u o‘zini ko‘rib chiqadi; agar odamning ongini ehtiros ko‘r qilmasa, ma’lum bo‘lgan holatlar haqidagi mulohazasi har doim to‘g‘ri bo‘ladi. Bu yerda uning barcha ehtiroslari yo ha-qiqiy azob-uqubatlar bilan, yoki hech qanday ko‘ngilxushliklarning yo‘qligi xayollari bilan susaygan. U o‘zining qilmishini tan oladi. Va u uni tan olmasligi mumkinmi? Agar eng kuchli odam ikkilanib tursa, agar Katon, agar Brut, bu qat‘iy stoiklar¹ harakat qila olsalar va niyatlarini o‘zgartira olsalar, unda o‘limga mahkum odam qanday o‘zgarmasligi mumkin? Bundan tashqari, biz tabiiy odamni harakatsizlikka yoki ijtimoiy mulohazalarga bo‘ysunishga ko‘ndirib, tadqiqot mashaqqatidan xalos bo‘lish uchun boshqa odamlarning fikrlariga ergashamiz. Jinoyatchi Tako behuda o‘zini nomus va shar-mandalik bilan qoplagan, hammaning nafratiga duchor bo‘lib, hammaning ichida bir o‘zi o‘ziga sodiq qolib, bebaxtga yagona tasalli bo‘lgan tavba murojaat qiladi, zero tavba ular o‘ylaganlardan ham ko‘ra qudratliroqdir.

— Ammo jinoyatchi, — deyishadi menga, — yovuz ishlar bilan qotib qolishi mumkin, hatto u boshdan kechirayotgan bu kasallikka befarq ham bo‘lishi mumkin. Bu tushunarsiz; ammo muqarrar bo‘lgan tavba, har doim tavba qilishga olib keladigan harakatlardan nafratlanishga olib keladi, tanadagi kasallik esa ularni dahshatli tusga soladi. Uzoq vaqtdan keyin o‘tmishdagি ishlariga dahshat bilan qarashga odatlanib qolgan baxtsiz odam, yovuzlikdan yuz o‘giradi va har doim, muntazam ravishda takrorlanib turadigan bu taassu-

¹ Stoiklar — stoitsizm (materializm va idealizm o‘rtasidagi ratsionalistik falsafiy ta’limot) tarafдорлари (*tarj.*).

rot unga shunchalik tanish bo'lib qoladiki, u yovuzlik haqidagi fikrning o'zidan titroqqa tusha boshlaydi. Agar hamma odamlar bir xil sikrlarni bir xil narsalar bilan birlashtirish va bir vaqtning o'zida bir-biridan ajralmagan g'oyalar kabi tasavvur qilish xususiyatiga ega bo'lsalar, shunda biri ikkinchisiz harakatga kela olmaydi; agar Gelvetsiy o'ylaganidek, boshqa odat tabiat bo'lsa, agar u birinchi bo'lmasa va agar qayg'u hissi anglangan xayoliy tasavvur hissiyotidan kuchliroq taassurot qoldirsa, u holda men tasdiqlashim mumkinki, insonda qusur darajasi o'n yil ichida mana shunday darajadagi fazilat bilan o'zgaradi. O'lim jazosi kuchga kirishi uchun jinoyatlar har soatda sodir bo'lishi kerak; negaki, har bir ibratlari jazo uchun yana sodir etilgan jinoyat nazarda tutiladi; buni tilash istash bilan bir xil, sotib olingan buyum bo'la turib, boshqa buyumni bir vaqtning o'zida xohlash mantiqsizlikdir.

Ammo kimdir aytadiki, agar o'lim keltiradigan tanadagi kasalliklar odamga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, unda nozik ja zolarga murojaat qilish kerakmi? Men ular juda sezilarli va kuchli ta'sir qilishini tan olaman; ammo shunda ham ma'lumki, ular faqat vaqtincha foyda keltiradi va bu esa ularning behuda ekanligini isbotlaydi. Kaligula, Neron, Diokletianlar¹ qatl etilishida qanday vahshiylik, qanday dahshatli ixtiro bor! Aksincha, respublika davrida fuqarolarning hayotini saqlab qolish bo'yicha nazorat, o'sha davrlardagi axloqdagi farq har doim xalq hokimiyatining olqishlanganiga ishora qiladi. Bular, jinoyatchini to'xtatib qoladigan yoki jinoyatning oldini oladigan vosita qatl etishning shafqatsizligi emas, balki oqilona qonunlar tizimi va umumiy manfaatni shaxsiy manfaat bilan imkoniyat darajasida uyg'unlashtirilishi ekanligini isbotlaydi. Jazolarning shafqatsizligi har doim xalqning zarar ko'rishini ko'rsatadi va ja zodan qochishni keltirib chiqaradi, umid esa undan yashirinishning ta'sirini pasaytiradi va yovuz, ammo haqiqiy o'yin-kulgini qurban qilishni taqiqlaydi. Odatlarning inson ustidan hukmronligi hamma uchun umumiy bo'lib, o'yin-kulgi davomiyligi bilan qanday yo'qolib borsa, mag'lubiyat ham muntazam takrorlanish bilan o'z kuchini yo'qotadi. Tanlangan jazo o'z ta'sirini yo'qotadi va nihoyat besamar bo'lib qoladi; jinoyat uchun jazoni qanday mutanosib qilish

¹ Kaligula, Neron, Diokletian – o'limga hukm qilingan Rim imperatorlari (*tarj.*).

mumkin? Jismoniy va axloqiy dunyoda har bir narsaning chegarasi bor, inson mohiyatining ham yomonlik va yaxshilikda o‘z chegarasi bor; aniqki, jazo turini izlashda taxmin qilib, qaysidadir to‘xtash lozim bo‘ladi. Bu yerda jinoyat bilan nomutanosib jazo qo‘llaniladi; bu adolatli bo‘lmaydi, chunki u oqilona emas.

Shubhasiz, o‘lim jazosi hech qachon unutilmas taassurot qoldirmaydi va jonlarga qattiq, lahzalik azob berish bilan yaroqsiz bo‘ladi; qatl qilishning shafqatsizligi o‘zining foydasizligi oqibati o‘laroq, zararliga aylanadi, men o‘lim jazosi davlatda na foydali, na zarur bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelishim mumkin.

Ushbu dastlabki qoidani qo‘yib, davlatlarning tuzilishi va jinoiy ishlarning marosimiga diqqat bilan e’tibor qaratib, men o‘lim jazosining ikkita xavfli oqibatlarini ko‘rsataman. Har qanday hukumatning qiyofasi mulklarning tengsizligini keltirib chiqaradi. Monarxiyada u mavjud, aristokratlar tuzumi ham buni rad eta olmaydi, demokratiyada hech bo‘limganda mulklar tengligi bo‘lishi kerak, ammo aniqlik bilan xulosa qilganda, haqiqiy demokratiya bo‘lishi mumkin emas va bu hukumat faqat juda kichik, kambag‘al davlatlarga yarashib, janob Russoning fikricha, isyonga moyilligi bilan odamlarni baxtli qila olmaydi.

Barcha asrlar tajribasi va hozirgi davlatlarning holati mulklarning tengligi imkonsizligini isbotlaydi. Va bularning tengsizligi, bir tomonidan, qashshoqlikni, ikkinchidan, hashamatni keltirib chiqaradi; shu bois men yigirma million aholi ichida qashshoqlikda mag‘lub bo‘lgan kamida ikki yuz kishi bo‘ladi degan fikrni ayta olaman: ular kundalik ovqatlarini zo‘rg‘a topishadi, hayot ular uchun og‘ir kechadi. Ular bundan qutulishni istaydilar; qonun ularga muruvvat olib keladi, ular bunga jinoyat bilan erishadilar: hozirda ikki yuz nafar jinoyatchilar bor, ularning jazosi va bir necha yillikkina zavqi tayin qilingan.

Ikkinci oqibat birinchisiga qaraganda dahshatli bo‘lib, jinoyat ishlari bo‘yicha marosimdan kelib chiqadi. Odamlar hayotlarining eng muhim harakatlarini axloqiy aniqlik bilan belgilaydilar; binobarin, jinoyatni tasdiqlovchi alomatlar bunga asoslanishi kerak: ammo «Jinoyatlar va jazolar to‘g‘risida»gi kitob muallifining (192) fikricha, axloqiy aniqlik eng katta ehtimollikdan boshqa narsa emas;

hech qanday ehtimollik bo‘lmasa, qarama-qarshilik ham bo‘lishi mumkin emas, shundan men xulosa qilamanki, jinoyatga jazo belgilashda barcha ehtiyyotkorlik choralar bilan ham xato qilish va begunoh odamni hukm qilish mumkin, shunday holatlar ham ro‘y beradiki, haqiqat ancha uzoq vaqtadan keyin ochiladi. Qaysi odam qo‘lidan kelmagan narsani sodir etishi mumkin? Hakamning johilligi uni gunohga botiradi, pulga bo‘lgan muhabbat uning adolatiga, otalik mehriga, farzandlik muhabbatiga, zodagonlarning shafoatiga, uzoq yillik do‘slikka va shunga o‘xhash ko‘plab kichik sabablarga ziyon yetkazadi, sabablar uni alday olmaydi va sud jarayonida u o‘z vakolati kuchidan oshib ketmaydimi?

Dalillarni ko‘rib chiqamiz. Garchi ular guvohga bo‘lgan ishonch uning shaxsiy manfaati pasayishi o‘lchamida ortadi deyishsa-da, ammo shaxsiy manfaat yo‘qoladigan chegarani belgilash mumkin-mi; kimdir inson qalbining maxfiy burilishlariga kira oladimi? Yoki har doim niqob bilan yopilgan va shu tariqa sotib olgan, aldangan yoki qo‘rqan va buning uchun yolg‘on guvohlik berishga tayyor bo‘lgan halol odamlarning nomi bilan o‘ralgan past va razil qalblar yo‘qmi? Bundan xulosa qilamanki, dalillarga asoslangan hukm xatolarga moyil. Shuni tan olamanki, bunday holatlar kamdan kam uchraydi, ammo ularning yagona imkoniyati solih qalbni dahshatga soladi va azob chekayotgan begunohlarning faryodidan titraydi; agar aybsizlik uzoq vaqtadan keyin aniqlanadi deb taxmin qilish mumkin bo‘lgan holatlar mavjud bo‘lsa va agar tajribalar ko‘pincha gunohsiz jinoyatchilar ayblanib, o‘lim hukmi bilan jazolanganligini isbotlasa, unda begunoh qurbonning azobini tugatish uchun har doim tayyor bo‘lgan oqilona va adolatli vositaga ega bo‘lish mumkin, ammo bu vosita o‘lim jazosi emas.

Bu sabablar, *imperator xonim Yelizaveta Petrovnaning hukmronligi* (193) va barcha vaqtlardagi tajribalar, o‘lim jazosi hech qachon odamni ulug‘lanishiga xizmat qilmaganligini isbotlab, meni ushbu qatlning davlatda o‘rnatalishi befoyda degan xulosaga kelishga undaydi. Faqat xatarsiz saqlash imkonи bo‘lmagan jinoyatchilarnigina ibrat uchun o‘lim jazosiga hukm qilish lozim. Men bu fikrni ko‘proq quvvatlayman, chunki, ma’lumki, odamlar o‘zlarining harakatlarini ular bilmagan yovuzliklarning harakatlariga qarab emas, balki ular

bilgan yomonliklarning takrorlangan harakatlariga qarab tartibga soladilar.

Shunday qilib, tuzalgan va eng oliy adolat tomonidan ozod qilin-gan odam o‘zining minnatdorchilik tuyg‘ulari bilan to‘lganini his qili-dadi; ammo bu his qilish uchun odam tirik bo‘lishi kerak, shundagina u minnatdorchiligini namoyon qilishga harakat qiladi; har bir kishi hurmat qozonishni istaydi va undan bekorga nafratlanishlaridan ran-jiydi. Demak, hurmatga bo‘lgan istak va nafrat qayg‘usi jinoyatchi-da sharaflanish istagini keltirib chiqaradi, u jamoat hurmatiga loyiq bo‘lsin, boshqacha aytganda, yomon ishlarini kechirishsin va ular abadiy unutilishga duchor bo‘lsin. Shunday qilib, Gretsiyadagi har-biylar, o‘limdan qochib qutulgan, jasur insonlarga doim bu sharman-dalik bo‘lgan, ammo uyat va isnod bilan qoplangan harbiylar har doim keyinchalik juda mashhur bo‘lib ketishgan; binobarin, aybdor o‘z lavozimiga murojaat qilish mumkin deb hisoblaydigan yetarli darajada ma’lum bo‘lgan taqdirlar mavjud, ular keyin buni chuqr-roq o‘rganishga loyiq emasmi? Begunohlani jazoga tortib, dono qo-nun chiqaruvchining yuragi qonga to‘lmaydimi? Tuzalishga kirgan jinoyatchini jazolash – bu begunoh qurban ni o‘ldirishdir.

Men ushbu xulosaning kuchini qotillarga yetkazmoqchi emas-man. Sharhnomani buzgan va ijtimoiy xavfli jinoyatchi qismatida fu-qarolik o‘limi bor. Biroq fuqaro hayotidan ham ortiq muqaddas va daxlsiz narsa yo‘q.

Biroq o‘ylaymanki, shu xulosaga ko‘ra men o‘g‘rilik va boshqa kichik jinoyatlarni hukm qila olaman, faqat ba’zi chegaralarni bel-gilayman, ammo zerikarli tafsilotlarga to‘xtalmayman. Agar qash-shoqlik, jinoyatchilikka doim shunday yaqin bo‘lsa, odamni yo‘ldan ozdirgan bo‘lsa; agar har doim zo‘ravon, ammo har doim mosla-shuvchan bo‘lgan yoshlik ehtiroslari uni jinoyatga undagan bo‘lsa, demak, bular jinoyatchi haqida yaxshi fikr yuritishga undamaydi-mi? Shu sababli, qonun chiqaruvchining niyatidan asosli tarzda tu-zatishni istisno qilish mumkin emas ko‘rinadi.

Biz ko‘rdikki, jazolarni belgilash predmetlari jinoyatchining ja-miyatga ko‘proq zarar yetkazishini taqiqlovchi vosita yoki mohiya-tidir; yoki bu kabi yovuzliklarni amalga oshirmsaliklari uchun bosh-qalarga o‘rnakdir; yoki nihoyat, tuzalishdir. Endi esa o‘lim jazosi

davlatda foydalimi yoki zarurmi, bularning har biriga oid predmetlarni alohida ko'rib chiqamiz.

1. Men allaqachon ko'rsatib o'tdimki, tuzatish doimo qonun chiqaruvchining rag'batiga kiradi, chunki holatni mutlaq buzib ko'rsatish tuzatish tushunchasini yo'qqa chiqaradi; chunki jinoyatchining hayotini olib qo'yish uning mavjudligiga daxl qiladi, uni yo'q qiladi, men bu holda o'lim jazosi noo'rin deb xulosa qilaman.

2. Kelajakda jinoyatchining jamiyatga zarar yetkazishining oldini olish uchun uni faqat kuchsiz qilish kerak. Buning uchun zindon ortiqcha. Bundan kelib chiqadiki, bu holda o'lim jazosi kerak emas.

3. O'mak tariqasidagi jazo bunday jinoyatlarga nisbatan aybdor fuqaroning vatandoshlarida nafrat tuyg'usini shakllantiradi; buning uchun ruhiyatga kuchliroq, haqiqiy va uzoqroq ta'sir etadigan jazoni topish kerak. Odatda, qonuniy o'lim eng kuchli yoki eng haqiqiy yoki uzoq umrga taassurot qoldiradi deb o'ylashadi. Men bunga shubha qilaman.

O'lim oldidan har doim kasallik keladi, hayot esa har doim qandaydir quvonch bilan yondosh bo'ladi. Biz kasallikdan qo'rqqanimiz va quvonch istagining ustuvorligi tufayli hayotga yopishamiz. Hayot qanchalik maftunkor bo'lsa, uni tark etish shunchalik dahshatli. Shuning uchun tiriklar shukur qilib, o'lim soatidagilar dahshatga tushadilar. Aksincha, hayot qanchalik baxtsiz bo'lsa, ular uni yo'qotmaslik istagi ham shunchalik kam bo'ladi. Shuning uchun so'nggi soatni kutayotgan g'arib qayg'urmaydi. Va agar borliqqa bo'lgan muhabbat kasallik qo'rquvi va quvonchga bo'lgan istakka asoslangan bo'lsa, demak, baxtli bo'lish istagi bizda bo'lishni xohlagandan ko'ra kuchliroqdir. Bundan kelib chiqadiki, hayotni e'tiborsiz qoldirish hisob-kitoblarning xulosasi bo'lib, bu hisoblar bizga baxtsiz bo'lishdan ko'ra umuman bo'lmaslik yaxshiroqligini isbotlaydi. Ushbu dalil xayoliy mulohazalar emas, balki faqat aqli odamlar va oz bo'lsa ham ma'rifatli odamlar tajribalariga asoslangan voqealarni ijtimoiylashtirishdir, bu jamoat tomonidan tasdiqlanadi. Katon¹ jonajon vatanga muhabbat tufayli o'z hayotini tortiq qilma-

¹ Katon – Lutsiy Porsiy Katon, Rim siyosiy arbobi va harbiy boshliq. Eramizdan oldingi 89-yilda marslar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan (*tarj.*).

ganmidi? Umum manfaat uchun Ssevola¹ nafaqat o‘limga, balki eng qattiq azobga duchor bo‘lmadimi? Regul o‘z majburiyatini ado etish uchun eng og‘ir azoblarga dosh bermadimi? Xurofotga mast bo‘lgan va qo‘llarini o‘z shohlarining qoniga bo‘yalgan bu yovuz odamlarni, tabiat hayvonlarini va shunchaki aqldan ozgan qotillarni men bu buyuk odamlar bilan taqqoslay olmayman. Ushbu dalil, aniqrog‘i, o‘lim jazosi ongga juda katta haqiqat bilan ta’sir qilmasligini va uning taassurotlari eng kuchli mohiyat emasligini ta’kidlaydi; hech bo‘limganda ular umuman teng emaslar, shuning uchun ham eng kuchli bo‘limgan va har doim bir lahzalik jazo, albatta, haqiqiy bo‘lishi mumkin emas.

Ammo agar biz ularning taassurotlarini eng kuchli deb hisoblasak, ular aslida yaxshilikka nisbatan ham, yomonlikka nisbatan ham katta ehtiroslarga ega bo‘limganlar bo‘lib, bu kabilarning soni, albatta, har bir davlatda juda ko‘p, ta’kidlaymanki, shu bilan ular zararli: zotan mag‘lubiyat qanchalik kuchli bo‘lsa, shunchalik qisqa bo‘ladi. To‘g‘ri, u bizning barcha ruhiy kuchlarimizni qamrab oлади, ammo ular nafis musiqaga o‘xshaydi; uning harakati bizni bir zumda quvontiradi va bir zumda yo‘q bo‘lib ketadi. Keyin anglash to‘xtaydi va odam butunlay unutish uchun cho‘kadi. O‘lim jazosi ajablantiradi, ammo tuzatmaydi; u mustahkamlaydi, lekin tegmaydi; ammo sekin va uzoq davom etadigan taassurot insonga o‘zini to‘liq boshqarish huquqini beradi. U o‘ylaydi, taqqoslaydi; binobarin, bu taassurot mohiyatan yanada real va foydaliroq. Agar uzoq davom etadigan taassurot chuqur bo‘lib, inson qalbida o‘z izlarini qoldiradigan bo‘lsa, demak, u odamga yanada kuchliroq ta’sir qilishi kerak. O‘zining birinchi generallaridan biri, uning eng yaqin do‘siti Filotning hamda o‘shanda katta qo‘shinni boshqargan o‘g‘li Parmenionlarning mulohazalariga ko‘ra *Buyuk Aleksandr mana shunday vaziyatda bo‘lgan edi* (194); Bironning fikricha, Genrix IV bilan bo‘lgan hodisa shunday bo‘lgan edi. Ikkalasi ham hukmdorni haqorat qilishda ayblangan (ya‘ni eng katta jinoyatda, chunki bunday jinoyat har doim undan kelib chiqib, davlatga yetkazilgan zarar o‘lchanadi), lekin ikkalasi ham qudratli, mening fikrimcha, ularni xavfsiz ushlab turish mumkin emas edi. Bu yagona istisno bo‘lishi

¹ Ssevola – rimlik afsonaviy qahramon (*tarj.*).

mumkin va istisno qoidalari uning to‘g‘riligini isbotlaydi. Bunga qo‘sishimcha qilamiz: jazo adolatli bo‘lishi uchun u odamlarni shafqatsizlikdan qaytarishga yetarli darajada kuchga ega bo‘lishi kerak. Ammo qanday inson o‘zining mukammal va qaytarib bo‘lmaydigan erkinligini yovuzlik uchun qurban qiladi, u bundan qanday foyda kutgan edi? Bundan kelib chiqadiki, abadiy qullik jazosi harakati eng qaysar qalbni ham jinoyatdan saqlash uchun yetarli.

Men bunday vaziyatning afzalliklarini rad etishga kirishmayman, chunki u har qanday aqlli o‘quvchiga aniq ko‘rinadi, chunki biror narsaga yaramaydigan yomon odamning o‘zi yo‘q, u tabiatning o‘zi bilan birkadir. Agar siz jamiyatga yomonlik qilsangiz, buning uchun yomonlik bilan, ya’ni majburiy mehnat bilan sizdan qasos olinadi, bundan tashqari, abadiy qullik bundan afzalroq, negaki uning har doim odamlar ko‘z o‘ngida o‘ta og‘ir va o‘ta uzoq davom etishi bilan taassurot qoldiradi. Keling, o‘ylab ko‘raylik: abadiy qullik o‘limga nisbatan shafqatsizlik emasmi? Albatta, jamiyat ko‘z oldida shafqatsiz, ammo sabr qiluvchilar uchun emas. Jamiyat o‘z yuragining sezgirligi, azaliy odati bilan baholaydi va baxtsiz odam esa o‘zi his qilayotganidan ham yomonroq kasalliklarning yo‘qligi bilan taskin topadi; tavba unga yordamga keladi va uning mehnatlari jismoniy mashqlar yordamida osonlashadi. Odamdagи sezgirlik uning aql kuchi, jismoniy nazokatli ekanligi yoki holatining o‘zgarishi bilan ortib borar ekan, men xulosa qilaman: inson qanchalik ma’rifatli bo‘lsa, bu holat uning uchun shunchalik chidab bo‘lmas darajaga o‘tadi; u qancha ko‘p qanoatlanib yashash imkonи bo‘lsa, bu holat uni shunchalik xafa qiladi. Bundan tashqari u yengillikka ko‘proq loyiqidir, chunki u yomon odam bo‘lsa-da, baribir inson. Buni adolat talab qiladi, chunki jazo har doim jinoyat bilan mutanosib bo‘lishi kerak. Va turli xil odamlarga bir xil bo‘lgan bir xil narsalarning ta’siri juda kamdan kam uchraydi, bundan tashqari, aql-idrokka ega bo‘lgan kishi yoki ehtiroslar lazzati bilan hayot kechirgan kishi jazoni johil yoki jismonan kuchli hamda mustahkam, zarurat tug‘ilsa g‘ariblikka ham odatlana oladigan odamdan ko‘ra ko‘proq his qilishi aniq; unda shunday xulosaga kelaman: agar bunday odamlar bir xil jinoyatlar uchun teng darajada jazolansalar, biri ikkinchisiga nisbatan qattiqroq jazolanadi va jazo aybdorlikka mutanosib bo‘lmaydi.

Muhabbat haqida

Sevgi – bu bizda taassurot qoldiradigan, bir jins vakilining boshqasiga bo‘lgan tabiiy tuyg‘usi. Barcha jonli mavjudotlar bularning yoqimliligi, ehtirosi, kuchi va g‘azabini his qiladi. Ammo turlicha tana tuzilishi, shuningdek, asablardagi oz yoki ko‘p qo‘zg‘aluvchanlik, sharoitlarning turlicha shakllangiligi, alanganuvchi narsalarning tasavvurlari – bir so‘z bilan aytganda, bizga ta’sir ko‘rsatadigan tashqi narsalarning turlicha birikmasi har doim turlicha hissiyotlarni keltirib chiqaradi. Uning manbasida muhabbatni ko‘radigan bo‘lsak, bu tuyg‘u dangasa eshak va g‘azablangan sherga, o‘tkir ichimliklar va o‘tkir damlamalar bilan qizishib yuradigan portugalliklarga, sovuq va mehnatdan horigan loparlarga¹ teng ekanligini ko‘ramiz. Binobarin, bu tuyg‘u bizning tabiiy tuzilishimizda o‘z ibtidosiga ega bo‘ladi va shunday bo‘lishi zarurdir. Sevgi o‘z xizmatkorlarini qanoatlan-tirish uchun hamma vositalardan foydalanadi, ohuni yo‘lbarslarga aylantiradi, qarshisidagi to‘siqlardan ko‘payib, uning nafratini qondirib, huzur topadi va kichrayadi, g‘ovlarni oshib o‘tadi. Feder juda to‘g‘ri ta’kidlagan, ya’ni insonning tabiiy holatidagi muhabbat, o‘zaro hirs uni tez orada o‘zlashtirgani uchun dahshatli bo‘lmagan, ammo jamiyat tuzilganidan so‘ng, u haqiqatan ham o‘z vazifasiga ko‘ra dahshatli ishlarni amalga oshiradi. O‘zini hamma narsalar bilan taqqoslaydigan va har doim o‘ziga ustunlik beradigan xudbinlik, boshqalarning xudbinligiga nisbatan teskari keladi. Bu hasadni yaratadi va hasad esa nafratga olib keldi, shu tariqa bizning barcha ehtiroslarimiz ko‘payib ketdi. Bu ehtiroslar juda ko‘p ilohiy ishlarni amalga oshirdi va shu qadar yomonliklar qildiki, uni maqtab ham yoki umuman qadrsizlantirib ham bo‘lmaydi. Ehtiroslarga qarshi bosh ko‘targan axloq o‘qituvchilarini inson haqida umuman tasavvurlarida yaralgani bo‘yicha mulohaza yuritadilar. Yoki eng uzoq metafizikaga chuqur kirib, eng ulug‘vor so‘zlar bilan, mukammallik bilan nomutanosib tarzda mukammallahgan hamma narsa (ular buni tushuntirmaydilar), jiddiy tartiblashgan va ular bilmagan narsalar saxovatning ziddi, qusur va yovuzlikning o‘zi ekanligini isbot qiladilar; biz esa alohida tushunchadan chiqib, o‘zaro munosabatlarni

¹ Lopar – saam xalqining eskirgan nomi (tarj.).

kuzatishga harakat qilamiz. Yaxshilik deb hammaning qanoat olishi va farovonligini (buning esa imkonи yo‘q) ataymiz, har holda ko‘p odamlar buni amalga oshiradilar va sevgining foydalimi yoki zararli ekanligini ko‘rib chiqamiz.

Inson – bu atrofdagi narsalarning rangini o‘zlashtira oladigan bu-qalamun; musulmonlar bilan yashovchi – musulmon, qo‘g‘irchoqlar bilan yashaydigan – biz murojaat qiladigan jamiyatning qo‘g‘irchog‘i. Jamiyat bizda o‘ziga xos fikrlarni singdiradi va o‘zi yaxshi deb hisoblagan narsani biz ham yaxshi deb bilishimizga undaydi. Biz jamiyatda hukmronlik qiladigan ehtiroslarni asta-sekin o‘rganamiz; eng muhimmi, bizni nima yo‘ldan ozdirayotganini anglashga moyilmiz va bizga quvonch hadya etadigan yoki va’da beradigan barcha narsalar bizni shu darajada yo‘ldan ozdiradiki, u bizning barcha qalb kuchlarimizni qamrab oladi.

Bizning fikrlarimiz va amallarimiz boshqalarning fikrlari va xatti-harakatlariga o‘xshashligi bilan ularning xayrixohligiga erishishimizni hamma juda aniq bo‘lmasa ham, yetarli tarzda tushunadi va buni tajribalar ham tasdiqlaydi. Bundan aniq ko‘rinib turibdiki, ikkita sevishgan bitta odamni tashkil qiladi, ular bitta iroda va bir xil harakatlarga ega, chunki odat tabiat qiyofasini o‘zgartiradi. Jamiyatda o‘z ibtidosiga ega bo‘lgan holat ayollar ularga ko‘z suzadigan erkaklar bo‘lishini istadi.

Demak, muhabbat jamiyatda faqat tana lazzati va hissiyotlarga asoslangan tuyg‘u bo‘lmay, balki ming hissiyotlar natijasida hosil bo‘lib, xurofotlarga, urf-odat va holatga bog‘liq bo‘lgan bu sevgi hech qanday taqiqlanmagan va jazoga loyiq narsaga ega emas. Bu ayollarni tarbiyalashga qaratilgan, u yoki bu ko‘rinishda qabul qilinadigan fazilat yoki illatga aylanadi. Yunonlarda o‘g‘illari qiz o‘z yuragini tortiq qilganda kiyadigan sharaf tojisiz qaytsa, onalar ko‘z yosh to‘kishgan, qayerda ayollarning dono qonun-qoidalari yoshlari yuragida rashk va illatli ishlarga nisbatan nafrat uyg‘otsa, ular hurmat, ehtirom va muhabbatga loyiq bo‘ladilar; ammo bizning asrimizda o‘zgacha: bu yerda go‘zallik uni tug‘dirgan unsurdan ham ko‘ra dahshatli bo‘lib, u atrofidagi tafakkur tashqi jilo bilan chegaralangan o‘yinlar va ko‘ngilxushliklarda tarbiyalanadi; bu yerda erkinlik libos kiygan, bu yerda qadamlarning jozibasi va bir nechta o‘rganilgan

zamonaviy so‘zlar fikrlar o‘mini egallaydi va tabiiy tuyg‘ularni siqib chiqarib tashlaydi; bu yerda u eng beg‘ubor moyilligini yashirib, har soatda o‘zini ko‘z-ko‘z qilishga majbur bo‘ladi; bu yerda u g‘iybat qiladi, chunki yetakchi emas, u shuhratparast, chunki u o‘ziga munosib hurmatga ega emas, u makkora, chunki har doim muhtojlikda yashaydi va doimiy ravishda mayda-chuydalar bilan o‘ralashib yuradi; bu yerda u o‘z xushtorlarining ustidan cheksiz boshqaruvga ega bo‘lishni istaydi: ya’ni unga yoqish uchun boshini mayda-chuyda fikrlari bilan to‘ldirish, unga yoqish uchun haqiqiy muhabbatni ortga tashlash, qaytarib bo‘lmas narsalarini yo‘qotib, unga o‘z vaqtini bag‘ishlash – u o‘zi bunday qurbanlikka loyiqliqmi?

Narsalarning behisob ko‘pligini kuzatar ekanmiz, turli narsalarni, murakkab bo‘lgan mayda-chuydalarni topamiz, kimdir o‘ta nazokat bilan yovuzlikni, ya’ni ma’shuqasining otasini asrab qolish uchun bir begunohni o‘limga hukm qilgan keksa, xizmat ko‘rsatgan va sinnovlardan o‘tgan vazirni ichki nafratsiz ko‘rishga qodirmi?

Kim uni so‘kmaydi! Kuchli muhabbat og‘ushida bo‘lgani bois, aqli hech qachon narsalarni xotirjam kuzata olmaydigan, yuragi esa doimo harakatda bo‘lgan odam o‘z egallagan bilimlari bilan jamiyatga foyda keltirishi mumkinmi? Ammo bu moviy ko‘zlarga, sust va yoqimli nigohga, zukko va jozibali ovozga kim qarshi tura oлади? Bo‘sasi hayajonga soladigan bu oppoq va muloyim qo‘lni kim o‘pib, yuragini yo‘qotmaydi? Kim hammadan ham ko‘ra ezgu maqsadli ogohlantirishlarni eshitgan va ko‘rgan bo‘lsa-da, bu tabiiy nozli qadam tashlashni, ulug‘vor qaddi-qomatni, o‘g‘ri nigohlarni maftun bo‘lmay va olovlanmay ko‘ra olishi mumkin?

Yoshligidan bunga tayyorlangan, insonning haqiqiy mohiyatini o‘rganishga harakat qiladigan, ongini foydali va yoqimli bilimlar bilan bezatadigan, bu ehtiroslarga qarshi oziqlangan, vatan uchun foydali bo‘lish va dunyoga tanqli bo‘lishdan eng katta zavq oladigan kishigina shunday qila oladi.

Gelvetsiyning «Tafakkur to‘g‘risida»gi birinchi kitobiga taalluqli bo‘lgan xatlar (195)

Birinchi xat

Muhtaram janobim. Men siz bilan juda muhim va ko‘p qiyinchiliklarga duch keladigan narsalar haqida gaplashmoqchiman; bu churq mulohazalar sizni nafaqat zeriktirmasligini, balki hatto qiziqishingizni ham uyg‘otishini ko‘rgach, bunga izn berasiz, deb umid qilaman. Bu narsa muhimdir, chunki bu odamga bevosita ta’sir qiladi; qiyin, chunki inson qalbini anglash va uni harakat va harakatsizlikka undash juda chalkash. Bu, ehtimol, mening kuchimdan ham yuqori turishi mumkin: lekin aynan shu narsa, meni sizning ma’rifatingizga murojaat qilishga undaydi, zotan, baxtimga, men buni bildim va hurmat qilaman. Men yo‘l-yo‘riq izlayapman, chunki ikkilanmoqdaman. Ammo haqiqatni sevadigan aql uchun beqarorlik toqat qilib bo‘lmaydigan holat bo‘lgani uchun men sizning ko‘magingizga muhtojlik sezmoqdaman. Bu jasorat emasmi? Va haqiqatan ham haddan ziyod bilimga bo‘lgan ishtiyoqdan kelib chiqadigan bu qilmishim, agar menga muruvvat ko‘rsatishingizga ishonchim komil bo‘limganda, agar siz Leypsigda bo‘lganeningizda, meni o‘zingiz bilan do‘stona munosabatda bo‘lish sharafiga tuyassar qilmaganingizda, agar barcha narsada sizga murojaat qilish uchun yoningizga borishga men uchun nihoyatda foydali bo‘lgan ruxsatni bermaganingizda kechirilmas bo‘lar edi. Men o‘zimni sizning shogirdingiz deb bilishga jur’at etaman, chunki bizga ko‘rsatma beradigan yoki ko‘rsatma berish usullarini beradigan har bir kishi,adolatli ravishda, haqiqiy ota-onasifatida sharaflanishi mumkin. Ammo bu sizning eng kichik iltifotiningizdir. Siz mening ruhimni cho‘kib ketgan harakatsizlik va umidsizlikdan tortib oldingiz va afsuski, bu cho‘kish sababsiz emas edi. Siz unga zulm qilgan sababni olib tashlab, uni o‘z faoliyatiga qaytardingiz. Siz menga barcha foydali haqiqatlarni o‘rganish uchun tinimsiz g‘ayrat, o‘z yaratuvchilarining betiyiq tasavvuriga asoslangan barcha tizimlarga kuchli nafrat, ilgari men xotiramni to‘ldirib tashlagan jimjimador va ohangdor so‘zlarning chalkashligiga nisbatan jirkanishni uyg‘otdingiz. Nihoyat, siz kitobini men bilan birga

o'qishga marhamat ko'rsatgan munosib yozuvchining hayratini sizdan o'rganganimni tan olganim holda, buning uchun sizga bildirishim lozim bo'lgan minnatdorligim qay darajada ulkan bo'lishi kerak? Shundan so'ng, men uni imkonim doirasidagi bor e'tibor bilan uch marta o'qib chiqdim va buning uchun uni maqtashdan o'zimni tiyaman, negaki bunday insonni olqishlash faqat o'zi maqtovga sa-zovor bo'lgan kishigagina loyiq ekanligiga aminman.

Faqat shuni aytamanki, o'qish davomida uning fahm-farosatidan, so'zlarining ravshanligi va nafisligidan hayratlanib, uning juda qisqa yozilganidan ko'p bora afsuslandim. Ushbu xatlarimning mazmunini undan oldim va bu maktublar «Aql to'g'risida»gi asarning yoki hech bo'lmasganda, uning birinchi va uchinchi kitoblarining qisqartmasini o'z ichiga oladi.

Ammo bu vazifani bajarish juda murakkab, buning uchun tafakkurga kuchli bosim va yetarli darajadagi vaqt kerak; hatto bundan ham ko'proq, zero men hech bo'lmasganda aytib o'tilgan ikkita kitobda muallif bilan har doim bir xil fikrda bo'lmasligim mumkin. Mening shuhbalarimni yaxshi tushuntirish uchun tafsilotlarga juda chuqur kirish kerak; men, avvalambor, sizga o'zining asoslangan fikrlarini tasdiqlashda va oqibatlarini aniqlashda u bosib o'tgan yo'lni imkon darajasidagi qisqalik bilan taklif qilishni zarur deb bildim. Ushbu kam ahamiyatga ega bo'lgan ishda mening maqsadim ikkita edi. Birinchisi, bu kitobni o'qigan va u haqda mulohaza yurita boshlagan kishi ushbu bitiklar orqali yozuvchining fikrlari zanjirini bir zumda tasavvur qila olsin; ikkinchisi, o'qishni boshlovchi, bu ko'chirmalarga ega bo'lgan holda, asosiy mavzudan yozuvchining chetlab o'tishlari va qo'shimcha go'zal safsatalari tu-fayli chalg'imasin va amal bo'yicha sabab to'g'risida xulosa qilin-gan joylarda u keltirilgan ko'plab amallar orasida adashib, tafakkur iplari so'tilib ketmasin. Siz men o'z istagimga erishganim to'g'risida hukm qilishingiz mumkin; men sizning hukmingizni butun umrim davomidagi hurmatim va qalbimdag'i eng tuyg'ularga boy minnat-dorchiligidan bilan kutib qolaman.

Men va boshqalar.

Ikkinci xat

Muallif aqlini fikrlash qobiliyati bo'lib, u qandaydir mavjudlikka xos bo'lgan moddiy, yoki ma'naviy (undan boshqa turi bizga ma'lum emas), sifatlarga ega, deb hisoblaydi. Bugunga qadar o'z yechimini topmagan bu vazifa o'z-o'zidan dalilga ham ega bo'lishi mumkin emas; shuning uchun ham yozuvchi, bizning aqlimiz va tuyg'ularimizning barcha harakatlarini taxmin qilib, ularga teng bo'lgan u yoki bu tarzdagi farazlarni quvvatlaydi. Ammo mening nazarimda bular isbot talab qiladi. Moddiy qalbni hisobga olgan holda, u his qila oladimi yoki yo'qligini ko'rib chiqaylik. *Men*, avvalo, shuni ta'kidlaymanki, *modda* va *jism* teng mazmunga ega bo'lgan ikkita so'zdir; chunki aytish mumkinki, har bir modda jismdir va har bir jism moddadir. Va o'z mohiyatiga ko'ra ajralmas hisoblangan fazo, o'tkazmaslik ikkita jism bir vaqtning o'zida bir joyni egallay olmasligini keltirib chiqaradi, harakatsizlik bu jismlarning sifati, ular orqali hozirgi holatida qolishga intilishadi va ularning zaruriy o'tkazmaslik natijasi, jismning uchta muhim xususiyatining mohiyatidir. Chunki jism o'zida umumiyl tushunchani aks ettiradi. Demak, tajribaga zid bo'lgan hissiyotning uchdan biri yoki to'rtdan birini tushunish mumkin.

Tanada biz faqat harakatni sezamiz, bu faqat joy, tezlik va yo'nalishni o'zgartirishdan boshqa narsa emas. Ammo qalbimizda tenglikni ko'ryapmizmi? Va buning uchun hislarning har bir zarbida ikkita narsani ajratish kerak: tana yoki miyadagi zarb; ruhiy yoki qalbda undan tug'iladigan tushuncha. Kim bu haqda o'zi uchun izoh yozmoqchi bo'lsa, albatta, buni anglab oladi. Aql ba'zi narsalarni diqqat bilan o'rganib chiqsa va ular tomonidan ishlab chiqarilgan tushunchalarni muhokama qilsa, u holda, garchi ularning ta'siri tovush chiqaradigan narsalarga teng bo'lsa ham, ba'zi unsurlarning eshitish vositasiga bergen zarbini umuman sezmaydi. Buning sababi shundaki, ruh uni tinglamaydi. Ammo yozuvchi, masalan, tortishish kuchi kabi bunday kuchning kashf etilishi, odamlarni jismni his qilish xususiyati kabi hanuzgacha ba'zi noma'lum xususiyatlarga ham

ega, deb o'ylashga undashi kerak emasmi, deb o'ylaydi. Birinchi maktubimda ushbu ifodani tadqiq qilishni nazarda tutganman.

Men va boshqalar.

Uchinchi xat

Hamma samoviy jismlar universal og'irlikka ega ekanligini tasdiqlaydi; temir va po'latni jalb qilish orqali magnitda ko'rindigan tortishish kuchini va har bir jismga xos bo'lgan og'irlilik kuchini tasdiqlovchilarining fikriga ko'ra, bu xususiyat faqat juda katta jismlarda seziladi, kichiklarda esa u umuman sezilmaydi. Uni keltirib chiqaradigan haqiqiy sabab biz uchun noma'lum va faylasuflar shu paytiga cha bu borada kelisholmaydilar. Ba'zilar, ba'zi bir nozik va ko'rindigan moddaning jismlarga ta'sir qilish ehtimoli bilan bahslashadilar, ular birini ikkinchisiga *yo'naltirradi* va ular *yo'naltiruvchilar* deb nomlanishiadi. Boshqalarning ta'kidlashicha, jismda kuch bor, yashirin va sirli kuch. Bu kuch jismlar o'rtasida o'zaro tortishishni keltirib chiqaradi. Ular abadiy mavjudlikni Xudoning qudrati bilan tasdiqlaydilar va ularni *o'zaro tortishuvchilar* deb atashadi. Ammo agar o'zaro tortishish jism mohiyati bilan tasdiqlanmay, bevosita Xudoning qudrati bilan amalga oshirilsa, unda xuddi shunday haqli ravishda jismni bevosita Xudo siljitadi, deyish mumkin bo'lar, bu yerda muntazam mo'jiza sodir bo'lgan bo'lardi.

Agar biz ikkita jismni harakatsiz tasavvur qilsak va ular orasida mutlaq bo'shliq bo'lsa, unda ular bir-biriga yaqinlashishi yoki biri ikkinchisini tortishi mumkinligi haqida fikr yuritish bema'nilik bo'ladi; chunki jismlar, ularning mohiyatiga ko'ra, haqiqiy holatida qolishga intilishadi. Ko'chmas jismning boshqa tomonga emas, balki o'sha tomonga harakatlanish sabablarini tushunish qulay emasligi uchun teskari fikrga o'tish mumkin emas; harakatlanuvchi jismning harakatini to'xtatishi yoki yo'nalishini, tezligini o'zgartirishi yanada aqlga sig'maydi. Demak, agar har bir jism mohiyatan o'z pozitsiyasini saqlab qolishi va undagi o'zgarish faqat uning o'tkazuvchan emasligi tufayli sodir bo'lishi aniq bo'lsa, unda tortishish kuchi, ya'ni jismni markazga *yo'naltiruvchi* kuch, garchi bizga noma'lum

bo'lsa ham, bu jismga xos xususiyat emas. Va o'zaro tortishishni materiyaga asoslangan kuch deb biladiganlarning fikriga ko'ra, bu kuch u harakat qiladigan jismda emas. Bundan kelib chiqadiki, biz faqat ikki turdag'i kuchlarni: jismlarning qo'zg'almasligidan kelib chiqadigan jism kuchlari va faqat jonli jismlarda mavjud bo'lgan ruhiy kuchlarni bilamiz, shuning uchun tortishish kuchi uchinchi turdag'i kuchlarga tegishli bo'lishi kerak, ammo na jism kuchi, na ruhiy kuchi. Ammo buni tasdiqlash uchun, shubhasiz, ushbu kuchlarning mavjudligini va tortishish kuchi jismni o'rab turgan nozik moddadan kelib chiqmasligini isbotlash kerak. Agar bir vaqtning o'zida ikkita jism bir-birini jalb qilishi mumkin bo'lsa, ular orasidagi masofa nozik moddalar bilan qoplanmagan bo'lardi, unda tortishish kuchining mohiyati shubhasiz bo'lar edi. Ammo buning iloji yo'qligi sababli, unga shubha qilish yoki butunlay rad etish mumkin.

Agar biz tortishish kuchini rad etish uchun yetarli asoslarga ega bo'lGANIMIZDA, unda eng asosli sabab bilan moddiylikdagi hissiyotni inkor eta olamiz. Ammo agar moddiylik sezishi mumkin bo'lsa, biz sezgir bog'liqlik va bo'linmaslikni qayerdan topamiz? Buni har bir qismga yoki butun jismga tatbiq eta olamizmi? Ular aytadilar: tabiatda o'ziga xoslikdan boshqa narsa yo'q; lekin ular nima? Biz toshni o'ziga xoslik deb ataymizmi yoki o'ziga xoslikning birikmasi debmi? Bu sezgir moddami yoki tarkibida qum donalari qancha bo'lsa, shuncha ko'pmi? Agar har bir boshlang'ich zarra (atom) sezgir modda bo'lsa, unda biri o'zini boshqasida his qiladigan va ikkalasi ham bir xil darajada mukammal bo'lgan ushbu yaqin aloqani qanday tasavvur qilish mumkin? Mohiyatni his qiladigan qismlar kengaytirilgan, ammo hissiy mavjudot bir-biridan ajralmas, bitta, yaxlit yoki hech narsa emas. Oldingi sabablarga ko'ra ushbu yengib bo'lmaydigan qiyinchiliklar menda birgalikda bir fikrni tasdiqlaydiki, moddiylikni cho'ziluvchan va bo'linuvchan deb bilib, uning sezgiga ega emasligiga ishonch hosil qilish kerak, chunki buning teskarisini ta'kidlab, siz biri boshqasini istisno qiluvchi bitta jismga xususiyatlarni berishni boshlaysiz.

Men va boshqalar.

To‘rtinchi xat

Yozuvchi odamda ikkita passiv kuch bor deb taxmin qiladi, ularni bizning ongimizni keltirib chiqaradigan sabablar deb tan oladi. Birinchisi – tashqi unsurlarning zarblarini qabul qilish xususiyati va bu tana sezgirligi hisoblanadi. Boshqasi – hissiyotlarga beriladigan zarblarni saqlash xususiyati, ya’ni xotira deb ataladi. Xotira, mualifning fikriga ko‘ra, tana sezgirligi va his qilishning yagona vositasidan boshqa narsa emas, u davom etdi, ammo zaiflashdi. U bizda nimani his qilsa, deydi u, albatta eslaydi. Buning isbotiga qarang.

Eman tasvirini eslaganimda, mening ichki a’zolarim ham aynan o’sha, eman ko‘z oldimda gavdalangan paytda qanday bo‘lgan bo‘lsa, o’sha holatda bo‘ladi. A’zolarning bu holati sezuvchanlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, eslash – bu his etishdir. Ushbu xulosa menga ishonarli ko‘rinmaydi va bu yerda dalil muammoga bog‘liq narsaga asoslangan. Faraz qilaylik, eman tasvirini eslab, mening ichki a’zolarim bu emanni ko‘rgandagi holat bilan teng holatida bo‘ladilar; ammo bu savol qanoatlantirilmaydi, nima uchun va qanday qilib, dalil yetarli emas; chunki bu yerda yozuvchi bir xil harakatlarni bir xil sabablarga ko‘ra bog‘lamasligi aniq, chunki harakatlar turlicha. Eman mening ko‘z o‘ngimda bo‘lganida, mening ichki organlarim, emandan chiqadigan nurlardan titrab, uning qiyofasini ko‘zlarimning chuqurligidagi asab to‘rlariga chizadi, keyin miya faoliyatining davomi sifatida unga ko‘rvuchi (optik) asab tolalari bilan qo‘sadi va u orqali titroq qalb tushunchani chiqaradigan miyaga yetib bordi. Ammo uzoqdagi tashqi obyekt mening tana a’zolarimga qanday ta’sir qiladi? Agar eslagan paytimda ichki a’zolarim unsurlarning hissiyotga zarb bergandagi holatda bo‘lsa, xuddi shu holatda ko‘z oldimda hech narsa bo‘lmay turib, men quyoshni ko‘rgan bo‘lardim. Binobarin, esga olingan tushuncha kelgusi obyekt tomonidan qo‘zg‘aladigan tushunchadan butunlay farq qiladi. Xotira izohi, ya’ni bu davom etadigan, ammo zaiflashib boradigan tuyg‘u, degan izoh men uchun qoniqarli emas. Chunki yoki tuyg‘u to‘xtovsiz davom etadi yoki u qachonlardir to‘xtaydi va qaytadan boshlanadi. Agar avval dastlabkisi bo‘lgan bo‘lsa, unda tushunchalar bizda muntazam ishtirok etgan bo‘lar edi, ammo bunday emas;

chunki ba'zida ilgari bizda bo'lgan ayrim tushunchalarni yangilashga astoydil harakat qilamiz; ba'zida biz ularni butunlay unutamiz, lekin, odatda, ularning yarminigina xotiramizdan o'chira olamiz, xolos. Agar zarb butunlay yo'qolgan bo'lqa, bu qanday sodir bo'ladi, qanday qilib moddiylik o'sha vaqtida unga zerb urilganini, u yana qachon takrorlanishini eslay olishi mumkin? Xotira davom etuvchi, ammo zaiflashuvchi hissiyotdan boshqa narsa emas, deya davom etib, biz hamma narsani hissiyotga topshiramiz, ammo hissiyot asablarining harakatidan hosil bo'ladi. Ushbu harakat obyektning barcha qismlarining kuchli yoki kuchsiz zarbi bilan kuchayishi va kamayishi mumkin; quyoshni eslaganimda, xuddi shu nur quyosh nuridan 200 000 marta kuchsizroq bo'lgan Oyni ko'rghanim kabi bo'ladi. Ammo hozir Oyni ko'rish va faqat Quyoshni eslash – bu butunlay turlicha bo'lgan ikkita narsa. Shuning uchun his qilingan tushunchalar bizga hissiyotlar yordamida taqdim etilishi aniq; biz esga olganlarimizni his qilgan tushunchalar timsolida esimizda qolgan darajada ishlab chiqaramiz. Men aniq tushunamanki, xotira tomonidan ishlab chiqarilgan tushunchalar haqiqiy tushunchalar bilan bir xil, ammo bu ruhga tegishli. Jismga kelsak, har qanday haqiqiy xotira miyadagi ba'zi bir harakatlar bilan bog'liq bo'lib, bu ishlab chiqarilgan xotira bilan sodir bo'lmaydi.

Shuni tan olish kerakki, xotiraning haqiqiy manbayi bizdan butunlay yashiringan. Jism ham unda qatnashishini bilamiz; ammo tushunchalarning yangilanishi qalbning o'z harakati ekanligi ham haqiqat.

Men ushbu xatni xotira uchun ajratilgan farq bilan yakunlayman. Bu ikkita: 1) hozirgi zamon tushunchasini birmuncha vaqt saqlab turadigan kuch. Lokk buni *ko'rib chiqish* deb ataydi; 2) ongda tug'ilib, g'oyib bo'lgan va undan butunlay voz kechgan tushunchalarni yangilash va tiklash kuchi. Buni aslida xotira deb atash mumkin.

Men va boshqalar.

Beshinchi xat

Yozuvchi inson ongidagi harakatlarni sinchkovlik bilan izlab, ularni predmetlarning o'zaro o'xshashlik va farqlarini, narsalar-

ning muvofiqligi va xilma-xilligini sezish qobiliyati bilan cheklaydi. Insonlarning barcha fikrlari to'plami bilan sharaflanishi mumkin bo'lgan barcha tillarning so'zлari bu haqiqatni tasdiqlaydi, chunki ular bizga faqat tashqi narsalarning tasvirlarini, ularning o'zaro munosabatlari va biz bilan munosabatlarini taqdim etadilar. Insoniy aql bu munosabatlar haqidagi bilimlardan yuqoriga ko'tarilmaydi va ularning xususiyatlaridan tashqariga o'tmaydi. Ammo hukm bu faqat uning o'zini ko'rib chiqish yoki uni ifodalashdan boshqa narsa emas: demak, aqlning barcha harakatlari faqat hukmdir. Ammo hukm qiliш bizning his-tuyg'ularimiz va tushunchalarimizning o'xshashligi va farqini, mansubligi va nomuvofiqligini ko'rib chiqishdan boshqa narsa emas. Binobarin, bu kuch jismdagи sezgirlikdan boshqa narsa emasligi sababli, hukm qilish his qilishdir; binobarin, aqlning barcha harakatlari tuyg'ulardir.

Ushbu fikrni men butkul tugal deb bilaman. Undagi barcha jum'lalar aniq, haqiqat va tajribaga asoslangan bo'lib, bitta istisno bundan mustasno, ya'ni bizning tushunchalarimiz va hissiyotlarimizni taqqoslash qobiliyati jism sezgirligidir. Bu ko'rib chiqishni talab qiladi va bu uning asosiy ifodasi bo'lgani uchun, uni ajratishga ijozat bering.

Bizning fikrimizdagi barcha harakatlar predmetlardagi o'xshashlik va farqlarni, tegishlilik va xilma-xillikni anglash qobiliyatidan iborat ekanligi isbotlangan deb qabul qilaman. Endi bu qobiliyat uchun faqat jism sezgirligi zarurligini isbotlash kerak.

Obyektlar orasidagi farqlarni bilish borasida zarracha shubha yo'q. Ikki hissiyotni yoki ikkita tushunchani organimdan so'ng, men birida nimani his qilsam, ikkinchisida buni his qila olmasligim mumkin emas; yoki aniqroq aytish kerakki, bir zarb ruhni boshqasidan boshqacha hayajonlantiradi. Buni his qilib, ularning farqlarini his qilyapman. Bundan kelib chiqadiki, obyektlar orasidagi farqnı sezish uchun faqat his qilish kerak. Ammo ularning o'xshashligi haqida ham shu gapni aytish mumkinmi?

Keling, ushbu so'z nimani anglatishini aniqlaylik. Bir obyektning ikkinchisiga o'xshashligini nima deb ataymiz? O'xshashliklar muhim yoki tasodifiy bo'ladi. Butunni tashkil qiluvchi qismlar bir turda, yoki biri biridan farq qiluvchi bo'lsa; yoki butunning barcha

qismlari boshqa bir butunning barcha qismlarri bilan har jihatdan bir xil bo‘lganda ular sodir bo‘ladi. Agar bu to‘g‘ri bo‘lsa, unda buni biliш uchun faqat jism hissiyoti kerak. Zehnda ikkita hissiyot mavjud bo‘lganligi sababli, ular mening hislarimga qanday ta’sir qilishini, xuddi shu tarzdamni yoki turli xil yo‘llar bilanmi ekanligini ko‘rib chiqaman.

Biror predmet boshqasiga mos keladigan, yoqimli, foydali yoki kerakli bo‘lganda yoki bizga shunday tuyulganda, biz buni aloqadorlik, deb ataymiz (kelgusida bu nomlarni tushuntirish o‘rnini band qilmaslik uchun izohlashga kirmayman). Ammo tajribalar shuni isbotlaydiki, tuyg‘ular ruhga har xil ta’sir qiladi. U ayrimlarga qoni-qish bilan qaraydi, ayrimlarga esa nafrat bilan boqadi; xuddi shu tajriba orqali biz obyektlarning tegishliligi yoki farqini aniqlay olamiz. Bundan xulosa qilamanki, hukm qilish tuyg‘u bilan bir xil.

Ushbu fikrga oydinlik kiritish uchun men unga qarshi bildirilishi mumkin bo‘lgan barcha e’tirozlarni keyinga qoldirishga harakat qilaman.

1) Agar ruh azob chekayotgan mayjudot bo‘lsa, u holda u har bir narsani alohida-alohida his qiladi yoki u murakkab bo‘lsa ham, obyektni butunligicha his qiladi. Ammo ularni yaqinlashtirish kuchiga ega bo‘lmassa, u ular orasida taqqoslashlar qila olmaydi, ularni hukm qila olmaydi. Bu bema’nilik nimani anglatadi? U har bir predmetni alohida his qiladi, ya’ni xuddi bir joydagи bitta jism boshqa bir joyda bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘la olmagani singari his etiladi, ya’ni ikkala tuyg‘u ham ongda mayjud bo‘ladi.

Bundan kelib chiqadiki, qalb ularni taqqoslashga qodir emas va ularning tutashganligini baholay olmaydi. Ammo aytganlarimdan butunlay teskari bir narsani xulosa qilish va aytish mumkin: shuning uchun ularni birlashtirishga hojat qolmaydi, shuning uchun u ikki hissiyot o‘rtasidagi munosabatni hukm qiladi yoki ularning ongda ishtirokini ta’minlaydi, ya’ni u ularni his qiladi; ammo ikkalasi ham teng, avval isbotlangan. Biroq ruh hissiyotlarni bir-biriga yaqinlashtirish kuchiga ega emasligini aytib, ruh o‘z e’tiborini yo‘naltirishga yoki uni olib tashlashga, mulohazalarini davom ettirishga yoki tughishga qodir emasligini tushunsak, u holda bu vazifa yanada muhim-roq tus oladi va quyidagilarga tegishli bo‘ladi: biz ozodmizmi yoki yo‘qmi? Bu haqda siz bilan alohida bitilgan xatda suhbatlashaman.

2) Tenglashtiruvchi tushunchalar: kattaroq, kichikroq; raqamga oid tushunchalar: bitta, ikkita; mavhum tushunchalar: fazilat, go'zallik – shubhasiz, hissiyotning mohiyati emas, garchi ularni his qilsam ham, aql ularni hosil qiladi. Ushbu fikrning zaifligiga ishonch hosil qilish uchun ba'zi tafsilotlarga to'xtalib o'tamiz. Munosabatlar, bu ikkita predmetni ko'rib chiqish bilan menda yuzaga kelgan tuyg'u yoki hissiyotdan boshqa narsa emas, degan tushunchadan osonroq narsa bo'lishi mumkin emas. Men buyuk tushunchalarni to'playman; lekin bu o'z-o'zidan emas, balki tenglashtiruvchidir; shuning uchun kim buyuklik tushunchasiga ega bo'lsa, muqarrar ravishda kichik tushunchasiga ham ega bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, agar men katta tayoq haqida tushunchaga ega bo'lsam va bir vaqtning o'zida kichigi haqida ham tasavvur bo'lsa, unda katta tayoq kichkinasidan kattaroq ekanligini his qilish uchun buni taqqoslab ko'rish kerak. Ammo men qanday qilib katta va kichik tushunchasini oldim? Ikki xil zARBNI olib, bitta predmetning boshqasidan ko'ra ko'proq qism-larga ega ekanligini sezganimdan yoki his qilganimdan keyin, men bittasini katta, ikkinchisini kichik deb atadim. Hatto boshqacha nomlaganimda ham jism aslida o'zgarmaydi. Ammo biz raqamli tushunchalarni qanday tuzamiz? Tuyg'ulardagi farqlarni payqash orqali. Masalan, gul mening hidlash vositamni zARB uradi, men bu zARBNI his qilaman va uni xotira orqali saqlayman. Boshqa gul teng zARBNI keltirib chiqaradi; men buni ham his qilaman. Ammo eski zARBNI saqlab qolgan holda, endi nafaqat haqiqiy zARBNI, balki xuddi shunga o'xshaganini his qilganimni anglayman. Menda shunday hissiyot bo'lganini anglash ikki hissiyot tushunchasiga tengdir va hokazo. Aql umumiy tushunchalarni tuzishda xuddi shu yo'ldan yuradi. Zero, agar turli xil predmetlarning mening his-tuyg'ularimga zarbi bir xil bo'lsa, demak, men biron-bir predmetga qarashdagi hissiyotim boshqa bir predmetni ko'rganimda his etganimga o'xshashligini his etmasligim mumkin emas. Ammo bu hissiyot tasviri faqat mening boshimda mavjud bo'ladigan va shu bilan birga men haqiqatan ham his qilgan umumiy yoki mavhum tushunchalar tarkibidir.

3) Agar bizning his-tuyg'ularimizdan foydalanishda biz faqat azob chekayotgan bo'lsak, demak, oramizda aloqa bo'lmaydi, men

his qilgan jism va men ko'rgan jism bilan bir xil ekanligini bilishim mumkin emas edi. Yoki biz o'zimizdan tashqarida hech narsani sezmaymiz, biz har doim beshta mavjudotni alohida his qilamiz, bular dan o'ziga xosligini sezib bo'lmaydi. Bu e'tiroz juda kuchli, men buni tan olaman. Ammo biz o'z his-tuyg'ularimizdan foydalanganda harakat qilayotganimizni qabul qilgan holda (garchi bu menga kulgli tuyulsa ham, chunki hissiyotlarni ishlatalishda azoblanmaslik, men his qilayotgan narsani his qilmaslik ustidan hukmronlik o'rnatish bilan barobar), his-tuyg'ular o'rtasidagi aloqani va qalb tushuncha ning o'ziga xosligini qanday sezishini tushunish osonroqmi? Shar va uchburchak jism uning sezgilariga qanday zarb bilan ta'sir qilishini tajribalar orqali bilib olgan ko'r odamni tasavvur qiling. Ko'zi ojiz bo'lgan bu odam, albatta, ko'z nurlari orqali sharni uchburchakdan ajrata olmaydi; chunki sezgilar, masalan, shar haqidagi hissiyot shar ga oid ma'lum bir tarzda uning ko'z sezgilariga teng ravishda urilganidan kelib chiqmaydi.

Binobarin, tajribalar bizga buni o'rgatadi, demak, mulohaza yuritadi, demak, bular hissiyotlardir. Garchi bizdagi narsaning o'ziga xosligi to'g'risida mukammal ishonch bo'lmasa-da, nima uchun biz idealistlarning dalillariga so'kishdan o'zga qarshi tura olmasak, ajablanishimiz kerak.

4) Va niyoyat, oxirgi e'tiroz shu: agar munosabatlar haqidagi hukm oddiy hissiyotlar bo'lsa va faqatgina predmetdan kelib chiqadigan bo'lsa, unda mening xulosalarim hech qachon yolg'on bo'lmaydi Ammo men keyingi xatda yozuvchining yo'lidan bor gan holda javob beraman, u bizning barcha adashishlarimiz ehtiroslarimiz va johilligimizdan kelib chiqqanligini isbotlaydi. Va agar bu so'nggi e'tiroz yetarlicha rad etilsa, hukmlarning kuchi hissiyot xususiyatiga ega emasligini ta'kidlash ortiqcha va bema'ni bo'lardi.

Men va boshqalar.

Eslatma. Fyodor Vasilyevichning asarlari faqat tarjimada. Ular dan birinchisini va oxirgisini u fransuzcha, qolganini nemischada yozgan.

Bir haftalik kundalik

Shanba

Ular jo'nab ketishdi, qalbimning do'stлari ertalab soat o'n birda ketishdi... Men uzoqlashib borayotgan izvosh izidan ixtiyorimga qarshi yerga yosh to'kayotgan nigohlarimni qadadim. Tez aylanyaotgan g'ildiraklar meni o'zlarining bo'ronlari bilan orqasidan sudrab borishdi – nega, nega men ular bilan bormadim?

Men odatdagidek o'z vazifamning ijrosiga bordim. Tashvishlar va ishlar bilan bo'lib o'zimni ham o'ylamay, ko'p narsani unutdim, do'stlarimning yo'qligiga ham befarq bo'lib qoldim. Soat ikkilar, uyga qaytmoqdaman; yurak quvonch bilan uradi; men sevganlarimni bag'rimga bosaman. Eshiklar ochiq – meni kutib olishga hech kim chiqmaydi. Oh, mening qadrdonlarim! Siz meni tashlab ketdingiz.

Hamma joy bo'sh – yoqimli sukunat! Hukmron yolg'izlik! Men bir paytlar sizlardan panoh izlagandim; yuragimga alam va umidsizlik cho'kkanda, aql haqiqatni izlashga intilganda sizlar menga hamroh bo'ldingiz; sen endi menga chiday olmaysiz!

Men yolg'iz qolishim mumkin emas edi, uydan boshim oqqan tomonga yugurib chiqdim va hech qanday maqsadsiz shahar atrofida uzoq vaqt aylanib yurib, nihoyat ter va charchoq bilan uyga qaytdim.

Men shoshib o'rninga yotdim va – oh, baxtli befarqlik! Uyqu qovoqlarimni yumishi bilanoq, do'stlarim ko'zlarimga o'zlarini taqdim etishdi va uxlab yotgan bo'lsalar ham, tun bo'yи xursand bo'ldim: chunki men ular bilan gaplashayotgan edim.

Yakshanba

Tong odatiy shovqin-suron bilan o'tdi.

Men hovlidan yurib boryapman, odatda, do'stlarim bilan birga bo'ladigan uyga boryapman. Ammo – va mana, bu yerda ham men yolg'izman. Meni g'amginlik ajralmasdan ta'qib qilib, mendan eng lozim bo'lган odob qoidasi – salomni ham tortib oldi, meni deyarli kar va soqov qildi. O'zimga ham aytib bo'lmaydigan yuk ostida, suhbat qurgan odamlarim bilan kechki ovqat vaqtini o'tkazdim; men uyga borishga shoshilyapman.

Uygami? Sen yana yolg'iz qolasan, mayli, yolg'iz qolay, lekin yuragim bo'sh emas va men bitta odamning umri bilan yashamayman, do'stlarim ruhida yashayman, yuz barobar yashayman.

Bu fikr meni tetiklashtirdi va men quvnoq ruh bilan uyga qaytdim.

Ammo men yolg'izman – mening baxtim, do'stlarim xotirasi bir lahzalik edi, mening baxtim esa orzu edi, xolos. Do'stlarim mening yonimda emas, ular qayerda? Nega jo'nab ketishdi? Albatta, ularning do'stligi va muhabbatining harorati shunchalik past darajada ediki, ular meni tark etishlari mumkin edi!

Baxtsiz! Nima deding? Qo'rq! Bu momaqaldiroq so'zi, bu sizning farovonligingiz o'limi, bu umidingizning o'limi!

Men o'zimdan o'zim qo'rqardim va o'zimning huzurimdan tashqarida hech bo'limganda osudalikni topish uchun chiqib ketdim.

Dushanba

Tashvishim kundan kunga kuchaymoqda. Bir soat ichida yuzta tashvish boshda, yuzta istak qalbda tug'iladi va barchasi bir lahzada yo'q bo'lib ketadi.

Nahotki odam faqat o'z hissiyotlarining quli bo'lsa, uning aqli juda bezovta bo'lgandagina biroz miltirab qo'ysa? Oh, mag'rur hasharotlar! O'zingizga teginib ko'ring, aqlingizning boshi barmoqlaringizdan va yalang oyoqlaringizdan kelib chiqqanligini his qilgанинг үчун mulohaza qilishingiz mumkinligini bilib oling. O'zingizning mulohazalarингiz bilan mag'rurlaning, lekin birinchi navbatda o'rningizdan turing, shunda biror tig' sizga tegmaydi va shirinlik sizga yoqimli bo'lmaydi.

Ammo qayg'ularimga bir lahzalik bo'lsa-da, tasallini qayerdan qidirsam bo'ladi? Qayerdan? Tafakkur aytadi: uni o'zingdan izla. Yo'q, yo'q, bu yerda men halokatni topaman, bu yerda qayg'u bor, bu yerda do'zax; ketdik.

Mening oyoqlarim sokin bo'lib bormoqda, qadamlarim esa suzayotganday – biz boqqa kiramiz, umumiyl sayrgoh – yugur, yugur, baxtsiz, ular sizning barcha qayg'ularingizni peshanangizda ko'rib turishadi.

Mayli, ko‘rishaversin.

Lekin undan nima foyda? Ular senga achinishmaydi. Sening yuragingni tushunadiganlar yoningda yo‘q.

Yana yuramiz.

Izvoshlar to‘plami – tomosha maydoni, *Beverlini jazolashadi* (197), kiramiz. Baxtsizlar uchun ko‘z yosh to‘kamiz. Balki mening qayg‘ularim kamayar.

Nega men bu yerdaman?.. Ammo tomosha e’tiborimni tortdi va fikrlarim ipini uzib yubordi.

Beverli zindonda – oh! Butun umidingni tikkan odamingdan al-danish qanchalar og‘ir!

U zahar ichadi – sizga nima ahamiyati bor?

Ammo uning o‘zi o‘z baxtsizligining sababchisi – menga o‘zim o‘zimga yomonlik qilmasligimga kim kafolat beradi?¹ Kimdir dunyoda qancha tuzoq borligini hisoblaganmi? Ayyorlik va hiylanayrang tubini kimdir o‘lchaganmi?.. U o‘lmoqda... lekin u baxtli bo‘lishi mumkin edi.

Oh! Yugur, yugur.

Mening baxtimga, ko‘cha o‘rtasida tentirab yurgan otlar meni yurgan so‘qmog‘imdan chekinishga majbur qildi, fikrlarimni buzdi.

Uyga qaytdim; issiq kun, meni haddan tashqari charchatib, qattiq uyquga ketishimga sabab bo‘ldi.

Seshanba

Men juda uzoq vaqt uxladim – sog‘lig‘im deyarli yomonlashgan edi. Men to‘shakdan arang tura olardim – yana yotdim, uxbab qoldim, kunning deyarli yarmini uxbab o‘tkazdim, uyg‘ondim, boshimni bazo‘r ko‘tara olardim – vazifam mendan jo‘nab ketishni talab qillardi, bu mumkin emas, lekin ishdagi muvaffaqiyat yoki muvafqaqiyatsizlik bunga bog‘liq, sening vatandoshlarining farovonligi yoki zarar ko‘rishi shunga bog‘liq – lekin behuda.

Men shunchalik befarq edimki, agar ular menga yotgan xonam tez orada yonib ketishini e’lon qilish uchun kelishganida ham o‘rnimdan qimirlamagan bo‘lar edim.

¹ Bu bir necha yildan so‘ng amalgal oshdi (1811-yildagi nashrdan eslatma).

Ovqatlanish vaqtি bo‘ldи, kutilmaganda mehmon keldи.
Uning borligи meni deyarli sabrim chegarasidan chiqarib borardi.
U butun kun bo‘yi men bilan birga bo‘ldи... va ajablanarlisi shundaki,
ziqlik mening xafagarchiligidни biroz tarqatib yubordи, rus mollarни bugun menda haqiqatga aylandи: achchiqni achchiq kesadi.

Chorshanba

Qonimdagи hayajon pasayib ketdi, butun tongni uyda o‘tkazdim. Kayfiyatim yaxshi edi, o‘qidim – bu qanday kutilmagan o‘zgarish! Buning sababi nimada? Oh, mening qadronlarim! Siz mening yonimda bo‘lganiningizda har soat, har lahza nima sodir bo‘lishini jonli tasvirlarda o‘qiyan.

Oh, orzu, oh, joziba! Nega sen uzoq davom etmaysan?

Tushlikka chaqirishmoqda – tushlik qilish kerakmi? Kim bilan? Yolg‘iz!

Yo‘q, meni tinch qo‘ying, ayriliqning barcha og‘irliklarini his qilishim uchun meni tinch qo‘ying. Men ro‘za tutmoqchiman. Men ularga qurbonlik uchun keltiradiganim... nega o‘zingga yolg‘on gapiryapsan? Bunda hech qanday loyiqlik yo‘q. Sening oshqozoning ham kuching bilan birga zaiflashib qolgan va ovqat talab qilishga ham holi kelmaydi.

Ketdik, men bir kun ichida boshqa vaqtда bir soat ichida bosib o‘tishim mumkin bo‘lgan masofani arang bosib o‘tdim – qaytamiz.

Men to‘sagimda yotibman – yarim tun. Ey, insoniyatning g‘ussalariga yupanch bo‘lguvchi! Qayerdasan? Nega meni qatl qilmoqdalar? Nega sen yonimda emassan?

Tongga borib, arang uxlab qoldim.

Payshanba

Yaxshi g‘oya – buni amalga oshiramiz, do‘konchaga kirib, ikkita apelsin va o‘rama non sotib oldim.

Ketdik.

Qayerga, baxtsiz odam?

Volkov qishlog‘iga (198).

Abadiy sukonat hukmronlik qiladigan, aql boshqa tashabbus ko'satmaydigan, ko'ngil istak bildirmaydigan joyda, oldindan so'nggi kunlarimizga beparvolik bilan qarashni o'rganamiz – men qabr toshiga o'tirdim, tushlik zaxiramni oldim, ruhning mutlaq xotirjamligi bilan ovqatlandim.

Yakun topishimiz va chirib bitishimizga oldindan ko'nikib olaylik, o'limni ko'rib chiqamiz – kutilmagan sovuqlik oyoq-qo'llarimni o'rab oladi, ko'zlarim xiralashadi.

Mana, azob-uqubatlarning oxiri – tayyorman... Endi o'lishim kerakmi?

O'zingni o'limga oldindan odatlantirishni xohlagan sen emasming? Ushbu lahza bilan tanishishni xohlagan ham o'zing emassi?... Men o'lishim kerakmi? Men uchun hayotni xohlash uchun minglab sabablar mavjud bo'lganda!.. Do'stlarim mening! Siz ehtimol allaqachon qaytib kelgandirsiz, meni kutayotgan bo'lsangiz kerak; mening yo'qligim uchun qayg'urasiz – va men o'limni xohlashim kerakmi?

Yo'q, aldamchi tuyg'u, sen yolg'on gapiryapsan, men yashashni xohlayman, men baxtliman.

Uyga shoshilaman, yuguraman – lekin hech kim yo'q, meni hech kim kutib o'tirgani yo'q. Men o'sha yerda qolsam yaxshi bo'lar ekan, u yerda tunni o'tkazgan bo'lardim...

Juma

Meni nonushtaga olib borishni buyurdim, ishtahasiz ovqatlandim.

Hech narsa yordam bermaydi – umidsizlik, tashvish, qayg'u, oh, alam qanchalar yaqin! Lekin nima uchun kam xafa bo'lish lozim? Yana ikki kun – va ular, ular men bilan birga bo'lishadi – ikki kun – ey, sen, qalbimning do'stlari bilan ayriliqni vaqt bilan hisoblashing mumkin, ey, sen, yovuz, qo'pol, vahshiy ilon! Ket, biroz sovuqqonlik – yuragim sezmoqda, sen esa muhokama qilasan.

Arang uxbab qoldim... Ey qadrdonlarim! Men sizlarni ko'ryapman – barchangiz men bilansiz, bunga shubhalanmasligim kerak, meni yuragingizga mahkam bosing, mening yuragim qanday urayot-

ganini his eting – lekin nima! Siz meni itarib yuborasiz! Siz nigo-hingizni burib, mendan uzoqlashasiz! Oh, halokat, oh halokat! Bu hayotning o'limi, bu qalbning o'limi.

Qayerga ketyapsiz, qayerga shoshilyapsiz? Yoki meni tanima-yapsizmi, meni, o'z do'stingizni-ya? Do'stingizni... Kutib turing ... qynoqqa soluvchilar ketdi, uyg'ondim.

Qochib ket, ket – bir yer tubsizlik, ular, ular meni o'sha yerga olib bormoqdalar, ular ketishdi, ularni tark et, jasoratli bo'l.

Kimni? Do'stlarimnimi? Tashlab ketaymi? Baxtsiz! Ular sizning qalbingizda.

Shanba

Ajoyib tong – go'yo tabiat yangilandi, barcha jonzotlar yanada shodumon, qalbimda quvonch qayta tug'iladi. Mening qadrdonlarim ertaga qaytib kelishadi – ertaga! Butun yil. Kelinglar, ularga ovqat tayyorlaymiz – bu yerda ular o'tirishadi. Men ular bilan o'tiraman, oh, shodlik! Oh, umid! Lekin ular hali bu yerda emas. Ertaga ular bo'ladi, ertaga mening yuragim faqat bir o'zi urmaydi, agar ular qaytmasa – barcha qon to'xtaydi – qanchalar shubha!

Yo'qol, yo'qol, men baxtli bo'lishni xohlayman, saodatli bo'lishni xohlayman, oh, sabrsizlik! Oh, quyosh o'z yo'lini qanchalar dangasalik bilan yakunlamoqda – uning yurishini tezlashtiraylik, uning hasadgo'yligini masxara qilaylik, uxbab qolamiz, men yotib, quyosh botguncha uxladim, uxbab qoldim va uyg'ondim.

Yakshanba

Quyosh chiqqunga qadar – oh, orzu qilgan kun, ey baxtli kun! Azoblarim muddatidan oldin jon berdi. Xush vaqt keldi. Do'stlarim! Bugun, bugun sizni bag'rimga bosaman.

Men ozgina ovqatlandim, uchrashuvimizni tezlashtiramiz, tezlashtiramiz, oh, agar ular biroz zerikib qolishsa, menga qanday bo'ladi? Oh, agar ular mening azobimning aks sadosini o'z qalballida his qilishlari mumkin bo'lsa, ular meni bir necha soat oldin ko'rgani kelishsa qanchalar yaxshi bo'lar edi – biz ularni kutib olishga boramiz – qancha tezroq borsam, ularni shuncha tezroq ko'raman.

Mana shu xushomadgo'y umid bilan men pochta stansiyasiga qanday yetib borganimni bilmay qoldim.

Soat to'qqiz bo'ldi – ular hali kelishmayapti, ehtimol biror to'siq bordir – kutamiz. Hech kim kelmaydi.

Qadrdonlarim menga bergen so'zlarining ustidan chiqishmaganidan so'ng, kimning so'zlariga ishonish mumkin? Dunyoda kimga ishonish mumkin? Hamma narsa o'tdi, zavq va shodliklarning maf-tunkor pardasi tushdi; tashlab qo'yildi. Kim tomonidan? Do'stlarim tomonidan, qalbimning do'stlari tomonidan! Shafqatsizlar, nahotki shuncha yillik yaqnligingiz, mehringiz, do'stligingiz va muhabbattingiz yolg'on bo'lgan bo'lsa?

U nima dedi? Baxtsiz! Va agar bugun biron-bir jiddiy sabab sizning uchrashuvningizga to'sqinlik qilsa nima bo'ladi? Qanday bezorilik! Uning amalga oshmasligidan qo'rqing! O, qayg'u! O, ayriliq! Nega, nega men ular bilan ajralib qoldim? Agar ular meni unutishgan bo'lsa, o'z do'stlarini unutgan bo'lsalar, o, o'lim! Kel, orzu qilganim – qanday qilib odam yolg'iz qolishi mumkin, tabiatda zohid bo'lishi mumkin!

Ammo ular kelishmoqda – ularni o'z holiga qo'yamiz – xohlagan paytda kelishsin! Men buni befarq qabul qilaman, chunki ularningsovuoqqonligi uchunsovuoqqonlik bilan javob qaytaraman, yo'qligiga yo'qlik bilan – biz shaharga qaytamiz; baxtsiz, siz yolg'iz qolasiz; mayli, yolg'iz qoling; lekin mening ortimdan kim kuzatib bormoqda? Ular – yo'q, ularning toshga aylangan yuraklari hissi-yotini yo'qotgan; ular bugun qaytish haqidagi va'dalarini unutdilar; ularni kutib olishga borishimni unutishdi; meni unutishdi.

Mayli, unutishsin; men ham ularni unutaman...

Dushanba

Ular yo'q, men esa yolg'izman! Kim yo'q? Do'stlarim... Mening do'stlarimmi? Dunyoda endi do'stlar yo'q, negaki ular mening do'stim bo'lishni xohlamadilar; nega ularni kutish kerak?

Boshqa shaharga jo'nab ketamiz – ular hammani kutishsin; lekin bugun kech bo'ldi, ertaga buni amalga oshiramiz.

Kechirasiz, yolg‘onchilar, kechirasiz, hissizlar, kechiring... Qayerga ketyapsan, bebaxt? Agar saodatni o‘z uyingda topmasang, uni yana qayerdan topish mumkin?

Ammo men tashlab ketildim – lekin men yolg‘izman, yolg‘iz – yolg‘izman!

Izvosh to‘xtadi, ular tushib kelishadi, o, quvonch! O, baxt! Mening sevimli do‘stilarim!.. Ular!.. Ular!..

Daktiloxoreik qahramonning¹ yodgorligi

yoki yosh yigitning o‘z ustozi bilan ilm-fan olamida sharafli bo‘lgan inson NN ning ijodini yoqlovlchilar tomonidan qahramonlik poemasidan olingan parchalardagi noshe’riy jumlalar tarkibida tavsiflangan dramatik rivoyatlarga oid suhbatlari.

Old so‘z, kirish so‘z, oldindan tushuntirish, oldindan ... va shunga o‘xshash boshqa hamma narsalar

Men kutubxonamning she’riyat bo‘limi, kitoblar ombori, kitob saqlanadigan joylarni to‘ldirish uchun yaqinda «Telemaxida»ni soitib oldim; men uni bir marta ochdim (tantanali qo‘shiqlarni o‘qish chog‘idagi tanaffus vaqtida), undagi varaqlarni ko‘rib chiqdim va ajablanib, bir nechta o‘rtacha she’rlar, juda ko‘p ajoyib she’rlarni chidab bo‘lmas darajada yomon deb topdim... – endi sizni ham hayratda qoldiray – men yaxshi she’rlarni ham topdim, lekin ozgina, juda oz. Ayni shu daqiqalarda oldimga tanishim N keldi... U qo‘lida *Kotsebuning* (200) «Otamning hayoti» asarini ushlab turardi. Miyamda bir fikr chaqnab ketdi va men yuqorida aytib o‘tilgan kitob singari va yoki shunga o‘xshash bir nechta asarlar asosida «Telemaxida»ning shu qadar kamsitish va nafratga duchor bo‘lgan ijodkori sharafiga biron-bir narsani yozishni o‘z zimmamga oldim; men do‘srimdan qo‘liga pero olib, unga aytadiganlarimni qog‘ozga

¹ *Daktiloxoreik* – she’r vazni, she’r tuzilishi.

tushirishini iltimos qildim – va avval bu og‘ir yukli qasidaning va-raqlarini birma-bir ko‘rib chiqib, quyidagi so‘zlarni aytdim:

1. Kirish, «Telemaxida» nimagadir yaraydi, hech narsaga yaramaydi.

2. Amaki, bo‘ron, tegirmon to‘g‘oni, bochkachadagi uzum, dala-lar, billur do‘kon.

3. Tush ko‘rish, yelkanlarda kema, tog‘lar, tepalik, sichqon, ti-niq ko‘zlar, qizil og‘iz, mana shu, bo‘ronli va jigarrang, samoviy sayyora, olovli ilon, Nikola Podkopay, Moskva kiyimlari, qizil is-siq nimcha, tilini tishladi, ostona, Faleleyjon, mening otam, ombor, payg‘ambar Vaalam.

4. Simbaldaning portreti, uylanish ovi, novda bilan savalash, Don-Kixot, dahshatli g‘or, yerosti hukumati, temirchi, ahmoqlar qanday mazax qilinadi, loy, guruh, yaramas, Lukerya, Yenkelad, o‘rnidan turolmadi, oxiri.

5. Vaqt, barbaradagi sillogizm, sharhlar, belanchak bilan, asalari-
lar qahramoni, darbadarlik, sud maslahatchisi, bosh va bob, xo‘roz,
pisht, Zevs, tugun, shaytonlar, Ovidiy, to‘nkaga turdi va omin.

6. Xulosa yoki «Telemaxida»ning maqtovi, olti turoq.

Ushbu so‘zlarning barchasini VI sonlarga qo‘sib yoki alohida
olib, «Telemaxida»dan olingen tafsilot bilan, har bir narsaga biroz
bog‘liqlik berib va rus tilidagi olti turoqli misralar, munosib yirik
qasidalar haqida bir nechta sharhlar yozib, men quyidagi tadqiqot,
qidirish, izlash yoki... biron-bir ahmoq narsa... yoki yodgorlikni tuz-
dim.

O‘quvchi! Agar siz kamida bir marta tabassum qilsangiz, demak,
men allaqachon o‘z maqsadimga erishganman.

1

Kirish

«Telemaxida» nimagadir yaraydi, hech narsaga yaramaydi.

B. va P. o‘rtasidagi suhbat

B. Sizning «Telemaxida» yaratuvchisiga nisbatan salbiy fikrla-ringiz o‘ta kuchli. Agar siz bu kitobdagi uydirmalar unga tegishli emas, undagi keraksiz va qahramonlarning bedob qo‘shiqlari, zaif

va cho'zilib ketgan qismlari... uchun u javob berishga majbur emas, deb hisoblasangiz, u holda u faqat Fenelonning Telemakini ehtiros bilan seuvuchchi, unga rus chakmonini kiydirmoqchi bo'lgan, ammo bichiqchi sifatida unga urfdagi ko'rinish berolmay, bezak sifatida qo'ng'iroqchalar osib qo'ygan odam sifatida baholanishi kerak.

P. Ammo uning bema'ni she'riyati, nutqni qayta tashkil etishi juda g'alati, juda ahmoqona, juda kulgili.

Ushbu kitob o'rama qog'oz kabi yoki boshqa biron-bir istagan narsangga yarasa yaxshi bo'lardi, deb o'ylashning iloji yo'q.

B. Siz aytganlarning hammasiga qo'shilaman, siz «Telemaxida»ni o'qiganmisiz?

P. Siz uni o'qidingizmi? Bunday savolni kulmaslik uchun berish mumkinmi? Yoki siz meni uxlamoqchi, deb o'layapsizmi?

B. Uxlamoqchi? «Telemaxida» *Sidengam suyuq laudanining* (201) o'rnini bosa olmaydimi?

P. Albatta, yo'q. U hech narsaga yaramaydi, uyqusizlikdan past-roq. To'g'ri, ko'plab rus asarlari (va undan ham ko'proq she'riyat) uxlatuvchi damlamalar o'rnini bosishi mumkin, ammo «Telemaxida» emas.

B. Bu masalada sizning fikringizga qo'shilishim mumkin. Ammo siz hali uni o'qimadingiz, shu bois qat'iy xulosa chiqarishga shoshilmang va uning qaydlar qismiga imzo chekmang, chunki (qaysidir mashhur yozuvchi aytganidek) ichidan biror yaxshi narsa topilmagan bunday yomon insho yo'q.

P. «Telemaxida»da nima yaxshi bo'lishi mumkin? Va men haqiqatan ham mening fikrimga zid bo'lgan fikringiz borligiga ishonmayman.

B. Men u haqiqatan ham butunlay befoyda emas deb o'layman, agar u sizni qoniqtiradigan biror narsaga yaroqli ekanligiga ishontira olsangiz, agar «Telemaxida» yaratuvchisi sizni tabassum qilishga majburlay olsa, u holda unga toj tayyor.

P. «Telemaxida» bilan tabassum qilishga majbur qilish imkoniyati bo'lganiga ishonolmayman. Sizni esnashga majbur qilishi mumkin, qulorra qadar esnashga.

B. Ko'pchilik asarlar bizni esnashga majbur qiladi; ammo boshqa esnatadiganlar o'ziga mos, aytgancha, ba'zida bu tabassumga

o‘xshab ketishi mumkin, lekin quyidagilarni o‘qing, keyin yana «Telemaxida» haqida gapira boshlaymiz.

2

Amaki, fransuz va chuxon tillari, biryulki o‘yini¹, ilvasin, ertak, bo‘ron, hashamatli hayot, tegirmon to‘g‘oni, ustunlar va butlar, bochkachadagi uzum, dalalar, billur do‘kon, ya’ni billur idishlar sotadigan do‘kon, yashil ko‘rpa.

Solnomachilarida Mitrofan Prostyakovning bo‘ydan ham qisilgan, aql-zakovatdan ham qisilgan, ammo tug‘ilganidayoq kichkina bo‘lgan Faleley ismli ukasi borligi aytildi; katta o‘g‘lini tarbiyalashda muvaffaqiyatsizlikka uchraganini ko‘rgan onasi, enaga Yeryomovna o‘rniga uni kichik amakiga topshirdi, biz uni baracha amakilar ichida eng sharaflisi – Simbalda nomi bilan ataymiz; Prostyakova xonim ilgarigi barcha o‘qituvchilarni uyidan haydab chiqaradi: Kuteykin fuqarolik xatlaridan xabari yo‘qligi va Simbal-daning o‘zi Faleleyga o‘qish va yozishni o‘rgatishi uchun; Sifirkin hisob-kitoblarni biladigan arifmetikaga umuman ehtiyoj yo‘qligi uchun; Vralman (hatto Vralmanni ham haydab yuborishdi!), uning o‘g‘li barcha chet el fanlari va tillariga kamroq qaramlik bilan o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun (garchi fransuz tili bo‘lmasa ham, Prostyakov dehqonlari qatnaydigan Lyuteran cherkovi ruhoniysidan qadimgi fin xalqining tilini o‘rganishi mumkin).

Ko‘rinib turibdiki, Prostyakovlar vasiylikdan xalos bo‘lishdi (o‘zlarining qo‘l ostidagilar bilan qilgan harakatlarining shafqatsizligi uchun hukumat tomonidan, o‘smir yoshlar bilan tuzatish ishlarini olib borish maqsadida topshirilgan edi), qishloqlarini sotish uchun ruxsat so‘rab olishdi va buning uchun olingen pulga ular *Koporedagi* (202) Narengof qo‘rg‘onini sotib olishdi, u yerda dehqonlar yarim ruslar, yarim finlar yoki chuxontlardan iborat edi. Shunday qilib, Rossiyadek ulkan davlatning bir burchagida o‘zlarining krepostnoylariga nisbatan shafqatsiz munosabati bilan tanilgan bo‘lishsa, boshqa bir burchagida yaxshi odamlar singari yashashgan va qo‘snilaridan

¹ *Biryulki o‘yini* – yog‘ochdan qilingan mayda-chuyda narsalarni ayqash-uyqash uyib, ilmoq bilan birin-ketin qimirlatmasdan olish o‘yini.

o'rgangan yangi marosimlarni ular yashagan joylarning marosimlari bilan taqqoslashgan, ular (o'z fikriga ko'ra) shafqatsizlikda nohaq ayblanganliklarini aniqladilar.

Faleley tantiq, lekin katta akasi kabi emas. U allaqachon qo'g'irchoqlar bilan o'ynashni to'xtatgan, u qamchidan va onasidan qo'rqrar edi, zero ota-onasining mehr-muhabbati hali undan bilim olish istagini olib tashlamagan, uni mukammal ahmoqqa aylantirmagan yoki aniqroq aytganda, hali uni ahmoqlik yoki havoyi odam yo'liga solmagandi. Simbalda janob Prostyakovning unga meros bo'lib o'tgan hovlidagi xizmatkori edi. U bir vaqtlar o'qishni va yozishni o'rgangan, sharob yoki araq ichmagan... lekin uning eng yaxshi xislati soddaligi edi.

Uning sobiq xo'jayini ham savodli edi, bir nechta kitoblari bor edi, ularni faqat bayram kunlari o'qigan, boshqa kunlari odatiy qarta o'yini bilan band bo'lgan, ammo o'limidan sal oldin u barcha kitoblarni qartaga yutqazib qo'ydi, chunki u ularni olib yurish kerak emas deb hisoblagan, faqat «Telemaxida»ning ikki jildini qoldirishgandi. Bu kitobni esa, uni olib borgan odamning xonadoniga chidab bo'lmas darajadagi ziqlik olib kirishidan qo'rqib, hech qanday narx evaziga garovga olishni istashmadni: unda buyuk Yaratganga nisbatan xurofot shu qadar katta edi. Shunday qilib, «Telemaxida» Simbalda qo'liga tushdi. U shu paytgacha Prostyakovlar uyida mavqega ega bo'lмаган (sayroqi qushlariga qarash va ularning qafaslarini tozalashga mansabning muhim nomi berilishi mumkin emas, garchi u sa'valarga bo'lgan g'amxo'rligi uchun Faleleyning amakisi nomiga sazovor bo'lgan bo'lsa ham); hech qanday lavozimga ega bo'lмаган Simbalda bekorchilikdan va zerikkandan «Telemaxida»ni qayta va qayta o'qidi, uni shu qadar yod oldiki, agar senzura unga nisbatan nazoratini oshirib, o'qishni taqiqlaydigan bo'lsa, u Tiveriy-Sezar vaqtidagi Kremutsiy Kord singari: «Meni ham taqiqlang», deyishi mumkin edi.

Simbalda faqat yaxshi va diqqat bilan o'qishi mumkin edi, u ko'p marta va diqqat bilan o'qigani bois, kitobsiz ham o'qishi mumkin edi; u bir chiziqqa tizishdan boshqacha yoza olmasdi, turardi. U Faleleyga amaki va professorlik unvonini olib, unga nimanidir o'rgatishga majbur bo'lgan va «Telemaxida»dan o'zga hech narsa-

ni bilmaganligi uchun, u o‘z o‘quvchisiga ko‘rsatmalarini Afinadagi ba’zi qadimgi faylasuflar singari o‘rgatmoqchi bo‘lgan, ya’ni *sayr paytida suhabatlar orgali ta’limot berish* (203).

Shunday qilib, Russo va Bazedovning hissiy ta’limotning nafisligi haqidagi fikriga duch kelib, Emili bilan may va iyun oylarining yorqin kunlarida uylaridan oliga sayr qilgani ketardilar. Yoki noqulay ob-havo ularga o‘rmonlar, o‘tloqlar, dalalarda Emilga monand tasavvurni yaratishga monelik qilgan paytda, ularning xonasasi «Filantropiya»ga¹ aylanardi, u yerda faqat Volke va Bazedovlar o‘zlarining boshlang‘ich, tabiiy kitoblari va ularga kerakli bo‘lgan suratlari bilan yetishmasdi, xolos. Aks holda Narengof qo‘rg‘oni ham, Germaniyadagi mana shu sharafli pedagoglari bilan tanilgan bilim yurti kabi Yevropada shu qadar mashhur bo‘lib ketar edi.

Bir marta, kuzning qaysidir yomg‘irli bir kunida, Faleley amaki si bilan xonasidan hech qayerga chiqmadi va uzoq vaqt biryulka bilan o‘ynashdan zerikdi (biryulkani hissiy tarbiyada qanday ishlatalish mumkin edi, buning tavsifini Simbalda nashr etishni va’da qildi), Faleley va Simbalda odatdagidan erta yotishdi.

Faleley uzoq vaqt yotib, u yoqdan bu yoqqa o‘girildi:

– Amaki, amaki!

Simbalda

Nima bo‘ldi, otaxon, nega uyqu bermayapsan? Ertaga, aftidan kun quruq bo‘ladi, yomg‘ir ham yog‘ishdan to‘xtadi; ertalab barvaqt turib, qayinzorga boramiz.

Faleley

Siz istaganday, uyqum kelmayapti, amaki. Bu o‘yin miyamga singib ketdi – iltimos, menga ertak aytib bering. Enaga Yeryomonna akam Mitrofanni har doim ertak aytib uxlatgan: *qandaydir Finist oydin par* (204), Fomka, Timonya, Bova haqida... Amaki! Siz axir o‘qishni bilasiz-ku. Iltimos, aytib bering, men tezroq uxbat qolaman.

....

*(Muallifning qog‘ozlari orasida amaki bilan bo‘lgan hikoyalar topilmagan)*².

¹ *Filantrap* – saxovatpesha, insonparvar (*tarj.*).

² SOS nashriyoti ilovasi. – *Nashr*.

Faleley

Yo‘q, amaki, Moskvada qo‘g‘irchoq teatrlari yog‘ochdan qilin-gan. Esingizdamni, Rojdestvo bayrami haqida tomosha qilgandik. U yerda qanday yaxshi!..

Simbalda

«Devorlari yosh uzum bilan o‘ralgan, egiluvchan novdalarini hamma yoqqa yoyib ...»

Faleley (*sakrab, karavotga o‘tirdi*)

Amakijon! Ertaga onajonimizdan uzum so‘rang, men ko‘rdim – ular unga Moskvadan butun bochkada olib kelishdi; ammo endi u menga hech narsa bermayapti: sen ham Mitrofan singari bu-zilib ketasan, deyapti.

Simbalda (*davom ettirib*)

«Hayot baxsh etuvchi Zefirlar quyosh jaziramasidan mo‘tadil salqinliklari bilan saqlar edilar. Sokin chuldirab, gullab-yashnayot-gan dalalardan soylar oqib o‘tardi va billur singari mavjlanardi».

Faleley

Esingizdamni, amaki, biz billur do‘konida bo‘lganimiz, lekin u yerda billur suvni ko‘rmadim.

Simbalda (*sabrsizlik bilan*)

Uxla, Faleley. (*U shoshib gapiradi*) «Turli xil rangdagi gullar yashil to‘saklarida yastanib yotardi...»

Faleley

Bilaman, amaki, bilaman: onamning yashil shtofdan qilingan to‘sagi bor.

Simbalda

Uxla, bo‘lmasa ertagimni to‘xtataman (*juda tez gapiradi*). «Qayinzorga quyosh nurlari tushmasdi. Bu yerda qushlarning sayrashi va o‘tloqlar bo‘ylab yugurib, uzoqlarga shoshgancha ko‘pirib oqab borayotgan suvning shovullashi eshitilib turardi».

Simbalda Faleleyning uxlab qolganini sezib, ertagini to‘xtatdi. To‘g‘risini aytganda, u ertaklarni qanday boshlashni bilmas edi va shuning uchun jumlalarida bog‘liqlik yetishmasdi. U nihoyat Faleleyni uxlatganidan mamnun bo‘lib, o‘zi ham yotdi. «Telemaxida»dan

chiqib kelgan ko'knor bug'lari ko'p o'tmay uning qovoqlariga o'z yukini tashladi va u Tredyakovskiyning uyqusiragan misralari kabi, yana bir narsaga o'xshab..., u haqida keyin gaplashamiz, baland ovozda xurraq otgancha, uxbab qoldi.

3

Tush, yelkanli kema, tog'lar, tepalik, sichqon, tiniq ko'zlar, lablari qizg'ish, o'sha, bo'ronli va jigarrang, samoviy sayyora, olovli ilon, Moskva kiyimlari, qizil issiq nimcha, tilini tishlab oldi, ostona, Faleleyjon, mening otam, ombor.

Tong... Simbalda uyg'onib, ko'ngli g'ashlandi. U tush ko'rdi va tush uni tashvishga solib qo'ydi. Tarixdagi va ertaklardagi eng yaxshisi aralashib ketdi – afsuski, hozirgacha mening oldimda umumiy hikoya yo'q. Stolim ustida Rasin, Shekspir va taniqli «Rossiyada» yotibdi. Keling, ulardan misollar keltiraylik. *Rasinda yosh Ioazning obrazini ko'rib, hayajonga tushgan Afaliya* (205), kun bo'yi ko'ngli g'ash bo'lib, mo'jiza ro'y berishiga ishonmaydigan aqlning dalillari bilan ruhni tetiklashtira olmaydi.

– Nahotki, – deydi u, – men tushga ishonamanmi?

Ammo ruh unda titroqqa tushadi.

Shekspirdagi yovuz Richard tushdagи xayollardan cho'chib, o'rnidan sakrab turib ketadi.

– Otni keltiring, otni keltiring! – deydi u. Uning tushiga Richmond kirgandi va u o'zining o'limini «Rossiada»da ko'radi... Endi yetarli, «Rossiada»ning tushlari haqida esa boshqa payt gaplashamiz.

Simbalda, uning ruhi tushlari bilan chalkashib ketdi...

Savol: Lekin u nimani ko'rdi?

Javob: Biroz kutib turing: Faleley hali ham uxbab yotibdi – lekin mana, u qimirlay boshladi va kerishyapti; u tez orada uyg'onib qoladi, deb umid qilamiz. Shunday qilib, kuting, chunki Simbalda o'zining ajoyib nutqini biz uchun so'zlamaydi, biz uchun emas, balki o'n yetti yoshli bola Faleley uchun aytadi. Simbalda tushlarga ishonishini, tushlarning ta'birini yaxshi biladigan kishilarni u qanchalar hurmat qilishini va o'zi ham tushlar ta'biri to'g'risida nashr etilgan

kitobchani o‘qib, tushlarni ta’birlashni birmuncha o‘rganib olganligi mayli, hamma bila qolsin. Iqtidor kichik emas! Uni yigirma oltin grivnaga¹ yoki butun bir rublga omborida zarhal va turli sharlar bilan bezab tashlangan rizadagi (206) *Ch...ning «Lirik xabar»i (to‘liq jidda)*, (207) N...ning «Qishloq xo‘jaligi», R...ning «Pazandachilik lug‘ati», K...ning «She’rlar»i (ular orasida uning ajoyib tarjimasi «A – i» ham bo‘lib, ko‘rinib turibdiki, chop etishga ruxsat etilmagan), «Telemaxida», K...ning «Iyerixon»i va boshqa-boshqalar be-huda yotgan Gl... yoki So... dan sotib olish mumkin (208) edi.

Faleley (avval kerishib, keyin ko‘zlarini ochdi)

Amaki! Kecha bo‘ron yoki bulut bilan meni shunchalik qo‘rqitdingizki, ular mening tushimga kirishdi.

Simbalda

Tush? Tush? Ey Xudo! O‘zing asra! Otaxon, ularni tushingda sen ham ko‘rdingmi?..

Faleley

Amaki! Nega ko‘zlarining bu qadar chaqchayib ketdi? Men tu-shimda aynan siz hikoya qilib bergen bo‘ronni ko‘rdim.

Simbalda

Meni qiynama, bolaginam, tezroq aytib bera qol...

Biz yozganimizdan o‘quvchi allaqachon Faleley uning akasi Mitrofan singari ahmoqlik qilmasligini anglab olgan bo‘lishlari kerak; to‘g‘ri, uning mulohazalarini, albatta, aqli deb bo‘lmaydi, lekin uning xotirasi bor edi. Odamlar orasida faqatgina «Xudo, mendan shafqatingni ayama» yoki boshqa shunga o‘xshash biror narsani yodlab olganlarning ko‘pchiligi bizga ma’lum, ular bu dunyoda shu kabilarning oxirgilarini ham emas. Shunday qilib, Faleley amakisining «Telemaxida»dan olgan bir nechta iboralarini xotirasida to‘plab, o‘z tushini quyidagi tarzda so‘zlab berishni boshladi:

«Men yaxshi bir kemada yoki qayiqda o‘tirgan edim ...» – Amaki! Kema yoki qayiq nima? Otamning omborida ularga o‘xshash narsa yo‘qmi?

¹ Grivna – pul birligi, bir qadoqcha keladigan kumush yombi (*tarj.*).

Simbalda

Kema bu... kema; u... o'ziga o'xshaydi. Qayiq esa... davom et, Faleleyjon, Peterburgga borganingda, sen kemalarni ham, qayiqni ham ko'rasan. Bizning qayiq haqidagi qo'shig'imizda shunday kuylanadi: «O'sha qamishzor ona daryoda suzib borar ikki qayiqcha».

Faleley

«Shamol puflar bizning yelkanimizga...»¹ – Amaki! Yelkanlar nima o'zi? Bilaman, onamning xizmatkor qizlari parusinadan² yubka kiyishadi, aravakash Tarasda esa parusinadan chakmon bor; u chor-poyaga o'tirganda, shamol uni uchirib yuboradi... Kecha men Luke-riyaning etagini shamol qanday uchirganini ko'rdim.

Amaki! Uning yoshi nechada? U judayam yaxshi! Har doim men bilan o'ynaydi.

Simbalda (o'ziga)

Tushga qanday ishonmaslik mumkin!.. (*Baland ovozda*.) Lukeriya bilan nima ishimiz bor. Uni qo'yaver. Tushingda nima ko'rganiningni aytib ber.

Faleley

«Tog'lar bizga kokilchadan ham kichik tuyular». – Amakijon! Tog'larda qanaqa kokilcha bo'lishi mumkin? Men ko'rmaganman. Mitrofanning kaptarlarida kokilchalar bor, Yeryomovnaning ayrim tovuqlarida ham kokilchalar bor; Moskvada izvoshdagi otlarning boshiga ham patkokil taqishadi...

Simbalda

Kokilchalar emas, tepaliklar, deyish kerak...³ bu, – te; odamlar, fikr qiling, unga qo'shamiz, – palik, tepalik bo'ladi; unda, bu, – da, tepalikda; o'ylang, endi – n, ya'ni tepalikdan bo'ldi; tepalik esa – kichik tog'chalar.

Faleley

¹ Telemaxida, VI kitob, 318-she'r.

² *Parusina* – kanopdan to'qilgan qalin mato, yelkan ruscha parus deyilib, parusina so'ziga yaqin bo'lgani uchun Faleley bu mato haqida gapiryapti (*tarj.*).

³ Kokillar emas, tepaliklar deyish kerak – bu yerda kokilcha rus tilida «хохолок» bo'ladi, kokilchali – «хохолком» deyiladi; tepalik esa «холмик», tepaliklardan – «холмиком» bo'ladi. Faleley o'xhash bo'lgani uchun «холмиком» so'zini yanglishtirib, «хохолком» deb yoki o'zbekcha ifodalaganda tepalikni kokilcha deb aytmoqda (*tarj.*).

«Hamma sichqonlar...» Amakijon! Iltimos, mushukni toping, sichqonlar mening onam bergen mindalli pirogimning bir qismini yeb qo‘yibdi.

Simbalda

Sichqon emas, janob, burun¹. Ya’ni dengizdagi burun, qirg‘oqning suvga bo‘rtib kirgan joyi.

Faleley

Amakijon! Men burun nima ekanini bilmayman: «Barcha burun va barcha qirg‘oqlar ko‘zdan yiroqlashdilar» (*Faleley, hikoyasini bo‘lib, sekin kuylaydi*). «Tiniq ko‘zlar, qizil lablar, yuzlari oppoq». (*Biroz sukut qiladi*.) U... u. Amakijon! «U» nima degani?

Simbalda (jiddiy)

«U» degan so‘z bor.

Faleley

Bilaman, amakijon, u nima ekanini. «Birdan u hushtakboz qo‘ng‘ir ko‘k osmonni xiralashtirib yubordi». Qanday, amakijon, qo‘ng‘ir hushtakboz bo‘lishi mumkin? Oshpaz Semka – zo‘r hushtakboz; ayg‘ir ot esa – qo‘ng‘ir, uni otam minish uchun yarmarkadan sotib olgan.

Simbalda

Qo‘ng‘ir (бурый) emas, bo‘ron (бурной)...

Faleley (shoshilgancha uning so‘zini bo‘lib)

Amakijon! Kimdir osmonda bo‘lganmi?.. U yoqqa qanday boriladi?

Simbalda

U yoqqa qanday borishadi, bilmayman (ma’zur tuting, agar Simbalda havo sayohatlarini eslolmagan bo‘lsa, Ikara, Mongolfyer, Blansharda va boshqalarni unutgan yoki ularni bilmaydi), ammo taqvimga qara, unda osmon haqida xuddi yerda bo‘lgan kabi yozishgan.

Faleley

Haqiqiy mo‘jiza! Menga, amakijon, siz Moskvadagi uyimizda ijarada turganlardan qolib ketgan surat haqida so‘zlab bergandingiz.

Simbalda

¹ Sichqon emas, burun. – Bu yerda ham sichqon ruschada «мышь», burun «мыс» bo‘ladi. O‘xshash so‘zlar bo‘lgani uchun Faleley ularni chalkashtirmoqda.

Eslayman, unga «*samoviy sayyora*» (209) deb imzo qo‘yilgandi, nima ekanligini esa bilmayman. Unda har turdagи hayvonlar, aysiqlar, ilonlar bor edi...

Faleley

Onajonim gohida osmonda olov purkar ilonlar uchishini aytib berardi.

Simbalda

Tushni unutib qo‘ydikmi?

Faleley

Yaxshi, eshiting: «Dengiz suvi loyqalanib ketdi; kun tunga aylandi – o‘limni namoyon qildi...» Ko‘rganman, amakijon, o‘limning avval yozilganini, keyin esa haqiqiysini, Moskvadagi o‘sha, suratni qoldirib ketgan ijarachida ko‘rganman. Eh, amakijon, u qanday qo‘rqinchli edi! Faqat qovurg‘a, oyog‘i urchuqqa o‘xshaydi, qo‘li qamchiga o‘xshab osilib turibdi, ko‘zi o‘rnida ikkita teshik, burni ham shunaqa, og‘zi hammadan ham dahshatli, naq qulog‘igacha yetadi; tishlarining hammasi tashqarida; otajonim bilan onajonim shu qadar qo‘rqib ketishgan ediki, onajonimni hushsiz holda olib chiqishdi, otajonim esa yeb qo‘yishidan qo‘rqib, u yerdan qochib chiqib ketdi. Shunaqa qo‘rqinchli bo‘lgandiki! Keyin, onajonim ijarrachini keyingi kuniyoq hovlidan olib chiqib tashladi; endi sovuq tanani seskantiradi (*o‘ylanib qoladi*). Amakijon! O‘lim mening xotiramni o‘chirib yubordi va men tushimni unutib qo‘ydim.

Simbalda

Endi, to‘sakdan tur, ovqatlanish vaqtি bo‘ldi ...

Tush amakining xayolidan ketmadi. Uning tushiga Lukeriya kirgandi, u undan Faleleyni olib qo‘yanmish va g‘oyib bo‘lganmish. Simbalda uning tarbiyalanuvchisini uylanish uchun olib qo‘yishlari mumkinligidan qo‘rqardi, bir vaqtlar Mitrofan bilan shunday bo‘lgan. Shuning uchun Simbalda uni sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi va qishloq atrofida sayr qildirish uchun olib chiqdi.

Faleley (*yurgan ko‘yida*)

Amakijon! Nega indamayapsiz? Nimadir so‘zlab bering.

Simbalda (*undan ko‘zlarini uzmay*)

«Biz Afrodita ma’budasiga bag‘ishlangan *Kipr oroliga suzib bordik*» (210)¹.

Faleley

Amakijon! Uyga yetib borganimizdan so‘ng, unda bayram kuni belgilangan diniy taqvimni topib bering.

Simbalda (*o‘z nutqini bo‘lmasdan*)

«Orolga tushayotganimizda biz tinch va osoyishta havoni his qildik, quvnoq va o‘ynoqi kayfiyatda nafas oldik. Dalalar serunum, maftunkor, ammo hamma joy bo‘m-bo‘sh edi, bu yerning aholisi shu qadar mehnat qilishni yoqtirishmasdi. Yasanib olgan ayollar va qizlar Afroditani madh etuvchi qo‘sishq kuylagancha borardilar. Unga qalblarini bag‘ishlash uchun uning ibodatxonasiga borishayotgandi. Yuzlarida go‘zallik, yoqimtoylilik, ma’sumalik, ammo hammasi soxta edi; ularning intilishlari, ularning o‘y-xayollari doimo kiyim haqida edi; ularning o‘rilgan sochlari yelkalariga tushib turardi; soch o‘rimi safma-saf ko‘tarilib borar, kiyimlardagi bezak xilma-xil rangda tovlanib turardi».

Faleley

Siz juda yaxshi hikoya qilib berasiz; yasangan xonimlar kimlar o‘zi?

Simbalda

Yasanganlarning hammasi Moskvada yashashadi, qishloqda esa dehqon ayollar sarafanda, xizmatkorlar fufaykada² yurishadi.

Simbalda sezdiki, Faleley o‘z odatiga qarshi o‘laroq, uning so‘zlarini savollar bilan juda kam bo‘ldi, ko‘zlarini chaqnab turdi, nafas olishi ham tezlashdi. Simbalda garchi qiziquvchan donishmand bo‘lmasa-da, ammo amaliy falsafa eng sodda odamga ham xos bo‘lishi mumkin; u o‘z shogirdida noodatiy o‘zgarishni ko‘rdi, aniq ko‘rdiki, istak ehtimol qalbini bo‘lmasa ham, uning hissiyotlarini bezovta qila boshlagandi. Biroz o‘ylab turgach, o‘z hikoyasini davom ettirdi:

¹ IV kitob, 262-she’r.

² *Fufayka* – issiq to‘qima ko‘ylak.

«Yevxaritada ma'buda Artemidaning kiyimi edi...»¹

Faleley

Artemida emas, amakijon, Artemiy.

Simbalda (hech qanday e'tiroz bildirmay)

«Kiyimlar unga o'zgacha maftunkorlik berdi...»

Faleley (*bo'lib*)

Eh, amakijon, bayram kunlari qizil fufayka kiyishadi, boshlariga qizil ipak ro'mol o'rashadi, bu sizning hamma ma'budalar iringizdan ham yaxshiroq.

Simbalda tilini tishladi va jim bo'ldi; Faleley undan yana necha martalab nimanidir hikoya qilib berishni so'rasha ham, hammasi besamar ketdi. Amakijon unga har zamonda jahl bilan qarab qo'yardi va gapirmasdi.

Bu orada ular darvoza ostonasiga yetib qoldilar. Yakshanba kuni edi; qishloq qizlari bayram liboslarida, to'p-to'p bo'lib, qo'shiq kuylashardi.

Faleley

Qo'shiq eshitish uchun to'xtaymiz, men bilaman, siz qo'shiqlarga juda o'chsiz, – gohida: «*Men bir gunohkorman, qayg'uga cho'kkani*» (211), deb qo'shiq aytishingizni eshitganman.

Ammo amakijon, bir so'z ham javob qaytarmay, ularning yondan o'tib ketdi. Uni avvalgisidan ham battarroq zarba kutib turgandi. Faleley xuddi chopqir tozi kabi tikildi, qizlar orasida uning sevimli Lukeriyasi ham bor edi, uning yoniga uchib bordi; qizni quchoqlab oldi va o'pmoqchi bo'ldi; lekin qiz undan yulqinib chiqib, to'siq oshib qochib ketdi; Faleley uning ortidan quva boshladi; amakijoni esa uning ortidan qichqirib qoldi: «Faleleyjon, otaxonim! (Uning keksa oyoqlari endi tez yugura olmasdi.) Qayoqqa ketyapsan? To'xta!...» Biroq Faleley shamloning qanotida uchardi; u ham, qiz ham Simbaldaning ko'zidan chiqib ketishdi; biroz vaqt o'tib, uni hovli tashqarisida, tomorqada, o'qday yugurib ketishayotganini ko'rdi, unga faqat Lukeriyaning baland ovozda kulayotgani eshit-

¹ IV kitob, 360-she'r.

lardi va Faleleyga tez-tez o'girilib qarayotgani ko'rini turardi. Faleley unga yetib qolgandi; amakijoni g'azab o'ti ichra qo'lini oldinga cho'zdi...; xuddi qachonlardir, qutqarilgan yahudiy xalqini ko'rib, qo'lini ko'kka cho'zgan, unga la'nat o'qigan va halok bo'lgan soxta payg'ambar Valaam kabi, Simbalda ham qo'lini ko'kka cho'zgancha turar, la'nat ham, nafrat ham uning og'zidan chiqmoqqa shay edi. U qizga yetay deb qolgan Faleleyni ko'rdi, u deyarli qizga yetib oldi; xirmon bo'ylab, o'ralar oshib, yugurishdi, u yerda ko'rini turgan bostirma ortida ko'zdan yo'qolishdi. Shu yerda amakijon, yangi Valaam, jazolash kuchiga ega bo'lman holda, bor ovozi bilan baqirdi: «Yordam ber, Xudo!»

4

Simbalda portreti, uylanish istagi, temirchilik ustaxonasi yoki yerosti podsholigiga kirish, ahmoqlardek jig'iga tegishadi, soch bilan o'lim, loy, guruh yoki kichik to'p, turganlarning qulab tushishi, nihoya.

Bizning Simbalda qadimi odam edi¹, boshi katta, sochlari yo'q, peshanasini ajin qoplagandi; uzoq vaqt oppoq soqoli ko'ksiga tuшиб yurdi; qomati tik va baland, ulug'vor, yuzining rangi tiniq va yonoqlari qizil, ko'zlaricha qaqnab turardi; sodda, yoqimli edi; nigohi mulohazakorlik bilan boqadi, kelgusida bo'ladigan voqealarni ichki donishmandlik bilan his etar, odamlarning nima uchun kekkaygan, takabbur va quvnoq ekanliklarini bilardi; yoshlikning o'zagina keksa yoshda yoshlarni yaxshi ko'rganchalik yoqimli bo'lmaydi.

U Faleleyni juda tez yaxshi ko'rib qoldi, uni o'g'lim, deb chiqirdi, u esa Simbalda javoban har doim: «Mening qadrdon otam! Sizni menga Xudo yetkazdi», derdi.

U unga hamisha ko'nglini ochar, ikkilanmasdan, yurak mayli to'g'risida so'zlab berardi².

– Siz meni yuragim mayliga ergashganim uchun, – dedi Faleley, – koyiysiz. Ammo Lukeriyani yaxshi ko'rishimni deb sizdan

¹ II kitob, 338-she'r.

² XXII kitob, 427-she'r.

yashirsam va bizning xayollarimiz uchrashgani, yurak yurakka xabar bergenini yashirib, sizga ma'lum qilmasam, yuragim mendan betin o'pkalar edi. Yo'q, bu ehtiros ko'r emas, yuragim va ruhimga qattiq titroqqa tushmasligi uchun uning nomini tilga olishga qo'rqardim. Vaqt va ko'rmaslik uni xotiradan olib tashlolmaydi, chunki mening muhabbatimadolatsiz emas. Oh, agar men butun hayotimni u bilan o'tkazganimda qanchalar baxtli bo'lgan bo'lardim! Agar ota-onam menga qalliq tanlashga ruxsat berishsa, men unga uylanaman. Menga uning kamgapligi, kamtarligi, yolg'izligi va mehnatsevarligi, onasi vafot etganidan keyin ota-onasining uyiga bo'lgan g'ayrati, bekorchi havaslarga uchmasligi va go'zalligidan bexabarligi yoqadi; u bilan turmush qurgan kishi baxtlidir. Tirik ekanman, uni sevib yashayman. Agar u boshqaga nasib etsa, unda men bir umr armonda va azob ichida qolaman. Men unga bo'lgan muhabbatim haqida uning o'ziga yoki ota-onamga ham emas, faqat sizga aytib o'rtoqlashishni xohlayman».

Simbalda Faleleyning notiqligi qayerdan paydo bo'lidan paydo bo'lidan ajablandi, tuyg'ulari allaqachon alanga olib ulgurganini ko'rib, uni xafa qilgisi kelmadidi; lekin u uning tuyg'ulariga zid gapirmasdan, aksincha, o'ziga qo'yib berishni, unga ta'sir ko'rsatishning boshqa yo'lini qo'llashni va bu haqida hali ota-onasiga aytmaslikni o'yadi. U bunga hamisha ulguradi, ammo ehtimol, unga qadar u Lushkaga uylanish fikridan qaytara olar. Va shunday qilib, u tahdid qilish yoki tanbeh berish o'rniga, buning Faleleyga qanday ta'sir qilishini ko'rishni istab, Lukeriyani osmonga ko'tarib maqtay boshladi.

– O, Faleley! Men senga qarshilik qilmayman: kamtar va oqila Glitseriya seniki; uning qo'llari, albatta, mehnatdan bosh tortmaydi; qanday qilib sukut saqlashni biladi; har doim jismoniy mehnat bilan shug'ullanadi; ota-onasining uyida ham tartib ko'rib o'sgan va u agar bo'yansa, yanada go'zal bo'lib ketadi. Uni qishloqdagi hamma yaxshi ko'radi, chunki unda hech qanday qaramlik, qaysarlik, yengiltaklik va o'zboshimchalik yo'q; bir qarash bilan tushunib oladi.

Sen haqsan, Faleley, Lukeriya – bu xazina va eng munosib kuyovlarga loyiqlidir. Bezaklar-u taqinchoqlarga uchmaydi; uning fikrlari tez, ammo o'zini tutib turadi: u zarur va kerak bo'lgan narsadan o'zgasini gapirmaydi va so'z aytmoq uchun og'zini ochganda, un-

dan faqat muloyim va yoqimli jumlalar chiqadi. Shunday qilib, Lukeriya hukumatsiz va hatto go'zalliksiz ham, turmush o'rtog'ining yuragiga egalik qila oladi. Men takrorlayman, Faleley, unga bo'lgan muhabbatning juda to'g'ri; lekin biroz kutishing kerak, ota-onang al-batta bunga rozi bo'lishadi».

Simbalda nutqini davom ettirar ekan, Faleleyning yuzida quvonch birday jonlanib, jilolanib turdi va u bir necha marotaba o'rnidan sakrab turib, amakisining bo'yniga osildi va uni chin yurakdan o'pdi, lekin barcha qo'llab-quvvatlashdan so'ng amakisi u qizga uylanish uchun janob Prostyakov va uning rafiqasining roziligidiga ega bo'lish lozimligi haqida aytganida, u ma'yuslanib qoldi. Agar u bu haqida sevimli onajoniga aytadigan bo'lsa, u holda ehtimol u yosh bola kabi uni qamchi bilan savalasa kerak, ehtimol bu juda og'riqli bo'lar, Lushkani esa qayoqqadir biror yerga jo'natib yuborishi yoki uzoq joylarga erga berib yuborishidan qo'rqedi.

Mana shunday xayollar bilan Faleley bo'ynini egdi va o'yga cho'mdi. O'z yo'llarida ular temirchilik ustaxonasiga duch kelishdi, bu yerda bolg' alarming dukillagan ovozi bir maromda yangrab, olovli uchqunlar pechdan yuqoriga uchib chiqar va havoga yo'g'rilib ketardi. Simbalda, o'zining eski xo'jayinidan qolgan juda ko'p kitoblarni o'qib, garchi Don-Kixotga o'xshagan bo'Imasa-da, ritstarlar haqidagi romanlar bilan tanisharkan, ko'z o'ngida namoyon bo'lgan hamma tasavvurlarni ham haqiqiy hayotda ko'rmagandi, u ko'z oldida namoyon bo'lganlar bilan hayotda kichik bo'lsa ham o'xshashlikni topsa, u o'sha o'qigan kitobining mana shu o'xshash joyini topardi, buning uchun yoshiga nisbatan ancha o'tkir bo'lgan xotirasi unga yordam berardi. Demak, temirchilik ustaxonasini uzoqdanoq ko'rib, u dedi:

«Bu yerda eng xavfli g'or joylashgan¹. G'ordan qora va quyuq tutun chiqib turadi va kunning o'rtasini tunga aylantiradi². Kulrang g'ubor teshik orqali uzluksiz nafas chiqaradi va butun havoni zaharlaydi³. Atrofda na bir o't va na bir maysa o'sadi...»

¹ XVIII kitob, 92-b.

² Ib., 125-b.

³ Ib., 100-b.

Faleley (*g'amgin qiyofada borarkan, birdan alam bilan amakisining so'zini bo'ladi*)

Aldayapsiz, Simbalda, ko'rmayapsizmi – ustaxonaning atrofida o't o'sib yotibdi.

Simbalda (*Faleley yana uning hikoyalari ichiga kira boshlaganidan xursand bo'lib, davom ettiradi*)

«G'orning og'ziga kelgach, dahshat bilan o'kirayotgan yerosti sultanatini ko'rdi. Uning qadamlari ostida butun yer yorilib ketgandi»¹.

Faleley

Amakjon! Men hech kimning o'kirayotganini eshitmayapman, bu yerda na buzoqlar va na sigirlar bor; yerming titrayotganini ham his etmayapman, ammo mening o'zim qaltirayapman: sovuq tush-yapti, yuring, temirchining yoniga kirib isinib olamiz.

Simbalda

«G'orga kiraverishdagi quyuq tutun yaqinlashgach, birdan yo'qoldi, zaharli nafas ham to'xtadi, u yerga bittasi kirdi...»

Simbalda mana shu gaplarni aytishi mobaynida, amakisi «bittasi kirdi», degan vaqtida Faleley temirchilar eshigi yoniga keldi. U us-taxonaga sakrab kirdi va (yarim hazil, unchalik loyiq bo'lmasa-da, onajonisining o'g'li amakisining oxirgi so'zлari uchun qasos olish maqsadida, yarim chin bilan) eshikni yopdi va zulfinni solib, dedi:

— Amakjon, siz: «bittasi kirdi», dedingiz va men bir o'zim kirdim, siz esa o'sha yerda qolib, muzga aylaning (*yengilgina*), muzlab qoling, qari shayton!

Simbalda (*og'zini eshik yorig'iga tutib, davom etadi, uning yoriqdan kirayotgan ovozi jarangdor bo'lib, hushtak chalib, uvillab chiqdi*)

«Qora yog'ochdan qilingan taxtda rangsiz va g'azabnok, ko'zлari chaqnab turgan va yerga boqqan; og'zi hukmdorona va dahshatl bo'lgan odam o'tirardi»².

¹ Ib., 150-b.

² XVIII kitob, 298-b.

Faleley orqasiga qaradi va sandon oldida o‘tirgan temirchini ko‘rdi, bu orada temir o‘tda toblanardi. Amakisining ovozini eshitib, ichiga titroq kirdi.

Simbalda, o‘z shogirdiga biroz saboq bermoqchi bo‘lib, uning qo‘rqaq fe‘lini bilgan holda, teshikdan yarim xirildoq ovozda va yarim baqirib dedi:

«Taxtning yonida, pastda rangsiz ajal (*nutqining oxiriga qadar xuddi musiqa avjiga chiqqani kabi ovozini ko‘tarib borgancha*), dev rutubatli, suyaklari bo‘rtib chiqqan, u eshitmaydi, ovoz chiqarmaydi, ko‘rmaydi, qo‘lida o‘tkir chalg‘i ushlab turardi...»¹

Faleley endi amakisining so‘zini eshitib, qaltiray boshladi, eshik yonidan ketmadi va allaqachon uni ochmoqqa tutindi, ammo kuch bilan yopilgan eshikning ochilishi qiyin bo‘ldi, ayni daqiqalarda, ya’ni Simbalda «qo‘lida o‘tkir chalg‘i ushlab olgandi», degan joyida – temirchi o‘tda qizib turgan toblangan temir kosovni oldi, uni shosha-pisha sakrab kelib, sandon ustiga qo‘ydi-da (ayni shu paytda Faleley unga qaragandi), bolg‘a bilan temirni ura boshladi; undan uchqunlar sachrab, ucha boshlashdi, bitta uchqun kelib Faleleyning yuziga tushdi. U og‘riqdan chinqirib va dahshat ichra eshikni zarb bilan ochdi, amakisining burnini sindirdi – uning burni qonab ketdi, o‘zi esa ostonaga, eski loy ko‘lmak ustiga deyarli hushsiz yiqildi. Temirchi xo‘jayinning loyda yotgan o‘g‘lini va qonga belangancha ostonada tosh qotgan amakisini ko‘rib, temirni suvga soldi va barin ga yordamga shoshildi.

Faleley, qulog‘i yaqinida issiq temirning suvda vishillashi va suvning biqirlashini eshitib, unga yordam uchun engashgan, ayni vaqtida uni hech bo‘lmaganda shayton bo‘lsa kerak, deb hisoblagan temirchini, ikkinchi tarafda esa yuzlari qonga bo‘ylgancha enkayib turgan amakisini ko‘rib, temirchiga baqira boshladi:

– Shafqat qil, boshqa bunday qilmayman, shafqat qil, o‘tinaman, bunday qilmayman! – loyda aylangancha, belanib, temirchiga yoki shaytonga qo‘lini tutmasdi. Ammo avvalgi so‘zlaridagi alamlarini eslab, Simbaldaning bu tomon cho‘zgan bo‘ynini mahkam quchoqlab oldi-da, yuzini uning yuziga olib borib, xuddi o‘rnidan turayotganday, «mana senga, qari shayton, boyagilar uchun», deya bechoraning

¹ Ib., 310-b.

burnini shunday qattiq tishlab oldiki, sho'rlik cholning burni battar qonab, hushsiz yiqildi. U yiqilayotib, Faleley ustida engashib turgan temirchining oyog'iga turtilib ketdi va uchalasi ham bir-birining ustiga xoch shaklida uyqashib tushdi: Faleley pastda, temirchi uning ustida, Simbalda esa tepada. Bu na *Noverr* (213) na *Anjelini* (214) o'zlarining maftunkor baletlarida bunday sahnani namoyon qila olmagan bo'lardi. Vatikan saroyida hamisha o'zining ko'rkmagliji bilan g'ururlanib yuradigan ustun singari baland bo'yli Laokoon ham bu guruh oldida hech narsaga arzimay qolgan bo'lardi.

Gogartning momiq mo'yqalamiga munosib (215) bunday manzaraning kamini to'ldirish uchun burchakda qo'lida ko'za tutgancha maftunkor Lukeriya paydo bo'ldi. Temirchi Sozont uning otasi edi va u otasiga kvas keltirgandi. Endi esa loyqa ko'lmakda temirchi va amakisining yuki ostida tipirchilab yotgan Faleleyning holatini ko'z oldingizga keltiring – yuzi, qo'llari va ko'ylagi loyga belangan, endi shu holatiga to'satdan paydo bo'lgan seviklisini ko'rganda ko'nglida nimalar kechganini tasavvur qiling.

Lukeriya, bu ta'riflab bo'lmas guruhni ko'rib, xandon otib kulib yubordi va kulganicha shunday dedi:

– Mala kucha!¹

Faleley, bu o'tkir masxaradan larzaga kelib, ko'ksida yotgan Etinanigina ag'darib tushirishi va olov, tutun, tosh, kul va lava puflashi mumkin bo'lgan qadimiylardan ham ko'ra og'ir yuki bilan ag'darildi – Faleley kuch bilan o'girilib, uni loyga botirgan ustidagilarni ag'darib tushirdi-da, ust-boshi loy holatda shlapasiz shayton singari o'qday uchib, uyi tomon yugurib ketdi; Simbalda esa o'ziga kelgach, qonga bo'yalgan yuzi va pachog'i chiqqan burni bilan uning ortidan har doim aytadigan qo'shig'ini kuylagancha yugurdi:

– To'xta, Faleleyjon, to'xta otaxon!

Temirchi esa o'midan turib, yarim kulgi aralash jahl bilan tupurdi va dedi:

– Yo'qolinglar, jin urgurlar!

Lukeriya yana kuldii.

Biz-chi?

¹ *Mala kucha* – kichik to'da ma'nosida, asosan bolalar o'yinida ishlataladigan ibora.

Biz esa shunday deymiz:

— Tamom.

«Telemaxida» va olti turoqli she'r madhi

P. «Telemaxida» nimadir kulgili narsa sodir bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin, degan fikrga qo'shilaman, ammo unda nimadir yaxshi narsa borligi – yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas.

B. Sen hali o'qiganing yo'q-ku.

P. Zarurat shundaki, men uni ipidan ignasigacha o'qib chiqqanim yo'q, ammo xohlagan joyingni varaqla, unda faqat bema'nilikni ko'rishing mumkin.

B. Men esa o'qib chiqqanman, to'g'ri, bu tasodifan bo'lgandi, mana, men u haqida qanday fikdamani: modomiki Tredyakovskiy faqat she'rlar uchun javob berar ekan, unda bir narsani aytish lozim; birinchidan, uning baxtiga qarshi, u rus tilida yozganida, hali Lomonosov o'z didi, ifodalardagi hamda so'z va nutq birkmasidagi ravshanlik namunasi bilan rossiyaliklarni hayratda qoldirib ulgurmagan edi, u bu ravshanlikni o'zining o'tkir aqli boshqargan o'zgarmas yo'ldan olib o'tgandi; bir so'z bilan aytganda, Lomonosov rus tilining haqiqiy xususiyatini hali ko'rsatib bermagan, cherkov kitoblarida u haqida unutilganlarni topmagan edi. Shu bois Tredyakovskiy bularni hali o'qib o'zlashtirmagan edi. Tredyakovskiy she'r tuzilishini juda yaxshi tahlil qila olardi, Simeon Polotskiy va Kantemirlarning she'rlaridagi noizchillilikni anglagan holda, u rus o'quvchilari uchun mutlaqo yangi bo'lgan usulda, ya'ni yunonlar va rimliklar yozgan uslubda she'r yozardi; ammo o'zinikidan ko'ra Virgiliy tilini yaxshiroq bilgani bois, *inversiyani* (so'zlarning o'rin almashishi yoki odatdagidan boshqacha kelishi) *lotin tilidagi kabi, rus tilida ham qo'llash mumkin, deb o'ylardi* (216). Ya'ni uning baxtsizligi shunda ediki, u bo'lg'usi olim odam yetarlicha didga ega emas edi. U she'r tuzilishi qoidalari shu qadar o'qib o'zlashtirib olgan ediki, qadimiy qoidalarni qo'llagan holda, ohangdorlikning go'zalligini shu qadar bilgani bois, «Telemaxida»da ham ko'pgina she'rlarda oshkor taqlid qilgan...

P. Apologiya, ya’ni madhiya – qaysidir muallifning so‘ziga ko‘ra bu himoya va omegani¹ mis chaqa bilan bostirish mumkin; sen birinchi raqamni himoya qilib, hazillashyapsan.

B. Hazillashmayapman, isboti uchun «Telemaxida»ni tahlil qilamiz:

«Yaqin tog‘lardagi uzum butalari yashil rang olgan,
Barglari chamarlar va zanjirlar misol turar osilib,
Lek barglar ortiga berkinolmagan to‘q qizil rang uzum».

P. To‘g‘ri, she’rlar binoyidek.

B. Bunday misralar juda kam va eng yaxshi asarlardagina uchraydi.

«Pristan² va butun yer orqamizda qochib borayotgandek».

P. O‘rtacha she’r.

B. Agar «qochib borayotgandek» gallitsizmi³ bo‘lmaganda binoyidek bo‘ldi.

P. Yaxshi.

B. Nafaqat yaxshi, balki juda yaxshi, negaki she’ming tinish belgilari birinchisi «ayriliq» so‘zidan so‘ng, keyingisi va tezda yana biri «menga» so‘zidan keyin, ketma-ket uch bo‘g‘inli turoq, cho‘ziq, «Pyorunna»dagi «у» ga butunlay zo‘rlab kiritilgan, «у»dan so‘ng ja-rangsiz «нна», ulardan so‘ng kutilmagan «у», nihoyat, eshitilishda cho‘ziq va past ovozdagi «да», «ра» qo‘srimchasi bilan boshqa joyda, «Telemaxida»da emas, aks holda hamma yaxshi degan bo‘ldi.

P. Nahotki sen bularni behazil aytayotgan bo‘lsang?

B. Behazil, albatta: qayta o‘qib ko‘r, so‘zlarni turoqlab o‘qi, xudi Klopshtok qanday o‘qishni ko‘rsatganidek (217), ya’ni quyidagi-cha:

Agar bu she’rni izlab topsang va tahlil qilsang, unda haddan ortiq jarangdorlikni topasan, unda yana binoyidek va mos tarzdagi

¹ Omega – lotin alifbosidagi so‘nggi harf (*tarj.*).

² Pristan – kemalar to‘xtash joyi (*tarj.*).

³ Gallitsizm – fransuz tilidan olingan yoki unga taqlid qilingan ibora (*tarj.*).

ohangdorlik bor, bunga Omirda, Virgiliyada va boshqa buyuk ijod-korlarda juda ko'plab misol topiladi.

P. Bu she'r emas.

B. Birinchisi, garchi she'r bo'lmasa ham, ammo nasrga juda mos keladi, chunki unda vaqt o'lchamlari she'riy emas. Chunki ularda so'z bo'g'inlari bir-birining ortidan ergashib kelgan, ohangdor emas, ayniqsa, uzun «kutishmoqda»dan keyin «hozircha»ni xorey bilan o'qiganda. Agar uni spondey bilan o'qisang, «chaqirishmoqda»ni daktil bilan emas, daktilotrvraxiy bilan o'qiganda ham yengil, shunda she'r ham yaxshiroq bo'ladi. Ushbu she'rlarni ajratilgan qism-larga va qo'yilgan urg'ularga muvofiq o'qing, ular yanada ohangdorroq ko'rindi. Haqiqiy fikrimni sizga aytishim lozimmi? *Biz olti turoqli daktinoxoreik va daktilospondeik* (218) *hamda olti turoqli daktilotrvraxeik*¹ (219) emas (meni barcha o'qituvchilar va she'r yozuvchilar men bu yerda ishlatayotgan atamalar uchun kechirsinlar!), balki mana shu yerdagi olti turoqli atamalar haqiqiy rus olti turoqli vazniga bo'lishi va muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin. U holda uning yaxshi ovozli misralari o'mniga sakrash va qattiq daktinoxora chiqadi. Ammo so'zlarning izidan o'qib, ularda uzluksiz baxtni topasiz, qulogdag'i oyat jiringlamaydi va uning uyg'unligi aynan yunonlar va rimliklar oyatlardan izlagan narsadir.

«Telemaxida»ni o'qiyotib, hamisha daktil², ya'ni uch hijoli turojni izlaydilar va hamisha daktil bilan o'qiydilar. Klopshtok aynan shularni taqiqlaydi; agar uning «Messiya»sini shunday o'qisangiz, uning ohangdor she'rlari zerikarli va qattiq daktinoxoreik she'r bo'lib chiqadi. Ammo so'zlarni turoq bo'yicha o'qib, siz unda muntazam ohangdorlikni topasiz, she'r qulq ostida jaranglaydi va uning ohangdoshligi aynan yunonlar va rimliklar she'rda izlagani kabi namoyon bo'ladi.

P. Men hech qachon «Telemaxida» tartibli tizimlangan she'r bo'lishi mumkin, deb o'ylamaganman. Uning o'limi va Kerver kulgildir:

¹ *Daktinoxoreik va daktilospondeik hamda olti turoqli daktilotrvraxeik* – bular barmoq vaznidagi turoqlar bo'lib, bo'g'inlar va ularning urg'ulanishiga ko'ra farqlanadi (*tarj.*).

² *Daktil* – barmoq vazni, uch bo'g'inli turoqqa asoslangan.

«Dev rutubatli, suyaklari bo'rtgan, ham kar, ham sovuq va ham so'qir;

Maxluq vahshiy, jirkanch, bahaybat, ko'phalqumli va xirilloqdir».

B. Albatta shunday; ammo nimadan? Daktiliya yoki olti turoqli ekanligidan emas, «dev rutubatli» kabi ahmoqona so'zlardan ham emas, chunki unisi ham, bunisi ham poemaga o'tirmaydi. Tredyakovskiy daktillari bilan masxara bo'lgani yo'q, chunki unda did bo'lman; u diktiliyani kulgili qilib qo'ygan, u she'r yozuvchi, lekin shoir emas, bular o'rtasida juda katta farq bor.

Agar bizning boshqa sharaflı Parnass ritsarlari xaltasini siltasak, ulardan *Pondorin qutilaridan* (219) tushgan narsalardan yaxshiroq narsa chiqmaydi, ammo yovuzlik emas, kasallik ham, dard ham emas, lekin bema'ni she'rlar faqat qulqonni yirtadi, ular «Telemaxida»da jamlanishga mos. Biroq hech kimning shaxsiyatiga tegmaslik uchun misol keltirishdan tiyilamiz. Sen she'r yoki baytligini bishning ishonchli vositasini bilasanmi (agar shunday aniqlashtirish mumkin bo'lsa)? Buni birorta ham so'zni qoldirmay izohla, ya'ni undan nasrga moyil narsa chiqar. Agar sening izohlaringda nazm qolsa, unda she'r haqiqiy she'r hisoblanadi, masalan:

«*O sen, qayg'uda ham befoyda*» (220) va shunga o'xhash.

Uni qanday xohlasang, shunday izohla, o'sha satrlardagi so'zlarni ko'chirib o'tkaz, ammo grammatik qoidalarga rioya qil, shunda nasrda ham nazm bo'ladi. Felitsaga qasidadagi ko'plab satrlarni ko'chirib o'tkaz, ayniqsa, murza¹ o'zini ta'riflagan joyini, nasr deyarli she'rsiz bo'lib qoladi, ammo ko'chir ... va ogohlantirmay ayt, nima hosil bo'ldi? Lekin biz «Telemaxida»ni unutdik, men esa uni taxlab qo'yayotganining ko'ryapman. Yana och, davom ettiramiz. Mana bu yerini o'qi:

P. Qanday ahmoqona she'r!

¹ *Murza* – o'n yetinchi asrlarda tatar davlatlarida zodagonlar unvoni (*tarj.*).

B. Mutlaq ahmoqona. Lekin bu nimadan?

P. Shundanki, buni shunchaki aytib bergen yaxshiroq:

*«Chuqur jarohatdan to'q qizil qon oqmoqda,
U arang tirk, u arang nafas olyapti.
Va jon berayotganning qoni birdan sharillab oqa boshladi».*

B. Roziman. Sening izohlaring yaxshi va did bilan tahlil qilingan. Ammo Tredyakovskiy she'rlari ko'proq tasvirdan iborat, ammo didsizlarcha qilingan tasvir; agar unda did bo'lganida, balki she'r quyidagicha bo'lgan bo'larmidi:

*«Menda endi g'aribona tasalli ham yo'q –
qayg'u ichra tanlash kerak, qullik yo o'lim;
Lozim bo'ldi qul bo'lmoq va bardosh bermoq» va shunga
o'xshash.*

P. Juda zaif she'rlar!

B. Nafaqat she'rlar zaif, nasr ham shunday, hamma joyda yetarlicha zaiflikni ko'rish mumkin. Endi ishonching komil bo'lishi mumkin, sen «Telemaxida»dagi nazmni o'qib, undan juda ko'p zaif she'rlarni ham, o'rtacha she'rlarni ham topasan, chunki Telemaking o'zidagi fikr she'rlarga muvaffaqiyatsiz nimanidir singdirgan. Endi esa, bir nechagina bo'lsa ham, ohangdorlik yuqori bo'lgan yaxshi she'rlarni ham topamiz; chunki «Telemaxida»ni varaqlay turib, ko'plab bema'ni she'rlar orasida ohangdorlarini ham ko'rish mumkin. Mana, masalan, silliq yozilmagan, ohangdorlik kuchli bo'lgan misralar:

*«Tog'da shunchalar chuqur tik qoyalar orasi,
Arang yoritar quyosh uning tubin nur bilan».*

Ammo mana buni eshit:

Birinchi bo'limni spondey bilan, ikkinchisini xorey bilan, uchinchisini yarim cho'ziqlik bilan yoki agar atash mumkin bo'lsa, qisqa-cho'ziqlik, yo cho'ziq-qisqalik bilan o'qib, ya'ni bizning til-dagi promodiya shuni talab etadiki, bu bo'limdagি oxirgi bo'g'inga kuchli urg'u berib, oxirida ikkita qisqa va xorey bilan o'qiysan.

Uning talaffuz etilishida, ya'ni Klogaptok talabiga ko'ra turoqlab o'qishda she'r qancha yaxshi bo'lsa, lekin uni xorey yoki daktıl vazni bilan o'qiydigan bo'lsak, shuncha yomon.

Birinchi she'rda boshlang'ich spondeydan va cho'ziq urg'udan so'ng uchinchi qism oxirida «tebranadi» so'zida to'rtta bir xil qisqa bo'g'in va «qo'rqinchli»da yarim cho'ziq spondey kelishi juda yaxshi.

Ikkinchidan: birinchi qismda daktıl va xorey, ikkinchisida qancha beshta deyarli teng qisqa va oxirisida uchta cho'ziq, – buning birinchisi qolgan ikkitasi unli «o»ning ortida turgan «» tufayli cho'ziqroq bo'lsa, tog' tizmasi kabi shuncha og'ir tuyuladi.

Qanday ajoyib she'r! Ishonchim komilki, Lomonosovning o'zi ham buni maqtagan bo'lardi.

«[U] tomirlarda oqquvchi butun qonga muz olib kirar».

Iltimos, «aylantirar» o'rniga zaif bo'lgan «olib kirar» so'zi uchun tanbeh berma: chunki birinchisi cho'ziq, ikkinchisida esa unlidan so'ng «r» tovushining takrorlanishi bilan tomirdagi qonning sovushidan ko'ra olovda qaynayotgan suvgaga o'xshaydi.

«Yoshlikning barcha uchqur intilishlarin jilovlashga».

«Qanday xumorlik!» Yoki:

«Qanday yengillik!»

To'rtta yaxshi she'r; birinchi qismni tashkil etgan ikkita xoreydan so'ng, ikkinchi qismdag'i yengil spondey utilishidan so'ng (esingizda tuting, men she'r haqida emas, turoq haqida gapiryapman), oltita qisqa, o'rtada esa uchta cho'ziq... qolgan uchta she'rda ham ana shunday go'zallikni uchratish mumkin

P. Izohlaringiz batartib, ammo yo men bu she'rlarda hech narsa eshitmayman, yoki bunga oldindan paydo bo'lgan keskin fikr xalaqit qiladi.

B. Menimcha, ikkinchisi bo'lsa kerak.

«Yiroqdan tog'lar va qoyalar cho'qqisi ko'z o'ngimda miltiraydi».

Bunday misollar juda ko'p, ularni takrorlab, faqat zeriktirishim mumkin, xolos.

P. Yana biroz.

B. Navbatdagi she'rni eshit. Ayniqsa, she'rning juda ham lol etadigan birinchi yarmiga e'tibor qil:

«Orqa oyog‘ida turib sher baroq yollarini ko‘tardi».

Bularning hammasi bir xil tovushlar ketma-ketligi bilan kelmoqda: *or – qa – o – yo – g‘i – da*.

«*Og‘zin ochar quruq va qaynoq nafasi bilan;
Yorqin nurlar zarlarin burkaydi tog‘ boshiga.
Livan tog‘i, qoyalar bulut bag‘rini yorib,
Yetib bormoq istaydi yulduzlarning qoshiga.
Abadiy muz erimay, yopib turar tanini».*

Bu ikkita she'r birin-ketin kelib, bitta narsaning o‘zini ikki xil manzarada tasvirlamoqda, maftunkor ohangdorlikka ham ajoyib namunadir:

«*Unda ulug‘ vorlikning qarsillab qulashidan
Qolgan qayg‘uli izdan boshqasini topmaysan».*

Bu uchta she'rda «i» unli tovushining takrorlanishi bitta she'rni maftunkor qilgan, ikkitasini esa ahmoqona:

«*Va biz ko‘rdik u yerda yaqin o‘lim dahshatin.
Qo‘lida kitob tutgan, unda nomlar to‘plami,
Bu borliqda donolik yo‘lidan ketganlarning».*

Bu ikkala she'rning ahmoqona ekanligining boisi shundan iboratki, so‘zlar ohangdorligiga ko‘ra bir-biriga mutanosib tushmagan, ya’ni bo‘g‘inlardagi bir xil unlilarning ketma-ket takrorlanishi she'rning tuzilishiga putur yetkazgan (she'rning rus tilidagi ko‘rinishida ketma-ket «идти», «стези» so‘zlarining kelishi va ularni «i» unlisining takrorlanishi nazarda tutilgan).

«*Asta-sekin va bilinmasdan
borlig‘ im bo‘shashib bormoqda,
O‘zga tomirda oqayotgan
xushomad og‘usini suydim».*

Ahmoqona so‘zlar tanlovidagi yoqimli narsa; keyingisida qanchalar yengiltaklikni ko‘rish mumkin:

«Suvning yuzasida uchgan halinchak bo ‘lgay namoyon».

Bunisi nafaqat yengil, balki shamolda pirpirayotganday go ‘yo:

«Shamol bilan o ‘ynoqlab, chirg ‘izak bo ‘lib, titrab».

Ushbu keltirgan dalillarim «Telemaxida» bir nechta ajoyib, bir nechta yaxshi va juda ko‘p o‘rtacha va zaif she’rlardan iborat ekanligini ko‘rsatib turibdi. She’rlarning ahmoqonalarini ham sanash mumkin, ammo hech kim bu ishni qilmaydi. Demak, xulosa qiladigan bo‘lsak: «Telemaxida» she’riyat borasidagi olim, ammo did bo‘yicha hech qanday tasavvurga ega bo‘lmagan odamning ijodiga mansub.

N A Z M

Qo‘shiq

*Qalbda jahannam – tuyg ‘u,
Muhabbat bag ‘rim yorar;
Nigohlaring, bu –
Yurak-chun o ‘tkir og ‘u,
Quvonchlar kechib borar,
Umidlar o ‘chib borar,
Nigohlaring, bu –
Oh, o ‘tkir og ‘u.*

*O, bebaxt, uni unut...
Agar unuta olsang,
Unut,
Qachonlardir sen xushnud
Sevganding uni chindan.*

*Dilingga imkon solsang
Unut,
Qachondir unut.*

*Yo 'q, men sevarman jondan,
Toki bor bu tanda jon;
Sevarman,
Bardoshlarga berib yon,
[unutmayman hech qachon]
Unga ishongum har on;
Chidarman,
Hamon sevarman.*

*Balki vaqt olib ketar
Azob, alamlarimni;
O'tib ketar,
Muhabbat bo 'lsa agar,
Ko 'rib chidamlarimni,
Azobimga chek qo 'yib,
Kelar,
Muhabbat kelar.*

*Muhabbatim baxt toji
Garchi bor-yo 'g'i xayol,
Baxt toji,
Bu hayot topsin zavol;
Chidamni so 'yaman jim,
Azobni o 'yaman jim;
Topgay zavol,
Meniki bo 'l, baxt toji.*

*Baxtli yashadim go 'yo,
Chinmidi yoki ro 'yo?
O'yladim,
Qalbingga kirdimmi, yo
Ishqing etib tavallo,
U-la ko 'kka bo 'yladim*

*O'yladim,
Baxtli bo 'lgandim ammo.*

*Tushga o 'xshaydi chindan,
Miltiray boshlar orzu,
Senmi u,
Ammo tush uchar birdan,
Kula boshlar ustidan.
Muhabbat baxti go 'yo,
Menga
Go 'yo tushday u.*

*Mening o 'limim bilan
Quvonmassan sen hech ham,
Qo 'llarim
Sening qarshingda turgan,
Ko 'ksimga tig ' urar jim.
Shunda aylanar qonim
Sening
Qo 'llaringda og 'uga.*

1770-yilning birinchi yarmi

Olamning yaratilishi

Qo 'shiq so 'z

Xor

*Bu abadiy tahayyul, madadkor etib o 'zin,
Va o 'zining quadratin tubida qilgaydir jam,
Bashorat qildi, g 'ubor qoplaganda ko 'k yuzin,
Osudalikda uxlар birlamchi urug 'lar ham,
Harakat ham begona, uxlardi hayot zavqi,
Hali o 'lchanmagandi dunyo aylanish vaqtি (221).*

Xudo

*U mangudir va har yerda bor,
Qudratli Xudo va betakror;
Men bo 'lganman, doim bo 'lgayman,
Har ne ishni bajargum zumda,
O'zim aks etgayman o 'zimda,
Kunlar menda, barida shayman.
Lekin nahot men mangu yashayman
Xudo degan xayolga ko 'chib?
Men ichimda nahot unutgayman,
Yana boshlay olishim uchun?
Va yo muhabbatim – saodat,
U mendagi o 'zgarmas xilqat,
Sassiz, horg 'in, faqat menda jo,
Mangu olov uni yondirib,
Nahot besamara va nurab
Tubsizlikda bo 'ladi Xudo?
Kengaytiramiz biz sarhadni,
Zulmat-la ko 'paytirib Haqni.
O'tkazib o 'lchamlar kengashin,
Dedik: mayli, modda yaralsin.*

Xor

*Kunlar titroqqa tushsin, qadimiy hech narsa yo 'q!
Eski kunlar gumburlar qudrat ostida birdan,
Marhumlik hukmi ila o 'lim tugasin to 'liq.
Hamma joyda uyg 'onsin hayot, quvonch va yupanch.*

Xudo

*Xo 'sh,
Boshlaymizmi?
Deymiz:
O, sen, mening suyukligim, so 'z,
O, sen, mening ibtidoyimsan!*

*Sen azal menda bor, men senda,
Sen mensan, men esa sendirman (222).
Men hamishà senga yuklagum
Hukumatim, qudratimni ham,
Muhabbatni senga joylagum,
Men sen birla yaratgum olam.
Sen ijro et ilohiy ahdni
Ijod-la ilohni qil zuhur,
Ijro et kengash zakovatin,
Hayot, kuch, modda yarat bir-bir.
Men sen birla sharaflanaman,
Harakatsizlikdan tonaman,
Mening qudratimda nima bor –
O'shani yaratgaysan takror,
Men o 'zimda tinaman, Xudo (223).*

Xor

*O'liklarning ko 'lankasi bugun silkina boshlar,
Yaratguvchi bergaydir hayot ibtidosini;
Oqar doimiy hayot, bo 'lmaydi tanaffuslar;
Zulmat bo 'shliq tan olar yorug 'lik jilosini.*

So‘z

*Yaratishni boshlaylik – kechiktiryapman nechun?
Va yoki Yaratganning irodasi tingaymi?
Mo 'l emasmi yo fikri, endi topgaymi yakun?
Yo qudratim oldida to 'siqlar ko 'ringaymi?*

Xor qismi

*Nafis sevgi poyoni yo 'q qismatni
Tashvishlarning quchog 'iga tashlaydi.
Va folbinlik oshirib aziyatni
Bo 'lg 'usi kulfat olamin boshlaydi.*

Xor qismi

*Ochil endi, ey, tubsizlik zulmati,
Rutubatli jarlik qopqog ‘ini yop,
Va bo ‘lib u kelajakning qismati,
Senga chegarani belgilar Xudo!*

Xor

*Barcha nigohlar oldidan yo ‘qoladi u,
Zamonlar xoli bo ‘lmaydi hali zulmatdan,
Olovli so ‘zlar taqdirni belgilar mangu,
Belgilaydi abadiy so ‘z dunyosini ham.*

Xudo

*Neki bor, bo ‘lgan va bo ‘lishi mumkin –
Barchasin qamrayman bitta nigohda.
Qonunlarim pisand qilmagani-chun,
Barcha xo ‘jayinlar qo ‘rquvda, dog ‘da,
Ko ‘ryapman, u jonzot o ‘zi istamas;
Takabburlik bilan o ‘z kunidan mast,
Orzusi borliqqa bo ‘lmoqlik xoqon,
O, sen fonyi jonzot, o, zaif hayvon!
Nechun sen Otaga qarshi bording, ayt?
Yoki qilmay qo ‘yding unga itoat.
O ‘z saodating-la mastsanmi bugun?
Mumkin edi seni ogoh qilmog ‘im,
Hatto fikrimni ham o ‘zgartirmog ‘im,
Va o ‘zgacha amr etishim mumkin.
Men zaif qasoskor emasman, bilsang,
Saxovatli ota, yaratguvchiman:
Mudom otash mehrim senga tutaman.
Kamolotni sendan olgum barini,
Ammo saodating ildizlarini
Men sening o ‘zingga joriy etaman (224).*

Xor qismi

*O, sen, muhabbat – aytilmagan,
Tanlanding oldinroq zamondan,
Senda erur hayotning boshi,
Barcha ezgulikning yo'ldoshi.*

Xor

*Bo'sh bu fazo nigohi hayajon-la mangudir,
Uchrashuvga borganda yuzga quvonch bitarlar,
Bo'sh tubsizlikni bugun titratar tiganmas kuch,
O'lik hayot urug'in sabr qilmay kutarlar.*

Xor qismi

*Ilohiy bachadon qizara boshlar,
Tug'ilmoqqa tayyorlaydi moddani.
Muhabbat urug'ni qizitar dastlab,
Va anglaysan yaratguvchi Xudoni.*

So‘z

*Ezgu fikr, amalga oshgil,
Va doimo bajoga shoshil
Donolik otasi o'gitin.
Kenglik yashayotgan beadad
Tublikning asosi mustahkam bo'lzin (225).
Chegarasiz tekislik abad,
Jonlan endi jism urug'i,
Ibtidoni qabul qilgin, vaqt,
Va harakat hamda mohiyat,
Mustahkamlik tana bilan jam,
Hayot esa harakat bilan, –
Shuni amr etdi Oliy Zot.*

Epitafiya¹

*O! Bu yolg'on bo 'lmasa agar,
Biz yashaymiz o 'limga qadar,
Toki hayot ekanmiz,
his qilmog 'imiz lozim;
Sevmasdan yashab bo 'lmas –
his qilarkanmiz tokim,
Umid birla yechilgay
ko 'ngildagi tugunlar,
Sanaymiz, sog 'inch birla
birma-bir o 'tar kunlar.
Men o 'limni kutaman
nikoh kuniday go 'yo;
O'laman va shu bilan
unutilar qayg'u ham,
Men faqat quchog 'ingda
asil baxtim topaman.
Agar orzu yurakka
imlab qilsa xushomad,
Seni abadiy tortib
olsa hasadgo 'y qismat,
Unda quvonch ham bo 'lmas,
yoshlar ham bo 'lgay daryo.*

*Uyg'on, endi, jonginam,
do 'sting ohlari bilan,
Bolalaring quchoqlab (226)
turibdi u qarshingda,
Yovuz o 'lim qo 'ynidan
chiqolmasang, sen unda,
Hech yo 'qsa orzuyimda
yupatib tur, azizam...*

¹ Epitafiya – qabr toshiga bitilgan yozuv yoki marsiya.

*Har narsaga birday boqadi yuzi,
Unda na nafrat bor, na mehr kulgay.
Unga begonadir xushomadgo 'ylik,
Andisha, martaba, amal va boylik,
Halokat shirasidan hazar qilgusi (230).
Bilmas na qarindosh, na do 'st, na yotni,
Teng taqsimlar jazo va mukofotni,
Xudoning yerdagi u qiyofasi.*

7

*Va bu maxluqotning borlig 'i dahshat (231),
Go 'yo yuzta boshli ajdar singari
Muloyim, ko 'z yoshi oqar har soat,
Biroq jag 'i to 'la og 'udir bari.
Yerda hukumatni loyga qorgay u,
Ko 'kda hukmdorga yetib borgay u,
Vatani shu yer, deb xabar yetadi,
Sharpalar atrosga yoyer zulmatni.
Biladi aldamoq va xushomadni,
Ko 'rday ishonmoqqa amr etadi.*

8

*Zulmat bilan yopar u tafakkurni,
Yaltoqlik og 'usi tarqalar har yon...
Tabiiy sezgirlik qoplab shuurni,
Devorlar ortida o 'tirar fig 'on.
Sirtmoqqa tortmoqqa kishanlar ega,
Xatolarning zirhin kiyar egniga,
Qo 'rqishar, yuzaga chiqmas haqiqat.
«Haqning irodasi» – hukm qilar sulton;
Donishmand aytadi: «Ilohiy yolg 'on, –
Xalqni ezar sening topganing faqat».*

*U bo 'lgan, hozir bor va bo 'lgay abad,
 Yirtqichlik manbasi qullik kishani:
 Tez oqar hayotning kulida faqat
 Qoplanadi yolg'iz o 'limning tani.
 Qodir Xudo, ne'mat tutguvchi o 'zing,
 Uni yaratguvchi, bitguvchi o 'zing,
 Yurakda qonunga solgansan asos;
 Mumkinmi, o 'zgarib turgaysanmi sen,
 Yo qudrating yerga urgaysanmi sen,
 Yo hukming aytarmi begona ovoz?*

*Bepoyon kenglikka ko 'z tikamiz jim,
 Nursiz taxt qullikka teng bo 'lgan joyga...
 Shahar hukumati osuda, sokin (232),
 Shohda Xudo yuzin ko 'rmoq befoyda.
 Ishonchni ardoqlar shoh hukumati (233),
 Ishonchni tasdiqlar shoh hukumati;
 Birgalikda ezar jamiyat kuchin.
 Biri tafakkurga jilov solay, der,
 Biri erkinlikni yo 'ldan olay, der,
 Xaspo 'shlaydi: umummanfaat uchun.*

*Gar soyada qul tinch, bundan ne foyda,
 Oltin mevalari bo 'lmas sira jam;
 Tafakkur maqsaddan yuz burgan joyda
 Qotib yotaverar buyukliklar ham.
 Dalalar bo 'sh qolar, qotadi tuproq,
 Bo 'sh qoladi chalg'i, bo 'sh qolar o 'roq,
 Omochda yalqovlik pashshasin qo 'rir,
 Qilichning damida yaltiraydi shon;
 Minerva saroyi darz ketar chunon,
 Vodiyya taqaydi makkorlik to 'ri.*

*Takabburlik ila mangluyin kerib,
 Temir asosini ushlab, shoh albat,
 Dabdabali taxtda mag'rur o'tirib,
 Xalqda past tabaqa kas ko'rgay faqat.
 Qorin qo'ygan, qo'lda o'lim xavfi bor:
 «Yomonni ayayman etsam ixtiyor,
 Istanasam unga kuch etaman tortiq:
 Kulsam, hamma kulib, topgaydir ma'ni,
 Qovoq uysam g'ashlik bosar hammani
 Buyursam yashaysan, buyurmasam yo'q».*

*Biz esa sovuqqon, qulog tutamiz...
 Go'yo qonimizda to'ymas ilon u.
 Doimo urishgay besamar, beiz,
 Shodumon kunlarga tutadi og'u.
 Garchi taxt oldida itoat hozir,
 Barcha tiz cho'kkancha turar muntazir.
 Va albat qasoskor kelar, undan qo'rqi.
 Yurakka erkinlik uchib o'tadi,
 O'lkadan o'lkaga ko'chib o'tadi,
 Bu erkning ovozi, u shunday dovrug'..*

*Har yonda boshlandi taloto 'p va jang,
 Umid qurol tutdi urush mahali;
 Toj kiygan zulmkor qonlari bilan
 O'z isnodin hamma shoshar yuvgali.
 Ko'rdim, qilich dami chaqnar har yoqda,
 Turli qiyofada ajal uchmoqda,
 Ko'z tikib yigitning mag'rur joniga.
 Parchinlangan xalqlar, endi quvoning:
 Tabiiy qasoskorlik huquqidir chin – (234)
 Shohni olib keldi kunda yoniga.*

*Ko 'zda olib yurgan riyo pardasin
 Maydalab, parchalab yirtib tashlabon
 Maqtanchoq va qaysar hukumat bilan
 Ulkan tosh sanamin tepkilab chunon.
 Yuz qo 'lli polvonni etib zanjirband,
 Bir fuqaro yanglig ' uni qilar jalb (235),
 Xalq o 'tirgan ul taxt sari yurmoqqa.
 Dedi: «Taxtim uchun sen xiyonatkor!
 So 'zla, tojimga ko 'z tikkan badkirdor,
 Qanday jur 'at qilding qarshi turmoqqa?»*

*«Senga qirmiz libos kiydirdim bu dam,
 Jamiyatda saqla tenglikning kuchin,
 Yesirga muruvvat ko 'rsatsin shoh ham,
 Begunohni g 'amdan qutqarmoq uchun,
 Yesir ota hamdir; garchi bu dushvor;
 Ammo murosasiz erur, qasoskor.
 Nopoklikka, yolg 'on, g 'iybatga, demak
 Sharaf-la olqishlab uning xizmatin,
 Yovuz illatlardan asrab qismatin,
 Axlojni pokiza saqlamoq kerak».*

*Dengiz yuzin qopladir kemalar bilan...
 Qирг 'оqlar pristanga o 'rnashgan makon
 Istagim, savdoda boylik bo 'lib jam,
 Mo 'l ko 'l oqib kirsin shaharlar tomon;
 Ko 'z yoshlarsiz bo 'lsin oltin o 'rimi,
 Qo 'shchi dehqon ishin bo 'lsin unumi;
 Shunday desin u qo 'sh qo 'shgan mahali:
 «Jilov menda, meni yollang, demasman,
 O 'z dalamda o 'zim asir emasman,
 Sen-la farovonlik topamiz hali».*

18

«O'z qonimga o'zim gilmayman shafqat,
Barpo qildim undan qudratli qo'shin
Va qurollantirdim men misdan taroshlab (236).
Tashqi yovuzlarni jazolash uchun.
Itoat qilmoqni buyurdim senga,
Senla sharaf sari intildim.
Menga
Har ne mumkin umummanfaat uchun.
Zamin boyliklari olaman kovlab,
So'ng metallni yo'ngum bezab, jilolab,
Seni bezatmoqqa sarflayman kuchim».

19

«Biroq menga bergen ont ni unutding,
Seni tanlaganim qo'yding unutib.
Va turmush qurmoqni ovunchoq etding,
O'ylading, menimas, o'zni Xudo deb (237).
Mening qilichim-la qonunni buzding,
Mo'minlarning barcha huquqin ezding.
Deding, haqiqatan lozim uyalmoq.
Bulg'ading maraz-la yo'llaringni ham,
Mandanmas, Xudodan so'rading yordam,
Istading yuzimga bosmoqni oyoq».

20

Ozuqaga ekin ekib, o'tkazib,
Ayamayin o'zni, zo'riqdim, o'rdim.
Qontalash ter bilan berdim yetkazib
Senga ushoqni ham bo'lashib berdim.
Yetmas xazina-yu, boylik tog'i ham,
Nechun senga ular bo'layotir kam,
Nechun ko'ylagim ham olding sen yirtib?
Sevgilingni maqtab, bo'lning parvona,

*Xotining nomusdan, ordan begona!
Yoki tan oldingmi pulni Xudo deb?»*

21

*A'lo ish-chun nishon qilding ixtiro,
Beorlikni qila boshlading tortiq.
Yovuzga qilichim ko'rding sen ravo,
Iffat va'da qilding bergandan ortib.
Himoyaga qo'yib to'p-to'p lashkarni,
Jangga boshladingmi yana ularni?
Bu basharga qanday jazo bo'ldi-ya?
Jang qilasan, vodiy qonlarga to'lib,
Afinada kimdir ichib, mast bo'lib,
Esnab, atashi-chun «qahramon!» – deya.*

22

*Yovuz odam, yovuzlardan yovuzroq,
Boshingda yovuzlik qo'yib bo'lgan to'r,
Jinoyatchi qabih, ashaddiy biroq,
Sudga chaqiraman, sud oldida tur!
Barcha yovuzlikni uyg'un qilding, jam,
Chetda qolmadilar hatto biri ham
Jazo vaqtı yaqin, endi tayyor bo'l.
So'ng u yovuzlikdan nishlar yaratding.
So'ng o'ldirmoq uchun menga qaratding,
Sen o'l! Ey yovuz, sen yuz martalab o'l!»*

23

*Buyuk odam – qalbi makr-la to'lgan,
Laganbardor erur, munofiq, shakkok.
Buyuk namunaga arzigaydirlsan,
Yaxshidan ham faqat o'zing yaxshiroq.
E'tirof etaman, Kromvel, yovuz,
Qo'lingda hukumat – hukmron yolg'iz.*

*Erkning poydevorin buzgan badkirdor.
Nasldan naslga o 'rgatding zimdan,
Xalqlar qanday qasos oladi sendan:
Karlning boshini uzgan badkirdor.*

24

*Ko 'lanka tushadi, quyuq g 'uborni
Yoritgay haqiqat ko 'ksidagi nur;
Ilohni chaqirgan soxta angorni,
Burdalab tashladi butkul tafakkur.
Endi yot chehrada ko 'rinmas Xudo,
Xafaman, deb o 'ch ham olmas u aslo,
Lekin amalida qamraydi barin;
Biz bilgan kulfatdan qutqarmaydigan, –
Hammani ko 'rguvchi mangu Otaga
Biz qo 'shiq aytamiz – zafar madhlarin.*

25

*Osuda suvlarni chayqatib, bo 'ron,
To 'satdan shovullab, tug ' ko 'taradi.
Hurlik ovozi ham shunday beorom,
Vechega butun xalq oqib boradi,
Hatto cho 'yan taxtni qiladi vayron.
Samsondek qasrni buzib yoradi,
Yiqilar makrga to 'lgan shohmakon.
Tabiat asosin quradi qonun,
Ey, ozodlik ruhi, buyuksan butun!
Suyanch esa Rabning o 'zi, begumon!*

26

*Ruhiy hukmronlik g 'ovlarin buzib,
Qasosning mustahkam qo 'llari bilan
Bo 'lakka bo 'lingen hukumat o 'zi,
Yolg 'on-la qurilgan muqaddaslik ham;*

Uch qavatli tojni (238) *panalab, qoplab,*
Ilohiy asoni (239) *sindirib boplab,*
O'chirdi la'nati chaqinni (240);
Va soxta afvlarning ustidan kulib (241),
Ma'rifat nuriga Lyuter ko'milib,
Yarashtirdi osmon ila zaminni.

27

Hayot avvalida doim barhayot (242),
Har nega yetmoqqa qodirdir qo'li,
Shunda u o'ziga o'xshash odamzod
Yaratmoqqa qo'ydi – uning mahsuli.
Zulmat bo'shliqlardan yaralgan fazo
Chiqardi – ham qattiq, ham shaffof a'zo,
Barcha vujudlarning dastlabki bog'in;
Eski aralashmani tindirdi, buzdi;
Hamma narsani to'rt unsur-la tuzdi;
Quyoshga buyurdi hayot bermoqni.

28

Va berdi u yuksak maqsadlarni ham
Qiyshiq tafakkurga tutdi u yolg'on;
Kutilmagan ruhiy larzalar ham jam
Yer yuzida unga hamma hamoyon;
Ko'rinas yerlarda jasorat bilan
Kolumb kezib borar suvlar ustidan;
Lek mo'jiza qildi Galiley chini:
U bo'shliq makonda abadiy kezgan,
Qudratli qo'llarin – nurlarin cho'zgan –
Tasdiqladi kunni yoritguvchini.

29

Va ozodlik ruhi kishanni yanchib,
Qullikka keltirdi qayg'uning barin,

*Shahar, qishloqlardan o'tdi u uchib,
Barchani chorladi buyuklik sari.
U yashar, u tug'ar, yaratda boshlar,
Yo'lidan g'ovlarni sug'urib tashlar,
Yo'lga boshlar bizni jasorat;
U bilan tafakkur tushmas titroqqa,
U endi o'z so'zin shaydir aytmoqqa,
Nodonlik esa yo'l to'solmas hech vaqt.*

30

*Daraxt soyasida issiqdan nari,
Xo'jayin qo'ylarin o'tlatar cho'pon,
Birdan yangi quyosh chiqdi qizarib,
Eshitildi hurlik sasi begumon;
Ko'rdiki, qo'ylarga ko'z tikar bo'ri,
U-la qasdashmoqchi yirtqichlar zo'ri,
Har kim o'z moliga qilgaydir qayg'u;
Kim birov moliga jon qilgay halak,
O'zganikimi u - achinmas demak,
Ammo bugun, bugun menikidir u.*

31

*Xo'jayin istagin ado etgali,
Ozg'in dalalarga azobi botib,
Quyosh ham shafaqqa yotmaydi hali,
Ho'kizlar zo'riqar omochni tortib,
O'gay ona kabi ochofat, johil,
Chiqib kelar doim yuzida jahl,
Qullarga dalalar haqqin beradi.
Lekin ozodlikning ruhi taftidan,
Semira boshlaydi dalalar birdan:
Har kim o'zi ekib, o'zi o'radi.*

*Dalada tugatib bir kunlik ishin,
Uyiga shoshadi hur inson erkin,
Yuragida dard yo 'q, yo 'qdir tashvishi,
Oila bag'rida uxlaydi sokin;
Takabburlik bilan boqmas zodagon,
Va uni jazoga tortmas hech qachon –
Qurbanlar ko 'paytirmas endi begunoh.
Yo 'g 'rilgay muhabbat ila hayoti,
Endi u umidning lazzatin tatib,
Tanladi o 'ziga umrlik hamroh.*

*U sevadi hamda sevilib o 'tgay;
Mehnati – quvonchdir, ter esa – shabnam,
Hayotiylik bilan hosilin tutgay,
O 'tloq, o 'rmon, dala – bari bo 'lib jam;
Saodat cho 'qqisin zabit etgay ular;
Ehtiros mevasin hur kutgay ular
Oddiyilikda Xudo saxovati bor.
Umrin so 'ngigacha yo 'qsil bo 'lmas u,
O 'ndan bir (243) solig 'in hatto bilmas u,
Jujug 'i yalang 'och qolmaydi zinhor.*

*Sen bu poyoni yo 'q dalalarga boq,
Saf turadi, yovuz fe 'lni unutgan,
Bunda majburan mol haydalmas mutlaq,
Bunda qismat emas jasorat tutgan,
Nishonda turganmas inson yuragi,
Har bir jangchi misli rahnamo kabi,
Sharaf-la jon berib topmoq istar shon.
Matonatli jangchi, o, jasur odam,
Sen yengilmagansan, yengilmaysan ham,
Sening rahnamoying – hurlik, Vashington.*

*Ikki yuzli Xudo (244) yopdi ma 'badin,
 Supurib tashlandi vahshiylik bundan,
 Safimizda bo 'lib zafar ma 'budi
 Quvonch nayin chaldi zafarli kunda.
 Bunda yig 'ilganlar yuzlari kular,
 Zolim hukmdorni ko 'rmagay ular,
 Qonuning bergani quvonchga dohil,
 Ozodlik quadratni tutmog 'i ayon, –
 Yagona mukofot – bunda sharaf, shon,
 Mangulik ko 'shkiga olib ketar ul.*

*Quvnoq xorovodda charx urib o 'ynar,
 Kibrli farqlarni yo 'qotib tamom,
 Moviy ko 'k ostida amalga kirar,
 Tabiiy huquqlar bitilgan tabiiy nizom;
 Hukmron marazlik botqoqqa botar,
 Tojga faqat ezgu niyat-la boqar,
 Kuch ham yaxshilikni qilgay himoya;
 Biroq mustabidlik emas havasi,
 Shavkatli keksalar shon, tajribasi
 Taxtni boshqarmoqqa qilgay kifoya.*

*Pindarning boshiga kiydirilgan toj,
 Va qo 'lda to 'qilgan mohir bir san 'at;
 Va bu toj ilmga ochgaydir rivoj,
 Nevtonga xos boshga kiyamiz faqat.
 Bizga doim shunday orzular hamroz,
 Aql qanotida qilamiz parvoz,
 Va har nega qodir tetik ruh albat,
 Qanotiga shon-u sharafin bitib,
 Dunyo qirg 'og 'iga boradi yetib
 Mohiyat «men» emas, «biz» bo 'lgay faqat.*

38

*Yomonlikni oshirib lek ehtiroslar,
Yovlik oloviga quyadi yog 'in,
Va u o 'z ichiga sanchadi xanjar,
Xalqlarga halokat ochgay quchog 'in;
Otani o 'g 'ilga qayray boshlar u,
Nikohlarni buzib, yayray boshlar u,
Fuqarolar qalbi qo 'rquvga to 'lar;
Dunyoga kelar yeb to 'ymas hukumat,
Ochko 'zlik ortidan kelgay uqubat,
Jamiyat jazoga mubtalo bo 'lar.*

39

*Bo 'ron to 'zonida aylanib uchar,
Qora bulut birla chulg 'anib yog 'du,
Va g 'arib quyoshning nurida zarhal,
Ilohiy nur ila qoplangan og 'u.
Zarb berib, tahdidlab va urib yo 'ldan
O 'lim, yo sotqinga mukofot berib –
Tanla, der: bu qilich, bu esa oltin (245) –
Toshda o 'tirgancha istehzo bilan,
Nigohi xushomad libosin kiygan,
O 'lkadan o 'lkaga jo 'natar chaqin.*

40

*G 'azab otidadir Sulla va Mariy,
Rimdag'i osoyish erur omonat,
O 'shinga yollaydi fuqarolarni
Yuraklarda qayta tug 'ilgan illat,
Muqaddas neki bor, urishib, takror,
Va gar qolgan bo 'lsa – unda nima bor –
Sotib olmoq mumkin edi rimlikdan;
Tarozida oltin – sharmanda tortiq (245),
Xiyonat, qotillik haqidan ortiq,
Saroyni nohaqlik zabit etdi zimdan.*

41

*Tugatib urushni – fuqarolarning,
Hamma uning makkor aldovin tatib,
Qo'llarin uzatib u osmon sari,
Bezovta hurlikni qo'ydi uxlatib,
Temir aso gulga o'randi mutlaq;
O'zni boshqaryapmiz, deb o'yladi xalq,
Lek Avgust ular bo'ynin egdi-ku biroq;
Vahshiyligin yopdi yaxshi ish bilan,
Mehribon dil bilan boshqarardik ham (246),
Lek qachon sovuqqon bo'lsa gar podshoh!*

42

*Tabiat qonuni shunday azaldan (247),
U o'zgarmay kelgan, o'zgarmas mudom,
Uning hukmidadir har qanday xalq ham,
Va u ko'rinnasdan boshqarar har on;
Azobdan titroqqa tushar to'siqlar,
Og'u birla to'lgan o'zdagi o'qlar;
Va ko'rmasdan uni o'ziga sanchar;
Tenglik yo'lga qo'yar jazoni to'liq;
Va so'ng yangilanar ranj bilan huquq;
Hukumat birlikni yiqitib, yanchar.*

43

*Barkamollik qadar yetib borgaysan,
Yo'llarda to'siqdan o'tasan bardam,
Birga yashamoqdan baxtni ko'rgaysan,
Yengillar baxtsizlar qismatlari ham,
Va quyosh nurida tovlanib g'oyat,
O, hurlik, o, hurlik, tugar nihoyat,
Sen abadiyatga qo'ygan parvozing:
Yaxshiliklaringni qurir ildizi,
Bezga aylanadi ozodlik o'zi,
Bo'yinturuq ilar hukming, ovozing.*

44

*Hayratlanmaymiz ham o 'zgarishlardan, –
Chor atrofda ko 'zlar ilg 'agan, ko 'rgan;
Va umummaqsadlar ortidan borib (248)
Chopamiz oyoqni biz qo 'lga olib.
Suv bilan bog 'lanib bahslashar olov,
Bizdag'i unsurlar bir-biriga yov,
Foniy ibtidoni bermoq-chun kuchin;
Bu ajib dunyoda go 'zaldir ijod,
Quvonch-la tug 'ila boshlaydi hayot
Va bir kuni albat o 'lmoqlik uchun.*

45

*Ey! Siz, ozodlikka erishgan xalqlar,
Manglayida hurlik quyoshi balqar!
Tabiat in 'omin asrangiz mangu,
Toki qalbingizda muhrlansin u.
Gullar bilan go 'zal burkangan bu choh,
Oyoqlaringizning ostida nogoh,
Yutib yubormoqqa sizni, turgay shay,
Ammo bir lahza ham unutmang, kutib,
Kuchning qudratini bir shiddat yutib,
Zulmat nur o 'rnini egallab olgay.*

46

*Senga baxshidadir qalbim otashi,
Bir senga atalgay, sharaflı o 'lka (249),
Turmoqqa intilar beli qayishib,
Oyog 'ing ostida erkinlik tilka;
Sen xursand bo 'lasan! Bizda-chi, alam...
Va orzu qilgaymiz hurlikni biz ham.
O 'rnaging tarqasin butun zaminga;
Sening sharaflingdan mosuvoman men –
Izn ber, hech yo 'qsa hur ruhim mening,
Kul bo 'lib to 'kilsin qirg 'oqlaringga.*

*Lekin yo 'q! Tug 'ilm̄oq qismati qayda,
 Shu yerga to 'kilsin sovugan hokim,
 Kunlar yakuni ham bo 'lsin shu joyda
 Ulug 'vorlik-la, – men kuylagan bugun (250).
 Shon-sharafga tashna bir yigit kelsin
 Va xarob tobutim yonida bo 'lsin,
 Hamdardlik-la desin: «Hurlik, derdi u.
 Hukumat jilovi birla yashagan,
 Oyog 'ida esa zarhalli kishan,
 Bizga hurlikdan ilk darak berdi u».*

*Ortidan guldurab sharaf kelmoqda
 Yo 'naltirsin kuchli parvozga to 'liq,
 Mustabidlik shohi G 'arbga va Sharqqa
 Sarhadlari yoysin o 'zining,
 Lek yo 'q,
 Senga to 'siqlar yo 'q zarra bo 'lsa ham,
 Baxting ichra xushnud bo 'lib sen biram,
 Qayda paydo bo 'lsang, unda bor taxting;
 O, mening vatanim, o, aziz vatan,
 Belda kuch kamari, osuda har dam,
 O 'rnatasan qonun atalmish baxtni.*

*Lek manbadan bo 'lsa kuch qancha yiroq,
 A 'zolari shuncha ojiz ittifoq.
 O 'zaro begona barcha qismlar,
 Kishanni his etar har zalvar biroq.
 Quyosh nuri joyga yetgunicha to,
 Unga hamroh bo 'lar kuch birla jilo,
 Fazoda yorug 'lik sarf qilar quvvat;
 Garchi to yetguncha so 'nmagay yog 'du,*

*Lekin yugurikda zaiflashar u –
Yo 'lda quvvatini so 'radi zulmat.*

50

*Parchalanib ketgach ittifoq, senda,
Yupqalashar fikri qat'iy hukumat;
Zaiflay boshlasa qonun ham shunda,
Har kim qo 'riqlaydi o 'z qismin faqat;
Shunda to 'zib ketar lahzada oniy,
Shunda tuzilmang ham bo 'lg 'usi foniyl,
Ichkaridan titrab u nuray boshlar,
Ammo zarralarga teginmas to 'zon,
Jonzotlar urug 'i uyg 'onar bu on,
Tiyra quyosh yangi nurini tashlar.*

51

*Ulkan xarobalar ostidan oqar,
O 'tlar orasida qonli daryolar,
Maydon o 'rtasida yovuzlik, illat,
Hukumatning vahshiy ruhi o 't olar,
Kichik yoritgichlar yaralar butun;
O 'zining qo 'zg 'almas olib jilovin
Do 'stlik rishtasini toj-la bezaydi.
Qayiq jo 'natadi barchaga birdan,
Basir o 'z otam, deb hisoblaydigan
Yirtqich bir bo 'rining boshin uzadi.*

52

*Hali o 'sha kunlar kelmadi biroq,
Amalga oshmadi qismat bitgani;
Hali nihoyasi juda ham uzoq,
Barcha kulfatlarning yo 'qolar dami!
Zalvarli tunlarning parchini tayin;
Qayishqoq hukumat yig 'ib qudratin,*

*Turmoqqa urinar g'amni g'ijimlab,
Yanchib, toptab borar har bitta qadam,
Qo'riqchi qo'yadi so'zning ustidan (251),
Va achchiq ta'na-yu, bo'lgay hujumlar.*

53

*Og'irdir kishanni osgan mahali,
Kulbalarda bo'g'iq yig'laydi birov.
Orziqib kutilgan vaqt kelar hali
Foniylarga (252) ko'kdan keladi chorlov;
Ozodlik yo'lida yo'naltirilar,
Tabiat qo'li-la tuzilgan lashkar,
Vodiyda qo'zg'alar – qo'rquv solar chin;
Va shunda hukumat to'plagan kuch ham
Parchalanib ketar uchib o'shal dam.
O, kun! Kunlar ichra tanlangan u kun!*

54

*Menga eshitilar tabiatdan sas,
Ovoz, eng birlamchi sasi, Xudoni (253);
Abadiy silkitar zulmatni gumbaz,
Bu on mavjudotning tug'ilari oni.
Ko'rkam qiyofada, yolg'iz surib ot
Yaqinlashib kelar yaratguvchi zot –
Va uning taratgan nurlari yorqin.
Tuzatib asirning soxta asosin,
Tarqatib quyuq tumanlar safin,
Bulutdan tug'ildi muzaffar bir kun.*

«Bilmoq istaysanmi, kimman, nimaman, keturman qayon?»

*Bilmoq istaysanmi: kimman, nimaman,
Keturman qayon?
Men o'sha, bo'lganman, borman hozir ham,
Bo'lgayman mudom.
Na hayvon, na daraxt, va na quldirman,
Ammo men inson!
Yo'llar yotqizaman, unda izimdan
Bo'lмаган nishon,
Aslida nasr ham, nazm ham botir
Qo'rmaslar uchun,
Ta'sirchan yurakka hadik-la tugdim
Haqiqat kuchin,
Va men bormoqdaman zavq bilan, dadil
Ilimskiy tomon.*

1791-yilning boshi

«Ne sabab, ayt, do'stim, nechun ko'zingda yoshlaring xalqob...»

— *Ne sabab, ayt, do'stim, nechun ko'zingda
Yoshlaring xalqob,
Nechun bevaqt g'am aks etib yuzingda
Bermoqda azob?
Ammo bechoradil bir sen emassan!
Atrofingga boq,
Kulgi nimaligin bilmaslar,
Baxtli
Ko'rinar biroq.
Lablariga qo'ngan dardchil tabassum
Ketar bo'linib.
Pushaymonlar go'yo ilon kabi jim
Chaqar dilini,
Dunyo hukmdori, erur u podsho,
Qalbida og'u.*

– *Na do'st, na yorim bor, men uchun shifo
Bo'lgaymikan bu? .*

*O'rmonlar kezaman, cho'l biyobonda
Mahkumman mutlaq.*

*Meni o'rab olgan to'rtala yondan
Jirkanch hukumat.*

*Yashamoqdan ne naf, o'tsa gar umr
Beiz, besamar?*

*O'tgan kunlaringni esga ol, suyuk
Eding qanchalar?*

– *O'tgan kunlaringni esga ol, suyuk
Eding qanchalar?*

*Seni bilganlarga, yurtdoshlaringga
Do'stga, qadrdon,*

*Xushomadli onlar ko'zing oldida
Bo'lsin namoyon,*

*Qo'lingda kuch, o'zing taxtda bo'lganda
Shod eding beshak,*

*Taqdir hukmi bilan go'yo sendagi
Yolg'iz bir istak*

*Va bitta nigohing baxtli qilmoqqa
Edi-ku qodir.*

– *Saodatlar bilan qadrlanmoqqa
Bo'lmadim dohil (254).*

*Boylik va hukumat, ko'paytirdi u
Hasadni faqat;*

*Do'stlik libosida qancha yovuzlar
Turdilar qat-qat;*

*Izzatparastlikning ortidan to'plab
Keldi tashvishlar;*

*Ochko'zlik odil sud, hakamni la'nat
Hukmiga tashlar;*

*Yuraksiz niqobni taqib yurdilar
Zaharxandalar,*

*Mening toza maqsad, amallarimga
Johil bandalar
Sabab etib makr, iflosliklarni
Ko 'rsatmoq bo 'ldi,
Yaxshilarga badbin libos kiydirib,
Ham sotmoq bo 'ldi.
Ezgulikka qasos keltirdi ko 'p ranj,
Azobi taxir.*

– *Shuncha yolg 'onlarning ichida yupanch
Bo 'ldi-ku axir?*

– *Ruh muloyim erur, hamda yurak ham
Beg 'ubor erur.*

– *Yozg 'irmoqni to 'xtat, ko 'ngling ham ko 'tar;
Va o 'rningdan tur,
Illatlarga cho 'mib, yo razolatni
Sevib qoldingmi?*

*Va yoki yurakdan bor hissiyotni
Haydab soldingmi?*

– *Ruhim o 'zimdadir, men ham undaman,
Unda bo 'lganman.*

– *Amallaring sen-la, sen-la ruhing ham
Birgadir butkul.*

*Zorlanishni bas qil. Har nega qodir
Qudratli bir qo 'l,
Yuragingga mehr sola bilgay u,
Qalbga nafosat,
Dilingga chaqirib yana tasalli
Soladi albat.*

*Ammo uyqularing buzib, bezovta
Qilmasa vijdon,
Eski ishlar yodi g 'amlar qo 'shmasa
Unda sen ishon:
Barcha kulfatlarga yaqinlab kelar
Endi nihoya.
O 'zgarmas qonunlar o 'rnatdi Buyuk
Ota nihoyat:
Ya 'ni tug 'iladi yangilanishlar*

*o'zgarishlardan;
Tabiatda har ne yangilanadi
halokat bilan;
O'lim hayot berar va hayot o'lim
Bermog'i tayin,
Buzmoq mumkinmi taqdirning bu
Hukmin – qonunin?
Mana, endi ko 'kka ko 'tariloyotgan
Shafaqqa qara,
Yog'du sochar nurli aravasidan
Zar sochin tarab:
Va quyuq g'uborlar bag'rida yotgan
O'likrang uyqu
Yangilangan hayotni – zamin yuziga
Taqdim etar u.*
– *Bu hayot berguvchi nurafshon yog'du
Tovlanar chindan,
Tonggi orzularim haydab soldi u
Nigohlarimdan,
Yangiladi sokin, yoqimli uyqu
Jismiy holatim (255),
Va men yuragimda yana umidni
His qildim bugun.*
– *Xuddi shu alfovza quvonchga do 'nar
G'amga bandi hol,
Shodlik quroli-la barcha qayg'ular
Topgaydir zavol,
Va sening quvonching qanotlarida
Uchib ketgay g'am,
Jasoratli hamda kuchli bo'l endi,
Men ham sen bilan.*

1791-yilning boshi

Ibodat

*Seni, ey Xudoyim mening, seni hech tan olmaydilar, –
Sen haqingda hamma joyda gapirmoqdan tolmaydilar;
Eshit oxirgi so 'zimni: gar men gunoh qilgan bo 'lsam,
Qonuningni izladim men, lekin seni suydim dildan;
Titramasdan mangulikka boqmoqlidkan chekinmayman;
Sen meni bino etgansan, lekin sira tushunmayman,
Axir sensan saodatli kunlarimga nurin tutgan,
U dunyoda yana o 'zing jazoga giriftor etgan.*

1792

Tarixiy qo'shiq

*Uy ko 'rinishi bilanmas,
Pirogi bilan go 'zal (256).
Rus xalq maqoli*

*Qaldiroqlar, larza solib gumburlang,
Yerning o 'qi ega o 'z asosiga,
Vaqt tez oqar, g 'oyib bo 'lgin tez sen ham, –
Ochilmoqda abadiyat kitobi.
Kelajak haqida meng so 'ylamasman,
Payg 'ambar emasman va sehrgar yo,
Va emasman Delfi pifyasi i'ham,
Ko 'rayapman vaqtning oqishin ammo.
U mening qarshimda bo 'ldi namoyon,
Kuchli ruhiyat va aql tutguvchi,
Xudo odamlarin qutqargay shu on,
Qora Dengiz ichra oqib o 'tguvchi,
Cho 'l va biyobonlar, kengliklar aro,
Joylashmog 'i mumkin o 'lim-la hatto*

¹ *Delfi pifyasi* – Qadimgi Yunonistonda, Parnas tog 'ining yonbag 'rida joylashgan Delfi shahridagi Apollon ibodatxonasida Delfi karomatgo 'ylik ibodatxonasining ruhoniyy-avliyosi. Pifiya Pifon iloni nomidan kelib chiqqan bo 'lib, u yerni Apollon egallangua qadar ibodatxonani qo 'riqlagan va Apollon o 'qidan o 'lim topgan.

*Ishonuvchan hamda bu beqaror xalq.
Yaratgan nomi-la Muso shunda
Amalga oshirdi ajib mo 'jiza;
Isroil xalqiga tutdi u qonun.
Haqiqatning etagidan tutib chin
Boshqarmoqqa qodir olomonni u,
Va chorlamasa ham olomon uni,
Ro 'paraga boqar va qarshisida
Ko 'rmayin xurofotning oqibatini,
Ayta oladi u tik tutib qaddin,
Oliy Yaratgandan elchi ekanin.
Va Xudoning nomi bilan Muso
Qonun-la boshqarar, qo 'lida aso
Qaldiroqlar ichra, chaqinlar ichra
Unga hukmiy aso¹ uzatgay samo.
Tafakkurni jamlay bildi bir yerga,
Yurak, aql birla bo 'ldi rahnamo.
Kelayapti, mana Semiramida²,
O 'zining qo 'ng 'iroq qora sochini
Berkitadi oltin dubulg'a bilan;
Jasorati bilan u janglardagi,
O 'tkir aqli bilan kengashlarda
Nizo chog 'ida u qat'iyat tutib
Hammaning yuragin, aqlin zabit etib,
O 'tmishni o 'chirdi yodlardan mangu,
Qotillikni sodir etgan qo 'lida
Hukumatning asosin tutganicha u.
Navuxodonosor kelgaydir endi³,
Janglarda bayroqni ko 'tarib tikka
Devoriga ildi yangi Salemning.(257)
So 'ng esa kulini sovurdi ko 'kka,*

¹ Aso – hassa, hukmdorlar, shohlar qo 'lidagi aso, hukmdorlik belgisi (*tarj.*).

² Semiramida, Shamiram – akkad va qadimiy arman afsonasiga ko 'ra Ossuriyaning afsonaviy qirolichasi, afsonaviy shoh Ninning rafiqasi, u makkorlik bilan erini o 'ldirib, uning taxtiga ega bo 'lgan (*tarj.*).

³ Navuxodonosor II (eramizdan avv. 634–562-y.) – Yangi Bobil podsholigi shohi, eramizdan avv. 605-yil 7-sentabrdan 562-yil 7-oktabrga qadar boshqargan (*tarj.*).

*Yegova xramin yakson qildi u,
Va nasroniyarlarni asir oldi u.
Olib keldi erkdan qilib mosuvo.
O'tiradi mag'rur, naq uchmoqqa shay,
Oltindan bezalgan taxti ham hatto,
Ibodatxonada aksini ko'rgay,
Xudoga tenglaydi va tutatarlar
Qimmatbaho, xushbo'y tutatqilarni
Uning sharafiga kun-u tun tinmay.
Lek bu quyuq tutun vahshiyliklarni
Ko'kka olib chiqar uchirib mag'rur.
Aqlini yo'qotar shohlarning shohi.
Hayvonga aylandi – o'rmonda sang'ib
Botqoqlardan ovqat izlab yurguvchi...
Taxning ustidagi bu takabburlik
Sud hukmini bitdi arshga yetgulik.*

*Troya, Tir, Sidon hamda Karfaga (258)
Qadimiy hindular, qadimiy xinlar
Va biz bilmagan yana qancha xalqlar
Qadam tashlar tuman birla qoplangan
Noma'lum joylarga;
Ammo miltirar
Zulmat yopgan yuz yilliklar qa'ridan.
Donolar sharafi go'yo chaqinday
Chaqnab turar tiyra bulut bag'ridan.*

*Qara, Omir (259) aytgan dil so'zlariga,
Axilles va yoki Paridil Gektor... (260)
Va yana boq, alvon ro'dapo kiygan
Sidon hamda Tirning odamlariga,
Oltinga talpingan ochko'zliklarni,
Shamollar qanotda olib ucharlar
Dunyoning har turli o'lkalariiga.
Endi Karfagada avlodlarin ko'r:
O'tkir aql birla yuritib savdo
Taxlaydilar qo'sh-qo'sh daromadlarni.*

Gannibal (261), ajoyib, buyuk rahnamo...
Ammo davrlarning tishi temirdan,
Ularning shahri va sharafin yiqli...
Ular dono braxmanlar avlodi (262),
Mahbusidir surbet yovuz kaslarning,
Avloddan avlodga o'tkazib ular
O'zlarin muqaddas qonunlarini
Saqlab keladilar Yezurvedada (263)
Qadimiy sanskrit yozuvi bilan –
Ularning qadimiy shonidan nishon,
Va nomuslarining guvohi erur!!..
O Konfutsiy¹, o, sen mo'tabar inson,
Dahshatli to'fonlar, taloto 'p ichra
Sening har bir so'zing nur misol yorqin.
Vayronalar ichra yurtdagi, g'arib,
O'lтирар hamisha nурday tovlanib
Va butun asrlar, yillar orgali
Yuksak, juda yuksak parvozlar bilan
Ko'kka ko'tarildi va qildi parvoz...
Ana, kelyapti sening davrdoshing
Zoroastr (264) – Zardo'sht; u Fors elida
Butun koinotda hayot ruhini,
Yangi e'tiqodni ta'sis etadi.
Va doim nurafshon otashkadada
Olov yonib turar, hamon yonmoqda,
Bugun ham Xudoga qurbanlik bo'lib.
Donishmandlik ruhin shunday zo'r kuchi
Avlodlarga qadar saqlanib kelar,
Va nurin taratib, nurafshon bo'lib,
Yashayveradi u abadul abad.
Kir esa rahnamo (265), asos solgan u
Qadim Fors yurtining podshohligiga.
Biroq bilmay qoldim, kimga ishonay:
Yo haqiqat bilan bitilgan qissa,
Yo Ramzeyning balandparvoz so'ziga?

¹ Konfutsiy – qadimgi Xitoy faylasufi (*tarj.*).

*Podsholar podshosi, buyuk hukmdor
Ne ajabki, Tumarida¹ qo 'lida
O 'zining mangulik o 'limini topgan,
Va boshi tanidan qilingan judo.
So 'ng qon to 'la meshga qo 'yilgan solib,
Qulog 'im ostida jaranglar so 'zlar:
«Ich, qonxo 'r, shu qondan to 'yguningcha ich,
Butun umr unga tashna eding sen!»*

*Quyoshda tovlanar, mana Ellada;
Qahramonlarining jasoratlari
Zafar nuri bo 'lib yoritib turgay,
Shamol qanotida uchib borarlar
Oltin yungni qo 'lga kiritmoq uchun.
Ana, Yazonni (266) ko 'r, sehrli yurtda
Kolxidada bardosh bera oldi u,
Chang solganda qo 'rquv, afsun va og 'u,
Va oltin yung ila u Mediyaning
Nafis yuragini eta oldi zabit.
Qara, Alkid (267) qanday qo 'ydi qayirib,
Qo 'pollik, qaysarlik qilganlar bo 'ynin;
Faqtat Xudogina bo 'lgaydir qodir,
U bilaklarining quadrati bilan
Qisqa bu hayotda qilgan ishlarga.
Xaloskori bo 'ldi musofirlarning
Buziridni² halok etishi bilan;
Odamxo 'r otlarga yemish qildi u –
O 'z yurtiga kelgan ajnabiylarning
Go 'shti bilan boqqan o 'sha otlarga
Diomedning o 'zin Frakiyadagi;
Va Erimantdagi vahshiy to 'ng 'izni
Jilovlay bildi u abjirlik ila;
Stemfaliyada botqoqliklarda*

¹ Tumarida – To'maris (*tarj.*).

² Buzirid (*Busiris*) – qadimgi yunon mifologiyasi personajи, Poseydon va Lisianasaning o 'g'li, Misr fir 'avni, Zevsga odamlarni qurbanlikka keltiruvchi, Gerakl tomonidan o 'ldirilgan (*tarj.*).

*Qanoqli maxluqlar – yovuz qushlarni
Uchqur nayzalari, o'qlari bilan
Qirib tashladi u barini bordan.
Jangga kirar bo 'lsa botir pahlavon,
Bas kelolmas unga hech kim hech qachon.
Lernadagi yuzbosh ajahoni u
Yengib, halokatga qildi ro 'baro'.
So 'ng esa Nemeya o'rmonlarida
Dahshatli sher bilan olishdi yakkash.
Uni bir lahzada sug 'urdi jonin,
Va g'alabasining qilib nishoni
Sherning terisini shilib oldi u,
Va keng yelkasiga ilib oldi u.
Tuyoqlari kumush, shoxlari oltin
Shamolday yugurik tog' echkisin ham
Kiritoldi qo 'lga mohirlilik bilan;
U hatto Arxeloy irmoqlarida,
Darg 'azab buzoqning qiyofasida
Yashagan ma 'budni qo 'lga kiritib
Yengdi; so 'ng nishon, deb g'alabasidan
Uning shoxlarini oldi sug 'urib.
Qancha maxluqlarni qildi u yakson,
Va qancha devlarni yengdi mardona;
U mushaklarida kuchini yig 'ib,
O'ldirib qo 'ydi u Anfiyni bo 'g 'ib.
Uning qarshisida hatto bahaybat
Kentavrlar bargday titragay albat.
U jasur ayollar, mag 'rur ayollar,
O'zining juftini suymas u shaddod –
Yengildilar hatto amazonkalar
Va ularning go 'zal qirolichasin –
O'rnak qilib dilbar Ippolitani,
Fiseyga turmushga berib, ularni
Yashashga o 'rgatdi erlari bilan.
Va osmon bag 'ridan olovni yulib
Olgan jasoratli Promifeyani*

*Beshafqat o 'limdan oldi qutqarib.
So 'ng esa Kavkazda qiynoqqa solgan
Forsiy dushmanini tashladi qirib;
So 'ng ummonlar bilan qurshab olingan
Yetib keldi dunyo sarhadlariga,
O'zining qudratli qo 'llari bilan
Baland ustun qo 'yib yerning shariga
Bosdi va ikkiga ajraldi zamin.
Ikki tog' yuksaldi ikki yonida,
Kalpe va Abila (268), etaklarida
Uning afsonaviy ishi bitilgan
Ikki baland ustun turar yuksalib.
Bu to 'siq oldida dengiz shovullab,
To 'lqinlari bilan mavjlanib turar,
Yerning va tog'larning oralig 'ida.
U butun dunyoni shonga to 'ldirdi,
Tushib Plutonning sultanatiga
Uning qo 'riqchisi uch boshli tozi –
Kerverning bo 'yniga soldi sirtmoqni,
Biroq tabiatga qarzini to 'lab,
Zaif edi yarim xudo, qahramon
O 'lim Omfalasin quchoqlarida;
Gurzisin to 'shakka almashtirdi u.
Va u shu ilohiy zaiflik bilan,
Abadiy dunyoning podshosin o 'g 'li,
O 'nta rafiqaga ega bo 'lib u,
Ko 'plab avlodlarni yarata bilgan
Sharafli otaga aylangan Alkid –
G 'aroyib mo 'jiza yaratdi oxir,
Bir kechada ellik nafar qallig 'in
Quchog 'iga oldi va so 'ng bir kunda
Ellik nafar o 'g 'il tug 'ildi undan.
G 'aroyib o 'n ikki jasoratlari
Unga olib keldi so 'ngsiz sharafni;
Qahramon bo 'ldi u qisqa hayotda,
Va yarim Xudoga aylandi foni.*

*Ammo yunonlarning bemisl jasur
Qahramonlaridan bir dam chekinib
Qara, hayotidan kecha oldi chin
Kodr (269) Afinani qutqarmoq uchun.
Qahramonlik qildi zar, oltin emas,
U o'z hayotini qo'yib garovga
Sevimli orzusi ushalmoq uchun,
Vatanni bermaslik uchun birovga,
Unda yashash jannat, ammo vatandan
Ayrilish dahshatli, o'tli jahannam.
Kodrning boshida kechar shu xayol,
Inondi bashorat qilingan so'zga,
Ya'ni Afinani qutqarmoq uchun
Qurbon bo'lish kerak eng qimmatbaho,
Eng bebahो narsa, eng aziz buyum.
Kodr dedi:
Yo'qdir asli dunyoda
Adolatli shohdan ko'ra qimmatroq,
O'zini shunday shoh hisobladi u,
Va o'z davlatini qutqarmoq uchun
Jonin qurban qildi;
Afinaliklar
Unga bajo aylab zo'r ehtiromin,
Va qahramonlikka – shu qadar shonli,
Mumkin emas, deya hisobladilar
Birovni o'tkazmoq uning taxtiga,
Shohlik boshqaruvin qildilar bekor.
Ammo tan oldilar, hech bir hukumat
Qonunlarsiz amal qilmasligini,
So'ng afinaliklar qildilar qaror,
Qat'iyatli hamda talabchan inson –
Qonunni ularga yozsin Drakon.
Har bir jinoyatni, Drakon biroq,
U katta bo'lurmi va yo kichikroq,
Yuvdi afinalik qonlari bilan.
Shunday qilib, ko'p vaqt o'tmay oradan
Qonlarga qorishiq so'zлari bilan, –*

*Yangi qonunlarni yaratdi Solon¹
Afinaliklar uchun qaytadan.
Kuchli ehtirosni jilovlaydigan,
Attikada zaif qonunlar bari
Keltirib chiqardi chalkashliklarni.
Hukumat qonunin behuda toptab
Amalparast, tiran² ul Pizistrat (270),
Mensimasdan shahar va hukumatni
Shaharni tark etdi va ketdi qochib.
Ammo ajablanmoq lozim ne uchun:
Amaldagi kuchsiz qonunlargami,
Yo uning beqaror, lekin donishmand
Xalqni g'alaba va sharaf yo 'lidan
Zo'r erlar tug'ilib o'smog'i uchun
Boshqarib borgani ajablimidi?
Bular o'tib borar ko'zim oldidan,
Shunda nigohimda bo'ldi namoyon
Xudo bergen inson, ajoyib inson,
U o'z aqli bilan qamrab olgandi
Butun xalq o'zaro aloqalarin,
Hamda ruhiyatini yo'naltirolgan
Umumiyyadan shaxsiy manfaatlarga,
Yurak va aqlning izmida hamma
Bo'y sunar sevimli vatan so'ziga.
O Likurg (271), sen bitgan qonunlar bilan
Barcha bo'ynin mag'rur ko'tarar har dam,
Vatan qonun bilan yo'riqqa solar
Spartaliklarni yanada mag'rur,
Va ko'ngillarini mehrli qilib.
Butun Elladaning hurligi uchun
Dahshatli zamonlar keldilar yetib (272).
Son-sanoqsiz dushman gala quzg'unday,
Forslarning polklari safma-saf, qator
Ellada ustiga kelardi bosib;*

¹ Solon – Qadimgi Gretsya donishmandlaridan biri, shoir (*tarj.*).

² Tirhan – Qadimgi Gretsiyada hukumatni kuch bilan olgan kishi shunday deyilgan. Zolim, diktator ma'nosida ham ishlataladi (*tarj.*).

*Lek afinaliklar, spartaliklar
Ularning behisob qo 'shinlariga
Qarshi qo 'ydi yovqur yigitlarini
Miltiad (273), Gretsiya xaloskori u,
Marafon jangining g 'olibi mutlaq,
Lek umri tugadi chirkin zindonda (274).*

*Spartaning jasur shohi Leonid (275),
Vatanga muhabbat singgandi unga
Sevimli onasin oq suti birla,
Vatan-chun hayotin qildi u qurbon,
Uning bilan uch yuz jasur jangchi ham
Umri poyon topdi Fermopilada.
Aristidni aytsam,adolatlilik
Uning xislatida bo 'lgay namoyon.
Sud uni quvg'inga qilganda hukm;
Biroq hasadgo 'ylik uning chun nashtar,
Raqib bo 'lganida Femistoklga.
U forslar ustidan qozongan zafar
Salaminda barcha yunonlar bilan,
Olimp o 'yinidan oqib kelishgan
Qarshisida bo 'lgan birdan namoyon.
Uning mukofoti oltindan a 'lo –
Dafna toji erur hammadan ham ko 'p!
Lekin shu hurmatga edi munosib,
Salaminda jangda Gretsiyani
Qutqarib, erishgan bu shavkat, shonga:
Vatanini yovdan qutqarmoq uchun
Pisand qilmay mag 'rur u rahnamoni
Balandga ko 'targan qo 'lda asoni,
Zarba berib, unga ayladi javob:
«Yakson qil-u, faqat qulog sol biroq».
Va Perikl¹ esa makkorlik bilan
Ololdi Afina boshqaruvin,
Xalq bilan – o 'zining erkinligin*

¹ Perikl – Qadimgi Gretsiyada: Afina davlat arbobi.

*Jonidan ham ortiq sua bilguvchi,
O'z qoidalariqa ega bo'lguvchi.
Va Fidiyning¹ do'sti, taroshlaguvchi
Jasur Afineyning² qiyofasini,
Sevimli yori u Aspaziyaning³,
Hatto Suqrot, (barcha ezguliklarni
O'zida mujassam etolgan inson)
Ustoz deb bilmoqni sharaf, deb bilgan
O'ziga shavkatli Aspaziyan;
Anaksagorning (279) ham do'sti edi u,
Anaksagor – sodir etdi xurofot –
Ilohiy tumanning og'ir yukini.
U yoritgich haqda tafakkur etgan
Ma'budlar guruhin parchalab tashlab,
Va butun dunyoda u birinchi bor,
Ibtidoni bilmoq jur 'atin topgan
Va uni ayplashgan xudosizlikda⁴.
Alkivyad (278), bu dono, ajoyib inson,
Badavlat, taniqli, mohir yo'lboshchi,
Buyuk fazilatlar sohibi erur
Va xoli emas u qusurlardan ham.
Sahovatpeshadir gohida, faqat
Maslahatlariga qulq solgan vaqt
Sevimli do'sti-yu hamda ustoz
Sokratning;
U jo'shqin ehtiros vaqt
Alanga oladi hamda shiddatkor;
Qiyofasida-chi, aks etar doim
Urf odat, qoida hamda taomil,
Bu esa maqsadga erishmoq uchun,*

¹ *Fidiy* – qadimgi yunon haykaltaroshi, me'mori, o'z davrining buyuk klassik rassomlaridan biri, Periklning do'sti.

² *Afiney* – qadimgi yunon yozuvchisi.

³ *Aspaziya* – Periklning ikkinchi xotini. O'tkir aqli, go'zalligi bilan ajrab turgan. Uning uyiga rassomlar, shoirlar, faylasuflar yig'ilib turishgan. Suqrot ham uning bu yig'inlarida ishtirok etgan va Aspaziyaning mushohadalarini eshitishni yaxshi ko'rgan.

⁴ U hamma narsani dinga bog'lamasdan, sababni izlash lozimligini aytgan.

*O'sha davrda eng lozim amal,
Elladaning yovuz ruhi, qamchisi
Edi u va bo 'ldi so 'ngra qurboni
Shuhratparastlik va tanti hayotning.
Endi esa biz tez nigohlar bilan
Ajoyiblardan ham ajoyib yurtga,
Bunda Likurgning barcha qonuni
Kuchli xislat ila bo 'lgay hukmron.
Bunda rafiqalar bilmaydi nafrat,
O'zining muloyim juftiga, zotan,
Mukofotga loyiq bu inson faqat,
Spartaga bo 'lgan sevgisi bilan.
Bu yerda onalar rozi va xurram,
Jasorat ko 'rsatib, o 'g 'li janglarda,
Fermopilda jon qurban qilgan dam.
Buni tan olgaysan, o, sen Pavsaniy (279),
Spartaga bo 'lgan chin muhabbat
Senga bo 'lgan mehr o 'tidan baland,
Bilsang seni tuqqan o 'sha onaning.
Sening xulqingdagi axloqsizlikni
Jazolashga qaror qildi bu ona
Hammadan ham oldin.
Sen zotan
Dushmani erursan Lakedemonning¹;
Va qara, kelmoqda u ko 'tarib tosh,
Sen chiqar eshikni berkitmoq uchun,
Sotqinlik isnodin tugatmoq uchun,
Sparta hayoting birla olgay o 'ch.
Agesilay (280), mohir, aqli jangchi,
Munosib bo 'lgansan sen qadimdanoq
Vatan sharafiga;
Hashamatlardan,
Axloqsiz ishlardan bo 'lgansan yiroq.
O, qanday yaxshisan oddiylik bilan
Barcha ko 'ngilxushlik, kayf va safoni,*

¹ Lakedemon – qadimgi yunon mifologiyasida Zevsning o 'g 'li bo 'lgan personaj sharafiga qo 'yilgan shahar nomi.

*Almashtirding sen ot birla asoga,
Ular birla yurtning yeding g'amini.
O Lizander, dono ham sharaflı zot!
Mohir jangchi! Agar sen sal oldinroq
Tug'ilganingda gar bo'larding loyiq
Vatan sevgisiga, shoniga biroq.
Sening qahramonlik topgan ishlaring
Balki makkorlikdan bo'lardi yiroq,
Bo'lmas edi balki ayyor sotqinlik,
Keskir qilichingning vositasida
Haqiqatga dohil bo'larding.
Biroq –
Razolat o'zining yozib ildizin
Lakedemonliklar qalbida chuqur,
Muqaddas qonunni qildi u bekor,
Likurg o'rnatmoqqa intilgan edi
Mustahkam oddiylik va fidoyilik
Birla asoslangan bu qonunlarni
Hamda kuchli, izchil tarbiya bilan.
Va navqiron Agiy, orli, nomusli,
Ujasoratli o'z qo'llari bilan
Spartaning barcha a'mollarini
Qadim ibtidoga o'girmoq bo'ldi,
Ayanchli qurbonga aylandi biroq
Ochko'zlik va buzuq axloq qo'lida.
Ulug'vorlik ruhi quyila boshlar
Elladaning uzoq so'ngiga qadar
Fivaliklar ichra nur chaqnar birdan;
Garchi Pindar¹ o'zining karnayi bilan
Tug'ilgan vatani, ona shahrida
Sokin kuylarini chalgan bo'lsa-da,
Lekin Fiva² o'zida o'rnashib olgan
Dag'alligi bilan ajrab turardi
Butun Elladada u o'zgalardan.*

¹ Pindar – qadimgi yunonlarning mashhur shoiri, Fiva atrofida tug'ilgan.

² Fiva – shahar nomi, Gretsianing chetida joylashgan bo'lsa-da, markaziy strategik ahamiyatga ega bo'lgan qadimiy shahar.

*Va ikki buyuk er, shu ikki inson,
Lavr tojin taqib, quchganicha shon,
Ular birgalikda vatanin nomin
Yuksak darajaga chiqoldi olib.*

*Pelopid (281), donishmand erur, ham jangchi,
Buyuk inson erur hamda haloskor
Qutqara olgan u Fiva shahrini
Mag'rur Spartaning jabr-zulmidan.*

*Ammo yarqiragan uning sharafti
Yon berdi do 'stining yangi shoniga.
Do 'sti Epaminond (282), birinchi bo 'lib
Epaminond haqda buyuk Sitseron*

*E'tirof etgandi ushbu so 'zlarni:
U hammadan ko 'ra biladi ko 'proq,
Hammadan ko 'ra kam gapirar biroq.
U Fivda balanddir, ulug 'dir, ammo,
Na zar, na oltinga boqmaydi qyio.*

*Sindirdi Sparta mag'rurligini,
G'olib halokatga tutdi endi yuz,
Muzaffarlik ila qoldiroldi u
Levktra, Mantiney g'alabasini.*

*Filipp esa kishan tayyorlar zimdan,
Va yoki ayyorlik to 'rini to 'qir,
Butun Elladaning erkinligini
Tutib, parchalagan bu tutqun joyda.*

*U qo 'shinlar safi asoschisidir,
Piyoda qo 'shinlar falangasini¹,
Qonga qorishtirib tayyorlagan u
Kunlarni to 'sguvchi og 'ir kishanni*

*O Filipp, sen yoniq g'azabing bilan
Barcha bo 'yinlarni balki egarsan;
Ammo buyuk ruhning sohibi bo 'lgan
Demosfenni kim tiz cho 'ktira olar?*

*Balki vujudini kuch-la egarsan,
Balki jasadiga ega bo 'larsan,*

¹ *Falanga* – piyoda qo 'shinlarning jipslangan safi.

*Ammo egolmaysan ozod ruhini.
Aleksandr¹ esa qo 'llagan holda,
Makkor ul Filippning, dono Filippning
Barcha qilganlarin o 'z foydasiga,
Halokatli bo 'ron olib keldi u,
Va bo 'ron uyurin yovuz ruhi-la
Barcha to 'siqlarni buzib, yeldi u
Osuda Pelladan² (283) boshlab u toki
Qirg 'oqlarigacha baxtli Ganganing.
Do 'stining qotili bo 'lgan kasallik
Umrin zavol qildi Aleksandrni.
Me 'yoridan ortib ketgan ochko 'zlik
Uning halokatin keltirdi tayin.
Qo 'shinning takabbur rahnamolari
Hamda askarlari Aleksandrning,
Va shohlar bo 'ldilar umrin zavoli.
Aleksandr vafot etgach, keyin ham
Qadimiy ruh yana chaqnadi bir bor
Ko 'rdi axeyalik xalq ittifoqi
Dunyoga kelyotgan hurlik yuzini,
Ammo zaif edi chaqnagan uchqun
O 'rnata olmadi hatto Arat ham
Yiqilgan Ellada ozodligini,
Sen emas, ey banda, bunday munosib,
Oxirgi yunon u, deb atalmoqqa,
Filopemen halok bo 'ldi va hurlik,
Qadim grek yurtida miltiragancha,
Butunlayin o 'chdi u yonmas bo 'lib.*

* * *

*Sharafli zotlarning bu guruhlari,
Bu senatdir va bu Rim xalqi erur,
Shohlar qo 'shinlari, undan ham baland*

¹ Aleksandr Makedonskiy.

² Pella – Makedoniyadagi Filipp tug'ilgan shahar.

*Hukmdorlaridir ular xalqlarning.
Endi esa keting va hozir bo 'ling
Mening maftun bo 'lgan nigohlarimdan!
Siz ko 'rk va ziynatsiz, siz bir hayratli,
Inson deb atalmish xilqatga oid,
Saxovatpeshasiz siz nazokatli
Ko 'kka ko 'tardingiz siz imkon qadar;
Lekin qabohatga qulashib birdan,
Yovuzlik, vahshiylik bo 'ldi a 'moli
Bizga ma 'lum bo 'lgan barcha xalqlarning.
Romul (284) tashkil qildi o 'z podsholigin,
Buning bilan qo 'ydi Rimga poydevor.
Va Numa¹ iloha Yegeriyaning
Qonunlar bermog 'in etdi ixtiyor.
Va u qo 'shinlarga yagona qarshi,
O 'z qaysarligining bo 'ldi dushmani.
Hamma shohlar Rimning sarhadlarini
To Tarkviniyga, imkon boricha
Kengaytimoqlikka urindilar ko 'p.
Va lekin Tarkviniy² temir asoni
G 'alayon ko 'targan xalq tomon cho 'zdi;
Biroq halokati Lukretsianing
Dahshatli kulfatlar keltirdi unga:
U quvg 'in qilindi abadulabad.
Bu esa Brutdir (285), qo 'li qizargan
O 'g 'il va tiranning qonlari bilan,
Rimning ozodligin ilk binosiga
O 'rnata oldi u poydevor toshin.
Bu Kokles (286), yagona qilichi bilan
Xalos etdi Rim va uning sharafin;*

*Dahshatli o 'limin topgan u Detsiy (287)
Qurbon bo 'ldi umummanfaat uchun.*

¹ *Numa* – Numa Pompiliy, Rimning Romuldan keyingi ikkinchi shohi, Senat tomonidan saylangan.

² *Tarkviniy* – Lutsiy Tarkviniy Qadimgi Rim afsonalariga ko 'ra Rimning oxirgi, yettinchi shohi.

*Yuragida uning xurofiy sevgi,
Vatanga bo 'lgan shu sevgida yonib,
Kursiy o 'z xalqini qutqarish uchun
Neki kuch va hatto ayamay jonin
Uchib bormoqdadir yerning qa 'riga.
Qara, endi, mana Ssevolani (288)*

*Rimning xavfsizligin ta 'minlash uchun,
Qurban qilib, o 'tga tutdi qo 'lini,
Olovning taftidan titramadi u,
Ko 'mirga aylanib borsa ham dasti,
Chidab bo 'lmas og 'riq qo 'zg 'atolmadi
Uning qat 'iyatli, qo 'zg 'almas ruhin.
O Meneniy (289), u o 'z manfaatini
O 'ylamaydigan zot!
Sening oldingda
Oltin ham, boylik ham kuzgi yaproqday
Uchib ketar,
Unga qaramaysan sen.
Qashshoq eding hatto Senatda bo 'lib,
O 'limingdan so 'ng ham qabringni kovlab,
Qaysidir talonchi o 'g 'irlaydigan
Na zar qoldirding sen va yo na oltin.
Lek yurtning buyuk qalb fuqarolari
Sening hurmatiningga, seni e 'zozlab
Yurak amri bilan o 'z oltinlarin
Keltirdilar qabring ustuni uchun!*

*Og 'ir kishanlarni parchalab tashlab,
O 'z taniga sig 'mas kuchlari bilan
Sinsinat (290) shovqinli shu dunyo ichra
Kichik bir qishloqda oddiy kun ko 'rar.
Ammo u ajoyib saxovatpesha
Chetda qarab turish kelmas qo 'lidan:
Oliy darajaga ko 'tarildi u
Tiyra bir kunlarda Rim orasida
Mehribonlik hamda qat 'iyat bilan
To 'zigan tartibni o 'rnatar tiklab;*

*Samarasin ko 'rdi va chorak yilda
Birinchi o 'ringa ko 'tarildi u;
Rimning dushmanlarin yenggan bo 'lsa ham
U oddiy amalda o 'tirar, ya 'ni
Oddiy fuqaro u;
Mehnat qurolin
Yana qo 'lga olar, ishlar dalada.
Shu qadar buyuk u, ezgu amali,
Qadam tashlab borar omoch ortidan,
Va qaysar hayvonga qamchisi bilan
Birga mehnat qilib yerni haydatar,
U shundayin oddiy, buyuk shundayin,
Parchalab tashlagan Rim dushmanlarin.
O Kamiliy (291), ulug 'sening shavkating,
Sen tanhosan ezgu ishlaring bilan,
Xuddi g 'ariblik va qayg 'uda kabi
Baxtli kunlaringda, omadingda ham.
Quvg 'in qildi seni badbin makkorlik
(Eh, bu doim bo 'lgan, bo 'lar yana lek,
Har doim ezgu ish hamda saxovat
Tug 'dirmasa edi chirkin hasadni.
Unda bo 'lmas edi nafrat ham tayin,
Yovuz va jirkanchli illatlarga ham),
Sen o 'z vataningga muhabbat bilan
Alam ichra qolib, bo 'larsan quvg 'in
Shunda ham sen Rimga berursan yordam.
Va bu Brenn (292), qo 'rqmas, zo 'r rahnamosi
Yovvoyi, beshafsat gall qabilasin,
Rimliklar qo 'shinin yengib kirdi u,
Hamma joyda dahshat purkar nafasin,
Ammo titramaydi Brenning yuragi
Rimliklarni esa chulg 'adi qo 'rquv;
Lekin Rim baxt topgan onlardan ko 'ra
Kulfatda mustahkam, ulug 'roq bo 'lgan.
Uning devorlari qoldi huvillab;
Ayollar, bolalar va qariyalar
Faqat ular qoldi shahar bag 'rida,*

Zafariga boqib ochko ^z gallarning.
Biroq tirik edi Kamill – haloskor,
Faqatgina edi Rimdan uzoqda.
Kulfatlar tug ‘ilar yana galma-gal,
Va holdan toydirdi hammani qamal,
Nihoyat rimliklar ko ‘ndi Brennga
Tinchlik evaziga oltin bermoqqa.
Lekin Kamill kirdi shaharga birdan
Qalbida o ‘t, garchi g ‘amdan egilgan;
Ko ‘rdi, keltirishar oltin ortmoqlab
Tinchlik haqqi uchun uni tortmoqqa.
Tarozi to ‘lmadi, chekdilar qayg ‘u,
Tarozining yoniga kelib shunda u,
Yengil pallasiga qo ‘ydi qilichin,
Va shunday dedi:
«Bu, – galliklar uchun, –
Tinchlikni ulardan oltin bilanmas,
Mana shu qilich-la olgaymiz faqat».
Shu bitta so ‘z bilan hamda tetik ruh.
Rimliklar qalbini yoqa oldi u,
Rim istiqboliga boqa oldi u.
Va Rim qutqarildi, g ‘am topdi yakun,
Qara, gallar ne ham deyishi mumkin;
Qat ‘iyat shu bitta so ‘zda jam edi,
Qadimda bitta so ‘z berib hayotni
Yaratmoq kuchini berolgan edi,
Va bu Kamilliyning so ‘zlari, tayin.
O, siz buyuk erlar, bezab turgaysiz
Vataningiz Rimni, uning-chun shaysiz;
Qalbingizda unga muhabbat yonar,
Uning-chun boringiz qildingiz qurbon,
Faqat tabiatni unutib gohi.
Manliy o ‘z o ‘g ‘lini hukm qiladi,
O ‘limni totadi, itoatkorlik
Harbiy qo ‘shinlarda saqlanib qolgan;
Detsiy, harbiydagи titroqni ko ‘rib,
Va tavakkal qilib, o ‘zni topshirib

*Yer ostining xudolariga,
So 'ngra
Birdan hamla qildi, dushman ustiga,
Jangda o 'lim topdi, ammo sharafli
Rimliklar qalbida uyg 'otdi jur 'at,
Zafarlar ulashdi hamda ularga.
U sening o 'g 'lingdir, senga munosib,
Sharaflanmoqda ham sendir qiyosi,
U ham yaratadi va yakun topar.
U va siz o 'tdingiz ko 'zim oldidan,
O, boylikni pisand qilmaydiganlar.
Ey, sen, Kuriy! Shundan degan eding sen
Samnitlarga, senga oltin keltirgan:
«Istaymanki, qo 'lda ko 'p oltini bor –
Bo 'lganimdan ko 'ra men boy hukmdor,
Aksincha, oltini ko 'p va badavlat
Odamlarga hokim bo 'lmog 'im afzal».
Eh! Mumkinmi uning jilosи bilan
Arznomasi bilan bunga kelganga
Xushomad qilmoqmi va yo avramoq.
Xabarchilar butun xalqni ko 'rgaylor,
Yog 'och idishlarda ovqat tortyotgan.
Mana, yana bir er bo 'ldi namoyon,
Oltin va kumushga nafrat-la boqqan
Saxovat sohibi Fabritsiydir (293) u;
Rimning dushmanlari qolgay hayratda,
Munosib eding sen o 'rin olmoqqa
Mana shu shaharda va shu guruhda,
Zotan bunda dono Kiney o 'ltirar,
Va shunday degay:
«Rim asli xudoning, –
Ibodatxonasi erur yerdagi,
Senat esa – shohlar yig 'ini erur».
Pirr esa, oltinni qo 'ydi o 'rtaga,
Fabritsiyning toza yuragini u
Mahv etish kelmayin qo 'lidan,
deydi:*

«Fabritsiyni ezgu va haq ishidan
Haqiqat yo 'lidan og 'dirish uchun
Uni avramoqdan ko 'ra osonroq
Quyoshni yo 'lidan aldab qaytarmoq».
Kim unga qaraydi butun yuz-ko 'zin
Jarohat qoplagan ayanchli zotga?..
Regul, bilar edi Karfagadagi
Uni kutayotgan qiynoq, azobni:
«Sizga tinchlik emas, urush berilgay,
O, siz senat, o, siz, Rim odamlari!» –
Va qurbanlik tushdi qonlarga qoriq
Uning bergen dono maslahatidan.
Ammo olib keldi senga halokat
Gannibal (294), hayratga munosib inson,
U bilan Rim arang yiqilmay qoldi
O'zining sharaflı shohsupasidan,
Uchmaganda edi agar hasad ham
Qahramon parvozi yonida turib.
Fabiy (295) asta-sekin donishlik bilan
O'lchamagandaydi sening qadaming,
Unda kukunlarga aylanib bugun
Vayronalar ichra yotarding dimib
Zamin kurrasining bosqoni, ey Rim;
Unda ko 'rinardi avlodlar ichra
Haqoratlar bilan, yovuz, beibo
Ko 'klarga munosib bo 'lgan botirlar;
Va ular toj kiygan o 'sha makonda
Ularning ajdodi sharafi bilan
Hasham-la yarqirab o 'tirmas edi
Shavkatlanib butun jahon taxtida.
Gannibal, donishmand hamda qahramon,
Senga nima qarshi turishi mumkin?
Tabiatning o 'zin qudratin yetmas
Sening jasoratlari yurishlaringda
Yo 'llaringga to 'siq qo 'ymoqqa aslo
Cho 'qqlarning muzin ko 'chirib va yo
Bulutlar ustidan qaldiryoq, chaqmoq;

*Agar sharqiragan shovqinli Rona¹,
Eridan² va yoki uning oqimi,
Baland qo 'ng 'iroqlar chalib turguvchi
Alpning tepasida toshlar ustida,
Ular ham yo 'lingni to 'sa olmaslar,
O 'sha Trebiya³, Trazimena⁴
Ular faqat izlari erur
Sening oqilona yurishlaringning.
Va lekin bu Fabiy, mustahkam qoya,
U yerda shiddatkor intilishlaring
To 'siq topdi, ko 'rdi chegarasini.
Eh! Sen birla xalos etilgan u Rim
Bitta banya qoldi halokatiga.
Kannada,⁵ takabbur Varron singari,
Uning hamtovog 'i aqlsiz Pavla,
Rimni xalos qilmoq uchun qo 'lidan
Kelgani hayotni yo 'qotish bo 'ldi,
Zavol topdi umri jangchilarning ham,—
Bemulohaza daho va xayolparast
Kurashga kirishdi Gannibal bilan.
Turli ovozalar chalib karnayin
Xabar beradi Rim halokatidan;
Biroq endi Rimni qutqarmoq uchun
Vayronalar ichra qilgaylar hujum;
Uning sirti dahshat tusini olgan,
Hamma hayratda yurt qashshoqligidan,
So 'ng dunyoga keldi yana jasorat;
Rim xalos qilindi, endi Gannibal
Ne ham qilolardi Rim qarshisida?
Uchib ketdi endi uning baxt qushi
Yosh Ssipionning (296) ro 'parasida.
Gannibal ustidan bo 'ldi muzaffar.*

¹ *Rona* – Shveysariyadagi daryo.

² *Eridan* – Afina orqali oqib o'tadigan kichik daryo, Po.

³ *Trebiya* – Italiyadagi daryo.

⁴ *Trazimena* – Italiyadagi ko 'l.

⁵ *Kanna* – Italiya janubi-g 'arbiy qismidagi kichik shahar.

*Hasadlarni ko'rdi, yovuzlikni ham,
Yorqin sharaflarga ko'zin tikkan u
Buyuk erur uning jasoratlari;
Lekin xalq oldida ayplashdi uni,
Buyuk fazilatli, qat'iyatli zot,
Rimning dushmanlarin oldida dadil
So'ylagay jangovar yutuqlaridan
Hamda bo'htonlar va isnod ustidan:
«Ey, siz, Rimning xalqi! – xitob qildi u. –
Ushbu saodatli, xushbaxt kunlarda
Sizlar bilan yengdim Gannibalni men;
Xudoyimga bo'lsin hamd-u sanolar», –
Buni yana bir bor tantana qilib,
Uni kuzatmoqqa chiqdi butun xalq,
Kapitoliy sari yo'l oldi botir,
Rimning maydonini ortda qoldirib
Isnod yuki bilan bo'hton ostida.*

*Jasur Ssipion, ham vorislari
Nomi bilan bo'lgan yangi sharaflar,
Rimning raqiblarin vayron qilganlar...
Eh! Shu botirlikmi? Shu sharaflarmi? –
Lahzalarda buzib, vayron etishib,
Bundan asrlarni yaratganlari!
Nola-yu fig'onlar, g'ijirlashlari
Shiddat tulporiga mingan ul g'olib
Qilichi ostida o'layotganlarning...
Hamma yoqda oqar olovrang qonlar
O'zanini buzgan daryo singari...
Nafosat hosili – yerparchin bo'lgan...
Tafakkur mahsuli – yirtilgan, yongan...
Yana talonchilik, zo'rlik, surbetlik,
Barcha tutaqishlar; barcha vahshiylik –
Ular hissiyotdan bo'lgan mosuvo
O'lim talvasasin ko'rар beparvo –
Va bu qahramonlik, sharaf! –
Mumkinmi*

*His qilishi mumkin bo 'lgan yurakni,
Tafakkur qilishi mumkin aqlni
Shunday holga solmoq axir mumkinmi?
Yo 'q, tafakkur bezar fikr qilmoqdan,
Emiliya shonli o 'g'il ekanin,
U Lelyaning do 'sti, Polibya do 'sti,
Kuylarini sevar u Elladaning,
Hal qilishi mumkin va Karfaganing
Vahshiyona tusda halokatini.
Yo 'q, bu buyruq faqat yovuzlik erur
Mansabparastlik bu, shuhratparastlik,
Hukumatning ruhi to 'ymas hech qachon,
Ruhiyati kuchli, Rimni ko 'tarib,
Qadimgi Katonning (297) – qattiqqo 'l, johil,
Og 'zin bir chetidan ketadi uchib:
«Vayron qilinmog 'i lozim Karfaga!»
Biroq bo 'lgaysan sen yana vayronkor,
Xarob qilib sho 'rlik Numansiyani¹ (298).
Bu oddiy ohangmi yoki atama
Sening tomoningdan ijro etilgan,
Yoki senga lazzat bag 'ishlagaymi
Doim vayron qilish, vayronkor bo 'lmoq?
Kuchli hukumatni istab sen biroq
Diktatorlik bilan bo 'lding qurban
Mansabparastlikning² – me 'yor bilmagan.
Bular bari Rimda, hayratga solar
Hukmronlik kuchi, davlati bilan,
Ochko 'z ehtiroslar tug 'ila boshlar
Tahdid qila boshlar hujum qilmoqqa.
Osiyo va Korinf hamda yunonlar
Bo 'yinturuqlari ostida Rimning
G 'arib bo 'yinlarin egib turarlar.
Ammo dunyodagi qullik haqqiga
Bu barcha takabbur hukmdorlarga*

¹ Numansiya – Ispaniyadagi Duero daryosi bo'yida joylashgan aholi yashash punkti.

² O'sha vaqtdagi mish-mishlarga ko 'ra Ssipion zaharlab o 'ldirilgan.

*Oltin, kumush hamda boyliklar bilan
Rimga ishtiyoqlar otilib kirar
Barcha ezgulikdan mosuvo bo 'lgan,
Va unga halokat tayyorlab borar.
Eh, siz, muzaffarlar, onalarini
Dono aqlari birla bezatgan,
Biroq siz behuda maqsad qildingiz
Tiklamoqni buzg 'un, beqaror Rimda
Qadim axloq, udum hamda tenglikni.
Saxovatpeshalik himoya emas
Makkorlik, urishish, zo 'ravonlikka
Siz munosibdirlsiz qurbon bo 'lmoqqa
Yerga qulayotgan ozodlik bilan.
Mana, paydo bo 'ldi yana bir qattol,
Asilzodalarni yomon ko 'rguvchi,
Ilm ila fanni ko 'rguvchi yomon,
Lekin qo 'rqmas, botir hamda dovyurak,
Buyuk rahnamo u, ham jasur jangchi
Rimning xaloskori erur u, Mariy (299);
Mag 'rur, hukumatni suyadi jondan,
Butun umr unga intilib kelgan
Erishgani ko 'p;
Lek qilingan quvg 'in,
Quvg 'inlikda ham u oshna topinib,
Xiyonatkorona urushning unga
O 'limin keltirgan o 'sha odamga
Minturna bo 'yida shunday deydi u:
«Bu men, Mariydirman, dadil bo 'l biroq!»
Lekin nigohida buyuk ruhiyat,
Kulfatlar ichra ham buyukdir albat,
Olib kirgan tig 'ga to 'siq qo 'ydi u,
Va Mariy hatto o 'z qotilida ham
O 'zi uchun do 'stni topmoq bo 'ldi u;
«Bechora darbadar, yashiringancha,
Umri yakunini ko 'tarib og 'ir,
Sen omonat baxtning tasvirini ko 'r;
Qaragin ulug 'vor qiyofaga sen*

*Mariyni, g' alaba yetaklab yurgan,
Mariyni, Rimda u birinchi turgan,
Bu yerda o'tirgan Mariyga qara,
O'tirgan Karfaga xarobasida!
O, taxtga, sharafga tamagir odam,
Qara sen Mariyga titroqqa tushib».
Charxpalak aylanib turadi mudom,
U birla taqdir ham ketdi aylanib,
Mariy yana keldi Kapitoliyga;
Kulfatlardan zada bo'lgan bu yurak
Yanada shafqatsiz, yanada qattol,
Va uning beshafqat hukmdori ham
O'lim va jazoga to'ldirdi Rimni.
Qizargancha ko'kka ko'tarilgan kun
Yoritdi: hamma joy vayron va tutun,
Sochilib burqsigan g'aram ustiga
Rim qoni to'kilgan, –
Etildi ijro,
Bekor to'kilgan qon, behuda o'lim.
Biroq bu johilning nafsi bosilmas
Titroqqa tushadi Sullani eslab.
O'sha qo'rquv, xavfni unutmoq uchun,
Ichkilik komiga tushib qoldi u,
Mastlik ichra yakun topadi umri.
Bu esa Mariyga o'rindosh Sulla (300);
Nazokatli qalbga azob solguvchi,
Baxli yashamoqqa atalgan asli,
Taniqli avlodlar naslidan,
Bezak –
Bir necha iste'dod sohibi erur;
Aqli so'zamollik ila uyg'undir,
Mulozamatda u muloyim, epchil,
Biroq u sharafga ochko'z va tashna
Hamda mansabparast, taxtparast erur;
Jasur, harakatchan, oqil rahnamo,
Mifridat ustidan g'olib bo'lgan u.
Mifridat (301) qahramon, shavkatli podsho,*

Baxning ardog 'ida bo 'lmoqqa o 'rnak!
Rimliklar dushmani, nafratlanguvchi
Uning-chun salmog'i bo 'lgan bu xalqdan.
Yoshlik yillaridan his qilgan shonni
Unga qarshi turgan barcha to 'sinqi
Buzib o 'ta olgan;
Tetik tafakkur,
Yurakda hissiyot ham yuksak erur,
Mustahkam ruhiyat, dadil, mardona,
Mehnatda toblangan bahodirligi,
Shon-u shavkat ichra toblanib o 'sgan,
Jasoratli qalbning yo 'lin ochgan u,
Va hokimiyatni sevar jonidan,
Buyuk amallarga yetgay quadrati.
G 'alaba qozongan u Osiyoda,
G 'alaba qozongan u Elladada,
Lekin majbur bo 'ldi u yo 'l bermoqqa
Rimning toleyiga, Sulla baxtiga.
Qonli qilichini sug 'urib qindan
Va yetkazmoq uchun Rimga halokat,
Kurashdi o 'ttiz yil davomida u
Bosqinchilik bilan dunyoni talab
Kelyotgan zo 'ravon rimliklar bilan.
Ammo yozning og 'ir keldi kunlari,
Eh, unga qarshi bosh ko 'tardi Farnas (302) –
Rimlar so 'ziga kirgan o 'z o 'g 'li.
Buni ko 'rib qildi u joniga qasd,
Yutdi ta siri zo 'r o 'tkir og 'uni,
Biroq bolalikdan toblangan vujud
Og 'uning zahriga yon bermas tugal.
Shunda qilichiga tutdi mardona
O 'zining umidsiz, shonli hayotin.
Mifridatni yengdi, zafarga dohil,
Afinani mag 'lub etgan edi u,
Yenggan edi barcha axeylarni ham,
Barcha ittifoqdosh va rimliklarni,
Sullaning alvon rang olgan qilichi

*Bugungacha qondan xoli bo 'l magan,
Rimning yuragiga qadalgandir u.
Yurakdan shafqatni tashlagan yulib,
Sovuqqonlik bilan qilar qotillik,
O'ldiradi sobiq dushmanlarin ham,
Rimning o'layotgan fuqarolarin
Jon talvasasida yotganin ko 'rib,
Ular titrog 'idan lazzat olar u.
Solishtirish mumkin, ayting, ne bilan
Uning qalbidagi bu vahshiylikni,
Bizning davrimizda Robespyer faqat (303).
Eh, o'sha dahshatga qorishgan kunlar,
Ota o'g'il qoni birla bo'yalgan,
O'g'il otasining qoniga tashna
Xo'jayinga esa qaysi qul sotqin
Axloqning oshkora buzg'unchiligin
Mustabid hukmdor qiladi faqat
Hukumat toji-la u eng qudratli
Tutqunlikda tinchlik tizimin bergen,
Mayli tutqunlikda bo'lsa ham, biroq
Og'ir Jarohatdan tin olsin Inson.
Ulkan hukmdorga aylandi Sulla,
Qulaylik yaratib oldi o'ziga
Rimning beorom, betinch yuragida.
Va bu inson qonga shu qadar tashna,
Qotili jangchilar, fuqarolarning,
Shaharlar, qishloqlar qilingan taslim,
O'lim jarohatin olib kirar u
Oilalarning ham bag'rige faqat.
Jirkana boshladi hukumatidan
Va ahd qildi taxtni tashlab ketmoqqa.
So'ngra o'z umrining so'nggi damlarin
O'tkazdi osuda hamda tinchlikda
Shirin ehtirosda, surib kayf-safo.
O, siz, ey xalqlarning hukmdorlari!..
Yoki ko'proq qalbi o'lib bo'l ganlar
Yechib bo'lmaydigan hech, o, sen, tilsim,*

*Sfinksdan¹ pastroq! Go 'yoki faqat
Hukmdorga kerak – qudrati cheksiz
Qon ichish, qon so 'rish, qonga to 'yinish,
Va so 'ng to 'shagida yotmoq osuda,
Vakx (304) va farishtalar qurshovlarida.
Aql bovar qilmas haqiqat erur;
Biroq bu haqiqat bo 'lmog 'i mumkin
Yurakda ham nozik muhabbat bilan
Tafakkurning ostida butkul,
Yo 'g 'rilib hayvoni yovuzlik bilan.
Qayerdasan, ey Rim, qaydasan o 'sha
Oddiylik, osoyish va nomus yurti!
Ezgu fazilatlar tayanch ustunlar
Ehtiroslar ichra qoldilar gangib
Va sho 'ng 'ib ketdilar Osiyoning zo 'r
Hashamatlariga;
Biroq bu holat
Yetarlicha dilda tug 'dirar hayrat
Barcha asrlarda, barcha yurtlarda:
Davlati behisob bo 'lgan boyvuchcha
Hashamatlar ichra burkangan butkul,
Ming bir dabdaba-yu ham ulug 'vorlik
Sharqning barcha shoh-u sultonlarida,
Badaxloqlik ichra, zulmlar ichra,
Yuzsizlik, oshkora manmanlik ichra,
Saxovatpeshalar hamda qonunlar
Yetildi va shunda dunyoga keldi
Buloqday toza qalb hamda tafakkur,
Barcha nazokatning sohibi bo 'lib.
Donishmand va jasur jangchi, rahnamo,
Razolatlar ichra bo 'lgan fuqaro;
Ko 'rarga ko 'zi yo 'q hiylagarlikni,
Ziqnalik, fitnadan nafratlanar u;
O 'ch emas hukmron bo 'lmoqlikka ham,*

¹ Sfinks – Qadimgi Rim mifologiyasida – inson boshi, sherning tanasi va panjalari, burgutning qanoti va ho'kizning dumiga ega bo 'lgan maxluq, Edip haqidagi afsonadagi personaj (*tarj.*).

*Mifridat ustidan zafar qozongan,
Tantana-la keldi Kapitoliya.
Yuragi, qo 'llari bulg 'angan emas,
Doim hukm qilgan u haqiqatni
Yolg 'onga qormaydi aytar haq so 'zin
Lukulla hashamat, dabdaba bilan
Chiqib keldi toza, pokdomon inson.
U o 'g'il, u ota, aka mehribon,
Saxiy hukmdor-u baxtsizlar do 'sti,
U bo 'lishi mumkin edi hammadan
Ustunroq, Sezardan, yo Pompeydan ham,
Ammo kamroqmidi jasorati yo,
Balki mardonlik yetishmas unga,
Yo tinchlikni sevar halovat ichra.
Oliy hukumatga erishish uchun
Mariy qon to 'kilgan yo 'l soldi Rimda
Sulla sotib oldi jangchilar kuchin,
Ko 'rsatdilar bo 'lsa qanday imkon
Hukmron bo 'lmoqning kuch bilan Rimda;
Rim hukmron erur barcha xalqlarga,
Yetib keldi endi o 'sha onlar ham
Endi sen o 'zingning mag 'rur bo 'yningni
Egadirсан kuchli bosim ostida.
Agar bu er bo 'lsa qat 'iy, shiddatkor,
Ehtiros, ishtiyoq o 'tida yongan,
Tap tortmas tafakkur va jasur qalbli,
Va lek shahvatparast, qabih baikirdor...
(Qara, qadam qo 'ydi, ketdi, quvg 'inda
Qilichin sug 'urib, dadil intilar...
Ammo jang qiladi alanglagancha
Tahdid soladi u nigohi bilan,
Qasos o 'ti bilan tishlarin qayrar) –
Agar ozodligi Katilinaning (305)
O 'zgarishlar qila olmasa yiqib,
Unda qutqarilgan Sitseron bilan,
Pompeyning to 'riga tushasan aniq.
Betoqatlik bilan intiladi u*

*O'ziga munosib mansabga Rimda,
Saxovatpeshalik niqobi bilan
Yashirgay shohlikka ishtiyoqin u,
Mo 'tadillik tusin berib yuziga
Yuragi, qalbini baxshida etar;
Haydalmoq hisoblar u tantanani
Hali yosh, istamas endi u Rimda
Kimningdir ortida qolib ketmoqni:
Muzaffar erur u hukmronlikda,
Rimga kirib kelar fuqaro bo 'lib,
Biroq hiyla bilan olmoqchi bo 'lar
Kuchin sarflash bilan istamaganni.
Saxovatpeshalik, nomus va g 'urur
Faqat yuzlarida uning aks etur,
Biroq andishadan mosuvo qalbi.
Kengaytirgandir u sarhadlarini,
Rimni Osivoning yuragigacha,
Va u o 'zida yo 'q mag 'rurlanardi,
Yuliyni mensimav. shunday dedi u:
«Ko 'tara olaman legionlarni,
Oyog 'im-la yerni bir tepish bilan».
Va shundan so 'ng Farsal kengliklarida
Sinab ko 'rdi baxtin o 'zgarishini,
Va o 'zining xoир qo 'llari bilan
Ayanchli taqdirning bo 'ldi qurbanis.
Mana shunday edi makkorlik hamda
Yolg 'onning ustiga qurilgan bino,
Hukmronlik, aql birla titragay,
Va bir zarba bilan qulab tushar u,
To 'siq paydo bo 'lar ro 'parasida –
O 'zidan ham ko 'ra dadil, shiddatkor.
Mana. Paydo bo 'ldi yana bitta kas,
Keyingi asrlarni hayratga solgan,
Yoshlikda badaxloq, ehtirosparast
Faqat kayf-safo-yu quvonchlar bilan,
Olifa, qo 'ng 'iroq gajaklariga
Xushbo 'y iforlardan surtar mastona*

*Qayg'urgani faqat ko 'rk-u, libosi,
Kirib kelgay u va sindirgay Rimning
Mustahkam qalqonin ozodligining
Ammo bunda hali Sulla juda ko 'p
Ko 'rsatishi mumkin Mariyni sizga (306).
Yuliy (307) turdi – hamma boshin qildi xam.
Eh! Nima ham qarshi turishi mumkin,
Qachonki oldinda, Yuliy birinchi
Bo 'lmoqni istasa kichik qishloqda,
Rimda ikkinchi kas bo 'lmoqdan ko 'ra?
Taxtga o 'chligining chegarasi yo 'q,
Bu o 'chlikka hamroh bo 'lgay tafakkur –
Qat 'iyatli, tezkor ham juda chuqur,
Aqli chaqnab turar va u boyigan
Dunyo olimlarin bilimi bilan.
So 'zları yoqimli hamda muloyim,
Ammo kuchli, qat 'iy hamda otashin,
Birday ishontira olar: urushda,
Hamda ayol qalbin zabit etishda ham.
Uddaburon, qo 'rqmas ham mardonavor,
Jo 'shib turar, tinib-tinchimas bir bor;
Tug 'ilgandan qanday qo 'ysa u maqsad,
Tirishqoqlik bilan erishar albat;
Jangga tushsa epchil, ham jasoratkor,
Kengashlarda esa fikri keng, dono,
Rahmdil, kechirgay ranjlarni, ammo
U yovuz bo 'lmoqqa hamisha tayyor,
Qanday mumkin erur ozodlik ruhi
Bardosh bermog 'ining tetik turmoqqa
Yuliy qarshisida, Yuliyga qarshi?
U shunday, o 'zgacha, ajoyib odam,
Barcha nazokatli fazilatlarni
Uyg 'unlashtirorgan sifatlarida,
Topib bo 'lmas undan zarra kamchilik,
Ammo illatlari botindi uning;
Tug 'ma hukmdor u, qayda bo 'lmasin,
Biror jang boshqarish bo 'lsa gar lozim*

*O'sha joyda g'olib bo 'lgay u albat.
Niyati – kesmoqdir hurlikning kuchin,
Maqsadin ro 'yobga chiqarish uchun
U hamisha hushyor, ziyrak, mustahkam,
Jangga kirishmoqqa shay turar har dam,
Ayamay, mardona qo 'llarin ochar,
Va hisob qilmayin pulini sochar,
O'ziga jangchilar sotib oldi u,
Hamda o'z ishiga tarafdorlarni,
Va yo 'lini soldi, so 'ngra taxt sari,
Hamma to 'siqlardan oshib o 'tdi u
O'zini ilohlar safiga qo 'yib,
Hamma narsa mumkin qildi o 'ziga.
G'alaba qozondi Pompey ustidan,
Hammaga saxiylik ko 'rsatdi mo 'l-ko 'l,
Donishmand podshohga aylandi u so 'ng.
Ammo ehtimol bu ehtiyotsizlik,
Va yo mag 'rurligi bilan o 'zining
Ranjitib hurlikni sevuvchilarni,
Ularning sharafli buyuk rahbari
Mag 'lub bo 'ldi jangda, do 'stin qo 'lida,
Mag 'lub bo 'ldi, barbod bo 'lgan hurlikning
Kerak emas edi ushbu qurbanzi.
– Quloq eshitmagan mo 'jiza sodir! –
Tiran o 'ldi, u yo 'q, lek qani hurlik?
Va o 'sha odatiy xizmat chog 'ida
Rimning ruhi qanot qoqa olmaydi.
Sen esa, so 'zлари otashin juda,
Sitseron, jilovni olding qo 'lingga,
Boshqara olmading lekin sen Rimni.
Eh, Katon, ne uchun quvib solding sen
Shunday bevaqt va tez o 'z hayotingni?
Agar bo 'lganingda Rimning taqdirin
Mustahkamlar eding qat 'iy ruh bilan.
Turgil va qiyoslan Sitseron bilan:
Monteskyo siz haqda hukm qilsin, mayli (308).
Sitseron – sohibi yaxshi xislatning*

*Ammo ikkinchiga loyiq, birkamas,
Shu joy qulay, zero aqli zo'r uning,
Biroq ruhiyati qisqadir mudom.
Sahovatpeshalik Sitserondagi
Ikkinch o'rinda, Katonda biroq
Bu fazilat yuksak, sharaf tayanchi.
O'zini ko'radi avval Sitseron,
E'tibor qiladi so'zamollikka,
Katon esa o'zin ko'rmas hech qachon:
Rimni qutqarmoqni qiladi maqsad,
Va ozodlikni ham sevar u jondan,
Sitseron shirin so'z istaydi faqat,
Rimni qutqarmoqqa takabburlikdan;
Ehtiyotkor emas bu inson lekin,
Va shuhratparastlik hamrohi mudom,
Nafratlanadi u Mark Antoniydan,
Taxtga qo'ydi Yuliy Oktavianni (309).
Ammo yosh bolaning domiga tushib,
Deyarli mag'lub u va xavfli qurbon
Bo'ldi u qonichar triumvirlarga.
Shunda u jonlandi, turdi tobudtan
Fuqaro qoniga hech to'ymaydigan
Sulla: va qilichlar sug'rildi qindan,
Jazolandı, gar kim yoqmasa Rimda
Yo xavf tug'dirsa gar triumvirlarga.
Har bir qismarda kezdilar shunday,
G'oyib bo'ldi Rimdan hurlik shukuhi.
Brut hamda Kassiy, Gretsiyada
Yengilgan bu erlar qilichlarini
O'z ko'ksiga sanchdi, Rimga besoyda;
Faqat sharaflari qoldi ularda
Oxirgi rimlik deb ataladigan (310).
Aksiyada¹ qo'rkoq Markning² ustidan*

¹ Aksiya – Epir qirg'oqlari, Aksiya burnida bo'lgan dengiz jangi nazarda tutilmogda.

² Mark Antoniy, Misr qirolichasi Kleopatranning eri. Yuliy Oktavian bilan bo'lgan jangda ayni qizg'in pallada Kleopatra qochib ketadi, uning ortidan Mark ham qochadi. Boshqaruvsiz qolgan qo'shin Oktavianga taslim bo'ladi.

*G'alaqa qozondi so 'ng Oktavian
Hukmdori bo 'ldi u ulkan Rimning.
Shunday qilib yovuz hamda g'azabkor,
Na qonun bor unga, na qoida bor,
U ayyor, u yuzsiz, yaramas ochko 'z,
Ezgulikdan mutlaq begona qalbi,
Maishatparast u, hamda bekorchi,
Qonga tashna, biroq masxara qilar
Qo 'rqaq va jur 'atsiz sarkardalarini,
Lekin jang qilishni yaxshi ko 'radi,
Sho 'rlik Rim qoplandi zo 'ravonlikka,
Talonchilik, qonga va orsizlikka
Hamda takabburlik birla to 'yingan,
Ishrastparastlikka, sharmisorlikka.
Rimdag'i hammadan ustun bo 'ldi u.
Xalqiga muhabbat ko 'rinmas unda,
Erkinlikka berib yolg 'on ko 'rinish,
Mustahkam taxtiga asos soldi u,
Va bunda o 'tirar yovuzlik jismi,
Jirkanch illatlarga qorishib ketgan.
Juda ayyor erur ushbu zulmkor,
Isyonsiz boshqarar podsholigini
Uzoq vaqt bo 'ldi u muloyim, saxiy,
Yaqinligin ko 'rgach so 'ng·intihoning,
Turganlarga dedi qat 'iyat bilan:
«Bu o 'yin yakuni, endi olqishlang!»
Biroq avlodlarni aldayolmaysan,
Ey, sen tinim bilmas baxt topgan odam!
Sen o 'z saltanating jilosи uchun
Metsenat oldida qarzdor erursan,
Va yoki Liviyning, yo Agrippiyning,
Tilyog 'lamachilar, yo sen yollagan (311),
Yoki Goratsiyining, yoki Maronning.
O, bu tafakkurlar, nozik aqlar
Ularmi musslarning taqdirin bitgan,*

*Bunda ularnimi kerak sharaflash?
Daxlsizlik bergay kim umringizga,
Yo qoldirib sizga jirkanch hayotni,
Birodarlarining, fuqarolarning
Issiq qoni bilan yuvilgan bo 'lak –
Nonni kim tutgaydir qo 'llaringizga?
Oqim kabi borar intilishlari,
Yo 'lida qo 'yila boshlar to 'siqlar
U esa to 'playdi asoslarini
Mustahkamligining ostonasini,
Va kuchin sindirib turgan g 'ovlarni,
Bir zarb bilan buzib o 'tgay to 'signi
Shiddatkor oqimday quyiladi u
Maysazor, vodiylar va dalalarga,
O'ribil to 'plangan don hosillari
Loyqa to 'lqinlarning ostida qolar, –
Avgustda hukumat shu qadar baland,
Ozodlik ustunin tagini kovlab
Qulatdi bir hamla birla Tiveriy (312).
Badjahl bu tiran Rimni o 'radi
Og 'ir zulmlarning qoplami bilan;
Shunda barcha yovuz bo 'lmanalar ham
Aylana boshlandi yovuzliklarga.
Yovuz hisoblanar edi – Tiveriy
Kimni yomon ko 'rsa va yo o 'ylasa
Tug 'dirishi mumkin xavf, deya uni.
Harakatlar va yo beozor hazil,
Bitta so 'z, bir belgi yoki bir fikr –
Jinoyat bo 'lishi mumkindir bari.
Tungi nashtar misol bunda chaqimchi,
Og 'u-la charxlaydi ustarasini,
Oshkor olib yurar Rimda kunlari.
O 'g 'il otasiga, ota o 'g 'ilga,
Inisi og 'aga, eriga xotin,
Xo 'jayinga qarol, do 'st esa do 'stga
Begona bo 'ldilar tug 'dirib xatar.
Silovsin nigohi boqar atrofga,*

*G'aramlar oralab izg'ir vahshiylik
Hamda tabassumi bilan ilonning
Tirjaygancha xabar beradi og 'iz,
Quyosh chiqar mahal qatl qilishdan,
Yo ijrodan, quyosh botgandan keyin.
Eh, yo 'qolib ketdi do 'stona suhbat,
Do 'stlar orasida va yo dardlashish,
Barcha shirin suhbat qoldi shivirda,
Sokin suhbatlarda va lekin erkin,
Tantana, bazmlar bag 'ridan hatto
Quvonchli ruhiyat ketgandi uchib.
Yashiringan edi go 'zal og 'izlar
Quyuq g'amginlikning qoplami bilan;
Oila ichida bo 'lgan bor ishonch
Qullardagi ahyon uchrar sodiqlik
Buzildi mutlaqo, aylandi bari
Ishonchsizlikka va bu ishonchsizlik
Yovuz qorovulga aylandi go 'yo,
Baxtsizlarning olib bor quvonchini,
G'ariblarning so 'zin va uyqusini.
Do 'stlik bunda emas edi yaxshiroq
Suvning ostidagi yashirin bo 'lgan,
Mayin yelga tutib yelkanlarini
O'tayotgan har bir kemalar uchun
Xayfli bo 'lgan Silla va Xaribdadan (313).
Haqiqatning yuzi va oshkorligi
Ahmoqlik ustiga qurilgan edi.
Saxovatpeshalik, eh, uning o 'zi
Hisoblangay edi soxtalik bo 'lib,
Ammo saxovatning beozor yuzi
Tiran uchun go 'yo solgay edi xavf,
Haydab chiqarmog 'i mumkin edi u
Halovat nafasin uning ko 'ksidan
O 'tgan davrlarning;
Tug 'ilib fikr,
Boshqacha bo 'lishi mumkin Rim, degan.
Shunday uqtiradi o 'lmas bir inson (314),*

*Tiranlik yo 'q, degan so 'zni Monteskyo,
Yovuz hamda vahshiy yurgan yo 'lida
Soyasi ostida ezgu qònunning
Hamda sharlar bilan o 'ralgan butkul –
Sud hukumati;
Va u o 'xshar go 'yo.
Shafqat nafratlanar hamma narsadan,
Qutqaruv yog 'ochin olib qo 'yar u
Kema atrofida dosh berib turgan
Cho 'kayotganlardan;
Va cho 'kib ketarlar
Ularning hammasi suv girdobiga.
Bu faqat kichik bir manzarasidir
Tiveriy shoh bo 'lgan og 'ir davrning.
Bo 'ynin egib qo 'ydi bu tiran Rimning,
Va xushomadlargacha burkab qo 'ydi u,
Va yoki qo 'rqdi u, haqiqat qo 'li
Uni choraszilik hukmiga tashlab,
Yuksaltirishidan uning azobin,
Uzoqlashib ketdi u Kaprey tomon (315),
Jangchi otryadlar himoyasida,
Jirkanch ishratlarga ketdi berilib,
Hatto qiyofasi nafratga loyiq,
Uni faqat bir bor eslamoqdan ham
Tomirga sovuq muz yugurar tayin.
U podsholigining qimmatli vaqtin
Kayf-u safo bilan o 'kazar faqat,
Hukumatni esa bu yovuz tiran
Boshqarib turmoqni berdi Seyanga.
U quroli edi vahshiyligining,
Hukumat va zo 'rlik qo 'ynida go 'yo
Kapriy ilohi edi va yoki xudo.
Parokanda qilib oilasini,
Seyan endi qo 'rqmay, dadillik bilan
Omonatda titrab qolgan tiranning
Halokati tomon cho 'zganda qo 'lin, –
Ammo o 'zi o 'ldi. Va yovuz tiran*

*Battar yovuzlashdi, battar vahshiyroq,
Shu qadarki, hatto baxtiqarolar
O'ldirilmay turib, azob, uqubat,
Hamda solinmoqdan mudhish qyynoqqa –
Afzal deb bildilar ular o'zлari
O'zining umriga yakun bermoqni,
Garchi, buni ko 'rib tiran og 'zidan
Chiqsa ham, «u ozod bo 'ldi» (316) degan so 'z.
Tiveriy o'zining jirkanch hayoti
Vahshiylik ichida topdi yakunin (317).
Eh, shumi taqdiri bandalarining,
Hatto o'limi ham vahshiy tiranning
Ularni kulfatdan asrayolmadi;
Uqubatlar egdi tik bo 'yinlarni
Bo 'yinturuqlarning ostida yana.
Lek bu nega kerak, kim boshqarmoqda?
Rahnamo yiqilar, o 'zgaradi shoh,
Ammo kishan bilan, jilovi bilan,
Va xuddi qilganday xalqni masxara
Bu o 'lim bandasi, bu yangi tiran
Bo 'ladi shirinso 'z, muloyim biram;
Ammo uzoq vaqtmi – yo 'q, lahma, xolos,
Dag 'allasha boshlar keyin esa u,
Vahshiylik g 'azabi, zulm o 'ti-la
U qalblarda do 'zax o 'tini yoqar.
Gay Kaligula (318) ham shunaqa edi:
Boshida u bo 'ldi biroz mehribon;
Saxiy bo 'ldi – faqat tiranlik bilan.
Og 'ir, vazmin yigit, ham itoatkor,
Qo 'lda shunday buyuk qudrati bilan
U ega emasdi o 'zin hukmiga;
Qora olomonga iltifot qilib,
O'zin ahmoqona xarajatiga
Sarf qildi hisobsiz oltinlarini.
Va ushbu nurafshon, xushchil ibtido
Juda tez, juda tez ketdi o 'zgarib.
Hammaini yiqib, yana tikladi*

*Yuzsizlik bilan u;
Hanuz u oppoq,
Udumlar, tafakkur hamda qonunlar,
Insoniyat hamda haqiqatgo 'ylik
Ezg 'ilandi tovon ostiga qo 'yib,
Gay esa cho 'mildi Rimning qoniga;
Ahmoqlikka qadar edi zulmkor,
Faqat bir narsadan afsus qilar u,
Ya 'ni xalq, Rimdag'i barcha odamlar
Bitta hukmdorga ega emaslar,
Jangga tushsalar gar bitta hamlada
Aylanishar uning ovunchog 'iga.
Mast, ulug 'vorligi birla kekkaygan,
U barcha shohlarni hisobladi qul,
Ilohdai, o 'ziga soldi u xram,
Va buyurdi juda ko 'p qurbanliklar
Keltirmoqni unga, xuddi Zevs kabi.
Chaqmoqda tovlandi, yashinda uchdi.
Ajablanmoq lozim va bir narsadan:
Qandayin itoat etishi mumkin
Jazavaga tushgan doim g 'azabdan,
Me 'yor bilmaydigan bu ahmoqqa Rim?
Hatto singlisiga ola qaragan,
Yuzsiz va zo 'ravon hamda benomus
Iflos qilgan nikoh to 'shaklarini.
Va uning bobosi bo 'lgan qariya
Agrippa esa shu so 'zlarni aytar:
«Onamni dunyoga keltirgan Yulya
Homilador bo 'lgan o 'z otasidan –
Ma 'bud Avgustdan».
– Ey, benomus ahmoq!
Sen faqat masxara bo 'lishing mumkin.
Yana nimaga ham bo 'lamiz hayron:
Yoki ahmoqona takabburlikdan,
Va yoki hayvonlik, yovuz zo 'rlikdan?
Ochlikmi yo yong 'in va yo o 'latlar,
Yoki xalq boshiga kelgan kulfatlar*

*Uning uchun lazzat bag'ishlar edi.
Shu qadar rimlikni ko'rardi yomon,
Va yoki shu qadar aqlsiz edi,
Ya'ni u qasrida otga qo'yib shon
Sharafli er kabi qilardi mehmon.
U dastavval otga aytardi sano
Ibodatxonada,
Va o'ylar hatto
Saylamoqni o'sha otni senatga
Konsul qilib, –
Qarang, otga-ya, otga!
Biz jimmiz...
Shu qadar jirkanchlik bilan
Yakson qildi Xerey uning hayotin.
Eh! Uning ishidan hayratga tushar
Butun asrlar-u, butun nasllar...
Voyaga yetgandek mag'rur bo'lib Rim
Yuz yillab yashar u to'xtamay, betin
Janglarning ichida, to'kib muttasil
Fuqarolar qonin, raqiblar qonin,
Yoki o'zlashtirib, yo qilib yakson,
Shohliklarni, xalqni va yoki shonni,
Dunyoga keldilar qancha botirlar
Ezgu ishlar bilan, bo'lib qahramon,
Qilgan ishlarini sanar bo'lsang gar
Faqat yaxshiliklar va buyukliklar,
Donishmand bo'lishib boshqaruvida ham
Janglarda ham dono, g'oliblikda ham,
Barqarordir ular, qat'iy, bahodir,
Ne xatar bo'lsa ham cho'chimas, jasur;
Avval boshidan o'zin oldiga
Maqsad qo'yadilar, ahd qilib juda
Zabt etib olamni, egallamoqni,
Shu qadar o'tkirdir tafakkurlari,
Shu qadar doimiy qilgan ishlari
Va shu qadar yakun topar baxt bilan...
Nima evaziga bo'lgay bu ammo?..*

*Yovuzlarni haydab chiqarmoq uchun,
Yoki besh-oltita maxluqlarni ham,
Va bundan zavq tuyib, dillari yashnar...
Va yoki bor umum taqdiri-azal,
Yuksalib olamga yoyilgan qudrat,
Sharaflar jilosi, kuch, hokimiyat
Qulab razolatga cho 'madi albat!
Va hukumat uchun kuydirib jonin,
Kengaytirmoq uchun qudratin, shonin,
Va bu orzusiga yetganidan so 'ng
Undan-da baxtliroq bo 'la olar kim?
Va xalqlarning barcha afsonasida
Tanaffus ko 'ramiz tushunib bo 'lmas.
Rim senati, mag 'rur erur, ham jasur,
Hukumatga ega knyazlar safi
Barida xushomad hamda razolat...
O, siz, bu olamning hukmdorlari,
O, podsholar, yurtning odil shohlari!
Sizga Yaratgandan berilgan bu taxt
Bu – millionlarning ham quvonchi, albat,
Zotan, boshqargaysiz sizlar xalqlarni
Oilasin boqqan otalar kabi.
Ammo Kaligula, ammo Neronlar,
Andishasiz yirtqich va zulmkorlar,
Olamning darg 'azab qamchisidirlar,
Va ularning yodi asrlar osha
La 'natga qorishib o 'tib borgaydir
O 'tib boraverar la 'natlar uchun,
Hamda dahshat uchun, xalqlar his qilgan!
Gay jang qildi, Xerey birla olishdi
Yana o 'rnatmoqni xayol qildi u
Rimda ozodlikning tosh sanamini.
Va ular titrashib qo 'rquv ostida
Podsho qasrining chet bir burchagida
Klavdiy turadi qaltiroq ichra.
«Sen shoh bo 'll!» –
Shunday deb aytdi jangchilar.*

O Rim, Rim!

Kim bugun senda shoh erur?

*Munkillagan bir chol, ammo go 'dakdir
Aqli bilan.*

Zaif, ham juda ahmoq;

Dunyoga ham zaif bo 'lib kelgan u,

Yo tug'ilib, arang odam bo 'lgan u.

Ko 'ngli yumshoq, ammo bundan nima naf?

U shallaqi bitta xotinning quli,

Messalinaga qul, uyatda qolgan

Bu ayolning nomi butun asrlar

Sharmandalik bilan qoldi tarixda,

Jirkanch va axloqsiz xotin ramzida.

Klavdiy (319) o 'yinchoq bo 'ldi qo 'lida

Yovuzlarning hamda qamoq, surgundan

Ozod bo 'lgan arbob, boshqa kaslarning.

Palladiy yo Narsiss qo 'llari bilan

Rimliklar qonida cho 'mildi u ham.

Rimda tirik va sog ', e 'zozda edi,

Faqat o 'shalarning do 'sti bo 'lganlar,

Yoki yollanganlar ular ishiga.

Tiranlar ichida aqlsizlikda

Klavdiyga kim ham tenglashish mumkin?

Qanoatlanmadi, ichsa ham mudom

Messalina jirkanch lazzatlarini.

Va u Klavdiyning ko 'zin oldida

Undan ajramay turib, nikohga kirar

O 'zining xushtori Gay Siliy bilan.

Bundan nima soyda va yo Narsissning

O 'lim bergenimi Messalinaga?

Klavdiy eshitib, titroqqa tushdi:

«Hukmdormanmi men hali ham Rimda?»

Ammo bu savoli ojiz juda ham,

Galdagi xotin ham bo 'ldi axloqsiz,

Agrippina uni boshqardi endi;

Ammo oqibatdan qo 'rqdi bu ayol,

Lokusta yoniga yugurib ketdi,

*Va uning ichirgan og 'usi bilan
Halokatin topdi Klavdiy Rimda.
Eh, qara, hayratli o 'lim topdilar
O 'tkir tafakkurning nishonalari.
Jasoratning ruhi bor bu ayolda,
Fitna-la o 'limga mahkum etilgan
Eriga dedi u muloyim so 'zlab,
O 'zining mustahkam qo 'llari bilan
Ogohlantirdi u jirkanch o 'limdan,
Lekin Pet hayiqdi, botinolmadi.
Va shunda Ariya o 'tkir po 'latni
O 'z ko 'ksiga sanchdi va dedi dadil (313):
«Qara, azizim Pet, hech ham hayiqma,
Bu hech og 'rimaydi...»
Shunda Pet dadil,
O 'tkir tig 'ni olib, sanchdi ko 'ksiga
Va yerga quladi xotini bilan.
Ammo endi yoshlik hukmdor bo 'ldi,
Va taxtda o 'tirgan baxtli yoshlikni
Boshqarar edilar Seneka, Burriy;
Ammo ular yechib niqoblarini,
O 'z hayotlarining har bir kunida
Va yo har bir yirtqich qadamlarida
Vahshiy o 'lim aksin qoldirar edi;
Uning nomi oshib o 'tgan asrlar,
Va ushbu tiranning barcha amali
Qabohat, razolat birla yo 'g 'rilgan,
Ismi Neron (321) uning, toj kiygan hayvon.
Uning ovunchog 'i battol vahshiylik,
U bilan o 'tkazar kun-u tunini.
Turli ko 'rinishda bo 'lar namoyon,
Va odamlar ichra bo 'lar masxara,
Ammo jalloddir u, tahdid solguvchi,
U o 'zining qonli qotil qo 'lini
Uzatadi endi qondoshlar tomon:
Onasi, xotini va ustozlari –
Hammalari bir-bir bo 'ldilar yakson*

*Qilichi ostida qattol tiranning,
Shuncha ko 'p qatlga ulguradigan;
Har kun ko 'z yosh bilan to 'yinar edi,
Yoki qabohatning lazzati bilan,
Va yoki qon bilan, u o 'zi to 'kkan,
Rim bilardi uni tajovuzkor deb
Va uning xotini Pifagorasa,
Va u ahmoqona hashamlar ichra
Qonida suzardi fuqarolarning,
Mastligida ham u quvonchi yolg 'on.
Tasavvur qilmoqni istadi qadim
Troya yong 'inin, halokatini,
Va mana shu yovuz ermag'i uchun
Yoqmoqni buyurdi Rimni butunlay...
U qoniqli,
Endi tugatamiz biz
Uning qissasini – faqat ko 'z ko 'rgan
Yoki jazavasin, yo vahshiyligin.
Tushib qolmoqlikdan qo 'rqib qo 'liga
O'zining xoin ul qo 'riqchisining
Va yoki senatning qo 'liga tushmay,
Topdi u tiranning shonli o 'limin:
Qilichini suqdi o 'zin ko 'ksiga,
Umri poyoniga yetdi, nihoyat
Klavdiy Yuliyning so 'nggi tarmog'i (322).
So 'ng Galba va Oton hamda Vitelli
Namoyon bo 'ldilar taxtning yonida,
Va o 'zlarin jirkanch o 'limi bilan,
Yo 'l berdilar ular Vespasianga jim,
Harbiylar saylashib uni shohlikka,
U esa qo 'llarin qon bilan yuvgan.
Qachonlardir jirkanch xushomadgo 'yi
Bo 'lgan u Narsissning hamda Neronning,
Vespasian keldi va o 'tirdi taxtga
Saxovatpesha u, xaroba Rim ham
Dam oldi hech yo 'qsa ozgina muddat.
Kalondimog 'likdan, hashamdan yiroq,*

*Qattiq mehnat qildi u boshqaruvsda,
Halokat qo 'ynidan oldi shohlikni,
Bunda birin-ketin asoni tutgan
Yovuz ul tiranlar, jirkanchlikka teng,
Qattollikka tengdir yo ahmoqlikka,
Yoki jazavaga tushgan u mutlaq,
Yoki sovurgandir haddidan ortiq.
O'lganlar naslining lazzatlariga
Bunchalar tez o 'tib ketding, Tit¹, sen ham?
Boshqalar bilishi uchunmi yoki,
Hisoblastingni sen podsholigingni
Faqat yaxshilikka qoplangan, deya
Yoki baxtli qilmoq kelmay qo 'lingdan
Biror kimsani,
So 'ng vafot etganlar
Kunini sen atab berganing?
Ammo sening asring qizargan butkul
Katta Pliniyning² hayoti bilan...
Zaminning qa 'riga etilgan bandi
Mudrab yotgan olov Vezuviyda,³
Ko 'pchib chiqdi yorib yerning qa 'rini
Parchalab tashladi qovalarni ham.
Olov birla toshlar, tutun hamda kul –
Uchdi bulutdan ham yuksakka bari,
To 'sib qo 'ydi kun va quyoshning yuzin.
Daryoda o 't lava oqa boshladi,
Hamma narsa yakson bo 'ldi, chor-atrof
Yer qa 'ridan chiqqan qaynoq kullarning
Yomg 'iri ostida qoldi-yu butkul,
Og 'zi berkilgan yerto 'la singari.
Gerkulanum hamda Pompeya shahri
Go 'yo kirib ketdi qabr ichiga;*

¹ Tit – Tit Flaviy Vespasian, qadimgi Rim imperatori, 79–81-yillar Rimni idora qilgan.

² Pliniy – Gay Pliniy Sekund (Katta Pliniy) – qadimgi Rim yozuvchisi.

³ Vezuviy vulqoni – Italiyaning janubida joylashgan. Harakatdagi vulqon hisoblana-di. Birinchi marta 79-yil otilib chiqqan.

*Qashshoqlik va o'lim, qurg'oqchiliklar
Tarqalib ketdilar uzoqlargacha.
Bunda ilm va fan, ma'lumotlarni
Yuksak e'tibor-la boshqarayotgan
Vafot etdi Katta Pliniy, afsus.
Ammo senga hukmronlik qilar baxt,
O, Rim odamlari! Qarang o'sha Tit
Qanchalar oshiqar yordam-chun sizga:
Kiminidir kulfatdan saqlab qolganni
Ulug'ladi podsho, mukofotladi.
Ammo tugatib u qisqa hayotin
Qoldirib ketadi Rimning taxtini
Yoki ukasiga, yo bir maxluqqa.
Domitian esa, u yangi tiran,
O'zidan oldingi barcha tirandan
Yovuzroq edi u, zarra bo'lsa ham
Yumshamadi qattol yovuzligidan,
Zotan qo'rkoq edi hamda jur'atsiz.
Juda og'ir edi o'sha davrlar,
Tatsit shunday deydi (323) u vaqt haqida,—
Ibodat kamaydi, eshitmoqlar ham;
Soqovga aylandi Rim, so'z yo'qoldi,
Hatto yo'qolardi xotiralar ham
Agar bandalari sukunat ichra
Yo'qotganlarida xotirasini.
Ammo hu zulmkor qo'rkoq barchaning
So'zin aylantirdi oh-nolalarga,
Haydadi u yo'ldan ozgan xotinin.
Biroq jirkanch edi ularning kuni,
Erlari bo'lib ham ming bir turlanib.
Dimitian esa yashadi faqat
Avlodlar oldida isnodga qolib;
Sharafli odamlar va yo guruuhlar
Bezay olsalar gar baxtli kunlarin
Saxovatpesha yo donishmand shohni,
Faqat bitta inson haqiqiy buyuk,
Tiranning dunyoga kelar kunida,*

*Qadrini tushirar uning hammadan
O'zining sharafi jilosи bilan.
Shunda yana zarrin nurin taratdi
Ona quyosh qadim Rimning boshida:
Galma-gal bo'y cho'zdi unda donolik,
Sharaf va jasorat bo'ldi hukmron,
Sahovatpeshalik tojni kiygan on.
Nerva, podsholikka saylangan inson,
Donishmand hukmdor edi, lek ojiz
Va yillar zalvari qaddini bukkan;
Ammo u o'ziga suyanch qo'yoldi.
Yaratdi nihoyat Rimning baxtini,
Trayanni o'g'il qildi o'ziga.
Kulfatga aylangan bo'lardi Rimda
Uning o'limi, gar bilishmaganda
Trayan merosxo 'ri ekanligini.
Rim bu podsho bilan yashadi jindak;
Adolatparvar va donishmand jangchi,
Shohda bo'lish kerak barcha fazilat
Unda zohir edi.
Sharafni istab,
Zafar keltirguyuchi o'z qilichini
Dakiyga uzatdi va barpo qildi
Dunayning ustida shonli ko'prikni –
O'sha, qadimni ko'p hayratga solgan;
Va shavkat quroli jilosи bilan
Ko'zlarin ko'r qildi va ketdi olib
Xalqlarni zabit etmoq uchun olisga.
Garchi oshiqchaydi unda sharaflar
G'alaba tojlari ko'p edi unda,
Garchi jazavaning bu lazzatlari
Kelsa ham evazga ko'p qurbon so'rab,
Va bu shon ko'kka keng parvozin yoyib
Kayfning Vakxasini¹ to'sib qo'yar u
Yog'du-la burkangan go'zal manzara –*

¹ *Vakxa* – Qadimgi Rim mifologiyasida kayf-safo ma'budi.

*Jasoratlarining soyasi bilan
Tinchlikdagi va yo jangdagi shohning.
Garchi uning so'zi nashtar bo 'lsa ham
Trayan hamisha hukmdorlarga
Namunali o 'rnak bo 'lib qolgaydir.
Ajablanarlidir bir narsa lekin,
Go 'zal deb bo 'lmasdi uning aqlini
Yoki ilmdagi, yoki fandagi
Bilimlarining to 'p dastasi bilan
U shunday dono shoh bo 'lgan bo 'lardi.
Bunga qanday shubha bildirish mumkin,
Qachonki uning bor oltin kunlarin
Ko 'rgan bo 'lsa Tatsit ham Pliniyni,
Yana Yuvenalni va Plutarxni.
Va qachonki Tatsit, munosib inson,
Rimning pok, osuda shu kunlarida
Hayajon bilan u qilganda xutob:
«Bizning asrimiz bu baxtli asrdir (324),
Negaki fikrlash mumkindir bunda
Nimani istasang gar fikrlashni,
Va erkin tilingga chiqarish mumkin
Xuddi shunday erkin fikrlaganing».
Eh, qanchalar qiyin erur, o 'tirib,
Hammadan balandda va bo 'lmay turib
Hech bir istagingga hech qanday to :siq
Dabdabali taxtda hashamat ichra
Hech bir kayf-safosiz va bo 'lmay karaxt.
Va mana shunday shoh sharafga loyiq,
Sirg 'alib tushishi mumkin istagan
Vaqtida, vujudin qoplasa vahshat,
Va yoki ko 'ngilning tiyiqsiz mayli.
Adrian, endi u o 'tirdi taxtga,
Rim podsholigida qurdi u baxtni,
Garchi uni ezgu ishlari bilan
Trayanga tenglash mumkin bo 'lsa-da,
Ammo yuragida bor edi illat
Bu – takabburlik va qahri qattiqlik.*

*Ko 'p aziyat bilan u Antinoyning
Abadiylashtirmoq uchun nomini (325)
Ibodatxona ham shahar qurdi u.
Barcha alamlarin va illatlarin
Tinimsiz mehnati qoplagan uning,
Podsholik ishiga kuydirib u jon,
Bo 'lgan u doimiy safarlarida
Rimning barcha uzoq makonlarida.
Faqatgina quruq qiziqish emas
Uzoq o 'lkalarga uni yo 'llagan,
Balki maqsadlar bor, unda doimiy,
Shuncha uzoqlarga safar, sayohat
Keltirardi foyda hamda saodat,
Shu makon, shu shahar, o 'sha xalq uchun.
Tezkor nigohlarin qadar edi u
Hukumat ostida boshqaruvlarga,
Keskin himoyachi u qonunlarga,
Qonun buzganlarga hamma oldida
O 'z hukmronligin yovuzlik tomon
Burib jazolardi, olardi qasos.
Ulug 'vor kelbatli hamda hashamli
Shaharlar, binolar barpo etdi u,
Ammo oddiy xalqning yuki bilanmas,
Eskidan kelgan u ko 'p soliqlarni
Yengillatdi yoki yo 'q qildi butkul.
Garchi u munosib shoh erur Rimga,
Yovuz kasalligi qiladi xuruj,
Barbod qilolmasdan o 'z hayotini,
O 'zidagi bor u vahshiyligini
Yo 'naltirdi jazo bermoqqa faqat,
Ko 'p holatda zarur bo 'limganda ham;
Ammo kechirishdi hammasi uchun
Chunki u o 'ziga merosxo 'r qilib
Antoninni oldi podsholigiga.
Garchi biz eslaymiz dono so 'zlarin –
Donishmand Favorin aytganlarini,
Bahs boylashganida Adrian haqda:*

«Yo 'q, agar kim o 'ttiz legionini –
Deb aytar donishmand o 'z do 'stlariga, –
Qo 'zg 'ata olsa u bitta so 'z bilan,
Mumkin emas uning xato qilishi».»
Ammo uning kuni g 'alayonlarsiz,
Adrianni ular ulg 'aytirdilar.
Va ustozlik qilgan odob, axloqda
Unga qattiqqa 'l ham dono Epikit.
Sinab u tolening yolg 'onligini,
U butun aqlini ifoda etdi
Ikki so 'zda: «Sabr birla olib bor»,
(Lazzatda me 'yorni bilgin hamisha), –
Bu so 'zlarda hikmat ko 'p edi juda,
Umr tajribasin hosili edi,
Hatto qattiqqa 'llik qilmay turib ham
Saodatga mumkin edi yo 'llamoq
Rimni, bermoq bilan podsholigiga
Barcha olajanob hukmdorlarni.
Go 'yo mushaklarning taranglashgani
Ko 'rkamlik berib va butun tabiat
Bir inson bag 'rida vujudga kelgan,
Va u yaratganda tafakkurni ham
Hayratga munosib, taajjub-la jam,
Keyingi asrlar avlodlariga,
Fikri tiyran, oqil bo 'lgan Zenonni.
Garchi donoligin boshqa xizmati
Ega bo 'lmasa ham biror hayratga,
Lekin aynan axir donishmandligi
Olib kelmadimi Rimga toleni
Hukmdor Antonin, Mark Avreliyning? (326)
Saodatli kunlar Rimning ko 'ksida
Barq urib yashnadi, porladi yana.
U dunyoga taxtdan taraldi boshlab,
Va o 'sha e 'zozli nom bilan birga
Sharaf deb bildilar butun bir asr
Uni Rimning barcha hukmdorlari.
Haqiqiy donishmand, qalbi bezalgan

*Ezgu fazilatli xislatlar bilan,
Har qanday illatdan erur mosuvo.
Antonin, hayotin mobaynida u
Xalqning manfaatin keldi ulug 'lab:
Shaharda fuqaro edi, shoh emas,
Lek ulug' emasdi otasin nomi
Zotan ulug 'langan boshda toj bilan
Yovuz va zolim-u, devonalar ham,
Lek otasin ishi haqiqiy erur.
Teskari bo 'lgaymi uning ishi ham,
Kim axir dahshatli badbaxtlik bilan
Butun rimliklarning nafratlariga
Duchor bo 'lishini qilgaydir xayol?
Kim yomon ko 'radi mulkni hirs qo 'ymay,
Butun boyliginisovuradi kim?
Va yo butun xalqning xazinasini
Saqlab, uni meros qoldiradi kim?
«Yo 'q, Favstina, – deydi o 'zi haqida, –
Rimning hukmdori bo 'lganimdan so 'ng
Mahrum bo 'ldim barcha mol-u mulkimdan».
U uyquga ketdi va Rim yig 'ladi,
Va Antonin unut bo 'lishi mumkin
Qachonki podsholik taxti uchun Rim
Saylasa shoh qilib Mark Avreliyni.
Qanchalar sharafli, yoqimli bu nom!
Va bu donishmand ham o 'tirdi taxtga,
Biroq u ham xudo bandasi edi,
U vasot etdi va Rim saodati
So 'ldi hukmdor Mark Avreliy bilan;
Va yuzlab yillar ham maqsadlar ko 'zlab
Ko 'plab oqib o 'tdi uning ortidan;
Lekin ularning bor faoliyatি
Va jahon sahnida qo 'lga kiritgan
Barcha sharaflar-u, barcha shuhrati
Barcha bo 'lib o 'tgan hukmdorlarning,
Uning qarshisida zaifdir juda
Go 'yo kun o 'rtasi, quyosh oldida*

*Yonib turgan shamning shu'lasi kabi;
Uning qarshisida jasoratlarning
Yorqinligi, barcha sharaflar nuri
Faqat xira kundir, soya yo zulmat.
Va qachonki biz o'z nigohimizni
Qarata boshlasak hukmdorlarga –
Kuch va qudratining cheki yo 'q, lekin
Monaxlik to 'nida kamtar, muloyim,
Shunda qalbimizning tubida sekin
Yashirin bir tuyg'u, quvonch tuyamiz,
Va hech mumkin emas, yurakdag'i chin
Bir ehtirom, yuksak bir e'zozlarsiz
Eslamoq ularning donish hayotin.
Qalqib chiqar ko 'zga quvonchli yoshlar
Yuraklarni xushbaxt yuvib o 'tguvchi,
Shirin titroq ila bergay tasallি.
Ammo... indamaymiz, qalbga tugamiz,
O'ziga xos shirin tuyg'ular tutgan
Barcha qayg'ularni, hislar zalvarin.
Eslaganimizda Mark Avreliyni,
Tuyg'ular uyg'onib, siqadi dilni.
Yo 'q, yo 'q, kutib turma, jur 'atimizni
Tasvirlamoq uchun uning oqimin.
Biz nima demaylik, ojizdir so 'zlar,
Va abadiy mangu shu qiyofani
Solishtirib va yo tenglab bo 'lmagay
Barcha asrlar va barcha xalqlarning
Unga bo 'lgan buyuk ehtiromidek
Minnatdorchiligi, e'tirofiga.
Uning hayotining barcha tavsifi
Yuraklarga oqib kirgaydir albat.
U o 'zi haqida tug'dirar nozik
Tuyg'ularni, hamda tasavvurlarni.
Ammo ko 'p vaqtgami? – O, taqdir-azal,
Ey, sen, bandalarning achchiq qismati!
Mark Avreliy endi oramizda yo 'q,
U bilan yo 'qoldi Rimning chin baxti,*

*Barbod bo'ldi endi ezgu xayollar
Saodati haqda bandalarining.
Ayriliq qayg'usi bor marosimda,
Hamma faryod bilan kuzatar uni,
Uning butun Rimning tuproqlariga
Qo'ygan qadamlari tugadi endi;
Lekin uning bosgan har bir qadami
O'tgan gohi yoshlar ichra qorishib
Gohi Rim xalqining hayrati bilan:
«U bizning do'stimiz – do'stilardan ortiq,
U qarindoshimiz, ham panohimiz,—
U otamiz edi, – serhimmat iloh...»
Qulqqa chalinar qayg'uli so'zlar
Va lek bu so'zlarning yo'qdir yolg'oni,
Va ushbu so'zlarda bo'lgay namoyon
Ezgu fikrlarning barcha zalvari.
Va shundagina tan oldilar ular
Ushbu tobut ichra turgay yashirin
Mark Avreliy bilan Rim saodati (327).*

1795–1796

«Saodatli onlar...»

*Saodatli onlar bu,
Biz istagan kunlar bu!
Biz tark etmoqdamiz,
Tashlab ketmoqdamiz
Ilim tog', qoyalarin,
Kulba-yu, chaylalarin!*

1797-y. Yanvar o'rtalari.

Turnalar

Masal

Kuz, daraxtlar tark etadi yaproqlarini,
Sarg 'ish tusi maysalarning yuzini qoplar,
To 'planadi turnalar ham shunda bir joyga,
Uchib ketmoq uchun uzoq, issiq o 'lkaga –
Yashamoq-chun dengizlarning ortida.
Ammo,
O 'ltirardi bechorahol bir turna ma 'yus,
Qur-qurlarga qo 'shilmasdi, bermasdi sado:
Oyog 'ini yaralagan ovchi o 'q bilan.
Turnalar shod qo 'shig 'iga bo 'la olmas jo 'r;
Tik va dadil birodarlar kuldilar undan.
«Oqsab qolganim uchun men aybdor emasman,
Xuddi sizday podsholikka berdim men yordam.
Birodarlar, sizlar meni qilmang masxara,
Tahqirlamasingiz lozim, kulfatim ko 'rib.
Men qandayin uchay axir? La 'nati og 'riq
Olib qo 'ydi imkoniyat, jasorat, kuchni.
Och to 'lqinlar menga qabr bo 'lishi mumkin.
Eh, ne uchun barbod qildi mening hayotim
Qattol ovchi!» –
Bu orada esa boshlar yel, . . .
Ko 'tarila boshlar ko 'kka turnalar safi,
Uchmoq uchun shoshilishar dengiz ortiga.
Va bechora kasal turna qoladi ortda;
U nafasin rostlab olar suvning yuzida
Suzib yurgan yaproqlarga o 'ltirib tez-tez,
Dam olgancha qayg 'u cheka, qilgaydir nola;
Qayg 'u hamda og 'riq mudom tirnar yuragin.
Juda sekin va kam bo 'ldi uning parvozi,
Va nihoyat yerni ko 'rdi, orziqib kutgan,
Tiniq osmon, kemalarning qo 'nimgohini.
Va Yaratgan malham berdi jarohatiga,
Saodatda yashamoqqa, mehnati uchun, –

*Lekin ustidan kulganlar quladi ko'pi.
Ushbu qisqa hayot yo 'lin.
To 'xtamang, shoshing:
Yaxshi o'lka bordi unda, tinchlik ham abad,
Sizni kutar mangu yoshlik hamda saodat.*

1797 va 1800-yillar oralig'i.

Idilliya

*Qo 'ng 'iroq ovozli chumchuqcha
Qorag 'atning butoqchasida
O 'ltirgancha, kuylar jarangdor,
Lek ko 'rmaydi do 'zaxiy jarni,
Maftun bo 'lib boqar u unga.
U sakraydi, uchar pirillab,—
Shoxdan shoxga sakrab o 'tdi-yu,
Tushib qoldi tubsiz jarlikka,
Lekin tuzoqqamas.
Chumchuqqa
Tuzoq – erklik yovuz bir to 'ri;
Tuzoq asli katta ish emas,
Lek u erkdan mosuvolikdir!..
Hammasi bir: kishan, yo tuzoq,
Jahannamga o 'xshaydi zulmat,
Erki qo 'riqlangan asirsan,—
Bu shundayki, istaganingni
Qila olmay bo 'lgaysan halak,
Demak, seni bog 'lagan kishan,
Va yo ot yolidan bo 'lgan to 'r —
Hammasi bir, hammasi og 'ir:
Biri bizga, qushchaga biri.
Biroq uning erkin talagan
Aljir chavandozi emasdi.
Ammo Milon, barno bir yigit,
Qalbi nozik, yuragida ishq.
«Qayg 'urmagin, chumchuqchagini! —*

*Deb aytadi unga yo pastir.
Tushmading yovuzning qo 'liga,
Seni menga tutqazdi taqdir.
Garchi ozod bo 'lmasang ham sen,
Lek taqdiring o 'zgartirmoqqa
Bajon-u dil tayyordirman men!»
Shunday deya qushni tuzoqdan
Chiqarib oldi-da, o 'zining
Qo 'sh kaftidan tuzoq qildi u,
So 'ng yugurdi o 'zida yo 'q shod,
Yugurib ketdi o 'z joyiga –
Podalari jaziramadan
Saqlanmoq-chun panalab yotgan
Sersoya va qalin o 'rmonga.
U yerda u keng shlapasin
Maysazorga qo 'ydi ohista,
So 'ng qo 'shiqchi asirasini
Yopib qo 'ydi shlapa bilan;
Keyin shoshib, ketdi yugurib
Keltirmoqqa oqtol novdasin.
«Qayg 'urma, azizam chumchuqcha,
Men oq tolning xivichlaridan
Senga go 'zal uycha to 'qiymen
Va seni, qo 'shiqchi qushginam,
Sovg 'a qilaman men Xloyga.
Sening uchun, azizam qushcha,
Qo 'shiqlarining uchun qo 'ng 'iroq
Mukofotga go 'zal Xloydan
Bitta bo 'sa so 'ragayman men;
Uning shirin bo 'salarini!
Xloy buni rad etmas menga,
Sening narxingniyam bilar u;
U aqlli, nozik qalbi bor,
Faqat yetib borsaydim tezroq...
Bitta bo 'sadan so 'ng men undan
Ikkinchin ham tortib olaman,
So 'ng uchinchi, to 'rtinchisini;*

*Va ehtimol istab qolar u
Beshinchin ham qo 'shib bermoqni.
Eh, gar sening kichkina uychang
Tayyor bo 'la qolsaydi birdan!..»
Shunday deya bir bog ' novdani
Yig 'ib olib, yugurdi yana,
Shoshib, yotgan joyga chorvasi,
Aniqrog 'i, qushchani tutqun
Etgan shlapasin yoniga;
Ammo... yovuz qismat, o, vahshiy...
G 'am nayzasi teshdi yurakni:
Sotqin shamol, beayov shamol
Aylantirib keng shlapani,
Qushcha chiqib, uchib ketibdi,
Bo 'salar ham ketibdi uchib.
Shunday maqol yuradi elda:
Kim gar qumdan tiklasa uyin,
Shamol unisovurar bir kun.*

1797 va 1800-yillar oralig 'ida.





IZOHLAR

A.N. Radishchevning adabiy merosi taqdirini fojiali deyish mumkin. Muallifning hayoti davomida uning asarlarining ahamiyatga molik qismi nashr etilmagan, ko‘p qismi turli sabablarga ko‘ra yo‘qotilgan, uning eng yirik asarlaridan biri – «Peterburgdan Moskvaga sayohat» taqiqlangan va yo‘q qilingan.

Radishchevning fojiali vafotidan so‘ng yozuvchining o‘g‘illari ota-sining asarlaridan butun qolgan qismini to‘plab, ulardan «Собрание оставшихся сочинений покойного» (SOS), ya’ni «marhum Aleksandr Nikolayevich Radishchevdan qolgan asarlar to‘plami»ni chop ettirishdi (q. 1–6, M., 1806–1811), uning «Sayohat» va «Hurlik» asarlari kiritilgan bitta jildi senzura bilan taqiqlandi.

Navbatdagi izlanishlar Radishchevning nasr va nazmdagi asarlariga yana birmuncha qo‘srimcha olib kirdi. Buning natijasi o‘laroq, Radishchev asarlarining to‘liq to‘plami uch tomda FA Rus adabiyoti instituti tomonidan (M.-L., 1938–1952) nashr etildi. So‘zsiz Radishchev qalamiga mansub bo‘lgan asarlar bilan bir qatorda yana qo‘srimcha asarlar kiritildiki, ularning ham Radishchevga tegishli ekanligining ishonchlilik darajasi turli xildir. Uzoq izlanishlardan so‘ng ««*** va *** T***ga sayohatdan parcha» asari ishonchli manbalar asosida haqiqatan ham Radishchevga tegishli ekanligi isbotlandi, biroq «Tarix» qasidasining muallifi P.A. Slovsov ekani ham tasdiqlandi. Keyingi yillarda Radishchevning «Vatanning o‘g‘li ekanligi to‘g‘risida suhbat» asari uning qalamiga xos xususiyatlardan xoli bo‘lgani bois uning mahsuli ekanligiga anchagina jiddiy shubha tug‘ildi.

Mazkur nashrning birinchi bo‘limiga «Peterburgdan Moskvaga sayohat» asari kiritildi; ikkinchisida – Radishchevning boshqa badiiy-publisistik nasriy asarlari; uchinchi bo‘limda esa – uning qalamiga mansubligi isbotlangan she’rlari; to‘rtinchi bo‘limda «Odam haqida, uning foniyligi va boqiyligi to‘g‘risida»gi yirik falsafiy asar hisoblangan traktat; beshinchi bo‘limda – A. R. Voronsovga yozilgan xatlarning tanlanmalari joy oldi. Illovada ikkita muhim biografik hujjat va ikkita tugallanmagan maqola joylashtirildi. Har bir bo‘limdagi asarlar xronologik tartibda berildi.

Nasriy va falsafiy asarlar matniga asos qilib («Peterburgdan Moskvaga sayohat» asari bundan mustasno, bu haqda tegishli izohlarda keltirilgan), shuningdek, «Ilovalar»da akademik nashrlar belgilangan; ularning matni birlamchi manbalar bilan solishtirilgan va zamonaviy orfografiya va punktuatsiyaga yaqinlashtirilgan. Uchinchi bo‘limdagi asarlar quyidagi nashrga asoslangan: Radishchev A.N. She’rlar. L., 1975 («Shoir kutubxonasi» katta seriyasidan).

Izohdagagi «SOS» qisqartmasi qo‘srimcha ko‘rsatmalsiz Radishchevning «Собрание оставшихся сочинений...» (qolgan asarlar to‘planmasi)»ning birinchi bo‘limini anglatadi (- M., 1806, adadning ma’lum qismi – 1807); boshqa holatlarda SOSning tegishli bo‘limi va uning ma’lumotlari matnda ifodalangan.

«Peterburgdan Moskvaga sayohat» birinchi marta 1790-yilda muallif nomisiz va bosmaxona ko‘rsatilmasdan senzura roziligidisiz titul varaqlarda nashr etilgan.

«Peterburgdan Moskvaga sayohat» asari ustida Radishchev juda uzoq ishlagan. Bu asarning yaratilishi bir butun bo‘lgan bo‘lsa-da, har bir bo‘limi alohida mustaqil asarlardan iborat bo‘lib, ular asar tarkibiga turli vaqtarda kiritilgan. Taxminan 1779–1780-yillarda Radishchev «Olamning yaralishi» oratoriyasini yozdi (u dastavval «Hurlik» qatorida «Tver» bobiga kiritilgandi), 1780-yil «Lomonosov haqida so‘z»ni yozishga kirishdi, 1784-yil atrofida u «Hurlik» qasidasini yaratdi, 1785–1786-yillarda «Ommaviy savdoda sotilganlar qissasi» («Mednoye»)ni, Fin qo‘ltig‘idagi sarguzashtlar haqidagi hikoya («Chudovo»)ni, senzura muhokamasi («Torjok»)ni yozdi, Anyuta haqidagi qissaning yozilgan yili ma’lum emas («Yedrovo»).

Ko‘rinishidan, 1787-yilda yoki 1788-yilning boshida Radishchev «Sayohat»ning o‘zini yozishga kirishdi va 1788-yilning ikkinchi yarmida kitobning birinchi – dastlabki tahririni tugalladi. Bu tahrir asarning yakuniy matni bilan solishtirganda bir qator farqlarga ega edi: 1) Unda «A.M.K.»ga bag‘ishlov yo‘q edi; 2) «Chudova»da Reynaldan izohlar keltirilmagandi; 3) «Spasskaya Polest» faqat bitta episod – «bebaxt» bilan uchrashuvdan iborat edi, namestnik haqidagi hikoya unda berilmagandi; 4) «Podberezye»dagi Sayohatchining «tush»i mutanosib ravishda berilgan, ammo seminarist bilan uchrashuv umuman yoritilmagandi; 5) «Novgorod» bo‘limi publitsistik xarakterga ega edi va shoh Ivan Vasilyevichni jazolash to‘g‘risidagi novgorodliklar bilan bo‘lgan muhokama bilan yakunlangandi (shuningdek, bu yerda Sayohatchining turli mulohazalar bilan boyitilgan «Novgorod kundaliklari» ham, Karp Dementichning oilasi haqidagi hikoya ham aks etmagandi); 6) «Zaytovo» bob «...hamma o‘z yo‘liga qarab ket-

di» so‘zi bilan yakunlangan (do‘sti bilan uchrashuv va baron Durindinning to‘yi haqidagi xat kiritilmagandi); 7) «Yedrovo» deb nomlangan bob esa quyidagi so‘zlar bilan tugallangandi: «...o‘g‘illarimning o‘g‘liga meros qolsin»; 8) «Xotilov» bobining so‘ngida «kelajak fuqarosi» loyihasi haqidagi hikoya nisbatan siqiqroq bo‘lib, unda Sayohatchining xulosasi aks etmagan; 9) «Xotilov» qismidan so‘ng «Vidropusk» bobi boshlangan, asar ularni ajratib turuvchi bobga ega bo‘limgan (aftidan Radishchev yanglishib bitta bekat – Vishniy Volochokni qoldirib ketgan); 10) «Torjok» bobida Dikinson haqidagi ilovaga hamda «senzura kelib chiqishi to‘g‘risida qisqa hikoya» deb boshlanadigan abzats yoritilmagan; 11) «Mednoy»dagi birinchi abzats o‘rnida faqat bitta jumla keltirilgandi: «Do‘stimning qog‘ozlari orasidan men quyidagini topdim» – va shundan so‘ng dehqonlarning solishi to‘g‘risidagi «kelajak fuqarosi» bitiklari davom etgan; 12) «Tver» bobi ichiga «Hurlik» yaxlit asar sifatida 28 qatorda kiritilgan, shuningdek, «Olamning yaralishi» va unga biriktirilgan nasriy matndagi ikkita she‘r ham shu bobda aks etgan; 13) «Zavidovo» bobining boshlanishi ancha kengaytirilgan holda berilgan; 14) «Chyornaya Gryaz» va butun kitob joniga suiqasd qilgan kishining tavbasi va uning o‘limi bilan yakunlangan, faqat «Lomonosov haqida so‘z» bundan mustasno; 15) kitob matni yakunida uni yakunlovchi element sifatida «Senzura ruxsatnomasi» aks etmagan.

1788-yilning oxiri yoki 1789-yilning boshida bir qancha stilistik jihatdan qayta ishlangan «Vishniy Volochok» bobining senzura tahriri (bojxona noziri A. Sarevskiy qo‘lyozmasi bilan), Politsiya mahkamasi-dagi Radishchevga yaqin bo‘lgan bojxona amaldori I. Meysnerga olib boriladi (politsiya idorasida muallif nomi qayd etilmagandi). Qo‘lyozma senzura qo‘lida bo‘lgan paytda yozuvchi asar ustida ishlashni davom ettirdi: matnga yangi epizodlar yaratib kiritdi, nimanidir oldi, uslub ustida ishladi. Yarim yildan so‘ng «Sayohat» (u birinchi tahririda – qisqa nomlangandi) ober-politseymester N.I. Rileyev imzosi bilan qabul qilib olindi (ruxsat berilgan sana – 1789-y., 22-iyul). Shundan so‘ng senzuraga «Lomonosov haqida so‘z» Rileyev tomonidan 25-sentabrda imzolangan holda taqdim etildi.

Oddiy bosmaxonada kitobni nashr etish imkonini bo‘lmasligini sezib (ehtimol u yerga murojaat qilishni istamagan holda ham), Radishchev oldindan o‘zi aslida boshqarayotgan va kitob chiqarishda yordam berishi mumkin bo‘lgan guruhni to‘pladi (Sarevskiy, Meysner, Bogomolov, Pugin va yana ehtimol o‘nlab qo‘lyozmani ko‘chirishda yordam beradiganlar). Bosmaxonachi Shnordan bosish stanogi va harflarni qarzga sotib olib yozuvchi o‘zining xususiy xonadonida bosmaxona tashkil qildi.

Bu uy bosmaxonasidagi harf yig‘uvchi vazifasini bojxona tekshiruvchisi Yefim Bogomolov bajardi, bojxona tekshiruvchisi Pugin esa Radishchevning xizmatkori bilan birga harf tərdi. Boshlanishiga sinov tariqasida «Tobolskda yashaydigan do‘stimga xat» bosildi, shundan so‘ng «Sayohat» ustida ish boshlandi, bu yarim yilga yaqin vaqtini oldi. Musahhihni yozuvchining o‘zi topdi.

Kitobning birinchi varag‘ini terish bilan barobar tarzda yozuvchi matn ustida ishslashni davom ettirdi. Endi biz kitobning oltita bosma yig‘ilgan nashri va yettingchisi – yig‘ilgan qo‘lyozmasi haqida ma’lumotga egamiz. Asarning tuzilishi birinchi harf terish tahririda mutlaqo shakllanib bo‘ldi, ammo stilistik ishlov berish uchun yana oltita tahrir kerak edi, mayning o‘rtalariga qadar u tinmay mehnat qildi. To‘rtinchchi va beshinchchi terilgan tahririga Radishchev quyidagicha kengaytirilgan nom qo‘yishga qaror qildi: «Ziyarak fuqaro yoki Sankt-Peterburgdan Moskvaga sayohat» (u mana shu vaqtda kitobni ikki jilda chiqarishni nazarda tutgandi), ammo yana avvalgi nomga qaytdi. 1790-yilning may oyi yakunida «Peterburgdan Moskvaga sayohat» bosib chiqarildi va Mehmonxona saroyidagi Zotov-Polejayev do‘koniga savdoga qo‘yildi.

Biroq iyun oyining o‘rtasida kitobni sotib olgan o‘quvchilardan biri uning isyon ruhiyatiga ega ekanligini ko‘rib, kitobning bir nusxasini politsiya qo‘liga olib borib berdi. Har xil kelishmovchiliklar boshlandi, 26-iyun kuni, imperatritsa Yekaterina kitobning dastlabki o‘ttiz varag‘ini o‘qib chiqqanidan so‘ng huzuriga ober-politseymeysterni chaqirdi va surishtiruv rasmiy tusda davom etdi.

Buni eshitib, yozuvchi kitobning oxirgi vaqtga, ya’ni u hibsga olingan 30-iyun kuniga qadar boshilgan qolgan adadini yoqib yuborishni buyurdi. Shuning uchun asar avval boshidanoq varaqalarda keng tarqalib ketdi (sobiq Ittifoq davriga kelib davlat arxivlарida yuzga yaqin varaqalar saqlanib qolgandi), «Sayohat»ning birinchi nashri nusxasi esa juda kam saqlangan. Hozirgacha Rossiya hududida 13 nusxa (ayrim ma’lumotlarga ko‘ra 14 nusxa) saqlanib qolgan.

1801-yilda – surgundan qaytayotib, Radishchev moskvalik bosmaxonachi S.I. Selivanovskiyga «Sayohat»ni qayta nashr qilish taklifi bilan murojaat qiladi (bu tahrirning Radishchev o‘n bitta jiddiy o‘zgarish va qo‘srimchalar kiritgan bir qancha qisqartirishlar qilgan juda xira nusxasi saqlanib qolgan), ammo qo‘lyozmani o‘qib, Selivanovskiy uni nashr qilishdan bosh tortdi. 1806-yilda «Radishchev asarlarining qolgan to‘planmaları»ning birinchi qismi sifatida uning o‘g‘li «Sayohat»ning mat-

nini (arzimagan o‘zgarishlar bilan) unga «Erkinlik»ni to‘liq ilova qilgan holda tayyorladi, ammo kitobning bu qismi senzura tomonidan taqiqlandi.

Kitob ikkinchi marta Londonda A.I. Gersenning varaqalariga asosan 1858-yilda nashr qilindi. O‘n yil o‘tib, 1868-yilda peterburglik kitob so-tuvchi Shigin Radishchev ikki marta tahrir qilgan holatdagi «Sayohat»ni vaqaralardan qisqartirilgan holda (senzura tufayli) bosib chiqardi: bu yerda kitobning boshi va oxiri kitobning nashr qilingan matniga mos keladi, to‘rtta bobo esa («Krestsi»dan – «Yedrovo»gacha) dastlabki tahrirdan olin-gan. 1872-yilda «Sayohat» Radishchevning ikki tomli asarlar to‘plamiga kiritildi, u P.A. Yefremov tomonidan tayyorlangandi, biroq hukumatning qaroriga ko‘ra kitob yo‘q qilindi. 1888-yilda A.S. Suvoringa kitobni «har-fidan harfigacha» o‘zgartirmay nashr etishga ruxsat berildi, ammo juda ki-chik adadda, ya’ni yuz nusxagina edi.

Faqat sotsialistik inqilobdan so‘nggina kitobdan senzura olib tashlan-di va ko‘plab nusxada bosib chiqarishga berildi. 1905-yilgi nashrlar ichi-da P.Y. Shegolev va N.P. Pavlov-Silvanskiylar tomonidan tayyorlangan qo‘lyozmalarda Radishchevning ilmiy asarları alohida o‘rinni egallay-di. Bu yerda birinchi marta tergov ishlari bilan birga saqlangan senzura qo‘lyozmasi qo‘llanildi.

1935-yilda «Akademiya» nashriyotida «Sayohat»ga bag‘ishlangan ikki jildli kitob nashr etildi. Bu nashrning birinchi jildi birinchi kitobning fotolitografik nashr etilishini tasvirlaydi, ikkinchisida esa «Sayohat»ni o‘rganishga oid materiallar qamrab olingan bo‘lib, unga senzura qo‘lyozmalari hamda nashr etilgan kitobning «Longinov varaqlari» ham kiritilgan. Shunday qilib, keyingi nashrlar topilgan varaqlar asosida to‘ldirilib, to‘g‘rilanib borilgan.

1981-yilda «Sayohat»ning dastlabki oltita tahririga tegishli nashridan yana 15 ta varaqa topilganligini gazetalardan biri e‘lon qilgan. Bu varaqlar o‘rganilib chiqilgach, 1790-yilda nashr etilgan kitob topilgan varaqlar tufayli aniqlangan xatoliklari bois olib tashlangan va Radishchevning fikr-lariga muvofiq keluvchi yangi nashr bosib chiqarilgan.

Hozirgi vaqtga qadar 20 ta ana shunday varaqlar aniqlangan bo‘lib, ular «sayohat»ning to‘qqizta nashriga oiddir. Shunday qilib, ushbu nashrda kitobning 1790-yilda nashr qilingan matni berilgan bo‘lib, zamonaviy or-fografiya va punktuatsiyaga moslashtirilgan.

1935-yilda nashr etilgan kitobning ikkinchi tomidə Y.L. Barskov kel-tirgan izohlarda yanada to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin, shuningdek, L.I. Kulakov, V.A. Zapadovlarning «A.N. Radishchev. «Peter-

burgdan Moskvaga sayohat». Izohlarida (L., 1974.) ham yanada kengroq ma'lumot berilgan.

«*Maxluq vahshiy, jirkanch, bahayhat, ko'phalqumli va xirilloqdir*»... – Epigraf V.K. Trediakovskiyning «Telemaxida» deb nomlangan poemasiidan olingen bo'lib, unga Radishchev bu asarda o'zgartirish kiritgan. Trediakovskiyda bu satrlar quyidagicha keltirilgan: yovuz shohlarga do'zaxda haqiqat ko'zgusi tutilgay, unda shohlar o'zlarini eng dahshatli maxluqdan, shu jumladan, do'zaxni qo'riqlaydigan Kerver (Serber) iti va yuz boshli Lirney ajdaridan ham ko'ra jirkanchliroq qiyofada ko'rgaylar – «vahshiy, jirkanch, beso'naqay va uchta dahshatli jag'ga ega maxluq». Radishchev «ko'phalqumli» ikkita maxluqni bittaga jamlagan: rus mustabid hukumati va krepostnoylik, bularni bir biridan ajratib bo'lmaydi.

1. *Ta'riflab bo'lmas xushbaxtlik!* – men yana his qildimki, har bir sherik o'zi kabilarga yaxshilik qiladigan bo'la oladi. – Gap shundaki, inson boshqalar baxti uchun kurashib, o'zi ham baxtga erishadi. Bu inqilobiy mantiqqa ega bo'lib, rus etikasida yangi so'z hisoblanadi. Bu fikr to'lig'icha masonlarga, jumladan Kutuzov falsafasiga tegishliligi bilan mu nozarali. Masonlarning hisoblashicha, yovuzlik hayot sharoitlari mahsuli emas, u insonning ichida ildiz otadi, shu bois e'tibor harakatning amalga oshirilishiga emas, balki insonning axloqiy jihatdan o'z-o'zini takomillash tirishiga qaratilishi lozim.

2. *Pochta bekati* – XVIII asrda pochta nafaqat pochta jo'natmalari va yuklarini, balki odamlarni ham eltish bilan shug'ullangan. Pochta bekati boshlig'iga (pochta komissari yoki bekat nazoratchisi) maxsus hujjat – yo'l qog'ozini taqdim etib (bu hujjatda sayohat yo'nalishi, yo'lovchining nomi, uning amali va unvoni, ularga bog'liq holda belgilangan pochta yoki kur yer otlar soni ko'rsatiladi) va belgilangan miqdorda «yo'l kira» (kira puli) to'lab, yo'lovchi keyingi pochta bekati yoki stansiyasiga qadar eltuvchi aravakash va ot olgan. Peterburg – Moskva yo'nalishida joylashgan ayrim pochta binolari yo'lovchilar uchun mo'ljallangan mehmonxona – yemak xona bilan birga qurilgan, biroq ko'pgina pochta otlarini almashtiruvchi bekatlar mahalliy uy va hovlilarda joylashgan. «Sayohat»ning «Jo'nab ketish»dan boshqa hamma boblari hozirgi Sankt-Peterburg va Moskva shossesi oralig'idagi bekatlar nomi bilan muvofiq keladigan yo'ldagi pochta bekatlari nomi bilan atalgan.

3. *Rus odamiga boq: uni o'ychan qiyofada ko'rasan. Agar u ko'ngil yozmoqchi yoki o'zining ta'biri bilan aytganda, xursandchilik qilmoqchi bo'lsa, qovoqxonaga boradi. Bunday xursandchilik kunlarida u mard va jasur bo'lib qoladi.* – Bu yerda: 80-yillarda rus milliy xarakteri to'g'risidagi

masala juda jiddiy tarzda turardi. 1783-yilda «Собеседник любителей российского слова» журнали sahifalarida D.I. Fonvizinning: «Bizning milliy xarakterimiz nimada ko'rindi?» degan savoliga Yekaterina II shunday javob bergan: «Tezkor va jiddiy tushuncha bilan aytadigan bo'lsak, namunali tarzdagi itoatkorlikda va barcha ezgu ishlarning ildizida (ya'ni taqvodorlikda)». Rus xarakteriga taxt ustidan hukm qilingan nuqtayi nazar na reaksiyon dvoryanlikni, na jamiyatning progressiv jamoasini qoniqtirdi. Reaksiyon kayfiyatdagи oqsuyaklar vakili knyaz M.M. Sherbatov kinoya bilan Pugachyov qo'zg'olonini eslab o'tdi. Y.B. Knyajnin o'sha yilning oxirida «Rossiav» tragediyasini yozdi. Asarning bosh qahramoni – milliy xarakterning eng asosiy qirralarini o'zlashtirgan bo'lib, dramaturg bularning orasidan jasurlikni, vatanparvarlikni, zulmga qarshi kurashuvchanlik kayfiyatini, o'zida monarxga bo'ysunmaslik huquqini saqlab qolgan mustaqillikni birinchi planga olib chiqdi. Radishchev «Sofiya» bobida dastlabki ta'rif bilan rus xarakteri haqidagi o'z qarashlarini oldinga surarkan, keyingi boblarda bu fikrlar yanada aniqlashtiriladi va kengaytiriladi (ayniqsa, «Zaytsovo», «Yedrovo», «Mednoye» va «Lomonosov haqida so'z» boblarida).

4. *Qovoqxonaga boshini osiltirgancha kirib ketib, u yerdan quloq chakkasiga tushgan tarsakidan yuzlari qontalash bo'lib chiqib ketadigan burlak.* Bu – mohiyatini Rossiya tarixida hozirgacha ko'pchilik yecha olishi mumkin bo'lgan holat hisoblanadi. – Bu yerda: xalqning tarixdagi roli haqidagi masala ham oldingi o'rinda turgan masalalardan biri bo'lgan. «Rossiya tarixiga aloqador bitiklar»da (1783–1784) Yekaterina II Rossiya tarixini avtokratlar – knyazlar va podshohlar hal etishganini isbotladi. Radishchev o'shandayoq «Hurlik» asarini yozgandi va bu asar xalq uchun hal qiluvchi rol o'ynagandi.

5. *Sen menga hayot ato etding, uni o'zingga qaytaraman, bu zaminda endi u keraksiz matohga aylandi.* – Bu yerda: fikr insonning o'z joniga suiqasd qilish huquqi to'g'risida bo'lib, XVIII asrning ma'rifatparvar fal-safasiga xos qarash hisoblanadi.

6. *Razryad arxivi* – Senat qoshida boyarin, dvoryan, kazak va askarlarning harbiy xizmatlariga oid hujjatlar saqlanish joyi bo'lib, u yerda XVI–XVII asrning xizmat yuzasidan amalga oshirgan ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar saqlangan.

7. *Rus nasablarining kelib chiqish shajarasi* – kitob yoki ro'yxat – unda dvoryanlik va boshqa darajadagi zodagonlarning kelib chiqishi, aj-dodlardan avlodlariga nasabining uzatilib kelinishi aks etgan.

8. *Podsho Fyodor Alekseyevich kelib chiqish nasabiga qarab tayinlash qoidasini tugatib, juda ko'p zodagonlarni ranjitdi.* – Shoh Fyodor Alek-

seyevich (1661–1682) davrida mahalliychilikning tugatilishi bilan davlat lavozimlariga kelib chiqish nasabi, sharifiga qarab emas, balki qilgan xizmatlariga qarab tayinlana boshlangan. .

9. *Unvonlar ro'yxati* – Pyotr II tomonidan 1722-yilda tasdiqlangan amaldorlar tizimi. Unga ko‘ra, dvoryanlik unvoni xizmatiga qarab beriliши joriy etilgan. Uning asosiy qismi Rossiya fuqarolari, harbiylar, dengiz floti amaldorlarining XIV darajaga (rang) bo‘linishidan iborat. Mutanosib ravishda dvoryanlik unvoni sotib olish avval shaxsiy, so‘ng esa nasliy unvонни belgilash bilan bog‘liq bo‘lgan. Oxirgi daraja esa yerni sotib olish huquqi va krepostnoylik bilan bog‘liq.

10. *Qadimiy nasablar dvoryanlik kitobida qayd etishda hammadan pastga tushib ketgandi* – ya’ni Yekaterinaning yer egalari imtiyozlarni butunlay kengaytirib yuborgan «dvoryanlikning imtiyoz huquqlari to‘g‘risidagi yorliq» (1785-y.)da har bir gubernyada dvoryanlar shajarasini tuzib chiqish belgilangan. U olti qismdan iborat bo‘lib, qadimiy nasablarni qayd etish oltinchi bo‘limda aks etgan.

11. *Yosh janoblar guruhiga qo‘silib qoldim*. – Asarga ko‘proq satirik tus berish uchun Radishchev ayrim faktlarni bo‘rttiradi, o‘sha vaqtarda Moskvada shajara kitobiga talab juda katta bo‘lib, uni N.I. Novikov tuzgandi.

12. *Obrok* – pomeshchikka o‘z krepostnoylik majburiyatini o‘tash usullariga ko‘ra krepostnoy dehqonlar uch guruhga bo‘linishgan: obrok to‘lovchi, barshchinaga ishlovchi va xizmatkor dehqonlar. Obrok to‘lovchi dehqonlar qishloqdagi pomeshchikka tegishli yerdan foydalanishgani uchun unga xo‘jayin belgilagan ma’lum bir summani to‘lab turishgan (odatda, bu summa 3–5 rublni, Peterburg va Moskvaga yaqin joylarda – 10 rublgachani tashkil etgan). Barshchinaga ishlovchi dehqon esa pomeshchik yeriga tekinga ishlov berishi, buning ustiga turli natura shakldagi to‘lovlarni amalga oshirishi, ya’ni unga don, suli, o‘tin, parranda, yog‘, qo‘y kabi narsalar berishi lozim bo‘lgan. Xizmatkor dehqonlar esa uning uyi yoki hovlisida xizmat qilishib, yerga aloqador bo‘lishmagan.

13. *Sen raskolchisan* – XVII asrda Rossiyadagi diniy-ijtimoiy harakat, eski udumlar tarafdarları. XVIII asrda raskolchilar cherkov tomonidan (ko‘p hollarda yakshanba kunlari) joriy etilgan bayramlarni saqlab qolish kerakmi, yo‘qmi degan masalada bahslashishgan.

14. *Jon boshi hisobiga* – jon boshi ijara to‘lovi bu davlatga aholi orasidan erkaklar soni hisobidan harbiy qismni ta‘minlash uchun to‘lanadigan to‘lov, bu 1725–1794-yillarda – yiliga 70 tiyinni tashkil etgan).

15. *Ijarachi mujiklarning terisini shilvoladi*. – Bu yerda: dehqonning egasi bo‘lgan yuridik shaxsga ma’lum summani to‘lash majburiyatini olgan odam o‘z foydasi yo‘lida dehqonni ayovsiz ekspluatatsiya qilish huquqini qo‘lga kiritadi. Mulkni olgach, ijarchi ma’lum muddatga dehqonning egasi, ya’ni pomeshchikka aylanadi. Yekaterinaning 1767-yilning 22-avgust-dagi buyrug‘iga asosan, dehqonlar ayovsiz kaltaklash va umrbod surgun qilinish tazyig‘i ostida o‘z pomeshchiklariga ijarchi ustidan arz qilishdan mahrum bo‘lganlar.

16. *Birining to‘lovi aniq* – Bu yerda: jon boshi to‘lovi va hamma dehqon uchun bir xil miqdorda belgilangan pochta yig‘imidan tashqari, davlat dehqonlari uch rublik obrok to‘lovini amalga oshirishlari lozim bo‘lgan, bu yo‘lni saqlash va askarlarning ta‘minoti uchun ishlatalgan. Pomeshchik dehqonlarining obrok to‘lovi hajmi esa xuddi barshchina to‘lovi kabi, qonun bilan me’yorga solinmagan. Radishchevning qayd etishicha: «Dehqoning ish haqi bu pomeshchikning injiqligi, uning miqdori esa xo‘jayinining ochko‘zligi ifodasidir».

17. *Biri o‘z tengi bilan da‘volasha oladi*. – Bu yerda: «Gubernya to‘g‘risidagi tartibotlar»ga binoan 1775-yilda davlat dehqonlari uchun belgilangan quyi va o‘rta sud instansiyalarida maslahatchilar joriy etilgan. Krepostnoy dehqonlar esa pomeshchiklarning butkul hukmi ostida bo‘lgan otameros sudlariga loyiq bo‘lganlar (dehqonning og‘ir jinoyat, masalan, qotillik qilishi bundan mustasno). Krepostnoy dehqonlar fuqarolik huquqlaridan butkul mahrum bo‘lganlar.

18. *Birodarim Ch.* – Pyotr Ivanovich Chalishev (1745–1811) – Radishchevning Leypsig universitetidagi do‘sti.

19. *Pafos va Amafont* – Kiprning Afrodita (go‘zallik ma’budasi) ibodatxonalari joylashgan qadimiy shaharlari.

20. *Vernet* – Vernet (Berne) Klod-Jozef (1714–1789) – taniqli fransuz peyzajist-marinisti. Aytishiga ko‘ra, u bo‘ron tasvirini jonlantirish uchun o‘zini kema machtasiga bog‘lab qo‘yishni buyurgan.

21. *Turk urushida bo‘lgan turli dengiz janglarida*. – Bu yerda: Rus-turk urushida (1768–1774-yy.) A.G. Orlov boshqaruvidagi rus floti yunon arxipelagida bir qator yorqin g‘alabalarni qo‘lga kiritgan.

22. *Dengiz girdobidan olib o‘tuvchi bu Muso* – Muso – Muqaddas Kitob Bibliyaga ko‘ra, Qizil dengiz suvini ikkiga ajratib, dengiz tubi bilan yahudiylarni Misrdan olib o‘tgan payg‘ambar.

23. *O‘sha yerning boshlig‘ichalik*. – O‘sha yerning boshlig‘i – 1786–1788-yillarda Sestroretsk qurol zavodi boshlig‘i X.L. Eyler bo‘lgan, u bundan oldin Prussiyada artilleriya poruchigi bo‘lb ishlagan.

24. *Bengaldagi biror inson yuz ellik nafar bebaxt mahbuslarning hayotini saqlab qolish uchun zolim hukmdorning uyqusini bir lahzaga buzishni xayoliga keltirmaydi.* – Renal. Hindiston tarixi, ensiklopedistlarga yaqin fransuz tarixchisi Giyom Renal (1713–1796)ning «Ikki Hindiston tarixi» asari, II jildi 1781-yilda hukmdorga qarshi ruhiyatda bo‘lgani uchun yoqib yuborilgan (muallif izohi).

25. *Uning ajoyib notiqligi uchun bulbul deya atashganini yozishadi...* – Bu yerda: V.N. Tatishevning «Rossiyaning eng qadimi tarixi» kitobida (1-kitob, 1-bo‘lim. – M., 1768, 39-b.) shunday deyiladi: «...kohinlar boshqaruvchisi tomonidan Bogomil sharaflanadi, shirinsuxanligi uchun Bulbul nomini oladi».

26. *Namestniklik hukmdori* – Rossiya «Gubernya to‘g‘risidagi tartibotlar»ga asosan qirqa gubernyaga bo‘lingan (1796-yilda ularning soni ellik bittaga yetgan), ularni gubernator boshqargan. Uch, to‘rt yoki beshta gubernya namestniklikka birlashgan, uni boshqargan odam namestnik deb atalgan (XIX asrda esa unga tenglashtirilgan amaldor general-governator deb nomlangan). U o‘ziga tegishli joy boshqaruvida mutlaq hukmdorlik huquqlariga ega bo‘lgan.

27. *Ustritsalarni yejishni o‘rgangan va ularni tutish bo‘yicha zo‘r ovchi bo‘lgan ekan.* – Ushbu hikoya Yekaterina II ning yaqin odami, amaldor G.A. Potiomkinni eslatadi, u amalga ko‘tarilgunga qadar zo‘r ovchi bo‘lgan ekan.

28. *Janob Korzinkingu.* – Korzinkin Andrey Fyodorovich – peterburglik savdogar, Katta dengiz ko‘chasidagi do‘konda (keyinchalik Gersen ko‘chasi) savdo qilgan.

29. *Xususiy otkup.* – Xususiy otkup yoki ijara – XVIII asrda Chor Rosiyasi vaqtida aholidan biror yig‘im yoki soliq turini undirish uchun sotib olingan huquq, bunda undirilgan yig‘imning ma‘lum qismi otkupchida qoladi, shuningdek, ularga o‘z joylarida araq, vino, qarta o‘yinlari savdosi qilishga huquq beriladi.

30. *Xudoning o‘g‘li.* – Qur’onda tilga olingan payg‘ambarlardan biri Iso Masih – xristianlikda Iisus Xristos nomi bilan yuritilib, xristianlikning asoschisi hisoblanadi. Xristian cherkovlarining aksariyati uni Xudo-Odam sifatida ulug‘laydi. Injilga ko‘ra Iisus – Xudoning o‘g‘li bo‘lgan.

31. *Qilgan yovuz ishlarini yuvgunlariga qadar kun-u tun oromini olgанинда edi...* – Bu yerda: Iso Masihga murojaat qilib, sayohatchi, nasroniylik ta‘limi haddan ortiq yumshoq, negaki u yovuzlik uchun o‘limdan so‘ng jazo muqarrar ekanini aytadi, bu esa hatto unga ishonganlarga ham hayot davrida yovuzlik qilishga ruxsat beradi, demoqchi bo‘ladi.

32. *Dafna chambari* – sharaf ramzi. Ustundagi qilich mustahkam harbiy shuhratni anglatadi; mo'l bug'doy bog'لامи ustidagi aso mo'l-ko'llik va gullab-yashnash ramzi; mustahkam shayindagi tarozi – mustahkam adolatni; ko'ksi bilan derjava toshini tutib turgan go'dak bolalar uyumi – insonparvarlikni, bahodir yelkasidagi toj (mening tojim) va atrofini o'rab olgan haqiqat – haqiqat va qudratga asoslangan mastahkam yakkahokimlikni bildiradi.

33. *Vatan sarhadlarini kengaytirdi*. – Bu yerda va kelgusida ham Radishchev Yekaterina II podsholigidagi haqiqiy faktlarni ishga soladi. 1772-yilda Rossiya Belorussiya yerlarining bir qismini birlashtiradi, 1774-yilda Rossiyaga Kerch, Azov, Dnepr va Buga orasidagi cho'l va boshqalar, 1783-yilda harbiy harakatlarsiz Qrim qo'shildi; shoh Irakl II iltimosiga ko'ra Rossiya «homiyligi ostida» Gruziya qabul qilindi; 1784-yilda Alyaskaga ko'chish tashkillashtirildi va hokazo.

34. *U davlatni boyitdi, ichki va tashqi savdo hajmini kengaytirdi*. – Bu yerda: 1762-yilga kelib o'lkada 984 ta fabrika bor edi; 1796-yilda esa ular soni 3161 taga yetdi. Ichki savdo tez sur'atlar bilan rivojlandi. Tashqi savdo aylanmasi 1763–1765-yillarda 12 mln rubl eksport va 9,3 mln rubl importni tashkil qildi, 1781–1785-yillarda bu raqamlar mutanosib ravishda 23,7 va 17,9 mln rublga, 1796-yilda – 67,7 va 41,9 mln rublga yetdi. Ummiy olganda Yekaterina hukmronlik qilgan vaqt mobaynida ijobiy balans 103 mln rubl kumushni tashkil etdi.

35. *U fan va san'atni qadrlaydi*. – Bu yerda: podsholigining dastlabki yillaridan Yekaterina fan va san'atni rivojlantirishga, ta'lim va tarbiya masalalariga alohida e'tibor berdi. Avvaliga Quruqlik va Dengiz kadetlar korpusi, ya'ni o'rta harbiy bilim yurtlari qayta tashkil qilindi, 1764-yilda Artilleriya va Muhandislik kadetlar korpusiga asos solindi va unda «Askar bolalari uchun san'at maktabi» tashkil etildi. 1764-yilda Peterburgdagi Smolniy monastirida birinchi ayollar o'quv muassasasi – «asilzoda qizlar uchun» bilim yurti, ko'p o'tmay – «savdogar va hunarmandlar qizlari uchun» ham bilim yurti tashkil etildi. 1765-yilda qayta tashkil etilgan Badiiy akademianing tantanali ochilish marosimi o'tkazildi. 1782-yilda xalq bilim yurti tashkil etish uchun buyruq chiqdi va hokazo. Ko'p yillar davomida Yekaterina yevropalik yozuvchilar, faylasuf ma'rifatchilar bilan yozishib yurdi (Volter, Didro, Grimm va boshqalar). U rus yozuvchilarini (Sumarokov, Novikov, Xeraskov, Knyajnin, Emin va boshqalar) namoyishkorona tarzda moddiy jihatdan qo'llab-quvvatladi, ayni damda ular bilan maxfiy tarzda kurash olib bordi. Chet tilidan turli asarlar tarjima qilishga, chet eldan kartinalar, gravyurlar, suratlar va haykaltaroshlik asarlari

sotib olishga juda katta pul sarf qilindi. Bundan tashqari, Yekaterinaning o‘zi ham ko‘plab asarlar ijod qildi (dramatik asarlar, felyetonlar, ertaklar va hokazolar yozdi).

36. *Dehqonchilik va hunarmandchilikni rag‘batlantiradi*. – Bu yerda: bu ta’kidlar ham Yekaterina II ning aytganlari va tadbirlariga tegishli. Hunarmandchilik va sanoatni rivojlantirish hammadan ko‘ra yer va ishchi kuchi hisoblanmish dehqonlarning egasi bo‘lgan dvoryanlarning qo‘lida edi. Biroq dehqonchilik manufakturasi – krepostnoy dehqonlar tashkilotlari rivojlandi, ular orasidan boy fabrikantlar yetishib chiqdi (Malsevlar, Morozov va boshqalar). Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha choratadbirlar qishloq xo‘jaligining krepostnoylik tizimi tufayli kam samarali bo‘ldi va u sanoatdan borgan sari ortda qola boshladi.

37. *U minglab halokat yoqasida turgan kerakli fuqarolarini o‘limdan asrab goldi*. – Bu yerda: gap noqonuniy tug‘ilgan chaqaloqlarni ommaviy tarzda halok qilishning oldini olish maqsadida tarbiya uylarining ochilgalligi va fuqarolarga namuna tarzida chechakka qarshi emlash o‘tkazganligi to‘g‘risida ketmoqda (1764-yilda Moskvada, 1770-yilda – Peterburgda tarbiya uylari ochilgan). Yekaterina emlash sinovini dastlab o‘zida va o‘g‘li Pavelda o‘tkazdi; chechak kasalligiga qarshi bu muvaffaqiyatli sinovdan so‘ng butun gubernyada bu ish davom etdi.

38. *U davlatning daromadlarini ko‘paytirdi*. – Bu yerda: 1762-yilda davlat daromadi 15 350182 rublni, Yekaterina hukumatining oxirgi yilda – 68 597 459 rublni tashkil etdi (ya’ni o‘sish to‘rt barobardan ko‘pni tashkil qildi).

39. *Aholining soliq to‘lovini yengillashtirdi*. – Bu yerda: 1724-yilda jon boshiga to‘lov kirib kelgan vaqtan boshlab o‘z vaqtida to‘lanmagan aholi qarzi osha bordi. 1762-yilga kelib qarzlarning umumiy summasi 800000 rublga yetdi. 1787-yil 28-iyundagi Manifest bilan 1776-yilgacha bo‘lgan qarzlardan kechaldi, qolganlarining to‘lov muddati 20 yilga cho‘zildi. Radishchevning hisoblashicha, shahar va qishloq aholisidan yig‘iladigan to‘lov larning ko‘pchiligi me’yor darajasida, ammo shu bilan birga u faqat davlat dehqonlarini nazarda tutdi, qishloq dehqonlari uchun bu to‘lov larning og‘irligini ta’riflab bo‘lmaydi.

40. *Bosh qo‘mondon* – knyaz G.A. Potyomkin, ikkinchi rus-turk urushida armiyani boshqargan (1787–1791-y.). Bu yerda gap Yekaterina va Potyomkinning Turkiyani yengib, Gretsiyani ozod etish va Rossiya hukmi ostidagi yangi davlatni barpo etish rejasini haqida bormoqda.

41. *Dengiz qo‘sishinlarim boshlig‘i*. – Admiralteya kollegiyasi boshlig‘i graf I.G. Chernishev, uning nomiga 1787-yil 17-aprelda Boltiq dengizidan Sharqiy ummonga kemalarni chiqarish to‘g‘risida buyruq berilgan.

42. *Qonun himoyachisi* – Senatning general-prokurori knyaz A.A. Vyazemskiy.

43. *Abadiy afv etish kuni* – amnistiya. 1762-yildan boshlab Yekaterina amnistiya to‘g‘risida ko‘p marta farmon berdi.

44. *Bosh me‘mor* – ehtimol, arxitektor I.Y. Staroye, haqiqatda «Sankt-Peterburg va Moskvani toshdan qurish komissiyasi»ni boshqargan. Bu komissiya vazifasiga ikkita poytaxt, shuningdek, provinsiya shaharlari rejasini ishlab chiqish kirgan. Staroye – Yekaterinoslav (Dnepropetrovsk), Nikolayev, Xerson va boshqa ko‘plab janubiy shaharlardagi binolar loyihasini ishlab chiqqan.

45. *Siz buyuring, qurilishning birlamchi anjomlari*. – Bu yerda: hukmdorning so‘zlariga qurilish ashyolari (g‘isht, shag‘al va hokazo) bo‘ysunishi ko‘zda tutiladi.

46. *Keragidan ortiqcha narsalar zaiflarga berilsin*. – G‘ariblar – kuchini yo‘qotgan bemorlar va qashshoqlar. Bu yerda gap yetimlar uyini tashkil etish, xalq kasalxonalari, g‘aribxonalar, aqli noqislar uylarini ochish, muruvvat ko‘rsatuvchi tashkilotlarni tashkil etish haqida bormoqda.

47. *Tantanalar bo‘yicha mas‘ul xizmatchi*. – Tantanalar bo‘yicha mas‘ul – Potyomkinning o‘ng qo‘li va devonxona boshlig‘i V.S. Popov (1786-yildan bir vaqtning o‘zida imperatorning stats-sekretari hisoblangan); uning nazorati ostida Potyomkinning 22 mln rublga yaqin mablag‘i bo‘lgan.

48. *Zabt etishga jo ‘natilgan qo ‘mondonim hashamatlar-u kayf-safoga g‘arq bo‘lgandi*. – Bu yerda: Potyomkin urushga butun boshli qarollari, musiqachilarini va xushtorlari bilan birga ketgani nazarda tutilmoqda.

49. *Yagona qo ‘mondonim*. – Bu yerda: taxminan general P.S. Potyomkin nazarda tutilmoqda. Mish-mishlarga qaraganda, P.S. Potyomkinning ma‘muriy va harbiy darajalarining oshishiga uning xotini knyaz G.A. Potyomkinning ma‘suhqasi bo‘lgani sabab emish.

50. *Dengizdan dengizga o‘tishi lozim bo‘lgan kemalarim*. – Mana shu epizod borasida Yekaterina ta‘kidlagandi: «Chichagov to‘g‘risida aytgan bo‘lsa kerak». 1765–1766-yillarda V.Y. Chichagov rahbarligida uchta kema shimoliy dengiz yo‘lini izlab ekspeditsiyaga chiqadi, ammo muzlik tufayli 80°G shimoliy kenglikkacha siljiy oladi, xolos.

51. *Uning muqovasi uchun oltin libos tayyorlab qo ‘yilgandi*. – Ya‘ni bo‘lib o‘tmagan ekspeditsiya tafsilotini muqovalashtirish uchun. Bitiklar va kitobning imperator xonimga olib boriladigan nusxasi muqovasi zarhal naqshlar bilan bezatilgan.

52. *Kuk* – bu yerda mashhur ingliz dengizchi-sayyohi Jeyms Kuk nazarida tutilmogda. U uchta dunyo bo‘ylab yo‘lga chiqqan ekspeditsiyaning rahbari, ko‘plab geografik kashfiyotlarning muallifi, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Polineziyani o‘rgangan. Kuk birinchi bo‘lib Avstralijanining sharqiy qirg‘oqlari xaritasini tuzgan, Yangi Zelandiya bo‘g‘oz bilan ajratilgan ikkita mustaqil oroldan iborat ekanligini isbotlagan, birinchi bo‘lib janubiy qutb doirasini kesib o‘tgani.

53. *Gotflar va vandallar* – IV–V asrlarda yashagan g‘arbiy Germaniya-dagi qabilalar. Bu yerda Radishchev me’moriy shaklning eskirgan uslublaridan foydalilanilganligi haqida aytmoqda.

54. *Kastaliya va Ipokrena* – buloqlar, she’riy ilhom manbalari. Yunon mifologiyasida – Parnas va Gelikon etagidagi manbalar.

55. *Me’morlar uning go’zalligi haqida fikr yuritmaganlar, balki bu qurilishdan o’zlariga qanday qilib foyda undirib olish to‘g‘risida o’ylaganlar.* – Bu yerda: Badiiy akademiya binosi loyihasining mualliflari A.F. Kokorinov va J.B.M. Ballen-Delamot bo‘lishgan. Qurilish 1765-yil boshlanib, mablag‘ yetishmaganligi bois to‘xtab qolgan. Peterburg bo‘ylab qurilishni boshqargan Kokorinov tomonidan anchagina mablag‘lar o‘zlashtirilib yuborilganligi to‘g‘risida gap-so‘zlar tarqalgan. Garchi taftishchilar pulning o‘zlashtirilganini aniqlay olmagan bo‘lsalar-da, Kokorinov (ruhiy tutqanoq kasalligi tufayli bo‘lishi mumkin) o‘zini osgan. Bino qurilishi 1788-yilda qadar cho‘zilgan, bezak ishlari 1810-yildagina yakun topgan. Bu aniq faktdan tashqari, Radishchev shunga o‘xshash voqealarning bir nechtasini keltiradi: Fanlar akademiyasining qurilishida ham o‘zlashtirishlar bo‘lgani tufayli uning qurilishi uzoq vaqt cho‘zilgan, Katta teatrda ham shu hol ro‘y bergen (hozir uning o‘rnida Sankt-Peterburg konservatoriysi joylashgan) va boshqalar.

56. *Hammadan ham ko‘ra mening qalbimni o‘ta saxiyligim azobaldi.* – Bu yerda: Ijtimoiy ta’minotga muhtoj odamlar uchun davlat tomonidan arzimagan pul ajratilardi. Har bir yesir ayol uchun bir kunga to‘rt tiyindan olti tiyingacha (ovqati, kiyimi, ta’minoti uchun) ajratilgan. Tarihi uyidagi bolalar uchun yetti tiyin ajratilib, uning ham ma‘lum qismi o‘zlashtirilar, oqibatda beparvolik yoki ochlikdan bolalar vafot etardilar.

57. *Kvas bilan silliglangan sochi.* – Bu yerda: o‘rta ma‘lumotli tabaqa vakillari sochlarni turmaklash uchun kvas yoki salo (moy) ishlatishgan. Dvoryanlar (ayniqsa, poytaxtdagilar) esa sochlari uchun maxsus qimmat-baho pomada ishlatib, ustidan upa sepishgan.

58. *Novgorod seminariyasi.* – Bu yerda: bu obraz seminarist Fyodor Vasilyevich Krechetovning real prototipi, u XVIII asr oxirining radikal

publitsisti bo'lib, kelib chiqishi cherkovliklardan hisoblanadi. Krechetovning asosiy maqsadi – «erkinlik»ning zaruriyati, u buni mustabid tizimning chegaralash vositasi deb bilgan. Ammo erkinlikni ta'minlashdan oldin savodsizlikni tugatish, ma'rifatni yoyish va odil sudni ta'minlash lozim edi. U ma'rifatni tarqatish borasida reja ishlab chiqib, muntazam yuqori idorralarga taqdim qilgan: bunga xalq bilim yurtini joriy etish rejası, savdo va yuridik maktablarni ochish rejası, Senat qoshida yuridik maktab ochish taklifi va boshqalardan iborat edi. U o'z loyihalarida Grotsiy, Monteske va Blekston g'oyalaridan ko'p foydalangan. Lekin asardagi seminarist Krechetovdan yoshi bilan farq qiladi: u yosh, Krechetov esa ellik yosh atrofida bo'lib, boz ustiga u masonlardan emas edi. Gap shundaki, Radishchev seminarist obrazida Sankt-Peterburgdagi «Og'zaki adabiyot fanlari do'stlari» jamiyatida uchrashgan Moskva martinistlari o'quvchilaridan bo'lmish yosh masonga xos fazilatni Krechetovning o'ziga xos xususiyatlari bilan uyg'unlashtirdi. Bu yozuvchiga personajning rasmiy ta'lim to'g'risidagi tanqidiy bayonotlarini (aynan Krechetovning dalillari asosida) yakdillik bilan ta'kidlash imkonini berdi, ammo masonlarning «xayolparastligini» kinoya qilib o'tdi.

59. *Universitetlar tashkil etish to'g'risida farmon chiqqani to'g'risida ayтиб ulgurdim*. – Pskov, Chernigov va Penzada universitetlar ochilishi (1787-y.) 1790-yilga qoldiriladi. Radishchev bu haqda eslab, Yekaterina II ning ma'rifiy dasturlari safsatabozlik xarakteriga ega ekanligiga ishora qiladi.

60. *Kim agar bu axloqiy olamni charxpakal akka o'xshatgan bo'lsa*. – Bu yerda: «seminarist daftari»dagi bu parchada qisman rus masonlari, ayniqsa, martinistlar suyanadigan fransuz tasavvufchisi Sen-Martin (1743–1803) ta'limotiga o'xhash fikrlar bayon qilingan.

61. *Martinist* – xristianlikning mistik va ezoterik yo'nalishi, uning ta'limotiga ko'ra birinchi odam Ilohdan materiyaga tushgan, shuningdek, uning Ilohga qaytishi yurakdan qilingan ibodat bilan erishilgan ma'naviy poklanish orqali sodir bo'ladi.

62. *Shvedenborg* – Shvedenborg yoki Svedenborg Emmanuel (1688–1772-y.) tabiatshunos, nasroniy tasavvufchi, ilohshunos shved olimi, ruhni ko'rvuchi, deyiladi u haqida, «koinot sirlari» nomli asar muallifi.

63. *Yo'q, do'stim! Men faqat yashash uchungina yeb-ichmayman, men bunda sezgi va hissiyotlarimning ko'plab lazzatlanishini topaman*. – Bu yerda Radishchev masonlar ustidan kinoya qiladi. Mistik masonlar umuman, hamda Moskva martinistlari ham (ularga Novikov va Kutuzov ham taalluqli) odam uch substansiyanidan: tana, ruh va qalbdan iborat, deb hi-

soblashgan. Bu nazariyani har uch substansiyani eslab o'tib, hajviy planda talqin qiladi. («...ruhimni tanamdan ajratib olishga urinib... O'Iganimdan so'ng... ruhim to'yunicha izg'iysi»). Bundan tashqari, masonlar ibroniy yoki arab harflari, raqamlar yoki misr iyerogliflari (ular hali o'qilmagandi) va boshqalarda shu fikrni to'xtamay olg'a suradilar. Nihoyat, masonlik real dunyoni «qorin g'amidagi dunyo» sifatida mensimay qo'ydilar, hissiy lazatga salbiy nazar bilan qaradilar va hokazo.

64. *Luter o'zgarishlarni boshladi* – Luter (Lyuter) Martin (1483–1546) – cherkov islohotchisi, Rim Papasi va katolik dogmatlarga qarshi yo'naltirilgan lyuteranchilik oqimining asoschisi. O'zgarishlar – reformatsiya (16-asrda G'arbiy Yevropadagi katolik cherkovi va Papa hukumatiga qarshi diniy shakldagi ijtimoiy-siyosiy harakat). Keng ijtimoiy harakatning boshlanishiga Martin Lyuterning katolitsizm dogmatlariga qarshi tezislar bilan chiqishi signal bo'lib xizmat qildi.

65. *Fikrlash tarzidagi bunday o'zgarishlar bizning davrimizga to'g'ri keldi*. – Bu yerda: Rossiyada idealizm, fiderizm va tasavvuf tomon keskin burilish Pugachyov qo'zg'oloni bostirilganidan so'ng 70-yillarning ikkinchi yarmida shakllandi. Bu jarayon, ayniqsa, 1777-yildan boshlab N.I. Novikov tomonidan nasr etilgan junallarda va Moskva martinistlarining kitob mahsulotlarida yaqqol ko'zga ko'rina boshladi. Bundan tashqari, 70-yillarning oxirida va, ayniqsa, 80-yillarda Yekaterina II Moskva martinistlariga qarshi kurashda tayanadigan pravoslav cherkovi ancha faollandi.

66. *Akiba* – Talmud (yahudiylarning diniy, maishiy, huquqiy qonun-qoidalari kitobi) sharhlovchisi, yahudiylar ruhoniysi Akibadan Belev (fransuz materialisti va ateisti Per Beylning «tarixiy va tanqidiy lug'ati») lug'ati asosida iqtibos keltirar ekan, Radishchev masonlarning chuqur xayoliy «aqliyoti» ustidan kuladi. Ben Iosif Akibaning o'zi, I-II asrlardagi yahudiy ravvinlarining yirik vakillaridan biri bo'lib, yuqorida aytilganidek, yahudiylar diniy naqlariga sxolastik sharhlar berarkan, u yahudiy «qonunlari»ni nafaqat har bir so'zga, balki har bir harfga tatbiq qilgan. «Sayohat»ning bu joyi – fransuz mutafakkiri Per Beylning (1647–1706) antiklerikal ruhdagi «Tarixiy va tanqidiy lug'at»I (1695–1697)dan iqtibos qilib olingan. Beyldan ushbu iqtibosni keltirarkan, Radishchev murakkab mason udumlari bo'yicha har bir marosimni o'tkazishda dunyo tomonlarini albatta hisobga olinishiga sha'ma qilib o'tadi. L.N. Tolstoyning «Urush va tinchlik» romانida keltirilgan mason udumlariga qarang.

67. *Mana shunday o'ylar bilan men uning atrofini o'rab turgan ko'plab monastirlarni tomosha qilgancha, Novgorodga yetib keldim*. – Bu yerda – XVIII asrda rus qadimiy tarixi eng asosiy e'tibor obyekti bo'lib xizmat qil-

di. Radishchevning munozara obyekti Yekaterina II ning «Rossiya tarixiga oid bitiklar»i qaratilgan.

68. *Solnomalarda keltirilishicha, Novgorodda xalq boshqaruvi yo'lgan qo'yilgan*. – Yekaterinaning tarixiy konsepsiyasining boshlang'ich punkti va eng muhim bo'g'ini Rossiya davlatchiligining azaliy shakli knyazlik humumati, ya'ni avtokratiya ekanligi haqidagi iddao edi. Bu konsepsiaga bir vaqtning o'zida Y.B. Knyajnin («Vadim Novgorodskiy» tragediyasi, 1788-yil yoki 1789-yilning boshi) va Radishchev qarshi chiqishadi, ular Rossiya davlat boshqaruvining asl shakli respublika, deb ta'kidlaydilar. Veche yig'ilishlarida xalqning o'zini o'zi boshqarishining prototipini ko'rgan Knyajnin va Radishchev Novgorod «erkinligi»ni va veche boshqaruvini ideallashtiradilar, ulardan «Erkin Novgorod»ni ideallashtirish dekabristlarga o'tadi.

69. *Ivan Vasilyevichning Novgorodni olish vaqtidagi harakati yodimga tushmasligi mumkin emas edi*. – Bu yerda gap Ivan IV ning 1570-yildagi qonli jazolashi haqida ketyapti. Yozuvchi talqin qilganiday, «Ivan Vasilyevichning Novgorodni olish vaqtidagi qilmishlari» rus istibdodining yig'ma, tipik harakati edi, chunki «shoh qilmishlari»ning bir vaqtda va bir marta sodir bo'lganini gapira turib, Radishchev bu yerda turli davr hodisalarini uyg'unlashtiradi. Novgorod Moskvaga 1478-yilda moskvalik buyuk knyaz Ivan III tomonidan qo'shilgan. Radishchev Ivan III (1440–1505) va uning nabirasi Ivan IV (1530–1584) qiyofasini pamflet uslubida birlashtiradi. Novgorodni «olish» va uni rus mustabid tizimiga «birlashtirish» 1478-yilda tegishli, Novgorodning butkul xonavayron bo'lishi 1570-yilda sodir bo'ldi. Binobarin, bu respublikaning qarshiligiga duch kelgan Ivan III, uni tag-tugi bilan vayron qilishni istagan Ivan IV edi.

70. *Savol: fuqarolik huquqi nima? – Javob: kim pochta aravasida ketayotgan bo'lsa, behuda ishlar bilan shug'ullanmaydi va otlarni qanday qilib tezroq qo'lgan kiritish haqida o'laydi*. – «Ko'rsatma»da Yekaterina II «fuqarolik qonuni»ni «unga muvosiq har bir fuqaro o'z mol-mulkini va hayotini boshqa fuqarolarning tajovuzidan himoya qilishi mumkin» deb ta'riflagan. Biroq Radishchev allaqachon «Barcha davrlarga tegishli misol-larning guvohlik berishicha, kuchga ega bo'limgan qonun hamisha quruq so'zning ijrosiga aylanganligini» ko'rsatib o'tgan edi va shuning uchun u «mayda-chuyda narsalar»ni muhokama qilishdan bosh tortdi.

71. *Novgorod kundaliklaridan*. – Tarixiy asarlardan olingan parchalar Radishchev asarlari matniga asos bo'lgan. Ularni tegishli ravishda qayta ishlagan holda, yozuvchi matnga haqiqiy hujjatning ko'rinishini berdi, bu hujjatlar rad etib bo'lmaydigan mantiq va hujjatlarning ishonchliligi bilan avtokratiyaning zulmkor va halokatli kuchi haqida darak beradi.

72. *Ilgari uchinchi gildiya savdogari bo'lgan, hozirda esa faxriy fuqaro.* – Savdogar tomonidan «e'lon qilingan» kapitaliga qarab, u uchta gildiyadan biriga yozilishi mumkin edi. 1785-yildan uchinchi gildiyaga ro'yxatdan o'tish uchun kapital 1000 dan 5000 rublgacha talab qilingan; «kapitalini 50 000 rubl va undan ko'proq deb e'lon qilgan har qanday darajadagi va shtatdagi kapitalistlar», «atoqli fuqarolar» qatoriga kirganlar, ular uchun bir qator maxsus huuqqlar va «imtiyozlar» o'matilgan.

73. *Lavater* – Lavater Iogan Kaspar (1741–1801) – pastor-ruhoni, «Fiziognomik fragmentlar» kitobida insonning fizionomiyasidan ichki qiyofasini anglash nazariyasini ilgari surgan. Radishchevning Lavaterga munosabati kinoyaomuz bo'lgan.

74. *Unga qanday teginolishim mumkin?* Axir u meniki emas... – Kutilmaganda veksellar taqdim etilganda yoki bankrot bo'lgan taqdirda, qarzlarni undirib olish jarayonida oilaning boshqa a'zosi nomida bo'lgan mol-mulkka daxl qilish mumkin bo'limgan. Shuning uchun ko'pchilik savdogarlar mol-mulkning bir qismiga egalik qilish uchun huquqi va hujjatlarni keyingi qarindoshlari, ko'pincha xotini nomiga berishgan.

75. *Ygova, Yupiter, Braxma.* – Ko'rinish turibdiki, yahudiy xudosi Yahova (Yegova), Rim xodosi Yupiter va Hind xodosi Brahma nomlarini sanab Radishchev dinning uch xil ko'rinishini nazarda tutadi – bitta Xudoga ishonish (yakka xudo, yakkaxudolik), ko'p xudolik hamda triteizm, ya'ni uch xudolik.

76. *Kollej asessori, ya'ni kichik amaldorlarga beriladigan 8-darajali unvon berishdi.* – Sudda kollegial baholovchi unvonini olgan shaxs (shuningdek, davlat xizmatida) merosxo'r zodagonlarga, shuningdek, krepostnoylarga egalik qilish huquqiga ega bo'ldi.

77. *Gogard* – Gogard (Xogart) Uilyam (1697–1764) – ingliz rassomi va naqqoshi, satirik. O'z suratlari va gravyuralarida ingliz hukumatini ayovsiz fosh qilgan.

78. *Lekin qiz o'z qallig'iga bergen so'zida mustahkam turdi, garchi bunday holatlar dehqonlar orasida kam bo'lsa ham uchrab turardi.* – Krepostnoylik huquqining ashaddiy dushmani bo'lgan va krepostnoylarning azob-uqubatlarini aks ettirgan Radishchev dehqonlarni umuman ideallash-tirmadi. Aksincha, rus adabiyotida krepostnoylik huquqining axloqqa salbiy ta'sirining nafaqat mulkdorlarga (bu haqda uzoq vaqt Kantemir, Sumarokov, Novikov, Knyazjin, Fonvizinlar ham yozishgan), balki krepostnoy dehqonlarning o'ziga nisbatan ham amal qilishini baland ovoz bilan gapirgan. «Valday», «Yedrovo», «Xotilov», «Mednoye» boblarini qarang.

79. *Lavozimim taqozo qilgan vazifa bo'yicha aybdorlarga o'lim jazosini belgilash va ularning yonidagilarni umrbod mehnat surguniga jo'natish haqida yakuniy xulosaga kelishim lozim edi.* – Yekaterina II o'lim jazosining qo'llanilishiga bir necha bor qarshi bo'lib, uni faqat «janobi olivalarini haqorat qilganligi» va qasamni buzganlik uchun jazo sifatida qoldirgan. Ammo hech qanday yangi qonunlar kodeksi yaratilmaganligi sababli sudyalar o'z amaliyotlarida eski qonunlarga asoslanib, turli xil jinoyatlar da aybdorlarni o'limga mahkum etishlari lozim edi. Keyin o'lim jazosini «savdolashilgan jazo» bilan almashtirishlari kerak edi. Ya'ni aybdorni omma oldiga olib chiqib, temir qamchi bilan savalash, burnini kesish, temir qizdirib bosish yoki bir umrlik mehnatga, ya'ni surgunga jo'natishga hukm qilishlari lozim bo'lgan.

80. *Durindin uylandi.* – Keyingi voqeanning tashqi, o'tkir hajviy qo'big'inining orqasida ichki, o'ta zaharxanda va juda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan sha'malar, kinoyalar aks etgan. Yekaterina II «Chivin ortidan sop bilan» (1788) pyesasida Durindin nomi bilan ober-shenk A.A.Narishkin prototipi kiritilgan. «Sayohat»da ham Durindin obrazi Narishkinni anglatishini tushuntirish uchun Radishchev yuqorida uning dala hovlisini eslatib o'tdi. Binobarin, Durindinning rafiqasi prototipi, Sh. xonimning eski qo'shmachisi A.N.Narishkina bo'lib, davlat xonimi, imperator xonimning shaxsiy sirlaridan voqif bo'lgan do'sti va advokati bo'lgan. 1789-yilning iyun oyida Yekaterinani yangi mahbubi P.A.Zubov bilan aynan A.N.Narishkina tanishtirgan edi.

81. *Bu dunyoda hamma narsa g'ildirakday aylanadi.* – 1789-yil iyun oyida mahbubning navbatdag'i o'zgarishiga sha'ma qilinmoqda.

82. *Onangizning qornida bo'lganiningizdanoq himoyamga oldim.* – Lokkning bola tug'ilishidan boshlab tarbiyaning zarurligi haqidagi fikriga asoslanib, otasi onaga bolalarni tarbiyalashda yordam bergen, ammo (Lok va Russoning ko'rsatmalaridan farqli o'laroq) buni yordamchi sifatida yollanadigan enaga va murabbiylarsiz amalga oshirgan. Oiladagi tarbiya masalasini bиринчи darajaga olib chiqish, ideal tarbiyachi-ota obrazini yaratishda Radishchev ko'plab ma'rifatparvarlar bilan baqamti chiqqan (Gelvetsiy, Russo va boshqalar).

83. *Saodat tojini kiying, uni sizdan tortib olishga astoydil urinadilar.* – *Jon bering.* – O'z joniga qasd qilishni fuqarolik jasorati, zo'ravonlikka qarshi norozilik shakli sifatida qarash XVIII asr ma'rifatparvarlarining aksariyatiga xosdir. Cherkov va davlat o'z joniga qasd qilishni qat'iyan qoraladi.

84. *Bu uqubat hamisha tinchlik va osudalikni targ'ib qilib... – 1775-yil-*
dan beri, Pugachyov qo‘zg‘oloni bostirilgandan boshlab, Senat tomonidan
chiqarilgan yoki imperatitsa o‘zi imzolagan hukumat qarorlari va huj-
jatlarida, «Axloq qoidalari yoki Politsiya Nizomlari»da (1782), «barcha
fuqarolarning baxtiga» davlatda hukm surgan «tinchlik va osoyishtalik»
haqidagi iboralar muntazam qo‘llanila boshlandi. Bu yerda Radishchev-
ning g‘azabli xitobi aynan avtokratiyani asoslovchi hujjalariqa qarshi aniq
yo‘naltirilganligini tushunish mumkin.

85. *Bu yangi shaharcha. – Valday qishloq sifatida XV asrga oid solno-
malarda qayd etilgan. 1772-yil 3-apreldagi farmon bilan Valday, Vishniy
Volochok, Borovichi, Radishchevning so‘zлari bilan aytganda, «shaharlar-
ga aylantirilgan».*

86. *Ayniqsa, eri yo‘q ayollarining muhabbat ehtiroslariga moyilligi
to‘g‘risidagi gap-so‘zлari bilan tanqli. – Valday XVIII asrda axloqsizlik
bilan mashhur bo‘lganligi, boshqa manbalarda ham, masalan, G.R. Derja-
vinnинг «Eslatmalar»ida ham aytib o‘tilgan.*

87. *Bolalar tarbiyasi uylariga qatnamaslik uchun – ya’ni noqonuniy
tug‘ilgan bolani bolalar uyiga olib bormaslik uchun.*

88. *Uch chorakli qomatning bilan maqtanasan – uch chorakli qomat,
190 arshin, aylanasi taxminan 54 sm.*

89. *Otam bizga beshta ot va uchta sigir qoldirgan. – Anyuta – erkin
dehqon ayol, o‘ziga to‘q aravakashning qizi: qonunga ko‘ra, aravakashlar
uchta otga ega bo‘lishlari kerak edi. Oilaning muammosi shundaki, uyda
aravakash vazifasini bajara oladigan erkak ishchi yo‘q.*

90. *To‘rt ot qo‘shilgan olmos foytunlarda. – Otlar soni va aravani be-
zatish xususiyati «Daraja (unvon)lar jadvali» qoidalariqa qarab maxsus qo-
nun bilan tartibga solingan. Birinchi beshta darajaga mansub amaldorlar
oltita yoki to‘rtta ot qo‘shilgan karetada har bir daraja (sinf)ga mutanosib
ravishda yurishlari mumkin edi. Oltinchi – sakkizinchi darajadagi amal-
dorlar to‘rttagacha ot qo‘shilgan foytunlarda yurishga haqli edilar. Bosh
ofitserlar bir juft ot qo‘shilgan izvoshda yurishardi. Amaldor bo‘limganlar,
qanday aravadan foydalanishidan qat’i nazar, bitta ot bilan kifoyalanishla-
ri kerak edi. Ketma-ket yo‘lga chiqilganda esa to‘rt-oltita otlar juft bo‘lib
aravalarga qo‘shilardi.*

91. *Yovuzlikning bu yuz boshli ajdahosi qilmishlariga chek qo‘yishga
harakat qildilar. – Shubhasiz, bu yerda gap Pyotr I va Yekaterina II ning
krepostnoy huquqni suiiste’mol qilishni cheklashga qaratilgan urinishlari
haqida ketmoqda.*

92. *Bizning hukmron ajdodlarimiz*. – Pyotr I davrida zodagonlar o‘zlariga biriktirilgan dehqonlar bilan birga yerga merosxo‘rlik huquqini, so‘ngra krepostnoy dehqonlarga egalik qilishning mutlaq huquqini olishdi. Yekaterina davrida dvoryanlarning majburiy xizmati va dvoryanlarga boshqa imtiyozlarning bekor qilinishi munosabati bilan dehqonlar barcha fuqarolik huquqlaridan mahrum bo‘lib, «qonunda o‘lik» holga tushishdi.

93. *Xudoning xizmatkorlari bizning tabiatimiz va qalbimizdagilarni ko‘rsatish orqali sizning shafqatsizligingizni, nohaqligingiz va gunohingizni anglatishga harakat qildilar*. – XVIII asning din peshvolari yer egalariiga hech narsani isbotlay olishmadidi. Bu yerda gap bobning birinchi xatbosisida berilgan gapi, uzoq kelajak haqida ketmoqda.

94. *Siz yoshlarga* – siz yosh bo‘lgan vaqtningizda. Bu yerda gap yana kelajak haqida ketmoqda, chunki u vaqtarda bilim yurtlarida tabiiy huquq asoslari va fuqarolik huquqidan saboq berilmagan.

95. *O‘n sakkizinchasi asrda ixtiro qilingan sharlarga tatbiq qilaman*. – Qog‘ozdan yasalgan (tez orada uning o‘rniga ipak bositgan) va issiq havo bilan to‘ldirilgan birinchi havo sharini aka-uka Mongolfyelar ixtiro qilishgan va 1783-yil 5-iyunda hamda 27-avgustda ishga tushirilgan. O‘sha yili professor Charlz vodorod («yonuvchi havo») bilan to‘ldirilgan sharni ixtiro qildi.

96. *To‘pori adashganlarning*. – Aldanganlar. Y.I. Pugachyov «Shoh Pyotr Fyodorovich» nomi ostida gapirdi. Radishchev chor dehqonlarining shoh taxtiga chiqish illuziyalariga salbiy munosabatda bo‘lgan.

97. *Kelgusi zamona fuqarosini ko‘rdim*. – Bu personaj ikkita «kelajakdagi loyihalarning» («Xotilov» va «Vidropusk») va krepostnoylar sotilishi to‘g‘risidagi yozuvlar («Mednoye») «muallifi». Personaj pozitsiyasining murakkabligi, yuqori sinflarga ta’sir o‘tkazishga urinishlarni xalq inqilobi umidlari bilan birlashtirgan, dastlab bu obrazda Radishchevning o‘zi joylashgan. «Kelgusi zamona fuqarosi» formulasi Shillerning «Don Karlos» tragediyasidan olingan: bu markiz Pozaning aynan xususiyatlari. Shiller qahramoni bilan o‘zaro bog‘liqlik Radishchev personaji pozitsiyasining murakkabligini tushunishga yordam beradi: markiz Poza Philipp II ni islohotlarga undashga urinib, bir vaqtning o‘zida Niderlandiyada qo‘zg‘olon tayyorlamoqda. Biroq Radishchevning Shillerning qahramonidan o‘rnak olgan «kelajakdagi fuqarosi» ayni paytda unga nisbatan munozaraga moyildir: agar Shillerning xayolparast ritsari Don Karlosni xalq harakatining boshiga qo‘yish xomxayoli bilan umid qilgan bo‘lsa, Radishchevning «kelgusi zamona fuqarosi» hushyorlik va shubha bilan ta’kidlaydi:... ozodlik

uchun kurasha oladiganlarning barchasi, barcha buyuk vatanparvarlar...», ya’ni o‘z umidlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri xalqqa, xalq inqilobiga bog‘laydi.

98. *Unvonlar ro‘yxatini (jadvalini) topdim*. – Bu yerda «Vidropusk» bobidan joy olgan «loyiha» haqida gap ketyapti.

99. *Muqaddas haftada* – yoki Pasxa – katta ro‘zadan keyingi hafta (pasxagacha yetti hafta davom etadi), katta diniy bayram.

100. *Jamiyatdagi buzilgan tabiiy va fuqarolik tengliklarini yana astasekin joriy eta borib, ota-bobolarimiz...* – Bu yerda gap mustabid tizimning eski feodal aristokratiyasi bilan kurashi haqida ketyapti.

101. *Shohlar saroy sanamlarini barpo etdilar, bu sanamlar haqiqiy sahnnaviy ma‘budchalar bo‘lib, hushtak yoki shaqildoqqa bo‘ysunardilar*. – Ya’ni ular teatr aktyorlariga o‘xshash ma‘bud vazifasini bajaradigan, rejissorning ko‘rsatmalariga bo‘ysunadigan saroy sanamlarini o‘rnatdilar.

102. *Gerderni eshitib ko‘ramiz*. – Keyingi xatboshi Gerderning «Hukumatning fanlarga va fanlarning hukumatga ta’siri to‘g‘risida» mulohazasidan iqtibos keltirilgan va Radishchev matbuot erkinligini himoya qilish uchun faqat tezislarni keltiradi.

103. *Uning senzurasi, u kulohdami yoki qilich solish uchun tasmaband taqganmi* – ya’ni ma‘naviy yoki politsiya senzurasi (kuloh – bu monaxlarning bosh kiyimi, bog‘lam – bu qilichga cho‘tka bilan o‘ralgan). Ushbu jumla Radishchev tomonidan Gerderning matniga Rossiyaning o‘ziga xos xususiyatlari nisbat qilib kiritildi, zero u yerda ikkita senzura mavjud edi – ma‘naviy va politsiya senzurasi.

104. *Fikrni ijara olish zararli...* – bu fikr monopoliyasi.

105. *Cherkov boshqaruvining birorta kalta fikrli noziri*. – Radishchev politsiya senzurasini (politsiya trevogasida shaqildoq ishlatalilgan) va ma‘naviy (bong urilgan) senzurani nazarda tutmoqda. Politsiya va cherkovni «cherkov nozir» formulasida birlashtirish shuning uchun ham mumkin ediki, XVIII asrda «cherkov boshqaruvi» so‘zi ham politsiyani, ham cherkovni anglatardi.

106. *Politsiyachining tamg‘asi* – tegishli yozuvlar («Cherkov boshqaruvi kengashi ruxsati bilan», «Belgilangan ruxsat bilan» va boshqalar), nashrning sarlavha sahifasida 80-yillarda joylashtirilgan.

107. *O‘z maslagidan oshkora qaytganlar*. – Gap raskolchilar haqida kelmoqda. XVII asr – XVIII asrning birinchi yarmida ular qattiq qatag‘onga uchradi, ammo 60–80-yillarda ular fuqarolik huquqlarini qaytarib oldilar. Biroq raskolchilarning noqonuniy nashrlari ta‘qib ostiga olindi. Radishchev bu qoidalarning bema’niligini qayd etdi, zotan hukumat raskol-

chilar tashkilotini qonuniylashtirgan holda, ularning kitoblarini taqiqlash mantiqqa to‘g‘ri kelmasdi.

108. *Uch boshliq* – Rimda birinchi bor Yuliy Sezar tomonidan tashkil etilgan, huquqlari cheklanmagan, uch magistratdan iborat triumvirat deb atalgan siyosiy ittifoq a’zolari.

109. *Seneka* – Kassiy Sever, Labiyeniyning do‘sti, uning yozganlari ni olovga otishganini ko‘rib, shunday degan: «Endi meni ham yoqishga to‘g‘ri keladi, chunki men uning yozganlarini yoddan bilaman». Bu Avgust davrida haqoratomuz asarlar to‘g‘risidagi qonunchilik hodisasiga tutki bo‘ldi.

110. *Kremutsiy Kord* – Rim tarixchisi, imperator Tiberiy davrida yashagan (er. avv. 43 – er. avv. 37). Radishchev xato qilgan: Kremutsiy Kord oxirgi rimlik deb yozuvchi Kassiy Severni emas (32-y.), Sezarga uyushtirish tashkilotchilaridan biri Gay Kassiy Longin (er. avv. I asr) suiqasjni nazarda tutgan.

111. *Yustinian Pandektlari* – Vizantiya imperatori Yustinian (527–565) davrida yetakchi Rim huquqshunoslari mehnati bilan to‘plangan iqtiboslar kitobi.

112. *Illuminatlar* – XVIII asrdagi maxfiy jamiyatlardan biri. Fransiya bo‘ylab illuminatlar orasida talaygina 1789-yilda bo‘lg‘usi inqilobning namoyandalari bo‘lishgan. Radishchev illuminatlar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lman. U illuminatlar deganda masonlarni nazarda tutgan.

113. *Kitob chop etish ixtiro qilingan shaharning o‘zida joriy etilganini ko‘ramiz.* – Kitob bosib chiqarishning asoschisi Iogann Gutenberg (XIV asr oxiri – 1468) birinchi kitobni Maynetsda bosib chiqargan (1445).

114. *Arxikansler va kurfist.* – Arxikansler – amaldorlik unvoni, kurfist (kurfyurst) – qadimgi Germaniyada imperator saylash huquqiga ega bo‘lgan davlatmand knyaz.

115. *Diniy xurofot zanjiri bo‘lmasa ham, unda siyosiy xurofot zanjiri bo‘lishi mumkin.* – Bu yerda, boshqa joylarda bo‘lgani kabi, «diniy xurofot» bilan Radishchev dinni, «siyosiy xurofot» bilan – avtokratiya, monarxiya, despotizmni nazarda tutadi.

116. *Apostol kamerasi* – Qadimda Papa g‘aznaxonasi sifatida ma’lum bo‘lgan, Papa ma’muriy boshqaruving markaziy moliyaviy kengashi.

117. *O‘ttiz yillik urush* (Uch o‘n yillik urush) – Germaniyada protestant va katoliklar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan urush (1618–1648-y.)

118. *Ko‘p o‘tmay kitob bosib chiqarishga joriy etish.* – Villiam Kackson, londonlik savdogar, Angliyaga kitob bosish uskunasini Eduard IV davrida 1474-yilda olib kirgan. Ingliz tilida chop etilgan birinchi kitob fransuz

tilidan tarjima qilingan «Shashka o'yini yuzasidan mulohaza» bo'lgan. Ikkinchisi – lord Rivers tomonidan tarjima qilingan faylasuflar so'zi va iboralari sanaladi.

119. *Yulduzlar palatasi* (nomini yulduzlar bilan bezatilgan shiftdan olgan) – Angliyada XV–XVII asrlardagi oliy sud-ma'muriy muassasasi. Maxfiy kanselariya (1718–1762) siyosiy qidiruv bilan shug'ullangan.

120. «*Davomli parlament*» – Angliyada 1641–1653 va 1659–1660-yillardagi uzoq davom etgan parlament nomi, u Vestminsterda to'plangan. O'z vaqtida Oliver Kromvel tomonidan tarqatib yuborilgan. Umumiy 511 nafar a'zodan 91 nafar deputat grafiklar tomonidan vakil bo'lgan, 4 nafari – universitetlardan, qolgan deputatlar shahardan vakil bo'lishgan. Angliyada 1640-yilning 13-apreldidan 5-mayigacha amal qilgan parlament bor-yo'g'i uch oy yashagani uchun qisqa parlament nomini olgan.

121. *Senzura oxirgi marta bir og'zini ochib, so'ng o'ldi.* – Daniyada erkin kitob bosib chiqarish bir lahzada bo'ldi. Volterning mazkur holat yuzasidan Daniya qiroliga qaratilgan she'rlari hatto eng oqilona qonunlarni ham maqtashga shoshmaslik lozimligiga guvohlik beradi (*muallif izohi*).

122. *Maqtashga shoshmaslik lozimligini eslatib o'tadi.* – 1770-yil Daniya qiroli Xristian VII (1749–1808) tomonidan e'lon qilingan bosish erkinligi bir yil o'tiboq, chegaralab qo'yildi. Matbuot erkinligi to'g'risidagi farmonni Volter (1771) tasdiqladi (*muallif izohi*).

123. *Lafayet bu hukmlarning ijrochisi edi.* – Gap fransuz inqilobiy nashrlarining ta'qib qilinishi haqida bormoqda. Moliya vaziri to'g'risidagi risolaning (1790) demokratiya dohiysi Marat (1743–1793) tomonidan maxfiy tarzda nashr etilishi «Inson va fuqarolik huquqlari Deklaratsiyasi» loyihasi muallifi Lafayet (1757–1834) boshchiligidagi Milliy gvardiya tomonidan Maratning uyi qamal qilinishiga olib keldi. Fransiyadagi voqealar rivojini kuzatib borgan Radishchev Ta'sis yig'ini harakatlarida inqilob xavfini ko'ra bilgan.

124. *Imperator Iosif II...* – Avstriyada Mariya Tereza (1717–1780) davrida senzura katolik cherkovi qo'lida bo'lgan, bu esa har qanday erkin fikrni shafqatsizlarcha bostirgan. Onasi vafotidan keyin Jozef II (1741–1790) diniy bag'rikenglik to'g'risida farmon chiqardi va senzuraning yangi Nizomi senzura qo'mitasini yo'q qildi, ammo senzuraning o'zi bekor qilinmadi. Uning o'rmini egallagan Leopold II (1790-yildan 1792-yilgacha bo'lgan imperator) yana cherkovga bir qator imtiyozlar berdi va senzura qo'mitasini tikladi.

125. *Rossiyada senzura borasida nima ro'y berdi, buni boshqa vaqt bilib olasiz.* – Radishchevga yana Rossiya senzurasi haqida gapirishning

hojati yo'q edi, chunki senzuraga oid qonunchilik, shuningdek, politsiya va ma'naviy senzuraning amaliyoti bobning birinchi qismida batafsil tahlil qilingan.

126. *Har haftada ikki marta*. – O'sha vaqtida faqat ikkita, «Sankt-Peterburg xabarlari» va «Moskva xabarlari» nomli ikkita gazeta bo'lib, haftada ikki marta chop etilgan.

127. *Minix boshchiligidagi Qrim yurishi*. – Bu yerda feldmarshal Minixning (1683–1767) Qrimdagi yurishi (1736) va Rossiyaning Kunersdorf-dagi g'alabasi (1759) haqida gap ketmoqda, yetti yillik urushda Frankfurt-Oderga yo'l ochilgan (1756–1763).

128. *Frankfurt jangi* – yetti yillik urush paytida 1759-yil 1-avgustda Kunersdorf jangi.

129. *Yoki ibodatxonada kuch ishlatalish yo'li bilan o'qilgan nikohni Xudo ittifoq, deb hisoblaydi, deb o'ylaysanmi?* – 1724-yilgi qonunga binoan, hech kim nikohga majburlash huquqiga ega emas edi, ammo amalda ushbu qonunga rioya qilinmadi.

130. *Kvaker* – xristian dinining Angliya va Amerikada tarqalgan mazhabidagi kishi. Ularning shiori: yaqinlarga muhabbat va o'zni mukammal lashtirish. Qora tanlilarni ozod qilish g'oyasini ko'tarib chiqishgan. Bu yerda muallif Raynalning «Ikki Hindiston tarixi» epizodiga ishora qiladi, unda kvakerlarning diniy tariqati a'zolari qora tanli qullarini qanday ozod qilganliklari haqida hikoya qilinadi.

131. *U noqonuniy tug'ilgan. Qonun uni ozod qiladi*. – «Bolalar uyining umumiy qonuni»ga binoan, ta'lim muassasalarining barcha noqonuniy tarbiyalanuvchilar, shuningdek, ularning kelajakdagi farzandlari va avlodlari abadiy ozod bo'lib qoladilar; ularni krepostnoylarga yoki qulga aylantirish mumkin emas.

132. *Chet ellik do'stlarimdan biri ehtimol ingliz yoki fransuz, chunki «uzoq qishloqlar» deganda Amerikada qora tanlilar qulligi bo'lgan ingliz yoki fransuz mustamlakalar nazarda tutilgan*.

133. *Lomonosov bizning she'rlarimiz polyaklarning kulgili liboslar bilan bezatilganini anglab qoldi*. – She'rlearning polyakcha kiyintirilishi – nazmning g'arb, ayniqsa, polyak she'riyatining ta'siridagi sillabik she'r tuzilishi (misralardagi bo'g'lnarning tengligiga asoslangan) nazarda tutilmoqda. Lomonosov va Trediakovskiyalar tonik, ya'ni urg'uli va urg'usiz bo'g'lnarning ma'lum tartib bilan kelishiga asoslangan she'r yozishgan. Radishchev vaznni qoidalashtirishga qarshi chiqadi, rus she'rlerining turli hajmlilagini yoqlaydi.

134. *Shunda unutilib, mox bosib ketgan qabrdan Trediakovskiyi kovalb olishadi.* – «Telemaxida»ga obyektiv baho berishga birinchi urinishni Radishchevning o‘zi «Daktiloxoreik vazn qahramoniga yodgorlik» maqlasida amalga oshirdi.

135. *Bu satr judayam dag‘al, T harfi ketma-ket takrorlangani va undosh harflarning qo‘silib ketishi, ya’ni «бства тъму претв.»* – shu yerning o‘zida o‘nta undosh va uchta unli harflarning ishtirot etayotgani she’rni ifoda etishni og‘irlashdiradi. – Radishchev o‘zining she’riyatining asosiy asoslarini tushuntirib berar ekan, «qiyin bayt»ni she’riyatda og‘zaki materialni tovushli va ritmik tashkil etish usullaridan biri deb izohlaydi.

136. *Rekrut chaqiruvi* – bu Rossiyada 1699-yilda Pyotr I davrida joriy qilingan armiyani to‘plash usuli. Harbiy ehtiyojga qarab, yangi yollanadiganlarning umumiy soni aniqlandi va keyin rekrutga jalb qilish mumkin bo‘lgan erkak joni hisobidan qancha odamni olish kerakligi hisoblab chiqiladi. Harbiy xizmatga qabul qilishning asosiy og‘irligi mamlakatning ichki viloyatlari dehqonlariga tushgan.

137. *Mening chekimga shu tushibdi...* – Harbiy xizmatga qabul qilish e’lon qilinganda, har bir hudud uchun faqat yollanadiganlarning umumiy soni (erkaklar jon boshiga qarab) aniqlandi. Krepostnoy qishloqlarda yollanuvchilarни aniqlash butunlay yer egasiga bog‘liq edi, davlat va shtatlar yerida bu qur’a tashlash yo‘li bilan belgilangan.

138. *Iqtisodiy qishloq.* – Bu ilgari monastirlarga tegishli bo‘lgan qishloqlarning nomi va 1764-yildan buyon ular davlat hisobiga o‘tkazilgan.

139. *To‘q kaftan* – dehqonlarning qora jundan qilingan, bo‘yalmagan matosidan tikilgan chakmon.

140. *Ular bizni safga o‘lchovga qo‘yishganida...* – Yig‘ilish punktiga yetib borilgach, chaqiriluvchilar balandligi bilan o‘lchanadi, chunki ular «belgilangan o‘lchov»dan pastroq askarlarni olmaydilar, bu – 2 arshin 3 3/4 vershoks (taxminan 167,5) sm)ga teng.

141. *Prussiya harbiy chaqiruvchiları* – bu harbiy xizmatga yollovchilar.

142. *Memel* – Litvaning qadimiy shahri, 18-asrda Prussiyaga tegishli bo‘lgan (hozirda – Litvaning Klaypeda shahri).

143. «*Men sizni!..*» – Radishchev bu yerda xato qiladi: Eola emas, balki Neptun shamollarni tinchitib: «*Men sizni!..*» deydi.

144. *Eola nayzasi* – uch qirrali nayza, Neptunning doimiy quroli.

145. *Polkan* – bu yerda: jangari chavandoz.

146. *Sud grammatikasida uni ovozsiz deb atashadi ...* – D.I.Fonvizinning «ovozsizlar» haqida yozgan «Umumiy sud grammatikasida» shunday deyil-

gan: «Ular saroya alifbosidagi «» harfiga o‘xshashadi, ya’ni o‘z-o‘zidan, boshqa harflarning yordamisiz ular hech qanday tovushni chiqarmaydi».

147. *Bugungi hosil bo‘lmagan bir paytda shunga ham shukur qilamiz*. – 80-yillarning ikkinchi yarmida Rossiya bir qator hosil bo‘lmagan, og‘ir yil-larni boshdan kechirdi.

148. *Parnasslik sudya* – «zamonaviy shoir». «Hurlik» va «Lomonosov haqida so‘z» asarlari muallifi.

149. *Nevskiy monastiri* – Aleksandr Nevskiy lavrasi (erkaklar monas-tiri), 1713-yilda Pyotr I tomonidan 1240-yilda shvedlar ustidan Aleksandr Nevskiy qo‘lga kiritgan g‘alaba xotirasiga bag‘ishlab asos solingan.

150. *Ozerki* – XVIII asrda Nevskiy monastiri orqasida joylashgan hu-dud shunday nomlangan.

151. *Nevskiy qabristoni* – Lazarevskoye qabristoni, 1716-yilda tashkil etilgan. Bu yerda 1765-yilda Lomonosov, 1783-yilda A.V. Radishcheva (Rubanovskaya) dafn etilgan.

152. *Sening nomingni foniyliging ustiga qo‘yilgan ustun saqlab ber-maydi* ... – Graf M.L. Voronsov Lomonosov qabri ustiga marmar yodgorlik o‘rnatdi, yodgorlik ustunida lotin va rus tillaridagi yozuvlar bilan uning xizmatlari ko‘rsatilgan. Ikkala yozuv ham «Truten» jurnalining 10-sahifasida bosilgan va ularning ortidagi maqolada shunday deyilgan: «Siz marhum janobi oliylari Graf Voronsovgaadolatli tarzda olqish aytishdan tiyolmaysiz. Uning mehnati va tirishqoqligi hosili o‘laroq marhum janob Lomonosov nomi sharafiga barpo etilgan yodgorlik keyingi avlodlarga asrimizning og‘zaki va yozma adabiyoti fanlari to‘g‘risida ma’lumot beradi». Radishchev to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘nggi jumla ustida bahslashadi.

153. *Monastir muslari uyi* (ya’ni monastir muzlari) – Slavyan-Yunon-Lotin akademiyasi, Moskvadagi eng qadimgi ta’lim muassasasi.

154. *Xotinning qo‘lga kiritilishi to‘g‘risida qasida yozib, ushbu maq-sadini amalga oshirdi va uni Marburgdan Fanlar akademiyasiga jo‘nat-di* – qasida Marburgdan emas, balki Fraybergdan yuborilgan.

155. *Demosfen shunday bo‘lgan*. – Radishchev o‘tmish va hozirgi zamonning eng mashhur notiqlarini sanab o‘tadi: qadimgi yunon Demosfen (miloddan avvalgi 384–322), rimlik Sitseron (miloddan avvalgi 106–43), ingliz Uilyam Pitt oqsoqol (1708–1778), Edmond Burke (Burke, 1730–1797), Charlz Jeyms Foks (1749–1806), fransuz Onore Gabriyel Riketti Mirabo (1749–1791).

156. *Ammo siz, Lomonosovning o‘ziga boqib va uning asarlaridan ehtimol so‘zamolligini o‘rganib...* – Radishchev o‘zining notiqligi bilan mashhur bo‘lgan Moskva mitropoliti Platon Levshin (1737–1812)ga mu-

rojaat qiladi. Aflatunning ruhi va qalbiga hurmat ko'rsatgan yozuvchi uni qadimgi yunon faylasufi Platon bilan taqqoslaydi.

157. *Tavsiylovchi* – tarixchi. Radishchev Lomonosovning tarixiy asarlarini juda past baholaydi va uni buyuk Rim tarixchisi Tatsit, maorif tarixchilari Raynal va Uilyam Robertson (1721–1793) bilan bir qatorga qo'yishni rad etadi.

158. *Marggraf* – Andreas Sigismund Marggraf (1709–1802), nemis kimyogari.

159. *Riyediger* – chamasi Andreas Rudiger (1673–1731), nemis olimi.

160. *Uning bu qadamlari izdoshning qadamlari bo'lgan* – tabiatshunos olim Lomonosov faoliyatini baholashda Radishchev adolatsizdir. Faqat XX asr ilmi Lomonosovning ilmiy kashfiyotlari dahosini to'liq qadrlashga qodir edi va hozirda Lomonosov bir qator muammolarda o'z davridan qanchalik oldinlab ketgani ma'lum. Aftidan, Radishchev, Lomonosovning zamondoshlari va unga do'st bo'lmagan olimlarning sharhlariga tayangan.

161. «*U ko'kdan yashin irg'itdi, shohlar qo'lidagi asoni ham*» – V. Franklin portretidagi yozuv (1706–1790).

162. *Franklin Benjamin* (1706–1790) – Amerika inqilobining eng buyuk rahbarlaridan biri, fizik, chaqmoq chaqini ixtirochisi. Radishchev keltirgan yozuv uning byusti ostida yozilgan bo'lib, Reynaldan olingan (va u asl nusxadagi «zolimlar» so'zi o'mniga «shohlar» so'zini qo'ygan va shu bilan zolimlikka qarshi kurashni monarxiyaga qarshi kurash bilan uyg'unlashtirgan).

163. *Sharmandali she'riyat* – ya'ni drama. Gap Lomonosovning muvaffaqiyatsiz tragediyalari haqida ketmoqda.

164. *Vsesvyatskoye* – Moskva yaqinidagi qishloq (hozir shahar chegaralarida joylashgan).

165. *Cherkov Mahkamasi ruxsati bilan*. – Qonunga ko'ra, senzuranning belgisi sarlavha sahifasida bo'lishi kerak edi, Radishchev uni juda yaxshi bilar edi: «Sayohat» oldin o'sha bosmaxonada bosilgan «Do'stimga maktub»da senzura ruxsati yozuvi sarlavha varag'ida berilgan edi. Shu sababli, so'nggi sahifada senzurani yozib qo'yish muallifning g'oyaviy va kompozitsion rejasining bir qismi bo'lganligi aniq. «Sayohat»ni qo'lga olgandanoq, o'quvchi birinchi rus inqilobiy kitobining g'ayrioddii, noqonuniy xususiyatini his qilgan bo'lishi kerak. Boshqa tomondan, bu yozuv bir vaqtning o'zida kuchsiz ravishda «tafakkurni jazolash uchun ko'tarilgan» («Torjok») hokimiyatning ahmoqligini ayovsiz masxara qiladi, chunki kitob haqiqatan ham «Ma'muriyat kengashi ruxsati bilan» hatto ikki martalab –

ober-politseyemeyster unga ikki marta imzo chekkan: avval «Sayohat»ning o‘ziga, keyin esa «Lomonosov haqida so‘z»ga.

166. *Ey, o‘zining saxiy nurlari bilan *** munavvar etguvchi quyosh.* – Uchta yulduzcha bilan almashtirilgan so‘z qanday o‘qilishi kerakligi aniq emas. Bu yerda «Xudo» yoki «boyarin» so‘zlarini ko‘rish taklif qilindi, ammo bu ehtimoldan yiroq: Novikov nashrlaridagi bunday yetishmovchiliklar, odatda, yulduzcha bilan emas, balki ko‘p nuqtalar bilan almashtirildi. Bu yerda qandaydir geografik nom borligi haqiqatga yaqinroq: yoki sarlavhadagi uchta yulduzcha bilan almashtirilgan («***ga sayohatdan parcha») nom yoki umuman «Rossiya».

167. *Boylar, Plutosning sevimllilari* – Plutos – qadimgi yunonlar orasida boylik xudosi.

168. *Janob Falkonet tomonidan yaratilgan haykalining ochilishi bo‘ldi.* – 1782-y. – Sankt-Peterburgda Pyotr I yodgorligini o‘rnatish zarurligi g‘oyasi uzoq vaqt davomida amalga oshirilmadi. K.B. Rastrelli tomonidan yaratilgan imperatorning otliq portretidan haykal ishlanmadi (1743; 1800-yilda Pavel I tomonidan Mixaylovskiy qal’asiga o‘rnatilgan). Yelizaveta hukmronligining so‘nggi kunlarida ish Martelliga ishonib topshirilgan, ammo 1764-yilda Yekaterina buni ma’qullamagan. 1766-yilda fransuz haykaltaroshi E.M. Falkone bilan shartnoma imzolandi. 1769-yilda alla-qachon otliq haykalning maketi tayyor edi (Pyotrning boshini Falkonening shogirdi M. Kollot haykaltaroshlik bilan ishlagan), uni quyish 1775-yilda tugallandi. Ammo yodgorlikning ochilishi turli sabablarga ko‘ra kechiktirildi va 1778-yilda haykaltarosh Parijga jo‘nab ketdi. Yodgorlikning ochilishi shoh Pyotr (ukasi Ivan bilan birgalikda)ning yuz yilligiga va shu bilan birga – Yekaterina II ning taxtga o‘tirganining yigirma yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilishi e’lon qilindi. Bu 1782-yil 7-avgustda bo‘lib o‘tdi.

169. *Pyotr I ni ko‘rgan uchta taniqli odam bor edi.* – Shubhasiz, Badiiy akademiyaning prezidenti I.I. Betskoy (1704–1795), feldmarshal A.M. Golitsin (1718–1788) va S.X. fon Minich (1708–1783) yoki G.B. Tiyesenxauzen (1703–1789).

170. *Ushbu kun turli darajadagi jinoyatchilarining afv etilishi... belgilanadi* – 7-avgust kuni amnistiya to‘g‘risidagi qisman manifest e’lon qilindi (besh yildan beri qamoqda bo‘lgan va 600 rubldan oshmaydigan qarzlari bo‘lgan qarzdorlar va boshqalarning kechirilishi).

171. *Pyotr obrazini yaratuvchisi fikrlarini...* – Radishchev Falkonening niyatini to‘g‘ri anglati, u shunday deb yozgan edi: «Biz odamlarga qonun chiqaruvchi, o‘z mamlakati xayrixohining yanada chiroyli qiyofasini

ko'rsatishimiz kerak. Tabiat va odamlar uning oldiga u o'zining kuchli dahozi va matonati bilan yengib o'tgan eng qiyin to'siqlarni qo'ydilar.

172. *Didro* – 1773–1774-yillarda Sankt-Peterburgda bo'lganida Fal-konening ustaxonasiga tashrif buyurgan fransuz faylasufi va o'qituvchisi D. Didro.

173. *Senat tomonidan esa vatanning otasi deb atashadi*. – «Vatanning otasi» faxriy unvoni Senat tomonidan 1721-yilda, Shimoliy urush tu-gagandan so'ng Pyotrga topshirilgan. Monarxga «buyuk» deb nomlanish huquqini berish haqidagi Radishchevning mulohazalari Senat va Komis-siya tomonidan Yekaterina II ga «Buyuk», «Dono» va «Vatanning onasi» faxriy unvonlarini topshirish munosabati bilan 1767-yilda Yangi Kodeksni tuzishda va 1779-yilda Sankt-Peterburg zodagonlari tomonidan «Buyuk» unvonining berilishida (Yekaterina ikkala marta ham unga berilgan unvon-larni rad etgan) juda dolzarblikka erishdi.

174. *Jeneva fuqarosi bo'lishi...* – Gap J.-J.Russo haqida ketmoqda, U «Ijtimoiy shartnomasi»da Pyotrning shaxsiga noto'g'ri baho bergan va uning ko'pgina olib kirgan yangiliklarini noo'rin va bevaqt deb rad etgan.

175. *Vataningizdagи yovvoyi erkinlikning so'nggi alomatlarini ham yo'q qilgan*. – Odatda, bu g'oya Pyotr I davrida krepostnoylik huquqining kuchayganligi belgisi sifatida talqin etiladi, aksincha, «yovvoyi» erkinlik haqida gapirganda, Radishchev Don kazaklari armiyasining («Erkin Don») o'zini o'zi boshqarish tizimini yo'q qilishni nazarda tutgan.

176. *Lyudvig XVI ning namunasi...* – Fransiya inqilobining birinchi oy-laridagi voqealar shuni ko'rsatdiki, qirol istalgan hokimiyatini faqat isyon-kor xalq ta'sirida «ixtiyoriy ravishda» topshirishi mumkin.

177. *Aleksey Mixaylovich Kutuzov* – A.M. Kutuzov (1749–1797) – Radishchevning yoshlikdan eng yaqin do'sti. 1762-yilda ikkalasi ham Pa-jeskiy korpusiga yozilishdi, 1766-yildan Leysigda o'qishdi va 1771-yil 9-dekabrda Rossiyaga qaytib kelgandan keyin ular senatga kotib sifatida tayinlanishdi. Deyarli bir vaqtning o'zida, 1773-yil may oyida Radishchev, Kutuzov va ularning Korpusdagi o'rtog'i, Senat A.K. Rubanovskiy ar-miyaga safiga qo'shilishdi. 1775-yilda Radishchev Rubanovskiyning jiyani Anna Vasilyevnaga uylandi va bu, Kutuzovning so'zlariga ko'ra, do'stlarni ikki tarafga ajratib yubordi. Ammo, aksincha, yana bir izoh bor: sovuqchilik tushishining sababi Kutuzovning masonlar bilan yaqinlashishi bo'lgan (qarang: «Sayohat»dagi «Podberyozsi» va unga eslatmalar). Yetti yil davomida (1773–1780), hatto ularning o'zaro yozishmalari ham to'xtadi, bu 1781-yilda Radishchev tashabbusi bilan qayta tiklandi va endi yozishmalar «falsafiy» xarakterga ega edi. Kutuzovning do'stini diniy mistik g'oyalarga

undashga urinishi muvaffaqiyatsiz yakun topdi. Bu xuddi Radishchevning do'stiga yoshligidagi «Ushakov umr yo'li» haqidagi ma'rifiy g'oyalarga qiziqishlarini eslatib, unga ta'sir ko'rsatishga qilgan urinishing samarasiz bo'lgani kabi edi. Kutuzov uni o'qib bo'lgach, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: «Uning din va hukumat bilan bog'liq qoidalaring aksariyati mening tizimimga mutlaqo zid edi».

178. *Quruqlik Kadetlar Korpusida*. – Ushakov 1764-yillar atrofida *Quruqlikdagi Shlyaxta Kadetlari Korpusini* (dvoryanlar farzandlari uchun o'quv muassasasi) tugatgan, undan keyin imperator xonimning Davlat kobi G.N.Teplovda ish yurituvchi kotib bo'lib ishlagan. U orqali «yuksak nom»ga ega bo'lishning asosiy pog'onalarini bosib o'tgan va, o'z navbatida, muvaffaqiyat va undagi tezlik uning rahbariga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan (M. Ushakovning yorqin faoliyati va uning yuqori idoralardagi yutuqlari bo'lishi mumkinligi bilan bog'liq voqealar quyida keltiriladi).

179. *Riga Tijorat Xartiyasi nashrining yozishicha...* – Riga Savdo Xartiyasi 1765-yil 17-dekabrda nashr etilgan.

180. ...o'n ikki yigit – huquqshunoslik asoslari Kadetlar korpusida o'rganilganligi sababli, Leypsig universitetiga yoshlar yuridik fanlarni o'rganish uchun yuborgan, Yekaterina II o'zining taqdim etilgan ro'yxatdan eng yaxshi tayyorlanganlardan olti nafarini shaxsan o'zi tanlagan. Bular: Radishchev, Kutuzov, Rubanovskiy, Yanov («Do'stimga maktub...» ilovasiga qarang), P. Chelishchev, A. Rimskiy-Korsakov (yo'lida vafot etdi, Riga shahrida). Ularga zodagon oilalarining uchta nasli – knyazlar V. Trubetskoy va A. Nesvitskiy, graf Orloving qarindoshi V. Zinovyev, aka-uka Ushakovlar – Fyodor va Mixail (ixtiyoriy ravishda, ammo kuchli homiylik asosida), shuningdek, I. Nasakin qo'shildi. Bo'lajak talabalar uchun ko'rsatmani imperatorning o'zi tuzgan va mayor Y.F. Bokum «nazoratchi» etib tayinlangan.

181. *Bu haqdagi Gelvetsiyning fikri ham har soatda tasdiqlanadi*. – Bu yerda gap K.A.Gelvetsiyning «Aql to'g'risida»gi (1758) kitobidagi «III Mulohaza» deb nomlangan XVII bobi haqida ketyapti – «Barcha odamlarning despotizmga intilishi, bunga erishish vositalari va hukmdorlar uchun despotizmning xavfi to'g'risida».

182. *Leypsigda biznikini qorovulda saqlash haqida gapiryapman*. – Rus talabalarining Bokumga qarshi «isyoni» tarixi rus va sovet olimlari tomonidan ko'p marta ko'rib chiqilgan (M.I. Suxomlinov, G.P. Makogenenko va boshqalar); masalaning eng hujjatlari va batafsil yoritilishi A.I. Starsevga tegishli («Radishchevning universitet yillari». – M., 1956 va boshqalar).

183. *Mitava* – Kurlandiyadagi shahar (hozirgi Latvianing Yelgava shahri). Peterburgdan Petergof yo‘li bo‘ylab ketayotib, talabalar Bokunning dangasaligi tufayli juda sekin yurishdi, Peterburg gubernyasidagi Yamburg uyezdi qishloqlarida uzoq vaqt to‘xtashdi (bu hududning tabiatи, «past, botqoqli joylar» va boshqa bu yerlik dehqonlarning holatlari «***ga sayohatdan parcha...»dagi tasvirlarga aynan mos keladi). Keyinchalik, ularning yo‘li Narva, Riga, Mitava, Kyonigsberg, Dansig orqali o‘tdi. Leysigga yetib borilguncha yo‘l bosish to‘rt oy davom etdi. Xarakterli tomoni, Bokumsiz Radishchev, Kutuzov va Rubanovskiy ikki baravar tez orqaga qaytishdi.

184. *Drezzendagi rus vaziriga* – ya’ni Saksoniya sudidagi rus elchisi knyaz A.M.Beloselskiyga.

185. *Bizni juda yaxshi ko‘radigan odam bor edi...* – Bokum va universitet ma’muriyati bilan to‘qnashuvda rossiyalik talabalarning tarafini olgan va ularning jamoaviy shikoyatlarini Rossiyaga yetkazishni o‘z zimmalariга olgan bu odam universitetdagi repetitorlardan biri Avgust Vitsmann (u haqida yana: «Buyuk qalbli inson!...» deb ta’rif berilgan). Unga, kambag‘al odamga yo‘l xarajatlari uchun talabalar unga Nevitskiyning oltin soati hamda Kutuzovning tamakidonini berishgan va uni jamoaviy arznomalari bilan Rossiyaga yuborishga muvaffaq bo‘lishdi. Keyinchalik, Vitsman Rossiyada joylashdi, Sankt-Peterburgning adabiy va pedagogik hayotida ishtirok etdi. Umrining oxirigacha Radishchev Vitsman bilan do’stona munosabatlarni davom ettirdi (garchi u tergov paytida buni rad etgan bo‘lsa ham), unga «Sayohat»ning nusxasini berdi. Radishchev o‘z joniga qasd qilganidan so‘ng, Vitsman uning kenja o‘g‘li Afanasiyini tarbiyasiga oldi va 1805-yilda «Sayohat»dan «Takoz» bobiga «Severniy Vestnik» jurnalida anonim ravishda «Bir rossiyalikning qog‘ozlaridan parcha» nomi bilan «Sayohat»ning «Klin» bobiga nashr etildi. Albatta, bu jurnalni nashr etishda bevosita ishtirok etgan Vitsmannning xizmati bilan amalga oshirildi.

186. *Ushbu yarim kulgili va yarim achinarli ishning oxiri shunday qaror topdi...* – Hujjatlardan ko‘rinib turibdiki, Radishchev shaxsiy tafsilotlarda juda aniq, ammo u ba’zi muhim vaziyatlarni boshqacha bayon qiladi. Masalan, Nasakinning yuziga tarsaki tushirilgan epizod Trubetskiyning hibsga olinishidan ikki oy oldin sodir bo‘lgan, yozuvchi esa bu voqealarni teskari yo‘naltirib, ularni bir kun oldin sodir bo‘lgan deb tasvirlaydi. Ko‘rinishidan, bunday «noaniqliklar» Radishchevning oldiga qo‘ygan badiy va publisistik vazifasi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, u shunchaki bir narsani bilmas edi: aslida Ushakovning Nasakin haqidagi maktubi nafaqat Beloselskiyga, balki Sankt-Peterburgga ham yetib bordi va u yerdan

F. Ushakov va Nasakinni boshqa nemis universitetiga ko‘chirishga buyruq berildi; navbatdagi to‘qnashuvda Rossiyaga «asosiy bezorilar» – Ushakovlar, Chelishev va Nasakinlarni yuborish buyurilgan. Ushbu buyruqlarni Beloselskiy o‘zining «tinchlikparvarlik» harakati tufayli amalga oshirmadi. Va niroyat, Radishchev biron-bir narsa haqida jim turdi, albatta, ataylab: barcha tadbirlarda P.I. Chelishev eng faol rol o‘ynagan (hujjalarga ko‘ra u o‘zini «ayniqsa tajovuzkor» tutgan), ammo uning ismi matnda ham tilga olinmagan. Ayni paytda, Yekaterina II Chelishev haqida qandaydir narsani bilar edi, bu Radishchev va Chelishev «Sayohat»ni birgalikda yozishgan va nashr etishgan deb da’vo qilishga asos bo‘ldi; «Do‘stimga maktub...» munosabati bilan u Chelishevni Rossiyada fransuz inqilobining ikkinchi (Radishchevdan keyin) «vakili» deb atadi. Bizda hali hech qanday hujjat yo‘q, ammo haqiqat shundaki, 1788-yilda Radishchev jiddiy sabablarga ko‘ra – do‘sti haqida ehtiyyotkorlik bilan sir saqlashni boshladi. Matbuotda Radishchev «Sayohat» qo‘lyozmalarini aynan Chelishevga saqlashni ishonib topshirganligi haqidagi fikr ilgari surilgan edi, endi esa kitobni nashr etishda Chelishevning ishtiroki to‘g‘risida faraz uchun asoslar mavjud. Ammo, avvalo, gap shundaki, Radishchev bundan yigirma yil oldingi voqealar haqida ma’ruza emas, balki badiiy va publisistik asar yozgan.

187. *N.Y. Muravyovning rafiqasi va qaynisi bilan Leypsig orqali o‘tishiga to‘g‘ri keldi...* – Nikolay Yerofeyevich Muravyov (1724–1770) – harbiy va davlat arbobi, matematik va shoir. Uning rafiqasi Anna Andreyevna Muravyova (1804-yilda vafot etgan). Qaynisi – Aleksandr Andreyevich Volkov (1736–1788), dramaturg va yozuvchi.

188. *F...* – Fyodor Grigoryevich Orlov (1741–1796), Yekaterinaning ma’shuqi G.G. Orlovning ukasi, 1762-yilgi to‘ntarishning faol ishtirokchisi, undan keyin u Senat bosh prokurori bo‘ldi; birinchi rus-turk urushi va Chesmen urushi qatnashchisi. 1768-yil oxirida u Leypsigda taxminan ikki haftani o‘tkazdi. 1771-yilda Gelvetsiyning asari uning «sevimli kitobi» edi.

189. *Xushomadgo y Avgust va tilyog’lama Patronlar emas...* – Vergiliy va Goratsio, imperator Avgustning saroy shoirlari, ularga qarama-qarshi qilib respublikachi notiq Sitseron va satirik shoir Yuvenal (ehtimol Petroviy) qo‘yiladi.

190. *Bir vaqtlar eng makkor hukmdorlar tomonidan aldanib qolgan – ya’ni Kromvel tomonidan aldangan* (qarang: «Hurlik»). Davomida gap ingliz parlamenti tomonidan o‘limga mahkum etilgan Charlz I ning qatl etilishi va 1688-yilda parlament Yakov II Stuartni lavozimidan chetlatganida va Vilgelm III Oranskiyning taxtiga o‘tirganidagi to‘ntarish haqida ketmoqda.

191. *Fyodor Vasilyevichdan ayrilganimizdan beri o'n sakkiz yil o'tdi... –*
Ushakov 1770-yil 7-iyunda vafot etdi.

192. «*Jinoyatlar va jazolar to'g'risida»gi kitob muallifi – gap italiyalik pedagog-huquqshunos Chezar Bekkariy (1738–1794) haqida ketmoqda.*

193. *Imperator xonim Yelizaveta Petrovnaning hukmronligi... –* taxtga kelganida, Yelizaveta o'lim jazosiga imzo qo'ymaslikka va'da berdi va uni saqlab qoldi.

194. *Buyuk Aleksandr mana shunday vaziyatda bo'lган edi... –* Bu yerda miloddan avvalgi 330-yilda Aleksandr Makedonskiyga qarshi fitna uyuşhtirishda ayblangan qo'mondon Filotosning va 1602-yilda Genrix IV Navarrskiya qarshi fitna ishtirokchisi gersog Sh. Bironning qatl etilishlari nazarda tutilmoqda.

195. *Birinchi kitobiga taalluqli bo'lган xatlar... –* Ushbu maktublarda, ehtimol, F.G. Orlovga murojaat qilingan, gap Gelvetsiyning «Aql to'g'risida» kitobidagi faqat «Mulohaza I» deb nomlangan 1-bobi haqida ketmoqda.

196. *Bir haftalik kundalik.*

Birinchi marta – SOS, IV qism. – M., 1811-yil.

Yozilgan vaqt va noma'lum. 1949-yilgacha u 1780-yillar bilan sana qo'ygan yoki 1773-yillarga tegishli. So'nggi yilliklarga tegishli ko'p tad-qiqotchilar bu asarni 1790-yillarga oid, deb aytadilar. Matniy va uslubiy yaqinlik 1790-yil 27-iyuldagagi vasiyatnomaga yozilgan ilovaga va Ilyinsk yo'lida A.R. Voronsovga yozgan xatlariga mos keladi. «Kundalik» ko'proq ehtimol bilan 1791-yil, Radishchevning Tobolsk shahrida bo'lib, qarindoshlarini kutgan vaqtlariga to'g'ri keladi. 1791-yil 2-martda yozuvchining ukalaridan biri hamrohligida, Radishchevning (keyinchalik uning turmush o'rtog'iga aylangan) singlisi Y.V. Rubanovskaya Tobolskka kichik bolalarни olib keldi.

197. *Beverlini jazolashadi.* – Akademik nashrda tuzatilgan: «o'ynashadi ...» (играют – карают). Beverli – fransuz yozuvchisi B.J. Sorenning shu nomli dramasidagi qahramon (ruscha tarjima – Sankt-Peterburg, 1773).

198. *Volkova qishlog'i* Sankt-Peterburgning janubiy chekkasida joylashgan; shahar markaziga yaqinroq – 1756-yilda tashkil etilgan Volkovo qabristoni, u yerda 1802-yilda Radishchevning o'zi dafn etiladi.

199. «Daktiloxoreik qahramonning yodgorligi» asari.

Birinchi marotaba – SOS, IV qism. – M., 1811. P.M. Karabanovning «She'rlari» zikr qilinganiga asosan sana qo'yilgan (Sankt-Peterburg, 1801). Asar g'oyasi Trediakovskiyning «Telemaxida» haqidagi «Sayohat»da bayon etilgan fikrlari va rus she'riy tuzilishini yangilash zarurati bilan bog'liq.

Daktiloxoreik qahramon yodgorligi... «Telemaxida»ning sarlavha sahi-fasiga parodiya (Sankt-Peterburg, 1766, 1–2-jiddlar). Bundan tashqari, Trediakovskiyning o‘z asarlarini keng muqaddimalar, «oldindan ogohlantirishlar», «oldindan tushuntirishlar» va boshqalar bilan ta’minalashi, so‘zlardan, sinonim mashqlardan foydalanishi parodiya qilingan. «Yodgorlik»ning «sujeti»ning o‘zi Trediakovskiy qasidasining individual motivlari va mat-nining parodik tarzda ishlatalishiga asoslangan.

200. *Kotsebu A.-F.-F.* (1761–1819) – nemis yozuvchisi va dramaturg; «Otamning hayoti» hikoyasida (ruscha tarjima – M., 1798), «Kirish so‘zida» Kotsebuning so‘zlariga ko‘ra, u Burime tamoyilidan foydalangan: har bir bob go‘yo yozuvchiga uning do‘sti tomonidan oldindan berilgan so‘zlardan biri bilan bog‘liq. Ushbu tamoyil Radishchev tomonidan ham qo‘llaniladi.

201. *Sidengamov suyuq laudani* – bu uyqu tabletkasi.

202. *Kopore* – tuman shaharchasi, keyin Peterburg viloyatidagi qishloq (hozirgi – Sankt-Peterburg viloyati).

203. *Sayr paytida suhbatlar orqali ta’limot berish.* – Xuddi shunday o‘qitish usulidan Suqrot, Arastu va uning izdoshlari – faylasuflar-peripate-tiklar ham foydalanganlar.

204. *Finisto yorqin par...* – Bu yerda gap V.A. Levshinning «Rus ertaklari»dan Finist – yorqin parcha haqidagi, shahzoda Bova haqidagi, o‘g‘ri Fomka va o‘g‘ri Timon haqidagi ertaklar haqida ketmoqda.

205. *Rasinda yosh Ioazning obrazini ko‘rib, hayajonga tushgan Afaliya...* – J.Rasin tragediyasining qahramoni «Gofaliya» (rus tiliga «Afaliya» nomi ostida tarjima qilingan. – M., 1784) tushida taxtdan qulashi va yosh Ioazning shohlik taxtiga o‘tirishini ko‘radi.

206. *Riza* – bu yerda kinoya bilan kitobning «kiyimi», ya’ni muqova-siga ishora qilingan.

207. *Ch... ning ijodlari* – Radishchev M.D. Chulkovning asarla-ri, N.P. Nikolevning «Asarlar» to‘plamidagi 3-jiddida berilgan «Lirodi-daktik xabar» asari (M., 1796), A.V. Roznotovskiyning «Yangi qishloq xo‘jaligi» asari (1–7-qismlar. –M., 1794–1800), V.A. Levshinning «Pa-zandalik lug‘ati» (1–6-qismlar. –M., 1795–1797), P.M. Karabanovning «She’rlari» (Sankt-Peterburg, 1801), Volterning birinchi marta 1785-yilda nashr etilgan «Alzira» tragediyasining senzura ruxsati bo‘limgani tufayli chop etilmagan tarjimasи, «Iyerixon» deyilganda esa, aftidan K.A. Kondratovichning «Yosh qariya» to‘plamlarini (Sankt-Peterburg, 1769) nazarda tutgan.

208. *Gl... yoki So... dan sotib olish mumkin bo'lgan...* – Bu yerda gap Sankt-Peterburgdagi mashhur kitob sotuvchilari I.P. Glazunov va V.S. Sopikov do'konlari haqida ketmoqda.

209. «*Samoviy sayyora*» – po'stloqqa chizilgan surat, unda yulduz turkumlari ularning nomlariga mos keladigan chizmalar shaklida tasvirlangan: sherlar, suluk, echki, katta va kichik ayiq, ilon, gidra va boshqalar.

210. *Biz Kipr oroliga suzib keldik...* – Simbalda bu yerda va bundan keyin ham iqtibos keltirmaydi, balki «Telemaxida»ning o'zini aytib beradi.

211. «*Men bir gunohkorman, qayg'uga cho'kkani*» – bu mashhur «ruhiy qo'shiq».

212. *Bir paytlar soxta payg'ambar Valaam qilganidek...* – Muqaddas Kitobga ko'ra, sehrgar Valaam isroilliklarni bosib olganlarni la'natlash uchun moavitliklar tomonidan taklif qilingan, lekin Xudoning irodasi bilan u la'natlar emas, balki olqishlar aytgan.

213. *Noverr J.-J. (1727–1810)* – fransuz xoreografi, islohotchi va balet nazariyotchisi.

214. *Anjelini* – Angiolini G. (1731–1803), italiyalik xoreograf va xoreografiya san'atining islohotchisi. Raqib sifatida Angiolini va Noverr baletdagi fojiali pantomimaga alohida e'tibor berishdi.

215. *Gogartning Moma cho'tkasiga loyiq...* – Moma – satirik (yunonlarning satira va masxara xudosi Moma nomidan olingan).

216. *Inversiyani lotin tilidagi kabi, rus tilida ham qo'llash mumkin, deb o'ylardi.* – Lotin adabiy tilining o'ziga xos xususiyati – inversiya («so'zlarning o'rinni almashishi yoki odatdagidan boshqacha kelishi») – o'zaro sintaksistik (so'zlarning so'z birikmalari va gaplarga, sodda gaplarni esa qo'shma gaplarga birikishi) birikkan so'zlarni ajratishdan iborat. Trediakovskiy inversiyalarni juda kuchaytirilgan holda ishlatgan.

217. *Xuddi Klopshtok qanday o'qishni buyurganidek...* – Gap shoir va she'riyat nazariyotchisi F.G. Klopstokning «Nemis geksametri to'g'risida» risolasi haqida ketmoqda. Bu risola Klopstok (1724–1803), uning «Messiada» dostonining 1769-yilgi nashriga ilova qilingan. She'rnning «maktabdagiday» so'zni turoq bo'yicha dona-dona aytishga qarshi bo'lgan Klopstok «so'zlarni turoqlab» o'qish tamoyilini ilgari surdi.

218. *Spondeus* – bu ikki bo'g'inli turoq, unda ikkala bo'g'in ham urg'uli bo'ladi.

219. *Trivraxiya* – tribraxiy; ruscha she'riy bo'g'inlarida – barcha bo'g'inlar urg'usiz bo'lgan uch bo'g'inli turoq (uch bo'g'inli vaznlarda u ikki bo'g'inli turoq – pirrixiy kabi ishlaydi).

220. *Pandora qutisi* – yunon mifologiyasiga ko‘ra, xudolar birinchi ayol Pandoraning eriga kasalliklar, baxtsizliklar va illatlar bilan to‘ldirilgan idishni hadya etishgan; Pandora, qiziquvchanlik tufayli idishni ochadi, undan barcha ofatlar uchib chiqib ketadi va o‘sha paytdan beri insoniyatni qiy nab keladi.

221. *Hali o‘lchanmagandi dunyo aylanish vaqtি.* – Muqaddas Kitobga ko‘ra, yaratilishning to‘rtinchi kunida Xudo «kunni tundan ajratish uchun, vaqtlar, kunlar va yillarni belgilash uchun» yoritqich (quyosh)ni yaratgan («Musoning birinchi kitobi», 1-qism, 14–19-betlar); turgan gapki, Muqaddas Kitobda olamlarning ko‘pligi haqida gap ketmaydi.

222. *O, sen, mening suyukligim, so‘z,*

O, sen, mening ibtidoyimsan!

Sen azal menda bor, men senda,

Sen mensan, men esa sendirman. – «Dunyo avvalida So‘z bor edi va bu So‘z Xudo bilan edi va bu so‘z Xudo edi. Bu so‘z dastavval Xudoda bo‘lgan» (Injil, 1-bob, 1–2-betlar).

223. *Men esa o‘zimda tinaman, Xudo..* – «Va Xudo o‘z ishlarini yettinchi kuni tugatdi... va barcha ishlaridan yettinchi kuni dam oldi...» («Musoning birinchi kitobi», 2-bob, 2-bet).

224. *Ammo saodating ildizlarini*

Men sening o‘zingga joriy etaman. – Odamlar o‘z umidlarining amalgamoshishini Xudoning aralashuviga bog‘lamasliklari, balki o‘zlarining baxtsaodatlarini yaratuvchisi o‘zlar bo‘lishlari lozim, degan g‘oya «Sayohat»da yanada aniqroq bayon etilgan, u yerda qahramon xayolida Yaratganning ovozini eshitadi: «Sen nimani izlayapsan, ey bemulohaza bandam? Mening donishmandligim aqling va qalbingga kerakli narsalarni quygan...» («Bron-nitsa» bobii).

225. *Tublikning asosi mustahkam bo‘lsin...* – «Va Yaratgan aytdi: suv o‘rtasida bir asos paydo bo‘lsin va u suvni suvdan ajratib bersin» («Musoning birinchi kitobi», 1-qism, 6-b).

226. *Bolalarining quchoqlab.* – Anna Vasilyevna Radishchevadan to‘rt nafar farzand qolgan (uch nafar bola go‘dakligida vafot etgan).

227. *Men nur sari chiqdim va sen bilan...* – Gap «tabiiy holatdagи» odam haqida ketmoqda. Radishchev faylasuf-ma’rifatchilarning fuqarolik jamiyatlari shakllanishidan oldin odamlar cheksiz erkinlikka xosdir, ularning xatti-harakatlari faqat o‘z xohish-irodasi bilan boshqariladi, degan ta’kidlariga qo‘shiladi.

228. *Biroq nima bo‘g‘ar erkinligimni?* – Bu yerda va umuman 3–6-she’riy bandlarda, odamlar «ijtimoiy shartnoma» asosida birlashganda o‘z

xohish-istiklarini ixtiyoriy ravishda cheklash, fuqarolik jamiyatining har bir a'zosiga nisbatan bir xil adolatli qonun paydo bo'lishi haqida gap boradi.

229. *Ro'parada ko'zgu, qilich, tarozi* – bu yerda *ko'zgu* – Pyotr I farmoni bilan sudlarda o'rnatilgan uch tomonlama prizma; unda sudyalarga haqiqatni saqlash, qat'iy qonunlarga muvofiq hukm qilish to'g'risida eslatma yozilgan. *Qilich* – jazoning muqarrarligi, *tarozi* – adolatning ramzi.

230. *Halokat shirasidan hazar qilgusi* – bu yerda halokatga olib bora-digan jirkanch, nafratga loyiq holat nazarda tutilgan (pora berishdan nafratlanish).

231. *Va bu maxluqotning borlig'i dahshat* – bu yerda din haqida gap ketmoqda.

232. *Shahar hukumati osuda, sokin.* – «Sayohat»ning «Yajelbitsi» bobibagi ilovaga qarang.

233. *Ishonchni ardoqlar shoh hukumati...* – Din va avtokratiya jamiyatga birgalikda («ittifoqdosh») zulm qiladi, bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, deya da'vo qilgan holda, Radishchev cherkov va dunyoviy hukumat o'zaro hokimiyat uchun kurashmoqda deb hisoblagan Russo bilan bahsga kiri-shadi.

234. *Tabiiy qasoskorlik huquqidir* – bu o'z-o'zini himoya qilishning tabiiy qonuniga asoslangan qasos huquqi, uning oqibati o'zini himoya qilish va haqorat uchun jazo berish huquqidir.

235. *Bir fuqaro yanglig' uni qilar jalb...* – Xalq monarxni «ijtimoiy shartnoma»ni buzgan jinoyatchi sifatida baholaydi. «Avtokratiya to'g'risida»ga qarang. Monarx ustidan xalq sudini ifodalashda Radishchev o'ziga xos tarixiy misolga asoslanadi, ya'ni Angliya parlamentining qirol Charlz I ustidan sud jarayoniga (1600–1649, 1625-yildan hukmronlik qil-gan). Xalqning monarxga nisbatan ayblov nutqining bir qator fikrlari 1649-yil 20-yanvarda Charlzga berilgan ayblov xulosasini takrorlaydi.

236. *Qurollantirdim men misdan taroshlab* – bu yerda zambarak nazarda tutilmoqda.

237. *O'ylanding, menimas, o'zni Xudo deb* – ya'ni xo'jayin, deb.

238. *Uch qavatli tojni* – ya'ni uch baravar – Tiara, Rim papaning toji.

239. *Ilohiy asoni* – bu oliy darajali ruhoniylarning hassasi.

240. *La'nati chaqinni* – ya'ni la'natlangan chaqin, yong'in; 1520-yilda Lyuter o'zining cherkovdan chetlatilgani to'g'risida papa yorlig'ini olganda, uni ommaviy ravishda yoqib yuborgan.

241. *Soxta afvlarning ustidan kulib* – katolik ruhoniylari tomonidan keng sotiladigan indulgensiyalar, gunohlarning kechirilganligi haqidagi yorliqlar.

- 242 ...*doim barhayot* – abadiy mavjud, ya’ni Xudo.
243. *O’ndan bir solig’in* – bu cherkov foydasiga olinadigan soliq.
244. *Ikki yuzli xudoning ma’badi yopildi* – ya’ni urushlar to‘xtadi. Qadimgi Rim xudosi Yanus ikki yuzli odam sifatida tasvirlangan; urush paytida uning Rimdag'i ma’badining eshiklarini ochib qo‘yadi va tinchlik o‘rnatalishi bilan bu eshik yopiladi.
245. *Tarozida oltin – sharmanda tortiq...* – miloddan avvalgi 82-yilda Rim diktatoriga aylangan Sulla proskripsiya, ya’ni yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan odamlar ro‘yxatini tuzadi; mazkur o‘limga mahkum bo‘lganlarni o‘ldirgan yoki ularni sotgan kishi mukofot olishi mumkin edi.
246. *Mehribon dil bilan boshqarardik ham...* – Gay Yuliy Sezar Okta-vian (miloddan avvalgi 63-yil – milodiy 14-yil..) makkorlik va qon to‘kish orqali oliy hukumatgacha yetib borib, Rim imperatorligini qo‘lga kiritgan hamda Avgust deb nom olgan. 18-asr tarixchilarining fikriga ko‘ra, hukumatga ega bo‘lgach, Avgust mehribon va saxiy insonga aylangan.
247. *Tabiat qonuni shunday azaldan...* – Radishchev insoniyatning siklik rivojlanish nazariyasini spiral shaklida rivojlantiradi – «zulmdan erkinlik tug‘iladi, erkinlikdan – qullik».
248. *Umidga intilishga...* – Radishchev insoniyat tarixinining qonunlarini 18-asrdagi materializmning harakat tufayli materiyaning abadiy aylanishi haqidagi asosiy qoidalardan biri bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, Radishchev Russoning insoniyat tarixi uzuksiz xatoliklar zanjiridan iborat va tabiat qonunlariga ziddir, degan fikri bilan bahsga kiradi.
249. *Bir senga atalgay, sharafli o‘lka...* – Sho‘ir ingliz qiroli hukmronligini ag‘dargan Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqil respublikasini nazarda tutadi. Ammo tez orada bu otashin munosabat keskin salbiy yondashuv bilan almashtirildi, chunki Amerika burjua respublikasida qora tanlilar qulligi bekor qilinmagan edi (qarang: «Sayohat»ning «Xotilov» va «Vishniy Volochok» boblari).
250. *Ulug‘vorlik-la, – men kuylagan bugun* – ulug‘vorlik bu – ozodlik, erkinlik, inqilob.
251. *Qo‘riqchi qo‘yadi so‘zning ustidan* – kuchli nazoratga asoslangan senzurani tasdiqlaydi.
252. *Foniylarga* – bu yerda: odamlar, xalq.
253. *Ovoz, eng birlamchi sasi, Xudoni...* – sho‘ir yana dunyo yaratilish haqidagi Injil afsonasiga murojaat qiladi va monarxiya qulashi hamda inqilob g‘alabasini olam yaralishining birinchi kuniga qiyoslaydi.
254. *Saodatlar bilan qadrlanmoqqa bo‘lmadim doxil...* – Radishchev, shubhasiz, kontrabanda olib o‘tishga uringan «qurbanlar» hamda uning

hasadgo‘ylari tomonidan u haqida tarqalgan mish-mishlar va g‘iybatlarni nazarda tutgan.

255. *Yangiladi sokin, yoqimli uyqu Jismiy holatim...* – Oxirgi misralar nafaqat fikran, balki leksika nuqtayi nazaridan ham 1791-yil 15-martda A.R.Voronsovga yozilgan xat boshida takrorlangan.

256. *Uy ko‘rinishi bilanmas, Pirogi bilan go‘zal* – epigrafni ikki xil talqin qilish mumkin: tarixda boshqaruv shaklining tashqi ko‘rinishlari emas, balki uning mohiyati; she’riyatda shaklining o‘zi emas, balki jiddiy mazmuni (Karamzinga qarshi polemik hujum, u «Ruscha she’r»da yozilgan she’rini «bezak» deb atagan) muhim ahamiyatga ega.

257. *Salem* – Quddusning qadimiy nomi.

258. *Troya, Tir, Sidon hamda Karfaga, Troya yoki Ilion* – Kichik Osiyorodagi qadimiy qo‘rg‘on-shahar, Egey daryosi qirg‘oqlariga yaqin Troada yarimorolida, qirg‘oq qo‘ltig‘idan Dardanellaga chiqishda joylashgan.

259. *Omir* – Homer (eramizdan avvalgi VII asr) – qadimgi yunon shoiri, «Illiada» va «Odisseya» dostonlari muallifi. Qadimgi Gretsiyaga oid topilgan papirus qo‘lyozmalarining deyarli yarmida Homer asarlaridan parchalar keltirilgan. Homerning hayoti yuzasidan aniq ishonchli manbalar yo‘q. Biroq «Illiada» va «Odisseya»da keltirilgan voqealar eramizdan avvalgi VI asrga taalluqliligidan kelib chiqib, uning yashagan davri taxmin qilinadi va bugungi kunning ilm-fani Homerning yashash davrini eramizdan avvalgi VIII asr, deb belgilagan. Gerodotning so‘zlariga ko‘ra, Homer undan 400 yil oldin yashab o‘tgan. Notanish tarixchi o‘z yozuvlarida Homerni Kserksdan 622-yil avval yashab o‘tgan deya, uning yashash davri sifatida eramizdan avvalgi 1102-yilni ko‘rsatadi. Boshqa tarixchilar uni Troya urushi davrida yashab o‘tgan, deb aytadilar. Shu bois bugungi kunda uning tug‘ilgan davriga oid bir qancha sanalar va ularga asoslar ko‘rsatiladi. Homerning tug‘ilgan joyi ham aniq emas. Gellyi epigrammasiga ko‘ra, antik udumlarga ega bo‘lgan yettiha shahar uning tug‘ilgan joyi bo‘lishi mumkinligi yuzasidan bahs yuritiladi.

260. *Axilles va yoki Paridil Gektor, Axill yoki Axilles* – qadimgi yunon mifologiyasi personaji, Troya urushi ishtirokchisi, Homerning «Illiada» dostoni qahramonlaridan biri.

Gektor – qadimgi yunon mifologiyasida Troya taxti vorisi, Troya urushining jasur jangchilaridan biri. U janglarda «31 ming yunon jangchilarini» halok qilib, troyaliklar va ularning ittifoqdoshlariga yo‘lboshchi sifatida maydonga chiqadi.

261. *Gannibal Barka* (er.avv. 247–183-yillar) – Karfagen harbiy qo‘mondoni. Buyuk sarkarda va davlat arbobi hisoblanadi.

262. *Ular dono brahmanlar avlod*. – Gap Hindistondagi brahmanlar tabaqasidagi oilaga tegishli bo‘lib, XVIII asr oxirida asosiy qismi inglizlar tomonidan qo‘lga kiritilgan, qadimgi hindu tilida, Sanskrit (samskrit)da avloddan avlodga og‘zaki tarzda uzatilib kelinadigan qadimiy diniy madhiyalar – vedalar to‘g‘risida ketmoqda (veda madhiyalaridan biri «Yajurveda» deb nomlanadi, Radishchev uni «Yezurvedam» deb ataydi.

263. *Yezurvedada*: «Yezurveda» (*Yezurveda; Yezourvedam; Yezurvedam; Yezur-Ved; yezur Veda*) – italyan iyezuiti, Janubiy Hindistonda mashhur missioner Roberto de Nobili (1577–1656) uchun yozilgan matnning qalbaki nusxasi.

264. *Zoroastr* – Zardusht, taxminan uch yarim ming yil avval Amudaryo bo‘ylarida tug‘ilgan, yer yuzida birinchi marta yakkaxudolik dini bo‘lgan zardushtiylikka asos solgan. Axuramazda – ezgulik xudosi, Axriman esa yovuzlik ma‘budi. Ushbu dinni ko‘p olimlar ikkixudolik dini sifatida ham talqin qilishadi va ushbu din ta’limotiga ko‘ra ikki xudo – Axuramazda va Axriman o‘rtasida kurash ketadi va oxir-oqibat ezgulik xudosining qo‘li baland keladi. Lekin aslida bu din yakkaxudolikka asoslangan va Axuramazda xudo, Axriman esa unga qarshi barcha yomonliklarni ko‘taradigan kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

265. *Kir* – qadimgi Fors shohi (miloddan avvalgi 558–530), ulkan hududlarni Forsga qo‘sib olgan. Afsonaga ko‘ra, O‘rta Osiyoning masaget qabilalariga egalik qilishni istab, u massagetlar malikasi Tomirida (To‘maris)ga sovchi qo‘yadi; rad javobini olgach, u bu yurtga bostirib kirdi, shu vaqt ichida u o‘ldiriladi va boshi qon bilan to‘ldirilgan meshga solib qo‘yiladi.

266. *Yason* (*Yazon, Iason*) – fessalik siklidagi yunon mifologiyasi qahramoni. Argonavtlarning yo‘lboshchisi. Oltin yungni qo‘lga kiritish uchun Kolxidaga yo‘lga chiqqan. Yazon shoh Iolka Esonning o‘g‘li.

267. *Alkid* – Geraklga tug‘ilganda qo‘yilgan ism – Gerakl nomi shavkatli qahramon mazmunini berib, unga keyinchalik bu nomni u ma‘buda Geraning dushmanligi va Apollonning yo‘rig‘i bilan xizmatiga borishga majbur bo‘lgan Yevrisfey beradi (Gera unga tutqanoq yuboradi va o‘zini bilmay qolgan Gerakl o‘z bolalarini o‘ldiradi. Hushiga kelgach, qilib qo‘ygan ishidan nihoyatda qayg‘uga tushadi, ancha vaqt uyidan chiqmaydi, nihoyat Apollon yoniga maslahatga boradi. Apollon esa unga qarindoshi Yefresbeyning xizmatiga borishi lozimligini aytadi.) Gerakl – yunon mifologiyasi qahramoni, Zevs va Alkmenaning o‘g‘li. U Fivada dunyoga keladi va tug‘ilgandanoq o‘zining afsonaviy jismoniy kuchini namoyon qiladi.

268. *Calpe, Abila* – Gibraltar va Seuta, Gerkules (Alkid) tomonidan o'rnatilgan, degan afsonaga ega.

269. *Kodr* – Attika qiroli; doriylar unga bostirib kirganlarida, karomatgo'y ruhoniy Attika eng qadrdon, qimmatbaho narsasini qurban qilsagina, shaharni asrab qolish mumkinligini bashorat qilgan; Attika uchun eng qimmat narsa, bu adolatli podshoh ekanligiga qaror qilib, Kodr o'zini qurban qildi va vafotidan keyin (bu qurbanlik miloddan avvalgi 1068-yilga to'g'ri keladi) afinaliklar podshohlik hokimiyatini bekor qilishdi.

270. *Pizistrat* (Pisistrat), Gippokratning o'g'li (eramizdan avvalgi 602-yillar atrofida, Afinada tug'ilgan – 527-yilning bahorida o'sha yerda vafot etgan) – afinalik tiran, ya'ni hukumatni kuch bilan olgan odam, eramizdan avvalgi 560–527-yillarda hukmronlik qilgan (o'rtada tanaffus bilan). Pizistrat qadimiy Afina podsholigiga qarindosh bo'lgan taniqli oilada tug'ilgan.

271. *Likurg* – qadimgi yunon qonunshunosi, qadimiy yozuvchilar bir necha asrlar mobaynida Spartada hukmron bo'lgan siyosiy tuzumga qo'shimchalar kiritib kelishadi. Eramizdan avvalgi 800–730-yillarda yashagan.

272. *Dahshatli zamonlar keldilar yetib...* – Gap eramizdan avvalgi 500–449-yillardagi yunon-fors urushlari haqida ketmoqda.

273. *Miltiad* (eramizdan avvalgi taxminan 555–489-yillar) – afinalik harbiy sarkarda, eramizdan avvalgi 490-yilda Marafon yaqinida bo'lib o'tgan urushda forslar ustidan g'alaba qozongan. Yunonlar ularni bir marta dayoq hayratda qoldirgan sarkarda Datis boshchiligidagi fors qo'shnilar bilan kurashishlari lozim edi. Fors sarkardasi qirol Dariy I (eramizdan avvalgi 549–486-y.) topshirig'i bilan Gretsiyani yengish va bo'ysundirish uchun jo'natilgandi. Jang davomida Miltiad tushundiki, forslarning bunday katta miqdordagi qo'shini bilan an'anaviy harbiy strategiya naf bermaydi. U butanlay kutilmagan taktikani qo'lladi, fors qo'shnilarining safini buzib yubordi va g'alabaga erishdi.

274. *Lek umri tugadi chirkin zindonda* – Marafondagi buyuk g'alabasidan so'ng Miltiad eramizdan avvalgi 489-yilda Kiklad orollariiga safar tashabbusi bilan chiqadi. Maqsadi u yerni nazoratga olib, fors qo'shnilariga qarshi forpost tuzish bo'lgan. Birinchi galda afinaliklar Paros orolida qal'a ichidagi harbiy inshootni qamal qiladilar. Mana shu jangda u sonidan jiddiy yaralanadi. Bu yara yallig'lanib ketgani bois jiddiy davolnish zarurati tug'iladi.

Uning o'rnini egallaydigan strateg topilmagani bois, qamalning 26-kuni Afina eskadasi qamalni to'xtatib, orqaga qaytishga majbur bo'ladi. Bu

safar afinalik fuqarolarning puli hisobidan uyushtirilgan edi. Miltiadning hasadgo‘ylari va uni yoqtirmaydiganlar uni umumijamoa pulini maqsadsiz sarflashda ayblaydilar va buning evaziga u 50 talant jarima to‘lashga hukm etiladi. Jarima to‘liq to‘langunga qadar strateg Afina turmasiga tashlanadi. Bu yerdagi sharoit tufayli unda qorason kasalligi boshlanadi va bu uning o‘limiga sabab bo‘ladi. Uning o‘limi oldidagi iltimosiga binoan u Marafon tekisligiga dafn etiladi.

275. *Leonid* – agiadlar avlodidan, Sparta shohi, eramizdan avvalgi 491–480-yillarda taxtni boshqargan. Yunon-fors urushi qatnashchisi. Fermopil jangida halok bo‘lgan.

276. *Aristid* (taxminan eramizdan oldingi 530–467-yillar) – afinalik davlat arbobi, eramizdan avvalgi 500–449-yillardagi yunon-fors urushida sarkarda bo‘lgan.

277. *Anaksagor* (taxminan eramizdan avvalgi 500 yoki 428-yillar) – qadimiy yunon faylasufi. Antik an‘analarga ko‘ra, yoshligida u o‘ziga qoladigan juda katta merosdan voz kechgan va umrini falsafaga baxshida etgan. Anaksagor Periklning do‘satlari safida Afinada o‘rnashgan. Afinaning birinchi fuqarosi Anaksagorni yuqori baholagan, undan falsafa va nutq san’atini o‘rgangan. Periklning do‘satlari Anaksagorni xudosizlikda ayblashgan, sababi u quyoshni ilohiy ma‘bud emas, balki yonib turguvchi jism ekanini aytgan. Faylasuv Afinani tark etishga majbur bo‘lgan va Lampsakda yashay boshlab, o‘sha yerda, eramizdan avvalgi taxminan 428-yillarda vafot etgan.

278. *Alkiviad* (eramizdan avvalgi 450-y. Afinada tug‘ilgan va eramizdan avvalgi 404-yilda Frigiyada vafot etgan) – qadimgi Gretsiyada afinalik davlat arbobi, notiq, Peloponnes urushida sarkarda (eramizdan avvalgi 431–404-yillar).

279. *Pavsaniy, Klombrot o‘g‘li* (eramizdan avvalgi 467-y.) – yunon-fors urushi davrida Spartada polkni boshqargan. Shoh Leonidning o‘limidan so‘ng Fermopil janglarida uning o‘g‘li Plistarx muvaqqat podsho bo‘lgan. Pavsaniy umum yunon armiyasi boshida Plateyadagi jangda forslar ustidan g‘alaba qozongan. Forslarning uzil-kesil tor-mor etilishi nemis tarixchisi Ernst Kursius ta‘biri bilan aytganda, Elladaning qutqarilishi kuni bo‘ldi.

280. *Agesilay II* (taxminan eramizdan avvalgi 442-yilda tug‘ilib, 358-yillarda atrofida vafot etgan) – eramizdan avvalgi 401-yildan Sparta shohi bo‘lgan, lashkarboshi, siyosatchi.

281. *Pelopid* – fivlik davlat arbobi, Beotiya urushi davrida lashkarboshi (eramizdan oldingi 378–362-yillar). Badavlat va taniqli oiladan chiq-

qan, yaxshi tarbiya olgan; sabr-toqatga, oddiy hayotga o'rgatilgani tufayli, boylikka o'ch bo'limgan.

282. *Epaminond* (eramizdan avvalgi taxminan 410-yilda Fivada tug'ilib, 362-yilda Mantineyada vafot etgan) – qadimgi Gretsiyada harbiy va siyosiy arbob, Fiva va Bioteya ittifoqining rahnamosi, harbiy san'atning yuksalishiga katta hissa qo'shgan.

283. *Pella* – Makedoniyadagi shahar, Filippning tug'ilgan joyi, Makedoniya qirollarining qarorgohi.

284. *Romul* – antik an'analarning klassik versiyasiga ko'ra Romul va Rem eramizdan avvalgi 771-yilda tug'ilishadi. Rem eramizdan avvalgi 754/753-yillarda vafot etadi. Romul esa eramizdan avvalgi 716-yilning 7-iyulidan dom-daraksiz ketadi) – afsonaviy egizak aka-ukalar bo'lib, Rimga asos solishgan. Rivoyatlarga ko'ra, ular shoh Alba-Rong avlodidan bo'lib, u shohning qizi, kohina Reya Silviyadan tug'ilishgan.

285. *Mark Yuniy Brut* (eramizdan avvalgi 85-yilning qishida Rimda tug'ilgan – eramizdan avvalgi 42-yilning 23-oktabrida Makedoniyada, Filippda vafot etgan) – Rim siyosiy arbobi va Yuniylarning plebey naslidan bo'lgan harbiy boshliq. Gay Yuliy Sezarning qotili sifatida tanilgan.

286. *Publiy Goratsiy Kokles* – Qadimgi Rimning yarim afsonaviy qahramoni, eramizdan avvalgi VI asrda yashab o'tgani aytiladi. U Etruslar shohi Porsen bilan bo'lgan urushda Rim bilan bog'lab turadigan qoziq oyoqli ko'priki himoya qilgan. Goratsiy Koklesning jasorati haqida Plutark «Solishtirma hayotiy bitiklar» asarida to'liqroq ma'lumot beradi.

287. *Detsiy* – Gay Messiy Kvint Trayan Detsiy, Rim tarixida asosan Detsiy Trayan yoki Detsiy nomi bilan tanilgan – 249–251-yillarda Rim imperatori bo'lgan.

288. *Gay Mutsiy Ssevola* – Rimning afsonaviy qahramoni, o'smir. Uning yashagan davri Rim respublikasining dastlabki bosqichiga to'g'ri keladi.

Gay Mutsiy nomini sharaflaydigan qahramonligi quyidagicha: turli afsonalardan biriga ko'ra u, Rimni eramizdan avval mustamlakaga aylantirgan Etrussk shahri podshosi Kluziy Lars Porsenani o'ldirmoqchi bo'lgan. Gay Mutsiy «hech qachon hech qanday urushda yengilmagan va qaramlikni bilmagan Rim xalqining etrussklar tomonidan qaram qilib olinganligidan» qattiq iztirob chekadi. U Yanikul qoyasidagi dushmanlar lageriga yashirincha borib, Porsenani o'ldirishga harakat qiladi, ammo adashib, shohdan ko'ra hasham dorroq va chiroyliroq kiyingan va uning yonida o'tirgan mirzaga hujum qiladi. Yigitni tutib, shohning yoniga keltirishadi. U esa hech narsadan tap tortmasdan, mag'rurlik bilan shunday deydi: «Men Rim fu-

qarosiman, meni Gay Mutsiy deb atashadi. Men sening qarshingga ikki dushman yakkama-yakka chiqqani singari keldim va o'ldirishga tayyor bo'lqanim kabi, o'limga ham tayyorman: rimliklar qarab o'tirmaydilar, ular harakat qilishni ham, vatan uchun jafo chekishni ham uddalaydilar». Shundan so'ng Gay Mutsiy Rimning har bir yosh farzandi yakkama-yakka kurashga tayyor ekanini e'lon qiladi. Porsena, bunday mag'rur so'zlar va unga tushunarsiz bo'lgan tahdid ostida nima yashiringanini bilmoq istagida sinov uchun gulxan keltirishni buyuradi. Shunda Mutsiy tantanali tarzda shunday deydi: «Bilib qo'y, buyuk sharafni o'ylagan odam uchun tanning qiymati hech narsa emas!» – u shunday deya o'ng qo'lini gulxan ustiga qo'yadi va go'yo hech nasani his etmaganday, uni kuydiradi. Bunday jasoratdan hayratga tushgan shoh Gay Mutsiyni qo'yib yuboradi. Keyinchalik, kuyish oqibatida o'ng qo'lini yo'qtgan Gay Mutsiy Ssevola (chap qo'l) nomini oladi. Porsena esa qamalni to'xtatadi va Rim yerlarini tashlab ketadi.

289. *Agrippa Meneniy Lanat* (eramizdan avvalgi 493-yilda vafot etgan) – Rim siyosiy arbobi, eramizdan avvalgi 503-yilda konsul bo'lgan.

Tit Liviyning ma'lumotiga ko'ra Meneniy plebeylardan kelib chiqqan. U oxirgi shohlar avlodiga mansub bo'lishi mumkin va u senat tarkibiga kiradi.

290. *Lutsiy Kvinksiy Sinsinnat* (taxminan eramizdan avvalgi 519-yilda tug'ilgan va 439-yildan keyin vafot etgan) – qadimgi Rimda harbiy boshliq, konsul va diktator (eramizdan avvalgi 458 va 439-yillarda). Rimliklar orasida o'zining saxovatliligi va oddiyligi bilan Rim respublikasining dastlabki bosqichlaridagi qahramon sifatida tanilgan.

291. *Gay Yuliy Kamilliyy Asper* – III asrning birinchi yarmida Rimda davlat arbobi sifatida faoliyat olib borgan.

292. *Brenn* – miloddan avvalgi 388-yilda ulkan qo'shin bilan Rim mulkiga bostirib kirgan Yuqori Italiyadagi Gallar qabilasi – senonlar yetakchisi.

293. *Fabritsiy* – Fabritsiy taniqli bo'lman, kelib chiqishi ham rimlik bo'lman qashshoq oiladan chiqqan. Tug'ilishi taxminan eramizdan avvalgi 313-yillarga to'g'ri keladi. Miloddan avvalgi 306-yildan keyin uning oilasi Gernika yerlaridan Rimga ko'chib o'tgan bo'lishi mumkin. Chunki o'sha davrlarda Gernikaning aksariyati Rim fuqaroligini olishga majbur bo'lgan. U Fabritsiylardan birinchi bo'lib eng yuqori lavozimlarga erishgan, u miloddan avvalgi 280-yilgacha Senatda yetakchi lavozimlarga ko'tarilgan. Miloddan avvalgi 282-yilda Fabritsiy o'zining birinchi konsulligini olgan; uning hamkorи patritsiy Kvint Emil Pap bo'lgan. Fabritsiy shu

yili Furya shahrini lukanlar va bruttlardan himoya qildi. Katta jangda u dushmanni butunlay mag‘lubiyatga uchratdi, oqibatda 20 ming kishi halok bo‘ldi va 5 ming kishi, shu jumladan qo‘mondon Statsiya Statiliya ham qo‘lga olindi. Keyin konsul isyonchi Kampan legioni tomonidan qo‘lga kiritilgan Regiyada tartibni tiklaydi; u asosiy isyonchilarni Rimga qatl etish uchun yuboradi. G‘alabalari uchun Fabritsiy yuqori unvonlar bilan taqdirlanadi.

294. *Gannibal Barka* (miloddan avvalgi 274–183-yillar) – Karfagen harbiy qo‘mondoni.

295. *Fabi* – Kvint Fabiy Maksim Kunktator yoki Kvint Fabiy Maksim Verrukoz (miloddan avvalgi 203-yilda Rim respublikasi, Rim shahrida vafot etgan) – qadimgi Rim harbiy qo‘mondoni va patritsiylar avlodidan siyosiy arbob, besh marta konsul bo‘lgan (miloddan avvalgi 233, 228, 215, 214 va 209-yillar).

296. *Publiy Korneliy Ssipion* (miloddan avvalgi 235-y., Rim – miloddan avvalgi 183-yil, Litern) – Rim harbiy qo‘mondoni, siyosiy arbob, miloddan avvalgi 205 va 194-yillarda konsul. Harbiy yuksalishni u miloddan oldingi 218-yilda boshlagan. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, 216-yilda Kanna urushida omon qolgan askarlarning qomondoni bo‘lgan.

297. *Mark Porsiy Katon* (miloddan avvalgi 234–149-yillar) – qadimgi Rim siyosatchisi va yozuvchisi, Rim adabiyotining islohotchisi va illat hamda hashamadorlikka qarshi kurashchi sifatida ma’lum.

298. *Numansiya* – Ispaniyadagi shahar, miloddan avvalgi 133-yilda Kichik Ssipion tomonidan olingen va vayron qilingan.

299. *Gay Mariy* (158/157 – 13-yanvar, miloddan avvalgi 86-yil) – Qadimiylar Rim sarkardasi va davlat arbobi. Yetti marta konsul lavozimini olgan, jumladan, eramizdan avvalgi 104–100-yillar ketma-ket ushbu lavozimda o‘tirgan. Rim armiyasini qayta tashkil qilgan, Yugurtin urushi ni g‘alabaga qadar olib borgan (eramizdan avvalgi 105-yil), ikkita jangda Italiyaga bostirib kirmoqchi bo‘lgan german qabilalarini tor-mor qilgan. Natijada miloddan avvalgi II asrning oxirgi yillarida Rimda u eng qudratli insonga aylangan.

300. *Sulla – Lutsiy Korneliy Sulla Omadli* (eramizdan avvalgi 138-yilda Rimda tug‘ilgan – 78-yilning martida Putiolada vafot etgan) – qadimgi Rimda davlat arbobi va harbiy qo‘mondon, «qonunlarni yozish va Respublikani mustahkamlash» bo‘yicha muddatsiz diktator, konsul, imperator, tashkilotchi. Rimni kuch bilan ikki marta olgan birinchi rimlik. Ajdodlar

xotirasida beshafqat tiran, chegarasiz hukumatidan o‘z xohishi bilan voz kechgan odam sifatida qolgan.

301. *Mifridat* (Mitridat VI Yevpator, miloddan avvalgi 121–81-yillar) – Avgustin Mitridatni Osiyo shohi deb atagan.

302. *Unga qarshi bosh ko‘tardi Farnas (Parnak)* ... – Mitridat Rimdan yengilgach, ortiga qochishga majbur bo‘ladi. Miloddan avvalgi 65-yilda u Rim sarkardasi Pompeyga tinchlik sulhini tuzish uchun echi yuboradi. Ammo Pompey uning taklifini qabul qilmay, so‘zsiz taslim bo‘lishni tabab qiladi. Mitridat rimliklarga qarshi yangi yurishga keng miqyosda tayyorlana boshlaydi. Rimliklarning dengizni qurshab olgani tufayli qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo tanazzulga yo‘l tutgandi. Mitridat, Gannibal kabi Italiyaga ittifoqdoshlarning yeri orqali o‘tishni rejalashtiradi, yo‘lda ularning yordami bilan katta armiya to‘plashga muvaffaq bo‘ladi.

Ammo uning qo‘s Shinida tartibsizlik yuzaga keladi, ayrim qabila vakillari Italiyaga yurishni davom ettirishni istashmaydi. Fanagoriya, keyin esa Xersones, Feodosiya, Nimfey Mitridatga qarshi bosh ko‘taradi. Bu orada Mitridat atrofida unga qarshi va o‘g‘li Farnak foydasiga fitna uyushtiriladi. Fitna fosh etilib, Farnak qo‘lga olinadi, lekin strateg Menofan uni qo‘yib yuborishga shohni ko‘ndiradi. Shundan so‘ng Fernak otasiga qarshi ochiq isyonga chiqishga qaror qiladi. Mahalliy qo‘s Shin va Pantikapeydagi rimlik qochoq xoinlar o‘g‘lini qo‘llab bosh ko‘tarishadi, hatto unga toj kiydirishga ham ulgurishadi. Buni ko‘rgan shoh zahar ichib o‘z joniga qasd qiladi. Ammo bolalikdan toblangani uchun zahar unga to‘liq ta’sir qilmaydi. Shunda u o‘z tansoqchisidan va do‘sti gal Bitoitdan uni qilich bilan o‘ldirishni so‘raydi.

Uning o‘limini eshitgan, o‘sha paytda Pyotrda yurishda bo‘lgan Pompey juda xursand bo‘ladi, Amisga qaytgach, Farnakdan hadyalar oladi, ular orasida Mitridatning jasadi ham bor edi. Pompey unga qarashni istamaydi va jasadni Sinopga jo‘natishni buyuradi.

303.... *Bizning davrimizda Robespyer faqat.* – Radishchev Sullani Robespyer bilan taqqoslashi mumkinligining boisi shu ediki, u surgunda yakobchilar diktaturasi to‘g‘risida ma’lumot olgan bosma manbalarda Robespyer diktatorlik hokimiyatini noqonuniy tortib olgan qonxo‘r va yovuz maxluq sifatida tasvirlangan. Bundan tashqari, Robespyer siyosiy faoliyatining alohida epizodlari – «quturgan»larni jazolash (J. Ru va boshqalar), ebertistlar (J.R. Eber, A. Kloots va boshqalar), chap qanot yakobinchilar (P.G. Shomett va boshqalar) – hatto G‘arbiy Yevropa va Rossiyaning ilg‘or doiralarida ham salbiy munosabatni keltirib chiqardi.

304. *Vakx* – qadimgi Rim mifologiyasida olimpiyachilarning kenjası, uzumchilik, sharob ishlab chiqarish ma’budi, tabiat ishlab chiqaruvchi kuchi, ilhom manbayi, bu yerda kayf-safo ma’nosida berilgan.

305. *Katilinaning* (Lutsiy Dergiy Katilina, miloddan avvalgi 108–62-yillar) – Rim siyosiy arbobi, respublika tuzumiga qarshi uyushtirilgan fitnaning tashkilotchisi.

306. ... *Sulla juda ko’p ko’rsatishi mumkin Mariyni sizga* – Plutarxning so’zlariga ko’ra, Sulla yosh Sezarni o’ldirmoqchi edi, ammo unga Sezarning hali yoshligini aytishdi.

307. *Gay Yuliy Sezar* (eramizdan avvalgi 100-yilning 12-iyulida tug‘ilgan, 44-yilning 15-martida vafot etgan) – Qadimgi Rimda davlat va siyosiy arbob, sarkarda, yozuvchi. Miloddan avvalgi 59, 48, 46, 45 va 44-yillarda konsul, 49, 48–47 va 46–44-yillarda diktator, miloddan avvalgi 63-yildan buyuk pontifik, ya’ni pontifiklar kollegiyasining rahbari. Eramizdan avvalgi 753–712-yillarda bu lavozim shohlarga tegishli bo‘lgan.

308. *Monteskyo siz haqda hukm qilsin, mayli.* – Keyingi 14 satr Monteskyo traktatining XII bobidagi Katon va Sitseronni taqqoslaganining she’riy tartibidir.

309. *Gay Yuliy Sezar Oktavian Avgust* (miloddan avvalgi 63-yil 23-sentabrda Rimda tug‘ilgan, milodiy 14-yil 19-avgustda Nolada vafot etgan) – qadimgi Rim siyosiy arbobi, Rim imperiyasi asoschisi. 13 marta konsul lavozimini olgan, miloddan avvalgi 12-yildan eramizga qadar buyuk pontifik, miloddan avvalgi 23-yildan tribuna vakolatini olgan, miloddan avvalgi 2-yildan «vatan otasi» unvoniga ega bo‘lgan.

310. *Oxirgi rimlik deb ataladigan.* – Tarixchi Kremutsiy Kord o‘zining «Annallar»ida Brutni maqtagan va Kassiyni «oxirgi rimlik» deb atagan, buning uchun u 25-yilda Senat tomonidan sudga berilgan va o‘z joniga qasd qilgan.

311. *Tilyog ‘lamachilar yo sen yollagan* – Radishchev shunday deb Avgust va Metsenatga yaqin bo‘lgan shoirlarni – Kvint Goratsiy Flakk (miloddan avvalgi 65–8-y.) va Publiy Virgil Maronni (miloddan avvalgi 70–19-y.) ataydi.

312. *Tiveriy – Tiberiy Yuliy Sezar Avgust* (Tiberiy Klavdiy Neron o‘g‘li, miloddan avvalgi 42-yilning 16-noyabrida tug‘ilgan, milodiy 37-yil 16-martda vafot etgan) – 14-yildan boshlab Yuliy-Klavdiy shajarasи bo‘yicha Rimning ikkinchi imperatori.

313. *Ssilla (Skill)* va *Xaribda* – qadimgi Rim mifologiyasida dengiz maxluqotlari. Afsonalarga ko’ra Skill va Xaribda uning yaqinidan suzib o‘tgan har qanday jonzotga o‘lim xavfini tug‘dirar edi. Odisseyda Xarib-

da quyilish joyida joylashgan dengiz ilohi sifatida ta'riflanadi, aytılıshiga ko'ra uning ostidagi suvosti qoyasi bilan Skillä ostidagi qoya orasida muntazam bir-biriga qarab o'q uchib turar ekan.

314. *Shunday uqtiradi o'lmas bir inson...* – Radishchev bu yerda Monteskyoning traktatiga murojaat qiladi.

315. *Uzoqlashib ketdi u Kaprey tomon...* – Hayotining so'nggi o'n bir yilini Tiberiy Kaprea (Kapri) orolida o'tkazadi.

316. «*U ozod bo'ldi*» – Tatsitning «Annallar» kitobidan olingan. VI kitob, 23-bob.

317. *Tiveriy o'zining jirkanch hayoti Vahshiylilik ichida topdi yakunin.* – Aytishlariga qaraganda hushini yo'qotgan Tiveriyni o'ldi, deb hisoblashgan; u ko'zini ochganda esa uning boshiga kiyimlarni yopib, bo'g'ib o'ldirishgan.

318. *Kaligula – Gay Yuliy Sezar Avgust Germanik* – shuningdek, Kaligula taxallusi bilan tanilgan (12-yilning 31-avgustida Ansiyda tug'ilgan – 41-yilning 24-yanvarida Rimda vafot etgan) – Rim imperatori (37-yil 18-martdan), Yuliy-Klavdiylarning uchinchi nasli. Kaligula Tiberiyning merosxo'ri bo'lган, barvaqt vafot etgan Germanikaning uchinchi o'g'ли. Kaligulaning katta akalari imperator hovlisidagi fitnalarning qurboni bo'lishgan, Kaligula yoshligi va qarindoshlarining himoyasi ostida omon qolgan. Tiberiyning vafotidan so'ng Makronning yordamida imperatorlik taxtiga o'tirgan. Saroy to'ntarishi oqibatida yaqin safdoshlari tomonidan o'ldirilgan. O'z boshqaruvi bilan Kaligula zamondoshlari va avlodlar yodiда shafqatsiz, aysh-ishratga o'ch tiran sifatida qolgan.

319. *Tiberiy Klavdir Sezar Avgust Germanik* – Druzning o'g'ли, 41–54-yillarda taxtni boshqargan.

320. *Va shunda Arriya o'tkir po'latni o'z ko'ksiga sanchdi va dedi dadil...* – Arriya (42-yilda vafot etgan) – Rim konsuli, Klavdiy o'limi uchun Skribon fitnasi ishtirokchisi Avl Setsina Petning xotini. Arriyaning tarixi uning neverasidan olingan ma'lumotga ko'ra Kichik Pliniyning Nepotga yozgan xatida aks etgan.

321. *Neron* (37–68-yillar, asl nomi Lutsiy Domitsiy Agenobarb) – Rim imperatori, Yuliy – Klavdiy avlodining so'nggi vakili.

322. *Klavdiy Yuliyning so'nggi tarmog'i.* – Neron Yuliy-Klavdiy naslining so'nggi vakili ekaniga ishora.

323. *Tatsit shunday deydi...* – Radishchev Tatsitning Domit davri haqidagi so'zlarini nazarda tutadi: «Oxiri yo'q ta'qiblar bizning muloqot qilish, fikrlarimizni ifoda etish va boshqalarni tinglash imkoniyatlаримизни оlib

tashladi. Agar bizning yurtimizda unutish ham jim yurish kabi bo‘lganida, biz allaqachon xotiramizni yo‘qotgan bo‘lar edik».

324. *Bizning asrimiz bu baxtli asrdir...* – Tatsitning «Tarix»idan iqtibos (1-kitob, 1-bob), unda muallif Nerva va Trayan boshqaruvi davrida: «Har bir odam o‘z istagan narsasini o‘ylashi va o‘ylagan narsasini gapirishi mumkin bo‘lgan, kamdan kam uchraydigan baxtli davr», deb yozgan.

325. *Ko‘p aziyat bilan u Antinoyning abadiylashtirmoq uchun nomini* – Imperator Publiy Eliy Trayan Adrianning farzandi bo‘lmagan. 117–138-yillar taxtni boshqargan. U Antinoy ismli o‘smir bolani asrab olgan va uni juda yaxshi ko‘rgan. Antinoyni hamisha o‘zi bilan olib yurgan. Ular Misorda ekanliklarida Antinoy Nil dayosiga cho‘kib ketgan. Uning cho‘kib ketish sababi hanuzgacha sirligicha qolmoqda. Adrian Antinoyning o‘limidan qattiq alam chekkan va uning sharafiga juda ko‘p binolar bilan birga alohidada shahar, Antinopolis yoki Antinopolni qurdirgan.

326. *Mark Avreliy Antonin* (121-yil 26-aprelda Rimda tug‘ilgan, 180-yil 17-martda Vindobonada vafot etgan) – Rim imperatori, taxtni 161–180-yillar boshqargan, Antoninlar avlodidan, faylasuf, keyingi stotsizm namoyandasi, Epiktet izdoshi. So‘nggi eng yaxshi imperatorlardan biri hisoblangan.

327. *Ushbu tobut ichra turgay yashirin Mark Avreliy bilan Rim saodati* – Kommodning boshqaruvi davrida Rim imperiyasining inqirozi boshlandi va salkam yuz yilga cho‘zildi; Kommodning o‘limidan so‘ng imperiyaning turli joylaridan imperatorlikka to‘rt nafar da‘vogar chiqqan, bu esa fuqarolar urushini keltirib chiqardi.



Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

Aleksandr Nikolayevich Radishchev

PETERBURGDAN MOSKVAGA SAYOHAT

Qissa

Nashr uchun mas'ul *Azimboy Boboniyozov*
To'plab, nashrga tayyorlovchi *Toshpo'lat Mirzayev*

Muharrir *T. Mirzayev*

Badiiy muharrir *B. Zufarov*

Texnik muharrir *L. Xijova*

Musahhih *Sh. Beknazarova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Kompyuterda sahifalovchi *S. Aziztoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.
Bosishga 2021-yil 25-avgustda ruxsat etildi. Bichimi 60'90^{1/16}.
Offset qog'ozi. «Times New Roman» garniturasida
offset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 28,5.
Nashr tabog'i 27,92. Adadi 10000 nusxa.
Buyurtma № 21-319.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz



32 371,35 cym





A.N. Radishchev

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7333-5-0

A standard linear barcode representing the ISBN 9789943733350.

9 789943 733350